

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

O‘TKIR HOSHIMOV
TOG‘AY MUROD

27

84 O-90

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

O‘TKIR HOSHIMOV
TOG‘AY MUROD

27

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.133-31
KBK 84(5O')-44
O' 90

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Luqmon Bo'rixon, Ma'suma Ahmedova, Farrux Jabborov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.


Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.




ISBN 978-9943-8569-4-3

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

O‘TKIR HOSHIMOV





O'TKIR HOSHIMOVNING TAFAKKUR DUNYOSI

Zamonaviy o'zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan ijodkor ko'ngil tovlanishini obrazli tasvirlashga, o'quvchining tasavvurini boyitishga sazovor bo'lgan. O'tkir Hoshimov ko'p qirrali san'atkor bo'lib, hikoya, qissa, roman, drama, tarjimalari bilan inson fitratining sirli sathiga nigoh tashlagan.

Adib asarlarini qamroviga ko'ra milliy va umuminsoniy ko'lamda baholash ular xususiyatini to'ldirib boradi. Milliy tafakkurni namoyon etishda ijodkor an'ana, qadriyatni matn negiziga singdirib boradi. Andisha, lafz, uyat, ibo yanglig' fazilatning milliy xarakterda uyg'unlashuvi tasavvurni boyitadi. Umuminsoniy mohiyatni diniy, dunyoviy, ma'naviy, estetik qarashlar tizimida yoritish muayyan qarashlarni qat'iylashtiradi. O'tkir Hoshimov asarlarida inson tiynatidagi ezgulik, mardlik, bag'rikenglik tuyg'ularining talqini turli millat-u din sohiblarini buyuk maslak, niyat doirasida birlashtiradi.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida ona siymosining oila, mahalla, jamiyatdagi faoliyatiga nigoh tashlanib, kishilar bilan munosabatida mehr-muhabbat, oqibat, o'zbek ayoliga xos hayo-ibo, bolajonlik tabiati yoritib borilishida boshqa qahramonlarning ham hissasi katta. Ota-ona, farzand, qarindosh, qo'shni halqasi ishonch, tayanch xislatidan oziqlanadi. Bu kabi obrazlar qissa silsilasidagi zanjirni mustahkamlaydi. Bosh qahramon haqidagi tushuncha va tasavvurlarni to'ldiradi, izohlaydi. Qissa mazmun-mohiyatini anglashda obrazlar uyg'unligi muhim omil sanaladi.

Asarda xarakter darajasiga ko'tarilgan ona siyratidagi oliyjanob fazilatlar talqini umuminsoniy ahamiyat kasb etishi anglashiladi. "Dunyoning ishlari" qissasida ayol, ona, yor xususiyati uyg'unlashib, siyratdagi hayo, sadoqat, muruvvat tuyg'ulari turli lavhalar zamirida ayonlashib boradi. Adib farzand tarbiyasidagi sabrlilik,

oqilalik, fidoyilikni hayotiy motivlar bilan uqtirib boradi. Oila, mahalla jamiyatda ayol o'rni, darajasi, kayfiyati manzarasida oriyatli, mehrli, qanoatli o'zbek onasi gavdalanadi. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasida onani xarakter darajasiga ko'tarib, unda o'zbek volidasiga xos barcha chizgilarni mujassam ayladi.

Adib "Bahor qaytmaydi" qissasiga Abdulla Oripovning "Ketmoqdaman" she'rini kiritadi. Bu asar qahramoni Alimardon tomonidan aytilar ekan, samimiylik, soflikdan yiroqlashib, tubanlikka yaqinlashgan kimsa vaziyatini tiniqlashtiradi.

Yaxshi qol, ey, dilbarim dilda kadar ketmoqdaman,
Ishq aro endi holim zer-u zabar ketmoqdaman.
Na ishonch-u, na quvonch-u, na ko'nguldan ochma gap
Barchasidan ushbu kun yo'qdir samar, ketmoqdaman.

Obraz mantig'iga monand satrlar ruhiy holat darajasini asta balandlab boradi. Aql yo'rig'iga bo'ysunmay, hoy-u havas, shon-u shuhrat asiriga aylangan erkak nafs sirtmog'iga bo'yin egadi. Yo'l motivi o'zlikdan ayrilish, mayl, istak qurboni bo'lish, barchasidan voz kechish nuqtayi nazaridan belgilanadi. Qahramon kolliziyalar qurshovida o'zga manzilni ixtiyor aylasa ham ishq, vafo bobidagi zabunligini tan oladi. "Ketmoq" so'zi zamirida xudbinlik, takabburlik illatidan haqiqat manziliga intilishga ishora beriladi.

"Bahor qaytmaydi" asari matniga dramatizm unsurlarining singdirilishi ifoda yo'sinini kengaytiradi. Yoshlar taqdiridagi burilish onlari dialog-u monologlar mehvarida reallashadi. Badiiy obraz fitratidagi hurlik, ozodlik tuyg'ularini anglash jarayoni kolliziyalar kesimida yuzaga chiqadi. Insonning shariflik maqomiga erishishdagi sinov onlari sujet voqealarini taranglashtiradi. Oilaviy baxt borasidagi axloqiy qarashlar tizimida adolat, burch, jasorat tushunchalari muqoyasa etiladi. Adib jamiyatdagi qusur-u nohaqlikni sharhlashda turli soha, kasbga doir lavhalarni matn negiziga singdiradi. Bu usul qahramon tafakkuridagi o'zgarishlarga monand parallel taqdim etiladi. Matn tarkibida ba'zi lirik parchalar ruhiyat tebranishini ta'sirli bayon aylaydi. Epik polotnoda lirizm, dramatizmga doir tasvirlar sintezi badiiy tizimni mukammallashtiradi.

O'tkir Hoshimov asari videofilm bo'ldi, teatr sahnasida qo'yildi. Alimardon — iste'dodini maishat-u boylikka boy bergan san'atkor bo'lib, nafsi qurboniga aylanadi. Ma'naviy qadriyatni his etmaslik, harom tushunchasini anglamaslik qahramonni tanazzulga yetaklaydi. Bu yozuvchi asarida lirizm, shoirona tasvir — uslubdagi yangilik kitobxonni jalb etadi. Xarakter mohiyatini, ruhiy kechinmalarini ta'sirli yoritishdagi usul samara beradi.

O'tkir Hoshimov ijodida urush mavzusiga alohida e'tibor beriladi. Urushni haqqoniy tasvirlash, uning tuganmas asoratini anglatish oson emas. Urush mavzusida ko'plab qissa, roman yozilgan. Boisi, urushda qatnashish boshqa-yu, jang ishtirokchilari ruhini his qilish, muhimi anglangan va his qilinganlarni mardona, mohirona aks ettirish ancha murakkab. Ularda yozuvchining qalb azobi, kitobxonni bezovta qiladigan dard bo'lishi kerak.

Uning "Ikki eshik orasi" romanida ikkinchi jahon urushi davridagi ijtimoiy muammolar teran yoritilib, shijoatli, bag'rikeng o'zbek xalqi oqibat-u muruvvati madh etiladi. Asarda shuningdek, urush ortidagi turli tabaqaga mansub kishilarning murakkab turmushi sahifalarida halollik va tubanlik, to'g'rilik va egrilik, shukronalik va sabrsizlik kabi holatlar saralab boriladi.

Adib Afg'on urushi global muammoga aylanib, dunyo xalqlarini bezovta qilganining shohidi bo'ldi. Insoniyatni larzaga keltirgan jaholat o'zbek o'g'lonlari baxtiga ham rahna soldi. Yoshlar kelajagi porloq bo'lishi, millat ravnaq topishi uchun, avvalo, yurtda tinchlik, osudalik hukmron bo'lishi kerak. Zero, tinch, farovon yurtda har sohada yuksalish, taraqqiyot bo'ladi. Urush davri haqiqati aks ettirilgan asarlarda ma'shum urushning g'ayriinsoniy mohiyatini ochishga, murakkab hayotiy ziddiyatlarni tahlil etishga e'tibor berildi. Afg'on urushining salbiy asoratlari, qabohat va razolatning dunyo bo'ylab keng quloch yoyganini jang qatnashchilaridan tinglagan adib oromini yo'qotdi. O'tkir Hoshimov "Tushda kechgan umrlar" romanida mohiyat e'tibori bilan urush iztirobi, azobli og'riqlarini tasvirlar ekan, umr bahorining mazlum qishga aylanish jarayonini ifodaladi.

Navqiron yigit Rustamning beg'ubor, ma'sum pallasi, hayot zavqi nash'asidan masrur bo'lib, olamga mehr-u muhabbatga to'la

nigoh bilan boqqan holatiga zid tarzda ko'pgina azobu qiynoqlarni, uqubatlarni boshdan kechirishi tadrijiy yoritib beriladi. Inson jismini, ruhini kemirayotgan azoblardan xalos bo'lishni istasa-da, qo'lidan hech narsa kelmaydi, nochor ahvolda qolaveradi. Yigit o'zini taftish etib, yovuzlikdan nafratlanadi, ruhi, botinida sassiz azoblanadi. Obraz tasvirida ichki kolliziyalar tashqi nohaqliklarga zid qo'yiladi. Sharoit, vaziyat oqil kishidagi fazilatni yemirib, illatni singdirib boradi. Insoniylikni boy berish, yurt va millat taqdiri, hayot-mamot masalasi har bir jumla qatidagi cheksiz dard, fig'on, insoniyatni — mudroq qalblarni ogohlikka da'vat etadi. Qahramon tush va xush orasida ongini kemirayotgan zulmat puchmoqlari, urush xotiralarini yengishga intiladi. Biroq uning irodasi, kuch-quvvati yemirilib, vido yo'liga peshvoz chiqadi. Afg'on urushi oila, jamiyat, millatni yakson qiladi. Har bir halqa ich-ichidan uziladi, vayronkor kuchlar maqsadiga erishadi. Eng yomoni, u insoniyatning barcha qatlamiga o'lim sharobini ulashadi.

O'tkir Hoshimovning mazkur romanida masalaning boshqa jihati ham qamrab olinadi. Xususan, davr fojialari, paxta siyosati qutqusi Rustamning otasi, yaqinlarini nohaq jazoga hukm etadi. Adib jamiyatdagi bu illatlarni tasvirlashda zulmat olamidagi sas-u fig'onni, ayriliq manzarasini real taqdim etishga erishadi. Qora qoniga belanib, o'lib yotgan ayol, uvlayotgan it fig'oni, oriyati yo'lida qurbon bo'lgan yosh-u qarilar motivida rutubatli maskan, marhumlar makoni bo'y ko'rsatadi. Roman urushga qarshi faryoddir: inson bolasi bir-birini vahshiylarcha o'ldirish uchun tug'ilmagan degan fikr kompozitsion sathni qamrab oladi.

Nafs qutqusi kishi ko'ngliga g'ulg'ula urug'ini ekadi. Ezgulikdan bebahra aqli noqislar insoniyatni qon dengizida g'arq qiladi. Baxt mohiyatiga umumbashariy chizgi berilib, undan mosuvolik marhumlik diyoriga yo'l ochishi ta'kidlanadi. Or-nomus kabi noyob tuyg'ular zavol topishi, sag'ir bolalarning mungli nigohi, qotillik tamg'asi ma'no nuqtalarini jamlab boradi. Hayot haqiqatini umumbashariy muammolar qamrovida taqdim etgan muallif ruhiyatdagi bezovtalikni majoziy bo'yoqda akslantiradi. Olamning sokin kuyini yovuzlik simfoniyasiga g'arq etgan urush qahramonni, insoniyatni xavfli yo'lda o'z dard-u armoni qobig'ida yakka qoldiradi.

Iste'dodli adibning poetik mahorati quyidagi latif, jozib tasvirlarda ravshanlashadi. "Dunyoning ishlari" qissasida ifoda usullarining turfaligi hissiy idrok quvvatini oshiradi. Badiiy obraz mohiyatini anglatishda psixologik, estetik xususiyatlar dalillanadi.

"Mayin shamol esar, o'rik gullari unsiz to'kilar, daraxtzor ostida maysalar ohista tebranar, ammo butun tabiat bir zum unsiz bo'lib qolgan, hamma-hammasi faqat mana shu dutor sadolari-yu qo'shiqni tinglagani uchun tinib qolgandek edi".

Mazkur lavhada saj' peyzaj tasvirini tiniqlashtiradi. U hissiy bo'yoqdorlikni orttirib, ohang tovlanishini namoyon etadi. Mayin, unsiz, ohista kabi so'zlar metaforik tasvirni quyuqlashtirib, tabiat ne'matini timsol darajasiga ko'taradi. San'at sintezi qahramon sezimiga parallel berilib, olam-u odam yaxlitligini asoslaydi.

Ushbu bitikdagi o'xshatish san'ati ham diqqatga molik:

"To'ng'ich chuchmomalar eng avval sukutga cho'mgan qabriston ustida ma'yus qo'ng'irog'ini chaladi. Bag'ri qon qizg'aldoqlar birinchi bo'lib mana shu yerda ochiladi".

Muallif bahor fasli chizgilarini chuchmoma, lolaqizg'aldoq obrazlarida istifoda aylaydi. U marhumlar diyoridagi sukunatni qo'ng'iroq jarangi bilan pardalaydi. Tiriklik, yasharish falsafasi azal-u abad sathiga jamlanadi. Qizg'aldoq (ol, qizil) timsolida qon so'ziga ishora berilib, bo'yoq quyuqlashadi. Adib sokinlik maskanidagi nabotot qatlamini ruhoniy hamda dunyoviy haqiqat ila uyg'unlashtiradi.

O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asaridagi bu tashbeh ham kitobxon e'tiborini tortadi:

"Bolalik subhidamga o'xshaydi. Tongdek tiniq, ertakdek go'zal. Olam oppoq nurga belanadi".

Inson umrining beg'ubor, pokiza onlari bolalikning ziynati sanaladi. Kunning tong qismidagi shaffoflik, sokinlik vujudga epkinlik baxsh etadi. Ertaklar zimnidagi ezgulik, do'stlik, baxtiyorlik bolalarga yog'du yanglig' hamroh bo'lib, ularni tinch, farovon yashashga da'vat etadi. Borliqdagi nur jamiki yaratiqni o'z taftiga olib, ularni xayrli ishlarga vasila aylaydi.

Zukko adabiyotshunos, adibning qadrdoni Abdug'afur Rasulov aytganiday, insonlar xarakterini yoritishda O'tkir Hoshimov

jamodot, nabotot, hayvonot tasvirlaridan unumli foydalanadi. Farahbaxsh, osuda hayot umididagi kishi doim Yaratgandan mujda kutadi. Alloh jami yaratiqlari orasida uzviylik, bog'liqlikni tartib aylagan ekan, sardor insonni bu ne'mat hikmatini uqishga loyiq topadi. Yozuvchi asarlarida qahramon ruhiyatidagi holatga parallel yoxud kontrast tarzda borliq hodisotlari obrazli tasvirlanadi. Uni tabiatdagi uyg'onish jarayoni bahor umidlantirsa, sukunatdagi qish holati sergaklantiradi. Odamzod boshiga kelayotgan ofatlar qish yanglig' qalbni muzlatsa, bahor sabosi vujudga malham bo'lishi ramzlarning badiiy ko'lamini orttiradi.

O'tkir Hoshimov davr haroratini his qilgan, unga adolat mezonida baho berishga muvaffaq bo'lgan. Ijodkor inson ruhiyatidagi tebranishlarni nozik ilg'abgina qolmay, uni tiniq, ta'sirli yorita olgan. Donolar hayotni kuzaturlar jim falsafasini siyratiga singdirgan so'z sohirining asarlari yillar davomida ko'plab kitobxonlarga ziyo ulashishiga ishonamiz.

Umida Rasulova,
filologiya fanlari doktori

TUSHDA KECHGAN UMRLAR

Roman

RUSTAMNING OXIRGI KUNDALIGIDAN

Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Erta bahordan bo'tana bo'lib, shosha-pisha, qirg'og'iga sig'may oqqan ariqlar tiniqlashadi. Shuncha urinishlari zoye ketganini tushunib, olamga ma'yus boqadi... Endi suv tubida shodon chayqalgan maysalar emas, xazon ko'milib yotadi... Yer-u ko'kni kafandek oppoq tuman chulg'aydi. Oq zulmat orasidan qarg'alarning xosiyatsiz fig'oni eshitiladi.

... Erta-indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi. Yer ustida uzoq charx uradi-da, achchiq-achchiq ko'z yoshi to'kadi. Sim-sim yomg'ir yog'adi: to'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig'laydi...

Men necha yoshga chiqdim o'zi? Yigirma ikkiga?! Yo'g'-e, axir men yetmish ikkidaman-ku! Balki sakson ikkidadir? Nima farqi bor?! "Donolar hayotni kuzaturlar jim..."

QURBONOY XOLANING HAR KUNGI TASHVISHLARI

Biqini achishib uyg'ondi. "Xudoyim, o'zingni rahming kelsin", dedi pichirlab. Eski dardi yana qo'zg'adi shekilli. To'rt yildirki, ahvol shu. Sal og'irroq ish qilsa, yoqmasroq ovqat yesa tamom: o'ng ko'kragining tagi simillab og'riydi. Bodringdek bir narsa biqiniga botib, to'satdan sanchiq kiradi. Oxiri og'zi taxirlanib, ko'ngli behuzur bo'ladi. Qayt qiladi.

Umida uch-to'rt marta qo'lidan sudragudek bo'lib, do'xtirxonaga olib chiqdi. Do'xtir xotin "me'dangiz aynigan, xola, gastrit bo'lgansiz", deb qo'yaqoldi. Bannisaga yotqizishga order kerak ekan. Order yo'q emish... Yozda kasali zo'riqib ketdi. Shunaqan-

gi azob berdiki, Xudoyo tavba, bundan ko'ra o'nta tug'gan afzal. Umida uyoqqa yugurib, buyoqqa yugurib order topdi. O'n oltinchi bannisaga, olti kishili palataga joylashtirdi.

Do'xtirlar ham o'lmasin! Xo'p, antiqa asboblar o'ylab chiqaribdimi, baraka topgurlar! Chalqancha yotqizib qo'ydi-da, qorniga moy surib, qo'lidagi asbobini uyoqqa yurgizdi, bu yoqqa yurgizdi. Ikki ko'zi televizorda. "Oshqozoningizda kasal yo'q, xola, — dedi nihoyat. — O'tqopchangizda tosh bor. G'ij-g'ij tosh". Xudoyimdan o'rgilay! Bandasiga atagan dardiyam ko'p ekan-da! Tosh qayoqdan keladi? Ataylab tosh yemagandir axir! "Operatsiya qilish kerak, xola, — dedi do'xtir. — Boshqa iloji yo'q".

Aparaysa qilarmish! Aytishga oson. Aslida-ku, har kimning joni Xudoning omonati. Ertami-kechmi oladi omonatini. Boring ana tig'ning tagidan omon-eson qutulib chiqdi ham... Bir yilgacha yarimjon bo'lib yuradimi? Ko'chani kim supuradi? Bir emas, ikkita to'rt qavatli "do'm"ning zinasini kim yuvadi? Tag'in nima deydi, deng? "Sizga engashish mumkin emas, xola. Ishingizni o'zgartiring", emish. Har kim o'zidan o'tganini o'zi bilarkan-da.

Qurbonoy xola bo'ynidan achom qilib yotgan nevarasini uyg'otib yubormaslik uchun sekin qaddini rostladi. Uy ichi sham hidiga to'lgan edi. Kecha chiroq o'chib qolgani, yangi qo'shni — Shahnozadan sham olib chiqqani esiga tushdi. Nim qorong'ida paypaslab, bolaning butiga qo'l yubordi: qup-quruq. Mana, siyib qo'ymabdi-ku! Shu... Umidayam xo'o'p tepsa-tebranmas chiqdi-da. Kap-katta bola har kuni siyib qo'yadi, deb noligandan ko'ra yotar chog'i qovug'ini jinday yog'lab qo'ysa-ku, olam guliston!

Narigi devor tagidagi karavot g'irchilladi. Qizchasini quchoqlab yotgan Umida ovoz berdi.

— Choy qo'yib keting, oyi! — Shunday dedi-yu, boshiga ko'rpa tortdi.

Qurbonoy xola indamay oshxonaga chiqdi. O'lsin! Chiroq haliyam kelmabdi. Vannaxonaga o'tib shoshilmay tahorat oldi. Gazga choy qo'yib, uyga qaytib kirdi. Bomdodni o'qidi. O'tganlarga Ollohning rahmatini, qolganlarga imon tiladi. O't balosi, suv balosi, tuhmat balosidan asrashni so'rab, yuziga fotiha tortdi. Qorong'i oshxonada bir burda non kavshab, choy ichgan bo'ldi. Yo'lakdagi

ilgakda osig'liq turgan paxtali choponini kiyib, boshiga paxmoq ro'mol o'radi. Biqini tag'in achishib og'ridi. Birpas ikkilanib turdi-da, choponini yechdi. Tag'in uyga kirdi. Timirskilanib sandiq ochdi.

Qitir-qitirdan Umida qayta uyg'onib ketdi shekilli, norozi to'ng'illadi:

— Hech tinchimas ekansiz-da!

— Bolalarni vaqtida olib bormasang, bog'cha opasi kirgizmaydi, — dedi Qurbonoy xola o'zini oqlagan ohangda.

Sandiqning bir burchidan eski sharf topdi. To'rko'ylagi ustidan ko'kragiga tang'idi. Yo'lakka chiqib tag'in choponini kiydi. Ro'mol o'radi. Vannaxonada turgan paqirni taraqlatib yubormaslik uchun halqasidan ohista ko'tardi. Bandiga uzun tayoq tiqilgan supurgini qo'ltiqqa qistirib, qorong'i zinalardan pastga tushdi.

Oynasi singan tashqari eshikni ochishi bilan yuziga muzdek havo urildi. Qor yog'yapti shekilli! Yo'q, tuman tushibdi. Quyuq tuman. Yer-u osmon oqish, xira pardaga o'rab tashlangandek. Qiziq, hamma narsa telba-teskari ko'rinadi. O'n qadam naridagi baqaterakdan ko'ra ikki chetidagi simyog'ochlarda chiroqlar yonib turgan ko'cha yaqinroq tuyuladi. Ko'chadan o'tayotgan siyrak mashinalar nur yelpig'ichi bilan tumanni yorib imillaydi. Qurbonoy xola bir qo'lida paqir, qo'ltig'ida supurgi bilan uyni aylanib o'tayotganida "do'm" chekkasidagi baqaterak tagida sharpa ko'ringandek bo'ldi. To'xtab, o'sha tomonga qaragan edi, sharpa terak orqasidan siljib ajraldi-da, shatir-shutir xazon bosib, tumanlik qo'yniga singib ketdi. Qurbonoy xola sharpa, boshiga, yosh bolalarnikiga o'xshagan cho'qqisimon telpak kiyganini g'ira-shira ilg'adi-yu, yo'lida davom etdi. Avval magazin tomondagi yo'lkani supurish kerak. Jekdagi xo'jayin qattiq tayinlagan: "Bu — katta gastronom, xola, har xil odam keladi, tag'in bitta-yarimta kattalar bu "do'm" kimga qarashli, desa, bizga gap tegib qolmasin, tushundingizmi?"

Tushunadi. Nega tushunmasin!

Pastak non do'konining derazasida chiroq bor. Qizg'ish nur tushib turibdi. Ammo non mashinasi ko'rinmaydi. Bundan chiqdi hali soat yetti bo'lmabdi. Do'kon yonboshida darvoza. Uyog'i gastronom. Uning ham derazalarida chiroq yoniq. Lekin gastronom

soat sakkizda ochiladi. Eshigi tepasidagi qizil chiroq kulga tushgan cho‘g‘dek xira yiltiraydi.

Qurbonoy xola paqirini baqaterak tagiga qo‘ydi-da, “bismillo” deb yo‘lkani supurishga tushdi. Xudoyligini aytganda, ishi og‘irmas. Avval ikkita “do‘m”ning atrofini supurib chiqadi. Keyin zinalarni yuvadi. Peshingacha ishini bitirib keladi-da, uyidagi yumushlarga qaraydi. Ovqat qiladi. Nevaralarining kiyimini chayadi.

Birinchi kunlari avval zinalarni yuvib, keyin ko‘cha supurayotgan edi. Bo‘lmadi: “do‘m”dagilar jekka shikoyat yozishibdi. “Ertalabdan taraq-turuq qilib uyqumizni buzadi”, deyishibdi. Qurbonoy xola qo‘shnilarni bezovta qilmaslikka so‘z berdi. Ishni supurishdan boshlaydigan bo‘ldi. Nima qipti: xayol sureb supuraveradi. Supurgi “shig‘g‘-shig‘g‘” qiladi. Bir yo‘lkani boshidan oxirigacha supurib bo‘lgach, axlatni to‘dalaydi. Shunaqa-ku, manavi baqaterak degani o‘lgur yomon. Bahorda gullaydimi, nima balo, hamma yoqni popiltiriq bosib ketadi. Osmondan qordek yog‘adi-ya, qirg‘in kelgur! Suv sepsang, yerga yopishib qoladi. Sepmasang, supurgi urishing bilan to‘zg‘ab, betingga sapchiydi... Kuzda undan battar. Xazonni to‘dalab yoqsang, baloga qolasan. Havoni zaharlayapsan deydi. Axlat mashina olmaydi... Kim o‘ylab topganiykin bu baqaterak jonivorni!..

Bir zamonlar Qatortol qandoq joylar edi! O‘rikzorlar, uzumzorlar, nokzorlar... Har nashvatilar bo‘lardiki, shirasi chak-chak tomib yotardi...

Qurbonoy xola yengil qadam tovushini eshitib, supurishdan to‘xtadi, ortiga burilib qaradi. Egniga “olipmiyka”, boshiga cho‘q-qisimon to‘qima qalpoqcha kiygan ikki kishi shitob bilan yugurib, yonidan sharpadek o‘tib ketdi. Avval ixchamrog‘i, ketidan qorin qo‘ygan, hansirab nafas olayotgani...

Qurbonoy xola ikkoviniyam taniydi. Qorin qo‘ygani — prapisir. Unisi — o‘g‘li. Esladi: hali daraxt panasida turgan odam shu yigit bo‘lishi kerak... Ota-bola qishin-yozin kanda qilmay, har kuni ertalab yugurishadi. Ko‘chaning narigi betidagi katta darvozali uchastka prapisirniki. Prapisir otasiga yil oshi berganda Qurbonoy xola borib xizmat qilgan... Ota-bola har safar uning yonidan yugurib o‘tishadi. Salomlashmaydiyam, gaplashmaydiyam... Mayli,

har bandayi mo'min o'zidan tinsin... Yana shig'illatib supurishga tushdi. Biqinida og'riq kuchayganiga parvo qilmadi. Bibiblab non mashina keldi. Ichkaridan do'konchi chiqdi. Mashinaning orqa kajavasini ochishdi. Tuman tarqamadi-yu, kun bir qadar yorishgandek bo'ldi.

Bir mahal orqa tomondan yo'g'on ovoz keldi.

— Supurayapsanmi?

Qurbonoy xola ovoz egasini tanidi: Komissar.

"O'ynayapman!" — deb o'yladi ensasi qotib. Har kuni "supurayapsanmi?" deb so'raydi.

Ishdan to'xtab, burilib qaradi. Salom berdi.

Komissar besh-olti qadam narida turar, boshida qora shlapa, egnida qora plash, qo'lida sut bidon bor edi.

— Nevaralaring omonmi? — dedi Komissar yoshiga yarashmagan o'ktam tovushda.

— Xudoga shukur, yurishibdi. Yumalab-sumalab.

— O'zing ahmoqsan! — dedi Komissar zarda bilan. — Necha marta aytdim: kuyovingni sudga ber! Moyagini bir burasa, qizingga dom olib beradi. Yo uchastkasining yarmini kesib beradi.

"Bir kamim qizimning kundosh bilan bir hovlida turishi qoluvdi, bolalarini o'ksitib", — deb o'yladi Qurbonoy xola dili og'rib.

— Mayli, — dedi sekin. — Xudoga soldim.

Komissar kuldi. Kulishi g'alati. Xuddi odamni mayna qilgandek "xex-xex-xex", deydi.

— Xudoning sendan boshqa ishi yo'q! Falonchi bandamning arzi-holini eshitaman, deb ko'zi uchib turibdi.

"E-e! Tezroq daf bo'lsang-chi! Sen bilan gaplashib yurakni qon qilgandan ko'ra..."

Qurbonoy xola atay gapni boshqa yoqqa burdi.

— Sutga ketyapsizmi?

— Borib keldim. Bugun sut kelmas ekan. Do'kon kecha bayramda ishlagani uchun bugun oddix qipti.

Qurbonoy xola supurgisini changallab, ishni davom ettirmoqchi edi, Komissar ma'noli yo'talib qo'ydi. Chamasi yana gaplashgisi bor edi.

— Ertalab kasha pishirib yemasam, me'dam og'riydi.

— Keksalik-da! — dedi Qurbonoy xola.

— Meni qari deyapsanmi, xex!

Qurbonoy xola javob bermadi. Shaxt bilan supurishni davom ettirayotgan edi, qulog'iga yana Komissarning ovozi kirdi:

— Anavi kim?

Qurbonoy xola Komissar qo'lini bigiz qilib ko'rsatgan tomonga qaradi. Uy yerto'lasining zinasida bir odam g'ujanak bo'lib yotardi.

— Qayoqdan bilay! — dedi Qurbonoy xola beparvolik bilan. — Anaviyoqdan kelganlardan bittasidir-da. Bilasiz-ku, qish kelsa qalang'i-qasang'ilar ko'payadi. Kecha bayram qilib bo'kib ichgan bo'lsa...

— Yo'q, unaqaga o'xshamaydi. — Komissar shahdam qadamlar bilan o'sha tomon yurdi. — Yotishi bejo-ku!

Qurbonoy xolaning ko'ngliga mubham xavotir tushdi. Supurgisini sudrab Komissarga ergashdi.

— Hoy, kimsan? — Komissar engashib, yelkasiga turtgan edi, gavda qimirlamadi.

Qurbonoy xola yaqin borib gavda ustiga egildi-yu, dahshat ichida o'zini orqaga tashladi.

— Voy! Voy, o'lmasam! — dedi oyoq-qo'lidan mador ketib. — Rustamjon-ku! Kuyov-ku! Kechagina o'ynab-kulib o'tiruvdi-ya!

Rustam yerto'laning semon zinasi ustida g'ayritabiiy yonboshlab yotar, boshidan oqqan qon halqob bo'lib qolgan, ichki kiyimda, bir oyog'ida latta shippak, ikkinchi shippagi pastki zinada to'nkarilib yotar edi. O'ng qo'li tagida qolgan, negadir musht bo'lib tugilgan chap qo'li zinaga osilib turar, go'yo o'sha yerdan bir narsa olmoqchi bo'lgan-u, shu alpozda qotib qolganga o'xshardi. Komissar sut bidonini yerga qo'yib cho'kkaladi. Yelkasidan tortib sekin ag'dargan edi, Rustamning og'zidan qon sizib chiqib, bo'yniga oqdi. Shunda, Qurbonoy xola uning bilagi ham tilinib ketganini, tirsagidan kaftining orqasigacha qora qonga belanganini ko'rdi.

— Voy-dod! Kim bor!!! — deb jonholatda dod sola boshladi. — Yordam beringlar! Xotinini chaqiringlar! Shahnozani chaqiringlar!

Bir zumda odam to'plandi.

— Qaranglar, deraza sinibdi! — dedi kimdir hayajonli qichqirib.

Qurbonoy xola alang-jalang bo'lib tepaga qaradi. To'rtinchi qavatdagi derazaning bir tavaqasi ochiq turar, yerda, Rustamdan nariroqda katta-kichik oyna parchalari sochilib yotardi.

— Do'xtir chaqirsalaring-chi! — dedi Qurbonoy xola izillab. — Xotini qayoqda, xotini!

— Shunaqa bo'lishini bilardim, — dedi kimdir bepisand ohangda.

Qurbonoy xola bu sovuq gap kimdan chiqqanini anglamay alanglagan edi, prapisir o'g'lining yelkasiga musht tushirdi.

— O'chir ovozingni, ahmoq!

Ota-bola hamon o'sha kiyimda edi: boshida cho'qqisimon qalpoq, egnida olimpiyka.

— Do'xtir qani, do'xtir? — dedi Qurbonoy xola iltijo bilan. — Insoflaring bormi, chaqiringlar axir!

Komissar Rustamning bilagini ushlab, tomirini tekshirdi.

— Doktorning keragi yo'q, — dedi sovuqqonlik bilan. — Militsiyaga qo'ng'iroq qilish kerak.

TERGOV HUJJATIDAN

Shomatova Shahnoza. Yigirma bir yoshda. Oliygohning to'rtinchi kurs tolibasi. Millati — o'zbek. Turmush qurgan. Avval sudlanmagan. Qatortol mavzeyi, 9-uy, 23-xonadonda istiqomat qiladi...

— Siz — marhum Shomatov Rustamning xotini ekanligingizni tasdiqlaysizmi?

— Ha.

— To'yinglar qachon bo'lgan?

— Shu yil yozda.

— Aniqrog'i?

— Sakkizinchi avgust kuni.

— Hozir turgan uyinglarga qachon ko'chib kelgansizlar?

— Sentabrning oxirida.

— Ungacha qayerda turgansizlar?

— Qaynonamnikida. Piskentda.

— Hovlinglar kattamidi?

— Nima desam ekan... El qatori hovli...

— Grajdanka Shomatova, ayting-chi, nima uchun Piskentdagi hovlida turmay, Toshkentga ko'chib keldingizlar? Qaynonangiz bilan orangiz buzildimi?

— Oyimlar bilan ahil edik.

— Ovsiningiz bilan-chi?

— U kishi bilan ham.

— Bo'lmasam nega...

— Har kuni oltmish chaqirimga qatnashimiz kerakmidi?

— Bir narsaga kelishib olsak, grajdanka Shomatova... Savolni men beraman! Oltmish chaqirimga qatnash og'irlik qilgan bo'lsa, nega studentlar yotog'idan joy olmadinglar?

— Rustam akam xohlamadilar. Alohida uy olish uchun harakat qildilar.

— *Shomatov bir vaqtlar sudda ishlaganidan xabaringiz bormi?..*

— Aytgandek bo'luvdilar.

— Ishdan nega ketgan ekan?

— Anig'ini bilmayman.

— Siz to'rtinchi kursda o'qiysiz. Eringiz ikkinchi kursda bo'lgan...

— Agar Afg'onistonga olib borib, urushga solishmaganda, Rustam akam ham to'rtinchi kursda bo'lardilar.

— Tushunarli... Eringiz Afg'onistonda xizmat qilgan, baynalmilal jangchi sifatida o'ziga berilgan imtiyozlardan foydalangan... Navbatsiz uy olgan...

— Rustam akam u yoqqa borganlarini dastak qilganlaridan mening xabarim yo'q.

— Bo'lishi mumkin... Ayting-chi, eringizning asabi joyidamidi? Kontuziya bo'lgan, yaralangan ekan... Yig'lashning hojati yo'q.

— Jahllari yomon edi... Ammo "u yoq"dagi gaplarni hech gapirmasdilar! Yarador bo'lganlariniyam tasodifan bilganman. Bellariga o'q tekkan ekan. "Oyimga aytma, shunchaki, daydi o'q yalab o'tdi", deganlar.

— Yig'lamang... Marhum eringiz bilan ko'pdan tanishmidingiz?

— Birinchi kursdan beri...

22-310 Inv. № 48951
AXBOROT-RESURS MARKAZI

"SOVUQNI YOMON KO'RARDILAR"

Shahnoza melisaxonaning fayzsiz yo'laklaridan o'tib borarkan, hech kimni ko'rmas, hech nimani eshitmas edi. Guvoh sifatida "povuska" olganidan beri ayasi nuqul qulog'iga quyadi. "Gapingni bilib gapir, jon bolam, tag'in seniyam oyog'ingdan tortib yurmasin!" Dadasi xavotirda. Kecha "nachalnikka" qo'ng'iroq qilmoqchi edi, ayasi bobillab berdi. "Nima qilasiz podadan oldin chang ko'tarib! Melisa "gunohi bo'ynida ekanki, tipirchilab qopti", demaydimi! Nima, Shahnoza erini bo'g'ib o'ldiribdimi?!"

Shahnoza zinalardan tushib borarkan, vujudida allaqanday loqaydlik, karaxtlik sezdi. Dunyolaringga o't tushib ketmaydimi, Rustam aka bo'lmaganidan keyin!

Eshik oldida turgan melisaga ruxsat qog'ozini topshirib, tashqariga chiqdi-yu, bir lahza turib qoldi.

Qor yog'ayapti. Birinchi qor... Ertalabdan beri ezib yog'gan yomg'ir oxiri qorga aylanibdi. Yer-u ko'kni kafanga o'rab tashlashga qasd qilgandek, shunaqangi shiddat bilan yog'ayaptiki, ko'cha chetidagi daraxtlar tabiatning muqarrar hukmi oldida nochor ta'zim bajo qilgandek enkayib qolibdi. Yupun kiyingan odamlar sirpana-sirpana jonsarak yugurgilaydi. Mashinalar g'ildiragi ostidan loy aralash qor sachraydi...

Rustam akasi qorni yomon ko'rardi. Devdek gavdali, Alpomishdek baquvvat odam sovuq tushar-tushmas, bo'yniga sharf o'rab olar, Shahnoza "voy-bo', Qorbobo bo'p keting-e!" desa, "Hayronman, Shahnoz, shu qor degan narsa yog'masa kimning ko'ngli qolarkin?" deb gapni hazilga burardi. "Mozori ustini bir qarich qor bosgandir? Qandoq yotganiykin Rustam akam? Bechora Rustam akam! Nega ketdim? Nega ketdim o'sha kuni!" Shahnoza toyg'onatoyg'ona shoshqin yurib ketdi. Unsiz yig'lab borar, oyog'idan zax o'tib ketganini, muzdek qamchisi bilan ayovsiz savalayotgan qor orasidan lablariga sho'rtang ko'z yoshi sizib kirayotganini his etib turar, biroq hech nimani o'ylagisi kelmas, xayolida qat'iy bir ahd qasamdek charx urardi. Boradi! Piyoda boradi Qozirobod mozoriga! Rustam akasining boshiga yog'gan qorni sidirib tashlaydi. Mana shu qo'llari bilan! Bu dunyoda rohat ko'rmadi, aqalli uyoq-

da tinch yotsin sho'rlik! O'shanda, birinchi kursda o'zining boshiga qor yog'ganida kurab tashlagan, jonini asrab qolgan Rustam akasi edi-ku!

* * *

Shahnoza shahar maktabida o'qigani uchun umrida paxtaga bormagan edi. Institutda "Ertaga paxtaga ketiladi", degan e'lonni eshitib, shoshib qoldi. Barvaqt bormasa, qolib ketadigandek, kechasi bilan ivir-g'avir bo'lib chiqdi. Talabalarning paxta hasharidagi romantik sarguzashtlarini ko'p o'qigan, televizorda muntazam ko'rsatiladigan manzaralar ko'z o'ngida namoyon bo'lar, tezroq dalaga borgisi, paxta tergisi kelardi.

Ayasi bo'g'irsoq, pechenye pishirdi, xuddi Shahnoza och qoladiganday kattakon sumkaga quyultirilgan sut, konservalar tiqishtirdi.

Ko'rpa-to'shagini buklama karavot orqasiga tiqib adasining mashinasida institut oldiga kelishsa, hali odam to'planmagan ekan. Hatto ikki qadam naridagi yotoqda turadigan talabalar ham tushmabdi. Shahnoza ko'cha chetidagi chinor tagida turgan Dilya — Dilfuzani ko'rib, yugurib bordi. Mittigina gavdali Dilfuza ham shaharlik edi. U ham birinchi marta paxtaga borayotgani uchunmi, saharlab kelib olibdi...

Avtobuslar karvoni tushga yaqin yo'lga tushdi. Imillab, uzoq yurdilar. Raqam bilan nomlanadigan sovxozlardan birining markazida taqsimot bo'ldi. Shahnozalarning avtobusi yana ancha yurdi. Nihoyat cho'l-biyobonning qoq o'rtasida, bostirmaga o'xshagan allaqanday pastak, uzun bino oldida to'xtashdi. Binoning beton devorlari sho'rlab ketgan, derazalarning oynasi singan edi. Sal nariroqda atrofi qora qog'oz bilan o'ralgan hojatxona qo'nqayib turardi. Yuz qadamcha olisda esa oppoq popiltiriqlari shamolda silkinayotgan qamishzor shovullar edi.

Yuklarni tushirishdi. Shahnoza qo'rqa-pisa ichkariga bosh suqdi-yu, darrov qaytib chiqdi. Bostirmaning qorayib ketgan pastak shiftida olmadekkina lampochka osilib turardi. Bor-yo'q jihoz shu.

Yuzlari oftobda qoraygan, norg'il gavdali, qoshlari qalin Rustam aka (kursdagilar yoshi kattaroq bo'lgani uchunmi, uni shunday deb chaqirishardi) darrov bolalarni ishga soldi.

— Bor, burgan yulib kel! — dedi yigitlardan biriga. — Qizlar, barakni supurib chiqasizlar!

Birpasda ish qizib ketdi. Dilya barakni supurdi. Shahnoza paqir ko'tarib, suvga ketayotgan edi, Rustam yigitlardan biriga buyurdi:

— Suvga sen bor! Ehtiyot bo'l, quduqqa engashma...

Quduq degan semon quvurni tik qilib yerga ko'milgan narsa ekan. Mashinada suv olib kelib, xlor aralashtirib, shu "quduq"qa quyisharkan.

Rustam, ehtiyot bo'l, deb bejiz aytmagan ekan. Bultur qaysidir sovxozda talabalardan biri sirg'anib, quduqqa tushib ketibdi. O'rtoqlari tortib olguncha tamom bo'pti...

Barakning o'rtasiga brezent parda osib, ikkiga bo'ldilar. Bir tomonga bolalar joylashdi, bir tomonga — qizlar.

O'sha oqshom non-choy qilib yotib qolishdi. Kechqurun Shahnoza Dilya bilan tashqariga chiqqan edi, qamishzor tomondan chaqaloq yig'isi eshitildi.

— Nima bu, Dilya? — dedi qo'rqib.

— Chaqaloq yig'layapti, shekilli...

Ikkovlari barakka yugurib kirdilar.

— Qizlar, anavi qamishzor ichida chaqaloq yig'layapti! — dedi Dilya ovozi titrab.

Parda — to'siqning narigi tomonidan Rustamning ovozi keldi.

— Chaqaloqmas, shoqol! — dedi vazminlik bilan. — Chiya-bo'ri... Qo'rqmanglar. — Birpas jim turdi-da, qo'shib qo'ydi. — Tashqariga yolg'iz chiqmanglar...

Shahnoza anchagacha uxlolmay yotdi. Pardaning narigi tomonida chiroq yoniq turar, bolalar, chamasi qarta o'ynar edi... Bir mahal ko'zi ilingan ekan, bo'ynidan allaqanday sovuq, yumshoq narsa o'rmalab o'tayotganini his qildi. Jonholatda chinqirib yubordi. Qo'li bilan siltab tashlagan edi, boyagi narsa yerga tushganini idrok etdi. Qizlar uyg'onib, hamma yoq qiy-chuv bo'lib ketdi. Kimdir chiroqni yoqdi. Shahnoza qo'rquvdan ko'zlari olaygancha yig'ma karavotda o'tirar, nuqul bir gapni takrorlar edi:

— Annaqa... yumshoq narsa...

Narigi tomondan Rustam chiqib keldi. Egnida eski jinsi shim, ko'ylakchan.

— Sichqon-ku! — dedi kulib. (Kulganda chehrasida nur porlab ketgandek bo'ldi). — Qo'rqmang. Hademay o'rganib ketasiz...

To'g'ri aytgan ekan. Bir hafta-o'n kun o'tib, qizlar to'shagi ustida o'rmalab yurgan sichqonni tutib olsa bemalol dumidan chimchilab, tashqariga olib chiqib tashlaydigan bo'lishdi.

... Uchinchi kuni kulliyot komsorgi — oppoq, dumaloq yuzli, mo'ylovi o'ziga yarashgan Sanjar aka majlis qildi. Aytishiga qaraganda, norma qat'iy ekan. Paxta — yetmish kilo, podbor — yuz ellik kilo. Kim normani bajarmasa — o'qishdan haydaladi!

"Sanjar aka" gapiryapti-yu, Dilya nuqul tirsagi bilan Shahnozaning biqiniga turtadi. "Ha?" deb jerkib bergan edi, Dilya kulimsiradi. "Chiroyli yigit-a?"

Shahnoza ensasi qotib, yuzini o'girdi. Chiroylimi, balomi, yetmish kilo paxtani qanday teradi? Kun bo'yi beli singudek bo'lib zo'rg'a o'ttiz kiloga olib boryapti-ku!

Viloyatlardan kelgan qizlar-ku normani bemalol bajaradi. Avval ham qilib yurgan ishi. Shahnoza bilan Dilyaga qiyin. Bir etakni to'ldirguncha peshin bo'ladi. Yo'q! G'ayrat qilmasa bo'lmaydi... Bir kuni jon-jahdi bilan ishlashga qasd qildi. Birinchi etak ancha tez to'ldi. Ikkinchisiga kelganda beli qaqshab og'riy boshladi. Teradi. Baribir teradi! Nima, boshqalardan kam joyi bormi? Tushga yaqin ikkinchi etak ham to'ldi. Yuk og'irlik qilgandan ikki buklanib qoldi. Etakni bo'ynidan tushirib, birpas dam oldi. Osmonda qat-qat bulutlar ohista suzib borar, baland-balanddan turnalarning horg'in nolasi eshitilar, ammo o'zi ko'rinmasdi.

Orqa tomondan gursillagan qadam tovushi eshitildi. Shibbalab paxta bosilgan etakni orqalagancha egat oralab Rustam kelar edi. Ko'ylakchan bo'lib, yengini shimarib olgan, oyog'ida etik...

— Hormang! — dedi kulimsirab.

Shahnoza horg'in javob qildi:

— Salomat...

— Bering, paxtangizni topshirib kelaman.

Shahnoza ikkilanib qoldi. Nima qiladi birovni koyitib. O'zi kamida ellik kilocha yuk orqalab ketayapti-ku...

— Beravering, — Rustam Shahnozaning paxta to'la etagiga qo'l cho'zdi. — Birpas damingizni oling.

— Anaviyoqda yana bor, — dedi Shahnoza iymanib.

Rustam yelkasidagi etakni yerga qo'ydi. Ikkovlari Shahnoza terib, marzaga to'kib qo'ygan paxta uyumi tepasiga borishdi. Rustam chaqqon harakatlar bilan paxtani Shahnozaning etagiga zichlab joyladi. Qaytib kelib, o'zining paxtasini ham yengilgina ko'tardi-da, yo'l chetida turgan telejka tomon tez-tez yurib ketdi.

— Zo'rsiz-ku! — dedi qaytib kelib. — Ellik ikki kilo chiqdi.

Shahnoza tergan paxtasi qanday qilib "ellik ikki" kilo chiqqanini tushundi. Rustam o'zinikidan qo'shgan...

... Bir oyga deb olib kelishgan edi. Ikki oy o'tdi. Shahnozaning dadasi bilan ayasi to'rt marta kelib ketishdi. Issiq to'rko'ylak, kirza etik olib kelishdi.

Odamni qon qilib yuboradigan kuz yomg'irlari boshlandi. Barakning shifer tomidan chakka o'tib, hamma yoq zaxlab ketdi. Paxta tugul podbor ham qolmagan, ammo yomg'ir tinishi bilan ularni dalaga haydashar, talabalar biydek paxtazorda tentirab yurishar, har qadamda etikka botmon-botmon loy yopishib, marzalarning u yer bu yerida to'kilib qolgan ko'rak aralash kir paxtani loydan ajratib etakka tiqishar edi.

Allaqayerdan cho'yan pechka, zanglab ketgan tunuka karnaylar topib kelishdi.

Rustam pechkani qizlarning "bo'lma"siga o'rnatdi. Ko'mir yo'qligi uchun o'tin yoqishar, yomg'irda qolgan o'tin to yonguncha barakni achchiq tutunga to'ldirib yuborardi.

Domlalar ikki haftada almashib turar edi. Eng keyin kelgan Muxtabar opa degan yosh domla talabalarning ahvolini ko'rib, yig'lamoqdan beri bo'lar, qaytishga ruxsat yo'q edi. Jumhuriyat olti million tonnali rejani bajarmaguncha paxtazor front maydoni deb e'lon qilinibdi...

... Qor yog'di. Shahnoza birinchi qorning shu qadar shiddat bilan yog'ishini endi ko'rishi edi. Qandaydir biron soat ichida barak tomini bir qarich qor bosdi. Hamma mung'ayib qoldi. Paxtazor ham, barak ham, talabalar ham...

O'sha kecha bolalar yotgan tomonda allakim tuni bilan quv-quv yo'talib chiqdi. Shahnoza ertalab qarasa, Rustam bo'yniga qalin sharf o'rab olibdi. Nuqul yo'taladi. Yuzlari bo'g'riqib ketgan.

— Shu... qor degan narsani kim o'ylab topganiykin? — dedi hazilga olib. — Sovuqni yomon ko'raman, Shahnoza...

Shahnoza ayasi olib kelgan bir banka quyultirilgan sutni berdi.

— Issiq choyga qo'shib ichsangiz o'tib ketadi.

Shunaqa dedi-yu, o'zining ham oyoq-qo'llari qaqshab og'riyotganini, boshi g'uvillab borayotganini sezib turardi... Kechga borib, isitmasi ko'tarilib ketdi. Dilya olib kelgan makaron sho'rvani ko'rib ko'ngli ag'darildi. Kechasi bilan alahlab chiqdi. Xuddi osmonda uchib yurganga o'xshar, to'satdan chuqurga tushib ketayotgandek bo'lar, cho'chib uyg'onar, "aya, ayajon!" deb ingrar edi.

Bir mahal ko'zini ochsa, tepasida Muxtabar opa, Dilya, Rustam turishibdi.

— Ma, ichgin, asalchoy! — dedi Dilya uning boshiga egilib.

Shahnoza ko'zlarini horg'in yumib yuzini o'girdi. Quruq yo'tal tutdi. Entikib, nafas ola boshladi. Tashqarida traktor tarilladi. Shahnozaning qulog'i shang'illar, birov uning miyasiga kirib olib, muttasil to'qmoq bilan urayotganga o'xshar edi.

O'sha tomondan shovqin-suron eshitildi.

— Tush! — dedi kimdir baqirib. — Tush buyoqqa!

Birpasdan keyin Muxtabar opa barakka qaytib kirdi.

— Rustam traktor minib sovxoz markaziga ketdi, — dedi o'ylanib. — Qaysar yigit ekan, bir baloni boshlamasa go'rgaydi...

... Shahnoza kimningdir muzdek kafti peshonasiga tekkanini sezib seskanib ko'zini ochdi. Shiftdagi lampochka o'limtik nur sochar, yonida oq xalat kiygan semiz xotin o'tirar, oyoq tomonida Muxtabar opa, qizlar to'dalashib turishar, yalangbosh sochi, yelkalariga qor qo'ngan Rustam eshikka yaqinroq joyda turgancha Shahnozadan ko'z uzmas edi.

Do'xtir Shahnozaning o'pkasini eshitayotganda Rustam chiqib ketdi. Keyin tag'in qaytib kirdi.

— Pnevmoniya! — dedi do'xtir negadir Rustamga yuzlanib. — O'ng o'pkasi shamollagan. Kasalxonaga olib borish kerak. — Shunday deb o'rnidan turayotgan edi, Rustam qat'iy bosh chayqadi.

— Yo'q, opa! Siz ketmaysiz!

— Qiziq yigit ekan-ku, bu! — Do'xtir najot kutgandek atrofiga alangladi. — Yarim kecha bo'ldi. O'n besh chaqirimga traktorga bosib opkelgani yetmagandek... Bu nimasi? Men ham bola-chaqali odamman!

— Ketmaysiz! — dedi Rustam ko'zlari yonib. — Mashina topib kelaman. Shahnozani kasalxonaga o'zingiz olib borasiz...

Do'xtir javob qilib ulgurmasdan shitob bilan chiqib ketdi. Tashqarida traktor gurilladi.

...Shahnozani "Niva"ga o'tqazishayotganida tong yorishib qolgan edi. Bir yoniga do'xtir o'tirdi, bir yoniga Rustam... Isitmasi sakkiz kundan keyin tushdi... Shu orada Dilya, Rustam rayon kasalxonasiga ikki marta kelib-ketishdi. Shahnoza Rustamning soqoli o'sib ketganini, ko'zlari kirtayib, rangi bir holatga tushib qolganini ko'rdi.

O'sha voqeadan keyin barakda majlis bo'lganini, Rustamni o'qishdan haydashlariga bir bahya qolganini Dilyadan eshitdi. Rustam uchinchi marta ko'rgani borganida qo'lini ancha vaqt ushlab turdi-da, pichirladi:

— Rahmat, Rustam aka...

TERGOV HUJJATIDAN

— Grajdanka Shomatova, yettinchi noyabrdan sakkizinchi noyabrga o'tar kechasi qayerda edingiz?

— Mana shu... o'zimizning uyda.

— Kechasi bilanmi?

— Ha...

— Eringiz mabodo, kechasi tashqariga chiqmadimi?

— Yo'q.

— Uyingizga biron shubhali odam kelmadimi?

— Yo'q.

— O'sha hodisa ro'y berganida siz qayerda edingiz?

— Ertalab sutga chiqdim. Uzoq kutib qoldim. Sut yetmadi. Qaytib kelsam...

— Yig'lamang... Yig'idan naf yo'q.

— Kelsam... Bu ahvol. Rustam akamni olib ketishgan ekan. Uy to'la odam. Melisalar...

— O'ylab ko'ring-chi, grajdanka Shomatova, eringiz bilan qasdlashgan odamlar bormidi?

— Bilmayman...

— "Erimning jahli yomon edi", dedingiz. Ayting-chi, masalan, qanaqa paytda jahli yomonligi bilinardi?

— ...

— Qulog'im sizda!

— Rustam akam nohaqlikni ko'rsalar, chidab turolmasdilar.

— Masalan...

— Umuman-da...

— Bizga umumiy gap emas, aniq dalil kerak. Ayting-chi, qo'shnilar bilan munosabatingiz qanday edi? Xususan, eringizning?

— Yangi odammiz. Qo'ni-qo'shnilar bilan kirish-chiqishimiz yo'q hisob. Faqat Qurbonoy xolani tanirdik.

— Kim u, Qurbonoy xola?

— Bir uyda turamiz, farrosh xotin. Yaxshi ayol.

— Bironta qo'shni bilan san-manga bormaganmisizlar?

— Yo'q.

— Yaxshilab eslab ko'ring?

— Yo'q, dedim-ku!

— Menga qarang, grajdanka Shomatova! Biz haqiqatni aniqlashimiz, eringizning qotillarini topishimiz kerak. Tushunarlimi?

— ...

— Qo'ni-qo'shnilar orasida marhum Shomatov Rustamga qasd qilganlar yo'q, deb tasdiqlaysizmi?

— ...

— Bo'lmasa, manavi protokolni eshiting.

Shu yil yigirma ikkinchi oktabr kuni kech soat 23 dan 40 minut o'tganida Shomatov Rustam o'ninchi uy 35-chi kvartirada yashovchi grajdanin Vasilyev Grigoriy Stepanovichning eshigini taqillatgan. Vasilyev eshikni ochishi bilan karate usulini qo'llab, uni yerga ag'dargan va bundan keyin jim yurmasang, so'yib tashlayman, deb dag'dag'a qilgan. Vasilyev militsiyaga shikoyat yozgan. Ammo er-

tasiga da'vosidan kechib arizasini qaytarib olgan. Bu hangomadan xabaringiz yo'qmidi?

— Nega xabarim bo'lmasin! O'z ko'zim bilan ko'rganman! Vasilyev dedingizmi? O'sha kundagi qilig'i uchun toshbo'ron qilsa arziydi! Ishonmasangiz o'zini chaqirib so'rab ko'ring.

— Buyog'i sizning ishingiz emas, grajdanka Shomatova... Ayting-chi, mabodo eringiz keyingi kunlarda Vasilyev bilan to'qnashmaganmidi?

— Yo'q... Menimcha, yo'q.

— Marhum Shomatov ko'p icharmidi?

— Yo'q, ba'zan ichardilar...

"HOZIR KECHIRIM SO'RAYSAN!"

Rustam bilan Shahnoza o'sha kuni ro'paradagi uyda to'y bo'layotganidan bexabar edilar. Domda it egasini tanimaydi. Ular-ku, yangi qo'shni. Eskilari ham bir-biri bilan hushiga kelsa salomlashadi, bo'lmasa serrayib, o'tib ketaveradi. Rosti, to'yga chiqqilari ham yo'q edi. Qurbonoy xola qo'ymadi. "Voy, Xudo urdi-ketdi! Ko'zdek qo'shnining to'yiga chiqmasanglar, uyat bo'lmaydimi? Erta-indin sizlar ham farzand ko'rasizlar. To'y qilasizlar", deb dashnom berdi.

To'y shiringina bo'ldi. Ikki uy o'rtasidagi maydonchaga dasturxon yozilgan. To'rda kelin-kuyov... Ortiga ilib qo'yilgan gilamga qo'shaloq nikoh halqasining tasvirini solib, paxta bilan "Xush kelibsiz, aziz mehmonlar!" deb yozilgan. Hamma yoqda gul... Xursandchilik... Shahnoza Rustam akasi bilan etakroq tomonda qo'shni uy devori tagida o'tirishardi... Shahnoza o'zlarining to'yi boshqacharoq, fayzliroq bo'lganini, ashulachilar yanayam sho'xroq qo'shiq aytganini, yoshlar yanayam shodonroq raqsga tushganini eslar, Rustam akasiga damba-dam jilmayib qarab qo'yardi. Faqat bir narsadan ko'ngli g'ash edi. Rustam akasi bugun negadir ko'p ichayapti...

Navbatdagi qo'shiq tugab, bir lahza jimlik cho'kdi. Kayvoni mikrofonni puf-puflab, "Endi tabrik uchun so'z kelinimiz Zebo-

xonning dugonasi..." deb gap boshlagan edi, yuqorida, xuddi Shahnoza bilan Rustam akasining boshi ustida deraza sharaqlab, g'azabnok hayqiriq eshitildi:

— Ey! Shovqin-suroningni to'xtatasanmi-yo'qmi?

To'yxona suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Kelinning dugonasiga tantanavor alpozda so'z berayotgan to'yboshining dami ichiga tushib ketdi.

Shahnoza boshini ko'tarib qaradi-yu, shundoq tepasida, to'rtinchi qavatning ochiq derazasidan engashib turgan maykachan barzangini ko'rdi.

— Uxlashga qo'yasanlarmi-yo'qmi? — dedi barzangi qahr bilan.

Shahnoza Rustam akasi o'rnidan turib ketganini, o'sha tomonga qarab, ko'zlarida g'azab to'la o't yonayotganini endi ko'rdi.

— O'tiring! — dedi bilagiga yopishib. — Iltimos, o'tiring, Rustam aka!

Deraza taraqlab yopilgani qulog'iga chalindi. Rustam joyiga o'tirdi. Shahnoza erining qo'llari asabiy qaltirayotganini sezib turardi.

To'ydan fayz ketdi. Hamma mung'ayib qolgan, oppoq ro'mol ostidagi kelin boshini quyi solib o'tirar, egniga zarbof to'n, boshiga do'ppi kiygan kuyov uning qulog'iga shivirlab, allanimani tushuntirar edi.

— Voy onangni!.. — Rustam ro'parasida o'tirgan ingichka mo'ylovli yigitga piyola uzatdi. — Quy! — dedi baqirib. — To'latib quy!

Dam olmay sipqordi-da, otilib, davraga chiqdi. Torini g'ilofga tiqa boshlagan sozandaning oldiga yugurib bordi.

— Chal! — dedi g'ayritabiiy tantana bilan. — Chal deyman! "Lazgi"ni chal!

Mikrofon yana gumburlay boshladi. Shahnoza Rustam akasining raqs tushishini birinchi ko'rishi edi. Butun vujudi o'ynayapti! Shiddat bilan, g'ayrat bilan... Davra yoshlarga to'lib ketdi. Shahnoza yana... shuni sezdiki... Rustam akasi raqs tushayotgani yo'q... nola chekayapti... Alamli, iztirobli nola! Faqat o'zi-yu, Shahnoza tushunadigan nola...

Shu payt kutilmagan hodisa ro'y berdi. Shahnoza boshiga, yelkasiga yog'ilgan muzdek suvdan seskanib, o'rnidan sapchib turdi. "Voy!" deb qichqirib yubordi. Nima bo'lganini tushunolmay alang-jalang qarasa, atrofida o'tirganlar ham o'rnidan turib ketibdi. Birov jiqqa suv bo'lgan sochini silaydi, birov badaniga yopishgan ko'ylagini siypalaydi. Oppoq dasturxon ustida parcha-parcha suv dog'lari yaltirab ko'rinar, laganlardagi gazaklar ham ho'l edi.

Shahnoza Rustam akasining adl qomati to'yxona chirog'i yoritib turgan nur ostidan otilib chiqib borayotganini ko'rdi-yu jon holatda qichqirdi:

— Rustam aka! Qayting, Rustam aka!

O'sha zahoti erining ketidan qorong'ilikka sho'ng'idi.

Yuragi qinidan chiqqudek bo'lib zinadan ko'tarildi. To'rtinchi qavatda, zina ro'parasidagi ochiq eshik oldida Rustam akasi maykachan barzangi bilan ro'parama-ro'para turar edi.

— Sen suv sepdingmi?

— Men! — dedi barzangi xotirjam ohangda. — Yarim kecha bo'ldi. To'xtat bozoringni!

Shunday deb eshikni yopmoqchi edi, Rustam oyog'ini tirab qoldi.

— Yo'qol! — dedi barzangi tahdid bilan. — Hozir militsiya chaqiraman!

— Chaqir!

— Rustam aka, olishmang! — Shahnoza erining yelkasiga osildi.

— Nari tur! Chaqir o'sha militsiyangni!

Barzangi eshik ortiga bir engashdi-yu, qo'lida aroqmi, vinomi shishasi paydo bo'ldi. Shishani Rustamning boshi ustida ko'tardi. Shahnoza nima bo'lganini payqamay qoldi. Bir mahal qarasa, barzangi yerda cho'zilib yotibdi. Shisha bir chetga uchib ketgan. Rustam akasi uning ko'kragiga tizzasini botirgancha, bo'ynidan bo'g'yapi. Bir zumda barzangining og'zidan ko'pik kela boshladi.

— Rustam aka! Nima qilayapsiz! O'ldirib qo'yasiz! — Shahnoza chirqillab erining yelkasidan tortqilashga tushdi. Qani kuchi yetsa! — Rustam aka! Qamab qo'yadi! — dedi yig'lab.

Rustam hushini yig‘ib oldi chog‘i, qo‘lini bo‘shatdi. Barzangi xirillab nafas ola boshladi. O‘zini o‘nglamoqchi edi, Rustam oyog‘i bilan yelkasidan bosdi.

— Menga qara! — dedi har so‘zini ta’kidlab. — Men sening xutoringga borib to‘y qilyapmanmi?

Barzangi tipirchilab, Rustamning oyog‘ini surib tashlashga uringan edi, Rustam qattiqroq bosdi.

— Gapir! — dedi tahdid bilan. — To‘y qayerda bo‘lyapti?

Barzangi ko‘zini olaytirib so‘kindi.

— Shunaqami? — Rustam qo‘lini tag‘in bo‘g‘ziga taqashi bilan barzangi yuvosh tortib qoldi.

— Bilib qo‘y! — dedi Rustam tishlari g‘ijirlab. — Odamlar xohlagancha to‘y qiladi. Xohlasa ertalabgacha karnay chaladi. Tushundingmi?

Shahnoza shundagina yo‘lakka odam to‘lib ketganini payqadi. Hech kimdan sado chiqmas, hamma uyog‘i nima bo‘lishini kutib turganga o‘xshar edi.

— Kechirim so‘ra! — dedi Rustam tahdid bilan.

Barzangi qaddini rostlamoqchi bo‘lganida Rustam yelkasidan qattiqroq bosdi.

— Kechirim so‘ra!

— Kechirasan... — Barzangi xirillab, yuzini o‘girdi.

Shahnozaning qulog‘i ostida guldirakdek qo‘rqinchli ovoz yangradi.

— Nega millatchilik qilasan, o‘v?!

Yo‘q, bu ovoz baland, asabiy emas edi. Juda osoyishta, ishonchli va shuning uchun ham xatarli edi. Kim o‘zi bu odam?

Zinadagilar orasidan arvohdek ozg‘in, zahil yuzli chol ajralib chiqdi. Boshida qora shlapa, egnida qora plash, oyog‘ida yap-yangi, yaltiroq tufli.

— Millatchilik qilma! — dedi chol toshbaqanikiga o‘xshash ingichka bo‘ynini cho‘zib. — Millatchilik qilma, bola!

Rustam kaltakesakni ko‘rib jirkangandek yuzini burdi.

Barzangi qaddini rostlab, mayka-ishtonining changini qoqdi.

— Baribir seni qamataman!

— Qamata qol! — Rustam negadir kuldi. — Eshitib qo'y, — dedi ta'kidlab. — Hammaning oldida aytyapman. Yerning tagidan bo'lsayam topaman-da, so'yib ketaman!

— Og'zingga qarab gapir, bola! — Boyagi "arvoh" qo'lini paxsa qildi. — Umring turmada chiriydi, ahmoq!

TERGOV HUJJATIDAN

G'aniyev Soat G'aniyevich. Yetmish besh yoshda. Ittifoq miqyosidagi pensioner. Millati — yo'q. So'qqabosh. Avval sudlanmagan. Qatortol mavzeyi, 40-uy, 41-xonadonda istiqomat qiladi. 1941-yildan beri partiya a'zosi. Qizil Yulduz, Jangovar Qizil Bayroq ordenlari, oltita medal nishondori.

— Grajdanin G'aniyev! Yettinchi noyabrdan sakkizinchi noyabrga o'tar kechasi qayerda edingiz?

— Birinchidan, o'rtoq tergovchi, men "grajdanin G'aniyev" emas, iste'fodagi polkovnik, o'rtoq G'aniyevman! Marhamat qilib, o'rtoq polkovnik deb murojaat etishingizni so'rayman. O'rtoq Komissar, desangiz ham roziman. Meni taniganlar "o'rtoq Komissar", deyishadi.

— Biz sizni guvoh sifatida povestka bilan...

— Povestkangizni pishirib yeng! Xohlasam, generalning o'zi bilan gaplashib qo'ya qolaman!

— Marhum Shomatovni birinchi bo'lib siz...

— Ha, men ko'rganman! Takror aytaman. Meni so'roqqa chaqirgan bo'lsangiz, adashasiz. Shunchaki kollega sifatida maslahat so'rasangiz boshqa gap.

— Siz ko'rganingizda Shomatov o'lganmidi?

— Badani sovub bo'lgandi. Zamonaviy ekspertizangiz Shomatov qachon o'lganini aniqlay olmadimi?

— Savolni men...

— Yig'ishtiring demagogiyani! So'roq qilishni bilmas ekansiz. Umuman sistemangiz aynib ketgan. Tartib yo'q. Tartib bo'lsa, Shomatovni organga ishga olmas edinglar.

— Kechirasiz, grajdanin... o'rtoq Komissar... Bu gaplarni siz qayoqdan bilasiz?

— Men hamma narsani bilaman. Bu sohada ish boshlaganimda sizning otangiz ham tug'ilmagan edi.

— Shomatov militsiyada emas, sudda ishlagan. Oddiy kuryer bo'lib.

— Farqi yo'q! Militsiya ham, sud ham — organ! Payti kelib haydaladigan odamni organga ishga olmaslik kerak.

— Shomatov haydalgan emas, o'z ixtiyori bilan bo'shagan.

— Ahamiyati yo'q.

— Ayting-chi, grajdanin... o'rtoq Komissar... sizning taxminingizcha marhum Shomatov bilan ro'y bergan hodisada qaysi taxmin haqiqatga yaqinroq turadi: qotillikmi? Baxtsiz hodisami, yo o'z joniga qasd qilishmi?

— Gapni shundan boshlash kerak edi!.. Hamma narsa bo'lishi mumkin. Menga qolsa birontasi avval o'ldirib, keyin derazadan tashlab yuborgan.

— Ekspertizaning aniqlashicha, marhumga birov pichoq urmagan. Boshi yorilgan, bo'yin umurtqalari singan. Marhum baland joydan boshi bilan tushsagina, bo'yin umurtqalari shu qadar ezg'ilanib ketishi mumkin.

— Demak, Shomatov o'z joniga qasd qilgan, demoqchimi ekspertizangiz?

— Bu — aniq xulosa emas.

— Unaqa bo'lsa, marhamat qilib, bitta savolga javob bersangiz. Shomatovning atrofida oyna siniqlari sochilib yotgan edi. Ekspertizangiz oyna bo'laklari to'rtinchi qavatdagi, Shomatov kvartirasining derazasidagi oynaga mos kelish-kelmasligini aniqladimi, yo shungayam aqli yetmadimi?

— Bizni kamsityapsiz, o'rtoq Komissar! Yerda sochilib yotgan oyna siniqlari o'sha derazadan tushgan. Marhumning bilagini ham oyna sinig'i tilib yuborgan.

— Xex! Bo'lmasa ayting-chi, Shomatov joniga qasd qilib, o'zini yerga tashlagan bo'lsa, uydagi jihozlarni kim sindirdi? Qaysi ahmoq o'lishidan oldin oynani sindirib, o'z bilagini o'zi kesib o'tiradi? Shunchaki, derazani ochib, yerga sakrab qo'ya qolmaydimi?

— Demak, siz qotillik ro'y bergan deb tasdiqlaysiz.

— Men hech nima deganim yo'q, kollega. Ilintirishga urinmay qo'ya qoling.

— Yo'q, men boshqa ma'noda... Ya'ni... birontasidan gumoningiz bo'lsa...

— Gumonmi? Gumonim — hammadan! Eshitdingizmi? Hammadan! Sizga ham shuni maslahat beraman! Yuz foiz hammadan, hatto o'zining xotinidan, bolasidan gumon qilmaydigan odamdan haqiqiy chekist chiqmaydi! Avvalo Shomatovning o'zidan gumon qilish kerak!

— Ya'ni... Qaysi ma'noda?

— Baloniyam bilmaysanlar! Hayronman, institutlaringda nimani o'rgatadi senlarga? O'sha bolaning tili bir qarich edi! Tushunarlimi?

— Kechirasiz-ku, qanday qilib marhumning o'zidan...

— O'rtoq Stalin bilan tish do'xtir hangomasini eshitganmisan? Darvoqe, nechanchi yilda tug'ilgansan? Tushunarli... Senlar o'rtoq Stalinni yomonlab o'rganib qolgansan! Agar o'sha zamon bo'lsa... Xex! Bir oydan beri arzimagan ishni ocholmay timirskilanib yuribsanlar. Xafa bo'ldingmi? Xafa bo'lsang undan nari! Keyingi ishingda foydasi tegadi. Shunday qilib, o'rtoq Stalinning tishi og'rib qolibdi... Do'xtir chaqiribdi. Do'xtir dohiyning tishini kavlashtirib davolashga kirishibdi. Bir kun o'tibdi, ikki kun o'tibdi... Do'xtir nuqul tishning tuzilishi, necha qatlam bo'lishi, ildizi nechta bo'lishini aytib, vaysarmish... Oxir dohiy do'xtirdan so'rabdi. "Tish qattiqmi, til qattiqmi?" "Hazillashyapsizmi, o'rtoq Stalin, — debdi do'xtir. — Tishning emal qatlami shunaqangi qattiqki, po'latni kesib tashlaydi. Til nima? Bir parcha yumshoq muskul-da", debdi. "Shunaqami?" debdi o'rtoq Stalin. O'sha kuni o'rtoq Beriyaga buyuribdi. "Lavrentiy Pavlovich, — debdi. — Manavi do'xtirning tili juda yumshoq ekan. Ertaga men Stalinning tishini davoladim deb vaysab yuradi, javobini beringlar" debdi. Yarim soatdan keyin do'xtirning "javobini" berishibdi. Chakkasidan otishayotganda ham do'xtir to'xtovsiz vaysarmish: "o'rtoq Stalinning tishini davolashga ulgurmadim-da, nomim tarixda qolardi", dermish.

— Bu gapni marhum Shomatovga nima dahli bor?

— Xex! Boyadan beri tanbur chertyapman ekan-da! Shomatov ham tarixda qolgisi keladiganlardan edi! Qachon qarasa masala talashadi. O'zicha haqiqat o'rnatmoqchi bo'ladi. Ko'rganmiz, bunaqalarni!.. Men o'n besh yoshimdan komissar bo'lganman!

— O'n besh yoshdan?

— Ha, o'n besh yoshdan! Senlar nima? Amallab o'qishga kirasan... Amallab bitirasan. Bilaman, kollega, hammasini bilaman! Gapingiz yolg'on deb ko'r-chi! Xex! Chekist — chekist bo'lib tug'ilishi kerak! Vot masala qayerda! Hay, mayli, Shomatovning xotinini tergov qildingmi?

— Albatta!

— Gumoni kimdanmish?

— Unisini aytmadi-ku, qo'shnining to'yi kuni bo'lgan voqeani gapirib berdi.

— Xabarim bor! Menga qolsa, ayb Shomatovning o'zida edi. Aytyapman-ku, burnini suqmagan joyi yo'q edi bu bolaning! Sen, kollega, Shomatovning xotinini siquvga ol, uqdingmi? Nima balo, yelkasiga qoqib chiqarib yubordingmi?

— Qiziq odam ekansiz. Qamoqqa tiqishim kerakmidi, sizningcha!

— Bo'lmasa-chi! Ezish kerak bularni. Ezish! Shunaqangi buraginki, dunyoni boshiga ko'tarib dod solsin!

— Aybi isbotlanmagan odamni-ya?!.

— Xex! Shu ketishing bo'lsa ikki dunyoda hech kimning aybini bo'yniga qo'yolmaysan!

— Judayam unchalik emas, o'rtoq Komissar... Bizning ham usullarimiz ko'p...

— Ko'ramiz, qayoqqacha borarkansan o'sha usullaring bilan!

OQIMGA QARSHI SUZGANIM BO'LSIN!

So'tag-ey! Jo'jaxo'roz-ey! Qo'yib bersa meni so'roq qilmoqchi! Meni-ya! Jangovar Qizil Bayroq, Qizil Yulduz ordenlari kavaleri, kimsan Komissarni-ya! Avval burningni artib ol, mishi-

3 - 22-310
INV. №48951/1
SIYOSIY TA'LIM MARKAZI
OROT-RESURS

qi! Sovet organining kuni shularga qoldimi endi? Qayoqqa qarab ketayapmiz o'zi? Xo'p zamonlar o'tgan ekan-da? Egningda charm palto. Boshingda shapka. Yoningda nagan. Qaysi eshikni taqillatsang ko'radi-yu, taxta bo'ladi-qoladi. "Grajdanin falonchi sizmi?" desang, tili kalimaga kelmaydi, unsurning!..

Xrushchev degani chiqib, o'rtoq Stalinga yopishib ko'rdi. Jasadini mavzoleydan chiqarib tashladi! O'zi nima bo'ldi? Xor-zor bo'lib o'ldi-ku! O'z ko'ngillarida xalqqa ozodlik berdilar. Ozodlik emish! Kim qo'yibdi tizginsiz olomonga ozodlikni! Keyin boshqasi keldi... Qog'ozga qaramasdan gapirsa, otini aytolmaydi-yu, tag'in bu kishi marshal emish! "Generalissimus" degan so'zni aytishga tili kelishsa, olardi shu yuksak unvonniyam! Nuqul orden ulashish bilan ovora! Oxiri nima bo'ldi? Hammasida orden. Hammasi poraxo'r!

Ambarsumyan — malades! Kallavaram o'zbekning nozik joyidan mahkam ushladi! Manaman degan obkomlar-u raykomlarni, raislaru bug'altirlarni g'ippa yoqasidan oldi! "Marhamat qilib, to'plagan millionlarni cho'zib qo'y! Ochig'ini ayt! Kimdan olding-u kimga cho'zding? Qachon? Qancha?" Mana buni haqiqiy stalincha metod desa bo'ladi! Otangga rahmat-e, shovvoz!

Qani shunaqalardan o'n mingi, boring, ana mingtasi bo'lsa! Hamma yoqda tartib qaror topardi!

Zamon aynib ketdi, zamon! Hamma "demokratiya" deb chinqiradi. "Perestroyka" deydi! Oshkoralik deydi!

Hamma ozod. Hammaning tili bir qarich! Og'ziga kelganini vaysaydi. Ko'ramiz, hali nima bo'larkin...

Ertaga demokratiya diktaturasi boshlanadi. Hammasi anarxiyaga aylanib ketadi. Xalq nima? Poda-ku, mol-ku! Qamchiningni qarsillatsang-chi!

Nima dedi anavi go'dak tergovchi? "Bizdayam yaxshi usullar bor", emish. Bilamiz, usulingni! Uyiga bir chimdim nasha tashlab qo'yarsan, saratonda bir hafta suv ichirmassan. Yoki aksincha, sovuq xonaga olib kirib, miyasidan muzdek suv tomizarsan. Kameraga qamab, retsidivistlarga do'pposlatarsan, "qani yigitlar, manavi senlarga sovg'a, xohlagan ishingni qil", deb shipshitib qo'yarsan. Shumi? Hammasi almisoqdan qolgan metodlar!

Mendan so'ramaysanmi? Aytib bermaymanmi, bir chekkadan! Eng jo'nidan, eng antiqasigacha!

Do'xtirlar nima uchun qon olganda to'rtinchi barmoqni teshadi? Bilasanmi shuni? Bilmaysan! Nega deganda to'rtinchi barmoqning nerv tolalari nozik bo'lmaydi. Eng yomon og'riydigani qaysi barmoq? Bilasanmi? Bilmaysan. Bosh barmoq, nodon. Bosh barmoq! Mahbusning bosh barmog'ini eshik tirqishiga tiqasan-da, seki-in, hafsala bilan qisaverasan. Dod demaguncha. Keyin qo'yib yuborasan. Undan keyin qaytadan boshlaysan. Mayli, tirnog'i ko'chib, maydalanib ketsin! Suyagi qisirlab sinayotganini o'zi eshitsin! Shikoyat qiladimi? Kimga? O'ziga o'zi tan jarohati yetkazgan, deb protokol tuzib qo'yasan. Gunohi yanayam og'irlashadi. Tamom!

Bunisi eng oddiy usul. Yo'g'-e, bundan ham osoni bor. Jo'ngina. Mahbusning biron joyi tirnalmaydiyam. Prokurorga shikoyat ham qilolmaydi. Qirq sakkizinchi yilda bir adabiyotshunos olim qo'lga olingan edi. Qizzig'arning ikkita kitobi chiqibdi-yu, o'rtoq Stalin haqida bir og'iz so'z yo'q. Nuqul Navoiy... Nuqul Bobur... Poshsholar. Vazirlar.

Bobur degan poshsho yozganmish: "Jamoling ishqida yorim, bir oydirki, bedorman!" Qarang-a, Hindistonni bosib olgan zolim poshshoning gaplari ixtiro emish! Poshshoying-ku, o'lib ketgan! Sen-chi? Professor degan unvoni bor ahmoq. Yolg'on-yashiq shig'irlarni maqtashing shartmi? O'tmishni ideallashtirish emasmi bu! Ko'raylik-chi, o'sha Bobur deganingni yozganlari rostmi-yolg'onmi? Qani, burchakka tur! Bir oy emas, aqalli uch kun uxlamay ko'r-chi!

Chiroqni ko'ziga to'g'rilab, savolingni beraverasan. Och qo'yish, suv bermaslik shart emas. Suviniyam ichadi. Miskadagi yuvindiniyam vaqtida berib turasan. Faqat uxlatmaysan. Sheriging bilan almashib turasan, xolos. Bir kecha-kunduz mijja qoqmay tik oyoqda tursin-chi, holi nima kecharkin? Tagidan arra solingan terakdek gup etib ag'dariladi. Suvga ham qaramay qo'yadi, iblis! Ikki ko'zi qizarib, milki osilib ketadi. Yiqildimi, boshidan suv quyib, uyg'otasan-da, tag'in so'roq qilaverasan. Kerak bo'lsa, gugurt cho'pidan "tirgovich" yasab, milkiga tiqib qo'yasan. Ikki kechada sulayib qoladi. Yaxshi! Bizning shoshadigan joyimiz yo'q.

Hushingga keltirib, hammasini qaytadan boshlayveramiz. O'rtoq Lenin topib aytgan: "intelligentlar borib turgan vaysaqi bo'ladi". Professor degani shu bo'lsa, xex! Bo'yi bir qarich. Liliputning o'zginasi. Ammo chidamli ekan, unsur! Oyoqlari ipdek, puf desang uchib ketadigan holi bor-ku, miq etmaydi, eshshak! Nachora, boshqa usulni qo'llashga to'g'ri keldi. Ikkita kallakesar yotgan kameraga tiqib qo'ygan edik, bir soat o'tmasdan eshikni mushtlab dod solib qoldi-ku! Bolasi tushmagurlar-yey! Parashadagi najasni yeysan deb boshini paqirga tiqishibdi. O'sha zahoti o'z qo'li bilan yozib berdi. "Men professor falonchi pistonchiyev Sovet jamiyatiga ichdan zarba berishni rejalashtirgan yashirin tashkilot a'zosiman. Shuning uchun o'tmishni ulug'laganman. Men O'zbekiston mustaqil bo'lishini xohlaganman. Angliya razvedkasining agenti bo'lganimni tan olaman. Turkiyaga qochib o'tib, undan Londonga bormoqchi edim... Gunohimni to'liq bo'ynimga olaman".

Albatta, ba'zi muhim nuqtalarni eslatib turishga to'g'ri keldi. Qizig'i bu emas. Qizig'i shundaki, to'rt kun uyqusizlikka chidagan odam najas yeyishdan or qilibdilar. Xex! Bu kishi O'zbekiston mustaqil bo'lishini xohlab qoptilar! Panturkist! Shpion! Seni deb to'rt kun uyga borolmadim. Ketding endi qiya bo'lib! Yigirma besh yilga! Muzlab yotgan o'rmonda qarag'ay kessang, es-hushingni yig'ib olasan.

O'ylab turib tutaqib ketasan-da, chort vozmi! Anavi so'tak tergovchiga qo'yib bersa, bir haftada hal bo'ladigan tergovni yillab cho'zadi. Tuvakka o'tkazmaysanmi Shomatovning xotinini! Sayramaydimi bulbuligo'yo bo'lib!

To'g'ri, "gorshok operatsiyasi" xotinlardan ko'ra erkak kishida yaxshi effekt beradi. Lekin bu usulni xotin kishiga ham bemalol qo'llasa bo'laveradi.

Bunisiyam oddiy metod. Yaqinda qulog'iga chalindi: internatsionalist jangchilar asirga tushib qolsa, afg'onlar ham ishlatayotganmish bu usulni. Ajab qiladi. Yaxshi jangchi asir tushmaydi!

Xullas, "gorshok" operatsiyasi juda qulay. So'roq berayotgan jinoyatchini qip-yalang'och qilib yechintirasan. Yordamchilaring usti berk tuvakni olib kiradi. Jinoyatchini o'shanga o'tkazasan. Yordamchilaring uning ichidagi kalamushga ko'z-quloq bo'lib tur-

sa — bas. Bundan tashqari, tuvakni jinoyatchining orqasiga shunday yopishtirish kerakki, moyagi uning ichiga kirsin. Besh minutdan keyin kalamush nafas ololmay dimiqib qoladi. Tashqari chiqish uchun sakrayveradi. Har sakraganda moyakni tishlaydi. Dunyoda kalamushning tishidan o'tkir narsa yo'q. Erkak kishining eng nozik joyi — moyak. Kalamush har tishlaganda jinoyatchi hayvondek o'kiradi. Manaman degani ham yarim soatda hushidan ketadi. Qarasang, tuvak to'la qon... Kalamushlar ham odam qonini ichishga o'rganib qolarkan. Bora-bora tuvak ichida "ziyofat"ni poylab jimgina yotadigan bo'lib qoladi...

Ana shunaqa usullar bor, kollega! Sen bola, nimani bilarding! Haliyam bo'lsa qo'yib ber bizlarga! Lyuboy jinoyatchining aybini uch kunda bo'yniga qo'yib bermasak, tuf de!

* * *

...Havo sovuq, osmonda zahardek achchiq qor uchqunlari erinchoq kezadi. Ko'chalarni oynadek muz bosgan, mashinalar emaklagudek qo'rqa-pisa imillaydi. Nafas olsang, og'zingga sovuq olov kirayotgandek bo'g'zingni achishtiradi. Odamlar tayg'onoqda yiqilib mayib bo'lmaslik uchun ehtiyotlab qadam bosadi. Juda sozda! Qadamingni bilib bos! Qancha qo'rqsang, shuncha yaxshi! Tartib bo'ladi, intizom bo'ladi...

Komissarning yonidan quyon telpakli kishi shitob bilan o'tib ketdi. Ikki qo'lini paltosining cho'ntagiga suqib olgan... Qo'ltig'ida — archa... Hovliq-a, hovliq! Bitta yiqilsang, archang besh quloch nariga otilib ketadi. Yangi yilni bannisada kutib olasan. Xotining bayramga "peredacha" olib boradi.

...Anavi tergovchi Komissarning gapiga ishonmadi. Xex! o'n besh yoshimdan komissarman desa, rostdanmi, deydi. Albatta ishonmaydi-da! Bularda na kasbiga mehr bor, na e'tiqod!

...Tepaqo'rg'on katta qishloq edi... Chor-atrof bog'-rog'lar, uzumzorlar... Soat bahor pallasi Xirmontepaga chiqib varrak uchirar, butun qishloq kaftda turgandek ko'rinar, yer-u ko'k o'riklar-u, shaftolilar guliga ko'milib ketganga o'xshar edi. Har yili somonshuvoq qilinaverib qalin tortib ketgan tomlar ustida qip-qizil lolaqizg'aldoqlar, munis chuchmo'malar ochilar, qishloq etagida

yoyilib oqayotgan Qonqus olisdan jigarrang ilondek to'lg'anayotgani ko'zga tashlanardi. Qishloq o'rtasida mezanali machit. Obidxon eshonning to'rt paxsa devorli qo'rg'oni bilan Yunusboyning tunuka tomli qaddi baland uyi oldida Soatlarning kulbasi bostirmadek g'arib ko'rinardi.

Holbuki, Soatning dadasi uncha-muncha odam emas, Komissar G'aniyev edi! Egniga charm tujurka, boshiga ayvonli shapka kiyib, biqiniga brauning taqib yurar, ko'cha-ko'yda duch kelib qolsa, Yunusboy ham, qozondek sallali Eshon ham ikki bukilib ta'zim qilishardi.

Shunaqa-ku... Soat bir narsaga hech tushunmasdi. Hayit arafasida, Navro'z bayramida Eshonning qo'rg'oni oldida ot-aravalar qatorlashib ketar, yuzlab odamlar "piri"ning duosini olib qolishga oshiqar edi.

Hech yodidan chiqmaydi. Bir kuni Soat brauningni moylab o'tirgan dadasidan so'radi:

— Nega Eshonning devori biznikidan baland?

Dadasi kuldi.

— Eshon o'zining qora qilmishlarini eldan yashirish uchun qo'rg'onini baland devor bilan o'rab olgan, o'g'lim! Yaqinda hammasiga qiron keltiramiz, Eshon ham bo'lmaydi, boy ham... Umuman, devor deganning o'zi bo'lmaydi. Butun dunyoda proletariat g'alaba qozonadi.

Soat otasining gapiga yaxshi tushunmasa ham, bir narsani angladi. Yaqinda Eshonning devori buziladi. Yunusboyning tunuka tomli uyi qo'porib tashlanadi. Keyin hamma teng bo'ladi...

Dadasi orzusiga yetolmadi. Kuz kunlarining birida o'ligini aravaga ortib kelishdi. Tepaqo'rg'onda qiyomat qo'pdi. Qizil choyxonada katta miting bo'ldi. Shahardan "kattalar" keldi. Miltiq ko'targan sollotlar hamma yoqni o'rab oldi. "Inqilob dushmanlariga o'lim!" "Yo'qolsin tekinxo'r boy va eshonlar!" degan xitoblar yangradi.

Soat dadasining katta odam ekanini o'shanda aniq his etdi. Otasini ko'mishayotganida sallotlar gumburlatib o'q uzdi.

Ertasiga qama-qama boshlandi. Tepaqo'rg'onda bir-biridan vahimali mish-mishlar tarqaldi. "Komissarni Yunusboyning odamlari

pichoqlagan ekan. Boyni otib tashlashibdi". "Komissarni o'ldirishga Obidxon eshon fatvo bergan ekan. Eshon sovet xalqining dushmani ekan. Avval ham machitda "savetskiy vlas-ochizdan o'las" deb karomat qilganini eshitganlar bormish...

Eshonni yigirma besh yilga kesishibdi. Uyidan olib chiqib ketishayotganida Eshon Qur'onni ko'ziga surtib, qasam ichibdi. "Kalomullo ursin, men bir bandayi-mo'minning joniga qasd qilishdan qo'rqaman, Yaratgan Tangrimning o'zi guvoh" deb yig'labdi".

Bir haftada Tepaqo'rg'on o'lat oralagandek huvillab qoldi. Yigirmaga yaqin odam qamaldi. Machit buzib tashlandi...

To'g'ri, otasini Tepaqo'rg'onda emas, Beshyog'och yaqinida, siymonko'prikda pichoqlashgan ekan... Nima farqi bor? Komissar G'aniyev yigirma besh mingchilardan edi. Demak, uni shu yerlik ichki dushmanlar o'ldirgan!

Soat bir narsani tushunmas, tushunishni xohlagisi ham kelmasdi: qiziq, o'sha voqealardan keyin onasi... to'satdan namozxon bo'lib qoldi. Joynamoz ustida yuziga fotiha tortayotib, baralla tavallo qiladi:

— Ey poki parvardigor!.. Yakka-yu yagona bolam haqqi, iltijo qilaman. Otasining gunohidan o't. Mahshar kunida do'zax azobidan o'zing xalos et! Eshon ota! Bilaman, sizda gunoh yo'q. Qayerda bo'lsangiz ham umr-joningizga barakot ato etsin!

Oxiri Soat chidolmadi. Joynamoz ustida o'tirgan onasining boshiga o'dag'aylab bordi.

— O'chiring-e! Unsurlar dadamni o'ldirsin-da, siz ularni duo qiling?!

Onasi iltijolarini aytib bo'lib, yuziga fotiha tortdi-da, o'rnidan turdi.

— Meni onam desang, — dedi qat'iyat bilan. — Otangni yo'lidan bormaysan! Borsang, oq sutimni ko'kka sovuraman. O'lsam go'rimda tik turaman!

Soat birpas serrayib turdi-da, uydan chiqib ketdi. Jinni bo'lib qolganmi onasi?! U tengqur bolalarning munosabati o'zgarib qolganini avval payqamadi. Bora-bora tushundiki, o'rtoqlari undan qo'rqar ekan. To'rttasi gaplashib turgan bo'lsa, Soat yaqin borishi

bilan kelishib olgandek jimib qoladi. Yo‘q, gaplashishadi u bilan. Gaplashadi-yu, begonaligi sezilib turadi. G‘alati holat. Soat ham g‘ururlanadi, ham ko‘ngli o‘ksiydi.

Hech esidan chiqmaydi. Qish oftobi charaqlab turar edi. Allaqancha bolalar yong‘oqzor chetidagi maydonda qor-bo‘ron o‘ynayotgan ekan. Soat ham kelib qo‘shildi. Kaftida qor zichlab bir otgan edi, baxmal kamzul kiygan qizaloq yuzini changallagan ko‘yi chirqillab qoldi. To‘g‘risi, Soat uni urmoqchi emasdi. Shunchaki, qorni duch kelgan tomonga otgandi.

Soat yugurib bordi. Qarasa, qizaloq kafti bilan yuzini berkitib, qorda cho‘kallab o‘tiribdi. Qizaloqning bilagidan tortgan edi, bir ko‘zi shishib ketganini ko‘rdi.

— Yig‘lama, — dedi rahmi kelib. — Ataylab qilmadim-ku, jinni! Oting nima?

— Otimni aytsam nima qilarding! — dedi qizaloq hamon yig‘-lab. — Meniyam qamatmoqchimisan? — Tag‘in o‘kinib-o‘kinib yig‘lashga tushdi.

— O‘v, zo‘ravon! Nega urding Potmani?

Soat qulog‘i ostida yangragan chiyildoq ovozni eshitib burilib qaradi. Yonida o‘zidan besh-olti yosh kichik Husan chaqchayib turardi. Soat shundagina tushundi. Bular — Eshonning arzanda egizaklari: Fotima-Husanlar. Indamay burilib ketayotgan edi. Husan kutilmaganda uning yoqasiga yopishdi.

— Nima yomonlik qildi senga? — dedi big‘illab.

Soatning g‘ashi keldi.

— O‘t-e, eshonvachcha! — dedi Husanning qo‘lini yoqasidan olib tashlashga urinib. Husan chillakdek qo‘llari bilan mahkam tirmashib olgan, ko‘zlari mushukdek yonardi.

Soat bir musht solgan edi, Husan qorga chalqancha yiqildi. Labi qonab, qorga tufladi. Shundagina Soat qiy-chuv tinchib qolganini, atrofini katta-kichik bolalaru qizlar halqadek o‘rab, o‘shshayib turganini ko‘rdi. Dadil borib, halqani yorib o‘tdi. Qulog‘iga rasta bo‘lgan yigitchalarga xos g‘o‘ldiragan ovoz kirdi:

— Menga qara, o‘v Komissar! Agar Husanni yana bir marta ursang...

Soat ortiga burilib qaradi. Hakim tegirmonchining o'g'li — o'zi bilan tengdosh To'lagan ko'zini olaytirib turibdi. Buning ham otasi surgun bo'lgan! To'lagan boyagi gapini yana qaytardi:

— Bir marta ursang...

Soat bir zum ikkilanib turdi-da, nari ketdi.

* * *

Yozda yana bir voqea bo'ldi. Ayni saraton edi. Soat Qonqusga cho'milishga bordi. Anhor chetida tuproqqa belanib yotgan qoraqura bolalar orasida to'rt-beshta tengqurlari ham borligini uzoqdan ko'rdi. Tuproqqa dum tushib yotgan bolalar bir nimalarni gaplashib qiyqirib kulishar, har kulganida zavqlanib, tovonini urishtirib qo'yardi. Bir chekkada, o'rik tagida yotgan Husanxo'janing ingichka kulgisi ayniqsa, jaranglab chiqar edi.

Soat yaqin kelishi bilan hammasi jimib qoldi.

— Cho'milyapsanlarmi? — dedi Soat boshqa gap topolmay.

Bolalar orasidan kimdir to'ng'illadi:

— Qayish uqalayapmiz!..

Qiyqiriq kulgi ko'tarildi. Soat Husanxo'janing ayricha zavqlanib kulganini eshitdi.

— Suv qanaqa? — dedi beparvo gapirishga urinib.

— Tushsang bilasan.

Soat jahl bilan ko'ylagini yechib, o'rik shohiga ildi-da, Qonqusga kalla tashladi. Suv sovuq edi. Sho'ng'ib chiqib, oqimga qarshi suza boshladi. Hov anavi majnuntolga yetmaguncha qo'ymaydi! Suzishga usta edi. Qiziq, uvvalo urinadiki, qani aqalli bir quloch surilsa! Ilgari oqimga qarshi hech suzmagan ekan. Qanaqa anhor o'zi bu la'nati? Yuzasi qilt etmaydi. Hovuzga o'xshab jimirlab turibdi-yu, tagi shiddat bilan oqadi. U oldinga intiladi, suv orqaga tortadi! Oyoq-qo'lini tapillatib jon-jahdi bilan suzaveradi. Yetadi! Majnuntolga yetmaguncha qo'ymaydi. Oxiri hansirab ketdi. Bir mahal qarasa, anhor sohilida bolalar qaldirg'ochdek tizilib o'tiribdi. Qorni, tizzasi tuproqqa belangan.

— Ha-a, Komissar! Qani, bir g'ayrat qil-chi, ko'ramiz suvga teskari suzish qanaqa bo'larkan? Buning otini Qonqus deb qo'yibdi, o'v!

Soat To'laganning ovozini tanidi. Shu gaping uchun ham suzadi, o'lib qolguncha suzaveradi!

Bo'lmadi... Holdan toydi. Qarasa, oqim, orqaga — o'ramaga surib ketyapti. Qo'rquv ichida qirg'oqqa talpindi. Qamishlarni changallab sirpana-sirpana yuqori chiqib oldi. Hansirab nafas olar, oyoq-qo'li titrardi. Sohilga chiqishi bilan bolalar baravariga qiyqirib kulishdi.

"Dushman! Hammasi dushman! Ilonning bolasi — ilon, chayonning bolasi — chayon!..." Soat daf'atan xayoliga kelgan gapdan ko'nglida alam va ayni paytda allanechuk yengillik tuydi. Oftobning binafsharang halqachalaridan qamashgan ko'zlarini yumib, uzoq yotdi. Bir mahal qarasa, ko'ylagi osig'liq o'rik shoxida sapsariq mevalar yaltirab turibdi. Pastda emas, qir uchida. Xayoliga g'alati o'y keldi.

— Husanxo'ja! Husanxo'ja!

— Nima? — degan ingichka ovoz keldi.

— O'rik olib tush. Hov, yuqori shoxdan. Tez bo'l!

— Yiqilib tushaman-da.

— Yiqilmaysan.

Husanxo'ja uzun ishtonini shaloplatib yaqin keldi.

— Kesak otaqolay?

— Mayli, — dedi Soat loqaydlik bilan.

O'rik balandda edi. Husanxo'ja mo'ljallab nuqul kesak otar, kesagi tepa shoxga yetmas edi. Terlab ketdi. Boshqa bolalar indamay tomosha qilib yotibdi. Oxiri, bitta kesak o'rikli shoxga tegdi. Uchta o'rik to'pillab tuproqqa tushdi. Husanxo'ja yugurgilab olib keldi.

— Mang, Soat aka!

— Yuvmaysanmi, ahmoq! — Soat ko'zini ola-kula qildi. — Tuproqqa qo'shib yemayman-ku!

Husanxo'ja anhor sohiliga qorni bilan yotib, o'rikni chayib keldi.

— Mang, aka!

— Yorilibdi-ku, eshshak! Menga butuni kerak! — Soat o'riklarni anhorga uloqtirdi. — Chiq shoxga! — dedi o'dag'aylab. — Butunidan uzib tush!

Husanxo'ja birpas angrayib turdi-da, alam bilan chiyilladi:

— Ey, bor! Men sening malayingmanmi?

— Nima? — Soat sapchib o'rnidan turdi. — Nima deding? — tarsakilab yuborgan edi, Husanxo'ja ag'darilib tushdi.

Shunda... kutilmagan hodisa ro'y berdi. Ovozi do'rillab qolgan tengdoshlari quyundek yopirilib keldi. To'rttasi baravar yopishdi. Biri qo'ltig'idan oldi, biri oyog'idan... Suvga uloqtirib yuborishdi. Soat Qonqusning qoq o'rtasiga shaloplab tushdi. Xuddi qurbaqadek. Sohilga suzay desa, raqiblari tizilib turibdi: Hammasi zavqlanib kuladi. Husanxo'ja tuproq changitib maymundek irg'ishlaydi. Narigi qirg'oq — tik. Anhor chetida o'sgan maymunjonlar, nayzasini qayrab turgan na'mataklar suvga egilib yotibdi. Soat tag'in oqimga qarshi suzishga tushdi. Majnuntolga yetsa, narigi betga chiqib oladi...

Bora-bora qo'llaridan mador ketganini, oyoqlari uvishib qolganini sezdi. Og'ziga suv kirib o'qchiy boshladi. Qonqus bilan hazillashib bo'lmasligini, o'z yo'liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini idrok etdi. Ammo boshqa chorasi yo'q edi. Suv yana ozgina oqizib borsa bas. Qonqus keskin buriladi-da, o'ramaga tortib ketadi.

Bir lahza tin oldi. Shunda sohildagi bolalar ham jimib qolganini his qildi. Qulog'iga Husanxo'janing chinqiroq ovozi kirdi:

— To'lagan aka! Cho'kib ketadi, shox sindirish kerak, To'lagan aka!

Soat butun kuchini to'plab tag'in oqimga qarshi suzdi. Biroq endi madori qurib bitgan, qo'llari ojiz shaloplar edi. Daf'atan tumshug'i tagida turgan shoxga ko'zi tushdi.

— Soat! — dedi sohilda o'rik shoxining bir uchidan tutib turgan To'lagan. — Ushla! Cho'kib ketasan, jinni!

Soat holdan toygan qo'llarini ojiz tipirlatarkan, qirg'oq tomoniga nafrat bilan qaradi.

— Yo'qol! — dedi nafasi qaytib. — Menga sening yordaming kerak emas!

Burilib, narigi sohil tomon suzdi... Nihoyat, na'matak shoxiga chang soldi. Kaftiga tikan kirganini ham, og'riqni ham sezmadi. Entikib-entikib nafas rostladi. Na'mataklar changalzori oralab tik

sohilga chiqquncha tikanlar a'zoyi-badanini qonatib tashladi. Qarasa, bolalar narigi qirg'oqda qatorlashib turibdi.

— Eshitib qo'ylaring! — dedi Soat alam aralash g'azab bilan. — Men Komissar bo'laman! Albatta bo'laman! Hammangni otaman! Bitta-bittadan otaman!

TERGOV HUJJATIDAN

Vasilyev Grigoriy Stepanovich. Yigirma sakkiz yoshda. Makaron zavodining ishchisi. Millati — rus. So'qqabosh. Avval sudlanmagan. Qatortol mavzeyi 10-uy, 35-xonadonda istiqomat qiladi. Partiyasiz.

— Toshkentga qachon ko'chib kelgansiz?

— Bultur. May oyida.

— Qayerdan?

— Smolenskdan.

— Bir o'zingiz yashaysizmi?

— Bo'lmasa kim bilan turishim kerak?

— Savolga javob bering!

— Bir o'zim.

— Nima maqsadda kelgansiz?

— Nima maqsadda bo'lardi. Yashash, ishlash uchun. Kamyob mutaxassis sifatida taklif qilishgan.

— Zavodda nima ish qilasiz?

— Avtopogruzchik haydayman. Umuman, meni Algoritm zavodiga taklif etishgan. Yaqinda o'sha yoqqa o'taman.

— Programmalovchi injenermisiz?

— U nima deganingiz?

— Kasbingizni so'rayapman?

— Aytdim-ku, avtopogruzchik haydayman.

— Shu kamyob kasbmi?

— Demak, kamyob ekan-da.

— Smolenskda nima ish qilardingiz?

— Zavodda ishlardim.

— Oilangiz bormidi?

— Bor edi.

— Kim bilan turardingiz?

— Xotinim, qaynonam, men...

— Yana?

— Ha-a, gap bu yoqda deng?!

— Yana kim?

— Larisa shikoyat yozibdimi? Ovora bo'ladi! Qizi avvalgi eridan bo'lgan. Mendan aliment olishga haqqi yo'q.

— Xotiningiz bilan rasman ajrashmagan ekansiz-ku.

— To'g'ri, ajrashgan emasmiz, ammo u bilan turmayman. Ajrashishga tayyorman.

— Yigirma ikkinchi oktabrdan yigirma uchinchi oktabrga o'tar kechasi nima voqea bo'lgandi?

— Esimda yo'q.

— Eslatishim mumkin. O'sha oqshom to'y bo'lgan. Domning pastida.

— E, umi? Shunga meni aybdor sanayapsizmi?

— Savolga javob bering! Nima bo'luvdi?

— Tinchlik bermasa nima qilay? Yarim kechagacha g'at-g'ut! Quloqni qomatga keltiradi. Qiyqiradi, yovvoyiga o'xshab!

— Keyin-chi?

— Nima, "keyin"?..

— Siz nima qildingiz?

— Uch-to'rt marta ogohlantirdim. Keyin, derazani ochib, suv sepdim. Sal boshi sovusin, dedim.

— Qilgan ishingiz jinoyat ekanini bilasizmi?

— Nega jinoyat bo'larkan? Rabochiy klass dam olishi kerakmi axir? Gorispolkomning qarori bor. Soat 23 dan keyin shovqin-suron solish mumkin emas.

— Gorispolkomning to'y qilinmasin, degan qarori yo'q. Nega odamlarning boshidan suv sepasiz?

— Xo'p, ana, hazillashdim, deb hisoblay qoling. Nega meni tergov qilasiz-da, uyimga bostirib kirgan bezoriga indamaysiz? Tepib, oyog'imni sindiray dedi. Oz bo'lsa, bo'g'ib o'ldirib qo'yardi. Bu haqda militsiyaga xabar berganman. Surishtirib ko'rishingiz mumkin.

— Bo'lmasa nega arizangizni qaytarib oldingiz? Nima uchun ekspertizaga bormadingiz?

— Klavdiya Sergeyevna aytdi. "Bekor qilyapsan shu ishni, undan ko'ra to'yda mehmon bo'lsang, hech kim seni haydamasdi", dedi.

— Kim u Klavdiya Sergeyevna?

— Pensioner. Birinchi qavatda turadi. Toshkentga urush paytida kelgan ekan.

— Shuning uchun qaytib oldingizmi arizangizni?

— Shu...

— O'sha kuni o'zingiz qancha ichgandingiz?

— Menmi? Tuhmat! Nega icharkanman?

— Eshigingizni taqillatgan grajdanin Shomatovning boshiga aroq shishasi bilan urmoqchi bo'lgansizmi axir?

— Grajdanin tergovchi, millatchilik qilayapsiz. Ustingizdan arz qilaman!

— Marhamat! Bu — sizning huquqingiz. O'sha kuni g'irt mast bo'lgansiz. Ertasiga militsiyaga ariza olib borganingizda ham kayfingiz tarqamagan. Ekspertizaga borishdan qochgansiz. Kechqurun da'voyingizdan voz kechish to'g'risida boshqa ariza yozib kelgansiz.

— To'g'ri, yozib kelganman. Nima bo'pti shu bilan? Haqqim bor.

— Grajdanin Shomatovni hozir ko'rsangiz, taniysizmi?

— Meni ahmoq deb o'ylayapsiz shekilli, grajdanin tergovchi? Uni o'ldirib ketishganini mendan yaxshi bilasiz.

— Nega endi aynan "o'ldirib ketishgan" deyapsiz? O'ldirib ketishganini siz qayoqdan bilasiz?

— Qo'shni domda birovni o'ldirib ketadi-yu, quloqqa chalinmaydimi?

— Yettinchidan sakkizinchi noyabrga o'tar kechasi qayerda edingiz?

— H-h-ha! Bu ishni menga yopishtirmoqchimisiz? Ovora bo'lasiz, grajdanin tergovchi! Xuddi o'sha kecha men jonajon militsiya panohida edim! Hushyorxonada! Oktabr rayon hushyorxonasiga telefon qilsangiz, hamma spravkani olasiz.

"YOVVOYILAR"

Rusning ajoyib maqoli bor: "Baxting chopmas edi-ku, baxtsizlik joningga oro kirdi-da." O'sha kuni yaxshiyam hushyorxonaga tushgani. Bo'lmasa tinch qo'ymasdi bular!

Grisha bayram kuni boshi g'um bo'lib uyg'ondi. Kecha anchagina "olgan" edi. Pastga tushsa, narigi podyezdda yashaydigan do'stlari turgan ekan. Lyova bilan Misha. Esida yo'q, qaysi biridan yaxshi taklif chiqdi. "Yuringlar, achchiq lag'mon yeymiz. Eski shaharning lag'moni zo'r bo'ladi. Anavindan ham topiladi". Chorsumi-Morsumi, degan joyga borishdi. Lyova bu yerdagi jinko'chalarni yaxshi bilarkan. Isqirtgina hovliga kirishdi. Dasturxon o'rniga gazeta yozilgan, qo'poldan-qo'pol stol yoniga kelib o'tirishdi. Ovqati chindan ham mazali ekan. Achchiqqina. "Russkaya vodka"dan ham topildi. Qimmatroq ekan-ku, chidasa bo'ladi.

Jinko'chalarni aylanib bozorga tushishdi. Tarvuz yegilari keldi. To'n ustidan belbog' bog'lagan siyrak soqolli cholning tarvuziga xaridor bo'lishdi.

— Uch so'm beraman, boboy! — dedi Lyova kattakon tarvuzni tanlab.

— Taroziga qo'y, bolam, — dedi chol ruschani chaynab gapirib. — Kilosi yetmish tiyin.

— Yetmish tiyin? — Lyova ajablandi. — Kallang ishlaydimi, boboy! Uyalmaysanmi?

Chol indamasdan tarvuzni Lyovaning qo'lidan oldi-da, taroziga qo'ydi.

— O'n ikki kilo, — dedi og'zidagi ko'kimtir narsani tuflab. — Sakkiz so'm qirq tiyin... Mayli, sakkiz so'm beraqol.

— Gapini qara, Grisha! — dedi Lyova achchiqlanib. — Bitta tarvuzni sakkiz so'm deydi, spekulyant!

Razm solib qarasa, tarvuzlar tog'dek uyilib yotibdi. Har bittasini sakkiz so'mdan sotsa, millioner bo'lib ketmaydimi bu?

— Ey, boboy! — dedi Grisha ensasi qotib. — Spekulyatsiya uchun statya bor. Bilasan-a?

— Men ispikulon emasman! — dedi chol tag'in ruschani rasvo qilib. — Sam, sam ekkanman! Sladkiy arbuz... Xohlamasang, ana, boshqa joydan olaver.

Ehtimol, shu bilan gap-so'z tugasa — olam guliston edi. Boyadan beri nariroqda turgan boshyalang, plash kiygan yigitcha kutilmaganda savdoga aralashdi.

— Bu oqsoqol spekulyant emas, — dedi qandaydir asabiy ohangda. — Mehnat qilganidan keyin sotadi-da molini! Yaxshiroq qara, spekulyantga o'xshaydimi shu odam?

Allaqanday bir studentning gapga qo'shilishi Grishaning g'ashini keltirdi.

— Quloq sol, — dedi g'ijinib. — Nega meni senlaysan?

Student pinagini buzmadi.

— Bo'lmasa, nega sen otang tengi odamni senlaysan?! Sening yurtingda tarvuzning bir tishlami sakkiz so'm. O'qiganman o'sha yoqlarda! Hammasini bilaman.

Boyadan beri indamay turgan Misha gapga endi qo'shildi:

— Juda aqlli bo'p ketibsanmi? Bultur tarvuzning kilosi yigirma tiyin edi!

— Unisi bultur edi, — dedi "Student". — Bu yil boshqacha. O'sha tomondan keladigan traktorning zapchasti o'n baravar oshdi. Nima qilsin dehqon!

Grishaning qoni qaynab ketdi.

— Nari tur... Sendaqa "akademikni"!

Bir tepgan edi, tarvuz paqqa yorilib, shimining pochasiga qip-qizil sharbat sachradi. Birpasda hamma yoq qiy-chuv bo'lib ketdi.

— Qoch! — dedi Lyova. — O'ldiradi bular!

Churillagan hushtak tovushi *havoni titratdi*. Qomati nimasi bilandir tarvuzga o'xshab ketadigan militsioner paydo bo'ldi.

Kamida o'n besh sutka naqd edi-ku, ertasiga Grisha dejur yigitga yalinib-yolborib, "bir joyga" telefon qilishga ruxsat oldi.

Yaxshiyam Dima ishda ekan. Avvaliga qalashtirib so'kdi. "Sen maxluq qachon ichishni tashlaysan", deb baqirdi. "Shu niyatda Toshkentga olib kelganmidim?" dedi. Baribir, gorispolkom — gorispolkom-da! Kechga tomon uchovidan tilxat olib, qo'yib yuborishdi.

Xuddi o'sha kuni hushyorxonaga tushgani xo'p ish bo'lgan ekan-da. Bo'lmasa, tergovchi "ho'l ish"ni shilq etib bo'yniga ilmoqchi edi.

To'y kuni suv sepganini gapiradi! To'g'ri, sepdi. Senlarning shovqin-suroningga ko'zim uchib turibdimi! Puling ko'p-da senlarni! Millionerlar! Zavodda ertadan kechgacha ho'kizdek ishlab, uch yuz so'm maosh olib ko'r-chi, ming kishini to'plab to'y qila olarmikansan.

Bularning to'yi g'alati bo'larkan. Bir kun oldindan domning tagida kechasi bilan g'ovur-g'uvir. Shovir-shuvir... Terak shoxiga minginchi lampochka osilgan. Birovi go'sht chopyapti. Birovi sabzi tozalayapti. Yana bittasi ketmon bilan yer kovlab yotibdi. Nariroqda qozon! Shunaqangi kattaki, borsh pishirsang, butun boshli polkka yetadi. Kechasi bilan dimog'iga allaqanday notanish hidlar kirib, mijja qoqmay chiqdi.

Endi ko'zi ilingan ekan, allaqanday dahshatli tovushdan uyg'onib ketdi. G'art-g'urt! Zum o'tmay, Afrika qabilalarining tam-tamiga o'xshagan tovush ham qo'shildi. Nuqul bang'illaydi!

Grisha yuragi gupillab, deraza oldiga bordi. Ochib qarasa, chiroqlar, mash'ala. Ustiga oppoq dasturxon yozilgan uzun-uzun stollar qo'yilgan. Shundoq deraza tagida bittasi ikki quloch keladigan mis trubani g'artillatyapti. Do'ppi kiygan tag'in biri dumaloq patnisga o'xshagan barabanni boshi ustida ko'targancha qarsillatib urib yotibdi. Kechagi qozon o'rnatilgan chuqur atrofida uch kishi. Povar bo'lsa kerak, bittasi oq xalat kiyib olibdi. Yonidagi pastak stolda chinni laganlar taxlab qo'yilgan. Oq xalatlisi qozon ustidagi laganlarni olgan edi, osmonga quyuq bug' ko'tarildi. Qozon to'la sap-sariq palov ko'rindi. Oq xalatlisi katta-katta go'shtlarni uzun bandli lapatka uchiga ilib, yonidagi tog'oraga tashlay boshladi.

Hali deraza sharaqlab ochilganida ko'zi tushgan ekanmi, qozon tepasida turganlardan bittasi qo'l silkib, shang'illadi:

— Tushaver, sosed! Palov tayyor!

Sahar-mardonlab ko'zi uchib turibdi-da, palovingga!

Grisha boshini sekin ichkari tortdi. Uyqusizlikdan achishgan ko'zlarini ishqalab, endi vannaxonaga kirmoqchi edi, pastdan mashinaning kuchanib gurillagani eshitildi. Ko'nglida qiziqish

uyg'onib, derazaga qaytib keldi. Qarasa, ko'cha chetida bir emas, ikkita LAZ turibdi.

Avtobuslarning eshigi voshillab ochildi-da, uzun to'n kiygan, boshiga salla o'raganlar tusha boshladi. Munkillab qolgan, hassa tayangan chollar, ayniqsa ko'p... Oralarida Budyonniy qilichidan bir amallab jon saqlab qolgani qanchaykin?

Dasturxon birpasda noz-ne'matlarga to'lib ketibdi. Olma-anorlar. Qahrabodek uzumlar...

Stolda o'tirishini tomosha qilsang bularning! Xudo haqqi, qoshiq ushlashni bilmaydi! Oshni qo'lda yeydi. Qo'lda! Chollar-ku, mayli, boshqalar-chi? Boshlarida shlapa, bo'yinlarida galstuk, oshni qo'li bilan yeydilar. Ertalabdan bir lagan palovni urib qorni yorilib ketmagani! Osh yeb bo'lib, yuziga fotihayam tortadi. Naq kinoning o'zi. Xudo haqqi: dekoratsiya kerakmas!

...Kun bo'yi Grishaning boshi garang bo'lib yurdi. Tushlik ovqat ham tatimadi. Kechqurun horib-charchab uyiga kelsa, yana o'sha shovqin!

Hoy inson! Ertalab-ku, uyquni harom qilishga qilding! Mis karnaying bilan tam-tamingni chalib, butun kvartalni uyg'otding! Palovingni yeyishga — yeding! Bo'ldi-da, endi! Bu azob ham bormidi hali? Kun botmasidan hammasi qaytadan boshlandi. Stollar bezatilgan. Uyoqda konyak, bu yoqda aroq. Shampan... Ichkilikka qarshi kurash degan qonun yo'q ekan-da bularga! Gastronomga kirsang bir shisha aroq uchun ikki soat ochered turasan. Bular bo'lsa, qatorlashtirib tashlabdi.

Yana boshlandi. G'art-g'urt. Ayniqsa, bir asbobi bor ekan. Voy-voy ovozining xunukligi! G'iyt-g'iyt qiladi. Xuddi yig'layotgan xotindek. Asabni parmalab yuboradi.

Bir mahal qiy-chuv bo'lib qoldi. Yaltir-yultir ko'ylak kiygan xotinlar, qora-qura, irkit bolalar ko'cha tomon yugurgiladi. Shunchasi qayoqdan paydo bo'ldi? "Mestniylar" kam edi-ku bu uyda? Mahallasi ko'chib keldimi, nima balo? Ha-a! Kelinni olib kelishibdi. Bir emas, beshta yengil mashina. Ikkita avtobus! Qarang, "Chayka"yam bor! Millioner bo'lmasa, "Chayka"ni qayerdan oladi bular! Ana, kuyov yigit kutib oldilar kelinni. Boshidan tanga sochishdimi-ey! Komediya! Kuyovning boshida salla, egnida yaltiroq

chopon. (Kamida ikki ming turar?) Kelin oq libosda. Boshida fata. Haqiqiy komediya! Biri — Yevropa, biri — Osiyo. Nima qilayapti anavi kampir? Olov yoqayaptimi? Bir narsani tutatib yubordi-ku! Boshlandi yana! G'iyt-g'iyt. Dang'ir-dung'ir. Qiyqiriqni qarang, qiyqiriqni!

Grisha derazani yopdiyamki, qulog'i tinchisa qani? Muzlatkichda "Chashma" bor edi shekilli? Chort! Quribdi buyam, yangisini ochishga to'g'ri keladi. O'l-a, konserva ham tamom bo'lgan ekan-ku. Mayli, tuzlangan bodring ham teshib chiqmaydi!

Kechasi deyarli uxlamagani uchunmi, bir zumda boshi g'uvillab ketdi. Ikkinchi qadahdan keyin pastdan kelayotgan shovqin-suron battar asabini qaqshata boshladi. Mikrofoni buncha baland!

Bo'lmadi. Grisha derazani shahd bilan ochib qaradi. Kelin-kuyov to'rda o'tiribdi. Orqa tomonida gilam. Yon-boshida artistlar. Ashulani vang qo'yyapti. O'rtada yigirma-o'ttiz chog'lisi o'yin tushyapti. Nuqul sakraydi...

Grisha shovqin-suron bosilishini kutib turdi. Ashula tugashi bilan ovozi boricha hayqirdi:

— Ey! Tinchlik bormi-yo'qmi? Yarim kecha bo'lyapti. Ertalab odamlar ishga boradi.

To'yxonaga jimlik cho'kdi. O'n-o'n beshtasi baravar boshini ko'tarib, deraza tomonga qaradi. Raqs tushayotganlar pildirpis bo'lib, joy-joyiga tarqala boshladi.

"Qo'rqmas ekansan-a!" deb o'yladi Grisha mamnun bo'lib. Qani, ayt gaping bo'lsa, degandek ochiq deraza oldida poylab turdi. Shunda, xuddi deraza tagida o'tirgan bir yigit shoshilmay o'rnidan turdi-da, davra o'rtasiga chiqdi. Boshyalang, gavdali. Xuddi kinodagi hindular sarkardasiga o'xshaydi. Tepaga — Grishaning derazasiga bir zum qarab turdi-da, hokimona ovozda bir nima deb qichqirdi. Artistlar allaqanday sho'x kuy chala boshladi. Boyagi "hindu" yovvoyilardek sakrab o'yinga tusha ketdi. Qiyqiriq, qarsak avjiga chiqdi. Bir zumda davra to'lib ketdi. Muzika boyagidan battar gumburlashga tushdi.

— Shunaqami! — dedi Grisha tahdid bilan. — Ko'ramiz hali! Hushingni joyiga keltirib qo'ymasam, yurgan ekanman! Muzdekkina dush olsang o'zingga kelasan hammang!

Qadahni to'latib ichdi. G'archillatib bodring chaynarkan, xayoliga alamli o'y keldi. Men, zavodda sakkiz soat ho'kizdek ishlab, bodring g'ajib o'tiray-da, sen — tekinxo'rlar, shashlik yeb, konyakni urlaring! Yugurib vannaxonaga kirdi. Paqirga limmo-lim suv to'latdi. Deraza oldiga borib, pastga engashdi-da, sepib yubordi. Yaxshi-i! Devor yaqinida o'tirgan besh-o'ntasi qiy-chuv solgancha sapchib o'rnidan turib ketdi. Xax-xa-a!!! Qanaqa bo'larkan! Ovozing o'chmas ekan-a!

Zum o'tmay eshik jiringladi. E-ha, tepishga tushdi-ku! Butilka qayerda edi, bo'shagan butilka? Qani, bir gaplashib qo'yaylik-chi! "Mening uyim — mening qal'am!" "Ostonamdan qadam bosib ko'r-chi? Ha, senmisan, hindular sardori?"

— Qani, tuyog'ingni shiqillat-chi! — dedi Grisha tishini g'ijirlatib. — Hozir militsiya chaqiraman!

Parvo qilmaydi, surbet!

— Shunaqami? Mana bo'lmasa! — Karatechi, shekilli, svoloch...

— Oyoqni sindirding, ablah! Qo'yvor!

Bir mahal hushiga kelib qarasa, yosh ayol "hindu"ning bilagidan tortqilab, allanimalar deb chirqillayapti. Yo'lak to'la odam.

— Xo'p, uzr so'rayman, — dedi Grisha nafasi bo'g'ziga tiqilib.

Xayriyat, bitta odambasharasi ham bor ekan. "Hindu"ga dashnom berdi.

— Millatchilik qilma! — dedi.

Nihoyat, hammasi daf bo'ldi.

— Adabingni berib qo'ymasam, — dedi Grisha alamdan titrab.

Anchadan keyin eshik yana jiringladi. Yaqin borishga yuragi dov bermay indamay o'tiraverdi. Eshik esa to'xtovsiz jiringlar edi.

— Nima kerak senga? — dedi o'tirgan joyidan.

O'sha tomondan jur'atsiz ovoz keldi:

— Tashvish qilmang, qo'shni... Men Ahmadaliyevman. Uchinchi kvartirada turadigan.

— Hech kimni tanimayman! — dedi Grisha. — Gapingiz bo'lsa, ertaga keling.

— Qo'rqmang! — dedi eshik ortidagi odam. — Sizga yomonligim yo'q. Uzr, bir minutli maslahat bor edi.

Grisha ikkilanibroq o'rnidan turdi. "Yomon tepibdi, ablah!" Cho'loqlanib eshik tomon yurarkan, xayoliga intiqomli o'y keldi. "Bo'ynim ham ko'karib ketgandir? Yaxshi! Ertalab albatta, militsiyaga boraman". Eshik oldiga kelganida ikkilanib qoldi. Oqsoqlangancha, oshxonaga kirdi-da, gaz plita tagida yotgan boltani qo'liga oldi. "G'ing desa chopib tashlayman!"

Ehtiyotkorlik bilan kalitni buradi. Ostonada boshiga do'ppi, egniga ko'k to'n kiygan qariya turar edi. Qo'lida qappaygan sellofan xalta. Qiziq, Grishaning qo'lidagi boltaga qayrilib ham qaramadi.

— Xo'sh? — dedi Grisha "gapni cho'zma!" degan ma'noda.

— Gap bunday, qo'shni... — Qariya vazminlik bilan muqaddimani uzoqdan boshladi. — Men Ahmadaliyevman. Bugungi to'yning egasi. O'g'limni uylantirdim.

Grisha zinada birontasi turmaganmikin, degan xavotirda yarim ochiq eshikdan bo'ynini cho'zib, pastga qaradi. Hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilib, istehzoli jilmaydi.

— Tabriklayman!

— To'yxonaga tushib, tabriklasangiz ham bo'lardi, — dedi qariya sof rus tilida. — Uch kun avval to'yga aytib chiqsam, yo'q ekansiz.

— Maqsad?

— Boshimda bitta-yu bitta o'g'lim bor. — Qariya gapni yana burdi. — O'qituvchiman. Rus maktabida o'zbek tilidan dars beraman.

Grishaning xayolidan istehzoli o'y kechdi. "Sening tilingga ko'zim uchib turuvdi!" Daf'atan kayfi butunlay tarqab ketganini his etdi.

— Shu bolamning to'yini o'tkazay, deb yigirma besh yil yig'ib-terdim.

— Qisqaroq! — dedi Grisha jerkib.

— Yaxshi... — Qariya negadir xo'rsindi. — Yomon ish qildingiz, qo'shni. Men bolalarni internatsionalizm ruhida tarbiyalashga umrimni bag'ishladim. Siz bo'lsangiz...

Grishaning toqati toq bo'la boshladi.

— Men sizning o'quvchingiz emasman! — dedi ezma-churuk qariyaning gapini kesib.

Qariya xafa bo'lmadi.

— Siz — yangi odamsiz, — dedi vazminlik bilan.

— Maqsad! — dedi Grisha tahdid bilan.

— Maqsad shuki, xalqning milliy udumlarini haqorat qilmang! — Qariya qo'lidagi sellofan qopchasini uzatdi. — Bu — sizning nasibangiz!

Grisha esankirab qoldi.

— Pora, deng! — dedi hushini to'plab. — Nima, meni sotib olmoqchimisiz?

Qariya allanechuk osoyishta kuldi.

— O'zbekda qo'shni haqi degan gap bor. Siz to'yda qatnashmadingiz.

Grishaning ikkilanib turganini ko'rib, qopchiqni ostonaga qo'ydi.

— Xohlasangiz, oling, xohlamasangiz tashlab yuboring, — dedi-da, sekin-sekin yurib, zinalardan tushib ketdi.

— Meni sotib ololmaysan! — dedi Grisha qo'lini paxsa qilib. Eshikni qarsillatib yopib, divanga borib yotdi.

"Dima to'g'ri aytgan ekan, — deb o'yladi ijirg'anib. — Biz — jang qilgani borayapmiz. O'zbekiston — ikkinchi Afg'oniston! Hamma yoqni poraxo'rlar egallab olgan!" Qarang-a, itdek savalashadi-da, ketidan pora berib og'zini moylamoqchi bo'ladi! Topibsan ahmoqni! Militsiyaga bunisini ham yozaman!"

Uyoqqa ag'darildi, buyoqqa ag'darildi. Qani uyqu kelsa! Xayolan dunyoning u burchidan kirib, bu burchidan chiqdi. Ko'zini yumgan edi, shovullab turgan o'rmonga borib qolgandek bo'ldi.

* * *

Bolalik subhidamga o'xshaydi. Tongdek tiniq, ertakdek go'zal. Hamma narsa sehrli edi. Yoz pallasi cho'miladigan turnaning ko'zidek ko'llar ham. O'rmonda qo'ziqorin terib yurishganida to'satdan gumburlab qoladigan momaqaldiroqlaru, azamat emanlar yaprog'ini shatirlatib quyib beradigan jalalar ham... Xudo qarg'agan bu yurtlarda oylab bir tomchi yomg'irga zor bo'lasan. Uyoqlarda esa yoz bo'yi yomg'ir yog'adi. Shovv etadi-yu, bir zumda olamni yashnatib yuboradi. Ketidan quyosh charaqlab chi-

qadi. Yomg'ir tomchilari marvariddek yaltirab turgan yam-yashil o'rmonlarda yugurging, o'mbaloq oshib, yayraging keladi. Kuz yomg'iri esa boshqacha bo'ladi. Xuddi shu pallada, oktabrning o'rtalaridan boshlab o'rmon chetida joylashgan Beryozovka xutori mung'ayib qoladi. Yo'llarning atalasi chiqib ketadi. Na mashina yuradi, na brichka. Xutor butun dunyodan ajralgandek, junjikkan ko'yi ro'parasidagi zax bosgan o'rmonga xavotir aralash ma'yus termuladi. Kechalari xatalar derazasida xira miltillagan nur tun zulmatiga xadiksirab mo'ralaydi. Itingni ko'chaga chiqarishni ravo ko'rmaydigan havo deb shuni aytadilar. Beryozovkaning it-lari ham bunaqa matalni eshitgandek in-iniga kirib ketadi. Har bir xatadan mog'or isiga aralash tuzlangan karam hidi anqib turganga o'xshaydi. Odamlar tezroq qor yog'ishini, olam tezroq yorishib ketishini Xudodan iltijo qiladi.

Nihoyat, qor yog'adi. Avval yomg'ir aralash yakkam-dukkam uchqunlab turadi-da, to'satdan zaptiga oladi. Olam oppoq nurga be-lanadi. Qor ostida o'ychan mudroqqa ketgan o'rmon sirli va jozi-bali ko'rinadi. Haqiqiy rus qishi boshlanadi. Sovuq va jozibali rus qishi!

Nari-berisi bilan bir kecha-kunduzda xarilardan qurilgan xa-talarning yarmi beligacha qor ostida qoladi. Yaxshiyam, yomg'ir boshlanishidan oldin tevaragiga zichlab poxol bosilgani. Bo'lma-sa ichigacha muz urib ketadi. Albatta, sovuq zaptiga olgan kezlari ba'zi noqulayliklar ham paydo bo'ladi. Shundoq yotoqxonaning o'ziga olib kirilgan megajin "hurq-hurq" qilib, kechasi bilan uyqu bermaydi. Pech ustida yotsang, achimsiq hid dimog'ingni yoradi. Ziyoni yo'q: o'rganib ketadi odam. O'rmonda bir soat chang'i uch-sang, muzdek, musaffo havo o'pkangdagi bor g'uborni sug'urib oladi!

Akasi chang'i uchishga usta edi. Har safar Dima o'rmonga ot-lansa, Grisha ham, albatta ketidan ergashardi. Chang'i ostida qor g'irchillaydi. Havo ochiq kunlari quyosh ko'zni qamashtirib cha-raqlaydi. Yer oppoq, sovuq. Osmon zangori, undan ham sovuq. Go'yo shishadan yasalganu chang'i tayog'i bexosdan tegib ketsa, sinib qoladigandek... Boshiga oq telpak kiygan qarag'aylar ustidan duv etib qor to'kildimi, bilingki, jonsarak olmaxon shoxdan-shox-

ga sakradi. Hali Rojdestvoga ancha bor. Biroq xatalardan garmonning shodon tovushi, mastona qiyqiriqlar eshitiladi.

Kolxoz-ku, bo'laricha bo'lgan. Nomiga xo'jalik. Xutorning yarmi huvillab qolgan. Yoshlar "baxt izlab", o'zini shaharga urgan. Erkaklar yo'q hisobi. Borlariyam ko'zini ishqalab uyg'onadiyu qishloq markazidagi do'konga yo'l oladi. Hammasi kelishib olgandek, sahar mardondan do'kon oldida to'planishadi. Qishinyozin — shu! Soqollar o'sgan, asabiy... Tushdan keyin do'konga keladigan "bormatuxa"ga ochirid kutishadi. Nariroqdagi harrakning qorini sidirib tashlaydilar-da, tizilib o'tirib, domino o'ynashga tushadilar. Yutqazganni "taka" qilib xarrak tagidan o'tkazadilar. ("Vaqtni o'ldirish" kerakmi axir?) Na rais insofga keltiradi, na militsiya yo'lga soladi. (Aslida hammasi — ulfat, hammasi hamshisha!) Tushdan keyin mast-alast qo'shiqlar yana avjiga chiqadi. Ora-chora mushtlashuvlar ham bo'lib turadi. Lekin bugun mushtlashganlar ertaga ertalab apoq-chapoq bo'lib ketaveradi. Bag'ri keng odamlar-da! Grishaning onasi tadbirli xotin edi. Boshqalarning karami mushtdek bo'lguncha, bularniki choynakdek bo'lib "qaynab ketadi". "Babye leto" boshlanmasidan turib, ularning xatasi yonida tog'dek pichan uyumi paydo bo'ladi. Qishlik o'tinni hammadan avval g'amlab qo'yishadi.

Grishaning esida. Bir yili yarmarkaga borib, sigir sotib olishdi. Yangi tug'ilgan buzog'i bilan.

— Eshitib qo'yinglar! — dedi onasi aka-ukaga. — Mana shu sigir og'ir kunlarda senga asqotadi... Yaylov to'la o't bo'lsa. Qishloqda yashab turib, mol boqmaslik — gunoh-ku!

Sigirni yetaklab, o'tib ketishayotganida do'kon oldida domino qarsillatib o'tirgan mujiklardan biri gap otdi:

— Tabriklayman, Marya, sigir olibsan-da!

Indamay ketaverishdi. Boshqasi xirillab kuldi.

— Qaranglar, mujiklar! Marya sigirli bo'pti! Har kuni qaymoq bilan siylarkan-da bizni!

Sigir yetaklab ketayotgan onasi taqqa to'xtadi.

— Qaymoqni nima keragi bor senga! Bormatuxa ichib yotaver!

Mujiklar "tomoqni ho'llab olishga" ulgurgan shekilli, qiyqiriq kulgi eshitildi.

— Sigiring o‘zingga buyursin!

— Qaymog‘ingga ko‘zimiz uchib turgani yo‘q!

— Zaharsan-da, Marya, zaharsan! Chaqib-chaqib eringni o‘ldirding!

Dima yigitcha bo‘lib qolgandi. O‘sha tomonga g‘azab bilan chaqchayib qaragan edi, onasi yupatdi:

— Parvo qilma, o‘g‘lim! Bular — tamom bo‘lgan odamlar.

Soqol-mo‘ylovi tikanak bo‘lib ketgan tag‘in bir mujik murosaomuz nasihat qildi:

— Yaxshiyamas, Mariya Sergeyevna, yaxshiyamas! Yosh avlodni xususiy mulkchilik ruhida tarbiyalayapsan.

Onasi, rangi quv o‘chib, tag‘in to‘xtadi. Yetovda kelayotgan sigir tumshug‘i bilan uning yelkasiga urilgudek bo‘lib, pishqirdi.

— Sen ham odam bo‘lding-u! — dedi onasi alam bilan. Yana nimadir demoqchi bo‘ldi-yu, shashtidan qaytdi: sigirning arqonidan tortdi. — Yuringlar, bolalarim, parvo qilmanglar bularga...

Onasi to‘g‘ri aytgan ekan. Sigirni qo‘yib yuborasan. O‘zi o‘tlab kelaveradi. Xatadan bir qadam chiqsang, beling baravar o‘t! Xohlasang daladan pichan o‘r, xohlasang o‘rmondan! Bir emas o‘nta sigirga yetadi!

— Bunaqangi ishyoqmaslarni xudo urmaganiga hayronman! — dedi onasi bir kuni kuyunib. — Kolxozga-ku besh tiyinlik nafi yo‘q. Aqalli o‘zining tomorqasini eplasa-chi! Yo‘-o‘-o‘q! Bularga tayyori kerak! Birov naqdlab qo‘ysada, bular moldek bo‘kib, yeb yotaversa!

Onasi kolxoz fermasida ishlar, nihoyatda o‘qimishli xotin edi. Uzoq qish kechalari ajoyib she’rlar o‘qirdi. Pushkindan, Lermontovdan... Blokdan... Grishaning esidan chiqmaydi. Tashqarida bo‘ron uvillar, pastak derazani qor uchqunlari ayovsiz savalar, onasi esa she’r o‘qir edi. Grisha akasi bilan pech ustida yotishardi.

— Dima, Grisha! — dedi onasi bir mahal qo‘lidagi kitobni yopib. — Ikkalang ham katta bo‘lib qolding. Ko‘rib turibsanlar: hamma qishloqdan qochayapti. Odamlarning yerdan mehri sovidi. Hech kimning ishlagisi kelmaydi... Senlar ishlashing kerak. Ishlamasang — ochingdan o‘lasan! Shaharga borasanmi, undan nari-

gami, hech yerda tekin non yo'q. Quloqlaringga ilib ollaring. Odam bo'laman desang, ichkilikka yaqin yo'lama!

Dima-ku, yo'lini topib ketdi. Shaharga borib, o'qishga kirdi (A'lochi edi o'ziyam). Grisha kolxozda brichka hayday boshladi. Pichan tashiydi. Cho'chqaxona go'ngini tozalaydi. "Kormovoy" lavlagi olib keladi... Bora-bora o'zi ham qishloq markazidagi do'kon oldida navbat kutadigan, mujiklar bilan domino o'ynaydigan odat chiqardi.

...Bir kuni yana gandiraklab kelgan edi, onasi sarjin o'tin bilan holdan toyguncha savaladi. Ertasiga ertalab, o'zi yig'lay-yig'lay Grishaning dabdala bo'lib ketgan yuzini silab iltijo qildi:

— Bu yurishingda xarob bo'lasan! Hoziroq shaharga jo'na! Dimaga uchrash. Yalingin-yolborgin... Agar... — dedi ko'zlarida g'azabli uchqun sachrab. — Qaytib kelsang, urib, oyog'ingni sindiraman!

Nachora! Jo'nadi poyezdga o'tirib. Akasi o'qishni bitirib gorkom komsomolda ishlar edi. Yordam berdi. Yordami shu bo'ldiki, zavodga ishga joylab qo'ydi. Zavod yotoqxonasidan hujra ham topib berishdi.

Larisa bilan shu bahona tanishdilar. Larisa kranchi bo'lib ishlarkan. Uch oy o'qib o'zi ham avtopogruzchik haydashni o'rgandi. Grisha Larisani bir ko'rishdayoq sevib qolgan, ehtimol shuning uchun bo'lsa kerak, Larisani ko'rsa, nuqul ko'zini olib qochar, tiliga biron jo'yali gap kelmas edi. Larisa hammasini sezib yurgan ekan. Sakkizinchi mart kuni o'tirish bo'ldi.

Zavod klubida tansa tashkil etildi. Uni Larisaning o'zi raqsga taklif qildi.

— Tentak! — dedi tansa tushishayotganda. — Men sendan to'q-qiz yosh kattaman. Qizim bor. Nima qilasan, o'zingni qiynab!

Grisha yaxshigina ichib olgani uchunmi, ko'ngli buzilib ketdimi, to'satdan yig'lab yubordi.

— Sendan boshqasi kerakmas! O'zimni o'ldiraman, — dedi hiqillab.

O'zini o'ldirishga hojat qolmadi. To'yni Larisalarning uyida o'tkazishdi. Sakkiz kishi yig'ildi. Larisaning onasi — Nina Ivanovna, to'rtta dugonasi, kuyov tomondan — Dima... To'y risoladagidek

o‘tdi. Mehmonlar to‘yib ichdi. Avval aroq. Keyin samogon... Tuzlangan karam, marinovka qilingan qo‘ziqorin bilan gazak qilishdi. Nina Ivanovna pazanda ekan. Duxovkada butun boshli g‘oz pishirib keldi. Og‘zingda erib ketadi! Mehmonlar yoshlarga baxt tilashdi. “Gorko, gorko!” deb qiyqirishdi...

...Turmushi yaxshi edi. Sakkiz yashar Svetochka ham undan begonasiramadi. To‘g‘ri, “ota” deb emas, “Grigoriy Stepanovich” deb chaqirardi. Nima qipti? “Dada” dedi nima-yu, ismi-sharifini aytib chaqirdi nima?

Hamma g‘alva Nina Ivanovnadan chiqdi. Balki, Grisha avvaliga e’tibor bermagandir. Ammo keyinchalik qaynonasini o‘ylasa, nuqul yelinlari osilgan sigir ko‘z o‘ngiga keladigan bo‘lib qoldi. Qaynonasi uyda oldi yarim ochiq xalat kiyib yurar, lorsillagan ko‘kraklarini ko‘z-ko‘z qilgandek lapanglab qadam bosar, qalin, yog‘li lablari hamisha istehzoli qiyshayib turardi. Ovozi yarim kechalari Berezovkadan uch chaqirim narida joylashgan stansiyadagi teplovoz gudogi singari guldirab chiqardi.

— Oyog‘ingni artsang-chi, oyog‘ingni! — derdi Grisha eshikdan kirib kelishi bilan. — Manavi narsaning oti — latta bo‘ladi, kuyov! Bu sening xutoring emas, buqaga o‘xshab kirib ketaveradigan! Artdingmi! Xayriyat! Endi yo‘lakka chiqqin-da, shapkangni qorini qoq! Yelkang-chi, yelkang! Ertalab erib tushgan suvni kim tozalaydi, qishloqi!.. Uni qara tag‘in kirib kelayapti, bu, molga o‘xshab! Oyog‘ingni art, dedim-ku!..

Ovqat ustida Grishadan yangi illat topardi.

— Qo‘lingdagi narsaning oti nima deyiladi, bilasanmi? Voy, xudoyim-ey, necha marta tushuntirish kerak bunga-a? Vilka degan matoh chap qo‘lda tutiladi, qishloqi! Qaysi go‘rdan kavlab chiqarding, bu plebeyni, Larisa!

...Bir kuni ertalab Grisha oshxonaga kirsa, xolodilnik ustida xo‘qacha to‘la sut turibdi. Qishloqda o‘rgangan odatiga amal qilib, silkitib ko‘rdi. Ichiga qurvaqa tashlab qo‘yilgan bo‘lsa, tumshug‘ini chiqaradi (Qishloqda sut aynimasin, deb ichiga qurvaqa solib qo‘yishardi). Yo‘q, qurvaqa ko‘rinmadi.

Tag‘in silkitib ko‘rdi. Sut ko‘pirib, qaymog‘i yuziga tepdi. Grisha bir ko‘tarishda xo‘qachani yarimlatdi. Sutning ta’mi g‘alati

ekanini shunda bildi. Xo'qachani joyiga qo'yib, labini kafti bilan artib turganining ustiga lapanglab qaynonasi kirib keldi. Grishani birinchi marta ko'rayotgandek, ko'zlarini ola-kula qilib birpas qarab turdi-da, teplovoz gudogidek chinqirdi:

— Lari-i-i-i-sa-a-a!

Yarim yalang'och xotini yugurib oshxonaga kirdi.

— Manavini qara! — dedi Nina Ivanovna semiz barmog'ini Grishaga bigiz qilib. — Manaving jinni bo'pqopti. Kraxmal ichib qo'ydi! Choyshabni kraxmallayman deb ivitib qo'yuvdim!

Grisha vannaxonaga yugurdi. Varaqlab qusa boshladi. Enkayib turgan joyida Larisa gardaniga xo'qacha bilan tushirdi. Qolgan-qutgan kraxmal Grishaning yuz-ko'ziga sachradi.

— Hayvon! — dedi Larisa baqirib. — Qachon odam bo'lasan, cho'chqa!

...O'sha kuni oyning ikkinchi chislosi — maosh kuni edi. Grisha zavoddagi ulfatlari bilan to'yibgina ichdi. G'ira-shira esida. Yomg'ir yog'ib turgandi. To'g'risi, yo'lda bir-ikki yiqildiyam. Nima qipti, yigitchilik-da! Eshikni, odatdagidek, qaynonasi ochdi.

— Larisa! — dedi quloqni qomatga keltirib. — Buyoqqa qara! Tamosho qil manavining ahvolini!

Dilida to'planib yotgan alam Grishaning miyasiga urdi-yu, qaynonasining boshi ustida musht ko'tardi.

— O'ldiraman! — dedi quturib. — Hammangni o'ldiraman!

Qiy-chuv, baqiriq-chinqiriq avjiga chiqdi. Bir tomondan qaynonasi, bir tomondan Larisa yumdalab tashlashdi.

Grisha bolari uyasini kavlab qo'yib, ariga talangan ayiqdek, lapanglab qochdi.

— Militsiya! — Qaynonasining o'kirigi yomg'irli havoni titratdi. — Militsiya! O'ldirmoqchi! Yordam beringlar!

...Grisha jonholatda yugurib ketdi. Uzoq yugurdi. Allaqanday archa panasiga yashirinib, cho'nqayib o'tirib qoldi. Hamon yomg'ir yog'ar, oyog'idan zax o'tib ketgan, parolon kurtkasining yoqasidan sizib kirayotgan sovuq tomchilar gardanini muzlatib yuborayotganini his etib turardi... Loy yerga yonboshlab, ko'zini yumdi. Atrof sokin, qorong'i... Olisda, ko'chadan o'tib borayotgan mashinalarning bo'g'iq guvillashi eshitilib turardi. Negadir xayoliga onasi

keldi. Ikki yildan beri xabar olmagani, hatto xat yozmagani esiga tushib, yig'lagisi keldi...

G'ira-shirada uyg'ondi. Birpas garangsib turdi-da, tushundi. Zavodga borib bo'lmaydi. Larisa militsiya chaqiradi. Gorkom komsomolga boradi. Akasining oldiga. Boshqa iloj yo'q. Harqalay, Dimaning qo'li uzun! To'g'ri, o'zidan ham o'tdi. Dima so'kadi... Mayli, ursa ham mayli. Boshqa chora yo'q.

Pastdagi militsionerdan-ku, yalinib-yolborib o'tdi. Uchinchi qavat, to'qson birinchi xonani taqillatgan edi, sado chiqmadi. Eshik tepasidagi yozuvni qayta o'qidi. "Vasilyev D. S." Tutqichdan ushlab tortib ko'rdi. Eshik qulf edi.

— Kim kerak sizga, o'rtoq?

Parket polda qars-qurs qadam tovushi eshitildi. Grisha yonboshiga burildi. Poshnasi bir qarich tufli kiygan xushro'ygina qiz ipdek qoshini chimirib ro'parasida turardi.

— Kim kerak sizga? — dedi qiz rasmiy ohangda.

— Dmitriy Stepanovich, — dedi Grisha g'o'ldirab.

Qiz uning loy bosgan kurtkasiga, timdalangan yuziga shubhali qarab qo'ydi.

— Nima ish bilan keldingiz?

— Shaxsiy ish bilan! — dedi Grisha ijirg'anib.

— Qayerga kelganingizni bilasizmi? — Qiz ipdek qoshini zardali chimirdi. — Bu yer gorkom komsomol bo'ladi, o'rtoq! Bu yerda shaxsiy ishlar ko'rilmaydi.

— Men Dimaning ukasiman! — Grisha qo'lini paxsa qildi. — Akam bilan gaplashishga haqqim bormi?

Qiz tag'in unga boshdan-oyoq razm solib chiqdi.

— Dmitriy Stepanovich sekretariatda, — dedi yuz ifodasi o'zgarmay. — Ukasi bo'lsangiz, uyiga boring!

— Bunisi — mening ishim!

Qiz birpas o'ylanib turdi-da, rahmi keldi shekilli, yo'l ko'rsatdi.

— Koridor boshida xoll bor. O'sha yerda o'tirib turing.

Grisha qiz imo qilgan tomon yo'l oldi. Xollda jurnal stoli, stol yonida ikkita kursi bor ekan. O'tirdi... Ming la'nat! Papirosi ham qolmabdi. Garangsib, atrofni tomosha qila boshladi.

Devorda komsomol bosib o'tgan shonli yo'lni ifodalovchi plakatlar. Undan pastda har xil e'lonlar... Yirik-yirik bosma harflar bilan yozilgan e'lon alohida ajralib turardi. Grisha beixtiyor o'rnidan turdi. Yaqin borib o'qidi: "O'zbekiston SSRda vujudga kelgan tang ahvolni tuzatish uchun rahbar lavozimlarga ishga borish niyatida bo'lganlar 98-xonaga murojaat qilishi mumkin. Qalb da'vati bilan borganlarga barcha sharoit yaratib beriladi".

Hech baloga tushunmadi. Qaytib kelib joyiga o'tirdi. Har esnaganda ko'zidan mo'ldir-mo'ldir yosh oqib, pinakka ketdi.

Bir mahal gangur-gungur ovozlar, qadam tovushlaridan uyg'ondi. Yo'lakka odam to'lib ketgan, hammasi zina tomon surilar edi. Zipillab borsa, to'qson birinchi xona eshigi g'ira ochiq turibdi.

— Mumkinmi? — dedi mo'ralab.

Dima sigaret tutatib, allaqanday qog'ozlarni titkilab o'tirgan ekan.

— Nima gap? — dedi zarda bilan.

Ukasini ko'rib daf'atan tanimadimi yo tanimaganga oldimi, qayta so'radi:

— Nima gap?

— Hech gap yo'q, — dedi Grisha sun'iy iljayib. — Men uydan ketdim...

Dima sigaretini chuqur-chuqur so'rib, kuldonga uloqtirdi.

— Tabriklayman!

— Yasholmayman! — dedi Grisha yig'lamsirab. — Turolmayman o'sha uyda! Jonimga tegdi, xotinim ham, qaynonam ham. Mana bunday jonimga tegdi!

— Xo'sh? — Dima unga o'qrayib qaradi. — Mendan nima xohlaysan?

— Ketaman! Turolmayman bu shaharda!

— Qayoqqa?

— Bilmayman! — Grisha rostini aytdi. — Bilmayman! Ammo yasholmayman bu yerda! O'zimni o'ldiraman! Mashina tagiga tashlayman. Osaman. Zahar ichaman!

— Isterika qilma, xotinga o'xshab! — Dima qaytadan sigaret oldi. — Gapimni diqqat bilan eshit. Sen yosh bola emassan.

Bundan buyog'i yelkamda ortmoqlab yurolmayman... — Bir zum o'ylanib turdi-da, qo'shib qo'ydi. — Ertadan bu yerda yo'qman. Oilam bilan ko'chib ketyapman.

Grisha quloqlariga ishonmadi. "Aldayapti. Bahona qilyapti!"

— Qayoqqa? — dedi talmovsirab.

— O'zbekistonga! — Dima gugurt chaqdi. — Nima farqi bor senga!

— Olib ket! — Grisha astoydil yalinib iltijo qildi. — Olib ket meniyam! Va'da beraman! Boshqa qilmayman. Odam bo'laman!

Dima shoshilmay o'rnidan turdi, sekin-sekin yurib tepasiga keldi.

— Ahmoq! — dedi nafrat bilan. — Men o'ynagani ketayotganim yo'q! Bilasanmi, O'zbekiston — hozir ikkinchi Afg'onistonga aylangan! Kurash ketayapti! Haqiqiy jang! Hamma yoq poraxo'rlar. Hamma yoq qo'shib yozuvchilar! Bosmachilar! Tushundingmi?

— Mayli! — Grisha rostmana yig'lab yubordi. — Bu yerda turgandan ko'ra bosmachilar qo'lida o'lganim yaxshi!

— Qo'lingdan nima keladi, ablah! — Dima qichqirib yubordi. — O'zbekistonni saqlab qolish uchun rahbar kadrlar kerak, tushundingmi! Prinsipial odamlar. Sen kimsan o'zi?

— Dima! — dedi Grisha burnini tortib. — Vokzalda yuk ortsam ham mayli. Obket, Dima, obket! Bo'lmasa, o'zimni o'ldiraman! Baribir o'ldiraman!

...Poyezdda ikki sutkadan ortiq yurishgan bo'lsa, ilondek zahar yangasi Grisha bilan bir og'iz gaplashmadi. Akasi ham homush edi. Grisha begona yurtda o'zlarini nimalar kutayotganini tasavvur qilardi. Aka-ukani yovvoyi tog'lar orasiga yuborishadi. Har bir qoya orqasida bittadan bosmachi miltiq o'qtalib turadi... Grisha o'zi o'lsa-o'ladiki, akasini himoya qiladi. So'nggi tomchi qoni qolguncha. Zahar-zaqqum yangasi bilib qo'ysin: Grisha akasi qilgan yaxshiliklarni unutadiganlardan emas!

Toshkent vokzaliga kelib tushishsa, hamma yoq osoyishta. Odamlarning chehrasi ochiq... Bironta "bosmachi" ro'parasidan chiqib, "sen kimsan, nega kelding", demadi...

Dimaning baxti bor ekan. Olis qishloqqa yuborishmadi. Qoq markazda — Toshkentning o'zida qoldi. Tag'in gorispolkomga

zampred qilib "saylashdi". Qarang, Grishani ham "kamyob mutaxassis" sifatida darrov ishga olishdi. Uy berishdi...

Grisha avvaliga ehtiyot bo'lib yurdi. Keyin o'zini tamom erkin his etdi. Ko'cha kezadigan, bozor aylanadigan bo'ldi. Smolensk bilan solishtirganda bu yer haqiqiy jannat ekanini tushundi: "Toshkent — non shahri" deganlari rost ekan! Har qadamda — non! Har qadamda meva-cheva! Magazinlarda uzun "dum"li navbat yo'q...

Bora-bora o'zini xo'jayindek his eta boshladi. Smolenskda bir kilo uzum — yigirma besh so'm. Bu yerda ikki so'm! Uyoqda qovunning kilosi — o'n so'm. Bu yerda — ellik tiyin. Nega shunaqa? O'ylay-o'ylay bir haqiqatga tushunib yetdi: bu yurtning odamlari qallob. Chayqovchilar mevasini Smolenskka oborib o'n baravariga pullaydi! Ana sizga tekin daromad!

...Bugun o'g'lini uylantirgan anavi chol o'qituvchiman, dedimi? O'qituvchi emish! Oddiy pedagog bunaqa to'y qilolmaydi. Demak, bu ham qallob! Qarang, pora bermoqchi bo'ldi-ya!

...U stol ustidagi soatga qarab qo'ydi. Ikkidan oshibdi.

Erinib o'rnidan turdi. "Uxlash kerak". Chiroqni o'chirayotganida xayoliga g'alati fikr keldi: "Nimaykin, anavi qopchiqdagi? Nima qipti, ochib ko'rsa, birov bir nima dermidi? Yaxshisi, militsiyaga olib boradi. Ashyoviy dalil sifatida".

Ikkilanib borib, eshikni ochdi. Yo'lak nim qorong'i, hech zog' ko'rinmas, qopchiq ostonada qiyshayib yotardi. Grisha o'g'irlik qilayotgan odamdek olazarak bo'lib, qopchiqni yulqib oldi-da, shosha-pisha eshikni yopdi. Qopchiqni ochsa, ichida bir shisha "Stolichniy" araq, pishgan go'sht bo'laklari, to'rtta non, besh-oltita olma-anor chiqdi.

— Yaxshi! — dedi u o'ziga-o'zi pichirlab. — Arag'ingni ichaman. Anoringni yeyman... Keyin militsiyaga shikoyat yozaman. Menga pora taklif qildi, deyman!

...Grisha shikoyat arizasini yozib bo'lganida tong otib qolgan, miyasi g'um edi. Arizani ich cho'ntagiga solib, zinadan tushayotganda chayqalib ketdi.

"Ming la'nat! — deb o'yladi o'zini so'kib. — Araqni oxirigacha ichish shartmidi?"

Pastga tushsa, aksiga olib yo'lak ro'parasidagi xarrakda Klava xola o'tirgan ekan. Grisha uni yoqtirmas edi. O'lgudek ezma kampir!

— Salom, Klavdiya Sergeyevna! — dedi qaddini g'oz tutishga urinib.

Klava xola ensasi qotib, yuzini o'girdi.

— Kecha qanaqa "qahramonlik" ko'rsatganingni bilasanmi? — dedi qahr bilan.

— Nima qipman?!

— Ahmoq! — Klava xola olmadek mushti bilan xarrakni urdi. — Nima haqqing bor birovning to'yini buzishga!

— Men? Men buzibmanmi! — Grisha astoydil hayratlandi. — Anavining o'zi urdi-ku meni! Militsiyaga shikoyat qilaman! — Burilib ketayotgan edi, la'nati oyog'i pand berdi. Munkib tushdi.

— Boraqol, — dedi Klava xola achitib. — Ko'ramiz, qo'lingdan nima kelarkin? Odamlarga o'xshab to'yda mehmon bo'lib o'tirsang, o'larmiding? Qirq besh yildan beri shular orasida yashayman, ahmoq! Bunaqa bag'ri keng xalq yo'q dunyoda. Men bilaman-ku!

— E-e! — Grisha asabiy qo'l siltadi. — Nasihatingizni nevarangizga qiling!

...Militsiyada xayrixohlik bilan qarshi olishdi. Protokol to'ldira turib muloyimlik bilan taklif etishdi:

— Ekspertizaga borishga to'g'ri keladi, grajdanin Vasilyev! Oyog'ingizni, bo'yningizni tekshirib ko'rish kerak.

Grisha o'rnidan turib ketdi.

— Kechirasiz! — dedi sarosimaga tushib. — Men ishga borishim kerak...

"QULOG'INGNI DING QILGIN-U, TILINGNI TIY!"

Komissar sut bidonni ko'tarib pastga tushganda tong otmagan, havo sovuq edi. Baqateraklar shoxi qorning og'ir yuki ostida egilib, shu turishda muzlab qolgandek. Bir-ikki kun eruvgarchilik bo'lib, to'satdan yana sovuq tushdi.

Shuning uchun shekilli, tom chekkasida uzun-uzun sumalaklar tahdidli osilib yotibdi. Komissar ikki buklangancha yo'lkaning qorini kurayotgan Qurbonoyni uzoqdan ko'rdi. Qor qotib qolgani uchun kurak har tekkanida g'ashni keltirib qartillaydi. Egniga qalin paxtalik chopon kiygan, boshiga jun ro'mol o'ragan Qurbonoy kuchana-kuchana qorni yo'lka chetidagi ariqqa surib tushirishga urinadi.

Shu ham odamman, deb yashab yuribdi-da! Saharmardonlab ko'cha supuradi. Qishda qor kuraydi. Besh vaqt enkayib namoz o'qiydi. Boshiga kulfat tushsa, kurashish, haq-huquqini himoya qilish o'rniga Xudoga soldim, deydi-da, bo'zrayib turaveradi. Nachora, ota-bobosidan qolgan meros...

Yana qor boshladi shekilli! Toshkentga Rossiya qishi ko'chib keldimi, nima balo... Moskva atroflarida ham qor ko'p bo'ladi. Bir hafsala qilsa, haftalab yog'adi. Qirq birinchi yil dekabrida shunday bo'lgandi. Sovuq! Gapirgan gaping og'zingdan muz bo'lib tushayotgandek... Fashist Moskva ostonasiga kelib qolgan, qochoqlar, vahimachilar ko'paygan... SMERSHchilar jasorat ko'rsatmasa kim bilsin, nima bo'lardi buyog'i! SMERSHning oddiy leytenantini ko'rsa, uncha-muncha polkovnikning quti o'chib ketardi... Hech esidan chiqmaydi. Qor urib turibdi. Butun polkni safga tizishdi. Okopni tashlab qochgan ikkitasini tutib kelishgan ekan. O'sha yerning o'zida dala tribunali bo'ldi.

Bir mahal kapitan Zaxarov chaqirib qoldi.

— Leytenant G'aniyev. Anavi bittasi osiyoliklarga o'xshaydi. Bilmayman, o'zbekmi, tojikmi... Bittayam gapiga tushunib bo'lmayapti. O'zing tillash.

O'rmon chetidagi yaydoq maydonda saf tortgan askarlar ro'parasida ikkitasi bezrayib turar edi. Ikkalasi ham boshyalang, shineli yechib olingan, yalang oyoqlari qorda go'shtdek qizarib ketgan... Soat shaxdam qadam tashlab borib beriroqda to'xtadi.

— Kimsan? — deb so'radi qora sochligidan. — Qayerdan kelgansan?

Qochoq o'zbekcha so'z eshitib, jonlandi.

— O'zbekman, aka! — dedi yig'lamsirab. — Menda gunoh yo'q. Tepamda Xudo turibdi. Gunohim yo'q, jon aka!

— Savolga javob ber. Nega jangovar postingni tashlab qochding, xoin!

— Men xoin emasman... — Qochoq shunday dedi-yu, bir zum Soatning yuziga tikilib turib, shodon xitob qildi. — Soat aka! Meni tanimadingizmi, Soat aka! Men-ku, bu men! Husanman, Husan! Tepaqo'rg'ondan... Yaratganga ming qatla shukur! Xudo yetkazdi sizni, Soat aka! — U ho'ngrab yig'lab yubordi... — Tushuntiring bularga, menda gunoh yo'q! — Iltijo bilan ikki qo'lini osmonga cho'zdi. — Iloyo dunyo turguncha turing, jon aka! Ota-buvalarimning arvohi qo'llasin! — Yalangoyoq qor kechib yaqin kela boshladi.

— Nari tur, eshonvachcha! — dedi Soat nafrat bilan. — Nega qochding? Nega qurolingni tashlading?

— Qurol? Qanaqa qurol? — Husan irkit qo'li bilan ko'z yoshlarini artdi. — Yog'och miltiq bergandi. Ustimga tank bostirib keldi. Qo'rqib ketdim.

— Nima deb aljirayapti, G'aniyev?

Soat yarq etib qaradi-yu, kapitanning shubha bilan chaqchayib turgan ko'ziga ko'zi tushdi. Yuragi muzlab ketgandek bo'ldi. Osobist uchun Vatan xoinini himoya qilishga urindi, degan bitta tamg'aning o'zi kifoya!

— Orqamizda Moskva turganini unutdingmi, ilonvachcha! — dedi Soat g'azab bilan. — Shaxsan o'rtoq Stalinning o'zi Kremldan jilmay o'tiribdi-yu, sening joning shirinlik qilib qoldimi! — Shunday deb pistoletini chiqardi.

— Otmang, jon aka! — Husan tiz cho'kdi. Qorda toshbaqadek sudralib keldi-da, oyog'ini quchoqladi. — Tavba qildim. Jon aka, tavba qildim! Aka-a-a!

Soat uning boshini mo'ljallab o'q uzdi. Husan chakkasidan tepki yegandek yonboshi bilan qorga ag'anadi. Og'zi lang ochiq qolgan, hamon "aka-a-a!" deb chinqirayotganga o'xshardi.

— O'rtoq kapitan! — dedi Soat qaddini rostlab. — Xalq dushmanining o'g'li ekan. Otasi eshon ekan. Sibirga surgun qilingan. Jang qilishni xohlamay, ataylab qochibdi. O'zi tan oldi.

...O'z qo'li bilan birinchi marta odam o'ldirgani uchunmi, Husan anchagacha Soatning ko'z o'ngidan ketmay qoldi. Nuqul

"aka-a-a" deb dod solayotganga o'xshaydi. Ba'zan kechalari "aka-a-a" degan chinqiroq ovozdan uyg'onib ketadi...

Har narsaning boshlanishi qiyin bo'larkan. Keyin-keyin o'rganib ketdi.

...Ishi og'ir edi. Urushda jasorat bilan qo'rqoqlik, fidoyilik bilan xoinlik ko'pincha yonma-yon yuradi. Frontni bunaqa marazlardan tozalamasang, yomon yaraga o'xshab, maddalab ketadi...

O'zbekcha xat o'qiydiganlar yo'q hisob edi. Soat kechalari uxlamay xat titkilab chiqar, o'zbek askarlarining gapiga zimdan quloq solib yurardi. O'zbeklar uni ko'rsa, o'z jigargo'shasini topib olgandek, yayrab ketadi. Og'ziga kelganini qaytarmay vaysaydi. Soatning vazifasi xoin va qo'rqoqlarni fosh etish... Fakt esa yetarli...

— Xex! Jang qilish yoqmay qoldimi? Xotiningni sog'indingmi!.. Ha-a, gap bu yoqda degin! Nemisning kuchi ko'p ekanmi? Yaxshi-i-i! Qani, marsh "shtrafnoy"ga! Nemisning kuchini yaqindan ko'rasan. Oldinga yursang, fashist otadi, orqaga chekinsang, o'zimiznikilar. Kerak bo'lsa, ijtimoiy kelib chiqishingni ham tekshirib ko'ramiz. Bitta sen o'lganing bilan askar kamayib qolarmidi! Xotining bir kun yig'laydi. Ikki kun yig'laydi. Cho'loqmi, maymoqmi, topib oladi o'ziga munosibini!

Eh-he! Besh yil urushda yurib nimalarni ko'rmadi bu bosh!

...Yana bir voqea hech esidan chiqmaydi. Aytsang birov ishonmaydi. Bittasi nemis bilan kartoshka kavlaganini vaysab yurganmish, degan signal keldi. Borsa, siyrak mo'ylovli qozoq. Elliklardan oshgan. Soat sekin gapga soldi.

— Nemis bilan kartoshka qazidingmi?

Soddagina soldat ekan. Ustiga-ustak atrofida ko'pdan beri na qozoqcha, na o'zbekcha gaplashadigan odam bo'lmagani uchunmi, sevinib ketdi.

— O'y-bay! — dedi ofitser bilan gaplashayotgani ham esidan chiqib. — Nemis-de, odam ekan-g'o'y!

— Qara-ya! Nemis odam ekanmi, qani bir boshdan aytib berchi!

...Soldat hammasini gapirib berdi. Oldingi liniyaga bir haftacha kuxnya kelmabdi. Neytral zonada kartoshka polizi bor ekan. Kechasi Bondarenko ikkalasini kartoshka kavlab kelishga yubo-

rishibdi. Quyuq tuman ekan. Kartoshka qazishayotganida o'n qadamcha narida nemischa shivir-shivirni eshitib qolishibdi. Nemislar ham och qolib, ikkitasini kartoshka kavlashga yuborgan ekan. Bondarenko endi otmoqchi bo'lganida nemislardan bittasi "ne shtrlay, ne shtrlay", debdi. Ruschani uncha-muncha bilarkan. Buni qarangki, gapdan-gap chiqib, gurunglashib qolishibdi. Ruschani biladigan boyagi nemis urush joniga tekkanini, uyini, uchta bolasini sog'inganini aytibdi. Qozoq ham sakkizta bolasi borligini, kolxozda "molshi" bo'lib ishlashini aytibdi. Bondarenko onasini sog'inib ketganini gapiribdi. Keyin ular uyoqqa — bular buyoqqa ketaverishibdi.

— Ular-de ketdi. Biz-de ketdiq! Jaxsi nemis eken, short vozmi! — dedi qozoq iljayib.

— Qachon qochib o'tadigan bo'lding nemis tomonga?

Soldat siyrak kipriklarini pirpiratdi.

— Ne deysin?!

— Qachon qochmoqchisan, ablah?

— Men qoshmaymin, jo'ldas nashaynik!

Soat sapchib o'rnidan turdi.

— Bondarenkoni hibsga olinglar. Tez!

Bunisi yosh bo'lsa ham quv ekan. Komandirning buyrug'ini bajarib, ikki paqir muzlagan kartoshka kavlab keldik, hech qanaqa nemisni ko'rganimiz yo'q, bu boboy tush ko'ryapti, deb turib oldi.

— Rotadan yana necha kishini qochishga ko'ndirdilaring? Qachon asirga tushmoqchisanlar? — dedi Soat qistovga olib.

Bondarenko "o'laman sattor nemisni ko'rganimiz yo'q", deydi. Sodda qozoq bo'lsa nuqul bir gapni takrorlaydi:

— Biz-de atpadiq, nemis-de atpadi. Atpasa jaxsig'o'y!..

Soat batalonni safga tizdirdi. Tribunal hukmini o'qib eshittirdi: "Askarlarni fashist tomonga qochib o'tishga da'vat qilgani uchun..."

...Urushda orttirgan tajribasi keyin ham qo'l keldi. Ko'p marta qo'l keldi...

Ba'zilar organ deganda nuqul jazo beruvchi tashkilotni tushunadi. Unaqa emas! Organ jamiyatni yot unsurlardan himoya qiladi.

Shunday ekan, uning qo'ligina emas, "qulog'i" ham yaxshi ishlashi shart. Har qanday tashkilotda, hatto yamoqchining do'konida ham "quloq" bo'lsa ziyon qilmaydi. To'g'ri-da! Vaqti-vaqti bilan "tozalash" o'tkazib turmasa boshqarib bo'ladimi bu turfa jamiyatni!

Urushdan keyingi "tozalash" ham bejiz qilingani yo'q. Ayniqsa, olifta intelligentlar haddidan oshib ketdi. Gazeta-jurnallarda sovet jamiyatini masxara qiladigan narsalar paydo bo'la boshladi. Maktab o'qituvchisidan tortib olimgacha — hammasi "dono!" Hammasi — "daho"! Xex!

* * *

Aniq esida bor. Qirq oltinchi yil edi. Toshkentda Navoiy teatri qurilayotgan kezlar... Tepaqo'rg'ondagi yetti yillik maktabdan signal tushdi.

Matematika o'qituvchisi Hakimov katta tanaffusda og'zidan bol tomib yaponlarni maqtabdi. Emishki, Hakimov Piyonbozorga olma sotgani borgan. Qarasa, qurilish ketayotgan joyda, simto'siq ortida oyog'iga yog'och kavush kiygan yapon asiri mo'ltirab turganmish. Hakimov go'yo asirga rahmi kelgan. To'rt-beshta olmani simto'siqdan uzatgan. Go'yo asir rus tilini bilarmish. "Men sizning molingizni tekinga ololmayman, siz uni yetishtirish uchun mehnat qilgansiz", degan. Qorovulxonada turgan soqchi ko'rib qolib, yaponni haydab yuborgan. Hakimovning aytishicha, go'yo yapon jilmayib ta'zim qilgan. "Rahmat sizga, yaxshi odam ekansiz", degan. Hakimov og'iz ko'pirtirib, yaponni ulug'lagan. "Bunaqangi madaniyatli odamni birinchi ko'rishim, hamma xalq orasida ham yaxshilar bo'larkan-da!" degan.

Shunaqami, hali? Samuray yoqib qoldimi sizga? Bilasizmi, janob Hakimov! Buning otini kamida KRA deydilar! Kontrrevolutsion tashviqot! Qani, bir tekshirib ko'raylik-chi chiqqan joyingizni! Hakimov... Kim bo'ldi bu qushcha? Tepaqo'rg'onliklarning hammasi tanish edi-ku. Kim bilsin tag'in... Qishloqdan chiqib ketganiga, eh-he, qancha bo'ldi! Toshkentdagi o'qish... Moskvadagi oliy maktab... Onasining ta'ziyasiga ham kelolmadi. Ayni imtihon paytlari edi. Aslida gap bunda ham emas. Soat onasi Tepaqo'rg'ondan Toshkentga ko'chib kelganidan xabardor edi. Biroq onasidan

kelgan har bir maktubni o'qiganida yuziga sovuq nafas urilayotgandek bo'lardi. Onasi hech kimga zug'um qilmaslikni, hech bir bandaning burnini qonatmaslikni iltimos qilar, unga sayin Soatning g'ashi kelardi. Mamlakat ichki dushmanlarga to'lib yotibdi-yu savodsiz bu xotin nasihatgo'ylik qiladi... Orada fin urushi boshlandi... Keyin yana urush...

Xo'-o'sh... Hakimov... Hakimov... Otasi inqilobdan avval tegirmonchi bo'lgan... E-ha! To'lagan-ku bu! Uni Qonqusga cho'ktirib yubormoqchi bo'lgan og'aynisi. Xex! O'shanda "hammangni otaman!" degan va'da bo'lganmidi? Bittang Vatan xoini sifatida nasibangni olding. Endi — senga navbat... Xo'-o'sh... Xotini — Obidxonova Fotima. Otasi eshon bo'lgan. Sibirga surgun qilingan... Hakimov hozir o'sha eshonning qo'rg'onida yashaydi. Buyog'i necha puldan tushdi? Demak, sen Eshonga ichkuyov bo'lgan ekansan-da! Fotimaga uylanganman, degin! Ana, hammasi aniqlandi-qoldi. Qismatning hazilini qarang: tag'in eshonzodalar bilan ro'para keldi. Xex!

Yaponga olma berging kelib qoldimi? Olma bahona — diydor g'animat, degin! Samuray imi-jimida uzatgan qog'ozni yapon rezidentiga berishga ulgurdingmi-yo'qmi? Balki, rezident o'zingdirsan! Shoshilish kerak! Sen shoxida yursang, biz bargida yuramiz, eshonning ichkuyovi!

Yarim kechada yo'lga tushdilar. Qora mashina Tepaqo'rg'onga yetib borguncha tong yorishay deb qoldi. Ko'roydin. Qishloq deyarli o'zgarmagan. O'sha pastak uylar, paxsa devorlar. Faqat buzib tashlangan machit o'rnida klub qurilibdi. Tunuka tomli klub. Devori oqarib turibdi... Kuz salqini sezilib qolgan. Tun osuda... Mashina ortidan itlar ko'ksov bo'lgandek bo'g'iq akillab yuguradi. Chang-to'zon ko'tariladi. Qonqus bo'yidagi tollar qorong'ida hurpayib turibdi. Soat miyig'ida kulib qo'ydi. Uni anavi yerda cho'ktirib yubormoqchi bo'lishgan edi... O'zlarning uyi hov narida, jinko'chaning oxiridaydi. Turganmikin hozir? Turgan bo'lsa nima? Bu yerlar endi unga begona... Allaqachon begona bo'lgan...

Soat haydovchiga buyurdi.

— Chapga bur. Yong'oqzor tomonga... Yigitlar, chaqqonroq harakat qilinglar! Tong otyapti...

"Operatsiya"ni saharga yaqin bajarishda ma'no bor. Birinchidan, "obyekt" xotinining quchog'ida miriqib uxlayotgan bo'ladi. Ikkinchidan, qo'ni-qo'shnilar yopirilib chiqmaydi. Chiqqanida qo'lidan nima kelardi-ku, har qalay begona ko'zdan xoliroq bo'lgan yaxshi-da!

Darvozani uzoq qoqdilar. O'lib qolganmi bu! Oynani taqillatay desa, tashqariga qaragan derazaning o'zi yo'q. Eshonning qo'rg'oni-da! Bir zamonlar dadasi aytgan gap Soatning esiga tushdi. "Eshon qora qilmishlarini yashirish uchun baland devor orqasiga berkinib olgan". To'lagan ham shularning bittasi-da! Eshonzoda Fotimaning eri! Bu devorlar orasida butun boshli antisovet tashkilot shtabi joylashmagan deb kim kafolat beradi!

Nihoyat, yo'lak tomonda shoshqin qadam tovushi eshitildi. Uyqusiragan erkak ovozi keldi.

— Kimdi? — dedi hurkib.

— Oching! Rayonodan xabar bor.

Tamba surildi.

Soat oradan shuncha yillar o'tib ketgan bo'lsa ham fonus tutib turgan To'laganni darrov tanidi. Ko'zidan tanidi! Yillar o'tib, odamning qiyofasi, gavdasi, hatto gapirish ohangi ham o'zgarib ketishi mumkin. Faqat ko'zi o'zgarmaydi. Soatning ro'parasida aynan To'laganning o'zi turar edi. Ulg'ayibdi. Soch qo'yibdi. Voy ilon-ey! Maktabda intelligent bo'lib yurasan-da, uyingda aksilinqilobiy faoliyat olib borasan! Xex!

To'lagan ro'parasida turgan bir emas, uch nafar notanish odamni ko'rib taxta bo'lib qoldi.

— K-kechirasizlar, k-k-kim kerak sizlarga? — dedi duduqlanib.

— Ovozingni chiqarma! — Soat plashining cho'ntagidagi pistolet bandini mahkam qisib buyurdi. — Boshla!

To'lagan talmovsirab orqaga chekindi. Qorong'i yo'lakdan o'tib, hovliga chiqishdi. Tong yorishib kelar, hovli o'rtasidagi bir tup tut shoxida chumchuqlar uyqusirab chirqillar edi.

— Sizlarga kim kerak? — dedi To'lagan hammaga bir-bir qarab. U yelkasiga avra to'n tashlab olgan, boshyalang, sarpoychan, oyog'iga kalish ilgan edi. Shu asnoda Soatga uzoq tikilib turdi-da, chehrasi yorishdi.

— Iye, o‘zingmisan, o‘rtoq? — dedi dadillanib. — Marhamat, qani, ichkariga! Odamning kapalagini uchirib yubordingku, og‘ayni?

Ayvon tomonga qarab “ayasi”, deb chaqirgan edi, Soat past, tahdidli ohangda ta’kidladi:

— Men senga og‘ayni emasman! Qonun nomi bilan qamoqqa olinding!

— Esing joyidami, Soat?

— Soat emas, Komissar G‘aniyev bo‘laman! Xatni top, unsur! — dedi Soat g‘ijinib.

To‘laganning rangi bo‘zarib ketdi.

— Q-qanaqa xat? — dedi battar duduqlanib.

— Yaponning xati, hayvon! Yaponning xati! Qayoqqa tiqding samuraydan olgan xatni?

— Nima deyapsan, Soat? — To‘lagan ko‘zini ola-kula qildi. — Yo quruq tuhmatingdan! O‘limdan xabarim bor, bunaqa gapdan...

— Mayli, kerakli joyda esingga solib qo‘yamiz. Tezroq, yigitlar! Qani fonusni ber buyoqqa!

Zum o‘tmay ichkaridan ayol kishining “nima qilayapsizlar?” degan qo‘rqinch to‘la xitobi eshitildi. Kimdir “aya, aya” deb yig‘lab yubordi. To‘lagan o‘sha tomonga yura boshlagan edi, Soat qo‘lidan tutdi.

— Qimirlama! Biqiningdan darcha ochib qo‘yaman.

Ayvonga avval o‘n to‘rt-o‘n besh yoshlardagi ko‘ylakchan qiz, ketidan nimcha kiygan do‘mboqqina ayol yugurib chiqdi. Ikkalasining ham sochlari to‘zg‘ib ketgan, qiz qo‘rqib yig‘lardi.

— Nima gap? Kimsizlar? — dedi ayol ko‘zlari vahimadan kattalashib.

— Siz, xonim, tek turing! — dedi Soat vazminlik bilan. — Kerak bo‘lsa, sizniyam chaqirtiramiz.

Yo‘q, Fotima uni tanimadi.

Yigitlar birpasda uyni tit-pitini chiqarib yuborishdi. Hovlining burchak-burchaklariga kirib chiqishdi. Kitoblar-u qog‘oz-daftarlarni ayvonga uyib qo‘yishdi.

Fotima gap nimadaligini tushundi shekilli, qizini bag‘riga bosgan ko‘yi haykaldek qotib qoldi. Tajribasi bor-da! Obisk degani

nima ekanini biladi! To'lagan ham miq etmay bezrayib turar, faqat qizaloq qo'rquvdan dag'-dag' titrab, yig'lar edi.

— Mana, o'rtoq polkovnik, — yigitlardan biri ayvon peshida turib Soatga ixcham Qur'onni uzatdi.

— Bolalarga matematika o'rniga Qur'on o'qityapman degin! — Soat To'laganga qarab istehzoli kuldi. — Xex, xex, xex!

— Ularnikimas! — Fotima quyundek uchib kelib, Qur'onga yopishdi. — Meniki, otamdan qolgan yodgorlik. Bering buyoqqa!

— Nari, tur, ilonvachcha! — Soat tirsagi bilan bir turtgan edi, Fotima tisarilib borib, ayvon peshiga o'tirib qoldi. Ikki o'rim uzun sochi ko'ksiga yoyilib tushdi. Etagi ko'tarilib, jiyakli uzun ishton ostidagi bo'liq sonlari lorsillab ketdi. Soat Fotimaning yuzlari oppoq, silliq ekanini idrok etdi. "Shunaqa chiroyli juvon bo'pti-da!" degan o'y xayolidan lip etib o'tdi.

— Xex! — dedi kulib, Qur'onni shoshilinch varaqladi. Orasida ortiqcha qog'oz yo'qligiga ishonch hosil qilgach, kitobni parcha-parcha qilib yirtdi. Yerga uloqtirdi-da, tepkilay boshladi. — Mana senga yodgorlik! Mana!

Shaxdam yurib bordi-da, Fotimaning nimchasini tortqilab yecha boshladi. Fotima jonholatda nimchasini changallab Soatga ham qo'rquv, ham hayrat bilan termildi. Ko'zlari katta-katta, chiroyli edi. Bir vaqtlar Soat bexosdan qor otganda yig'lagan ko'zlar.

Orqa tomondan To'laganning tahdidli ovozi keldi.

— Nima qilyapsan, Soat?

Soat ijirg'anib burildi. To'lagan ko'zlari g'azabdan yonib shu tomonga talpindi, yigitlardan biri ro'parasida to'pponcha o'qtalib turar edi.

— Qo'yvor! Qo'yvor ayamni! — Ayvon burchagida qunishib turgan qizaloq quyundek uchib kelib, Fotimaning yelkasidan quchoqlab oldi. — Dadajon! Ayting, ayamga tegmasin!

Fotima Soatni endi tanidi. Ko'zidagi qo'rquv o'rnini nafrat egalladi.

— Cho'ntagingni ko'rsat! — dedi Soat sovuq qat'iyat bilan.

Fotima yelkasiga osilgan qizini kifti bilan nari itardi. Nimchasini yechayotganida ko'kraklari dirkillab ketdi. "Kerak bo'lsa,

olaqol!" degandek nimchani yerga uloqtirdi. Nimcha cho'ntagida hech nima yo'q ekan. Soat To'laganga o'girildi.

— Oldimga tush!

To'lagan bir qadam yurib to'xtadi.

— Fotima, — dedi vidolashgandek ohangda. — Qurbonoyni ehtiyot qil. Seni Xudoga, Qurbonoyni senga topshirdim.

"Qurbonoy emish! Xo'p topibsanmi, qizingni otini! Demak, Qurbon hayitida tug'ilgan. Maktabda o'qituvchilik qilasan, uyingda Qur'on o'qiysan... Ilon! Munofiq!".

Qizaloq hamon onasini quchoqlab turar, chamasi dadasining oldiga uchib borib bo'yniga osilgisi kelar, ammo notanish "amaki"dan qo'rqar edi.

— Marsh! — dedi Soat. — Bizni kuch ishlatishga majbur qilma!

Shu payt Fotima o'tirgan joyida uyoqdan-buyoqqa tebrana boshladi.

— Ey, poki-parvardigor! — dedi ikki qo'lini osmonga cho'zib. — Bu zolimlargayam boqqan balo bormi, Xudo!

— Aya, turing, ayajon! — Qizaloq yig'lab Fotimaning qo'lidan torta boshladi. — Dada, ayting, ayam yig'lamasinlar!

— Iloyo Qur'on ursin seni, bildingmi? — Fotima ko'zlari o't-dek yonib Soatga chaqchaydi-da, tizzalariga shapatilab, faryod soldi. — Qur'on urmasa, rozimasman. Otamning arvohi urmasa, rozimasman! Bolalaring yetim bo'lib, chirqillab qolmasa rozimasman! Muncha sho'rpeshona bo'lmasam, Xudoyim!

Hammasi bir go'r. O'rmon chetida ukasi ham shunaqa sannagan edi. Hammasini otish kerak, bitta qo'ymay!

Soat yo'lakka yetganida beixtiyor burilib qaradi. Fotima ayvon peshida o'tirib hamon ayuhannos solar, qizi esa bo'ynidan quchib yig'lardi. Fotima shu o'tirishda ham qandaydir... jozibali edi.

Soat miyig'ida kulib qo'ydi.

"Xex. Mayli qarg'ayver-chi! Ko'ramiz hali, qanday sayrarkinsan? Mana shu qo'llaring bilan yelkamni silab, mana shu tillaring bilan "Soat akajon" deb erkalamasang, otimni boshqa qo'yaman!"

HAMKASBLAR SUHBATIDAN

— Xo'-o'sh, kollega, ishlar qalay?

— Salomatmisiz, o'rtoq Komissar? Marhamat!

— Vasilyevning so'rog'idan biron naf chiqdimi?

— Vasilyevning yuz foiz alibisi bor, o'rtoq Komissar. Jinoyat sodir bo'lgan kuni u hushyorxonada yotgan.

— Xm... Xo'sh? Xotini-chi? Shomatovning xotini nima deydi?

— Nima derdi? O'sha gap. Ertalab sutga chiqqan. Qaytib kelib, ro'y bergan hodisani ko'rgan. Chindan ham o'sha kuni operativ gruppa yetib borganida Shomatova uyida edi.

— Uyida degin? Xex! Kechasi qayerda tunagan ekan oyimcha?

— Guvohlik berishicha, tun bilan uyida bo'lgan.

— Xotin kishining makri qirq eshakka yuk bo'ladi! Ertalab sutga chiqqan emish! O'sha kuni sutga chiqmagan! Chiqsa, men ko'rardim, men!

— Aniqmi shu gap?

— Men noaniq gapirmayman, kollega! Bundan tashqari... Surishtirib ko'rdingmi? Shomatov uyni qanday qilib oldi ekan?

— O'rtoq Komissar... O'lgan odamni malomat qilish...

— Men uchun o'lik-tirikning ahamiyati yo'q. Senga ham shuni maslahat beraman.

— Shomatov Afg'onistonda jang qilgan. Navbatsiz uy olishga haqqi bor!

— Jang qilganmish! E'tiboringiz uchun, o'rtoq tergovchi, gorispolkomning uy taqsimoti komissiyasida kamina ham borlar! Bir majlisda bu bolaning o'zini tutishini ko'rib, aniq xulosaga kelganman. Uy nari tursin, molxonani ham ravo ko'rib bo'lmasdi unga...

— O'rtoq Komissar. Shomatov halol jang qilgan. Kontuziya bo'lgan, jarohatlangan. "Jasorati uchun" medali bor...

— Jasorat emish! Ko'rganmiz bunaqalarni! Hozirgi osobistlarga hayron qolasan kishi! Bir-biridan landovur! Bo'pti... Muvaffaqiyat tilayman! Maslahatim shuki, Shomatovani qattiqroq siquvga ol. Ha, aytgancha, Qurbonoy degan xotin bor. To'laganova Qurbonoy. Farrosh... Kirmagan eshigi yo'q. Haqiqiy navodchitsa! O'shaniyam... bir obrabotka qilish kerak.

RUSTAMNING BIRINCHI KUNDALIGIDAN

...Kundalik yozish — qizlarning ishi. Qizlarda bunaqa "kasal", shoirlar aytmoqchi, "shudring tomchisidek musaffo, qalbiga ilk muhabbat cho'g'i tushgach" paydo bo'ladi. O'z xayolida muhabbat deb atalmish qasrni bunyod etadi. Xayoliy Malika, xayoliy Shahzodasiga aytolmagan gaplarini qog'ozga tushiradi... Yozaveradi... Yozaveradi... Bir kuni ko'z yoshlaridan suykalib ketgan daftarni sirdosh dugonasiga o'qib beradi. Ikkovlari bir xonaga kirib olib, tongotar pichir-pichir qilishadi...

Shuyam mashg'ulot bo'ldi-yu! Tajanning qum barxanlarida ustingdan qora kombinezon, ichingdan o'n sakkiz kiloli o'q o'tmas nimcha kiyib yugurishning o'zi bo'ladimi? Faqat bir narsani orzu qilasan: to'yib suv ichsangda, yotib uxlasang... Qog'oz qoralashni kim qo'yibdi senga, soldat!

Shunaqa-ku, baribir yozishim kerak. Erta-indin Afg'onistonga "tashlashlari" aniq. Xudo nasib etib, uyga omon-eson qaytsam, esdalik bo'lib qoladi. Bir narsani aniq bilaman. Daftarni hech kim ko'rmaydi. Hech kim! Oyim ham, dadamning vaqti yo'q, akam ham... Shahnoza ham. Umuman hech kim! Men uni hech kimga ko'rsatmayman! Nima keragi bor?!

May oyining yigirma uchinchi kuni

Voyenkomat degani qassobxonadek gap. Qaysi molni qachon so'yadi, qandoq so'yadi — qassobning ishi. Do'xtirlari ham baayni mol do'xtiri!

Bolalarni trusichan qilib qo'yadi-da, xuddi molning qancha tosh bosishini chamalagandek, tortib ko'radi. Keyin bo'yingni o'lchaydi. Boshingni, belingni, oyog'ingni... Turnaqator turasan.

Bir tomonda do'xtirlar. Bir tomonda yarim yalang'och "prizivniklar". Endi senlar odam emas, hammang bir xilda "prizivnik"san.

Quloq solib tursang, antiqa savol-javoblarni eshitasan...

— Shikoyating bormi?

— Bor. Boshim og'riydi. Kechalari uxlamay chiqaman, do'xtir!

— Mening boshim yorilib ketay deyapti! O't! Yaroqli!

— Sen nima deysan?

— Jigarim kasal. Sariq bo'lganman...

— Qachon?

— Uch yil avval.

— Men yaqinda gepatit bo'lib, gospitaldan chiqdim. Yaroqli! Sleduyushiy!

— Bir kasalim bor-u... aytishga uyalib turibman, do'xtir...

— Gapiraver! Bu yer senga xotinlar monastiri emas.

— Shu... kechasi... tagimni ho'llab chiqadigan odatim bor. Bolaligimdan beri shu... Hech tuzalmayapti.

— Zarari yo'q! Men kun ora "kattasini" qilib chiqaman. O't! Yaroqli! Sen-chi! Sen nima deysan?

— Tutqanog'im bor, do'xtir. Rost aytyapman. Ishonmasangiz, gospitalga yotqizib tekshirib ko'ring.

— Shuyam kasal bo'pti-yu! Men — kecha jinnixonadan qochib chiqdim. Sleduyushiy!

...Qarab turib ham kulging keladi, ham yig'laging. Bulargayam osonmas. Hamma joyda plan bor. Paxta plani, pilla plani, gazlama plani... Voyenkomatniki — odam plani! Bajarish kerakmi axir? Yevropa tomonlarda xotinlar kam tug'adigan bo'lib qolgan. Bundan chiqdi, Vatan himoyachilarining o'rnini O'rta Osiyolik bolalar bilan to'ldirish kerak! Plan — qonun degani! Bajarmay ko'rsin-chi?

— Shikoyating bormi?

— Yo'q!

Do'xtir qalin gardishli ko'zoynagi ustidan menga olayib qaradi.

— Hech kasal bo'lmaganmisan?

— Yo'q!

— Malades! Sport bilan shug'ullanasanmi?

— Ha!

— Qaysi turi bilan?

— Karate. Sariq belbog'im bor.

— Malades. O't!

Katalakdek xonaga kirdim. Boyagi "bemorlar" tag'in so'roqqa tutildi.

— Hunaring bormi?
— Yo‘q.
— O‘qiysanmi?
— Ha!
— Nechanchi kursdasan?
— Birinchi.
— Sen-chi?
— Ikkinchi.
— Imtihonlaringni topshirganmisan?
— Yo‘q, o‘rtoq kapitan. Bitta qarzim bor.
— Meniki ikkita.

Navbat menga keldi.

— Hunaring bormi?
— Sho‘pirman. Kursni bitirganman.
— O‘qiysanmi?
— O‘qiyman.
— Nechanchi kurs?
— Birinchi.
— Imtihonlarni topshirganmisan?
— Topshirganman.

Rangi zahil kapitan hujjatlarim solingan papkaning tepasiga qizil qalam bilan yo‘g‘on qilib “A°20” deb yozdi.

Indamay turgan edim, tushuntirdi:

— Boraver, bir haftada povuska olasan.

— Ayting-chi, — dedim ko‘nglim g‘ash tortib. — Men qayerga borishim mumkin?

— TurkVO ixtiyoriga.

— Qanaqa qismga? Taxminan qayerga?

— Bilmayman! — Kapitan pashsha qo‘rigandek qo‘lini silkitdi. — Sleduyushiy!

Yuragim shig‘ etdi. Demak — Afg‘onistonga jo‘natadi.

Tashqariga chiqsam, boyagi — mendan oldin navbatga turgan talabalar gurunglashib, sigaret tutatyapti.

— Bir emas, uchta imtihondan qarzim bor, deb qo‘ya qolmading-da, Robert! Bu — saldofonlar bilib o‘tiribdimi!

Indamay nari ketdim. Nuqul o'zimni so'kaman. "Ahmoq! Maqtanchoq eshshak! Karatega balo bormidi! Haydovchilik guvohnomang borligini aytib nima qilasan? Aqalli bitta zachyotdan qarzim bor desang-ku, kuzgi chaqiriqqacha tinch qo'yardi!

Zahil kapitan "A°20" deb yozdimi? TurkVO ixtiyoriga o'tasan, dedimi? Tamom!

Avvallari bolalarni Leningradga borasan, Litvaga yuboramiz, deb laqillatgan-da, shappa bosib, Afg'onga olib ketgan. Kapitanning gapidan ko'rinib turibdiki, endi aldamay qo'yishibdi. "Afg'oniston" demadi-ku, aqling bo'lsa, tushunib olaver, qabilida gapirdi. "Bir haftada povuska olasan", dedimi? Bundan chiqdi...

Soatga qarasam, to'rtdan oshibdi. Shahnoza uyiga kelgan bo'lishi kerak. Metrodan qo'ng'iroq qildim. Telefondan odatdagidek ingichka, erka ovoz eshitildi.

— Alyo-yo-yo! Kim bu-u-u?

Ovozidan tanidim: Shahnozaning singlisi. Opasini chaqirib berguncha odamni qon qilib yuboradi.

— Iltimos, Shahnozani chaqiring.

— Kim o'zi bu-u?

Avvallari qizaloqning erkaligiga kulib qo'ya qolardim. Bu gal g'ashim keldi. Hali Piskentga ham borib kelishim kerak.

— Chaqir Shahnozani! — dedim zarda bilan.

Baxtimga Shahnoza yaqinroq joyda ekan shekilli, telefon qulog'idan "ber bu yoqqa, jinni!" degan tovush eshitildi.

— Shahnoza, — dedim iloji boricha vazminlik bilan. — Bir soatdan keyin ko'rishsak... "O'zimizning" joyda.

— Tinchlikmi? — Shahnozaning ovozida xavotir bor edi.

— Tinchlik! — dedim kulib. — Judayam ko'rgim kelyapti sizni.

...Shahnoza atlas ko'ylak kiyib, sochini bejirim turmaklab olibdi. Anhor bo'yida, na'matak tagidagi xarrakda o'tiribmiz. Narigi sohilda kalta ishtoni jiqqa ho'l qora-qura bolalar qiy-chuv solib cho'milyapti. Boshimiz ustida yarim-yorti gulini to'kkan na'matak shoxlari egilib turibdi... Tikanlari hali qotmagan. Yuzingga, bo'yningga urilsa, og'ritmaydi... Faqat qitiqlaydi... Erta-indin beozor bu tikanlar nayzadek qayrilib, har bittasi o'qqa aylanishi mumkin... Qiziq, o'q tegsa qanday ahvolga tusharkin odam?..

— Nima gap? — dedi Shahnoza ko'zimga termulib.

Muncha chiroyli bu ko'zlar! Muncha aqlli! Muncha jozibali bu qayrilma kipriklar! Hozir... Kapalak qanotidek bir-ikki silkinadi-yu... aynan yurakning o'zini so'rab turgan ko'zlardan yosh oqadi...

— Hech gap yo'q...— dedim iljayib. — Shunchaki, sizni sog'indim. Ko'rgim keldi. Yomonmi shu?

Shahnoza anoyi ekan-da! Kaftlari bilan yuzimdan beozor tutib, o'ziga qaratdi.

— Rostini ayting...

— Nimani?

— Rustam aka? — Shahnoza ko'zimga uzoq, sinchkov tikildi. — Yolg'on gapirishni eplolmaysiz. Ayting, nima bo'ldi?

— Chaqirishdi...— dedim xushchaqchaq gapirishga urinib...— Bir haftada ketsak kerak.

Shahnoza kaftini bo'shatdi.

— Qayoqqa? — dedi alamnok o'ychanlik bilan.

Yarq etib qarasam, yelkasini xarrak suyanchig'iga tashlagancha noma'lum nuqtaga, osmonga termulib o'tiribdi. Chehrasi shu qadar xomush, shu qadar ayanchli ediki, qo'rqib ketdim.

— Bilmayman, — dedim rostini aytib.— Bilmayman.. Harqalay, chet elga bo'lsa kerak. Germaniyami, Mo'g'ulistonmi...

Shahnoza qilt etmay o'tirar, o'zi yonimda-ku, xayollari uzoq-uzoqlarda kezayotganini his etib turardim.

— Qo'y endi, Shahnoz...— dedim umrimda birinchi bor sensirab. — Ko'rasan, hammasi yaxshi bo'ladi.

Anchadan keyin osoyishta burilib qaradi.

— Aldamang! — dedi ovozi titrab. — Aldamang, Rustam aka! Afg'onistonga yuboradi. — To'satdan o'krab yig'lagancha bo'ynimdan quchoqlab oldi. — O'zingiz xohlagansiz! O'zingiz aytgansiz! — dedi chinqirib. — Ahmoqsiz! Ahmoq! Meni o'ylamadingizmi?

— Jinnimisan? — dedim hansirab.

— Rustam aka! Nega unaqa qilasiz, Rustam aka!

Ko'z yoshi oqib turgan yuzlaridan, yosh ta'mi anqiyotgan lablaridan o'parkanman, titrar edim.

Birin-ketin yopirilib kelgan alamli, ayovsiz savollar yuragimni g'ijimlar, dod deb yuborgim kelardi. "Sen ahmoq, sen galvars, nega qadriga yetmading shunday qizni! Eslab ko'r! Biron marta, aqalli biron marta aytdingmi? "Seni yaxshi ko'raman, sensiz menga u dunyo-yu bu dunyo qorong'u", dedingmi? Sening nimangni sevadi bu qiz?"

— Shahnoza... — dedim yalinib. — Qo'y endi, Shahnoz! Xudo ursin! Rost aytyapman. Hali qayoqqa borishimiz ma'lum emas.

U esa hamon yig'lar, bo'ynimdan, yuz-ko'zimdan, labimdan to'xtovsiz o'par edi. Vujudim tarang tortilib ketgan. Xudo haqqi, bunaqa pallada shayton erkak kishini har ko'yga solishi mumkinligini his etib turardim.

— Shahnoz, — dedim entikib, — Shahnoz... Iltimos. Jon Shahnoz...

— Men sizni kutaman, Rustam aka! Kutaman...— U ilkis quchog'imdan chiqib yosh to'la ko'zlari bilan iltijo qildi. — E, Xudo! Bizga rahming kelsin. Karaming kengligi rost bo'lsa, shafqat qil bizga!

To'satdan jimib qoldi-da, menga o'girildi.

— Agar...— dedi pichirlab. — Agar... sizga bir nima bo'lsa...— Ko'z yoshi aralash jilmaydi. Erkalanib yelkamga boshini tashladi. — Men Xudoga ishonaman, — dedi xo'rsinib, — Ko'nglim sezib turibdi. Siz sog'-salomat qaytib kelasiz. — Birpas o'ylab turdi-da, qo'shib qo'ydi. — Rustam aka... Men... kutaman. Keling, bir narsani kelishib olamiz. Uyoqdan qaytgan kuningiz mana shu yerda, xuddi shu yerda uchrashamiz. Xo'p?

May oyining oxirlari

SSSRning eng sovuq nuqtasi — Oymakon, eng issiq nuqtasi — Kushka, deyishadi. Bilmadim! Menga qolsa — SSSRning eng issiq joyi — Tajan! Hamma yoq sahro. Qum barxanlari... Kovushdek jag'ini osiltirgan ko'yi so'lak oqizib yurgan tuyalarni, ro'parangdan chiqib qolsa, ikki lunjini shishirib odamni qo'rqitish uchun vishillab qo'yadigan — "sahro timsohlari" — echkiemarlarni

hisobga qo'shmasang, tirik jonzod yo'q hisobi! Shunaqayam Xudo qarg'agan joy bo'ladimi? Xayolingda yakkash bir o'y charx uradi. "Suv!" "Suv!" Qani endi, Toshkentda ko'cha chetida shovillab oqib turgan jo'mrakka shundoq labingni bossang-da to'yguncha, yorilib ketguncha ichsang! Yoki Piskentdagi soyning ajriqlar qoplab yotgan sohiliga yotib olsang-u, yuz-ko'zingni suvga botirib, ichaversang... Ichaversang...

Ertalab tomog'ing qaqrab, ko'zlaring achishib uyg'onasan. Suv emas, allaqanday taxir sarg'ish narsa ichasan. Temur aka tushuntirdi: bu yerning suvini ichib bo'lmas ekan. Askarlar orasida sariq kasali tarqalganmish. Shuning uchun suvga yantoq qo'shib qaynatib berarkan. Flyagangdagi suv kun chiqmasdan qizib ketadi. Burama qopqog'iga bir qultum quyib ichsang — tomog'ingni achishtirib, battar chanqatadi. Kechqurun yotayotib, tag'in xayolingda o'sha gap charx uradi. "Suv! Bir qultum, aqalli bir qultum muzdekkina suv bo'lsa-chi!"

Iyun oyining boshlari

Tush ko'rdim. Olma tagidagi so'rida o'tirgan emishman. So'ri ostidan sharqirab suv oqayotganmish. Hovuchlab ichaveribman-ichaveribman. Chanqog'im hech bosilmasmish. Bir mahal oyim kosa olib chiqibdi. "Voy bolam-ey! Haliyam yosh bolaga o'xshaysan-a! Kosada ichaqolmaysanmi", debdi. Kosani botirsam, suv qumga aylanib qolibdi.

Iyun oyining o'rtalari

Qumlar orasida "Dushman shaharchasi" bor. Bo'lajak "dushman obyekti" taxminan shunaqa. Paxsa devorli pastak uylarga "hujum" qilamiz. "Dushman" bizni "o'qqa tutadi". Biz bostirib boramiz. Hammasi harbiy taktikaga muvofiq qilinadi. Razvedgruppa... Sapyorlar. Zirhli qismlar: T°62 tanklari, BTRlar, keyin piyodalar...

Maktabda o'qib yurganimda dadamning "Niva"sini haydab, prava olganim yaxshi bo'lgan ekan. Tankchilikka o'qityapti. Temur akaning aytishiga qaraganda, "uyoqda" ayniqsa, sapyorlarga qiyin bo'larmish. Temir qutida o'ligi kelayotganlarning ko'pchiligi — sapyorlar emish.

Iyun oyining oxirlari

Zampolit tag'in majlis qildi. Sotsializm dushmanlari Afg'onistondagi Savr inqilobini bo'g'ib tashlashga jon-jahdi bilan urinayotganini, o'zining internatsional burchini ado etayotgan sovet jangchilari porloq g'alabalarga erishayotganini aytdi. Afg'oniston Sovet davlati bilan tarixda birinchi bo'lib do'stlik bitimini tuzgan qardosh mamlakat ekanligini, erta-indin biz ham Afg'on tuprog'iga kirib Vatan oldidagi yigitlik burchimizni ado etajagimizni tushuntirdi.

Iyun oyining oxirlari

Bir yo'la ikkita xat oldim. Bittasi — akamdan, bittasi — Shahnozdan.

Akam dadamning, oyimning, kelinoyim, jiyanlarimning nomidan qizg'in duoyi salomlar yo'llabdi. "Mabodo uyoqqa olib ketishsa Mo'g'ulistonga tushdik, deb yozaver, bo'lmasa oyimlar Rustam borgan shaharning adresini nega yozmaydi, deb shubhalanadilar", debdi. Akamning gapi jo'yali. Konvertga baribir "polevaya pochta" deb yoziladi-ku! Shahnozaning uzundan uzoq xatida qayta-qayta takrorlangan bir iltijo bor edi. "O'zingizni asrang! Men sizni kutaman. Sog'inib-sog'inib kutaman!"

Iyul oyining boshlari

Ekipajimiz to'rt kishi. Men — komandir. Temur aka mexanik haydovchi. Sasha — otuvchi. Xayriddin — o'qlovchi.

Mashq payti tankning ichi do‘zaxdek yonib ketadi. Lyukni ochsang, qum to‘zoni yopirilib kiradi. To‘rt-beshta snaryad otmasingdan tank ichi porox isiga, tutunga to‘lib bo‘g‘ib tashlayotgandek bo‘ladi.

Birov yo‘taladi, birov xirillaydi... Faqat Temur aka — beparvo.

— Qo‘yaver, uka! — deydi nuqul qo‘l siltab. — Hali “uyoqda” shunaqangi tutunlarni ko‘rasan-ki...

Temur akaning yoshi hammamizdan katta — baquvvat, chayir yigit. Bir gal yechinganida ko‘rsam, ko‘kragiga nina bilan o‘yib burgutning rasmi solingan ekan. Chap bilagida “Temur” degan ko‘kimtir yozuv.

— Nima balo, grajdankada rassom bo‘lganmisiz? — desam kuldi.

— Har balo bo‘lganman, uka! So‘rama!

Xayriddin — Temur akaning aksi — gavdasi mushtdekkina. Qizlarnikiga o‘xshagan chiroyli ko‘zlari o‘ychan boqadi. Aytishiga qaraganda Forishda turadigan onasidan bo‘lak hech kimi yo‘q ekan. Pedagogika bilim yurtini bitirgan zahoti armiyaga olibdilar. Xayriddin xudojo‘y bola. Payqashimcha, namoz o‘qigisi keladi-yu, atrofdagilarga kulgi bo‘lishdan istihola qiladi. “Bandasining boshi — Olloning toshi, — deydi chollardek salmoqlab. — Xudo xohlasa yurtimizga omon-eson qaytamiz, jo‘ra... Ko‘nglim sezib turibdi”.

“Yog‘ochning bo‘shini qurt yeydi”, deganlari rost ekan. Tank ekipajida eng “qora kasb” — o‘qlovchi hisoblanadi. Xayriddin o‘rischani yaxshi bilmagani, yuvoshligi uchun o‘qlovchi bo‘lib qolgan. Biroq o‘z yumushini sidqidildan bajaradi. Ba’zan mushtdek jasadi bilan har biri salkam qirq kiloli snaryadlarni kuchanib tashishini ko‘rib, rahmim keladi. Yordam beray, desam iymanib rad etadi... “Qo‘ying, jo‘ra, siz — komandirsiz...”

Iyul oyining o‘rtalari

Shahnoza ikkalamiz anhor labida, o‘zimizning na’matak tagida o‘tirgan emishmiz. Suv ichgim kelarmish... “Shahnoza, suv bergin, suv!” desam, hovuchida suv olib uzatarmish-u, og‘zimga olib ke-

lishi bilan hovuchi orasidan to'kilib ketarmish... Cho'chib uyg'ondim. Tomog'imda o't yonayotganga o'xshardi.

Avgust oyining oxirlari

Temur aka g'alati gap aytdi.

— G'irt ahmoq ekansan, Rustam! Masalan men ertaga o'lib ketsam, achinadigan odamim yo'q. Yetimxonada o'sganman. Menku, mayli! Afg'onistonda pishirib qo'yibdimi senga! Ana! Qancha soldatlarning otalari o'rtaga tushib, bolasini boshqa qismga o't-kazyapti.

Biri "kasal" bo'lyapti, biri boshqa bahona topyapti... Otang rais bo'lsa, deputat bo'lsa, yo'lini qilolmaydimi? Ofitserda nafs yo'q deb o'ylaysanmi?

O'ylab qarasam, Temur aka rost aytyapti. Qancha bolalar boshqa qismga o'tib ketdi... Shunaqa-ku, Afg'onistonga borishimiz mumkinligini faqat akamga aytganman. Basharti bu gapni akamdan eshitgan taqdirda ham dadam bu ishga bosh qo'shmaydi. Odatini bilaman-ku!

Sentabr oyining o'rtalarida

Xayriddin qiziq gap aytdi.

— Erta-indin "uyoqqa ketamiz".

— Qayoqdan bilasiz? — desam, ma'yus kulimsiradi.

— Tush ko'rdim, jo'ra... Ketyapgan emishman, yo'lning oxiri ko'rinmasmish.

29-sentabr

"IL-76" samolyoti bunchalik katta bo'lishini bilmagan ekanman. Qanor qopga turshak bosgandek tiqdilar. Birov tik turibdi, birov to'rvasining ustida o'tiribdi. Samolyotning temir "qornida" cho'kkalab o'tirgan Xayriddin bir nimalarni pichirlayapti. Ovozi

eshitilmaydi-yu, labi qimirlayotganini ko'rib turibman. Motorning guvillashi quloqni qomatga keltiradi.

Negadir hamma yoq sovib ketdi. Yuragimning tub-tubida qo'rquv paydo bo'ldi. "Xudo, o'zing panohingda asra!" dedim unsiz iltijo qilib. Bir mahal allakim yelkamga turtgandek bo'ldi. Temur aka! Yonimda turgan ekan. E'tibor bermabman. Kulib nimadir degan edi, eshitmadim. Qulog'imga egilib baqirdi:

— Qo'rqma! Bir boshga bir o'lim!

Anchadan keyin samolyot pasaya boshladi. Quloqlarim shang'illab ketdi. O'sha zahoti dum tomonda g'alati shuvillagan ovoz eshitildi. Samolyot ortidan muttasil mushak otilib chiqa boshladi. Qutimiz o'chib, hammamiz alang-jalang bo'lib qoldik. Xayriyat, samolyot hamon uchib borar edi. Keyin tushundik: qo'nish oldidan uchuvchilar samolyotdan raketa chiqarar ekan. Maqsad — *dushman "Stinger"ini chalg'itish: "Stinger" uchib bora-turib* "issiq obyekt" tomonga burilarkan. Agar samolyotdan raketa otilsa "Stinger" motorga emas, o'sha raketalarga borib urilarkan. Xudoga shukr, omon-eson qo'ndik.

Yerga qadam bosishim bilan Xayriddin ogohlantirdi:

— "Bismillo" deng, jo'ra! Bu tuproqda ajdodlarimiz yotibdi.

Aytganini ixlos bilan ado etdim.

Bunaqangi qattiq shamolni endi ko'rishim. Qo'yib bersang, dumalatib ketadi. Hamma yoq chang-to'zon. Aerodromda samolyotlar, vertolyotlar qatorlashib ketgan. Xuddi pana-panada dushmanlar yashirinib olgandek, avtomatini aynan menga o'qtalib turgandek, boshimni ichimga tortdim. Qarasam, boshqa bolalar ham bilagi bilan shamoldan ko'zini to'sgancha olazarak alanglab boryapti.

"Ural" mashinalariga o'tqazishdi. Karvon tizilib yo'lga tushdi. Ipdek cho'zilib ketgan ilang-bilang yo'l goh yuqoriga o'rmalaydi, goh pastga sho'ng'iydi. Hamon shamol guvillaydi. Bir tomon yalang'och tog'lar, bir tomon — cho'l.

— Qarang, jo'ra, qarang!

Yonimda o'tirgan Xayriddin yelkamga turtdi.

Urushning izi qanaqa bo'lishini birinchi bor ko'rdim. Shundoq yo'l chetida majaqlangan "KamAZ"lar, portlab, yonib ketgan benzovoz qoldig'i, tank zanjiri, dabdalasi chiqqan, yonboshlab qol-

gan BTRlar yotibdi. Hov pastda, jarlik orasida vertolyot bo'laklari ko'zga tashlanadi. Parraklari g'ayritabiiy qiyshayib ketgan...

Qismimiz Farax shahriga yaqin joyda ekan. Manzara deyarli o'sha-o'sha. Bir tomon — qizg'ish qoyali tog'lar, bir tomon qumli sahro. Pastda loyqalanib oqayotgan ilonizi soy ko'rinadi...

Kechasi o'q tovushidan uyg'onib ketdim. Pastda, chamasi soy tomonda vaqti-vaqti bilan avtomat tarillab qo'yar edi. Sovuq... Uxlashga qo'rqdim.

Oktabr oyining boshlari

Kazarmalarimiz g'alati: devori fanerdan yasalgan. Ikki qavat faner orasiga qummi, nima balo solingan. Ellik qadamcha narida ofitserlar uchun qurilgan modul. Bu bino ham kazarmadan farq qilmaydi... Askar bolalarga razm solib, bir narsani angladim. Hammasining rangi za'faron. Hammasi badqovoq...

Qismda bemalol, yasan-tusan qilib yurgan ayollarni ko'rib, ko'nglimda taskin uyg'ongandek bo'ldi. Bundan chiqdi, dushmanning hujum qilish xatari yo'q.

Oktabr oyining o'ninchi kuni

Temur aka "Oxotnichiy" sigaret chekib o'tiribdi. Bir o'zi emas. Uch kishi. Bular biz bilan kelgan "chijik"larmi, avvaldan xizmat qilayotgan "qariya"larmi, ajratolmadim: hammamiz aralash-quralash bo'lib ketganmiz. Uchov bir sigaretni galma-gal chekyapti.

— Tortasanmi? — dedi Temur aka negadir iljayib.

— Men sigaret chekkan emasman, — degan edim, yana kuldi.

— Sigaret emas bu, chars!

Ertasi kuni

Dunyoda eng qudratli, eng yengilmas, eng inoq... shonli Sovet Armiyasi haqida televizorda haftada bir ko'rsatuv bo'lishini bilasiz. Menga qolsa o'sha tomoshada "dedovshina" qanaqa bo'lishini

ko‘rsatgan bo‘lardim. Yangi kelgan “churik”larni xo‘rlashni, millatchilik qilib do‘pposlashlarni... Men-ku, o‘zimni himoya qilish qo‘limdan keladi. “Qariyalar” Xayriddinni xo‘rlay boshlashdi. Goh xalajoy tozalatadi. Goh “bichok” terishga majbur qiladi. Temur aka birinchi kunlardanoq “qariyalar” bilan til topishib olgani yaxshi bo‘lgan ekan. Kechqurun Xayriddinga zug‘um qilayotganlardan ikkitasini chaqirib oldi-da, “tushuntirdi”.

— Eshitib qo‘y, zemlyak! Men “blatnoylardanman”. Birinchi jangdayoq otib tashlayman! Ikkalangniyam!

Oktabr oyining yigirmanchi kuni

Olisda yurgan odamga yurtidan kelgan har bir xat — bitta bayram! Shahnozadan xat oldim. Suratingizni yuboring, sog‘indim, debdi.

Ertasi kuni

— Haliyam bo‘lsa, chars tortishni o‘rgan! — dedi Temur aka. — Ajoyib narsa-da, la’nati!

— Qo‘ying, aka, — dedi Xayriddin yalinib. — O‘rgatmang shunga.

Chars degani — nasha ekan. Qism atrofida o‘ralashgan juldurvoqi afg‘on bolalar chars olib kelib, alyumin qoshiqqami, kerosin yoki dudama mushakkami, alishib ketarkan.

Ekipajimiz deyarli o‘zgarmadi. Xayriddin o‘qlovchi, Sasha — otuvchi... faqat Temur aka rezvedkachilar bataloniga tushib qoldi.

Kombatga iltimos qildim.

— O‘rtoq kapitan, ekipajimizda mexanik haydovchi Jo‘rayev Temur bor edi, — deb gap boshlagan edim, ofitser jerkib berdi:

— Bas qilinsin!

— Parvo qilma! — dedi Temur aka yupatib. — Menga baribir.

Keyin o‘ylasam, kapitan to‘g‘ri qilgan ekan. Ekipajimizda jang ko‘rgan biron kishi bo‘lishi kerak-ku, axir!

Oktabr oyining oxiri

Bugun ilk bor o'lim sharpasini sezdim. Postga kelganimizga bir hafta bo'ldi. Tankimizni katta yo'l muyulishidagi okopga joylashtirib olganmiz. Atrofimizda qoyalar so'ppayib turibdi. Nariroqda snaryadlar ombori. Yuz yigirmata snaryad taxlab qo'yilgan. Tankning o'zida qirqta snaryad. Gardez tomon ketayotgan "ip"ni qo'riqlashimiz, xavfli muyulishdan omon-eson o'tkazib yuborishimiz kerak. Vazifamiz — ro'paradagi qoyalar orasidan snaryad otilib qolsa, obyekt koordinatlarini aniqlab, o't ochish.

Tank lyukidan boshimni chiqarib qarab turibman. Yomg'ir yog'ayapti. Olisda, ilang-bilang yo'lda "ip" ko'rindi (Karvonni "ip" deyishadi). Birpasdan keyin ro'paradagi tog'dan gumbirlagan tovush eshitildi. G'ira-shira ko'rinayotgan qoya ortida tutun burqsidi. Osmonda g'alati tovush eshitildi: mashina suvdan o'tayotganida, g'ildirak qanday voshillasa, o'shanga o'xshagan ovoz. Raketa snaryadi karvon yaqiniga tushib portladi. Chamamda, karvonga shikast yetkazmadi.

Lyukni yopishim bilan shlemofondan komandirning buyrug'i eshitildi.

— Razmax yetmish olti! Koordinat, — dedi tushuntirib. — Ish boshla! Beshta snaryad.

Bu beshta snaryad ot, degan ma'noni bildirardi.

— Beshta snaryaddan o't och! — dedim baqirib.

Tank silkinib, hamma yoqni porox hidi tutib ketdi. Trimpliksdan qarab turibman. Boyagi joyda tag'in tutun burqsidi. Atrofimizda ketma-ket snaryadlar portlab, qoyatoshlar ag'darila boshladi. Tank zirhiga oskolkalarmi, toshlarmi charsillab urilayotganini his etib turardim. Ular xuddi boshimga yog'ilayotganga o'xshar, terlab ketgandim.

— Yana beshta snaryaddan o't och!

"Uyoq" tomonda ham toshlar o'pirilyapti. Snaryad tushgan joyda tutun aralash olov osmonga sapchiyapti. "Karvon" shiddat bilan guvillagan ko'yi muyulishdan o'tib, pastga sho'ng'iyotganini trimpliksdan ko'rib turibman. Shu yerdan o'tib olsa bas, tog' panasiga yashirinib xatarsiz joyga chiqadi.

Mexanik Viktorning hayajonli xitobi eshitildi:

— Komandir! Omborga raketa tushdi!

Lyukni ochish niyatida qo'l cho'zgan edim Viktor so'kib berdi.

— Esing joyidami, komandir! Snayper Bur bilan poylab turgan bo'lsa peshonangdan darcha ochib qo'yadi.

Yonbosh tomonda gumburlagan portlash eshitildi. Tank titrab ketdi. Shu zahoti xayolimdan vahimali o'y lip etib o'tdi. "Tamom!". Omborda bir yuz yigirmata snaryad bor. Hozir portlaydi-da, tankni ham, to'rttalamizni ham mayda-mayda qilib tashlaydi". Beixtiyor kombinezon kissasidagi avtomat gilzasini paypaslab qo'ydim. Hamma bajarishi shart bo'lgan qoida bor: o'q o'tmas nimcha kiyish. Ismi-sharifi, shaxsiy qurolining raqami yozilgan qog'ozni gilzaga tiqib, biron joyiga yashirib qo'yish. Mabodo parchalanib ketsang yo kuyib kulga aylansang, gilza baribir yonmaydi. Otingni bilib, uyingga jasadingni yuborishadi. Bu gaplar xayolimdan bir soniyada kechdi.

Gumbirlash tag'in takrorlandi. Shlemofon ratsiyasidan vzvod komandirining tovushi eshitildi:

— Razmax! Tirikmisan?

— Tirikman, o'rtoq komandir!

— Nega ishlamayapsan?

Buyruqni beixtiyor takrorladim:

— Yana beshta snaryaddan o't och!.. O'rtoq komandir, omborga raketa tushdi. Snaryadlar portlayapti.

— Qo'rqma! — dedi komandir tasalli berib. — Hammasi birdan portlamaydi. Oxirgi snaryad yorilguncha kutasan. Tankdan chiqish taqiqlanadi.

Karvon o'tib bo'lgan, dushman ham o't ochishdan to'xtagan, ammo biz yonboshimizda portlayotgan snaryadlarning gumburlashi, tankning titrab-qaqshashini kutib o'tirishga majbur edik. Tank ichi porox hidiga to'lib, qizib ketgan, Xayriddin bo'g'ilib yo'talar edi. Snaryadlar esa shoshilmay, bitta-bitta portlashda davom etardi.

— Qancha qoldiykin, Viktor? — dedim ichki aloqada.

— Kim biladi deysan? — Viktor chars chekdi shekilli, dimog'imga o'tkir hid urildi.

Shlemofonda komandirning ovozi eshitildi:

— Shoshma, Razmax yetmish olti! Kutib tur...

... Yarim kuncha kutdik. So'nggi snaryad portlab bo'lganidan keyin ham yigirma daqiqalar poylab turdik.

Komandirning buyrug'i bilan lyukni ochmoqchi edim, kuchim yetmadi. Yelkamni tirab ko'tarsam, qandaydir og'ir yuk nari surilgandek bo'ldi. Lyuk qopqog'ini xarsang bosib qolgan ekan. Yuzimga muzdek havo, yomg'ir urildi. Qarasam, snaryad omborining o'rni hovuzga aylanib qolibdi. Zambarakning mis gilzalari betartib sochilib, tutab yotibdi. Tankimiz toshlar uyumi orasiga ko'milib ketibdi.

Noyabr oyining boshi

Xosiyatsiz tush ko'rdim. Otam hovlidagi so'rida yotganmish. Tagida ko'rpacha ham yo'q, quruq taxta ustida yotibdi. Dada, ko'rpacha solib beray desam, indamaydi. Nuqul yig'laydi. Dadamning yig'lashini hech ko'rgan emasdim. Qo'rqib ketibman. Yoniga yugurib borsam, dadam g'oyib bo'lib qopti.

Yarim kun xomush bo'lib yurdim. Oxiri, Xayriddinga dardimni yordim.

— Qiziqmisan, jo'ra! — dedi Hayriddin kulimsirab. — Ko'z yoshi yorug'lik bo'ladi. Niyatni yaxshi qiling, jo'ra! Yaxshi niyatgayam, yomon niyatgayam farishta omin deydi.

— Aytganingiz kelsin, — dedim yelkasidan quchib. Ajoyib yigit-da Xayriddin! Ko'zlari shunaqa samimiyki, ichida g'ubor yo'qligi shundoq ko'rinib turadi. Tank o'qlash emas, boshlang'ich sinf bolalarini o'qitish yarashadi Xayriddinga!

Noyabr oyining o'rtalari

"Gubba"ga tushishimga bir bahya qoldi.

Xudo yarlaqab qismga kelgan edim. Onda-sonda postdan qismga kelib-ketishga ruxsat bo'ladi. (O'shanda ham "karvon"ga qo'shilishga ijozat tegsa). Postdagilarga pochta, sigaret, lezviye,

sovun degandek mayda-chuydalarni olib kelish sening zimmangga tushadi. Menga xat yo'q ekan. Ruhim tushdi. Shahnozadan-ku, haftada xat kelib turibdi. Qiziq, uydagilar nega yozmaydi? Tinchlikmikan? Garangsib, magazinga kirdim. Magazin tushgacha ofitserlarga, peshindan keyin soldatlarga xizmat qiladi. Insof bilan aytganda, do'konda odamning jonidan bo'lak hamma narsa bor: Yugoslaviya sigaretidan tortib, yapon magnitofonlarigacha, yaltiroq "sim" ro'moldan tortib, shoda-shoda durlargacha...

Soldatlar o'ziga tekkan maosh — "chek"larga nima xarid qilardi? Sigaret, zajigalka... Xayriddin quyultirilgan sut so'ragan edi (Nima qilsin, cho'chqa konservasi yemaydi, nuqul sutga ruju qo'ygan). Sasha bilan Viktor sigaret so'rashgan...

Do'kon eshigidan kirishim bilan labini bearmon bo'yagan, sovuq bo'lsa ham ko'ksini yarim yalang'och ochib, bo'ynidagi shoda-shoda durni namoyishkorona yaltiratib turgan sotuvchi bobillab berdi:

— Magazin yopiq, chiq!

— Hozir ochildi-ku, — degan edim, negadir jahli chiqib ketdi.

— Pereuchet deb yozib qo'yibdi-ku, galvars! — dedi baqirib. — Rus tilini bilasanmi o'zi? — Generallardek qaddini g'oz tutib buyurdi. — Krugom marsh!

— Ey, baba! — dedim g'azabdan titrab. — Sen kim bo'psanki, menga buyruq berasan!

Kimdir bilagimdan tutdi:

— Yur, tankist, yur!

Jahl bilan burilib qarasam, yonimda bushlat kiygan tankchi yigit turibdi. O'ris yigit. Tanimadim-ku, harqalay o'zimizning batalondan bo'lishi kerak.

— Yur, zemlyak, yur, — deb tashqari sudradi.

Besh-o'n qadam yurishimiz bilan ro'paradan kelayotgan mayorga ko'zim tushdi. O'lganimning kunidan chest berdim. Shiltillatib qor bosgancha nari ketdik.

— Esing joyidami, zemlyak! — dedi tankchi ovozini pasaytirib. — Olisha ko'rma bu xotinlar bilan. Eriga bir og'iz, "haqorat qildi", deb shipshib qo'ysa, naq tribunalga tushasan, tentak!

— Kimning xotini u? — dedim hamon g'ijinib.

— Qayoqdan bilay! — tankchi yelkasini qisdi. — Bironta kattaroq ofitserning "prokat"ga olgan xotini-da! Bu yerda hamma kattalarning "vaqtincha" xotini bor: sotuvchi, kir yuvuvchi, sanitarka... — Notanish hamkasbim g'alati iljayib qo'ydi.

— To'g'ri-da! O'lsinmi, bular ham. — U yelkamga do'stona qoqdi. — Sen jangga kirib, o'lmay chiqsang Vatan nomidan rahmat eshitasan, katta ofitserning "prokat"ga olgan xotini bo'lsa, Vatan oldidagi "xizmatlari" uchun orden oladi! Bildingmi!

Nimanidir anglagandek bo'ldim.

Yangi kelgan kunlarim kechalari ofitserlar moduli tomonidan qulog'imga bot-bot kirib turgan garmon tovushi, xotinlarning qiy-qirig'i, kulgisi esimga tushdi.

— Eh tankist, tankist! — dedi hamkasbim alamnok iljayib. — Sodda ekansan. Soldat uyiga tirik qaytsa diplomatiga bir pachka saqich solib ketadi. O'shandayam tamojnyada olib qo'ymasa! Ofitser otpuskaga borsa, chamadonlarini samolyotga chiqarguncha terlab ketasan. Qayoqdan oladi shuncha narsani? — Notanish tankchi ovozini yanayam pasaytirdi. — Afg'ondan! Tushundingmi? Afg'ondan.

Angrayib qolganimni ko'rib, tag'in yelkamga qoqdi:

— Urush o'z yo'liga, hayot o'z yo'liga! Bizda nima ko'p: diztopliva, kerosin, KAMAZ g'ildiraklari, alyumin qoshiqlar... Afg'onda nima ko'p: radiotexnika, yapon soatlari, latta-putta... Qarabsanki, savdo avjida. Vositachilar ham topiladi, tarjimonlar ham. Bir aytdim-qo'ydim, tankist! Ofitserni sen desang ham, "prokat"ga olgan xotinini siz degin!

O'sha kecha

G'alati tush ko'rdim. To'yimiz bo'layotganmish. Yonimda Shahnoza o'tirganmish. Egnida atlas ko'ylak, bo'ynida shoda-shoda dur. Negadir labini qizil bo'yoqqa quyuq chaplab olganmish. To'yga nuqul soldatlar, ofitserlar kelganmish. Tag'in hammasi begona odamlar. Muttasil garmon g'iyqillarmish. Shahnozani bag'rimga tortsam, qarshilik qilmasmish... Negadir yomg'ir yog'ayotgan

emish. Qarasam, yonimda hech kim yo'qmish. Bir o'zim qolibman. Yolg'iz o'zim. Vujudim titrab uyg'ondim. Sovuq edi. Anchagacha qayerdaligimni bilmay karaxt bo'lib yotdim. Oxiri, postdagi "uy-chamiz"ni tanidim. Pechka o'chib qopti. Sasha, Viktor, Xayriddin uyquni urayapti...

Noyabrning oxiri

Bugun men uchun bayram bo'ldi. Bir yo'la uchta xat oldim. Akam uy ichilar tinchligini, dadamdan aslo xavotir olmasligimni tayinlabdi. Shahnoza bo'lsa, g'alati gap aytibdi. "Suratingiz juda chiroyli chiqibdi... Piskentda Dilyaning xolasi bor ekan. Yangi yil arafasida borib kelamiz, deb qo'ymayapti. Maylimi borsam?"

Uchinchi xat ustiga "Jalilov Tursunboydan" deb yozilgan ekan. Hayron bo'ldim. Qaysi Tursunboy bo'ldi bu? E-ha! Mendan uch yil oldin maktabni bitirgan Tursunboy aka-ku! Aytmoqchi, u ham Afg'onistonda edi shekilli? Bundan chiqdi, sog'-salomat qaytibdi-da. Xayriyat! Tursunboy akaning xati og'ir taassurot qoldirdi.

"Jon ukam, sening oldingda gunohkorman, — deb yozibdi u. — "Uyoqda" xizmat qilayotganingni akangdan eshitgan edim. Xolamlardan xabar olay deb kiribman-da, ko'ngillarini ko'taraman, deb qovun tushiribman. "Xola, xafa bo'lmang, hozir Afg'oniston tinchib qoldi, mana, o'zim ham xizmat qilib keldim-ku, hech ko'nglingizni buzmang, erta-indin Rustamjon ham kelib qoladi", debman. Uyga kelsam, onam qattiq koyidilar. Esing bormi, ahmoq, xolang Rustamjonim Mo'g'ulistonda xizmat qilyapti, deb yuribdilar-ku, dedilar. Qaytib chiqdim. Bir narsa hech xayolimdan ketmayapti, jon uka... Hamon o'zimni gunohkor sezaman... Chiqsam, xolam darvoza oldida turibdilar. Oftob botayotgan edi. Xolam qiblaga qarab uzoq iltijo qildilar... Rosti, oldilariga borishga yuzim chidamadi. Rustam! Ukajon! Xolamlarga ko'proq xat yoz. O'zimning boshimdan o'tgan, bilaman-ku! Men uyingdagilardan tez-tez xabar olib turaman... Yana bir gap, uka! Xudo xohlasa, eson-omon qaytib kelsang, to'yingda kuyovjo'ra bo'lmagan nomard!"

Dekabr oyining boshi

Dadam yana tushimga kirdi. Tog'li yo'ldan "Niva" haydab borayotgan emishman. Bir qarasam, o'zimizning Toshkent — Qo'qon yo'liga o'xshaydi, bir qarasam, Afg'onistonga... Dadam yasan-tusan qilib olganmish. Boshida yangi do'ppi... Egnida qora kastum. Faqat oyog'ida doim kiyib yuradigan, oqarib ketgan jigarrang etigi. Gaplashdikmi, yo'qmi, eslolmayman. Bir mahal osmonda vishillagan ovoz eshitildi. "Dada! Snaryad! Snaryad!" debman baqirib. Shundoq mashina yonida snaryad portlabdi. Dadam mashina eshigidan otilib ketibdi. Qarasam, toshlar orasida yiqilib yotibdi. "Ketaver, o'g'lim, ketaver" dermish qo'l siltab. "Uyoqda duxlar bor, dada" desam, nuqul qo'l silkitarmish. "Ket, bolam, sen ketaver!" dermish.

Cho'chib uqg'onib ketdim... Akamga xat yozdim: "Dadam nega yozmaydilar? Nima bo'ldi? O'z qo'llari bilan xat yozsinlar!"

Dekabr oyining o'rtalari

Qalin qor yoqqan. Sovuq... Bu yerning tabiati ham, odatlari ham g'alati. Qishi o'lgudek sovuq. Yozi o'lgudek issiq. Boshqa jihatlari ham bor. Masalan: afg'on qishda ko'p hujum qilmaydi. Lekin yo'ldan ularning mashinasi o'tmay qolsa, hushyor bo'lish kerak: mina qo'ygan. Mabodo "ular" ikki-uch kun katta yo'ldan yurmasa, demak, otishma bo'ladi...

Odatdagi kunlardan biri edi. Kecha qor yoqqan, bugun esa chinnidek tiniq osmonda oftob charaqlab turibdi. Tushga yaqin post ro'parasida ikkita BMP to'xtadi. "Shindonga ketyapti", deb o'yladim tank yonida turgancha. Shu payt BMPdan bushlat kiygan gavdali odam sakrab tushdi. Men tomonga uzoq qarab turdi-da, qichqirdi:

— Rustammisan?

Ovozidan tanidim.

— Temur aka!

"Uycha"mizga otilib kirdim.

— Xayriddin! Temur aka keldi!

Qor bosgan so'qmoqdan sirg'ana-sirg'ana pastga, katta yo'lga yugurdik. Temur aka bilan quchoqlashib ko'risharkanman, dimog'imga chars hidi urildi.

— Bormisiz? — desam, Temur aka bosh barmog'ini dikkaytirdi.

— Chiki-piki! Razvedkachilar bilan uncha-muncha ofitserlaring ham o'ylashib gaplashadi. O'zing qalaysan?

O'sha zahoti yugurib kelgan Xayriddinni dast ko'tardi-da, chirpirak qilib aylantirdi.

— Sen bola, o'zingni asra! — dedi yasama po'pisa qilib.

Shunda... Temur akaning rangi bir holatga kelib qolganini, ko'zlarining tagi ko'karib ketganini payqadim.

— Hamma joy-joyiga! — degan asabiy buyruq yangradi.

Temur aka yana menga quchog'ini ochdi.

— Rustam, — dedi shoshqin pichirlab. — Shu bolani ehtiyot qil! Bilasan-a, imonli yigit!

— Hamma joy-joyiga!

Temur aka o'rnidan jila boshlagan BMPga tirmashar ekan, hayqirdi.

— Xayriddin, — dedi kulib. — Esingdan chiqmasin, ukam... Mabodo menga biron gap bo'lsa, bir kalima Qur'on...

Yuragim shuv etdi. BMPlar qorni to'zg'itgancha shiddat bilan uzoqlashdi. Qarasam, Xayriddinning ko'zlari jiqqa yosh...

Dekabr oyining o'ttiz birinchi kuni

Post komandiri qismga borib kelishni buyurdi. "Tochka"ga xat-xabarlar, yangi yil dasturxoniga o'zimizga yarasha noz-ne'matlar olib kelish kerak ekan. Shindon tomon ketayotgan kolonnadagi BMPga chiqib oldim. Postlarning orasi yigirma-yigirma besh chaqirim. Qor uchqunlab turar, sovuq edi. Qancha yurganimizni bilmayman. Bir mahal karvon to'xtab qoldi. Men o'tirgan BMP karvonning oldirog'ida edi. Nima gap bo'lganini bilolmay mashinadan tushdim. O'sha tomon yurgan edim, karvonning eng boshida-

gi tankdan ellik qadamcha oldinda turgan BTRni ko'rdim. Hayron bo'lib, yaqin bordim. BTR tomondan kimdir zarda bilan baqirdi:

— ... yeb g'o'ddayib turibsanmi, yot!

BTR orqasida, qorda birqinib yotgan kapitanga ko'zim tushdi.

— Yot, ahmoq! — dedi kapitan o'dag'aylab.

Beixtiyor o'zimni panaga olib, qorga uzala tushib yotdim.

Shundagina yo'l ustida g'imirlayotgan uch nafar soldat, ularning atrofida g'ingshib aylanayotgan ovcharka itga e'tibor berdim. Xayolimga o'qdek xatarli fikr keldi. "Mina bor ekan!" Shuncha paytdan beri yo'llar tinch edi. Bundan chiqdi, "dux"lar sho'raviylarga bayram sovg'asi qilishni yaxshi ko'radi, deganlari to'g'ri ekan.

Sapyorlar shoshilmay harakat qilar, ko'rinishidan osoyishta edi. Ikkitasi cho'nqayib o'tiribdi. Bitta — shuf ushlagani tik turibdi. Hammasining rangi o'chib ketganini, cho'nqayib o'tirganlar damba-dam peshonasidan oqayotgan terni bilagi bilan sidirib tashlayotganini keyin payqadim.

— O'rtoq kapitan, — dedi cho'nqayib o'tirganlardan biri minadan ko'z uzmay. — "Italyanka"!

— Zararsizlantir! — BTR panasida yotgan kapitan bo'ynini ichiga tortib buyurdi: — Zararsizlantir!

Sapyorlar ancha urindi. Atrof sokin, qor uchqunlari yuzimga urilayotganini aniq eshitib turgandek edim. Nihoyat, sapyor engashgan ko'yi dadamning "Niva"sidagi havo filtriga o'xshagan, yapasqi kastrulkadek narsani chuqurdan tortib ola boshladi.

To'satdan gumburlagan ovoz yer-u ko'kni larzaga soldi. Tik turgan sapyor bilan it bir tomonga, engashib o'tirganlar boshqa tomonga uchib ketdi.

Jonholatda yugurib bordim. Allanimaga qoqilib ketdim. Qarasam, qor ustida qo'l yotibdi... Qo'l bilakdan cho'rt uzilib ketgan, qon oqayotgan go'sht orasidan oppoq suyak turtib chiqib turar, barmoqlar esa, nuqul qorni changallab g'imirlar edi.

Dahshat ichida o'zimni orqaga tashladim. Oyog'im ostida odam boshi dumalab yotardi. Ko'zlari ola-kula, tilini g'archcha tishlab olgan... Bir qarichcha sarg'imtir kekirtak hamon nafas olayotgandek qorda bilanglaydi...

Qandaydir yovuz, beshafqat qo'l sho'rlik kallani kekirtagi bilan uzib olganu uloqtirib yuborgandek. Chuchmal qon isi dimog'imni yorib yuborgudek bo'ldi.

Ko'z o'ngim qorong'ulashib cho'kkalab qoldim. Ko'nglim ag'darilar, lekin qusa olmasdim.

Yanvar oyi

Bir hafta uxlolmadim. Ko'zimni yumdim deguncha qorda dumalab yotgan kalla, bilanglayotgan sarg'imtir kekirtakni ko'raman... Xayolimga mudhish o'y keladi. Sen ham o'sha bolaning holiga tushishing mumkin.

Fevral oyining o'rtalari

Nihoyat, dadamdan xat keldi. Akam otamning xatini o'zinikiga qo'shib jo'natibdi.

"Rustamjon! O'g'lim! — debdi dadam. — Sog'-salomatmisan? Nega mendan xavotir olasan, bolam! Xudoga ming qatla shukur, men yaxshiman. Bilasan-ku, kolxozda ish ko'p. Godovoy atcho't payti... U yoqlarga ketganing uchun men ham aybdorman. Olib qolishim kerak edi. O'sha paytda qo'limdan kelardi... Mayli, qirq yil qirg'in bo'lsa, ajali yetgan o'ladi. Bilaman, Rustamjon! Sen — azamat yigitsan... Onangni kuydirma. Tez-tez xat yozgin. Onang sho'rlik bu dunyoga kelib, nima ro'shnolik ko'rdi!..."

Fevral oyining o'rtalari

Postda BTR to'xtadi. Bir guruh yigitlar postdagi "uycha"mizga qora chopon kiygan, salla o'ragan echkisoqol "dux"ni sudrab kirishdi. Post boshlig'i bir yoqqa ketganmidi, ataylab g'oyib bo'ldimi, bilmayman. "Dux"ni suyanchiqli kursiga o'tqazib oyoq-qo'lini chandib bog'lashdi. Allaqayerdan sim topib, bir uchini

akkumulyatorga ulashdi-da bir uchini "dux"ning og'ziga tiqishdi. Afg'on a'zoyi-badani qaltirab, o'kirib yubordi. Boshidan sallasi uchib ketdi... "Dux" qancha o'kirsa, yigitlar shuncha zavqlanib xo-xolar edi. Afg'on hushiga kelganida nuqul bir gapni qaytarardi: "Man — do'st! Man — do'st!"

— Do'st bo'lsang, avtomatni qayoqqa olib ketayotganding? Nega qochding? — Yigitlar shunday deb, simni yana og'ziga tiqadi. "Dux" ko'zi kosasidan chiqib dod soladi.

Xayriddin bunaqa tomoshaga toqat qilolmadi shekilli, yugurib tashqari chiqib ketdi. Bilaman, Xayriddin pushtunchani ozmi-ko'pmi tushunadi. Ketidan chiqsam, rangi o'chib ketgan, yuziga qor ishqalayapti.

— Nima gap? — degan edim, tushuntirdi.

— Yigitlar tuyada qurol olib ketayotgan "dux"ni qo'lga tushiribdi. — Xayriddin yuzini burdi. — Odam bolasini shunchalik qiynash shartmi, jo'ra!

Bir mahal "uycha"dan Sasha chiqib keldi.

— Parvo qilma, komandir! — dedi yelkamga kaftini bosib. — Akkumulyator toki odamni o'ldirmaydi. Birpas "tansa" tushirishadi-da, "dux"ni sarandoylarga topshirib yuborishadi...

Fevral oyining oxiri

Kechasi bilan tishim og'rib chiqdi. Jag' tishim... Xuddi birov miyamni erinmasdan parmalayotganga o'xshaydi. Shunaqangi azob berdiki, dumalab bo'kirgim kelardi. Xayriddin ham mijja qoqmadi. Goh sochiqni pechka dudburonida isitib, lunjimga bosadi, goh iliq suv ichirib ko'radi. Viktor tumshug'imga chars tiqishtiradi... "Bitta tortgin, o'tib ketadi", deydi. "Yo'qot"! deyman...

Ertalab turib siniq ko'zguga qarasam, chap lunjim oqib tushgan nonga o'xshab qopti. Post boshlig'i hazillashdi:

— Ziyoni yo'q, serjant. To'ying bo'lguncha tuzalib ketadi.

"Tuzalib ketarmish! O'zingniki shunaqa og'risin, lunjimdan yaralandim, deb medalga yozdirarsan!"

"Dard ketidan quvonch keladi", deganlari rost ekan. Uydan xat oldim. Ilhom akam oyimning gaplarini so'zma-so'z yozib yuboribdi.

"Rustamjon, jon bolam. Mo'g'ulistonda sovuq qattiq bo'ladi, deyishadi. Qiynalayotganing yo'qmi? (Oyim malades-da! Qayerda yurganimni mendan yaxshi biladi-ku, har xatimni "Qardosh Mo'g'ulistondan salom" deb boshlaganim uchun meni yolg'onchi qilgisi kelmaydi). Xudodan sog'ligingni tilab o'tiribman. Qayerda bo'lsang ham joning omon bo'lsin... Yangi yil arafasi uyimizga mehmonlar keldi: uchta qiz... Biri-biridan chiroyli, bir-biridan odobli. Ayniqsa, bittasi boshqacha ekan. Oti — Shahnoza. Menga nima dedi degin? "Oyijon, — dedi. — Tashvish qilmang, Rustam aka erta-indin kelib qoladilar", dedi. Qaniydi, menga shundoq kelin ato qilsa. Nasib etsa, kelishing bilan to'yni boshlaymiz. O'sha qiz sen bilan o'qiydimi? Onam rozi bo'lsin desang, har kuni xat yoz Shahnozaga!"

Chehram yorishib, tishimning og'rig'i ham esimdan chiqib ketdi. Voy Shahnoz tushmagur-ey! Voy shum-ey!

Mart oyining oxirlari

Bahor — barchaga baravar! Shohona saroylar oldidagi gulzor nima, go'ristonda ma'yus do'ppaygan qabrlar nima — tanlab o'tirmaydi. Hammasini bir tekis maysalarga burkaydi. Barchasiga baravar mehr ila chechaklar ulashadi.

Kecha pastga, suv bo'yiga tushdim. Katta yo'l chetida qachondir uzilib ketgan tank zanjiri zanglab yotibdi. Xuddi ajdar terisiga o'xshaydi. Qarasam, "ajdar terisi" orasida bir nima qizarib ko'rinyapti. Yaqin bordim... Tank zanjiri orasidan maysalar gurkirab o'sib chiqibdi. Ikkita qizg'aldoq bahor shabadasida silkinib turibdi... Do'zax olovida yongan zanjirni ham, urushni ham, meniyam masxara qilayotgandek... Ajib haqiqatni anglagandek bo'ldim.

Bahor uchun barcha baravar. Ko'klam quyoshi ro'parada, dovon tomonda turib bizlarga reaktiv snaryad otayotgan "dux"ning boshidan qancha mo'l-mo'l nur sochsa, dushmanni tankdan o'qqa

tutayotgan bizning boshimizdan ham shuncha nur sepaveradi. Bahor shabadasi bizning yuzimizni qanchalik erkalab siypalasa, ularniyam shunchalik silayveradi...

Bahor — urushni tan olmaydi!

Aprel oyining boshi

Shahnoza o'rischa, o'zbekcha gazetalardan qirqib olingan maqolalarni xatiga qo'shib yuboribdi. Deyarli hammasida qayta qurish, oshkoralik degan so'zlar... Maqolalardan birida jurnalist Afg'oniston urushi adolatsiz urish ekanini yozibdi. Bu gapni judayam aniq qilib aytmagan bo'lsa ham ma'no shunga kelib taqaladi. Hayron bo'ldim. Buyoqda zampolitlar qahramonlikka undaydi, savr inqilobi dushmanlariga shafqat qilmaslikka chorlaydi. Uyoqda...

Aprel oyi

Bilmagan odam urush deganda nuqul otishmalar-u portlashlarni tushunadi. To'g'ri, otishmalar ham bo'lib turadi, portlashlar ham. Biroq eng jonga tegadigani bu emas. Eng yomoni — hamisha ko'ngling g'ash bo'lib yurasan. Negaligini o'zing bilmaysan. Yanayam yomoni — zerikish, o'lik sukunat. Snaryad qutilari-yu toshlardan naridan-beri qo'nqaytirib yasalgan "uycha"dan turib, har kuni bir xil manzarani ko'rasan. Kun-u tun bir xil manzara. Shundan ko'ra tezroq otishma bo'lishini yoki ekipajingni "tochka"dan olib, jangga tashlashlarini xohlab qolasan...

O'sha kuni

Tushlik payti Xayriddin ko'rinmay qoldi. Qo'rqib ketdim. Yugurib "uycha"dan chiqsam, qoyatoshlar orasidagi so'qmoqdan bitta-bitta yurib tepaga ko'tarilyapti. Qo'lida lolaqizg'aldoqlar, cho'l chuchmomalari...

— E, qayoqda yuribsiz? — desam, ma'yus jilmayib qo'ydi.

— Bilasizmi, jo'ra? — dedi gul terib yurganidan o'zi xijolat bo'lgandek kulimsirab. — O'ylab qarasam, urush teskari haqiqat degani ekan. Odam bo'lging kelsa, shafqatsiz bo'l. O'lging kelmasa — o'ldir. Qiziq-a, jo'ra...

Aprel oyining o'rtalari

Tag'in tishim og'riy boshladi. Og'riq kuchaygandan kuchayib, dod deydigan ahvolga keldim. Nima qilay axir! Boshimni devorga urib yorsam qutulamanmi bu azobdan!...

— Xayriddin! Tankda ombur bor, olib keling, jon do'stim!

Xayriddin xuddi o'zining joni og'riyotgandek yuzimni siladi.

— Sabr qiling, jo'rajon! Dardni bergan Xudo davosiniyam beradi.

Tajanglanib turganimni ko'rib, yupatdi.

— Xafa bo'lmang, jo'ra, nasib etsa, hammasi izga tushib ketadi. Tish og'rig'i, ko'z og'rig'i — qutlug' dard. Uxlang, jo'ra.

Uyqu kelsa, qani! Xayol ming ko'chaga olib kiradi. Uyimiz ko'z o'ngimga keldi. Oyim... Dadam... Shahnoza... O'zimizning anhor... O'zimizning na'matak...

O'rnimdan turdim. Eshik g'iyqillashi bilan Xayriddin uyg'ondi.

— Og'riyaptimi? — dedi uyqu aralash xavotirlanib.

— Yo'q, do'stim, yotavering!..

Tashqari chiqib, xarsang qirrasiga o'tirdim. Salqin shamol esib turibdi. Chigirtkalar mastona nag'ma chaladi. Hamma yoq sokin.

Bir mahal Xayriddin yonimga kelib o'tirdi. Ozg'in yelkasi bilagimga tegib turibdi. Osmonda yangi oyning oltindek tiniq, nozik o'rog'i yaltiraydi. Hov narida, ro'paradagi qad kerib turgan tog'lar g'ira-shira nur qo'ynida mudrab yotibdi. Gavhar donalaridek yirik-yirik yulduzlar sirli porlaydi. Ana, Oltin Qoziq. Unisi — Katta Ayiq... Hov ana, kunbotar tomonda Zuhro yulduzi miltillab turibdi. Bir vaqtlar Xumsonga — Opoqtog'amnikiga borganimda kechasi xuddi shunaqa manzarani ko'rgan edim... Hammasi tanish, hammasi qadrdon. Va hammasi... senga yot...

— O‘sha oy, o‘sha yulduzlar... — dedim o‘zimga-o‘zim. — Ammo barchasi begona...

Xayriddin kuldi. Yelkalari silkinib ketdi.

— Shunaqa deng?

Hayron bo‘lib burilib qaradim. Qiziq, Xayriddin kamdan-kam kular edi. Hozir bo‘lsa, yelkalari silkinib-silkinib kulayapti.

— Begona deng, jo‘ra! — dedi hamon kulib. — Ular bizga begona emas, biz ularga begonamiz!

Keyin to‘satdan kulgisi kesildi.

— “Donolar hayotni kuzaturlar jim”... — dedi o‘ychanlik bilan. — Yozug‘imizni qarangki, hayotni idrok etishga ham qo‘ymadilar...

Bir haftadan keyin

Baxtimga karvon o‘tib qoldi. Post boshlig‘i karvonni boshqarib borayotgan kapitandan meni medsanbatga olib borishni iltimos qildi.

— Navbatdagi “ip” bilan qaytasan.

Qismgacha ellik chaqirimdan ko‘p. Bir qo‘lim bilan jag‘imni changallab, bir qo‘limda avtomatim solingan safar sumkasini ushlagan ko‘yi yo‘l-yo‘lakay inqillab bordim. (Qoida shunaqa: har qanday vaziyatda ham qo‘ldan qurolni qo‘ymaslik kerak).

Tish do‘xtir, mendan ham naynov, gavdali yigit ekan. Parmalovchi mashinasini ko‘rishim bilan og‘riq taqa-taq qolsa deng! Do‘xtir do‘mbira bo‘lib ketgan jag‘imni siypalab ko‘rdi. Og‘zimga yaltiroq temir tiqib, tomosha qildi... Bir mahal miyamga birov mix urgandek o‘kirib yubordim.

— Tomosha qil! — dedi do‘xtir ombirga qisilib turgan, yarmi ko‘karib ketgan tishimni burnim tagiga tiqishtirib. — Uch kun furatsilin bilan og‘zingni chayib turasan!

... Batalonga yetib kelganimda ruxsat etilgan muddat o‘tib bo‘lgan edi. Buyog‘iyam “tochka”ga yigirma chaqirimcha bor. Tank bataloni komandiriga shundoq-shundoq, deb ahvolni tushuntirdim.

— Bugun-erta yo'lga chiqadigan karvon yo'q, — dedi kapitan. — Mayli, bir yo'lini qilamiz, yettinchi postdan yana bir soldat bor.

"Yana bir soldat" degani Xayriddin ekan! Ming yil ko'rishmagandek, quchoqlashib ketdik.

— Tishingiz tuzukmi? — dedi yuzimga tikilib.

— Qutuldim! O'ziyam lo'mbozdek ekan. Ildizi uchta!

— Sizsiz juda siqilib ketdim, — dedi Xayriddin ma'yuslanib. U postdagilarga pochta olgani kelgan ekan.

— Menga xat yo'qmi? — desam, aybdorona bosh chayqadi.

— Tashvish qilmang, jo'ra, — dedi yupatib. — Yanagi safar, albatta, keladi. — Bir zum o'ylanib turdida, yuzimga tezgina qarab oldi. — Post boshlig'i nega ruxsat berganini bilasizmi? — dedi u sirli kulimsirab. — Bugun — mening tug'ilgan kunim.

Qaytadan quchoqlab, qutladim.

Bir mahal kombat chaqirib qoldi.

— Zampotexdan iltimos qildim. Senlarni yo'ldan tashlab ketadi.

Sochlariga oq oralagan mayor men bilan Xayriddinga qarab qo'ydi-da, norozi to'ng'illadi:

— Qaysi ahmoq bir ekipajdan bira to'la ikki kishiga ruxsat berdi?

Biroq kombat bilan olishib o'tirgisi kelmadi shekilli, bizlarga buyurdi:

— Chiq, ikkalangam bortga!

Shosha-pisha "Ural" mashinasiga chiqib oldik. Mashinada yuk yo'q edi hisob. Ikkita tank akkumulyatori, bitta eski ballon. Rezina g'ildirakka yonma-yon o'tirib, gurunglashib ketdik. Bugun Xayriddin har paytdagidan shod edi, damba-dam jilmayib qo'yardi.

— Xat keldi, — dedi kulimsirab. — Onam tug'ilgan kunim bilan tabriklab, suratini yuboribdi. Xuddi shu bugun kelganini qarang...

— Qani? — deb qo'l cho'zgan edim, xijolat chekibroq suratni uzatdi.

Boshiga guldor ro'mol o'ragan ayol Xayriddinnikiga o'xshagan o'ychan ko'zlari bilan ma'yus termulib turardi.

Qiziq, nimasinidir oyimga o'xshatdim... Hamma onalar bir-birlariga o'xshaydi shekilli. Sur'at orqasiga notekis harflar bilan yozilgan so'zlarga ko'zim tushdi... "Olloga topshirdim, bolam! O'zingni ehtiyot qil..."

Negadir mashina to'xtadi. Ikkalamiz baravar o'rnimizdan turib ketdik. Mashinamiz adir tepasida to'xtagan, pastda, ancha olisda qoya panasidagi muyulishda "burbuxayka" (afg'onlarning yuk mashinasini shunaqa deymiz) turar edi. Olisda, qontalash ufqda quyosh og'ib boryapti. Qat'iy qoida bor: afg'on mashinalari katta yo'ldan qorong'ida yurishi taqiqlangan. "Burbuxayka"ning kechga tomon yo'lga chiqqani shubhali ko'ringanmi, bir chekkada to'xtab turishimi, harqalay keksa mayor "Ural" kabinasining zinasida turgancha o'sha tomondan ko'z uzmas edi. "Burbuxayka"dan besh-o'n qadam narida, yo'l ustida qora choponli bir odam tik turar, yana bittasi cho'nqayib o'tirardi.

"Mina qo'yyapti!" — Xayolimga yashindek urilgan fikrdan seskanib ketdim. Dushmanning kuppa-kunduzi mina qo'yishi aqlga sig'maydigan gap! Lekin ular ham aynan shunaqa — shubhadan xoli paytni tanlagan bo'lishi mumkin. Keyingi kunlarda yo'llar kamqatnov bo'lib qolgan, pastqam joy... Mayor kabinaga o'tirib, eshikni qarsillatib yopdi.

— Hayda!

Boyagi odamlar motor ovozini eshitib, shu tomonga qaradi-yu shosha-pisha mashinasiga yugurdi. "Ural" pastlikka sho'ng'idi. "Burbuxayka" o'rnidan jadal jilib, yurib ketdi. Boyagi joyga yetib kelganimizda yangi kavlangan chuqurga ko'zim tushdi. Ho'l tuproq qorayib turardi.

Mayor kabina derazasidan boshini chiqarib, "Burbuxayka" tomonga avtomatdan o'q uzdi. Trassalanuvchi o'qlar olovli iz qoldirib uchib borayotgani ko'rinib turar, bu — to'xta, degan buyruqni bildirardi.

"Burbuxayka" to'xtash o'rniga shiddat bilan yelib borardi. Xayriddin ikkalamiz avtomatlarga yopishdik. Afg'on mashinasi zum o'tmay tepalik ortiga sho'ng'ib, ko'zdan yo'qoldi. "Ural" qir ustiga chiqqanida "Burbuxayka" tag'in ko'rindi. Yo'lning chap tomonida, bir chaqirimcha narida qishloq ko'zga tashlanardi.

Endi hammasi ayon edi. "Dux"lar imi-jimida mina qo'yib qorong'i tushmasdan qishloqqa kirib olishni mo'ljallagan. Ertalab hech nima bo'lmagandek, yana yo'liga ketaveradi.

Mayor o'sha tomonga tag'in o'q uzdi. "Burbuxayka" katta yo'ldan qishloq tomonga burilib, adr tepasiga chiqa boshladi. Ammo yigirma-o'ttiz qadam yurmasdan kechagi yomg'irdan keyin atalasi chiqib ketgan loyda tayg'ona-tayg'ona to'xtab qoldi. Kuchanib vag'illagancha g'ildiraklaridan loy sachratishga tushdi. Bizning mashina ro'paraga kelib to'xtashi bilan, "Burbuxayka" kabinasida avtomat tarilladi. "Ural"ning chap eshigi taraqlab ochilganini eshitdim. Haydovchimiz boshini changallagan ko'yi chinqirgancha kabina zinasiga yiqilganini ko'rdim-u o'zimni yerga tashladim. Qarasam, yonimda Xayriddin yotibdi. Rangi quv o'chib ketgan...

Mayor o'ng eshikdan tushdi. Oqsoqlanib kabina oldiga o'tdi-da, "Burbuxayka"ga to'xtovsiz o'q uza boshladi.

"Burbuxayka" eshigi ham ochildi. Sallali bir odam loyda tayg'onib tepalikka qocha boshladi. Aniq ko'rib turibman, "dux" boshini yelkasi orasiga tortib, loyda sirg'ana-sirg'ana qochib borar, qo'lida quroli yo'q edi. Yo otishmada quroli ishdan chiqqan, yo avtomat sherigida qolgan. Hozir buni o'ylab o'tirishga vaqt yo'q edi.

— To'xta! — Xayriddinnning ovozida hayajon, aniqrog'i qo'rquv borligini his etdim.

— To'xta! — dedi Xayriddin adir tomon yugurib. U qandaydir daqiqalar ichida "dux"ga yaqinlashib bordi. Orada besh-olti qadam qoldi. Jonholatda ketidan yugurdim.

— Qo'lingni ko'tar! — dedi Xayriddin qichqirib. "Dux" to'xtadi. Sekin burilib qaradi-da, qo'lini ko'tardi. Boshida salla, qop-qora soqoli ko'ksiga tushgan, rangi quv o'chib ketgan edi. Xayriddin hamon yugurib borar, negadir avtomatini o'qtalish o'rniga hadeb bir so'zni takrorlardi:

— Qo'lingni ko'tar!

"Dux" yerga engashgandek bo'ldi. Qo'lida pichoq yaraqladi.

— Oting, Xayriddin! Ot! — dedim nafasim bo'g'zimga tiqilib. Shunda kutilmagan ish bo'ldi. "Dux" bir hamla bilan Xayriddinning avtomatini qo'lidan uchirib yubordi. Yetib borganimda

Xayriddin chalqanchasiga ag'darila boshlagan edi. "Dux" uning avtomatiga engashganida jag'iga tepdim. Sallasi uchib ketib, taqir boshi yalang'ochlanib qoldi. Qaddini rostlamoqchi edi, yana tepdim. Tomog'idan g'ippa olib, qancha bo'g'ib turganim yodimda yo'q. Xirillab og'zidan ko'pik keldi. Tipirchilamay qo'ydi. Shundagina hushim joyiga keldi. Yo'q, xirillayotgan "dux" emas, Xayriddin ekan. U shundoq yonimda yotar, qontalash ufqqa tikilib qolgan, ko'zlari o'ychan va sokin edi.

— Nega? — dedi ingrab. — Men uni otmoqchi emasdim-ku...

Og'zidan qon sizib, labining chetidan oqib tusha boshladi. Negadir yo'taldi. Og'zidan varaqlab qon keldi.

— Xayriddin! Do'stim! — Ho'ngrab yig'lab yubordim.

Qandaydir ichki sezgi bilan "dux" g'imirlay boshlaganini his etdim. Ilkis qarasam, cho'kkalab Xayriddinning yerda yotgan avtomatiga qo'l cho'zayapti. Yoqasidan bo'g'ib silkita boshladim.

— Nima qilding, maraz! Nima qilding! — dedim yig'lab.

— Qo'yib yubor! — U ojiz tipirchilab bilagimga osildi. — Qo'yib yubor!

Shundagina bir narsa shuurimga yetdi: "dux" o'zbekcha gapirayotgan edi.

— Sen... — dedim g'azabdan qaltirab. — Sen... o'zbekmisan? Buyam o'zbek-ku! — Basharasiga kuchim boricha musht tushirdim. — Buyam musulmon bolasi-ku, it! Nima yomonlik qildi, senga!

— Senlar o'zbekmi! — "Dux" yorilgan lablari orasidan qon tupurib, tishlarini g'ijirlatdi. — Yo'q! Senlar o'zbekmas! Senlar musulmonmas! — U esdan og'gandek xoxolab kuldi. — Senlar "sho'raviy"! Kim chaqirdi seni bu yerga! O'z yurtingni sotib bo'lib, endi Afg'onni ham harom qilmoqchimisan! To'ng'iz!

Xayriddin qattiq xirilladi. Bir lahza ko'zim tushib qoldi. Botib borayotgan quyoshdan madad olmoqchi bo'lgandek o'sha tomonga qo'l cho'zib, qaddini rostlashga uringan edi, yirtilib ketgan kombinezoni ostidan qonga belangan ichaklari qaynab chiqdi.

Qorasoqolning ko'kragini mo'ljallab tepkini bosdim. U yotgan joyida bir sapchidi. Tepkini bosib turaverdim. Bosh chanag'i yorilib miyasining qatig'i sachrab ketganini, go'shtlari, suyaklari

parcha-parcha bo'lib atrofga otilayotganini ko'rib turardim. "Magazin"dagi o'qlar tugadi shekilli, avtomatning tarillashi eshitilmay qoldi. Faqat "A-a-a-a!" A-a-a-a!" degan vahshiy hayqiriq hamon havoni titratar edi. Keyin bilsam... baqirayotgan o'zim ekanman.

Bir mahal hamma yoq jimjit bo'lib qoldi. Oyoq-qo'limdan mador ketib, Xayriddinning yonboshiga cho'kkaladim. U hamon ufqqa tikilib yotar, ochiq ko'zlarida hayratmi, iymanishmi, shunga yaqin ifoda muhrlanib qolgan. Ko'm-ko'k o'tlar ustida ichaklari ayqash-uyqash bo'lib cho'zilib yotganidan uyalgandek, ularni qorniga qaytib solishga urinayotgandek, nozik barmoqlari bilan changallab olgan edi.

— Bo'ldi, tankist, bas...

Boshimni ko'tarib qarasam, o'n qadamcha narida keksa mayor turibdi. Boshyalang, oq oralagan sochlari yoyilib chekkasiga tushgan...

— Tur, endi, o'g'lim...— dedi yig'lab.

"Burbuxayka" kabinasida yana bir "dux" muk tushib yotar, yo'l ustida to'xtab qolgan "Ural"ning oynalari chil-chil bo'lib ketgan, bizning haydovchi qonga belanib, zinada uzala tushgan ko'yi qotib qolgan edi.

...Zastavaga kelgan zahoti aytgan birinchi gapim shu bo'ldi:

— Viktor! Charsdan ol!

...Sasha bilan Viktor uch kungacha Xayriddinning ovqatini to'shagi boshiga keltirib qo'yib yurishdi... Odat shu ekan... Men esa do'stimning ruhiga o'zim bilgancha duoyi-fotiha o'qidim...

...Xayriddinning o'rniga boshqa o'qlovchi yuborishdi; latish bola ekan. Qiziq... Yaxshi yigit edi-ku, negadir hammamiz begonasirab turardik. Keyin bilsam, Xayriddinni butun ekipaj yaxshi ko'rib qolgan ekan. Viktor ham, Sasha ham...

Iyun oyi

Hayriyat, postga boshqa ekipaj yuborib, bizning tankni qismga qaytarish haqida buyruq bo'ldi. Albatta, qism ham — jonning huzuri emas. Tez-tez yo'lga chiqish, kolonnalarni himoya

qilib, "obyekt"larga kuzatib qo'yishga to'g'ri keladi. Boshqalarni bilmadim-u, menga "tochka"da turishdan ko'ra shunisi ko'proq yoqadi. Harqalay, qismda odam ko'p... Kuning tezroq o'tayotganga o'xshaydi...

Baribir Xayriddin xayolimdan ketmaydi. Qayoqqa qaramay ro'paramga kelib, ma'yus jilmayib turaveradi. Urush odamning diydasini qotirib yuboradi deyishadi. Bo'lsa bordir. Ammo kelib-kelib, farishtadek beozor yigitning o'lishi...

O'ylamay deyman-u, baribir xayolimga kelaveradi. Ana, eshushini yo'qotib, telbavash bo'lib qolgan ona temir qutini quchoqlab dod solyapti. Quti ichida yotgan qoraqosh, qorako'z o'g'lini ko'rib turgandek... Temir tobut nega bunchalik sovuqligini, formalin hidi qayoqdan kelayotganini o'ylashga holi yo'q. Bilmaydiki, quti ichida jondan aziz bolasining ichak-chavag'i ag'darilib yotibdi...

Iyun oyining 22-kuni

Chaqcharonga karvon olib bordik... O'q-dori ortilgan KamAZlar, benzovozlar, hatto avtokran ham. Karvonni kuzatishning aniq tartibi bor. Eng oldinda boshqaruvchi tank, ketidan BTR, undan keyin KamAZlar, keyin tag'in tank, ketidan boshqa KamAZlar, benzovozlar, avtokran... orqasidan yana BTR, ularning ketidan bizning tank, ortimizdan yana ikkita BMP...

Odatda, boshqaruvchi tankda, minaga duch kelsa beshikast portlatadigan moslama bo'ladi. "Tuxum" deydi. Ammo mina degani ham anoyi emas. Ba'zan karvon endi o'tib bo'ldi deganingda to'satdan portlab qoladi. Mexanizmi shunga moslashtirilgan... Xullas, yo'l olis, xatarli edi. Eng xavflisi qishloq yaqinidan yoki chakalakzor orasidan o'tish. Xayriyat, manzilga omon-eson yetdik.

Qaytishda tag'in o'sha tartibda yo'lga tushdik. Boshlovchi tank, yukini bo'shatgan benzovozlar, BTR, yukini almashtirgan KamAZlar, BMP, yana KamAZlar, bizning tank, ortimizda ikkita BMP...

Atrof biydek cho‘l. Tank ichi bir qarich changga to‘lib ketgan. Nafas olib bo‘lmaydi... Bunaqa paytda o‘q o‘tmas nimcha uyoqda tursin kombinezon ham ortiqchalik qilib qoladi. Ikki kecha uxlamaganmiz. Avtomatim tasmasini lyuk qopqog‘iga ilgancha, tuynukdan boshimni chiqarib boryapman. Ko‘zim yumilib ketyapti. Bir lahza, aqalli bir soniya uxlab olgim keladi.

Viktorning xavotirli ovozidan cho‘chib uyg‘ongandek bo‘ldim.

— Moy bosimi tushib ketyapti, komandir. Motor qizib ketdi.

Boshlovchi tankka xabar qildim.

— O‘rtoq komandir! Yetmish oltinchining motori qizib ketyapti.

Shlemofonda kapitanning horg‘in ovozi eshitildi:

— Tushundim... Oltmish bir! Ortingdagi “qutilar” seni kutadi.

Demak, to‘xtashim kerak: “oltmish bir” degani — to‘xta, degan ma’noni anglatadi. “Qutilar” esa orqada kelayotgan BMPlar.

Karvon chang ko‘tarib, yo‘lida davom etdi. Bizlar biydek cho‘lda to‘xtab qoldik. Orqamizda turgan BMPdagilar xunob bo‘lishar, har lahzada “tezroq bo‘l, bronya” deb qistashar edi.

Yo‘lga tushdik. Uch-to‘rt chaqirim yurmasdan tank yana sekinlandi.

— Komandir! — dedi Viktor xavotirlanib. — Motor qizib ketdi. Yana bir chaqirim yursak, dvigatel ishdan chiqadi.

Tank ichi chindan ham do‘zaxdek qizib borar edi.

Boshlovchi tankni chaqirib, vaziyatni tushuntirdim. Shlemofondan kapitanning norozi to‘ng‘illagani eshitildi:

— Oltmish bir. Sabr qil, shatakka olishadi.

Lyukdan boshimni chiqarib, atrofni kuzatdim. Quyosh ayovsiz qizdirar, ko‘z ilg‘aguncha ketgan qumliklar ko‘ngilda g‘ashlik uyg‘otar, olisda, yo‘lning o‘ng tomonida chakalakzor ko‘zga chalinar edi. Bexosiyat joy...

Boshqa tank kelishi bilan mashinadagi sim arqonni uning “dumi”ga uladik. Tank vag‘illagancha orqasidan quyuq tutun, chang-to‘zon ko‘tarib sudrab ketdi. Ortimizdagi BMPlar ham yo‘lga tushdi. Hamon lyukdan boshimni chiqarib, kuzatib borardim.

Pinakka ketdim shekilli... Onamni tushimda ko‘rdimmi — o‘ngimdami bilmayman. Ammo ovozi qulog‘imga o‘qdek kirdi:

— Ko'zingga qara, bolam, chuqur bor!

Dahshatli gumbirlashdan tank silkinib ketdi. Boshim lyuk qopqog'iga urilib, hushimni yo'qotdim. Xayolim joyiga kelganida beixtiyor engashib, pastga qaradim. O'ng tomondagi zanjir uzilib ketgan, tank mina portlaganda paydo bo'lgan chuqurga yonboshlab qolgan edi. Narigi tank minadan qanday o'tib olgani-yu, nega bizniki portlaganiga aqlim yetmasdi. O'sha zahoti chakalakzor tomonda avtomat tarilladi. Boshim ustidan o'qlar vizillab o'tayotganini eshitib beixtiyor lyuk qopqog'ini yopdim. Tank yana bir silkindi. Viktorning hayajonli hitobi eshitildi:

— Tank yonyapti, komandir. Minomyot tushdi!

Chindan ham zum o'tmay, mashina ichini achchiq tutun qoplab, hech nima ko'rinmay qoldi.

— Evakuatsiya lyukiga! — dedim baqirib.

Ekipaj tushib bo'lishini kutib turdim-da, oxiri o'zim ham tank tubidagi lyukdan emaklab yerga tushdim.

Tankimiz quyuq tutun ichida qolgan edi. Chakalakzordan muttasil avtomat tarillar, orqadagi BMPlardan biri oyog'i osmondan bo'lib yotar, atrofni dod-voy, so'kinishlar tutib ketgan, narigi tank esa, zambaragidan chakalakzor tomonga ketma-ket o'q otar edi.

Atrofda o'qlar chiyillardi. "O'q chiyilladimi, demak, chetga ketgan bo'ladi, o'zingga tegadigani ovoz chiqarmaydi", degan eski aqida xayolimning bir chekkasida turgan bo'lsa-da, tank panasidan chiqishga yuragim betlamas edi. BMPdagilar pishiq yigitlar ekan. Chakalakzor tomonga muttasil o'q uzishardi. Tutab yotgan tank oldiga emaklab chiqdim. Chakalakzor tomonga avtomatdan ketma-ket o'q uzdim. Belim jiz etgandek bo'ldi. To'g'risi, og'riq ham, qo'rquv ham sezganim yo'q. Avtomat qo'limga yopishib qolganga o'xshar, hech nimani o'ylamay, nuqul otgim kelardi. O'sha tomon emaklarkanman, yonbosh tomonda birov gapirgandek bo'ldi. Beixtiyor burilib qaradim.

— Mama! Mama!

Dimog'imga kalla kuydirganda chiqadigan isga o'xshagan hid urildi. Qarasam, Sashaning sochlari yonib, jizg'anak bo'lib ketibdi. Kombinezoni kuyib, badaniga yopishib qolgan, yuzlari qorayib ketgan...

— Mama...— dedi alahsirab. — Mamochka...

To'xtovsiz o'q uzgancha, chakalakzorga yugurdim...

Otishma qanday kutilmaganda boshlangan bo'lsa, shunday tugadi. Atrofga sukunat cho'kdi. Hamon oftob charaqlab turar, chakalakzor tutun va olovga burkangan edi. Ro'paramda Viktor paydo bo'ldi.

— Komandir! — dedi qo'rquvdan ko'zlari olayib. — Hamma-yog'ing qon-ku, Rustam!

Ajab! Hamon og'riq sezilmasdi. Belimni ushlab ko'rsam, kaftimga iliq, ho'l narsa unnadi. Jon achchig'ida uch-to'rt qadam yurib ko'rdim. Keyin to'satdan yiqilib tushdim.

... Guvillagan ovozdan o'zimga keldim... BMPda ketayotganimni g'ira-shira angladim. Yo'q, avval dimog'imga achchiq hid urildi. Ko'zimni ochsam, shundoq Sashaning boshiga yuzimni qo'yib yotibman. Chamasi, Sasha tamom bo'lgan, boshi muzdek, hamon kuyindi hidi anqir edi. Qon, aralash kuyindi isi... Kimdir qornimga qo'lini tashlab olgan... Belim chidab bo'lmas darajada og'rir, suv ichgim kelardi... Jahl bilan siltab tortgan edim, o'sha — kimningdir qo'li shilq uzildi-da, xuddi sarjin o'tindek, lo'p etib oldimga tushdi... Yana hushdan ketdim.

Kechasi

Medsanbat do'xtiri — sochlari oqargan kishi boshimda jilmayib turibdi.

— Omading bor ekan, soldat! — O'q tank zirhidan sachrab, belingga tegibdi. Agar aortaga tegsa bormi, hozir yashikda yotgan bo'larding... — Go'yo men jarrohlik ilmini suv qilib ichib yuborgandek tushuntirdi. — Umurtqa pog'onasining dumg'aza qismidan ikkita aorta tomiri o'tadi. Tushundingmi? O'q o'shanga tegsa — tamom eding! Yo bir santimetr o'ngroqqa — umurtqaga sanchilsa, bir umr invalid bo'lib qolarding.

Og'riq battar kuchaygan, a'zoyi-badanim yonib borar, chanqab ketgan edim.

— Masha! — dedi do'xtir eshik tomonga qarab, — urolog qayoqqa yo'qoldi?

Oppoq xalat kiygan yoshgina, do'mboqqina juvon kirib keldi.

— Tekshir buni! — dedi keksa do'xtir zarda bilan. — Senga taalluqli joyi borga o'xshaydi.

Qarasam, do'mboq juvon bemalol choyshabni ochib, belimdan pastini yalang'ochlayapti. Bir kamim shu qoluvdi!

— Doktor! — dedim yalinib. — Kerakmas. Men soppa-sog'man! Iltimos!

— Iltimos emish! — keksa do'xtir qalin qoshini chimirdi. — Bular hammasi olifta! Bronjilet kiysa haqi ketadi! — dedi qovog'ini solib. — Bilaman, o'lmaysan! Ammo eshitib qo'y; uyingga borganingdan keyin ham urologdan maslahat olib turasan! Angladingmi? Urologdan!

Oktabrning boshlari

Uch oydan beri hech nima yozmadim. Umuman... Hech nimaning qizig'i yo'q menga. Hech nimaga hayron ham qolmayman... Qismda har haftada yangi gap tarqaladi. "Falon joyda ko'prik portlabdi". Xo'sh, nima bo'pti? Ko'prik bo'lganidan keyin portlaydi-da! "Bitta "dux"ni tutib olib, tank zambaragiga tross bilan osishibdi". Nima qipti! "Dux" bo'lganidan keyin osish kerak-da! Xohlasa daraxtga osadi, xohlasa tank zambaragiga!.. Boshimas, oyog'idan ossa, yana yaxshi!"

Yolg'iz quvonchim yurtimizdan keladigan xatlar...

Shahnoza suratini yuboribdi. Kalta yengli, oppoq ko'ylak kiyib jilmayib turibdi. Sinchiklab qarasam, suratdagi manzara tanish ko'rindi. Axir bu... o'zimizning anhor-ku! Ana o'sha xarrak, o'zimizning na'matak! Voy, Shahnoza tushmagur-ey... Panaga o'tib suratini o'pdim...

Oktabrning o'n yettinchi kuni

Jangovar trevoga e'lon qilindi. Hamma yoq yugur-yugur bo'lib ketdi. Bundan chiqdi, jang bo'ladi! Kim bilsin, dushman biron obyektga hujum qilgandir. Yo'lda borayotgan kolonnaga shoshi-

linch yordam kerakdir. Yo bo'lmasa, razvedgruppa qamalda qolgandir... Hamma narsa bo'lishi mumkin...

Katta kuch tashlanganiga qaraganda jang ham katta bo'ladigan ko'rinadi. Tanklar, BTRlar, BMPlar yelib boryapti.

Kun peshindan og'gan... Kuz osmoni tiniq, sokin. Trimpliksdan qizg'ish tog'lar aniq-taniq ko'rinadi. Olisda, yo'ldan bir chaqirimcha chekkada qishloq ko'zga tashlanadi. Uzoqdan qaragan odamga Afg'on qishloqlari, nima desam ekan, mozoristonga o'xshab ko'rinadi. Paxsa devorli uylarning tomi Toshkent atrofidagi qishloqlarnikiga o'xshab tunuka yoki shiferdan qiyalatib yopilgan emas. Farg'ona vodiysidagi uylarnikiga o'xshagan tekis tom ham emas... Qandaydir g'alati: har bir uyning tomi loydan qubbasimon qilib yasalgan. Hafsala bilan suvab qo'yilgan qabrdek...

Tanklar, BTRlar shiddat bilan qishloq tomonga burildi. O'sha yoqda quyuq tutun, qizg'ish alanga ko'zga tashlanar, portlash sadolari eshitilar edi. Demak, qishloqda jang boryapti. Yo'l chetida to'xtab turgan BMPga ko'zim tushdi. Maskaxalat kiygan yigitlar mashina oldida uymalashib turardi. Ustav bo'yicha tankni to'xtatishga haqqim yo'q. Ko'nglimdan nima kechganini o'zim bilmayman. Mexanikka buyruq berdim:

— To'xta, Viktor! Bir minutga...

Lyukdan boshimni chiqarishim bilan qishloq tomonda gumburlayotgan portlash sadolari, avtomatlarning muttasil tarillashi yana qattiqroq yangragandek bo'ldi. Dimog'imga tutun, porox hidi kirdi.

Maskaxalatli yigitlar yo'l chetida to'xtagan BMPga o'lik ortishayotgan ekan. O'liklar negadir yalang'och edi. Uchta jasad mashinaga, plashpalatka ustiga qator yotqizib qo'yilgan. Yerda tag'in ikkitasi yotardi. Yigitlar portlash ovozlariga, avtomatlarning tarillashiga parvo qilmay, o'z yumushlarini qandaydir sovuqqonlik, hatto xotirjamlik bilan ado etishar, biri jasadning qo'ltig'idan, ikkinchisi oyoqlaridan olib, mashinaga ortar edi. Navbatdagi jasadning qop-qora sochlarini ko'rib, beixtiyor yerga sakrab tushdim. Yaqin bordim-u seskanib ketdim. Qip-yalang'och jasadning gavdasi og'ir shekilli, mashinaga o'lik ortayotgan yigitlardan yana biri yugurib kelib, uning belidan quchoqlagancha do'stlariga ko'maklashdi. Shunda jasadning chap qo'li shilqillab yerga osildi. Bila-

giga tatuirovka bilan qing'ir-qiyshiq qilib yozilgan "Temur" degan so'zga ko'zim tushdi.

— Temur aka! — yuragim sirqillab, jasad boshiga egildim. — Temur aka!

— Nari tur, tankist! — dedi yigitlardan biri hansirab. — Undan ko'ra jangga kirsang-chi!

— Temur aka! — dedim ingragudek bo'lib. Harchand tikilib qaramay aftini taniy olmadim. Jasadning yuz-ko'zi, a'zoyi-badani qora qonga belangan edi. Shunda... Bir narsani aniq ko'rdim! Temur akaning quloqlari, burni... kesib olingan edi! Qancha fursat turib qolganimni bilmayman.

Tank zirhiga qanday tarmashdim, lyukdan qanday kirdim, esimda yo'q.

— Bos, Viktor! — dedim hayqirib.

Shlemofondan komandirning badjahl tovushi eshitildi:

— Razmax yetmish olti. Nega to'xtab qolding?

— Ketyapman, — dedim xirillab.

— Obyektni janub tomondan aylanib o't. Ehtiyot bo'l, mina bo'lishi mumkin...

"Mina emish! Mina tugul atom bombasi bo'lmaydimi!"

— Bos, Viktor!

— Lyukni yop, komandir...

— O'chir ovozingni! Bos!

Pastak devor ortida sallali bosh ko'rindi. Yelkasidagi granatamyotni devorga tirab ro'para qildi. Vujudimda o'lim sharpasi bir lahza o'rmalab o'tgandek bo'ldi.

Qiziq, negadir qo'rqmadim. Tushuntirib berolmayman. Ajal bilan ro'para kelsang-da, qo'rqmasang! Shunisi yodimdaki, xotirjam buyurdim:

— Uchta snaryaddan o't och!

Odamning talqondek mayda-mayda bo'lib ketishini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Tutun tarqalgach, qarasam, devor ham yo'q, boyagi sallali ham... Ro'paradagi qubbasimon uy ichidan avtomat tovushi eshitildi. O'qlar tank zirhiga urilib chiyillagancha sakrab ketayotganini his etib turar, ammo lyukni yopish xayolimga kelmas edi.

— O't och!

Qubba tomli uy xotinlarning upadonidek oppoq kukunga aylandi. Esdan og'ib qolganga o'xshardim.

— Viktor! Bos! Bos! — derdim nuqul baqirib.

Tank quturgan buqadek o'kirar, pulemyotidan to'xtovsiz o'q uzgancha yo'lda duch kelgan narsani payhon qilib borar, qubbasimon tomli uylar, tolmi, qayrag'ochmi, qandaydir daraxtlar, uzum toklari, dumini xoda qilib, uyoqdan-buyoqqa yugurayotgan sigir, qanotini jonsarak patirlatgancha uchib-qo'nayotgan tovuqlar ko'zga chalinib qolardi.

— Bos! Bos! — derdim va baqirib, avtomatdan muttasil o'q yog'dirardim.

Bir mahal hamma yoq jimjit bo'lib qoldi. Holdan toyib, joyimga o'tirdim. Trimpliksga o'q tekkan shekilli, oynasi darz ketgan, tashqari ko'rinmasdi. Atrofda gumbur-gumburlar tingan, o'q ovozlari eshitilmaydi... Hatto tankning guvillashi ham...

Tank jim. Avtomatlar jim... Qishloq jim... Go'yo hech nima bo'lmagandek. Qaddimni rostlab, atrofga qaradim. Hamma yoq tutunga to'lgan, osmonda chang-to'zon muallaq turib qolgan. Qishloqda sog' uyning o'zi ko'rinmas, olisda qonga botgan kalladek qip-qizil quyosh ufqqa cho'kib borardi.

Sinchiklab razm solsam, allaqanday hovli o'rtasida turibmiz. Ipga ilingan, hali qurib ulgurmagan choyshablar, xotinlarning ko'ylagi tuproqqa qorishib yotibdi. Tomi o'pirilib, devori qulagan uy ichidan tutun aralash to'zon burqsib turibdi. Hovli yuzida qo'y qumalog'iga o'xshash qora narsalar tuproqqa qorishib, yer bilan bitta bo'lib yotibdi. Garangsib, uzoq tikilib qaradim-da tushundim: mayiz ekan. Bir chekkada tank zanjiri ezg'ilab, ilma-teshik qilib tashlagan gilam... Odam qonidek qip-qizil...

Allaqaysi burchakdan quloqlari shalpaygan, ko'rquvdan ko'zlari jovdiragan olapar it chiqib keldi. Tankka xavotirli nazar tashladi-da, dumini qisgancha, so'ritok tomon yurdi. Yaproqlarini chang bosgan so'ritok tagiga borib, allanimani hidladi. Dor uzilganda ayollarning qizil ko'ylagi chekkaga otilib ketgan shekilli, so'ritok tagidagi ariq ichida beo'xshov cho'zilib yotardi. It iltijo qilgandek, g'ingshib qo'ydi-da, ko'ylakni yana hidladi. Cho'nqayib o'tirgan ko'yi, osmonga qarab g'ayritabiiy ovozda bir-ikki vovilladi. Keyin

vovillashi o‘z-o‘zidan uvlashga aylanib ketdi... Bir daqiqa o‘tdi... Besh daqiqa... Umrim bino bo‘lib, bunaqa nolani eshitgan emasdim.

Yuragimni tushunarsiz vahima g‘ijimlayotganga o‘xshardi. Sakrab yerga tushdim.

— Ket! — dedim ovozim titrab.

It qayrilib qaramadi. Cho‘nqayib o‘tirgancha nolali uvlayverdi. Yerdan kesak olib otdim.

— Ket!

It uvlashdan to‘xtadi. Men tomonga qarab qo‘ydi. Nazarimda “o‘z holimga qo‘yasanmi-yo‘qmi, nima gunoh qildim senga!” degan iltijo bilan termilgandek bo‘ldi.

— Yo‘qol! — dedim dag‘dag‘a bilan.

It dumini qisib nariroqqa bordi, cho‘nqayib o‘tirgancha, tumshug‘ini osmonga cho‘zib qaytadan uvlashga tushdi.

Negadir qo‘rqibroq yaqin bordim. So‘ritok tagida yotgan narsa, ko‘ylak emas, odam gavdasi ekan. Xotin kishining gavdasi. So‘ritokning panasidan panoh topmoqchi bo‘lgandek, yonboshlab yotibdi. Boshida sharfga o‘xshagan ro‘mol, egnida uzun ko‘ylak. Ammo oyoqyalang... Oyoqlari so‘ritok tagidagi ariqqa tushib qolgan... Birpas ikkilanib turib qoldim.

— Turing, — dedim qo‘rqa-pisa yelkasiga qoqib. — Turing, opa, qo‘rqmang.

Ayol qimir etmadi. Xuddi gapimni tushunadigandek dalda berdim:

— Turing, biz sizga tegmaymiz.

Tank tomondan Viktorning ovozi keldi.

— Qaytish kerak, komandir!

Burilib qarasam, haydovchi lyukdan boshini chiqarib turibdi.

— Qaytishga buyruq bo‘ldi, komandir.

It esa hamon uvlar, qulog‘ingni teshib, yuragingni o‘rtab yubormaguncha tinchimayman, deb qasd qilgandek nola chekar edi.

Avtomat zatvorining shaqir-shuquri eshitildi. Qarasam, Viktor itni mo‘ljalga olyapti.

— Otma! — dedim o‘shqirib. Tag‘in ayolning boshiga egildim.

— Opa! — Ayolning yelkasidan tortgan edim, chalqancha yotib qoldi. Jonholatda o‘zimni orqaga tashladim. Axir bu... Shahno-

za-ku! Oppoq yuzi, qop-qora sochlari, qayrilma kipriklari... Yo'q... Bu — Shahnoza emas. Shahnozaning ko'zlari qora. Buniki — zangori... Baribir... Baribir Shahnozaga o'xshaydi. Yuzining tiniqligi, katta-katta ko'zlarining hayrat bilan termilishi...

Biron yerida jarohat izi ko'rinmasdi. Faqat ko'ylagining yoqasi ochilib, oppoq, bo'liq siynalari yalang'ochlanib qolgan edi. Gunoh ish qilib qo'ygan odamdek yana orqaga tisarildim. Shundagina bo'ynini teshib o'tgan o'q o'rniga ko'zim tushdi. Teshikdan ipdek oqib qon siza boshladi. Keyin to'satdan, qon oqishi tezlashib ketdi. Avval to'shiga tushdi, keyin siynasiga... Birpasda siynasi qip-qizil qonga belandi...

Dahshat ichida gandiraklagudek bo'lib, tank tomon chekindim. Shu payt vayronaga aylangan, tutab yotgan uy ichidan bola yig'isi eshitildi. Zum o'tmay vayrona ostonasida nimcha kiygan, ammo ishtonsiz, bir yarim yoshlardagi o'g'il bola ko'rindi.

Qiziq! It uvlashni bas qilib, bolaning oldiga yugurib bordi. G'ingshib, bolaning burnini yaladi. Bola do'mboq qo'lchasi bilan it boshini nari itarib, battar yig'lay boshladi. It ko'zlarida mutelik bilan bir zum tikilib turdi-da, ohista burilib ayol tomon lo'killadi. Bola hamon yig'lagancha o'z tilida g'ujur-g'ujur qilib, itga ergashdi. Oyoqyalang tuproq kechib, alpang-talpang yurgan ko'yi ayol tepasiga keldi. Bir zum turib qoldi: yig'lashdan to'xtadi. Ammo o'pkasini tutolmay hiqillagancha "mo'rjona-mo'rjona" dedi. Ayolning yoniga cho'kkaladi-da, yosh to'la ko'zlari bilan negadir g'udranib kuldi. Tuproqqa belangan qo'lchalari bilan onasining mammasini changallagancha ema boshladi. Birpas emdi-da, ilkis boshini ko'tardi. Hayron bo'lib, goh onasiga, goh itga, goh menga mo'ltiradi. Og'zini kappa- kapa ochib, chirqillab yig'lab yubordi. Go'dakning og'zidan so'lak aralash qon oqar edi.

...Avval ich-ichimdan titroq keldi. Keyin qo'limning barmoqlari muzlay boshlaganini his qildim. Undan keyin oyoqlarim qaltiray boshladi. Tankka qanday yetib bordim, esimda yo'q.

— Otaman! — dedim o'kirib. — Hammangni otaman! O'zimniyam otaman!

...Keyin nima bo'lganini bilmayman.

Noyabr oyi

Uydan xat keldi. Akam oyimning gaplarini so'zma-so'z yozib yuboribdi. "Xudoga shukr, Rustamjon, nurli tushlar ko'ryapman. Oftob charaqlab turgan dalada chopqillab yuribsan. Sog'inib ketdim-ku, bolam, kel, bitta bag'rimga bosay, desam, yugurib oldimga kelibsan. Oyijon, sut ichgim kelyapti, sut bering, debsan. Men senga kosa to'la sut berdim. Oxirigacha simirib, ichib olding... Sut — yorug'lik, jon bolam, Xudo xohlasa, ko'pi ketib ozi qoldi..."

...Meni nega tug'dingiz, oyi? Nega tug'dingiz!!!

TERGOV HUJJATIDAN

To'laganova Qurbonoy. Ellik besh yoshda. Turar-joylardan foydalanish boshqarmasining farroshi. Millati — o'zbek. Oilali. Qatortol mavzesi, 9-uy, 44-xonadonda istiqomat qiladi. Partiyasiz.

— Grajdanka To'laganova Qurbonoy siz bo'lasizmi?

— Ha, men bo'laman. Nima gunoh qildim, xolang aylansin!

— O'tiring!

— O'zing asra, Xudoyim... Gunohim nima? Unaqa odamni qo'rqitmagin, jon bolam... Oyoq-qo'lim titrab ketayapti.

— Birov sizni gunohkor deyaptimi, nega vahima qilasiz, grajdanka To'laganova!

— Ana! Tag'in "grajdanka" deyapsan! Men yurak oldirib qo'yganman, xolang qoqindik.

— O'tiring!

— Xo'p, o'g'lim, xo'p. Birpas o'zimga kelib olay, maylimi? Iloyo bola-chaqangni rohatini ko'rgin.

— Necha yildan beri JEKda ishlaysiz?

— JEKda ishlamayman, xolang o'rgilsin, uborshisaman, ko'cha supuraman. Ikki "do'm"ni ajratib bergan. JEKni xo'jayini aytgan. Xola, mana shu do'mlani atrofi toza bo'lsin, zinalari yaraqlab tursin, degan. Umridan baraka topgur, xo'jayin yaxshi odam. Insofli. Bayramda pirmiyalni berdi — o'ttiz so'm. Xola, dedi, biz sizga o'xshagan po'ristoy odamlarni hurmat qilamiz, dedi.

— Kimlar bilan turasiz?

— Nima?

— Kvartirangizda kimlar turadi?

— O‘zi bir haftadan buyon mazam yo‘q. Sovuq tushganidan beri kasalim o‘lgur qo‘zib qoldi. Bo‘yra bo‘yi qorni kuraguncha harsillab ketaman, bolam. Shu savil qolgur o‘t qopchasini oldirib tashlab qutulaman, shekilli. Do‘xtir aytdi: qo‘rqmang, xola, dedi, buyam ko‘richakni kestirishdek gap, qiynalib yurasizmi, bunaqa qilib, undan ko‘ra kestiring-u, qutuling dedi.

— Kvartirangizda necha kishi turadi, deyapman?

— Odamni unaqa qo‘rqitmagin-da, xolang aylansin. Mana, hamma qog‘ozlarni obkeganman. Uyni nalugini vaqtida to‘layman, o‘g‘lim. Mana, oyma-oy to‘laganman.

— Uff, necha kishi turasizlar?

— *Nima qilay, xolaginang aylansin. Bitta-yu bitta qizimni* jo‘jalariminan ko‘chaga haydab qo‘yaymi? Tor qornimga siqqan keng uyimga sig‘maydimi?.. Boshida aytgandim. Umida, jon qizim, esingni yig‘, bo‘ladigan savdo emas, bu bolaning ko‘zi bejo, degandim. Hozirgi yoshlarni bilasan-ku! “O‘laman sattor, shundan boshqasiga tegmayman”, deb turib oldi. Mana nima bo‘ldi?

— Men qizingizni so‘rayotganim yo‘q, grajdanka To‘laganova! Kim bilan turasiz, deyapman. Savol tushunarlimi?

— Bo‘lmasa necha uchastkovoy kun ora kirib siyosat qiladi? Kvartiraning maydoni to‘rt kishiga to‘g‘ri kelmaydi, deydi? Kechayam bordi. No‘rmaga to‘g‘ri kelmasmish. Bo‘lmasa, uy olib ber, uch xonalimi, to‘rt xonalimi, desam, men sizga kvartir beradigan ispolkom emasman, deydi. Komissar necha marta aytdi: kuyovingni so‘tga ber, qizing bilan nevaralaringga uy olib beradi, dedi. Umida bir jahlga mingandi, nasihat qildim. Qo‘y bolam, shaytonga hayf ber, peshonangdagini ko‘rib ketarsan, dedim. Nima qiladi janjal qo‘zg‘ab. To‘g‘rimi? Kuyovim yaxshimi-yomonmi, uyam Xudoning bir bandasi-da! Ikkinchi xotinidan bolasi bor. Umida eriga jabr qilsa, o‘sha bolaning ham ko‘ngli o‘ksiydimi, axir?

— Miyamni qoqib, qo‘limga berdingiz-ku, xola. Aytyapman-ku, men boshqa narsani so‘ramoqchiman.

— So‘rayver, bolam, so‘rayver.

— Shomatov Rustamni tanirmidingiz?

— Anavi... kuyovnimi? Albatta tanirdim. Yaxshi bola edi, rahmatli. Har ko'rganda "Hormang, xola, charchab qolmadingizmi?" deb so'rardi. "Sizni Piskentga olib borib, bir o'ynatib kelaman", derdi. Bu dunyoga kelib nima ko'rdi, bola sho'rlik! Qandoq yaxshi yigit edi...

— Yig'lashning hojati yo'q. Shomatov bilan kirish-chiqishinglar bormidi?

— Albatta, bor edi! Kelin-kuyov do'mga ko'chib kelgan kunlari eng avval men bilan tanishgan...

— Shomatovning oilasi bilan munosabati qanday edi?

— Kelin bilanmi? Qo'sh kaptardek inoq edi. Qaniydi, mening kuyovim ham Umida bilan shunaqa totuv bo'lsa, deb orzu qilardim.

— Nahotki, Shomatov xotini bilan hech urish-janjal qilmagan bo'lsa?

— Begunoh bandasiga tuhmat qilish — odam o'ldirish bilan teng, jon bolam.

— Harqalay-da! Turmushda nimalar bo'lmaydi.

— Tavba! Xudoyo tavba! Men ketsam bo'ladimi? Halizamon nevaralarimni bog'chadan olishim kerak. Bu hafta Umida ikkinchi ismenda... Anavi uchastkovoyingga aytib qo'yasanmi? Uyimdan haydab chiqarmaydimi?

— O'tiring, grajdanka To'laganova! Soat endi to'rt yarim bo'ldi.

— Xo'p degin, umringdan baraka topgur. Asr namozim qazo bo'lmasin...

— Namoz o'qiysizmi?

— ...

— Namoz o'qiysizmi, deb so'rayapman. Hozir dindorlarga qarshi qanaqa kurash olib borilayotganini bilasizmi?

— O'qisam, o'zim uchun o'qiyman-da, bolam. Komissarga aytmay qo'yaqol bu gapni.

— Qiziq xotin ekansiz-ku... Ayting-chi, ertalab barvaqt turasizmi?

— Albatta-da! Odamlar ishga ketguncha yo'lkalarni supurib qo'yishim kerak-ku!

— Shomatovning xotini ertalablari ko'chaga chiqqanini ko'rganmisiz?

— Shahnozami? Ko'rganman! Xudoyligimni aytaman, har kuni bo'lmasayam kuni aro bidon ko'tarib sutga chiqardi. Sut do'koni — gastronomni yonboshida. Tong otmasdan turnaqator ochirid bo'lib ketadi. Qarab turib yoqamni ushlayman. Senga yolg'on, Xudoga chin. Uyog'i Tepaqo'rg'on, buyog'i Qatortol qandoq joylar edi. Hamma yoq — bog', hamma yoq dala. Har xonadonda o'ldim deganda bittadan sigir bo'lardi. Beshyog'ochga sut oborib sotardik. Endi-chi? Ertalabdan sutga ochirid...

— Uff! Kelin o'sha kuni ham sutga chiqdimi?

— Qaysi kuni?

— Eri o'lgan kuni!

— Ko'rmadim. Yolg'on gapirishga Xudodan qo'rqaman. Tag'in bilmadim. Tuman edi. Quyuq tuman. Xudo biladi-ku, yo men pastga tushishimdan oldin, yo uyning orqa tomoniga o'tib ketganimda sutga borgan bo'lishiyam mumkin.

— Eslab ko'ring-chi, uy atrofida bironta begona odamni uchratmadingizmi?

— Yo'q!.. To'g'ri, ancha narida bir sharpa ko'ringandek bo'ldi. Nazarimda, meni ko'rib daraxt panasiga o'tganga o'xshadi... Tag'in, bilmadim. Tuman edi.

— Bo'y-bastini ilg'agandirsiz, axir! Kelbati qanaqaydi? Semizmi, oriqmi? Novchami?

— Nazarimda, boshida to'qima qalpoqcha bordek ko'rindi. Anavinaqa, yosh bolalar sovuqda kiyadigan qalpoqcha bo'ladi-ku...

— O'sha odamni hozir ko'rsangiz taniysizmi?

— Voy o'lmasam! Qayoqdan tanirkanman? Aytdim-ku, tuman edi. O'n qadam narini ko'rib bo'lmasdi.

— Ayting-chi, Shomatovni oxirgi marta qachon ko'rgan edingiz? Ya'ni o'lmasidan oldin?

— Rustamjonnimi? Bayram kuni ko'rdim. Kechga tomon do'kondan nevaralarimga kamput olib kelayotgandim. Kichik nevaram kamputga o'ch. Oshgayam kamput qo'shib yeydi...

— Rustam nima qilayotgan ekan?

— Rustamjonmi? Ko‘cha bo‘yida turgan ekan. Salom berdi. “Kelinni olib uyga kiringlar, Umida osh damlayapti” desam, “rahmat” dedi...

— Keyin-chi?

— Keyin... Umidaga aytdim, “yangi qo‘shnilar mehmonga chiqib qolishi mumkin, achchiq-chuchuk qil, turp to‘g‘ra”, dedim.

— Chiqishdimi?

— Yo‘q... Aksiga olib, chiroq o‘lgur o‘chib qolsa degin... Uyingga bug‘doy to‘lgur nevaralarim qorong‘idan qo‘rqadi. Chiroq hadeganda yonavermadi. Ikkalasi xarxasha qilishga tushdi. Uyda sham qurmagur tamom bo‘lgan ekan. Pastga tushdim. Qarasam, to‘rtinchi qavat derazasida nur bor. Yangi qo‘shnilarnikida.

— Shomatovlarnikidami?

— Ha. Chiqdim.

— Eshikni kim ochdi?

— Kelin, Shahnoza. Shunaqa-shunaqa, dedim. Bittagina sham berib...

— Shoshmang. Ichkarida kim bor ekan?

— Ichkari kirmadim.

— Hech qanday ovoz ham eshitilmadimi?

— Yo‘q... Nazarimda eshikni taqillatayotganimda ichkaridan Rustamjonning ovozi kelgandek bo‘luvdi.

— Nima dedi Rustam?

— Tavba! Birovning gapiga quloq solish gunoh-ku, xolang aylansin!

— Kelinning kayfiyati qanday edi?

— Qorong‘ida ko‘rib o‘tiribmanmi? Binoyidek edi shekilli.

— Uyqingiz ziyrakmi?

— Bilmasam... Ba’zan kechalari o‘t qopim og‘rib, to‘lg‘anib chiqaman.

— O‘sha kecha Shomatovlarning uyi tomonidan shubhali ovoz, baqiriq-chaqiriq eshitilmadimi?

— Yo‘q. Rustamjonlar ikki yo‘lak narida turadi.

— Yaxshi... Bilishimcha, siz hamma qo‘shnilarni yaxshi taniysiz. To‘g‘rimi?

— Yigirma besh yil birga turgandan keyin...

— Odatlariniyam bilasizmi?

— Bu nima deganing?

— Ya'ni... masalan... Kimnikiga kim kiradi, kim chiqadi. Kim kim bilan yaqin?

— Birovning turmushiga aralashish — shaytonning ishi... Hadisi sharifda aytganlarki...

— Xo'p. Hadisingizni qo'ya turing. O'sha kuni ertalab Shomatovlarning podyezdidan birontasi chiqmadimi?

— Xudo shohid: hech kimni ko'rmadim.

— O'sha tomondan shovqin-suron, deylik, deraza singani eshitilmadimi?

— Yo'q.

— Shomatovning jasadini birinchi bo'lib siz ko'rdingizmi?

— Yerto'la zinasida yotgan Rustamjon ekanini qayoqdan bilibman? Esimga tushsa, yuragim tuzdek achiydi! Qandoq yaxshi bola edi! O'n gulidan bir guli ochilmagan yoshgina yigit nima qiluvdi senlarga, Xudo bexabarlar! Birovning joniga qasd qilishdan og'ir gunoh bormi? Uyoqda bola bechoraning yosh joni ketdi. Buyoqda kelin sho'rlik chirqillab qoldi...

— Jasad ustiga birinchi bo'lib otstavkadagi polkovnik G'aniyev bordimi?

— Komissarni aytayapsanmi?

— Ha, o'sha kishini!

— To'g'ri, xudoyligimni aytaman. Avval Komissar bordi, keyin men...

— Ayting-chi, xola... Komissarni yaxshi taniysizmi?

— Taniyman, o'g'lim. Yaxshi taniyman. Hammamiz tepaqo'rg'onlik bo'lganimizdan keyin...

— Nima uchun namoz o'qishimni Komissarga aytma, dedingiz?

— ...

— Sizningcha Komissar qanaqa odam?

— ...

— Nega indamaysiz?

— Nima dey, bolam. Uyam Xudoning bir bandasi...

— Qiziq ekansiz... Mayli, sizga ruxsat. Borib, namozingizni o‘qiyvering. Faqat... Bu gapni men aytmadim, siz eshitmadingiz. Tushunarlimi? Manavi propuskni eshikdagi dejurniyga berasiz... Bormaysizmi, axir?

— Bir narsa so‘rasam, maylimi, bolam? Oting nima?

— Buyog‘i qiziq bo‘ldi-ku! Tergovchi menmi, sizmi?

— Aytaqol, jon bolam.

— Ana! Povestkaga yozilgan-ku: “Starshiy tergovchi Saydaliyev S.” deb, Familiyam Saydaliyev, otim — Saida’zam.

— Bundan chiqdi, saidlar avlodidan ekansan.

— G‘alati gaplarni gapirasiz, xola! Buning nima ahamiyati bor?

— Yana bitta gap aytsam, ko‘nglingga kelmaydimi?

— Ob-bo! Boring, endi!

— Ketaman, bolam. Hozir ketaman. Xudo haqqi, eshigingdan kirib kelganimda qo‘rqqan edim. Keyin... qarasam, yuzingda nur bor. Mana endi tushundim. Palaging toza ekan.

— Ja-a, boshni aylantirib yubordingiz-da, xola?

— Bildimki, ruhing toza, bolam! Birovga yomonlik qilish qo‘lingdan kelmaydi. Ajdodlaringni arvohi yo‘l qo‘ymaydi.

— Bo‘pti, xayr, grajdanka To‘laganova!

— Yana bitta gap aytsam maylimi?

— Uff! Boring dedim-ku!

— Bu hunar senga yarashmaydi, xolang aylansin! Bo‘lak tirikchilik qil... Bunaqa hunarning nonini yeydiganlar boshqacha bo‘ladi.

— Tergovchilar yomon odam deb kim aytdi sizga?

— Boshimdan o‘tgan, bolajonim! Boshimdan o‘tgan...

QURBONOY XOLANING ERTAKLARIDAN

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda yetti iqlimni so‘raydigan poshsho o‘tgan ekan. Poshshoning Xudodan tilab-tilab olgan yakka-yolg‘iz o‘g‘li bor ekan. Bola — baribir bola-da! Bir kuni sho‘xlik qilib, daraxtga chiqibdi. Yiqilib boshi yorilibdi. Poshsho chopib borib, o‘g‘lini yerdan ko‘tarib olibdi. Qarasa, bolasining

yorilgan peshonasida "Nikoh kuni bo'ri yeydi" degan yozuv bormish. Poshsho bu sinoatni hech kimga aytmabdi. Tabiblar bolani tez kunda tuzatib yuborishibdi. Ammo o'g'li katta bo'lgan sayin poshshoning ko'ngliga g'ulg'ula tushaveribdi. Yurtidagi jamiki bo'rilarni qirib tashlashga farmon beribdi.

Oradan oy o'tibdi, yil o'tibdi. Poshsho shahzodani uylantiradigan bo'pti. Oy desa yuzi, kun desa ko'zi bor kelin topishibdi. To'y kuni poshsho saroyning atrofiga mingta soqchi qo'yibdi. Kuyov bilan kelin qo'shiladigan kuni ostonada o'zi poylab o'tiribdi. Bir mahal ichkaridan dod-faryod eshitilibdi. Poshsho qilichini yalang'ochlab kirsa, kelin kuyovning bo'g'zini g'ajib turganmish. Poshsho bu nima qilganing, deb kelinning boshi ustida qilich ko'tarsa, kelin aytibdi: "Nima bo'lganini o'zim bilmayman, osmondan "sen bo'risan, yoningdagi qo'zichoqni yeyishing kerak", degan nido keldi", debdi.

OLLOH HAR NARSANI KO'RGUVCHIDIR

Qora plash kiygan so'xtasi sovuq kishilar dadasini olib ketganida Qurbonoy o'n to'rt-o'n besh yoshlarga borib, bo'yi cho'zilib qolgan edi. Olib chiqib ketishayotganda dadasi yo'lak boshida turib, "Qizimni ehtiyot qil", degani Qurbonoyning qulog'idan ketmas, kechalari ma'yus kulimsirab turgan otasi tushlariga kirib chiqar, ayasiga bilintirmay burchak-burchakka borib, yum-yum yig'lar edi.

Ayasi bir gapni qayta-qayta takrorlardi:

— Dadangda gunoh yo'q, bolam! Dadang — farishtadek toza odam. Nima qilaylik: yozig'imiz shu ekan. Buvang qamaldi, tog'ang urushda bedarak ketdi. Dadangni qismati bu bo'ldi... Mayli, yaratgan Egam suygan bandasining boshiga shunaqa sinovlar solar ekan.

Sentabr oyida odatdagidek o'qish boshlandi. Qurbonoy yettinchiga ko'chgan edi. Odatdagidek, maktabga bordi. O'qituvchilarning muomalasi o'zgarib qolganiga, sinfdoshlarining biri achinib, biri xavotirlanib qarayotganiga e'tibor bermaslikka harakat

qilar, dadasidan esa na xat, na xabar bor edi. Qurbonoy, iloji boricha yaxshi o'qishga urinar, dadasi qulog'iga qayta-qayta quygan gap esidan chiqmas edi. "Sen, shunchaki o'quvchi emas, muallimning qizisan, bolam, a'lo o'qishga, o'rtoqlaringga namuna bo'lishga majbursan... Biron fandan "to'rt" baho olsang, xafa bo'laman. Aktivist bo'l, jamoatchilik topshirig'ini sidqidildan bajar!"

Kech kuz kunlaridan birida g'alati voqea ro'y berdi. Qurbonoy sinf bo'yicha navbatchi edi. Katta tanaffusdan keyin lattani ho'llab kelib, doskani hafsala bilan artdi. Keyin... dugonalari bilan o'ynab ketdi... Darsga qo'ng'iroq bo'lganida yugurib, sinfxonaga kirsa, sinfdosh bolalardan qay biridir shumlik qilib doskaga bo'r bilan chizma-chiziq tortib tashlabdi. Qurbonoy, zir yugurib, latta izlaydiki, topsa qani?

Bir mahal, g'ishtin "plita-pechka" dudburonining qir uchiga ilib qo'yilgan lattaga ko'zi tushdi (Ko'tarmadagi Stalin nomli maktab "eng katta", "eng namunali" hisoblanar, bu dargohda sinfxonalar jo'n tunuka pechkalar bilan emas, g'ishtin "plita-pech" bilan isitilar edi). Jon holatda plitaga tarmashdi. Oyog'ini pechka qirrasiga tirab, endi lattaga qo'l cho'zgan edi, "plita" chetidagi g'isht ko'chib ketdi-yu, Qurbonoy yonboshiga yiqildi. Bir amallab qaddini rostladi. Ko'ngli behuzur, chap to'pig'i sirqillab og'rir edi.

Bir mahal qarasa, boshida rus tili muallimi Xayrullin turibdi.

— Svolish! Chujdiy element! — dedi dag'dag'a bilan. — Ni qilding, vrag naroda?! Sovet pechkasini spetsialno lomat itting!

Qiziq... Qurbonoy yig'lagisi keldi-yu, yig'lamadi. Yig'lay olmas edi...

Keyin... majlis bo'ldi... Uch kecha... Darsdan keyin... Aynan, darsdan keyin... Rayonodan odamlar keldi. "Nomi aytib bo'lmaydigan" tashkilotdan vakil ishtirok etdi. Uch kun majlis qilib, bir qarorga keldilar. Yettinchi sinf o'quvchisi To'laganova Qurbonoy sovet maktabining pechkasini ataylab sindirdi. Erta-indin sovuq tushsa, o'quvchilar o'rtasida norozilik kayfiyatini tug'dirish uchun qasddan shunday qildi. Bobosi — eshon bo'lgan. Sibirga surgun qilingan. Onasi — Fotima — ashaddiy xalq dushmanining qizi. Otasi — Hakimov To'lagan shu maktabda matematikadan dars ber-

gan. Afsuski, maktab pedagogika kollektivi Hakimovning yapon razvedkasi bilan aloqasi borligini o'z vaqtida tushunib yetmagan. "Tegishli tashkilot"larning hushyorligi bilan Hakimov kerakli jazosini olgan. Ammo shunda ham maktab pedagogika kollektivi siyosiy xushyorlik ko'rsatmagan. Ya'ni, o'quvchilarga sobiq matematika o'qituvchisi Hakimov To'lagan xalq dushmani ekanini tushuntirmagan...

Ertasiga maktabda umumiy "sbor" bo'ldi. Yuqori sinf o'quvchilarini safga tizib qo'yib, avval Hakimov To'laganning jinoyatini birma-bir isbotladilar. Keyin o'sha dushmanning qizi — buzg'unchi Qurbonoyning qismati hal etildi. Xulosa shu bo'ldiki, To'laganova Qurbonoyga sovet maktabida o'rin yo'q. Hushyor bo'lib turilmasa, bu qiz ertaga maktabni portlatib yuborishdan ham toymaydi...

Ajab! Onasi ham, o'zi ham bu narsani oddiy haqiqat deb qabul qilishdi. Qo'ni-qo'shnilar uyoqda tursin, qarindoshlaring ham qadamini tortib qo'yganda, maktabdagi muallimlar xalq dushmanining qizini jinoyat ustida qo'lga tushirib, o'qishdan haydasa, nima bo'pti!

...Buni qarangki, ulug' dohiy maktab muallimlaridan boshqacharoq fikrlar ekan. "Ota uchun bola aybdor emas!" degan shior bor ekan. Bundan chiqdi — Qurbonoy gunohkor emas! To'g'ri, bobosi — eshon, ya'ni dushman, otasi — yapon razvedkasi agenti, u ham dushman. Biroq Qurbonoy dushman emas. Unsur bo'lsayam ongsiz, tasodifiy unsur. Basharti sovet pechkasini qasddan buzgan taqdirda ham uni tarbiyalash kerak. Ustiga-ustak yetti yillik majburiy ta'lim degan qonun bor. Bundan chiqdi, Ko'tarmadagi Stalin nomli namunali maktab o'quvchisi To'laganova Qurbonoy yetti yillik to'liqsiz o'rta ma'lumotni olishi — majburiy!

Baribir, Qurbonoy maktabga bormadi. O'qishdan ko'ngli muz bo'lib ketgan edi.

Qurbonoy ayasiga qo'shilib do'ppi tikishni o'rgandi. Namoz o'qiydigan, ro'za tutadigan bo'ldi. Hayhotday hovlida ona-bola shumshayib qolishgan, ammo ayasi hech qachon hech kimga hasrat qilmas, do'ppi tikib topgan chaqalariga amallab ro'zg'or tebratib turishardi.

Eshon buvadan qolgan qo'rg'onning devorlari baland, hovli sahni keng edi. O'rtadagi bir tup azamat tut hovliga salqin berib turar, etakdagi otxonalar, bostirmalar huvillab yotardi. Ayasining aytishicha, bir zamonlar otxonalaru qo'ralar nazir-niyozga to'lib ketarkan. Ammo Eshon buva eldan tushgan nazirlarni elning o'zi bilan baham ko'rar, yetim-yesirlarga xayr qilarkan. Shuning uchun ham muridlar Eshon buvaga ayricha ixlos qo'yishgan ekan.

Qurbonoy ayasining gaplari rostligiga shubha qilmasdi. Buvasi shundoq mashhur eshon bo'lsa ham mol-dunyo to'plamagani aniq. Dunyoga hirs qo'ysa atigi bir uy, bir ayvonga qanoat qilmay, qo'sha-qo'sha imoratlar soldirgan bo'lardi.

Qurbonoyning esidan chiqmaydi. Dadasi qamalgan yili qish qattiq keldi. Ketma-ket qor yog'ib, sovuq zaptiga oldi. Hovlidagi tut shoxlari qor zalvori ostida egilib turar, musichalar ayvonda pildirab non-ushoq izlar, ona-bola ilimiliq tanchaga tiqilib, kechalari allamahalgacha uxlolmay yotishardi.

Shunday kechalardan birida ko'cha eshik qattiq gursilladi. Qurbonoy sandalning narigi tomonida yotgan onasi "Astag'furullo, o'zing panohingda asra, Xudoyim", deb o'rnidan turganini ko'rdi. Onasi tokchadagi yettinchi lampani yoqdi. Qurbonoyning yuragi gupillab urar, o'rnidan turishga majoli yo'q edi.

— Kim, aya? — dedi qo'rquvdan titrab.

Ko'cha eshik hamon gursillar edi.

— Bilmasam... — Onasi egniga eski kamzulini kiya turib tag'in Ollohga tavallo qildi. — O'zing asra, yaratgan Egam!

Qurbonoy lampani kafti bilan pana qilgan ko'yi ayvonga yo'l olgan ayasiga ergashdi. Hovlini qalin qor bosib yotar, ammo havo ochiq, sovuq edi. Ona-bola kalishni poyma-poy kiygancha, katagiga mushuk oralagan kaptardek tipirchilab, eshik oldiga borishdi.

— Kimdi? — dedi onasi ovozi qaltirab.

Darvoza ortidan erkak kishining dag'dag'ali buyrug'i eshitildi:

— Oching!

Onasi battar titrab-qaqshagan ko'yi qayta so'radi:

— Kimsiz o'zi?

— Qonun nomi bilan buyuraman! Och!

Buyruq shu qadar qat'iy ediki, onasining qo'li qaltirab, lampaning shishasi jiringlab ketdi. Behush bir tarzda tambani sura boshladi.

— Ochmang, aya! — dedi Qurbonoy yig'lamsirab. — Ochmang, yomon odamlar!

— Bo'lasanmi-yo'qmi? — Narigi tomondan yanayam dag'dag'ali tovush keldi. — Buyruqqa bo'ysunmasang, qonun oldida javob berasan!

— Mana, hozir... — Onasi titroq qo'li bilan, amallab tambani surdi.

O'sha zahoti eshik ochilib qora charm plash, shapka kiygan odam ostona hatlab kirdi.

— O'lib qolganmisan! — dedi g'azabdan tishi g'ijirlab.

Qurbonoy chiroq yorug'ida tanidi: bu o'sha! Dadasini olib ketgan odam. Soqoli qirtishlab olingan. Shapkasini quyuq qoshi ustiga bostirib kiygan, ko'zlari yonib turibdi.

— Kim bor uyingda? — dedi atrofga alanglab.

— O'zimiz... — onasi shapkalining ketidan boshqalari ham kelishi muqarrardek tag'in bir lahza turib qoldi. Hamon qo'llari qaltirar, lampa shishasi nola chekkandek ojiz jiringlardi.

— Boshla! — dedi shapkali iyagi bilan imo qilib.

Avval onasi, ketidan shapkali, uning ketidan Qurbonoy qori kuralgan so'qmoqdan tizilishib ayvonga chiqishdi. Onasi kalishini yechmay kavshandozda turib qoldi.

Shapkali past, tahdidli ohangda tag'in hukm qildi:

— Boshla!

Onasi kalovlanib uyga kirdi. Shapkali uning ketidan ergashdi. Ammo ichkari kirmadi. Kavshandozda to'xtab qoldi.

— Chiroqni qo'y! — dedi sandalga imo qilib.

Qurbonoy ayvon o'rtasida to'xtab qolgan, shapkalining niyati nimaligiga aqli yetmas, hamon qo'rquvdan yuragi gursillab urar, faqat bir narsani aniq bilar edi: bu yomon odam. Dadasini olib ketgan!

Onasi talmovsirab, ichkari kirdi. Chiroqni sandal ustiga qo'ydi shekilli, ayvonni yarim zulmat chulg'adi. Faqat ochiq eshikdan chiroqning qizg'ish nuri tushib turardi.

Shapkali etigini yechmay, shiddat bilan uyga otilib kirdi. Qurbonoy nima gapligiga hamon tushunolmay, kavshandozga keldi. Onasi sandal yonida qo'rquvdan ko'zlarini katta-katta ochgancha qunishib turardi. Shapkali negadir, o'ng qo'lini charm paltosining cho'ntagiga suqib, uy to'riga bordi. Chap qo'llab kirpech, dorpechlarni shart-shart uzib tushirdi. Ko'rpa-to'shak yig'ilgan taxmonlarni birma-bir ko'zdan kechirib chiqdi. Ko'rpacha ustiga etikli oyog'i bilan cho'kkalagancha sandal ko'rpasini ham ko'tarib ko'rdi. Qiziq, o'ng qo'li hamon cho'ntagida edi.

Oxiri, ko'ngli bir qadar joyiga tushdi shekilli, qaddini rostladi.

— Ko'tar! — dedi chiroqqa imo qilib.

Qurbonoy ajdar sehriga duch kelgan quyondek hamon qotib turgan onasiga qaradi-yu, dod solib yig'lagisi keldi. Ajab, negadir yig'lay olmadi. Ich-ichidan otilib kelgan faryod tomog'ida tiqilib qolganga o'xshardi.

— Kimni qidiryapsiz? — dedi nihoyat onasi tilga kirib. — Kim kerak o'zi sizga?

Shapkalining ko'zlari tag'in chaqnadi.

— Ko'tar! — dedi tahdid bilan.

Onasi chiroqni ko'tarib kavshandozga chiqqanida Qurbonoy beixtiyor chetlab, yo'l berdi. Shapkali unga qayrilib ham qaramadi. Go'yo qadami ostida paydo bo'lgan chuvalchangni ko'rmagandek.

Qurbonoy sarpoychan kalish kiygan onasining chiroq tutgancha g'arch-g'urch qor bosib borayotganini ko'rib turar, achinar, ammo nima qilishini bilmas edi. Shapkali esa uning ketidan ergashib borardi.

Bostirmaga, molxonaga, hatto hovli burchagidagi hojatxonaga ham kirib-chiqishdi. Qurbonoy ayvon ustuniga suyanib turar, eski kalishidan zax o'tib, oyoqlari muzlab ketganini his etar, joyidan jilishga qo'rqar edi. Hovlining burchak-burchaklarini aylanib chiqishdi. Oldinda chiroq tutgan onasi, orqasida charm paltosining o'ng cho'ntagiga qo'l solgan, mushukdek ehtiyotkorlik bilan qadam bosayotgan shapkali...

Nihoyat, ayvonga qaytib kelishdi. Onasining es-hushi endi joyiga keldimi, yo qizi sovuqda dildirab ketganini his etdimi, xiyla dadil, mehribon ohangda koyidi:

— Uyga kirmaysanmi, jon qizim! Muzlab ketding-ku!

Shapkali Qurbonoyga tezgina qarab oldi-yu, hech nima demadi. Kavshandozda engashib, etigini yechdi. Lekin o'ng qo'lini hamon cho'ntagidan olmadi. Sandalga oyog'ini tiqqanidan keyingina Qurbonoy sovuq jon-jonidan o'tib ketganini sezdi. Yelkalari silkinar, a'zoyi-badani titrar, negadir nafas olishga qiynalardi.

Qiziq, shapkali ham sandalning bir tomoniga cho'kdi. Oyog'ini sandalga tiqib, bir zum ko'zlarini yumib turdi-da, buyurdi:

— O'tiring! Nega qaqqayib turibsiz?

Ajab, bu safar negadir sizlab gapirdi.

Tokcha oldida turgan onasi bosh chayqadi.

— Ziyoni yo'q, men turaveraman...

— O'zingiz bilasiz... — Shapkali boshidan shapkasini yechib, sandal ustiga to'nkarib qo'ydi. Ikki chakkasidagi sochlari yoyilib, qulog'iga tushdi. Uch oy oldin dadasini olib ketayotganida bu odam Qurbonoyning ko'ziga Azroildek vahimali ko'ringan edi. Yo'q, hammaga o'xshagan odam ekan. Qalin qoshli, yuzlari qoramag'iz. Lablari yupqa... Faqat soyasi devga, sochlari paxmaygan alvastiga o'xshaydi.

— Sandal — jonning rohati-da, — dedi to'satdan. — Birpasda badaning yayraydi.

Shunday deb, jilmaydi. Qarang! Jilmayishi ham odamga o'xsharkan! Yupqa lablari yoyilib, ko'zlari suzilib ketarkan.

— E, o'tirsangiz-chi, Fotimaxon! — dedi bir qadar samimiyat bilan.

Qurbonoy onasiga iltijo aralash termildi. O'tirsa-chi ayasi! Nima qiladi jahlini chiqarib?

Onasi bir nuqtadan ko'z uzmay turar, sarpoychan oyog'i go'shtdek qizarib ketgan edi.

— Dadasi tirikmilar? — dedi nihoyat tilga kirib. — Jonlari omonmi?

— Bunisi sizga bog'liq! — Shapkasini yechib qo'ygan "shapkali" tag'in kulimsiradi.

— Xat-xabar bormi?

— Bunisiyam sizga bog'liq! — shapkasiz "shapkali" sandaldan qo'llarini chiqarib, kaftlarini g'ayrat bilan ishqaladi. — Bizga

bir xatni topishda yordam bersangiz, eringizdan xat olishga ruxsat etamiz.

— Nima deganingiz bu? Qanaqa xat? — Onasi ko'zlari hayratdan kengayib so'radi. — To'lagan akamning hamma narsalarini olib ketdinglar-ku, yana nima kerak?..

Shapkasiz "shapkali" qah-qah urib kuldi. Qurbonoyning yuragi zirqillab ketdi. Umrida bunaqa sovuq qahqahani eshitmagandi. Yo'q, bu kulgi emas, kaltakesakning xonishiga o'xshagan mudhish bir tovush edi.

— Voy Fotima-ey! Voy mug'ombir-ey, — shapkasiz "shapkali" tag'in kaltakesakdek chirqilladi. — Sen bizni shunchalik sodda deb o'ylaysanmi? Xat qani, xat? — to'satdan vajohati o'zgarib, shu qadar g'azab bilan sandalga mushtladiki, lampa piligi lopillab ketdi. — Ering yapon razvedkachisidan olgan xatni qayoqqa tiqding?

Qurbonoy qo'rquv ichida o'rnidan turib ketdi. Onasi madori qurigandek sandal chetiga cho'kkalab qoldi.

— Soat aka! — dedi iltijo qilib. — Bandasi bilmasa, Xudoyi taolo ko'rib turibdi-ku! Bir joydagi odammiz-ku! Olloh shohid, erimning gunohi yo'q! — U alam bilan sandal chetidagi ko'rpachani changalladi. — Yo'q! Yo'q! — dedi butun gavdasi bilan tebranib. — Nega buncha qiynaysiz odamni, baraka topgur! — Tizzasi bilan sudralib keldi-da, ko'zidan duv-duv yosh oqib yolbordi. — Iloyo martabangiz bundan ham baland bo'lsin. U dunyoyi bu dunyo g'am ko'rmang! Dadasini chiqarib yuboring, Soat aka! Bittagina bolamni yetim qilmang!

— Nari tur-e! — "Soat aka" hazar qilgandek, o'zini chetga oldi. — Xat qani, xat? — dedi o'kirib.

"Soat aka"ning vajohati shu qadar tahdidli ediki, Qurbonoy onasiga yopishdi.

— Turing, aya! — dedi chirqillab. — Yig'lamang, ayajon!

Shunda... onasining ham qiyofasi birdan qahrli tus oldi. Qurbonoy ayasini bunaqa alpozda birinchi ko'rishi edi.

— Qachon qonga to'yasan, odamxo'rlar! — dedi o'tirgan joyida namatni mushtlab. — Otamni o'ldirdilaring, ukamni bedarak yo'qotdilaring. Endi bolamniyam yetim qilmoqchimisan, Xudo bexabar!

— Aya! — Qurbonoy onasining qo'ltig'idan ko'tarishga urinar, ammo kuchi yetmasdi. — Bo'ldi, ayajon!

— Erim bilan birga o'qiganding-ku, imonsiz! — Onasi sochlari yoyilgancha faryod chekdi. — Dushman emasligini bilarding-ku, vijdonsiz! Obkeb ber! Obkeb ber, bolamning otasini! — Shunday deb "Soat aka"ning yoqasiga yopishdi.

"Soat aka"ning rangi gezarib ketdi. Kuchi boricha tarsaki tushirgan edi, onasi Qurbonoyning oyog'i ostiga shilqillab yiqildi.

— Mana senga, unsurvachcha! — "Soat aka" tag'in musht ko'targan edi, Qurbonoy chirqillab qo'liga yopishdi.

— Urmang! Jon amaki, urmang ayamni! Ayajon! Ko'zingizni oching, ayajon!

— Obke, suv-puv! — "Soat aka" ko'zi olayib Qurbonoyga dag'dag'a qildi.

Qurbonoy kalish bilan qor kechgancha qorong'i bostirmaga yugurdi. Paqirdagi suv muzlab qolgan ekan. Yog'loq bilan urib, muzni sindirguncha talay fursat o'tdi. Nihoyat, titroq qo'llari bilan to'kib-sochib yog'loqda suv olib keldi.

Onasi ko'zini ochgan, o'ng yuzi momataloq bo'lib ketgan edi. Sandal chetida hud-behud chayqalib o'tirar, "Soat aka" bir nimalarni gapirardi. Qurbonoy uning so'nggi so'zlarini eshitib qoldi:

— Gaping to'g'ri, Fotima! Bir joydagi odammiz... Lekin nima qilay, men ham davlatning odamiman-da...

Onasi Qurbonoy tutqizgan suvdan bir qultum ichib, yog'loqni kafti bilan nari surdi. Ko'zidan shashqator yosh oqib yalindi:

— Soat aka! To'lagan akam tuhmatga qolganini boshqalar bilmasa, siz bilasiz-ku, baraka topgur!

"Soat aka" bir zum o'ylanib turdi-da, charchab ketgandek xo'rsindi:

— Bolam yetim bo'lmasin, desang, xatni top!

— Qanaqa xat, tuhmat qilmay, tuhmat balosiga yo'liqqur, qanaqa xat! — Onasining chehrasida yana cheksiz alam, qaysar qat'iyat paydo bo'ldi. Qo'shqo'llab, tizzasiga shapatilay ketdi. — Nima qilay axir! Nima dey? Xudoga ishonmasang! Qur'onga ishonmasang! Bitta-yu bitta bolamni o'rtaga qo'yib ont ichsam ishona-

sanmi? Yolg'on gapirsam iloyo, yakka-yu yolg'iz qizimning o'ligini ustida o'tiray! Maylimi? Agar sen tuhmat qilayotgan bo'lsang, u dunyo-yu bu dunyo kun ko'rgin-u, kuni ro'shnolik ko'rmagin! Xo'pmi? Bolalaringning o'ligini ustida o'tirgin, maylimi?

"Soat aka" pinagini buzmadi.

— Xat? — dedi istehzoli kulimsirab. — Xat qani?

— Ana! Xohlagan joyingni qidir! — onasi qat'iy qarorga keldi shekilli, Qurbonoyga anchayin osoyishta ohangda buyurdi. — Yot, qizim, uxla!

Qurbonoy hamon qo'lida tutib turgan yog'loqni tokchaga qo'ydi. Endi sandal chetiga o'tirmoqchi edi, "Soat aka" g'udrandi:

— Qizingga ayt, chiqib ketsin. Obisk qilaman. Qo'limda order bor!

— Qizim senga xalaqit bermaydi, — dedi onasi allanechuk vazminlik bilan. — Xohlagan joyingni tekshiraver.

— Chiqsin! — "Soat aka" tishlarini g'ijirlatdi. — Men yosh avlodda sovet organlariga qarshi kayfiyat uyg'otishni xohlamayman! Ayt, chiqib ketsin!

Onasi bir zum ikkilanib turdi-da, egnidagi kamzulni yechib Qurbonoyga uzatdi.

— Kiy, bolam... Mayli, ayvonga chiqib tur.

Qurbonoy ayvonga chiqib, ustunga suyandi. Tiniq osmonda yetim oy g'arib mo'ltirar, sovuq yulduzlar diydirar edi. Ichkaridan sado chiqmas, faqat ahyon-ahyonda qog'ozlarning shitir-shitiri eshitilib qolardi... Qurbonoy shu ko'yi ancha turdi. Oyog'idan yax o'tib ketdi. Ich-ichidan muzlatib yuborayotgan sovuq titroqni bosish uchun chuqur-chuqur nafas olib ko'rdi. Tishlari takillab yer tepindi. Oxiri, uyqu bosdi. Ayvon burchagiga borib, g'ujanak bo'lib o'tirdi. Ko'chada qolgan mushuk boladek...

Bir mahal eshik zanjiri shiqillagandek bo'ldi. Umid bilan o'sha tomonga qaradi-yu, negadir ichkaridan nur tushmay qolganini ko'rdi. Nimadan qo'rqayotganini o'zi anglamay, oyoq uchida eshik oldiga bordi.

Qulog'iga hansiragan ovoz kirdi.

— Yechin! Bo'l tez!

— Yo'qol! Qoch, iflos! Hozir dodlayman!

— Dodla! Dodlayver, unsur! Obisk paytida menga pichoq o‘qtaldi, deyman-da, otib tishlayman!

— Bu qanaqa bedodlik!

— Yaxshi ko‘raman, seni, tentak! Esingdami, hov o‘shanda qor otganim? Hazillashgan edim, jinni! Yomon qarg‘aganding... Men seni... seni... o‘shanda yaxshi ko‘rib qolganman.

— Qoch! Qoch, imonsiz! Yo Xudo! Bu qanday sharmandalik! Ayvonda bo‘y yetgan qizim turibdi!

Qurbonoy eshikni itargan edi, ochilmadi. Ichkaridan zanjirlab qo‘yilgan ekan.

— Aya! — dedi chinqirib. — Ayajon! Oching! Qo‘rqib ketyapman!

Eshikni mushtlay boshladi.

Ichkarida bir zum sukut cho‘kdi. Keyin “Soat aka”ning g‘o‘ldiragan ovozi keldi.

— Qizingning bo‘yi yetib qolganmi?.. Yaxshi! Chaqiraqol qizingni!

— Aya! — Qurbonoy eshikni tepkiladi. — Ayajon!

— Davay! — “Soat aka” tag‘in g‘o‘ldiradi. — O‘zing hal qil. Yo sen, yo qizing...

— Qurbonoy! — Bu onasining ovozi edi. — Qurbonoy! Ket! Ket bu yerdan! Tezroq!

Qurbonoy ketishi kerakligini tushundi. Ammo qayoqqa borsin yarim kechada? Kimnikiga boradi? Eshik oldida turaverdi.

Ichkaridan yana hansiragan tovush keldi:

— Soching muncha uzun, Poti? Ayb o‘zingda. Xalq dushmaniga balo bormidi? Menga tegsang-ku... Menga qara, Poti... Yig‘lamagin... Haliyam bo‘lsa kechmas... “Erim xalq dushmani ekanini bilmagandim, voz kechaman”, deb bitta tilxat yozsang, gazetada chiqaramiz. Keyin... Qizingni eng yaxshi institutlarda o‘qitamiz, idrokli ko‘rinadi. Fotima, bo‘ldi, endi, yig‘lamagin...

Qiziq, Qurbonoy hech nimani o‘ylagisi kelmasdi. Endi oyoqlaridan muz o‘tmas, sovuqdan yelkalari titramas, faqat uyqusi kelardi. Shuursiz bir alpozda ayvon burchagiga bordi. Boshini muzdek devorga bosgan ko‘yi uyquga ketdi. Tush ko‘ribdi. Gullagan olmazor emish. Qor yog‘ib turganmish. Qorlar yog‘ib-yog‘ib olma

shoxlariga qo'narmish-da, gulga aylanib qolarmish. Qurbonoy olma tagida yotgan emish. Bir mahal gullagan olmazor orasidan dadasi chiqib kelibdi.

Boshida yangi do'ppi, egnida jujuncha xalat, shim emish. "Qurbonoy, tur, jon qizim, seni sog'inib ketdim-ku", dermish. Qurbonoy o'rnidan turib dadasining bag'riga otilmoqchi bo'larmish-u, qaddini rostlay desa, oyoq-qo'li qimirlamasmish.

— Qurbonoy! Turaqol, jon qizim!

Bilmaydi, bu gapni tushida eshitdimi, o'ngidami? Shunisi esidaki, onasi — sochlari to'zg'ib ketgan onasi qo'ltig'idan ko'targanicha sudrab uyga olib kirdi. Sandal chetiga yotqizib oyoqlarini uqaladi, ustiga ko'rpa tortdi.

— Choy ich, jon bolam, choy ich! — dedi yig'lab.

Qurbonoy ko'zlarini yarim-yorti ochdi. Shunda ayasining qovoqlari shishib ketganini g'ira-shira ko'rdi. Tag'in uyqu bosdi.

— Uxlayman, aya, — dedi bemajol shivirlab.

Onasi uning boshini siladi, uzoq siladi. Keyin yuzidan o'pdi. Qurbonoy yuziga issiq yosh tomchilari yog'ilayotganini elas-elas idrok etar, ammo ko'zini ochishga madori yo'q edi.

Qancha yotganini bilmaydi. Bir mahal eti junjikib uyg'ondi. Sandal sovib qolgan, uy ichi nimqorong'i edi. Xayoliga "haliyam tong otmabdi-da", degan o'y keldi. Yana birpas uxlamoqchi edi, negadir ko'ngliga g'ulg'ula tushdi.

— Aya-a! — dedi yotgan joyida.

Uy ichi jimjit. Tokchadagi mushuk ko'zli soat shoshqin chiqillar, millari oltini ko'rsatib turardi. Hech nimaga idroki yetmadi: ertalabmi hozir, kechqurun?

— Aya! — dedi tag'in. Sado bo'lmagach, sirg'alib ko'rpa ichidan chiqdi. Kalovlanib ayvon tomon yurdi. Vujudida mador yo'q. Negadir oyog'ining barmoqlari achishib og'rirdi.

— Aya-a! — tovushi pastak ayvonning shiftiga urilib qaytdi. Hovli o'rtasidagi tutning qor bosgan novdalari sovuq shamoldan titrar, shoxlarning uch-uchida oqshom shafag'i yaltirardi. "Kun botayapti, shekilli, kechgacha uxlabmanmi?" degan o'y xayolidan lip etib o'tdi. Oyog'iga eski kalish kiyib, hovliga tushdi. Yana onasini chaqirdi.

Kechasi bo'lgan voqeani eslamaslikka harchand urinmasin, ayasining zor qaqshab yig'lagani, anavi "Soat aka"ning dag'dag'alari yodiga tushib, yuragiga vahima o'rmaladi. "Xadicha xolamnikiga chiqqanlar", dedi o'zini-o'zi yupatish uchun pichirlab. Muzdek kalish ichida oyog'ining barmoqlari battar sanchib og'riy boshladi. Ayvon burchagida g'ujanak bo'lib o'tirgani, onasining anavi kishiga yalinganlari yana esiga tushdi. Yo'lak tomonga yurdi.

Ko'cha eshik taqa-taq berk, tamba bostirilgan edi. Vahimasi kuchayib ketdi. Oyog'ining achishgani ham yodidan chiqib, kalishi qorga to'lgancha hovli burchagidagi molxona eshigiga bordi. Yig'lamsirab chaqirdi:

— Aya-a!

Qo'rquv ichida molxona eshigini ochdi. Nimqorong'i molxonadan chirigan xazon, eski go'ng hidi kelar edi. Qor kechib bostirma oldiga bordi. Pastak eshikni tortgan edi, negadir ochilmadi. Eshik halqasidan tutganicha kuch bilan qo'shqo'llab siltay boshladi. Zanjir ichkaridan ilib qo'yilgan, asabiy shiqirlar, ammo ochilmasdi.

— Oching, aya! Qo'rqib ketyapman! — dedi Qurbonoy baralla yig'lab.

Jon-dahdi bilan tortgan edi, zanjir uzildi chog'i, pastak eshik nolali g'iyqillab ochildi. Ichkaridan ko'zlari yiltirab turgan bir nima otilib chiqdi-da, shuvillab yonidan o'tib ketdi. Qurbonoy qo'rqqanidan dodlab yubordi. Ammo ovozi chiqmaganini keyin payqadi. Qarasa, muz bosgan ostonada o'tiribdi. "Mushuk-ku!" dedi o'ziga-o'zi dalda berib. Mushuk ayvon zinasida to'xtab, unga yovqarash qilib qo'ydi. Qip-qizil, yupqa tilini chiqarib, labini yaladi-da, unsiz sakrab ayvonga chiqdi. Qurbonoy qorga belangan etagini kafti bilan tozalagan bo'ldi. Qorong'i bostirmaga bosh suqdi. Ichkari kirishga yuragi betlamadi, bir zum turib qoldi. Keyin, dadillanib ostona hatladi. Ikki qadam bosishi bilan ko'kragi aralash yuziga muzdek narsa urilib, lopillab ketdi.

U boshini ko'tarib qaradi-yu, shundoq tumshug'i tagida ikki oyoq shalvirab turganini ko'rdi. Sarpoychan oyoqlar qorong'ida sarg'imtir rangda ko'rinar, vazmin lopillab uyoqdan-buyoqqa borib kelardi.

Qurbonoy dahshat ichida orqasiga tisarilar ekan, vassajuftiga ilingan arqonni, arqonda osilib yotgan gavdani ko'rdi. Qo'rquvni ham unutib, sarpoychan oyoqlarni changalladi.

— Aya, ayajon! — dedi chinqirib. Shunday qilsa arqon uzilib, onasi halos bo'ladigandek oyoqlarini pastga torta boshladi.

— Unaqa qilmang, ayajon! Jon, ayajon, unaqa qilmang!

Onasining oyoqlari muzdek sovuq, tayoqdek qattiq edi.

XUDO URGAN ODAM

Qurbonoy xola odatdagidek erta uyg'ondi. Achom qilib yotgan nevarasini ohista bag'ridan chiqarib, ustiga ko'rpa tortdi. Tahorat oldi.Oshxonaga kirib, gazga choy qo'ydi. Bomdodni o'qib bo'lib, *o'tganlarga imon, jumla-mo'min qatori Umidaga, nevaralariga umr* tiladi. Quruq tuhmatdan, bevaqt o'limdan saqlashni Tangridan iltijo qildi. Bir qo'lida kurak, bir qo'lida supurgi bilan pastga tushdi. Hayriyat, havo ancha ilibdi.

Gastronomning eshigi tepasida qizil chiroq yonib turibdi... Non do'koni oldiga mashina kelib to'xtadi.

Qurbonoy xola shoshilmasdan qor kuray boshladi. Birpasda terlab ketdi. Orqa tomondan Komissarning yo'g'on ovozi keldi:

— Horma, qizim!

Qurbonoy xola kurakka suyangan ko'yi xotirjam burilib qaradi.

— Salomat bo'ling, — dedi salom berib.

Komissar qora palto kiygan, tomog'ini ola-bula sharf bilan o'rab olgan, qo'lida sut bidoncha ko'tarib turardi.

— Sovqotmadingmi? — dedi mehribonlik bilan.

— Yo'q! — Qurbonoy xola jun ro'moli ostida terlab chakkasiga yopishib qolgan sochini kafti bilan siladi. — Kun tashlabdi-ku, ancha...

Komissar tomoq qirib qo'ydi.

— Xabaring yo'qmi, anavi bolani o'ldirganlar topilibdimi?

— Bilmasam, — Qurbonoy xola yelka qisdi. — Topilar...

— Topiladi! — dedi Komissar ishonch bilan. — Topilmay qayoqqa borardi?

Qurbonoy xola indamadi.

— Kelin qalay, kelin? — Komissar to'rtinchi qavatga, Rustamlarning derazasiga imo qildi.

— Jabr bo'ldi, bechoraga! Qon yig'lab o'tiribdi, sho'rlik...

— Oyoq olishi qalay? Oldiga begonalar kelmayaptimi?

— Voy, manov odamni! — Qurbonoy xola astoydil ajablandi. — Xudodan qo'rqmaysizmi?

Komissar birpas qor tepkilab turdi-da, to'satdan so'radi:

— Qalay, namoz o'qib turibsanmi?

Qurbonoy xolaning yuragi shig' etdi. Kechagi tergovchi aytgan! Yaxshi bolaga o'xshovdi-ku? Kim bilsin, tag'in...

— Kim aytdi? — dedi shoshilib. — Men namoz o'qimayman.

— O'qiysa-a-n! — Komissar barmog'i bilan po'pisa qildi. — Bilama-a-an! Men hamma narsani bilaman.

— Sut bor ekanmi? — dedi Qurbonoy xola gapni aylantirib.

— Bor ekan, — Komissar o'ylanib qoldi. — Endi borib manniy kasha pishiraman.

— Bolalaringiz xabar olmaydimi? — dedi Qurbonoy xola. — O'g'lingiz bor... Nevaralaringiz...

— Xex! — Komissar istehzoli kuldi. — Hammasi bir go'r!

— Unaqa demang, — dedi Qurbonoy xola astoydil ranjib. — Bolaning yomoni bo'lmaydi.

— Tfu! — Komissar asabiy qo'l siltadi. — Bola-chaqa boqib rohat ko'raman, deganning padariga la'nat!

Qurbonoy xolaning yuragi siqildi. Indamay qor kurashga tushdi. Birpasdan keyin qulog'i ostida tag'in Komissarning g'o'ldiragan tovushi eshitildi:

— Menga qara, Qurbonoy.

Qurbonoy xola qaddini rostladi. Komissar sut bidonini qor ustiga qo'yib, allanechuk qunishib turar, zahil yuzi o'ychan edi.

— Rostingni ayt! — dedi kinoyali iljayib. — Joynamoz ustida har kuni qarg'asang kerak meni? Ota-onang uchun, o'zing uchun... Faqat to'g'risini ayt!

— O'zimga nima qipti? — dedi Qurbonoy xola dili og'rib.

— Xex! — Komissar kaltakesakdek chirqillab kuldi. — O'zing bo'lmasa ota-onang uchun...

— Men hech kimni qarg'amayman, — dedi Qurbonoy xola ishonch bilan. — Qur'onda bitilgan: Olloh har narsani ko'rguvchidir. Tangrim hammasini ko'rib turibdi.

Komissar birpas gezarib turdi-da, bidon bandidan ko'tardi. Indamay nari ketdi.

Qurbonoy xola kurakning muzdek dastasini changallagan ko'yi uzoq turib qoldi.

Nima desa bo'ladi bu odamga?! Butun ajdodiga qiron keltirishga keltirdi. Buvasini o'ldirdi, otasini o'ldirdi, onasidan judo qildi. Ammo o'zining baxtsiz bo'lishida bu odamning aybi yo'q...

Qurbonoy xola eridan ajrashgani uchun o'kinmaydi. Shunchaki, turmushi kelishmadi, xolos.

...Onasi o'lganidan keyin amakilari ota o'rnida otalik qildi. O'rab-chirmab uzatdi. Eri yaxshi yigit edi. Halol, mehnatkash... Faqat qaynota-qaynonasi Qurbonoyni hech jini suymadi. Kelin bo'lib tushgan oilasi zamonaviy ekan. Qaynotasi, — olim, qaynonasi — injener. Qurbonoy ateizm degan ilm qanaqa bo'lishini bilmas edi. Qaynotasi o'sha ilm bo'yicha olim ekan. Qurbonoy burchak-burchakda yashirib namoz o'qib yurdi-yu, ro'za tutganda qo'lga tushib qoldi. O'shanda Umida ikki yoshga chiqqan edi. Qaynotasi bir kosa suv keltirib, hozir ichasan, deb turib oldi. "O'zim kommunist bo'laturib, ateist bo'laturib, oilamda dindorlik avj olishiga yo'l qo'ymayman", dedi. Oraga kuyov aralashgan edi, "feodalizm davridan qolgan bu maxluqni qayoqdan topgansan?" deb o'dag'ayladi...

Qurbonoy qarasa, ota-bola yoqalashib ketadigan. Qizchasini ko'tardi-yu, chiqdi-ketdi. Eri so'roqlab kelgan edi, tushuntirdi. "Jon dadasi, men sizdan mingdan-ming roziman. Xafa bo'lmang, baribir turmushimiz to'g'ri kelmaydi. Men sizga munosib emasman. O'zingiz rozi bo'lib, taloq qo'ying..." Yozug'i shu bo'lsa nima qilsin!

...Komissar bo'lsa meni qarg'aysanmi, deydi.

Qurbonoy xola hamon kurak dastasidan tutib turarkan, xo'rsindi:

— Xudoning o'zi urib qo'yibdi-ku, seni, men nimangni qarg'ay.

QURBONOY XOLANING ERTAKLARIDAN

Bir kuni Haj safaridan qaytayotgan karvon shaharga yaqin joyda to'xtab, dam olibdi. O'sha yerda buloq bor ekan. Suv ichishibdi, salqinlab, xordiq chiqarishibdi... Karvonda uchinchi marta Haj qilgan nuroniy chol ham bor ekan. Chol safar bo'yi hammaning hojatini chiqargan, donishmand odam ekan.

Bir mahal shahar tomondan bitta otliq yelib kelibdi. Bo'za ichib olgan mast yigit otdan sakrab tushibdi-da, yugura kelib, cholni tarsakilab yuboribdi. Karvondagilar yigitni o'rab olishibdi. "Bu odam senga nima yomonlik qildi?" — deyishsa, mast yigit indamasmish. Odamlar uning adabini bermoqchi bo'lib shaylanib turgan ekan, chol ularni shashtidan qaytaribdi. "Tegmanglar, bu — mening o'g'lim bo'ladi", debdi. Odamlar battar g'azabga minibdi. "Bu qanday farzandki, o'z otasiga qo'l ko'tarsa!" "Mayli, — debdi chol shunda. — Bu bolada ayb yo'q. Menda ham gunoh yo'q. Otamning jazosi menga qaytdi. Bolaligimda qulog'imga chalingan edi; bir vaqtlar otam yoshlik qilib buvamni urgan ekan. O'shanda buvam duoyibad qilgan ekan..."

HAYOTNING BOSH MAZMUNI — PRINSIPIALLIK

Qurbonoyga nega unaqa dedi? "Joynamoz ustida meni qarg'aysanmi?" emish! Shuyam gap bo'ldi-yu! Qarg'ish-parg'ish, duo-duoyibad... Hammasi absurd! Chepuxa! Nega shu eshonvachcha uborshitsa bilan pachakilashdi? U kim-u, farrosh kim?

Komissar sut bidonni ko'tarib borarkan, o'zining gapi o'ziga nash'a qilib, g'ijinar edi. Qariyapsan, birodar, qariyapsan. Ko'p gapirish — keksalik belgisi, chekist esa ko'p gapirmasligi kerak...

... O'sha hodisadan keyin uylanishga qaror qildi. Biografiyasiga dog' tushib qolishi mumkin edi. Organ bunaqa narsalarni kechirmaydi. Albatta, Fotima o'zini osib qo'ygani uchun polkovnik G'aniyevni ayblaydigan mard yo'q edi. G'ing deb ko'rsin-chi, "xalq dushmani"ni himoya qilgan shubhali shaxs sifatida qiya

bo'lib ketadi! Nima qipti, G'aniyev "xalq dushmani"ning uyida tintuv o'tkazdi. Hakimovning xotini o'zini osib o'ldirdi. Bunga G'aniyevning nima daxli bor? Eshonzoda Fotima Obidxonovaning aybi bo'ynidadirki, o'ziga o'zi sirtmoq ilgandir! Qizi masalasiga kelsak... Yosh qizaloq nimani bilardi? Oila a'zosining guvohligi inobatga o'tmaydi. Fakt shuki, G'aniyev Obidxonovaga zug'um qilmadi, tan jarohati yetkazmadi. Har kim o'z joniga o'zi xo'jayin. Obidxonova o'lgisi kelgan bo'lsa — marhamat, o'laversin!

Komissar, mabodo ustidan shikoyat tushgudek bo'lsa, dalillarni qatorlashtirib qo'ygan edi. Hech qanday shikoyat tushmadi. Biroq Soat G'aniyevich endi uylanmasa bo'lmasligini his etdi. O'ylab qarasa, yoshi ham o'ttiz beshga boribdi... Ana, tengdoshi To'laganning qizi bo'yiga yetib qolibdi. Erta-indin erga tegsa, bolali bo'ladi. Dushmanmi, balomi, ishqilib uylanibdi, huzur-halovat ko'ribdi. Soat G'aniyevich nima ko'rdi dunyoga kelib?

Ko'z ochib ko'rgan xotining boshqacha bo'larkan-da! Nazira haliyam tushlariga kiradi. Yuvoshgina edi. Mayingina... To'g'ri, u paytda "Qizil to'y" qilish udum bo'lmagandi. Naziraning otasi "Bir kamim qizimning shuncha mehmon oldida kuyov bilan o'tirishini tomosha qilishim qoluvdi!" deb turib oldi. Kuyov uncha-muncha odam emas, polkovnik ekanini, NKVD bilan hazillashib bo'lmasligini tushuntirib qo'yishdi shekilli, chol shashtidan qaytdi. Esida, to'y nihoyatda xushchaqchaq o'tdi, hatto generalning o'zi ham keldi. Soat oilaviy baxt deganlari qanaqa bo'lishini ilk bor totib ko'rdi. Yarim kechada keladimi, tong-otarmi, osh-ovqati tayyor. Formasi dazmollangan. Tuflisi yaltiratib artib qo'yilgan. Uyi — chinni-chiroq...

Soat to'yning ertasiga Naziraga masalani ko'ndalang qo'ydi:

— Uydan chiqib ketayotganimda qayoqqa ketyapsiz, qachon kelasiz, demaysan. Kelganimda qayerdan keldingiz, nega shuncha yo'q bo'lib ketdingiz, demaysan. Ishim to'g'risida umuman so'ramaysan. Vazifam shunaqa!

Nazira erining hukmini quloq qoqmay bajaradigan ayollar toifasidan ekan. Soat nima desa — hammasini o'rniga qo'ydi... Soat uyda kam bo'lar, bor paytida ham er-xotin deyarli gaplashishmas edi. Qiziq, ular o'rtasida qandaydir sirli, xatarli devor turganga

o‘xshar, ikkovi ham o‘sha devorga yaqin kelsa, biron kor-hol ro‘y berishidan hadiksirab turishardi.

Bir kuni Nazira “yorildi”. Soat kechasi uyg‘onib ketdi. Qarasa, chiroq yoniq. Tepasida xotini termilib o‘tiribdi. Yuzini dog‘ bosgan, qorni katta. Pishillab nafas oladi.

— Nima gap, Nazira? — dedi Soat.

Xotini indamadi. Kiprik qoqmay o‘tiraverdi. Baayni haykal! Ko‘zi unda-yu, xayoli boshqa joyda.

— Hoy, — dedi Soat turtib, — ko‘zingni ochib uxlayapsanmi?

Xotini allanima deb pichirladi.

— Nima? — Soat uning yelkasiga beozor qo‘l tashladi.

Nazira negadir o‘zini chetga oldi.

— Qo‘rqaman... — dedi pichirlab.

Soat kulib yubordi.

— Nimadan qo‘rqasan, ovsar!

— Qo‘rqaman... — Nazira tag‘in pichirladi. — Sizdan qo‘rqaman!

— Mendan? — Soat uning yuzini silamoqchi edi, Nazira tag‘in o‘zini orqaga tashladi.

— Siz — qo‘rqinchli odamsiz! — dedi yuzini o‘girib.

Soatning jahli chiqib ketdi.

— Nima deyapsan, ahmoq! — dedi zarda bilan. Qaddini rostlab, iyagidan tutgancha xotinining ko‘ziga chaqchaydi. — Qayoqdan olding bu gapni?

Ajab, Nazira qilcha ham cho‘chimadi. Bir nuqtaga tikilib o‘tiraverdi. Anchadan keyin o‘ychan ohangda so‘radi:

— Ko‘p qarg‘ish olganmisiz?

Soatning xayoliga lop etib Fotima keldi. Yuragi shuvillab ketdi (Ajab, hech qachon bunday bo‘lmagan edi). O‘zining bir lahzalik ojizligidan o‘zi g‘azabga mindi.

— Kim aytdi? — dedi dag‘dag‘a bilan.

— Hech kim. — Nazira yuzini devor tomon burdi.

— Yo‘q, aytasan! — Soat mushtini tugdi. — Kim o‘sha ig‘vogar?

— Hech kim! — dedi Nazira uning ko‘ziga tik qarab. Keyin to‘satdan yig‘lab yubordi. — Soat aka! — dedi bo‘ynidan quchoq-

lab. — Tug'ishdan qo'rqayapman... Ko'nglim sezib turibdi. O'lib qolaman!

Soat bir qadar yengil tortdi: ha-a, gap buyoqda ekan-ku!

— Jinnimisan! — dedi yupatib. — Xotin kishi tug'adi-da! Bitta senmisan?

— Soat aka! — Nazira uning bo'yniga yanayam qattiqroq tarmashdi. — Bo'shang ishingizdan, tezroq bo'shang! Bilaman, bu ishingizda gunohga botasiz, jon Soat aka! Bittasi bo'lmasa bittasi qarg'aydi. O'zingdan qaytmasa, bola-chaqangdan qaytsin, deydi. Baribir aytadi.

Nazira es-hushini yo'qotib qo'yganga o'xshar, nuqul "bo'shang! bo'shang!" deb yolborardi.

— E, o'chir-ye! — dedi Soat toqati toq bo'lib. — Birinchidan, otstavkaga chiqishimga hali ancha bor. Ikkinchidan, men sovet ofitseriman, burchimni bajaryapman. Tushunasanmi shuni, ahmoq xotin!

O'sha kecha xotini tonggacha hiqillab yotdi. Ertalab to'lg'oq boshlandi. Nazira bekorga qo'rqqan ekan... Pahlavondek o'g'il tug'di. Otini Mauzer qo'yishdi.

Ikki yil o'tib, yana bir o'g'il ko'rishdi. Mels!

Soat to'ngich o'g'liga ayricha mehr qo'ygan edi. Mauzer o'ziga o'xshagan ofitser bo'lishini xohlardi. Harbiy intizomga o'rgansa, yurganida yer titrasa... Yo'q, Mauzer ota yo'lidan ketmadi. Jurnalist bo'larmishlar. Gazetada ishlarmishlar. Ahmoq! Kolxozmakolxoz yurib xabar yozishing qoluvdi endi. Otang ko'rgan, bunaqa "yozuvchi"lardan qanchasini! Hamma yerga burnini suqadi. Birovlarning qabulxonasida soatlab o'tiradi...

...Yo'q! Mauzer Soat G'aniyevichning o'ziga o'xshagan qaysar chiqdi. Jurnalistlikka o'qishga kirdi. Bu paytda Komissar iste'foga chiqqan edi. O'g'lining ra'yiga ko'nishdan o'zga chora topolmadi. Mauzer beshinchi kursni bitirayotganida uylantirishdi. Kelin insofli edi. Xushro'ygina, odobligina. Eng muhimi — kamgap... Nazira ikki gapning birida kelinni maqtar, o'g'lining peshonasi yaraqlaganidan xursand edi... Mauzer o'qishni bitirib respublika gazetasida ishlay boshladi...

...Bir kuni uyni mehmon bosdi: Mauzerning o'rtoqlari. Yarim soat o'tmay kvartirada qadahlar jarangi, qiyqiriq kulgu avjiga chiqdi. Komissarning g'ashi keldi. Bu xonadonda hech kim, hech qachon qiyqirib kulgan emasdi.

— Nima bu, hayvonot bog'ining eshigi ochilib ketdimi? — deb o'dag'aylagan edi, Nazira imlab, oshxonaga chaqirdi.

— Odamni sharmanda qilmang, jon dadasi! — dedi yalinib. — O'g'lingiz o'rtoqlari bilan gap yegan. Bugun Mauzerning navbati...

Oraga Mels qo'shildi:

— Qiziqsiz, dada! Akam uyimizga mehmon chaqirsa yomonmi?

Nimani biladi bular? Nimani tushunadi? O'ttizinchi yillarda xuddi shunaqa "gap" tufayli qanchasi qarmoqqa ilingan!

Kishi bilmas quloq soldi. Biri latifa aytadi, boshqasi siyosatdan oladi. Siyosatdan! Komissar G'aniyevning o'g'li allaqanday qing'ir-qiyshiq ulfatlari bilan siyosat so'qiyapti!

Ziyofat tugaguncha tishini tishiga qo'yib chidadi. Mehmonlar ketgach, Mauzerni siquvga oldi.

— Kim bular?

— Do'stlarim, — dedi o'g'li hayron bo'lib.

— Qayerda ishlaydi? Familiyasi nima?

Mauzer ichgan edi. Ko'zlari suzilib, iljaydi.

— Hammasining anketasi kerakmi?

Oraga yana Nazira qo'shildi.

— Jon dadasi, — dedi yolvorib. — Uxlanglar. Kech bo'ldi. Ertalab gaplashasizlar.

Soat G'aniyevich qarasa, o'g'lidan tuzuk-quruq gap chiqadigan emas. Ertalabgacha kutishga qaror qildi. Tong-saharda Mauzerni qaytadan so'roqqa tutdi:

— Kechagilar kim edi?

— O'rtoqlarim, — dedi Mauzer oromkursida o'tirgan ko'yi xotirjam sigaret tutatib.

— Nega siyosatga aralashadi?

— Ijtimoiy hayotga aralashmagan jurnalist yo'q, — dedi Mauzer g'o'ldirab.

— Sen ham aralashasanmi ijtimoiy hayotga?

— Albatta!

Komissar urib yuborishdan o'zini arang tiyib, o'ylanib qoldi. Xayoliga g'alati fikr keldi.

— Mayli, — dedi yon berib. — Gapga qo'shilishingga qarshi emasman. Bilaman, yigit kishining ulfati bo'lishi kerak. Faqat... — U yog'ini iloji boricha botmaydigan qilib, osoyishta tushuntirdi. — Bilasanmi, o'g'lim... Senlar yoshsan, hayotni yaxshi bilmaysan... Oralaringda sistemamizning dushmanlari bo'lishi mumkin... — Shunday deb, o'g'lining ko'ziga qattiq tikildi.

Mauzer bo'zrayib qolgan, kipriklarini ovsarlarcha pirpiratar edi.

— Yaxshi! — Komissar uning yelkasiga qoqdi. — Bemalol gapga qatnayver. Hammasining gapini eshit... Faqat... Birontasi jamiyatimizga dushman ekanini payqab qolsang...

Mauzerning og'zi lang ochilib, basharasi yanayam ahmoqona tusga kirdi.

— Nima? — dedi nihoyat. — Siz meni... meni... agent qilmoqchimisiz?! — O'sha zahoti rangi gezarib ketdi. — Ovora bo'lasiz! — dedi baqirib. Shaxt bilan turdi-da, xonadan chiqib ketdi.

Komissar umrida bunday ayanchli ahvolga tushmagan edi. "Ahmoq!" dedi ijirg'anib.

Ikki haftagacha uylari suv quygandek sukutga cho'mdi. Otabola gaplashmay yurishdi. Mels bo'lsa, umuman kamgap yigit. Sharqshunoslik kulliyotining urdu bo'limida o'qiydi. Erta ketadi, kech keladi.

Ikki haftalik sukunatdan so'ng portlash ro'y berdi. Mauzer navbatdagi gapdan g'irt mast bo'lib keldi. Oyoqda turolmaydi. Kelin qo'ltig'idan olib, yotoqqa boshlayotgan edi, Mauzer nari itardi.

— Shoshma! D-d-dadam bilan g-gaplashib olishim k-k-erak!

Nazira kelinning yoniga kirdi. Aylanib-o'rgilib, o'g'lini insofga chaqirdi.

— Qo'y, bolam, har qancha gaping bo'lsa, ertaga gaplashasan.

— Yo'qqq! — dedi Mauzer og'zidan ko'pik sachratib. — Yo hoz-z-zir, yo h-h-hech qachon!

— Ahvolini qara, bu molning! Qo'yib bersa Gamlet monologiniyam o'qib beradi, mishiqi intelligent!

— Qani, buyoqqa yur-chi!

— Dadasi, jon dadasi! — Nazira palaponini qo'riqlagan ona chumchuqdek chirqillab qoldi. — Ko'rib turibsiz-ku, holini, dadajonisi!

— Mauzer aka, qo'ying, — dedi kelin qo'rqib. — Yuring, damingizni oling.

— Siz nari turing, kelin, — Soat G'aniyevich g'azabini tiyib osoyishta tushuntirdi. — Qani nima gapi bor ekan? Eshitaylik-chi.

Ota-bola ro'baro' o'tirishdi. Biri stolning u tomonida, biri bu tomonida.

— Xo'sh, gapir. Qulog'im senda! — dedi Komissar.

— Yo'-o'q, — dedi Mauzer. — Avval bular chiqib ketsin. Oyi, chiqib turing, il-l-ltimos. Gulya, sen ham chiq-q-qib turgin. J-jon Gulya... O'z-z-zing aqll-lisan-ku!

— Bo'ldimi? Gapir endi!

Mauzer negadir kuldi — og'zidan so'lak oqizib, juda xunuk kuldi.

— Dad-d-da! — dedi iljayib. — N-n-nega mening otimni Mauzer qo'ygansiz. N-n-nima? M-m-men to'pponchamanmi?

Komissar daf'atan esankirab qoldi. Chindan nega Mauzer? Ikkinchi o'g'liga-ku, ulug' dohiylar ismini qo'ygan. Bunga-chi?

— Shu problema qiziqtirib qoldimi? — dedi qovog'ini solib.

— Q-q-qiziqtiradi. D-d-doim qiziqtiradi. — Mauzer shimining cho'ntagidan g'ijimlangan sigaret olib tutatdi. — N-n-nima? — dedi hamon iljayib. — M-men bilan b-b-birovni ot-t-tmoqchimisiz?

— Ahmoq! — dedi Komissar beozor koyib. — Men sen quroldek kuchli bo'lishingni xohlayman, bildingmi?

— Sh-shunaqa deng! — O'g'li ko'zlari yumilib-yumilib sigaret tortdi. — O'z-z-ziga ishongan odam, — dedi duduqlanib, — bir-r-rovga to'p-p-poncha o'qtalmaydi. S-s-siz o'zingizga ishonmaysiz! — Shunday dedi-da, tag'in kuldi. — Taniysizmi? — dedi to'satdan. — Faqat r-r-rostini ayting. Hamidov degan ak-ak-akademikni taniysizmi?

— Qanaqa Hamidov?

— Taniysi-i-iz! — Mauzer bosh chayqab barmog'i bilan po'pisa qildi. — Yolg'on gapirma-a-ang! Taniysiz.

— Men hech qanaqa akademik Hamidovni tanimayman.

— Bo'lmasa... — Mauzer mastona ko'zlari bilan qattiq tikilib ta'kidladi. — Bo'lmasa... u sizni taniydi. Bildizmi! U mendan s-so'radi. Siz o'sha Komissar G'aniyevning o'g'limisiz, dedi.

— Men hech qanaqa Hamidovni tanimayman! — dedi Komissar g'ijinib.

— Aldamang! Uni s-s-siz so'r-r-roq qilgansiz. T-tarixni buzib ko'rsatding, deb s-s-siz qamagansiz! — Mauzer qo'lini bigiz qilib cho'zdi. — S-siz yuborgansiz K-k-kuril orollariga! Yigirma besh yilga s-s-siz jo'natgansiz.

— Mana senga Hamidov! — Komissar kuchi boricha musht solgan edi, Mauzer o'tirgan stuli bilan qo'shilib ag'darilib tushdi. Burnidan sharillab qon keldi.

Xonaga Nazira bilan kelin uchib kirishdi.

— Voy o'lay! Voy o'lmasam! — Nazira titrab-qaqshab Mauzerni boshidan ko'tardi. — Gulnora! Suv obkeling! Tezroq!

Mauzer kaftining orqasi bilan og'iz-burnini artdi. Qiziq, birpasda kayfi tarqadimi, burro-burro gapira boshladi.

— Bilib qo'ying! — dedi tahdid bilan. — Siz o'sha akademikning tirnog'iga arzimaysiz!

— O'chir ovozingni! — Komissar stolni bor kuchi bilan mushtladi. Guldon ag'darilib, sirenlar sochilib ketdi. Dasturxon ustiga jildirab suv oqdi.

— Urmoqchimisiz? — Mauzer xotini keltirgan suvga o'tirgan joyida chala-chulpa yuz chayqadi. — Uring! — dedi achchiq iljayib. — Siz urishga ustasiz, Komissar G'aniyev. Ammo, bilib qo'ying, erta-indin hammangni siring ochiladi.

Komissar stolni shitob bilan aylanib o'tdi. O'g'lining yelkasiga tepib yerga mixlab qo'ymoqchi edi, Nazira dod solib, yo'lini to'sdi:

— Voy o'lmasam! Bu qanday ko'rgilik!

— Qo'yavering, oyi, uraversin! — dedi Mauzer. So'ng otasiga tik qaradi-da, dona-dona qilib aytdi. — Siz — qotilsiz! Hammang qotilsan! Yigirma million odamni gumdon qilgan jallodsan!

— Yo'qol ko'zimdan!

— Otlan, Gulya! — Mauzer chayqalib o'rnidan turdi. — Bu uyda turgandan ko'ra vahshiy hayvonlar bilan yashagan yaxshi. — Otasidan jirkangandek chetlab o'tdi-da, eshik tomon yo'l oldi.

Onasi o'krab yig'lagancha etagiga osildi.

— Unaqa dema, bolam. Otaning yuziga tik qarab bo'lmaydi, Mauzerjon! Esingni yig', jon bolam.

Mauzer onasining qo'ltig'idan ko'tardi.

— Turing, oyi, ketamiz. Yuring biz bilan. — To'satdan yig'lab yubordi. — Oyi! Men bu odamning o'g'li bo'lganimdan uyalib ketayapman, oyi!

Komissar kechasi bilan to'lg'onib chiqdi. Uyda bir o'zi qolgan.

Mels negadir kelmagan. Nazira esa o'g'li bilan kelinining ketidan hayhaylab yugurganicha, allaqaysi go'rga g'oyib bo'lgan edi.

Qarang, bu olifta intelligentni! O'z otangni tergashni kim qo'yibdi senga! Zamon qanaqa bo'lganini sen qayoqdan bilasan! Inqilob g'alabalarini himoya qilish kerakmidi? Mamlakatni ichki dushmanlardan tozalash kerakmidi? Bundan tashqari harbiy qasamyodga sadoqat, ofitserlik burchi, degan gaplar bor! Nega shuncha yil pisib yurgan ekan o'sha akademiging! Zamon o'zgarib endi tillari chiqib qolibdimi? Kurilga jo'natilganmi, undan narigami, itdek o'lib ketmaganiga shukur qilmaydimi! Ko'ramiz, hali charxi gardunning g'ildiragi qayoqqa qarab aylanarkin? Yer yuzida kommunizm to'la g'alaba qozonmaguncha dushmanlar bo'laveradi. Demak, qora kuchlarga qarshi kurashadigan tashkilot ham bo'laveradi!

...Nazira ertasi kechqurun qaytib keldi. Bir kunda chakkasidagi sochlarining oqi ko'payganga o'xshar edi. Uning aytishicha, Mauzer Yunusoboddagi so'qqabosh kampirnikidan ijaraga bir xona olganmish.

— Battar bo'lsin! — dedi Komissar ensasi qotib. — Burniga ozgina suv kirsin, vaysamaydigan bo'ladi.

— Dadasi, jon dadasi! — Nazira uning oyog'iga yiqildi. — Xafa bo'lmang, o'g'lingiz yoshlik qildi. Kayf ustida aljiradi-qo'ydi, gunohidan o'ting!

Mauzerning kechagi gaplari esiga tushib Komissarning vujudi yonib ketgandek bo'ldi.

— Yo'q! — dedi qat'iy qilib. — Bu — prinsipial masala! Mening Mauzer degan o'g'lim yo'q! Bu mavzuda boshqa gaplashmaymiz!

...Ikki orada Naziraning kasalga chalinib qolgani chatoq bo'ldi. Yoshi ellikdan o'tib-o'tmay qon bosimi ko'tariladigan odat chiqardi. Komissar o'zini yupatdi. Mayli, Mauzerdan ko'rmaganini Melsdan ko'radi. Mels — esli bola. Kamgap, mulohazali. Maktabni oltin medal bilan bitirdi... O'shanda Nazira g'alati gap aytgan edi:

— Bolalaringiz antiqa chiqdi-da, dadasi! Mauzer o'z kindigini o'zi kesgan xilidan. Qilaman degan ishini qilmay qo'ymaydi. Kichigi bo'lsa ichimdagini top deydi. Yakkash o'y o'ylaydi. Ming yeriga pichoq ursa bir yeridan qon chiqmaydi. Hayronman...

Xotin kishi xotincha o'ylaydi-da! Mels kam gapirib, ko'p o'ylasa yomonmi? O'qishi a'lo, mana, urdudan tashqari ingliz tilini ham mukammal o'rganib oldi. Institutni bitirsa, chet ellarga borib ishlaydi. Jamiyat ravnaqiga hissa qo'shadi. Anavi telba akasiga o'xshab ko'cha-ko'yda vaysab yurmaydi. Komissar G'aniyevning o'g'li qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yadi.

Ona — baribir ona ekan-da! Nazira kunaro Mauzerning oldiga qatnar, har gal yangi gap topib kelar edi. Ishxonasida Mauzerning hurmati zo'r emish. Bir yil ichida uy berisharmish. Gulnoraning anor yegisi kelayotganmish... Ammo biron marta "o'g'lingiz qilmishidan pushaymon, uzr so'radi", degan gap bo'lgani yo'q...

...Komissar o'ylab-o'ylab bir qarorga keldi: Melsni uylantirish kerak. Shunda onasining ko'ngli joyiga tushadi. Anavi ahmoqning oldiga kamroq yuguradigan bo'ladi... Mels yuvosh ko'ringani bilan balo ekan. To'y haqida gap ochilganida onasiga Lolanikiga sovchi bo'lib borishni tayinlabdi. Lola degani avtodorojniy institutda o'qirkan... To'y risoladagidek o'tdi. Ayni mehmonlar to'planayotgan paytda Nazira yugurgilab kelib qoldi.

— Dadasi! — dedi yayrab-yashnab. — O'g'lingiz keldi! Chiqing, so'rashing mundoq!

Komissar garangsib turgan edi, tushuntirdi:

— Mauzer keldi! Qarang, ukasiga qancha narsa obkepti!

Komissar ensasi qotib, hovliga tushdi. Bir chetda yuk mashinasi to'xtab turar, Mauzer to'yxonadagi yigitlarga ko'maklashib, mashinadan qutiga solingan televizor, xolodilnik tushirar edi. Yonida qorni do'ppayib qolgan Gulnora turardi.

Er-xotin baravar yarq etib shu tomonga qaradilar. Gulnora iymanib, salom berdi. Mauzer iljayib yaqin kelayotgan edi, Komissar yuzini chirillatib o'girdi-da, burilib ketdi...

...Rostini aytganda, Lola Komissarga ma'qul tushdi. Xushchaqchaq, chaqqon. Ishniyam boplaydi, gapniyam! Bir oy o'tmasdan hammaga laqab qo'yib ulguribdi.

Nazira aytib qoldi:

— Eshitdingizmi, dadasi, mening otim amortizator emish.

— Nima degani u?

— Uy ichimizning tinchini tutib turgan emishman. Men bo'lmasam, hamma yoq alg'ov-dalg'ov bo'lib ketarmish.

Komissar o'ylab turib, kelinning mulohazasi jo'yali ekaniga tan berdi.

— O'g'lingniyam laqabi bordir?

— Bor! — Nazira kuldi. — Domkrat!

— Nega endi domkrat?

Nazira nechundir qizarib, yelka qisdi.

— Bilmasam...

— O'zi-chi? O'zigayam ot qo'yganmi?

— Bo'lmasam-chi? Lolaxon tushmagur birinchi bo'lib o'ziga laqab topgan-da! Oyna tozalagich emish. Dvornik.

Komissarga nash'a qildi.

— Dvornik? Buni qara-ya! Birov uni cho'ri qilib qo'ygani yo'q shekilli?

— Men ham shuni so'radim. Yo'q, deydi. Men cho'ri emasman, shunchaki oyna tozalagichman, men bo'lmasam, bu xonadonga nur kirmasdi, deydi.

Bu gaplar Komissarning esidan chiqib ketgan edi-ku, bir kuni xayoliga g'alati o'y keldi. "Mengayam laqab qo'ygan bo'lsa-chi, bu mahmadona!" Naziradan shuni so'ragan edi, bosh chayqadi:

— O'libdimi? Sizdan qattiq hayiqadi kelin!

Yo'q, biron haftalardan keyin Nazira kulib-kulib aytib berdi:

— Siznikiyam bor ekan: glushitel!

— Rul desin, motor desin... Glushiteli nimasi?

— Mashinaning tutun chiqaradigan joyi bor-ku, o'shanaqa narsa ekan.

— Men shunaqa ekanmanmi? — dedi Komissar azza-bazza ranjib. — Kim qo'yibdi bu jiblajibonga...

— Yo'-o'q, dadasi, — Nazira tushuntirdi. — Gap tutundamas. Siz ovoz o'chiradigan apparat emishsiz. Bu xonadonda faqat shivirlab gaplashish mumkinmish.

...Ayni qish chillasida Nazira eshikdan hovliqib kirdi:

— Suyunchi bering, dadasi, nevarali bo'ldingiz! Gulnora o'g'il tug'di!

Komissarning ko'nglini mubham bir iliqlik silab o'tgandek bo'ldi. Biroq, Mauzerning mast bo'lib aytgan gaplari tag'in esiga tushib, yuragidagi muz yanayam qalinlashdi.

— Xotin bo'lgandan keyin tug'adi-da, — dedi sovuqqina qilib.

Nazira kattakon sumkani divanga qo'yib, ichidan bir quchoq latta-puttalar chiqardi: yo'rgaklar, ko'ylak-ishtonchalar, xalatchalar...

— Jon dadasi, — dedi yolborib. — Ertaga chaqaloqni tug'uruqxonadan olib chiqishadi. Umrim bino bo'lib sizdan hech nima so'radimmi? Iltimos, bir marta xo'p deng, boraylik... Mayli, ko'pmas, besh minutga... Bir og'iz tabriklab chiqing. Buva bo'ldingiz axir.

Komissar xotirjam qo'l siltadi:

— O'zing boraver!

Naziraning ko'zida yosh g'iltilladi.

— Odammisiz o'zi, nimasiz?! — dedi iltijo qilib. — Bir og'iz gap uchun o'z pushti kamaringizdan bo'lgan farzandingizdan kechasizmi?

— Kechaman! — Komissar har so'zini chertib ta'kidladi. — Men prinsip uchun onasidan kechgan odamman!

...Dialektika qonunlari qiziq ekan. Bugun yo'qotasan, ertaga topasan... Mauzerning xotini bitta o'g'il tuqqan bo'lsa, Melsning xotini bir yo'la ikkita — egizak tug'ib berdi: Hasan-Husan! Birpasda uylari to'ldi-qoldi...

Bolakaylarning bijir-bijir tili chiqdi, yo'lga kirdi. Bora-bora Nazira ham nevaralari bilan andarmon bo'lib, Mauzerni ko'p gapirmay qo'ydi. Nevara yaxshi bo'larkan. Xonadonga allanechuk fayz kirdi. Hasan-Husanlar yasli yoshiga yetgach, "dedushka"ga

ham ish topildi. Ikkalasini ikki yoniga olib, ertalab yasliga eltadi, kechqurun olib keladi.

...Melsni aspiranturada olib qolishdi. Komissar bunga aslo ajablanmadi. Bilimi chuqur, har tomonlama yetuk... Boshqalarga o'xshab domlalarga pul tiqishtirib o'qimadi.

Bir yildan keyin o'g'li maslahat soldi:

— Pokistonga stajirovkaga yuborishmoqchi. Uch oyga.

— Borib kel! — dedi Komissar. — Tilni tag'inam mukammal o'rganasan. Hayotni ko'rasan...

— Shunaqa-ku.. — Mels ko'zoynagini yiltiratib, xijolatli jilmaydi. — Ba'zi tashkilotlar...

Komissar darhol tushundi. Xex! Bular Komissar G'aniyevning farzandiga ishonmasa...

— Chamadoningni tayyorlayver, — dedi ishonch bilan.

...Biron oylardan keyin "uyoq"dan telefon bo'ldi. Ertaga ertalab soat o'nda "Toshkent" mehmonxonasining falon nomerida ko'rishsak, deb iltimos qilishdi.

Komissar ajablanmadi. Otstavkaga chiqqan bo'lsa ham tajribali xodim sifatida maslahatga va umuman... "ba'zi yumush"larga chaqirib turishardi.

Fuqaro kiyimidagi xodim ochiq chehra bilan kutib oldi. Komissar uni birinchi ko'rishi edi. Xodim komissarni orqavorotdan yaxshi tanishini, hurmat qilishini aytdi. Sog'ligini surishtirdi, farzandlari, nevaralarining kayfiyatini so'radi...

Daromad cho'zilib ketganidan Komissarning ko'ngli g'ash tortdi. Xayoliga lop etib Mauzer keldi. "Yana bir qiliq qilgan bu eshshak! Kim bilsin, gazetada qaltis maqola chiqarganmi? Qachongacha otasini sharmanda qiladi ahmoq!"

— Bo'pti, o'rtoq, — dedi lo'nda qilib. — Maqsadga o'taylik!

— Yaxshi, o'rtoq polkovnik! — xodim tortmani ochib, uning oldiga bir to'p gazeta tashladi. — Qarab ko'ring-chi, shular orasida birontasini taniysizmi?

Komissar, hayron bo'lib inglizcha gazetalarni varaqlay boshladi. Deyarli har bittasida Melsning ko'zoynak ortidan iljayib turgan surati bosilgan edi.

— Nima bu? — dedi oyoq-qo'lidan mador qochganini his etib.

— Nima emas, kim deng? — xodim istehzoli kuldi. — Tanimayotgan bo'lsangiz, eslatib qo'yishim mumkin: bu kimsa sobiq sovet fuqarosi Mels Soatovich G'aniyev bo'ladi! Sizning o'g'lingiz!

Komissar boshidan hushi uchib borayotganini, hozir yiqilib tushishi muqarrarligini sezib turar, tili kalimaga kelmas edi.

— Tuhmat! — dedi nihoyat butun irodasini yig'ib. — Bo'hton! Mening o'g'lim unaqa bo'lishi mumkin emas!

— Mumkin ekan-da! — Xodim allanechuk xotirjam jilmaydi. — Mels Soatovich G'aniyev Karachidagi Angliya konsulxonasiga siyosiy boshpana so'rab borgan. Sovet Ittifoqida erkinlik yo'qligini aytib, rasmiy bayonot bergan, sovet fuqaroligidan voz kechishini aytgan... O'qib beraymi?

Komissar tush ko'rayotganga o'xshar, peshonasidan do'ldek ter quyilayotgani, o'tirgan joyida muttasil chayqalayotganini o'zi bilmas edi. Bir mahal qarasa, yerda cho'zilib yotibdi.

Xodim uni qo'ltig'idan ko'tarib, og'ziga stakanda suv tutdi.

— Generalga kiraman! — dedi Komissar xirillab. — Men... boraman! Borib, o'z qo'lim bilan otib tashlayman! Otmasam, meni otinglar!

Bu gaplarni sidqidildan aytar, ammo ayni paytda qiynoq kameralari, kartiserlar, odam boshiga it kunini soladigan, najas yeyishga majbur qiladigan retsidivistlar, kalamushli gorshoklar birma-bir ko'z o'ngidan o'tar edi.

— Otaman! — dedi hayqirib. — Mening bunaqa o'g'lim yo'q! Otaman!

Qiziq. Uni qo'yib yuborishdi. Hatto "Volga"da uyigacha kuzatib ham qo'yishdi.

"Bu ham bir manyovr! — Komissar shahar markazidagi to'rt xonali uyiga horg'in chiqib borarkan, xayolidan alamli o'y kechdi. — Odatdagi usul. Endi mening kim bilan aloqam borligini kuzatishadi... Kerak bo'lsa, kvartiraga eshituvchi apparaturalarni joylab qo'yishadi... Xex! Allaqachon joylab qo'ygan bo'lsa-chi?!"

Eshikni Nazira ochdi. Erining vajohatini ko'rib qo'rqib ketdi.

— Nima gap? — dedi quti o'chib. — Nima bo'ldi?

— O'l bo'ldi! Dard bo'ldi! — Komissar alam ustida xotiniga tarsaki soldi. Nazira yuzini changallagancha kavshandozga cho'kkalab qoldi.

Ichkaridan yiltiroq xalat kiygan Lola yugurib chiqdi.

— Bolalar uxlayapti, dada! — dedi ta'naomuz. — Sekinroq gapirish mumkinmi?

— Nima? Bolalar?! — Komissar kvartiraga o'rnatilishi ehtimol bo'lgan "quloqlar" yoki pastda, yo'l chetida poylab turgan mashinadagi "lokator" eshitsin uchun ovozi boricha hayqirdi. — Itdan bo'lgan qurbonliqqa yaramaydi! Eringni nega Pokistonga jo'natding? Niyating nima edi, unsur! Ayt! — dedi Lolaning yoqasiga chang solib. — Hozir aytasan! Ering Angliya razvedkasiga sotilganini nega yashirding?

Lola, ko'zlari ola-kula bo'lib, nuqul talpinar, ammo qaynotasining chayir changalidan chiqib ketolmasdi.

— Dada! — dedi bir mahal chinqirib. — Oyim o'layaptilar, dada!

Shundagina Komissar changak bo'lib qolgan barmoqlarini kelinining yoqasidan bo'shatdi. Ishtonchan Hasan-Husanlar yotoq eshigidan mo'ralab turar, negadir ikkalasi ham iljayar edi. Nazira yo'lakda uzala tushib yotar, yuzi qordek oppoq, qimir etmasdi. Nazarida xotini makkorlik qilayotgandek tuyuldi.

— Tur, — dedi xotinining yelkasiga nuqib. — Tur, alvasti! Bu hayvonlarni sen tuqqansan! Ularni menga qarshi sen qayragansan!

Ajab! Nazira qilt etmadi. Komissar enkayib xotinining yuziga kaftini bosdi. Naziraning yuzi muzdek edi. Xuddi xolodilnikdagi go'shtdek... Qo'rquv ichida qo'lini tortib oldi.

— Chaqir! — dedi baqirib. — Skoriy chaqir! Tezroq!

Lola narigi xonaga, telefonga yugurdi. Komissar xotinining yoniga muk tushdi.

— Nazira! — dedi yelkasidan silkitib. — Onasi! Ko'zingni och, onasi!

Komissar ko'p o'limlarni ko'rgan, ammo inson bolasi bu qadar tez, bu qadar oson o'lishi mumkinligiga aqli yetmasdi. Nazira hayotida hech kim bilan olishishni istamagani kabi o'limda ham

ajal bilan tortishib o'tirgisi kelmagandek osoyishta yotar, lablarida alamli tabassum qotib qolgan, go'yo oxir-oqibat, bu azoblardan qutulganiga shukr qilgandek, sen bilan o'tgan umrimga ham, dunyoning ishlariga ham pushaymonman deb ma'yus kulayotgandek edi...

— Nazira... — Komissar o'krab yig'lab yubordi. — Tashlab ketma meni, Nazira!..

Bu — uning umrida birinchi va oxirgi marta yig'lashi edi...

* * *

Birpasda tumonat odam yig'ildi. Mauzer bilan Gulnora to'rt yashar o'g'ilchasini yetaklab kelishdi (Komissar nevarasining oti Alisher ekanini endi bildi). Xotin-xalaj, to'n kiygan, salla o'ragan chollar, Mauzerning hamkasblari bo'lsa kerak, oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib yugurgilagan yosh-yalanglar to'plandi. Komissar eshik tagida garangsib turar, ko'ngil so'raganlarga nima deb javob qilishini bilmas, shunchaki, bosh silkib qo'ya qolar, nuqul atrofga alanglar edi. Kim bular? Uni qayoqdan tanishadi? Nega bunchalik mehribonlik qiladi hammasi!..

...Tobutni olib ketishayotganida Lola ayniqsa ko'p giryon qildi:

— Onasiz o'sgandim, oyijon! Endi onali bo'ldim, degandim, oyijon!

...Komissar uch kun eshik tagiga xarrak qo'yib o'tirishga majbur bo'ldi. To'n kiyib, bel bog'lamasa ham harqalay boshiga do'ppi kiydi.

...Uchinchi kuni kechqurun Mauzer dadasini yupatdi:

— Siqilmang, dada. Biznikiga borib turaverasiz. Men bor, nevarangiz bor...

Komissarning ko'ngli yumshash o'rniga adovatga o'xshagan narsa uyg'ondi. "Shuni kutib yurgan ekansan-da, ko'rnamak. Senikiga boramanmi? Senikiga-ya?!"

Qiziq, Lola bir oy ichida lablarining ikki cheti tirishib qarimsiq bo'lib qoldi. Nazarida o'zi ham arvohga aylanib qolgandek edi. U xonaga kiradi-chiqadi. Bu xonaga kiradi-chiqadi...

Lola u bilan gaplashmasdi. Go'yo ro'y bergan qo'shaloq falokat uchun qaynotasi aybdordek.

Komissar o'ylab qarasa, umrida bironta ulfatga qo'shilmabdi. Bironta jonkuyar do'st orttirmabdi. Uyoqda Mels masalasida joni halak. Qachon chaqirib qolarkin, deb yuragini hovuchlaydi. Yo'q... Uni tinch qo'yishdi. Personalniy pensiyasini oyma-oy olib turadi. Hech kim izidan kuzatmaydi. Faqat siqiladi. Oshxonaga kiradimi, vannaxonagami, ro'parasidan Nazira chiqib kelayotgandek bo'laveradi. Buyoqda kelinning zardasi...

Erkak kishiga yolg'izlik og'ir bo'larkan. Yotishi bor, turishi bor... Nima qibdi? Yoshi endi oltmish to'rtga chiqdi. Yashashi kerakmi axir? Lola tengini topib ketsa, o'zi ham...

Bir kuni kelinini yoniga o'tqizib qo'yib gapni uzoqdan boshladi.

— Anavi xoin endi qaytib kelmaydi, — dedi ishonch bilan. — Basharti kelsa ham o'zim bo'g'ib o'ldiraman... Bir narsaga aqlim yetmaydi. Nima yetishmabdi ekan bu ablahga! Uyi bo'lsa, joyi bo'lsa, guldek xotini bo'lsa...

Lola unga yovqarash qilib mum tishlab o'tiraverdi.

— Siz nima deb o'ylaysiz, qizim? — dedi Komissar vaziyatni yumshatish niyatida ma'yuslanib. — Nega shunaqa qildiykin? Nima yetmagan ekan, unga?

Kelin istehzoli kuldi...

— Nima yetmaganini bilmaysizmi? — dedi labini asabiy burib. — Mehr yetishmagan! Tushundingizmi, mehr! Bu odam (Lola "Mels akam" demadi, "otasi" ham demadi, "bu odam" dedi), bu odam umrbod o'z uyida begona bo'lgan, tushunasizmi shuni?

Komissarning g'ashi keldi. Nima balo, kelini oqlayapti shekilli o'sha vatan xoinini?

— Bolalari-chi? — dedi g'azabdan ko'zi yonib. — Hech bo'lmasa bolalarini o'ylamaydimi, badbaxt?!

Lola yanayam istehzoli kuldi:

— Qush uyasida ko'rganini qilarkan-da...

Gap tamom bo'lgan, Komissar uyog'ini qanday "ulash"ni bilmasdi. Lola o'rnidan turib ketayotgan edi, to'xtatdi.

— Shoshmang, — dedi vazminlik bilan. — Bo'lar ish bo'ldi. Siz.. yoshsiz. Dunyodan toq o'tib ketolmaysiz-ku, to'g'rimi, qizim? Zo'r kelsa bolalarni internatga beramiz. Yaxshi internatlar ko'p. Tanishlarim bor.

Lola eshik oldida to'xtadi. Ko'zi g'azabdan qisilib ketdi.

— Erga tegaman deb ko'zim uchib turgani yo'q! O'zim yetim-xonada o'sib mana bunday bo'lganman, — dedi kaftining qirrasini tomog'iga tirab. — Bolalarimni internatga bermayman! O'zingiz uylanishni xohlab qolgan bo'lsangiz, katta ko'cha! — Shaxt bilan xonadan chiqarkan, eshittirib piching qildi. — Betingdan buzilgur, yuzsiz! Oyimning ko'ziga tuproq to'lmasdan turib...

O'sha gapdan keyin Lola butunlay o'zgardi. Nevaralari "dedushka" deb etagiga yopishsa, bobillab beradi. "Emasanmi dedushkangni? Bor uxla, ko'milib!" Tovoqni qoshiqqa, qoshiqni tovoqqa urib to'ng'illaydi: "Chol odam degani machitga chiqadi, choyxonaga chiqadi, bu nimasi, ertadan kechgacha uyda biqsib o'tirish!"

Xex! Bir kami salla o'rab namoz o'qishi qoluvdi. Komissar G'aniyev namoz o'qisa! Choyxonada pishirib qo'yibdimi? Noskash chollarning visir-visirini eshitadimi?

Komissar qat'iy qarorga keldi. Uylanadi! Har kimning joni o'ziga kerak. Bu jiblajibon bilan har kuni yuragini qon qilishdan naf yo'q. Uy o'zining nomida. G'ing desa haydab chiqaradi...

O'sha kecha Nazira tushiga kirdi. Boshiga oppoq ro'mol o'rab olganmish. Xuddi otinoyilarga o'xsharmish. Hech gapirmasmish-da, nuqul yum-yum yig'larmish. "Hech ro'mol o'ramasdingku, onasi, bu qanaqasi", deb yoniga borsa, Nazira o'zini orqaga tashlabdi. "Qoching! Qo'rqaman sizdan. Mauzerni nega urdingiz?"

Komissar ta'bi tirriq bo'lib uyg'ondi. Vannaxona tomondan nevaralarining baravar yig'layotgani, Lolaning bobillashi eshitildi:

— E, avlodingga o't tushsin! Sovunlab yuvin deyapman!

Yo'q! Bu ahvolda uzoqqa borolmaydi. Yo kelinini chopib tashlaydi, yo o'zi infarkt bo'lib o'ladi! Chala-chulpa choy ichib, ko'chaga chiqib ketdi. Uzoq aylanib yurdi. Havo dilgir, oyoq ostida xazon shitirlaydi... Bir mahal qorni ochgani bilindi. Boshi aylanib, "Lazzat" qahvaxonasiga kirdi. Sosiska olib yedi... Ertasi ham, indini ham...

Avvaliga qahvaxonada yangi xizmatchi paydo bo'lganini sezmadi. Aniqrog'i, durust razm solmagan ekan. Kirroq oq xalat kiygan xushro'ygina do'mboq juvon har kuni stolni artib, sanchqi-tarelkalarni yig'ishtirib olayotganiga keyin e'tibor berdi. Ga-

piray desa, qo'rqadi. Bir kuni dasturxon ustidagi non ushoqlarini sidirib olayotganida tashakkur bildirdi:

— Rahmat! Ovqatinglar shirin bo'pti.

— Osh bo'lsin! — dedi juvon jilmayib.

— Men har kuni shu yerda tushlik qilaman, — dedi Komissar.

— Bilaman, — Juvon yana samimiy jilmaydi.

— Qayerdan kelgansiz?

— Sverdlovskdan.

— Qachon.

— Yaqinda.

— Toshkent yoqdimi? — dedi gapga solib.

— Bo'lmasa-chi!

— Rahmat sizga! — dedi Komissar ayricha mehr bilan.

To'g'ri qildi. Bu safar shunisiyam yetarli edi.

Bir hafta ichida Natasha bilan yaqindan tanishib oldi. Toshkentga kelganiga ikki oy bo'pti. O'ttiz bir yoshda ekan. Propiskasi yo'qmish. Shu boisdan qahvaxonaning o'zida yotib yurarkan.

— Menga erga tegmaysanmi? — Komissar bu gap og'zidan qanday chiqib ketganini o'zi bilmay qoldi. Yumdalab tashlasa, nima qilaman, deb yuragi po'killab turgan edi, Natasha unday qilmadi.

Otasi (ehtimol bobosi) tengi bu odam nima deyotganini daf'atan tushunolmagandek, bir zum kipriklarini pirpiratib turdi-da, moviy ko'zlarida tabassum paydo bo'ldi.

— Propiskadan o'tkazsang, tegaman!

Sensiradimi, demak yaqin olgani shu! Mana buni ochiqcha savdo desa bo'ladi! Dunyoda o'zbek xotinlaridan injiq, kajbahsi yo'q. Go'yo uylanish faqat erkak uchun kerakdek! Uylandingmi, bo'yningga bo'yinturuq qilib osib yurishga majbursan! Oila qurish har ikkala tomon uchun zarurat ekanini o'ylab o'tirmaydi bu oynisalar! Naziraning arvohi chirqillamasin-ku, aslida bor gap shu.

— Natasha! — dedi jiddiy qilib. — Sen nima xohlasang, hammasi bo'ladi. Propiska ham, ZAGS ham... Xotirjam bo'l, o'zimdan tinchiganman. Yolg'izlik jonimga tegdi.

— Meni ham! — dedi Natasha o'ychan. Bu gapni oddiy va samimiy aytdi. Lola Natashani ko'rgan zahoti hammasini tushundi.

Serrayib qarab turaverdi. Ichkaridan nevaralari chiqib, Komissarning oyog'iga yopishdi.

— Dedushka!

— Dedushkang senlarga yangi babushka olib keldi! — dedi Lola asabiy kulib. — Yaqinda babushkang senlarga dyadya tug'ib beradi. Senlar ko'tarib yurasan!

Komissar mushtini tugib baqirdi:

— O'chir ovozingni, qanjiq!

— Men qanjiq emasman! — dedi Lola dona-dona qilib. — Orqasidan it ergashtirib yurganlarni qanjiq deydi!

— Marsh bu yerdan itvachchalaring bilan! — dedi Komissar oyoq-qo'llari asabiy qaltirab. — Bo'shatib qo'y uyni!

Lola kiprik qoqmay tikilib turaverdi.

— Birinchidan, — dedi osoyishta ohangda. — Oyimlarning suvi to'kilgan uydan ketmayman. Ikkinchidan, bolalarim bilan ko'chama-ko'cha tentirab yurmayman! Men — Gulnora emasman.

Natasha hayron bo'lib qolgan, goh Komissarga, goh Lolaga mo'ltirab qarar edi.

...Komissar uy topmasa bo'lmasligini tushundi. Kelinini ikkita bolasi bilan haydab chiqarolmaydi. Ustiga-ustak Mels masalasi qo'zg'alsa, o'ziga yaxshi bo'lmaydi. Ammo bu alvasti bilan bir xonadonda turishning ham iloji yo'q.

Nachora! Yeldi-yugurdi. Vatan oldidagi xizmatlarini hisobga olishdi. Gorispolkomning uy taqsimoti bo'yicha jamoat komissiyasiga a'zo bo'lganligi ham ish berdi. Er-xotin Qatortoldagi mana shu bir xonali uyga ko'chib kelishdi.

Natasha chaqqongina ekan. Bir kunda yangi uyga fayz kirdi-qoldi. Hamma yoq sarishta. Turmushiyam tartibga tushgandek bo'ldi. Xotini saharlab sutga g'irillatadi. Shirguruch pishirib beradi. Tushda "Sagatchik, yaxshi o'tiribsanmi, kolbasa olib chiqish yodingdan ko'tarilmadimi", deb telefon qiladi. Kechqurun qahvaxonadan kotletmi, bifshteksmi olib keladi. "Sovumasdan yeb olgin", deb og'ziga tutadi. Jinday olsang, qoning yurishadi, deb konyak ham ichiradi...

Buni qarang: umrida qo'liga kapgir ushlamagan Komissar bir oyda binoyidek osh damlashni o'rganib olsa deng! Natasha o'zbekcha palovni xush ko'rarkan.

Albatta, yosh xotin bilan turishning o'ziga yarasha g'alvalari ham bo'larkan. Natasha bir kuni tufli ko'tarib keladi. Oyog'iga kiyib uyoqqa yuradi, buyoqqa yuradi. "Yarashdimi?" deydi-da, dirkillab kelib erining yuzidan o'padi. "Yuz ellik so'm". Ertasiga palto olib keladi. Indiniga cho'milganda kiyiladigan kastumcha. Bafurja qip-yalang'och bo'lib yechinadi-da, kostyumchani kiyib kuladi. "Sagatchik, qalay, yozda Tashmoryaga oborasanmi, jahling chiqmasin, qimmat emas, yuz so'm"...

...Sportchilarda "ikkinchi nafas" degan gap bor. Sillang qurib, tamom endi, yiqilib qolaman deganingda, to'satdan "ikkinchi nafas" ochiladi-yu, vujudingda yangi kuch, yangi g'ayrat paydo bo'ladi... "Anavinaqa" masalada ham shunaqa holatlar ro'y berarkan. Yoningda oppoqqina, yoshgina, so'lqillagan juvon yotsa... Bunday pallada Natasha uni qoyilmaqom qilib erkalatar edi.

"Ax, kobel! Ax, parazit! O'n yetti yashar yigitchaga o'xshaysan-a!" Unga sayin Komissar g'ayratga minar, "maqtov"ning birinchi qismi — "itligi", "bitligi"ni emas, o'n yetti yashar yigitchaga o'xshashini o'ylab, o'zidan o'zi faxrlanib ketar edi: "Molodets Komissar! Badaningda suv bor ekanki, shundoq yosh juvonni eplayapsan! Molodets Natasha! Xotin kishi degani mana bunaqa bo'ladi! Naziraga o'xshab moldek pishillab yotmaydi. Ming xil "poza"ni biladi!"

...Shunaqa-ku... "ikkinchi nafas" qurg'ur har kuniyam ochilavermas ekan.. Natasha bo'lsa, aqalli kun ora eri "o'n yetti yashar yigitga aylanishi"ni xohlaydi... Ustiga ustak, o'zing qari, xotining yosh bo'lsa, huda-behudaga rashking qo'zg'ayverarkan... Oradan bir-ikki oy o'tib, Natasha ishidan alla-pallada keladigan odat chiqardi. Komissar siquvga ola boshladi. Deyarli kun ora shu g'alva.

Komissar so'roqqa tutadi:

— Qayoqda yuribsan? Qara. Soat necha bo'ldi?

— Qiziqmisan, Sagat? — deydi Natasha jo'ngina qilib. — Ishimni bilasan-ku. To'y bo'ldi. O'zbekning nimasi ko'p — to'yi ko'p. Tag'inam erimning jahli yomon, deb, shefdan ruxsat olib keldim.

Hammasi risoladagidek ketayotgan edi-yu, yangi yil kechasi xunuk hodisa bo'ldi. Natasha yarim kechagacha qolib ketdi. Yangi

yil kirishiga yarim soatcha qolgan edi. Bir mahal eshik jiringladi. Komissar eshikni ochsa, turibdi iljayib: ko'zlari suzilgan. Komissar:

— Ichdingmi? — deb dag'dag'a qilgan edi, Natasha yosh boladek erkalanib yuzidan o'pdi.

— Palov tayyormi? Shampan bormi? Molodes! A, mening senga syurprizim bor. Mehmon olib keldim, — dedi kulib. — Volodya, kelaver. Tanishinglar. Bu — mening erim Sagat Ganiyevich! Volodya sinfdosh do'stim. Yangi yil kutish uchun ataylab Sverdlovskdan kelibdi.

Komissar es-hushini yig'ib olmasidan og'zidan gurkirab aroq hidi anqib turgan, shtanga ko'taradiganlarga o'xshash baquvvat kelbatli yigit surbetlarcha iljayib qo'l uzatdi:

— Salom! Yangi yil bilan!

— Sagat Ganiyevich pishirgan palovni yesang, barmog'ingni yalab qolasan! — dedi Natasha yayrab-yashnab. — Volodya umrida o'zbekcha palov yemagan. Tezroq bo'laqol, Sagatchik!

Palov yegisi keptimi? Ming la'nat mehmoninggayam, o'zinggayam! Komissar ijirg'anib oshxonaga kirdi. Oshning guruchi suv terishini kutdi.

Qozonga tovoq bosib, uyga kirsa, aroqlar ochilgan, shampanlar quyilgan... Qay ko'z bilan ko'rsinki, "shtangachi" divanda Natashani bamaylixotir ezg'ilab, o'tiribdi! Komissar g'azabdan qaltirab qoldi. Tili kalimaga kelsa qani!

— Marsh! — dedi alamnok g'uldirab. — Yo'qol ikkoving ham!

— Sekin, qariya, sekin! — dedi Volodya pinagini buzmay.

— Nima qipti! — Natasha xandon otib kuldi. — O'zing eplolmaganingdan keyin...

— Ma-a-rsh! — Komissar qo'lidagi kapgirni otdi. Kapgir devorga urilib, sakrab stolga tushdi. Shampan shishasini baranglatib yorib yubordi. Volodya sapchib o'rnidan turayotgan edi, Natasha qo'lidan tortib qoldi.

— Kerakmas, — dedi yuziga sachragan shampanni kafti bilan sidirib. — Arzimaydi. O'ldirib qo'yib, balosiga qolib yurma tag'in.

Paltosini kiyaturib dona-dona qilib ta'kidladi:

— Ey, pichanni qo'riqlab yotgan qari it! Bilib qo'y, ZAGS-dan o'tganmiz, kvartirada mening ham ulushim bor. Bir oy ichida uy topib bermasang, Volodya bilan ko'chib kelib, shu yerda turamiz...

Yaxshiyam, Komissar qonun kodeksini suv qilib ichib yuborgani. Bo'lmasa enka-tinkasini chiqarib yuborardi bu xotin! Shunda ham uydagi bor bud-shudini shilib ketdi.

Jahonda eng donishmand xalq bilasizmi, kim? Avstraliya aborigenlari! Og'ir jinoyat qilganni qamamaydi. Otmaydi. Osmaydi. Yolg'iz qoldiradi. Bitta o'zini! Mana, o'n yildan oshdiki, Komissar tanho... Bitta o'zi!

To'g'ri, ora-chora veteranlar yig'ilishiga, shahar ijroqo'midagi uy taqsimoti komissiyasi majlisiga chaqirib turishadi. Lekin, majlis degani har kuni bo'lmaydi-da.

Uch-to'rt bor Mauzer keldi, xotini bilan. Yuring, dada, bunaqa g'arib bo'lib o'tirmang, dedi. Ochig'i... Komissarning ko'ngli suv ichmadi. Biladi, o'g'li butunlay boshqa dunyo. Hafta o'tmay oralarida ixtilof chiqadi.

Sog'ligidan-ku, shikoyati yo'q. Faqat asablari charchadi, shekilli. Uyga kirgisi kelmaydi.

...Kunduzi-ku, o'ziga yumush topadi. Saharlab sutga chiqadi. (Natasha o'rgatgan odat). Sut olib qaytayotganida albatta, Qurbonoyni ko'radi. Gapga soladi. Arslon qarisa kuni sichqon tutishga qoladi, deganlari shu bo'lsa kerak-da! Aqalli shu xotin bilan gaplashsa ham harna-da. Vaqt o'tadi...

Shoshilmasdan yurib uyiga kiradi. Manniy kasha yoki shirguruch qiladi. Ungacha gazeta do'koni ochiladi. Ochirid turib gazeta oladi.

Undan gastronomga kiradi. Ochiridga turadi. Nima beryapti, nima sotyapti, ahamiyati yo'q. Ochiridda tursa bas. Ochirid qancha katta bo'lsa, shuncha yaxshi. Odamlarning gapiga sekin quloq solasan. Yangiliklarni eshitasan...

Kech kirgan sayin yuragi siqilaveradi. Yolg'iz ovunchog'i — televizor. Yarim kechaga borib, uning ham ovozi o'chadi. Yotishga qo'rqadi. Yotsa, uyqusida o'lib qolayotgandek. Hamma yoq jim. Hamma yoq zimiston...

Uni xayol olib qochadi. Keyingi paytlarda har kuni emas-ku, goho-goho ko'nglining bir burchida mavhum savollar g'imirlab qoladi.

(Nega shunaqa bo'layotganini o'zi bilmaydi. Bugun Qurbonoyga "joynamoz ustida meni qarg'asang kerak", degani ham shundan bo'lsa ehtimol).

Balki Nazira hov o'shanda — to'ng'ichini tug'ish arafasida ko'p qarg'ish olganmisiz, deb so'ragani bejiz emasdir? Balki o'zi ham jinday haddidan oshib ketgandir? Shuncha odamning umriga zomin bo'lib to'g'ri qilmagandir?

U xira pashshadek bema'ni g'ing'illagan savollarni o'sha zahoti quvib soladi. Birinchidan, u umrbod ketmon urib, yer kovlab yotadigan allaqanday kolxozchi emas! Qaysi tomondan iliqroq shamol essa, o'sha yoqqa qarab egiladigan, bir qarasang feodal o'tmishni ulug'laydigan, bir qarasang g'arbga topinadigan betayin ziyoli ham emas! Komissar G'aniyevning bukilmas e'tiqodi bor! U o'zi chin dildan ixlos qo'ygan jamiyatni ichki va tashqi dushmanlardan himoya qildi. Kerak bo'lsa endi ham himoya qiladi. Ikkinchidan esa, buyruqni bajardi!

Ofitser deganning bitta-yu bitta huquqi bor: u ham bo'lsa buyruqni bajarish! Yuqoridan falonchini qama, degan buyruq keldimi, o'sha zahoti qamaydi. Surgun qil, desa, surgun qiladi. Ot desa — otadiyam... Basharti ertabirisi kuni falonchi begunoh ekan, oqlansin, degan hukm bo'lsa oqlaydi! Bu dunyo muttasil aylanib turadigan murakkab mexanizm. Odamlar o'sha mexanizmning kichik bir vintchasi, xolos. Har bitta vintcha o'z vazifasini ado etmog'i kerak. Bittasi ishlamay qolsa, ko'rasan, nima bo'lishini! Butun boshli mexanizm chok-chokidan so'kilib ketadi... Yo'q, Komissar G'aniyevning birovdan tili qisiq joyi yo'q. Nimaiki qilsa, burchini ado etdi. Vijdonan ado etdi...

U iliq suv bilan uyqu dori ichadi-da, to'shakka cho'ziladi (nazarida to'shak la'nati kun sayin sovib borayotganga o'xshaydi). Cho'ziladi-yu, ko'zini yumadi. Tun — yolg'izlarni sinash uchun yuborilgan jazo elchisi. Avval ko'zingni ko'r qiladi. Keyin qulog'ingni shang'illatadi. Undan keyin yuragingni g'ijimlay boshlaydi. Shoshilmasdan... Aloq-chaloq tushlar ko'rasan...

Yana boshlandimi?.. Anavi kim? Basharasi tanish ko'rinadi? Iye, Husanxo'ja-ku! "O'lmaganmiding?" "O'rik yeysizmi, aka-a-a? Mang, o'rik". "Obor! Obor o'rigingni!" "Yeng, aka, bitta yeng!" "Yo'qol deyman". Kulishini qarang! Kulishi muncha xunuk! Iye, skelet-ku, bu! Husanxo'janing skeleti! Tishlari irjayib turibdi. Og'zini kappa-kappa ochib "aka-a-a" deydi. Yo'qol! Iflos, unsur! Pistoletim qani, pistoletim! Kim bor? Yordam beringlar!..

Uff... Nima bo'ldi? Nega titraydi? Tush ko'rdi-ku, tush. Tushdan ham qo'rqadimi, odam? Yo'q, uxlagani yo'q edi, shekilli. Aniq ko'rdi-ya! Devor orasidan sirg'alib chiqsa bo'ladimi? Validol qayoqda edi. Uf-f-f..

RUSTAMNING IKKINCHI KUNDALIGIDAN

May oyining o'n oltinchi kuni

"Il-76"da ketyapmiz. Uyoqqa olib ketishayotganda soldatlarni qanday "bosishgan" bo'lsa, buyoqqa kelayotganda ham, shunday zichlab joylaganlar. Farqi shuki, uyoqqa borganlar orasida do'stlarim bor edi: Xayriddin, Temur aka, Sasha... Hozir atrofdagi bolalarni deyarli tanimayman: turli qismlardan to'plangan "dembillar". Yana bir farqi bor: uyoqqa sumka ko'tarib ketgan edik. Buyoqqa har bir soldat bittadan "diplomat" ko'tarib kelyapti.

Motor tovushi g'o'rillab, quloqni qomatga keltiradi. Askar bolalarning hammasi — jim. Hamma bir narsani o'ylab turibdi-yu, aytolmaydi. "Samolyotga "Stinger" tegmasa bas!"

Xayolimga bema'ni o'y keldi. Samolyotda "ikki yuzinchi" yuk bormikin? Yo'q bo'lsa kerak. O'lik tashiydigan maxsus samolyot bo'ladi, deyishadi. Aslida-ku, temir qutida yotganlarga baribir. Samolyotda olib keladimi, Hayratondan mashinada olib o'tadimi? Nima farqi bor?

Xo'p, onang sochini yulib dod soladi. Otang kavsharlangan sandiqni quchoqlab, "o'g'lim, jon bolam", deb izillaydi. Qayoqdan bilib o'tiribdi: qutida qonga belangan jasading yotibdimi, bir

poy etigingmi, yo shunchaki tuzmi?.. Sevgan qizing (agar bo'lsa) "uyoq"dan yuborgan suratingni yuziga bosib, kechasi bilan unsiz yig'lab chiqadi.

Bir mahal kabina tepasidagi qizil chiroq tahdidli yonib-o'cha boshladi. Hamma beixtiyor o'sha tomonga qaradi. Eshik ochilib, uchuvchi ko'rindi.

— Yigitlar, chegaradan o'tdik! — dedi jilmayib.

Samolyot ichi bir zumda shodon shovqinga to'lib ketdi. Birov Toshkentning havosi qanday ekan, desa, boshqasi qulupnay yegisi kelayotganini aytdi. Nariroqda diplomat ustida omonat o'tirgan bir bola kafti bilan yuzini to'sgancha yum-yum yig'layapti...

Aeroport Toshkentga o'xshamas edi (Boshqa aerodromga qo'nganimizni keyin bildim). Torgina zalga kirdik. Bojxonaning badqovoq xodimlari xuddi birov Afg'onistondan atom bombasi o'g'irlab kelayotgandek har bitta soldatning diplomatini tit-pit qilib tekshirishga tushdi.

Bir chekkada sigaret chekib turarkanman, qulog'imga juda aziz, juda qadrli kuy eshitildi. Radioda "Munojot"mi, "Cho'li Iroq"mi yangrar, nomini eslay olmasdim-u, yig'lagim kelardi.

Tashqari chiqishim bilan surmarang taksi g'irillab kelib shundoq yonboshimda to'xtadi. Yosh bo'lsa ham afti qarimsiq taksichi qo'limdagi diplomatga yopishdi.

— Chamadoning qani, soldat? — dedi shang'illab.

— Chamadon yo'q, — degan edim, shoshirdi.

— O'tir! Tezroq bo'l! Bu yerda to'xtash mumkinmas. GAI talonimni teshadi.

Qanaqa odam bu? Men taksi chaqirgan bo'lmasam!

— Avtostansiyaga! — dedim yoniga o'tirib.

— Uying qayerda o'zi?

— Uzoqda. Avtostansiyaga oborsangsiz bo'ldi.

— Qayerda turasan? — Taksichi mashinani chaqqon g'izillatib ketdi.

— Piskentda.

— Qiziq ekansan-ku, Hirotga bo'lsayam oborib qo'yarman!

— Uyoqqa taksida borishga pulim yetmaydi! — dedim to'g'risini aytib. — Avtostansiyaga oborsangiz bas.

— Puli bilan nima ishing bor! — U qo'lini paxsa qildi. — Piskentning o'ziga borasanmi axir?

Indamay bosh irg'agan edim, so'radi:

— "Afg'onmisan?" Xo'p, deyver, uka! Qalay, omon-eson keldingmi, ishqilib? Suyunganidan uyingdagilarning yuragi qoq yoriladigan bo'ldi-da! Men-chi vey! "Afg'onlarni" uzoqdan taniyman. Seniyam ko'rib, darrov bildim. Shoshma, dedim, shu bolaga bir xizmat qilib qo'yay, dedim.

Muncha shaqillaydi bu shopir!

Toshkent o'zgarmabdi. O'sha-o'sha shahar. O'sha-o'sha ko'chalar. Yo'l chetida yam-yashil daraxtlar yashnab yotibdi. Mashinalar bir-birini quvib, shamoldek yeladi. Go'yo o'n besh qadam oldinda borayotgan mashina minaga duch kelib, portlamaydigandek! Ko'chada odam muncha ko'p? Go'yo olisda, qoyalar orasida biqinib turgan snayper xohlasa besh minutda yigirmatasini yer tishlatmaydigandek...

— "Suv parisi"dan bormi, soldat?

Nima deydi bu?

— Nima?

Taksichi qah-qah urib kuldi.

— Men shoxida yursam, sen bargida yurarkansan, soldat! Oting nima?

Aytdim.

— Voy, Rustamjon-ey! Voy mug'ombir-ey! — U navbatdagi mashinani quvib o'tarkan, signalni bibiblatdi. — Mendan ham quv ekansan. Ko'rdim, diplomating yengil! Ammo-lekin bitta diplomatga ancha-muncha "suv parisi"ni joylasa bo'ladi! Bizda bir kiyimi besh yuz turadi! Eshitdingmi, besh yuz! Xo'p desang pullab beraman! Qurug'ini arra qilamiz! Kelishdikmi?

— Yo'lga qarang, aka! — dedim tishimni tishimga qo'yib. — Menda hech qanaqa "suv parisi" yo'q!

— Ola-a! — Taksichi ishonqiramay yuzimga qarab qo'ydi. — O'tgan hafta bitta kapitanni Severa Vostokka oborib qo'ygan edim. Senga o'xshab gaplashib ketdik. Ammo-lekin malades! Ko'ngli ochiq odam ekan. O'ziyam Afg'onistondan to'rtta chamadon bilan keldi, azamat. "Men ofitserman, bunaqa ishlarga uquvim yo'q, dedi. Ko'maklashib yuborsang, biznes qilamiz", dedi...

Shahardan chiqdik. Yam-yashil dalalar boshlandi. Yo'l chetida xo'ppaygan tollar, osmonga xitob qilgan mirzateraklar... Dimog'imga allanechuk qadrdon is urildi. Avvaliga eslolmadim. Nima bu? Mast qiluvchi hid qayoqdan kelayapti? Bir chaqirimcha yurgach o'ng tomondagi kumush yaproqli jiydalarga ko'zim tushdi-yu, dilim yayrab ketdi. Jiyda gullabdi, jiyda!

— Rostini ayt, uka! — dedi taksichi mashinani shiddat bilan haydab borarkan. — Chindan ham hech nima obkelmadingmi Afg'onistondan?

— Olib keldim! — dedim toqatim toq bo'lib. — Pistolet olib keldim. Cho'ntagimda turibdi.

Xudoga shukur! Uni o'chdi. Yo'l cheti yam-yashil... Bedazorlar, endi qo'shquloq bo'lib chiqqan paxtazorlar. Unda-munda qo'ylar, ola sigirlar o'tlab yuribdi.

Taksichi ko'chamiz boshida mashinani to'xtadi.

— Qaysi uy? — dedi shang'illab.

— Hov ana! Tol soyasidagi darvoza.

— Bo'pti! Tushaver! — u azza-bazza mashinasini aylanib o'tib, o'ng eshikni ochdi. — Avval suyunchisini cho'zib qo'yishsin-da, mundoq.

Es-hushimni yig'ib olguncha taksi chang ko'tarib, darvozamiz tomon yeldi. Uzoqdan ko'rib turibman. Mashina darvoza oldida to'xtadi. Taksichi jonsaraklik bilan darvozani qo'shqo'llab mushtladi. Zum o'tmay o'zini ichkariga urdi. Birpasdan keyin egnida yangi to'n, boshida do'ppi bilan qaytib chiqdi. Men tomonga imo qilib, bir nimalar dedi. Darvoza oldida turgan Ilhom akamni ko'rdim-u, yuragim orziqqancha yugurdim. Taksichi diplomatni tol tagiga qo'ydi-da, mashinasini shiddat bilan orqaga qaytardi. Akam ham men tomonga chopdi.

Mashina menga ro'para kelganida bir soniya sekinladi.

— Soldat! — dedi taksichi derazadan boshini chiqarib. — Akang bergan uch yuziga rozi bo'lsin.

Yuragim qinidan chiqib ketayotganga o'xshar, jon holatda uyim tomon yugurar edim. Akamning quchog'idan chiqdim-u bo'ynimga osilgan onamni bag'rimga bosdim. Shunda oyim tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketganini og'riq bilan his etdim. Ro'moli yelkasiga

sirg'alib tushgan, sochlari duv oqargan, bilaklari kosovdek qorayib, ingichka tortib ketgan. Xiralashgan ko'zlaridan duv-duv yosh oqar, nuqul "bolam, jon bolam", deb yuzlarimni silar edi.

Dimog'imga rayhon hidi urilib, yuragim qalqib ketdi. Bolalikdan shuurimga singgan, unutilayozgan qadrdon is... Shunaqa-ku, sochlari nega buncha oqarib ketgan? Ketayotganimda bunaqa emasdi-ku! Gavdasi nega bir tutam bo'lib qoldi. Odamzot shunchalik tez o'zgarishi mumkinmi?

— Yig'lamang, oyi, — dedim kulib. — Mana, men keldim-ku!

Oyim hamon bo'ynimga osilgancha hiqilllar edi.

— Yig'layotganim yo'q, bolam, — dedi ko'z yoshlarini artib. — Sen kelding, bolajonim. Endi hecham yig'lamayman.

Qiziq, kelinoyim ham allaqanday qarimsiq bo'lib qopti. Peshonamdan o'parkan, horg'in ko'zlarida quvonch porladi.

— Bo'ldi, oyijon! — dedi onamni yupatib. — Xudoga shukur, Rustamjon sog'-salomat qaytdilar. Endi to'y qilamiz.

— Albatta qilamiz! — Oyim ko'z yoshlari aralash jilmaydi. — Xudo xohlasa tezlashtiramiz to'yingni, Rustamjon!

Ostona hatlab o'tishim bilan oyim jonsarak alpozda kelinoyimga buyurdi:

— Salimaxon! Tez bo'ling, jon bolam! Patirni olib chiqing! Chaqqon-chaqqon!

Kelinoyim birpas garangsib turdi-da, uyga yugurdi. Zum o'tmay bir chekkasi tishlangan patirni qo'shqo'llab ko'tarib chiqdi. Onam patirni menga tutqizdi.

— Bismillo, deb tishla, bolam! — dedi ovozi qaltirab.

Ikki yil avval xuddi shu ostonada turib bir chetini tishlab ketgan patirni qo'limga oldim. Patirning kemtik qirrasida o'zimning tishlarim izi ko'rinib turardi. Bir tomonida ip osilib qolgan. Ajab, ikki yil devorda osig'liq turgan non mog'orlamagan, hatto gard ham qo'nmagandi.

— Ilohi omi-in! — Oyim kosovdek qo'llarini fotihaga ochdi. — Omon-eson kelganing rost bo'lsin, bolam! Jumla-mo'minni dilidagi niyatiga yetkazsin. U dunyo-yu bu dunyo urush bo'lmasin! Suv balosidan, o't balosidan, tuhmat balosidan yaratgan Egamning o'zi asrasin!

Hovli o'zgarmabdi. Etakdagi ikki uy bir ayvon tomiga chiqarib yuborilgan so'ritokda uzum sho'ralari osilib turibdi. Burchakdagi tandir ham, eshigi qiya ochiq molxona ham, chap tomondagi akamning shipir tomli uyi ham o'sha-o'sha.

Pastak devor oldidagi ikki tup gilos shig'il meva solibdi (Pastdagi shoxlarni jiyanchalar "qiyratgani" aniq). So'ri yonidagi olma gulini to'kkan, ammo tuggan mevasi hali mayda shekilli, qalin yaproqlar orasida ko'zga ilinmaydi. Hovli o'rtasida bir vaqtlar dadam ataylabdan Beshariqdan havas qilib oldirib kelgan qo'qongullar yashnab yotibdi. Zangori, qizil, naparmon... Gulzorning chor atrofi yashil rangga bo'yalgan pastak sim panjara bilan o'ralgan. Panjara ortida rayhonlar...

Kelinoyim birpasda yog'och so'riga joy qildi. Qavat-qavat poyandoz tashladi. Dasturxon yozdi. Oyim so'ri chetiga omonat o'tirgan ko'yi tag'in uzundan-uzoq fotiha o'qidi, kelinoyim hovliga ko'loblatib suv sepayotganda rayhon isi gurkirab ketdi.

Rostini aytsam, ochiqqan edim. Tandir nonni ishtaha bilan yeb, ko'k choy icharkanman, boyadan beri xayolimda aylanayotgan savolga endi javob topgandek bo'ldim. Hovlida nima yetishmayotganini bildim. Kiraverishda, tepasini yopib, garajga moslashtirilgan yo'lakda odatda sarg'ish "Niva" turardi. Dadam uni deyarli minmas, akam shahargami, rayongami borganda haydar edi. Hozir "garaj" supurib-sidirib qo'yilgan, devor chetida turadigan eski kanistrlar ham ko'rinmasdi. "Dadam minib ketgandir-da!"

— Dadamga xabar qildinglarmi? — dedim choy xo'plab.

— Xabar qildik, ukam, xabar qildik! — dedi akam yelkamga qoqib. — Qani, nonga qara. Oyimlarning nonlarini sog'ingansan! Oyim maladeslar-da, Rustam! Nonni o'zlari yopmasalar, ko'ngillari joyiga tushmaydi. Bugun ertalab ishga ketayotsam, xamir qorib o'tiribdilar. "Nima zaril, Salimaning o'zi yopadi", desam, nima deydilar degin? Nima dedingiz, oyi, o'zingiz ayting!

Oyim bir akamga, bir menga qarab, kulimsirab qo'ydi-yu, indamadi.

— Aytdilarki, — dedi akam tantanavor ohangda, — meni aytdi, dersan, Ilhom, bugun ukangdan yo dilgirom keladi, yo o'zi kirib keladi, xamir uchdi, dedilar. To'g'rimi, oyi?

— Tush ko'rsam... — dedi oyim yoshlangan ko'zlarini dasturxon popugidan uzmay. — Bog' emish. Ka-a-atta bog'... Bir mahal ichida ot ko'rinibdi. Oppoq ot. Qarasam, ot ustida sen o'tiribsan. Voy, bolam, qachon kelding, desam, indamay kulib turibsan. Qarasam, otni jilovi yo'q. Qo'rqib ketdim. Tushaqol bolam, tezroq tush, yiqilib netib yurmagin tag'in desam, yana indamaysan. Bir mahal dadang paydo bo'lib qoldilar. Hoy, dadasi, ushlang, anavi otni, Rustamjonni opqochib ketmasin, desam... — Oyim to'satdan jimib qoldi. Oshxona tomonga qarab, ojiz, yig'loqi ovozda chaqirdi:

— Salimaxon-u-u! Hoy, Salima! Rustamjonga qatiq bermabsiz-ku!

Oshxona eshigidan kelinoyim mo'raladi.

— Choping! — dedi oyim tayinlab. — Aqidanikiga chiqing. Bir kosa qatiq bersin. Rustamjon keldi, deng.

Kelinoyim oshxonadan chiqib, ko'chaga zing'illadi.

Hayron bo'ldim.

— O'zimizning sigir-chi?

— O'lsin! — Oyim shosha-pisha qo'l siltadi. — Qisir qoluvdi, sotib yubordik.

— Yana bittasi bor edi-ku! — dedim hayratlanib.

— Unisini go'shtga topshirdik. — Akam bepisand kuldi. — Qorni shishib ketdi. Jiyanlaring o'yinga andarmon bo'lib, beda oralab ketganini bilmay qolibdi... Sho'x-da, shumtakalar!

Rostini aytsam, jahlim chiqdi. Qishloqda turib sigir boqmasa, qanaqa gap bu?

Akam ko'nglimdan o'tganini sezdi chog'i, yelkamga shapatiladi.

— E, uka! Shungayam ota go'ri — qozixonami? Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi.

— Salima chiqquncha men ovqatga qaray, — onam inqillab so'ridan tushayotgan edi, darvoza tomondan shodon qiyqiriq eshitildi:

— Ur-re! Kichik dadam keptilar!

Akamning ikki o'g'li hovliga otilib kirdi. O'qday uchib kelib, ikkalasi ikki tomondan yopishdi. Ikkovi allaqayerda rosa futbol tepgan shekilli, terga botib ketgan.

— Menga nima obkeldiz? — dedi kattasi.

— Menga-chi? — dedi kichigi.

— Senlargami? — dedim dilim yayrab. — Jevachka olib keldim.

Yana g'alva boshlandi:

— Menga o'nta berasiz!

— Menga o'n beshta, xo'p?

— Beradi! Ikkalangayam beradi! — Oyim bolalarni mendan nari surdi. — Avval qo'shnilardan suyunchi olmaysanlarmi? Kichik dadam keldilar, demaysanlarmi?

Jiyanchalar bir zumda butun qishloqqa xabar qilibdimi, kun botmasdan mehmon bosdi. Birinchi bo'lib, Tursunboy aka chiqdi.

Belimdan siltab-siltab bag'riga bosarkan, oyimga xitob qildi:

— Aytmabmidim, xola! Rustamjon biron yeri tirnalmasdan, keladi, demabmidim! Siz bo'lsangiz yig'lab yuribsiz! To'yni tezlashtiring, to'yni! Ukamga o'zim kuyovjo'ra bo'laman! — U menga qarab, gapini tasdiqlatib oldi. — To'g'rimi, gapim? Xatda yozganmidim shuni? Ana! Gap bitta bo'ladi!

Hovliga katta joy solindi. Sho'rva tortildi, osh damlandi.

Shu paytgacha dadam kelmaganiga jahlim chiqa boshladi. Akam yupatdi:

— Toshkentda sessiya bor ekan. Hali-zamon kelib qoladilar.

...Mehmonlar tarqab, hovli jimjit bo'lib qoldi. Olma tagidagi so'rida tag'in to'rtovlon qoldik. Oyim, akam, kelinoyim, men... Vaqt allamahal bo'lib qolgan, darvoza ro'parasidagi tol tepasida muallaq to'xtagan to'lin oy mo'l-mo'l nur sochar, chigirtkalar kuyib-yonib chirillar edi.

Oy bunaqa yorug' bo'lishi yomon. Zastavada peshob qilgani ham borolmaysan. Maskaxalat-ku, gavdangni asraydi. Qoyalar panasida ko'zga ko'rinmaysan. Ammo soyang bor-ku, soyang! Bir chaqirim narida poylab turgan "dux" snayperi soyangni ko'rmaydi, deysanmi? BUR tepkisini bitta bossa...

Nima bo'ldi menga? Afg'oniston qolib ketdi-ku! Hov olislarda! Sovuq tog'lar ortida. "Qiziq, nega dadam yo'q? Soat necha bo'ldi, o'zi? Majlis shuncha cho'ziladimi?"

— Dadam qachon keladilar, aka? — dedim toqatim toq bo‘lib.

— Keladilar, ukam, keladilar. — Akam g‘ayrat bilan choy qaytarishga kirishdi. — Ba’zan sessiya uch kunlab cho‘ziladi. Bilasanku, deputat bo‘lgandan keyin...

...Ayvonda maykachan jiyanim ko‘rindi. Kichigi.

— Aya-ya! — dedi yig‘lamsirab.— Siyama-an!

Kelinoyim yugurib ayvonga chiqdi. Bolani hojatxona tomon yetakladi. O‘sha yoqdan “bo‘l tez, joyingga borib uxla!” degani eshitildi. Kelinoyim qo‘lidan yetaklab ketayotgan edi, bola gulzor ro‘parasida to‘xtadi. So‘ri tomonga burilib qaradi-da, yer tepinib xarxasha qildi.

— Jevachka! Kichik dada, jevachka! — dedi yig‘lamsirab.

— Jinnivoy-ey! Senga jevachka va’da qiluvdim-ku! — So‘ridan sakrab tushib, ayvonga chiqdim. Burchakda turgan diplomatni ochib, tish cho‘tka, sochiq singari lash-lushlar orasidan bir quti saqichni oldim.

— Ma! — dedim kulib. — Yuzta!

— Bitta o‘zimgami? — Bolakay ko‘zlari hayratdan ochilib so‘radi. — Akamga-chi?

— Akanggayam bor! — dedim mehrim tovlanib.

Kelinoyim bolaning boshini siladi.

— Bo‘ldimi, yur endi. Uxla!

Qaytib kelib so‘riga o‘tirishim bilan jiyancham ostonada tag‘in paydo bo‘ldi. Suv sepilgan hovli sahnida dikir-dikir yugurib yonimizga keldi. Chamasi butunlay uyqusi o‘chib ketgan edi.

— Ochib bering! — dedi saqichni uzatib. — Ochib bering, kichik dada-a!

Bolani tizzamga olib, saqich qog‘ozini ochdim. Bola mazza qilib chaynarkan, so‘lagi oqib iljaydi.

— Voy, kichik dada, qulupnayga o‘xsharkan! — Bir zum qarsillatib chaynab turdi-da, bo‘ynimga osildi. — Kichik dada-a, — dedi qop-qora ko‘zlarini katta-katta ochib. — Siz keldingiz-a?

— Ko‘rib turibsan-ku, keldim, — dedim kulib.

— Endi ketmaysiz-a?

— Yo‘q, — dedim gapi nash’a qilib. — Ketmayman!

Bolakay bir zum o'ylanib turdi-da, so'radi:

— Bobojonim qamoqdan chiqadilar-a?

Ichimda bir nima uzilib ketgandek bo'ldi.

Kelinoyim yugurib kelib, bolaning bilagiga chang soldi.

— Yur! — dedi tahdid bilan. — Uxlasang o'lasanmi, zumrasha!

— Yo'-o'-o'q! Kichik dadamminan o'tiraman! — Bola oyoq-qo'llarini tipirlatib chinqirdi. — Uxlamayman! Uxlamayman!

— O'chir! — Akam qo'lini paxsa qilib kelinoyimga o'dag'ayladi. — Obkir uyga!

Oyim o'tirgan joyida tebranib yig'lab yubordi:

— Xudo urib qoldi bizni, bolam! Xudoga nima yozuvdik, o'g'lim! Otang bechora shuncha yil mehnat qilib, ko'rgan kuni shu bo'ldimi, Rustamjon?

* * *

— Yur, uka, uyga kiraylik. — Akam o'rnidan turdi. — Oyi, — dedi yupatuvchi ohangda. — Siz damingizni oling. Aka-uka bir otamlashaylik.

Onam indamadi. Ammo yonimizda o'tirgisi kelayotgani ko'rinib turardi.

— Xohlasangiz, yuring, siz ham... — Akam onamning qo'lidan tutib, so'ridan tushishga ko'maklashdi.

Uchovlashib, Ilhom akamning "katta zali"ga kirdik. Akam chiroqni yoqishi bilan garangsib ostonada turib qoldim: uy deyarli ship-shiydon edi. Yangam ikkita bolali bo'lganda ham "katta zal"ni kelinning uyidek bezatib qo'yadigan odati bor edi. Servantda did bilan terilgan servizlar, taxmonda qo'sha-qo'sha baxmal ko'rpalar, devorda cho'g'dek gilamlar... Endi bo'lsa, uy o'g'ri urgandek hangillab qolibdi. O'rtada xontaxta. Atrofida to'rtta ko'rpacha. Burchakda bolaligimda dadam olib kelgan "Elektron" televizor. Bor jihoz — shu. Hatto nafis darpardalar ham qayoqqadir gumdon bo'lgan. Derazalarning yarmini to'sgan oddiy sarg'ish parda g'arib mung'ayib turibdi.

— O'tir, uka. — Akam yuzimdagi savolni uqib, xijolatli iljaydi. Shosha-pisha ko'rpachaga imo qildi. — Yuqori chiqing, oyi.

Oyim qo'llari qirsillagancha, xontaxta qirrasidan ushlab, to'rdagi ko'rpachaga cho'kdi. Akam tokchadan ochilgan aroq, ikkita piyola oldi.

— Salima! — dedi ayvon tomonga qichqirib. — Obke, rediska-pediskadan!

— Shu o'lgurni ichmasalaring nimaydi-ya? — dedi onam norozi bo'lib.

— Ko'pmas, oyi, jinday... Qani? Omon-eson qaytganing uchun!

Birinchi piyoladan keyin akamning ko'zlari qizarib, pishillab nafas ola boshladi.

— Hayron bo'layapsanmi? — dedi ship-shiydon uyga qarab. — Sotdik! Qani, ol... Mayli, uka, bosh omon bo'lsin! Dadam sog'-salomat kelsalar bas! — Bir nima daf'atan yodiga tushgandek, kulimsiradi. — Ammo sening to'yingga atalgan narsalarning ninasiniyam qimirlatganimiz yo'q. To'g'rimi, oyi?

Onam indamay bosh irg'ab qo'ydi.

— Anavi iskovichlar xo'p yopishdi, — dedi akam. — "Bu qanaqa atlas?" "Qayerdan kelgan?" "Shuncha adyolni nima qilasan? Kimdan pora olgansan?" O'zbekning to'yi shunaqa bo'ladi, kelinga qilmasa bo'maydi, desak, quloq solsa qani!

Akam yana aroq quydi.

— Qo'yaqol endi, bolam, — dedi oyim tashvishlanib. — Ukang toliqqan, damini olsin, ertaga gaplasharsanlar.

— Yo'q! — Akam alam bilan bosh chayqadi. — Eshitsin! Sen uyoqda dadamdan nega darak yo'q, deb yozasan... Buyoqda dadamni tiqib qo'ygan. Bir kechada idoraning o'zidan olib ketgan. Qo'shib yozganmish. Pora olganmish... Kun ora so'xtasi sovuqlar uyga bostirib kiradi. Yashirgan tillalaringni top deydi... Qo'lida mina izlaydigan tayoqqa o'xshagan narsa. Hamma yoqni titkilaydi. Xalajoygacha kavlab ko'rdi, to'g'rimi, oyi?

Onam boshini bir yonga tashlagan ko'yi noma'lum nuqtaga termilib o'tirar, uniqib ketgan moshrang ro'moli sirg'alib yelkasiga tushgan, oppoq sochlari to'zg'igan, ko'zlarida ma'no yo'q edi.

Ich-ichimdan titroq uyg'onib, to'satdan miyamda chidab bo'lmas og'riq turdi. Barmoqlarim muzlay boshladi. Hozir, hozir boshlanadi! Onam! Bechora onamning bir kami shu tomoshani

ko'rish edi! Jon holatda aroq shishasini yulqib olib, piyolaga to'ldirib quydim. Girihlanib qolayotgan tishlarim orasiga piyola qirrasini zo'rlab tiqib, ichdim... Qancha vaqt o'tganini bilmayman. Nihoyat, ko'z o'ngimni qoplagan sarg'ish tuman tarqalgandek bo'ldi. Xayriyat!

Qarasam, akam ko'zlari hayratdan chaqchayib, yuzimga sinchiklab tikilyapti. Boshimni nimadir tatalayotganini his etib, g'ashim keldi. Oyimning qo'llari ekan. Burilib qarasam, onam, orqamda tik turgancha ikki buklanib boshimni uqalayapti. Piyola xontaxtada to'nkarilib yotibdi.

Quti uchgan kelinoyim tumshug'imga kosa tiqishtirdi.

— Iching, icha qoling, Rustamjon! — dedi yalinib.

Suv ekan.

Kosani kaftim bilan nari surdim.

— Kerakmas.

Oyim boshimni uqalashdan to'xtadi.

— Senga nima bo'ldi, bolam! — dedi ikki yuzimni silab. — Onangni nega qo'rqitasan, jonim bolam?

Endi u yig'lamas, qovjirab qolgan ko'zlarida qo'rqinch, xavotir bor edi.

— Hech nima! — dedim iljayishga urinib. — Nega vahima qilasiz!

— Shu o'lgurni ichma devdim-ku! — Oyim akamga dashnom berdi. — Yur, bolam, — dedi yelkamni silab. — Joyingni solib beraman. Charchagansan.

Xudoga shukur! Xuruj o'tib ketdi. Boyagi araqni ichganim yaxshi bo'lgan ekan. Titroq bosildi. Qo'limning muzlashi qoldi.

— Oyi, — dedim yalinib. — Siz kirib yoting. Biz akam bilan gaplashib olishimiz kerak.

Baribir onam yonimga o'tirib oldi. Bilaman, endi bir qadam ham jilmaydi.

— Bu hangomalar, — dedi akam xo'rsinib. — Avgustda boshlandi. Maktab remonti oxirlab qolgandi. Erta-indin avgust kengashi boshlanadi... Direktor uyga odam yuboribdi. Oblastga kimni yuborish muhokama qilinishi kerak ekan. Majlisni ilmiy mudir o'tkazdi. Chorak soatchadan keyin direktor kirib keldi.

"O'rtoq Shomatov, sizni so'rashyapti", dedi. "Kim?" desam, "Chiqsangiz bilasiz", deydi. O'shandayam xayolimga yomon o'y kelgani yo'q. Faqat hayron bo'ldim. Direktor doim otimni aytib, Ilhomjon, deb chaqirardi. Chiqsam, maktab hovlisida hech kim yo'q. Darvoza oldiga kelsam, ko'k "Jiguli" turibdi, nol olti. Sen tengi yigit yonimga kelib: "Siz — Shomatov Ilhom bo'lasizmi?" dedi. "Ha", dedim, mashinaning orqa eshigini ochdi. "Marhamat, o'tiring, grajdanin Shomatov!" dedi.

Akam "Polyot"ni tutatib, chuqur-chuqur so'rdi. Zimdan onamga razm soldim. Oyim pinjimga tiqilib jimgina mung'ayib o'tirar, akamning bu hikoyalarini o'nlab, yuzlab marta eshitgan bo'lsa kerak, gapga aralashmas, chamasi eshitishni ham xohlamasdi.

— Shopirdan boshqa yana ikki kishi bor ekan. Bittasiniyam tanimayman. Shopir oldida, o'shalarning xo'jayini bo'lsa kerak, bitta semiz kishi o'tiribdi. Boyagi yigit meni orqa o'rindiqqa o'tqizdi. Yonboshimga o'zi o'tirdi. Xuddi kinolarda ko'rsatadigan shpionni qo'lga olgandek. Chap tomonimda bittasi, o'ng tomonimda bittasi.

"Shomatovning uyiga!" dedi oldingi o'rindiqdagisi.

Yuragim g'ash tortdi. Boyagi yigitdan so'radim. "Tinchlikmi, brat?" desam, haligina iljayib turgan odam ko'zini ola-kula qildi. "Men senga brat emasman, alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchi Shevelev bo'laman!" deydi. "Otang Shomatov Shomansur pripiska qilgani, katta miqdorda pora olib, pora bergani uchun qamoqqa olindi", deydi. Rost, oyoq-qo'lim bo'shashib ketdi. "Sizlar adashyapsiz, mening otam unaqa odammas, bir umr halol ishlagan. Lenin ordeni bor, deputat", dedim. Oldinda o'tirgani men tomonga qarab, mazax qilib kuldi.

Qorong'i tushguncha hamma narsani ro'yxatga oldi. Hamma yoqni tit-pit qilib tashladi.

"Nima kerak sizlarga, ayting, o'zim topib beraman", desam, "O'chir ovozingni!" deydi. Ammo oyim — malades! — Akam hamon mung'ayib o'tirgan onamga qarab qo'ydi. — Sening to'yingga atalgan ko'rpa-to'shaklarni ag'dar-to'ntar qilayotgan edi, qo'liga yopishdilar. "Kelinning sarposiga tegma, o'g'lim kelsa, uylantiraman, deb, o'z qo'lim bilan tikkanman", dedilar. Baribir, ko'rpalarning paxtasigacha titib chiqdi. "Millioner bo'lmasang, kelinga

shuncha padarkani qayoqdan olding?" deydi. Oyim, "Nima qilay bo'lmasa, senlarga o'xshab to'rt shisha aroq bilan o'g'il uylantiraymi? Men bu narsalarni yillab to'plaganman", desalar, masxara qilib kuladi. "Millionni topsang, ering qutilib chiqadi, bo'lmasa ering ham ketadi, o'g'ling ham xotin ololmay xolostyak o'tadi", deydi.

— Aroqdan bormi? — dedim ichimdan tag'in titroq kelayotganini sezib.

Oyim ko'zimga xavotirlanib qarab qo'ydi.

— Topiladi! — Akam ayvon tomonga ovoz berdi. — Sali-i-i! Oshxonani qaragin, yana bitta shisha bor edi.

Onam endi og'iz ochishga shaylangandi, keskin iltimos qildim:

— Qo'rqmang oyi, ko'p ichmaymiz. Faqat... yo'q demang. Iltimos. Kelinoyim...

Itoatkor va hamisha jilmayib turadigan kelinoyim araq shishasini keltirib, xontaxtaga qo'ydi.

— Ovqat isitib kelaymi? — dedi mung'ayib.

— Obke! — Akam jonlanib, shisha qopqog'ini buray boshladi. — Boyagi jarkopdan opke.

— Qishloqqa ofat doridi, Rustam! — dedi akam bosh chayqab. — Bitta "Kommunizm"ning o'zidan yigirma sakkiz kishi qamaldi. Ishonasanmi, dadamni izlamagan joyimiz qolmadi. Kun ora kennaying bilan tugun-tersak ko'tarib yo'lga tushamiz. MVDga boramiz, "Kommunizm" kolxozining raisi Shomatov qayerda?" desak, "Bilmaymiz, toshturmaga bor", deydi. Toshturmaga borsak, "KGBga uchrash", deydi. Buyoqda biz dadamni izlab yuribmiz, uyoqda anavilar har kuni kelib, oyimni qo'rqitadi. "Ering gumdon qilgan millionni topasan!" deydi.

Akam toliqqandek uzoq sukutga cho'mdi.

— Salima! — dedi baqirib. — Nima balo, o'zingam jarkop bo'lib ketdingmi?

Yangam tovoqda qovurdoq ko'tarib keldi.

— Keyin... — Akam yarimta kartoshkani qoshiqqa ilib chaynarkan, bo'ynini cho'zib yutindi.— Keyin meniyam qamoqqa tiqishdi. Ikki oy ushlashdi... Ichasanmi, yana jinday?! Ikki oy ushlashdi... Qiynashga qiynadi. Ikki kecha-kunduz suv bermadi. Uxlatmadi. Nima? Sen bilmaysan-da, uka. Kunduzi tik oyoqda

turg'azib qo'yadi. Kechasi bilan so'roq qiladi. Ammo rostini aytishim kerak. Urgani yo'q.

Bundan ko'ra urgani yaxshiydi! Savoli nuqul bitta: otang yashirgan xazina qayerda? Qancha tez topsang shuncha yaxshi, otang ham chiqib ketadi, sen ham!" "Hoy, odam! Otamda qanaqa xazina bo'lsin, umrbod halol mehnat qilgan, na kolxozning, na davlatning bir tiyiniga ko'z olaytirmagan", desam hammasini qaytadan boshlaydi. Buxgalter tan oldi, paxta punkti qabulchisi pokazaniye berdi, raykom tan oldi, obkom tilxat berdi. Hammasini bilamiz, deydi. Otang biridan pora olib, biriga bergan, o'rtada o'ziga ham cho'tal olib qolgan deydi. Tamom — vassalom!

— Bir kuni... — Akam eng muhim narsa esiga kelgandek, kelinoyimni chaqirdi. — Sali-i! Salima!

Kelinoyim ostonada sharpadek paydo bo'ldi.

— O'tir! — dedi akam yonboshiga imo qilib. — O'tir! Rustam eshitsin! Hammasini eshitsin! Bir kuni ertalabdan soqolimni hafsala bilan qirtishlab qoldi. Yuzimga atir sepdi. Mashinaga o'tqizib turmadan shaharga olib keldi. Bitta xonaga obkirdi. Qarasam, stol to'rida burni cho'michdek kimsa o'tiribdi. Keyin bildim. Moskvadan o'zbekni boshiga qiron solish uchun kelgan general Ambartsumyan degani shu ekan. Xo'p muloyim gaplashdi. "Siz — Shomatov intelligent odam ko'rinasiz, maktabda dars berarkansiz", dedi. Indamadim. "Demak, siz yosh avlodni sovet jamiyatining g'alabalari ruhida tarbiyalashingiz kerak", dedi. Indamay turaverdim. "Shundoq odam nega otangiz to'plagan millionlarni yashirasiz, vah-vah-vah", deydi. Otam hech qachon hech kimdan pora olmaganini, qo'shib yozmaganini aytdim. Guvohing bo'lsa yuzlashtir, dedim. Shunda nima qildi, degin? — Akam entikib nafas ola boshladi. Ko'zlari alang-jalang bo'lib buyurdi. — Chiq, Sali! Chiqib ket! Oyi, — dedi yolborib. — Jon oyi! Siz ham chiqib turing! Iltimos! Besh minutga...

Kelinoyim onamning qo'ltig'idan olib, chor-nochor ayvonga yo'naldi.

— Eshikni yop! — dedi akam baqirib. Keyin ovozini pasaytirdi. — Burni cho'michdek o'sha Ambarsumyan guvoh kerakmi senga, dedi-da tugmachani bosdi. Eshikda ko'ringan soqchiga,

Shomatovani olib kir, deb buyurdi. Qarasam, ostonada yangang turibdi. Egnida eski palto, boshida ro'mol... "Ilhom aka", deb men tomonga yurgan edi, armani, soqchiga "olib chiq" deb buyurdi. Yangangniyam, meniyam og'zimdagi og'zimda, bo'g'zimdagi bo'g'zimda qolaverdi. Keyin...— akam titroq qo'llari bilan sigaret tutatdi. — Keyin... bilasanmi nima dedi o'sha general! Shomatova Salima sening xotining bo'ladi-a, dedi. Agar otangni ustidan pokazaniye bermasang, o'marilgan millionni topmasang, ajoyib tomosha ko'rasan, dedi. Bilasanmi, yana nima dedi? — Akam hiqillab qoldi. Kaftining teskarisi bilan ko'z yoshlarini artdi. — O'n minutdan keyin xotiningni uchta retsidevist birvarakay zo'rlayotganini ko'rasan, dedi... Bittayam butun joyi qolmaydi, dedi o'sha xunasa Ambarsumyan, xotini o'nta o'ynash tutsa, hayron bo'lmas. Ammo o'zbek bunaqa gapga chidaydimi, ukam?

Akam unsiz yig'lar edi.

— O'sha gapdan keyin tamom bo'ldim! — Akam yuragi yonib ketayotgandek ko'ksini changalladi. — Dadam pora olganmas, ammo sizlarga pul kerak bo'lsa, topib beraman, dedim. Ertasiga dadam o'z qo'li bilan yozgan xatni olib kelishdi. O'sha xatni har bitta harfigacha eslayman". "O'g'lim! — deb yozibdi dadam. — Onangga tushuntir. Men-ku, aybsiz aybdor bo'lishga bo'ldim. Bor bisotni topshiringlar! Jon omon bo'lsa, mol topiladi. Onangni ehtiyot qil. Senlar tinch bo'lsang, men ham tinchiyman. Rustam bu gaplarni eshitmasin..." debdi. Uch kundan keyin meni chiqarib yuborishdi. Bilasanmi, Rustam? — akam alam bilan titradi. — O'sha kuni Salimani ering bilan svidaniye qildiramiz, qaynotangni ham ko'rasan deb olib borgan ekan. Narigi xonada dadamga ham kennoyingni ko'rsatishibdi. Menga nima degan bo'lsa, dadamga ham shuni aytgan ekan. Keliningni uch kishi zo'rlayotganini tomosha qilasan, debdi!

Og'ir, chuqur sukunat cho'kdi. Ayvon eshigidan onam jur'atsiz mo'raladi.

— Bo'ldi endi, — dedi mung'ayib. — Qolganini ertaga gaplasharsizlar.

— Keyin-chi? — dedim g'azabdan tishim g'ijirlab. — Nima bo'ldi?

— Keyinmi? — Akam istehzoli iljaydi. — Sotdik! Hammasini sotdik! Mashinani, sigirlarni, mebelni! Kelinoyingning taqinchoqlarini! Hammasini! Hatto buvamdan oyimga yodgorlik bo'lib qolgan bilakuzuklarni ham... Yig'ishtirib kelganda yuz mingga bormadi. Millionni topsang, otangni chiqarib yuboraman, degan Ambarsumyanning korchaloniga eltib berdim.

Akam yana sigaret tutatdi. Chuqur xo'rsindi.

— Sud Moskvada bo'ldi, — dedi yo'talib. — Ahmoq! Eshshak! — Akam shiddat bilan qo'shqo'llab boshiga mushtladi. To'satdan ho'ngrab yubordi. — Men ahmoqman! Eshakman! Eshshak! — dedi hansirab. — O'z qo'lim bilan dadamni qamoqqa tiqdim. Mana shu qo'llarim bilan. Eshityapsanmi, mana shu qo'llarim bilan! Nima qilay, ukam, chopib tashlasam, qutulamanmi, qo'llarimni! Dadam sudda aytdi: tergovda bergan pokazaniyelarimni tan olmayman, meniyam, o'g'limniyam majbur qilishgan, dedi. Hech kim quloq solmadi. Shomatovning o'g'li tergov gruppasiga sakson uch ming pul, yana o'ttiz ming atrofida baholangan tilla buyumlar topshirgan. Demak, Shomatov — millioner, deb turib oldi.

May oyining yigirmanchi kuni

Avtostansiya chekkasidagi avtomat-telefonda raqam terarkanman, qo'lim titrar edi. Bugun yakshanbami? Universitetga borishdan naf yo'q. Shahnoza — uyda. Anavi qaqajon singlisi dastakni ko'tarib qolsa, yana boshni qotiradi. Xayriyat, Shahnozaning o'zi oldi.

— Labbay?

Yuragim gursillab ketdi. Ikki yil kutgandim bu ovozni. Ikki yil! Sovuq qish kechalari zastavadagi "uycha"da yotganimda, karvonni kuzatib qaytayotib, olis yo'l azobidan toliqib, tank ichida mudrab qolganimda mana shu ovoz bexosdan qulog'imga chalinib, cho'chib uyg'ongan paytlarim ko'p bo'lgan...

— Shahnoza! — tovushim bo'g'iq, ishonchsiz chiqdi. Simning u tomonida bir lahza sukut cho'kdi-yu, hayrat aralash quvonchli xitob eshitildi.

— Voy! — Shahnoza entikib qoldi. — Voy?!

— Bugun soat uchda, o'sha joyda... — dedim-da, dastakni ilib qo'ydim. Hamon yuragim gursillar, shu topda boshqa gapirolmasligimni bilardim. Nariroqqa borgandan keyin, o'zimni so'kdim. "E, o'l, to'nka! Aqalli hol-ahvol so'ramaysanmi? Uydagilar yaxshi o'tirishibdimi, demaysanmi? Bo'lar ish bo'ldi. Voyenkomatga borish kerak".

Taxta to'siq ortida o'tirgan novcha kapitan norizo qiyofada o'rnidan turdi.

— Nega chest bermaysan, serjant? — dedi ko'zimga tikandek qadalib.

Yo, Xudo! Xo'p, g'alati narsa-da, bu "harbiy intizom" degani! Unvoni o'zingdan bir pog'ona balandmi, qoqqan qoziqdek g'o'daygin-da, chest ber! Tanisang ham chest ber, tanimasang ham. Hurmat qilsang ham, chest ber, qilmasang ham! O'zini bir tiyinga olmasliging mumkin. Ammo egnida mundir, yelkasida pogon bor.

— Salom, o'rtoq kapitan! — dedim fuqarochasiga oddiy qilib. Kissamdan hujjatlarimni olib, taxta to'siq ustiga qo'ydim.

— Ustav bo'yicha doklad qil! — dedi kapitan dag'dag'a bilan.

Ko'rganmiz bunaqa po'pisalarni! To'g'ri, hali "sovet fuqaro"siga aylanganimcha yo'q. Oddiy "dembil"man, xolos. Ammo qaytadan harbiy xizmatga yuborish qo'lidan kelmaydi. Nari borsa, bir oy "povuska" tashitishga majbur qilishi mumkin. Jazo tariqasida.

Bir-birimizning ko'zimizga uzoq tikilib turdik. Oxiri kapitan hujjatlarimni yulqib oldi.

— Qachon kelding? — dedi qovoq-tumshug'i osilib. Bir qadar jahldan tushgani ovozidan sezilib turardi. — Ekipaj komandirimiding?

— Ha!

— Kontuziya bo'lganmisan? — Kapitan gospitaldan berilgan qog'ozni sinchiklab ko'zdan kechira boshladi. — Eh-ha! Jarohat ham olgan ekansan. Endi nima qilmoqchisan?

— O'qishimni davom ettiraman.

— Men Qandahorda xizmat qilganman, — dedi kapitan hujjatlarimdan ko'z uzmay.

Bu ham porox hidini totganlardan ekan-da! Kapitanga hurmatim oshdi.

— Demak, gap bunday! Urush qatnashchisi sifatida tubandagi huquqlaring bor. — Kapitan "afg'onlar"ga aytaverib yod bo'lib ketgan so'zlarni aniq-ravshan qilib takrorladi. — Oliy o'quv yurtiga kirishda imtiyoz, birinchi navbatda telefon olish, birinchi navbatda kvartira olish, invalid bo'lsang navbatsiz xususiy avtomashina olish... Xullas, imtiyozlar to'g'risidagi hujjatingni berishadi.

— O'rtoq kapitan! — dedim tushuntirib. — Uyoqdagi harbiy vrach, "uyingga qaytishing bilan gospitalga borib, mutaxassisga uchrashishing shart", degan edi.

— Bu mumkin! — dedi kapitan keskin ohangda. — Gospitalga yo'llanma beramiz.

O'sha kuni

Anhor bo'yiga piyoda keldim... Odamlarning bunchalik beparvo yurishiga hamon ko'nika olmasdim. Har bir daraxt orqasida "dux" poylab turgandek edi.

Bog' yashnab ketibdi. Oppoq gullari teskari o'sgan uzum boshiga o'xshab uchini osmonga qaratib turgan kashtanlar, dovuchcha tukkan o'riklar, yam-yashil archalar shamolda arg'amchi uchadi. Gulzorda xonaki gunafshalar, siyohrang gulsafsarlar erkalanib chayqaladi. Ammo havoning avzoyi buzuq, osmonda qoramtir bulutlar charx uradi.

Mana, o'zimizning skameyka. O'zimizning na'matak. Naparmon gullari quyosh tomchisidek yaraqlaydi. Xarrakka o'tirib, anhorni tomosha qildim. Tog' tomonda yomg'ir yoqqan shekilli, anhor loyqalanib, to'lg'anib oqadi. Suv betida olma shoxchalari, nastarin gullari shitob bilan qalqib boradi. Ana, bir dona lola oqib kelyapti. Gulbarglari yoyilib ketgan. Xuddi zada bo'lgan yurak parchasidek. To'lqinlar uni goh erkalab yelkasiga ko'taradi. Goh bo'tana girdobga uloqtiradi. Ermak qilayotgandek...

Bulutlar quyuqlashib, shamol kuchaydi. Xarrak yonboshidagi na'matak jonsarak chayqala boshladi... Shoshqin qadam

tovushini eshitib, yuragim orziqib ketdi. Qulog'imga qadrdon ovoz kirdi:

— Rustam aka! Rustam aka-a-a!

Shahnoza qushdek uchib kelib, bag'rimga otildi. Dimog'imga gul hidi urildi. O'zgarmabdi! Faqat... yanayam ochilib ketibdi!

Egnida atlas ko'ylak. Sochini chiroyli turmaklab, mittigina atirgul g'unchasini qistirib qo'yibdi.

— Sog'indim, Rustam aka! Sog'inib ketdim. — Ko'zlaridan ikki tomchi yosh silqib chiqib, labiga sizdi.

— Men ham, — dedim bag'rimga bosib. — Tushlarimda ko'rdim. Ko'p, juda ko'p ko'rdim.

— Men ham...

...Ko'zlari... Shahnozaning ko'zlari shunaqangi chiroyli, shunaqangi begunoh, ilhaqlik bilan boqadiki, yuragingni sug'urib olayotganga o'xshaydi...

— O'zgaribsiz... — dedi yuzimni silab. — Ozibsiz. Qorayibsiz.

— Sen o'zgarmabsan! — dedim yelkasidan qattiqroq quchib. — Yanayam chiroyli bo'lib ketibsan.

Shu alpozda ancha o'tirdik.

Bir mahal Shahnoza yuzimga ilkis qarab qo'ydi.

— Rustam aka... — dedi sekin. — Uyoqda... odam o'ldirdingizmi?

Yuragim shig' etdi. Ko'z o'ngimga so'ritok tagida yotgan ayol keldi. Qizil ko'ylakli ayol. Yuzlari oppoq, tiniq... Xuddi Shahnozanikiga o'xshagan...

Shu payt osmon yaraqlab ketdi. Dahshatli gumburlashdan qulog'im chippa bitib qolgandek bo'ldi. "Er-es!" Raketa portladi! Osmonda raketa portladi! O'rnimdan qanday turib ketganim, qay alpozda na'matak panasiga o'tganimni bilmayman.

Peshonamga iliq, yirik yomg'ir tomchisi urildi. Tag'in momaqaldiroq gumburladi. Qarasam, Shahnoza ham o'rnidan turib ketibdi, ko'zlari katta-katta ochilgan ko'yi menga hayratlanib tikilyapti.

— Sizga nima bo'ldi? — dedi pichirlab.

— Hech nima... — dedim shuursiz bir tarzda qaytib joyimga o'tirarkanman. — O'zim... Shunchaki...

O'sha zahoti shovullab jala quydi. Shamol avjiga mindi. Na'matak shoxlari shiddatli chayqala boshladi. Nafarmon gullar shamolda chirpirak bo'lib uchgancha, anhorga tushib, loyqa to'lqinlarga ko'milib ketdi. Chaqmoq bulutlar orasida olovli qamchisini o'ynatar, momaqaldiroq muttasil gumburlar edi. Anhor yuzi bir zumda alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Shahnoza yelkamga boshini tashlab hiqillab yig'lab yubordi. Vujudi titrar edi. Atlas ko'ylagi jiqqa suv bo'lib, badaniga yopishib qoldi.

— Shamollab qolasan... — dedim yelkasidan quchib...

May oyining oxiri

Okrug gospitali devorlari qalin, pastqam, qadimiy bino ekan. Keksa do'xtir erinmasdan so'roqqa tutdi:

— Kontuziya bo'lganingda uzoq hushingdan ketganmiding?

— Boshing qattiq og'riydimi? Qanaqa paytda og'riq kuchayadi?

— Asabing tez qo'zg'aydimi? Bexosdan cho'chib ketasanmi?

— Boshing og'riganda qusging keladimi? Badaning muzlamaydimi?

— O'shandan keyin hech hushingdan ketdingmi?

Hamma savollariga javob berib bo'lgach, men ham so'radim:

— Kontuziya asorati qachon tuzaladi?

— Aniq aytolmayman, — dedi do'xtir. — Bunaqa dardni vaqt davolaydi. Asabiylashmaslikka harakat qil.

...Urolog esa yosh yigit ekan. Nari borsa mendan besh-olti yosh katta. Belimga tegib, biqinimdan chiqib ketgan o'q o'rnini uzoq paypasladi. Bu ham uyoqdagi xirurgning gapini qaytardi.

— Omading bor ekan, soldat! O'q aortaga tegsa, tamom eding. — Keyin to'satdan so'rab qoldi. — Uylanganmisan?

Indamay bosh chayqadim.

— Tanlagan qizing bormi?... Yaxshi... Tezroq uylan!

Hayron bo'lib turganimni ko'rib, tushuntirdi.

— Bilasanmi, soldat, erkak kishining ikkita yuragi bo'ladi. Bittasi yurak, yana bittasi erkakligi... Tushuntiroldimmi? Bunaqa

jarohatdan keyin limfa, prostota bezlari, jinsiy organlarda funksional o'zgarishlar ro'y berishi mumkin. Patalogiyaga aylanib ketmasligi uchun organlar faoliyatini kuchaytirish kerak. — Shunday deb, yelkamga do'stona shapatilab qo'ydi. — To'yingga taklif qilasanmi?

Gospitaldan ko'nglim g'ash tortib chiqdim. Do'xtir aytgan gaplarning ko'pini tushunmadim. Anglaganim shuki, to'yni tezlashtirish kerak... Mayli, biz tomon-ku tayyor. Onamning orzusi ham shu. Har kuni bir gapni aytadi, to'yingni o'tkazaveramiz, dadang omon-eson kelsalar orzu-havaslarini nevara to'yidan ko'raveradilar, deydi. Faqat... Shahnoza nima derkin? Ota-onasi-chi? Otasi qamoqda yotgan, qo'li qisqa bo'lib qolgan kuyovga rozi bo'larmikan! Bilishimcha, quda tomon katta dargoh...

Shahnoza bilan gaplashish kerak!

Iyun oyining boshi

Akam allaqancha gazeta yig'ib qo'ygan ekan. O'qib, hayron bo'ldim. Birida butun mamlakatni qamoqxonalarga aylantirgan rejim yemirilgani, to'la demokratiya ro'yobga chiqayotgani yoziladi, boshqasida "o'zbek ishi" bo'yicha qamoqqa olingan obkomlar, raykomlar, raislar la'natlanadi. Birida odamlarni e'tiqodi uchun tazyiq ostiga olganlar qoralanadi, vijdon erkiga yo'l ochilgani aytiladi, boshqasida otasini dafn etish uchun mozorga borib Qur'on tilovat qilgan kommunist feleton qilinadi... Qiziq...

Iyun oyining o'rtalari

Kechqurun Ilhom akamnikida eski "Elektron"ni ko'rib o'tirgan edik. Moskvadan g'aroyib "tomosha" berildi. SSSR prokuraturasining Ambarsumyan va Petrov boshchiligidagi guruhi jinoyatchilar makoniga aylangan O'zbekistonda haqiqiy qahramonlik namunalarini ko'rsatayotgan emish. Ich-ichidan chirib ketgan bu respublikaga Rossiyadan yana bir guruh eng yaxshi mutaxassislar yordam-

ga kelayotgan emish... Gapirib-gapirib stol ustiga yoyib qo'yilgan tilla buyumlarni namoyish qilishdi. Baldoqlar, oltin zanjirlar, uzuklar... Bular hammasi davlatni, xalqni talash evaziga to'plangan boyliklar ekan. Buvamdan oyimga xotira bo'lib qolgan tilla bilakuzuk ham bormikin shular ichida?

Iyun oyining oxirlari

Uy ichi salqin. Onam deraza pardalarini to'sib qo'ygani uchun tashqaridagi issiq xonada uncha sezilmaydi. Hovli jimjit. Ahyon-ahyonda musicha kukuvlaydi. Issiqdan toliqqan shekilli, ovozi horg'in. Oyim qalin ko'zoynak taqib, ko'rpacha qavib o'tiribdi. Xudo xohlasa, kelasi oy — to'y...

Onam "oq o'rab" kelganidan beri quda tomonni og'zidan bol tomib maqtaydi. Hozir ham gapni aylantirib, shunga taqadi:

— O'zimam sezuvdim, o'g'lim! Sen uyoqdaligingda, yangi yil arafasi Toshkentdan kelgan qizlar orasida ayniqsa, Shahnozaxonga dilim ketuvdi. "Qani shundoq qizni kelin qilsam", degandim. Farishta omin degan ekan... Biram shirin, biram odobli... Iloyo o'zlaringdan ko'payinglar. — U ko'zoynak ustidan menga qarab qo'ydi-da jimib qoldi.

Bilaman, hozir otamni gapiradi. Aytmadimmi?

— Ikki orzuni bir yetkazmas ekan-da, bolam... Dadang yoningda bo'lganlarida-ku... — So'zlari bemavrid ekanini bilib, darrov xatosini tuzatdi. — Sen ko'nglingni cho'ktirma, — dedi mendan ko'ra ko'proq o'zini yupatib. — To'yni shunaqangi qars-badabang qilib o'tkazamizki, "falonchi qamalibdi", deb suyunib yurgan og'zi kattalar uyalib qolsin! Akang bor... Qarindosh-urug', el-yurt bor... Xudoga shukur, yurtdan oqibat ko'tarilmagan ekan. Halitdan nechtasi "Bizga nima xizmat bor?" deb kelyapti. Dadang shuncha yil rais bo'lib, birovning ohiga ozor berganmas. Hammasining boshini silagan. To'yi bormi, ma'rakasi bormi, turib bergan.

Hovlida hamon musicha kukuvlaydi. Yozning toliqtirguvchi sukunatini yanayam chuqurlashtirishga ahd qilgandek, osoyishta va horg'in xonish qiladi. O'zbekning o'zidek sodda, beozor... Be-

ozorligi uchun duch kelgan daydi mushukka yem bo'ladigan qushcha... Oyim bir nimalarni o'ylab, o'zicha jilmayib qo'ydi.

— Kafan kiygan ketadi, kapalak kiygan keladi! — dedi ishonch bilan. — Meni aytdi, dersan! Dadang keladilar. Yarim yil o'tar, bir yil o'tar... Eshikdan kuli-i-b kirib keladilar. Shahnozaxonni cho'g'dek yasantirib salomga olib chiqaman.

Shahnoza ko'z o'ngimga keldi. "Shu hafta sovchilar boradi, tag'in noumid bo'lib qaytib ketishmasin", deganimda iymanib yerga qarab turgan Shahnoza...

Oyim kapalakni gapirdimi? Qiziq... Uyga kapalak kirib qopti. Mittigina. Qanotlari ko'kimtir. Unsiz tipirchilab u devorga uriladi, bu devorga uriladi. Ana! Qanotlarini jonholatda silkib, uchib bordi-da, darpardaga qo'ndi. Xudo bilsin, ertalabdan beri yorug' dunyoga chiqib ketish ilinjida pitirlayverib holdan toygandir... Sinchiklab kuzatib turdim. Bildimki, kapalak nur shu yerdan tushayotganini sezib turibdi. U yoqda, tashqarida oftob bor. Erkinlik bor... Toza havo... Gulzorlar... Sho'rlik! Bilmaydiki, basharti biron insofli odam deylik, men, pardani bir chetga surib, yo'l ochib berganim taqdirda ham, kapalak baribir ozodlikka chiqolmaydi. Deraza yopiq... Tashqarida yorug' olam ko'rinib turadi. Ammo derazadan tushayotgan nur — qalbaki narsa... O'rtada to'siq bor. Hammasi — yolg'on! Hammasi — aldov! Nurli kelajak deb odamlarni aldash mumkin-ku! Sen kim bo'psan, birodar! Oddiygina kapalaksan, xolos!

...Dadam masalasida yugurmagan joyim qolmadi. Advokatura... Prokuratura... Sud... Raykom... Obkom... Markazko'm... Ming xil amaldorni ko'rdim. Eshikdan kirishing bilan "hozir suzib tashlayman", deb, buqaga o'xshab xo'mrayib o'tirganini ham, muloyim tabassum bilan qarshi oladiganini ham. Javobi bir xil. "Mayli, arizangizni tashlab keting, o'zimiz xabar qilamiz". Ba'zilari ovozini pastlatib do'stona maslahat beradi. "Otangiz "paxta ishi" bo'yicha qamalganmi? Yaxshisi bu ishga aralashmang". Alang-jalang bo'lib, tovushini yanayam pasaytiradi. "Bilasizmi, uka, bu ish bilan Moskva shug'ullanyapti. Ehtiyot bo'ling..." "O'zi xabar qiladigan"lardan bir tilish xat keladi. "Kommunizm" kolxozining sobiq raisi Shomatov Shomansur asosli ravishda hibsga olingan. Sud o'n yil qamoq

jazosiga hukm qilgan. Mazkur ish bo'yicha shikoyatingiz bo'lsa mamlakat oliy organlariga murojaat qilishingiz mumkin..."

Yopiq deraza! Hammasi ravshan. Barchasi adolatli. Hamma yoq go'zal! Olam nurga to'liq! Yolg'on nur... Yolg'onchi dunyo va... ojiz kapalak...

Iyul oyining to'rtinchi kuni

Respublika gazetasida g'alati sarlavhaga ko'zim tushib qoldi. "O'zbek ishi" o'zbeklarning ishimi?" Shosha-pisha o'qib chiqdim. Maqola shapaloqdekkina edi. Ammo o'qishim bilan vujudimda olov yonib ketgandek bo'ldi. Maqolada "o'zbek ishi" xalqqa qarshi kampaniyaga aylanib ketgani, minglab odamlar qamalgani, ho'l-u quruq baravar yonayotgani, gunohkorlar qatori begunohlar ham aziyat chekayotgani, bu masalada redaksiyaga minglab xatlar kelayotgani bayon qilingan edi. Hayajondan qo'lim titrab, qayta o'qib chiqdim. Xayriyat! Rost gapni aytadiganlar ham bor ekan-ku! Maqola ostiga "Mauzer G'aniyev, xatlar va shikoyatlar bo'limi", deb yozilgan edi.

Mauzer! Esda qoladigan ism! Qarasam, gazeta ikki kun oldin chiqqan ekan.

...Uchinchi qavatdagi uzundan-uzoq yo'lakdan o'tib borarkanman, oxirroqdagi eshikka ilingan yozuvga ko'zim tushdi. "Mauzer Soatovich G'aniyev. Mehnatkashlar xatlari va shikoyat bo'limi mudiri".

Eshikni taqillatishim bilan ichkaridan "Ha!" degan asabiy ovoz keldi. Kirsam, yoshi qirqlarga borib-bormagan, ammo ko'zlarining tagi osilib ketgan, chakka sochlariga oq oralagan, yuzlari so'lg'in, tepakal odam allanima yozib o'tiribdi. Stol usti betartib. Bir chekkada "Opal" qutisi. Kuldon sigaret qoldiqlariga to'lgan...

— Uzr! — dedi u qog'ozdan ko'z uzmay. — Qaysi xat bo'yicha kelgansiz? Qachon yozgansiz? Faqat tezroq...

Eshik oldida indamay turaverdim. U ham ishini qilaverdi.

Ancha vaqt o'tdi. Shu yerda ekanligimni eslatib qo'yish uchun ma'noli yo'taldim.

— Gapingizni aytavering, — dedi qog'ozdan ko'z uzmay. — Qachon shikoyat yozgansiz?

— Men shikoyat yozgan emasman! — dedim g'ashim kelib. — Yozish niyatim ham yo'q! Og'zaki gapga ishonasizlarmi o'zi?

Mauzer Soatovich yozishdan to'xtab, tepakal boshini ko'tardi.

— Nima? — dedi ensasi qotib.

— Bu dunyoda qog'ozsiz gapga ham ishonadigan odam bormi-yo'qmi?

Mauzer Soatovich menga o'xshaganlarni ko'raverib jonidan to'yib ketgan shekilli, ijirg'anib qarab qo'ydi.

— Xo'sh? — dedi chimirilib.

— Maqolangizni o'qidim, — dedim taklif qilmasa ham ro'parasiga o'tirib. — Rost gaplarni yozibsiz!

— U maqola endi yo'q! Eshitdingizmi, yo'q! Vassalom! — Mauzer Soatovich sigaret qutisini jahl aralash siltab menga uzatdi. — Chekasizmi?

Qiziq! Qanaqa odam bu? Bir qarasang do'q qiladi. Bir qarasang, sigaret tutadi.

— Gapiring! — dedi jerkib. — Nima dardingiz bor? Oldindan aytib qo'yay! "Paxta ishi" bilan kelgan bo'lsangiz, gaplashmayman!

Shaxt bilan o'rnimdan turdim-da, xayrlashmasdan eshikka yo'naldim.

— Shoshmang! — dedi u baqirib.

To'xtadim.

— Qayting! — "Opal" qutisidan sigaret olib labiga emas, sarg'ayib ketgan tishlari orasiga asabiy qistirdi. Go'yo g'ajib tashlamoqchi bo'lgandek.

— Aytaver dardingni! — dedi to'satdan sensirab.

Gap boshlashim bilan chehrasi yorishdi.

— Shomansur akaning o'g'limisan? Tashla qo'lni! Otang ajoyib odamlar! U kishi to'g'risida ocherk yozganman. Ishning ko'zini biladigan rais edilar... O'zing qayerda ishlaysan?

— O'qiyman, — dedim to'ng'illab. — Jurnalistikada.

— Iya, hamkasb ekanmiz-ku! Qani, bir boshidan gapir-chi, nima bo'ldi o'zi?

Hamma gapimni sabr bilan eshitdi. Shu orada kam deganda o'nta sigaret chekdi. Xona tutunga to'lib ketgan, Mauzer Soatovich diqqat bilan tinglar edi. Nazarimda hikoyam tugaguncha battar qarimsiq qiyofaga kirib qolgandek bo'ldi.

— Shumi? — dedi oxiri. Keyin negadir kuldi. — Bilasanmi, uka, ikki soat oldin Ikkinchining qabulida edim. — U tamakidan sarg'aygan barmog'ini bigiz qilib shiftni ko'rsatdi. — Shaxsan o'rtoq Ikkinchining qabulida! Qani, ayt-chi, O'zbekistonda Birinchi kattami, Ikkinchimi?

Hech baloga tushunmadim. U angrayib qolganimni ko'rib xirillab kuldi. Yo'talib, simto'rga tufladi.

— Ikkinchi aytdiki... Pistadek qilib yurmasang...

Yana hech nimaga tushunmadim.

— Oting Rustammidi? — Mauzer Soatovich tag'in yo'taldi. — Menga qara, Rustam! Aleksandr Makedonskiy degan poshshoni eshitganmisan? Barakalla! Makedonskiyning eng zo'r taktikasi qanaqa bo'lgan, bilasanmi? — Qovog'i salqigan ko'zlari bilan yuzimga sinovchan qarab turdi-da, davom etdi. — Makedonskiyning zo'rligi shunda bo'lganki, qaysi yurtni bosib olsa, o'sha yurtdan chiqqan odamni hokim qilib tayinlagan. Yoniga esa Ikkinchi qilib o'z odamini qo'ygan. Eshitdingmi? Ikkinchi qilib! Omi xalq buyoqda yuravergan: poshsho o'zimizdan chiqdi, deb xursand! Uyoqda bo'lsa Ikkinchi Birinchining nozik joyiga ip bog'lab olgan. Birinchi g'iring deb ko'rsin-chi! Ikkinchi ipni tortib qo'yadi. Salgina tortsa, Birinchi voy-voylab qoladi. Qalay? — U tag'in xirillab kuldi. — Jinday haddidan oshsa go'rdan olib, go'rga tiqishdan ham toymaydi... O'zimizdagiga o'xshab. Bilasanmi, buning otini nima deydi? — Uning horg'in ko'zlarida iztirob paydo bo'ldi. — Mustamlakachilik! — dedi xo'rsinib.

Suhbatimiz tamom bo'lganini tushundim.

— Moskvaga boraman! — dedim o'rnimdan turib.

— Nima? — Mauzer Soatovichning hozirgina ma'yus boqib turgan ko'zlarida o't yonib ketgandek bo'ldi. — Moskvaga? — dedi istehzoli kulib. — Boraqol! Tezroq bor! Rustamjon qachon keladilar, qachon dadalarini olib ketadilar, deb quchog'ini ochib turibdi.

Beixtiyor qaytib joyimga cho'kdim.

— Moskva emish! — u asabiylik bilan yangi sigaret pachkasini ochdi. — Moskvaning o'zi boshladi-ku bu kampaniyani! — Qo'llari qaltirab tutatdi. — Ularga qolsa, butun O'zbekiston qo'shib yozuvchi! Hammasi haromxo'r. Hammasi o'g'ri, poraxo'r. O'ttiz yettinchi yil qaytib keldi! — Uning ko'zlari olayib, o'rnidan sapchib turdi. Alam bilan stolni mushtladi. — "O'zbek ishi" emish! — dedi ingragudek bo'lib...

Og'ir, iztirobli sukut cho'kdi. Mauzer Soatovich kafti bilan tutun haydab, uyoqdan-buyoqqa asabiy borib-kela boshladi. Bir qadar o'zini bosib oldi, chog'i, qaytib joyiga o'tirdi.

— Qo'shib yozish hamma joyda bo'lgan, — dedi anchayin vazmin ohangda. — Aybni esa kelib-kelib o'zbekka yopishtirishdi. Sababi shuki, armaniga osilsa, o'sha kuni armani ko'chaga shior ko'tarib chiqadi. "Arman xalqidan qo'lingni tort", deydi. Gurjiga tashlansa, gurji ko'chaga chiqadi. "Nega xalqni haqorat qilasan?" deydi. Sen bilan biz — o'zbekmiz. Bittamizni bo'g'izlasa, ikkinchimiz me'rayib turamiz. Navbat o'zimizga yetgandagina, qo'yga o'xshab ma'raymiz. — U birpas o'ylanib qoldi. — Hamma narsaning ibtidosi bo'lganidek, intihosi ham bo'ladi, — dedi ishonch bilan. — Haqiqat ertami-kechmi ro'yobga chiqadi.

— Xo'sh, men nima qilishim kerak? — dedim ijirg'anib.

— Kutasan! — Mauzer Soatovich xotirjam tushuntirdi. — Boshqa iloj yo'q. Bu kalavaning uchi uzun. Meni aytdi dersan, kalavaning uchi oxir-oqibat Moskvaga borib taqaladi! Ana o'shanda hammasi joy-joyiga tushadi. Bunaqa ishning ketidan yugurib yurgandan ko'ra bizga Afg'oniston xotiralarini yozib kel, gazetada chiqaramiz.

— Nimani yozay? — dedim ma'yuslanib. — Odam o'ldirish qanaqa bo'lishinimi?

Mauzer Soatovich indamay boshini quyi soldi. Tutunga to'lib ketgan xonadan chiqib borar ekanman, xayolimni og'ir o'ylar chulg'agan, nochorlikning zildek yuki yelkamdan bosib, yerga mixlab tashlayotganga o'xshardi. Baribir, baribir topaman! Otamning gardaniga yo'q yerdagi ayblarni ilib qamoqqa tiqqan, oilamiz boshiga shuncha kulfat solgan Ambarsumyan guruhidan aqalli bit-

taginasini topmaguncha, ko'ziga tikilib turib, jilla qursa, bir nechta savol bermaguncha tinchimayman. Tin-chi-may-man!!!

Ertasi kuni

Dadamdan xat keldi. Shimoliy Qozog'istondagi "axloq tuzatish" koloniyasida jazo muddatini o'tayotgan dadamdan.

"Rustamjon, o'g'lim! — deb yozibdi otam. — Uyoqdan joning sog' qaytganini o'qib, Xudoga ming qatla shukr qildim. Sen Afg'onistonda yurganingda buyoqda bunaqa ishlar bo'lib ketdi... Nimayam derdim... Peshonada shu yozug' ham bor ekan... Yoshim bir joyga borganda qamoqqa tushish xayolimga keptimi?.. Mana, endi hammasini bir boshdan o'ylayman. Kechalari uyqim o'chib ketadi. Dunyoning bu burchidan kirib, u burchidan chiqaman. O'ylab o'yimga yetolmayman. Gunohim nima o'zi?.. Ota-onam o'ttizinchi yillardagi ocharchilikda o'lib ketgan g'irt yetim bo'lsam. O'smirligim urush davriga to'g'ri kelgan bo'lsa... Esimni tanibmanki, yelkamning yag'iri chiqib, mehnat qildim. Qo'sh tortdim, mola bosdim, traktor haydadim... Tirishib-tirmashib o'qidim. O'zlari ko'tarishdi. Avval brigadir qilishdi, keyin hosilot. Undan keyin rais. Partiya-hukumatimiz qayoqqa tashlasa, o'sha yerga borib tushdim. To'qayda chivinga yem bo'lib, yer ochdim. Qoloq xo'jalikni ko'tar, desa quloq qoqmay xo'p dedim. Onang sho'rlik ko'rpasini orqalab ketimdan ergashib yurdi. Akang Bekobodda tug'ildi, sen — Piskentda... Bir og'iz aytmadim: "Hoy, men ham odamman-ku, umrim bino bo'lib halovat ko'ramanmi-yo'qmi?" demadim. Bit anavinaqa narsaga semirgandek, bergan temir-tersaklariga, deputatligiga mahliyo bo'lib yuraveribman... Bir xil raislarga o'xshab pul yig'madim, oq uy-olabargaklar solmadim. Nima qilsam xalq uchun, partiya uchun qildim. O'n yetti yil shu kolxozda ishladim. Duch kelgan odamdan so'rab ko'r, o'g'lim. "Xudoni o'rtaga solib aytinglar-chi, dadam umri bino bo'lib qing'ir ish qildimi, birovning burnini qonatdimi?" degin-chi, imoni bo'lsa aytar, rost gapni! Mana endi kelib-kelib to'xtagan joyim — lager bo'ldi. O'zbekistonda qo'shib yozganlar bo'lmagan, demayman. Aslida o'shalar

ham Moskvaning buyrug'i bilan qilgan bu ishni. Osmon baravar plan berib, bajarmasang onangni uchqo'rg'ondan ko'rsataman, deganidan keyin shu yo'lga kirmay chorasi qolmagan. Mening bo'lsa, Xudo oldida ham, bandasining oldida ham vijdonim pok. Bunaqa harom ishga qo'l urgan emasman. Bitta gunohim shuki, bu savdolar boshlangan zahoti raislikni topshirishim kerak edi...

Turib-turib o'zimga nash'a qiladi. "Partiyaning sodiq soldatiman, ordenli raisman" deb yuraveribman. Aqalli seni Afg'onistondan olib qolishga "partiyaviy vijdonim" yo'l qo'ymabdi. Xohlasam uch kunda Turkmanistondan Toshkentga o'zlari obkeb qo'yardi. Endi bo'lsa, allaqanday millionlarni bo'ynimga ildi. Falonchidan uch yuz ming olgansan, pistonchiga yuz ming bergansan... Bo'hton! Hammasi tuhmat!

Onangning yozishiga qaraganda, to'ying yurishib qolganmish. Otam to'yimni ko'rolmadi deb aslo ko'nglingni cho'ktirma. Xudo xohlasa, omon-eson borsam, nevara to'ylari qilamiz. Iloyo baxtli bo'l, bolam! Mendan hech xavotir olmanglar. Sog'lig'im yaxshi. Atrofimda hurmat qiladigan imonli odamlar bor... Onangni ehtiyot qil. Duoyi-salom bilan dadang. 18 iyun".

Iyul oyining yettinchi kuni

Shahnoza bilan ZAGSga ariza berdik. "Paxtakor" metrosi oldida ancha kutdim. Metroning qubbali binosi afg'on "zelenka"sidagi uylarni eslatadi. To'g'ri, unaqa pastak, loytomli emas-ku... Harqalay uzoqdan qaragan odamga shunaqaga o'xshab ko'rinadi. Odamlar qubbaning bir eshigidan yopirilib chiqadi. Ikkinchisidan yopirilib kiradi.

Beparvo, bepisand... Rostini aytsam, ularni tomosha qilish yoqimli edi. Avvaliga aqlim yetmadi. Nima qipti? Birov u yoqqa ketyapti, birov bu yoqqa... Nimasi maroqli buning! Keyin to'satdan bir yangilikni angladim: o'zimda ro'y bergan o'zgarishni sezdim: ko'nglimdagi xavotir hissi yo'qola boshlabdi. Men o'z yurtimdaman. Mina portlamaydi, granatomyot otilmaydi. "Er-es" uchmaydi. Men o'z uyimdaman!

...Shahnozani uzoqdan ko'rdim. Qora "Volga" telestudiya ro'parasida to'xtadi. Farishtadek oppoq libos kiygan Shahnoza "Volga"ning orqa eshigidan tushdi. Old eshikka kelib, yaltiroq sumkachasini ochdi. Haydovchiga pul uzatib, allanimalar dedi. Chamamda, haydovchi pulni olmadi. Mashinasini jildirdi. "Volga" mening ro'paramga kelganda, ataylab tezlikni oshirgandek bo'ldi. Rulda o'tirgan haydovchini bir lahza ko'rib qoldim. Sochlari silliq taralgan... Artistlarnikiga o'xshagan oppoq yuzli, xushmo'ylov yigit shu tomonga qarab, istehzoli kulib qo'ygandek tuyuldi. Kim bo'ldi bu tanish bashara! Eslay olmadim. Hammasi bir lahzada bo'lib o'tdi. Shahnoza chopqillab kelib, bilagimdan tutdi. Salom berdi.

— O'lsin, aksiga bittayam taksi uchramasa! — dedi muloyim jilmayib. Boshini bir tomonga tashlagan ko'yi qop-qora kipriklarini gunohkorona pirpiratib turishi shu qadar samimiy ediki, boyagi "artistnamo" shopirdan rashk qilganimga o'zim uyaldim.

ZAGSdan o'tish katta tantana ekanini bilardim. Bir xillar ariza berishga ham kelin tomon bir mashina, kuyov tomon bir mashina bo'lib, as'asa-yu dabdabalar bilan kelarkan. So'ppayib kelganim uchun Shahnozadan uyaldim. Ajoyib qiz-da Shahnoza! Meni xijolatdan chiqarish uchunmi, chiroyli ko'zlari suzilib taklif qildi:

— Bilasizmi, Rustam aka, endi "Lolazor"ga borib, muzqaymoq yeymiz! Xo'p?

Shahnoza shunaqangi ochilib ketgan, shunaqangi chiroyli-ki! O'ziga bunchalik oro berganini ko'rgan emasman. Oq ko'ylak, oq tufli. Sochiga oppoq atirgul g'unchasini qistirgan. Ko'zlari, yirik-yirik ko'zlari parpirab turibdi. Xuddi o'zining yuziga o'xshagan pushtirang muzqaymoqqa jajji qoshiq uchini botiradi-da, angish-vonadek bejirim og'ziga olib borib, bir lahza ikkilanib qolgandek bo'ladi: "yesammi-yemasammi?"

Bir mahal kipriklari kapalak qanotidek titrab kulib yubordi.

— Ayiq! — dedi qoshiqchasi bilan tahdid qilib. — Xuddi ayiqning o'zisiz, Rustam aka! Asal yeyapgan ayiqqa o'xshaysiz! — Kursi suyanchig'iga yelkasini tashlagancha qah-qah urib kuldi. — Ayiqsiz!

O‘tirgan kursimni shahd bilan yoniga surdim-da, yelkasidan quchib muzqaymoq mazasi kelib turgan lablaridan o‘pdim.

— Jinnimisiz? — U tipirlab o‘zini orqaga tashladi. — Hamma qarab turibdi.

— Qarayversin! — dedim kulib. — Sen mening xotinimsan!

— Jinni! Ayiq! — Shahnoza erkalanib qo‘lidagi qoshiqchasi bilan yana tahdid qildi. — Yomon bola bo‘psiz! Bilib qo‘ying, bizdayam qurol bor. Bir ursam! — Shunday deb ro‘molchasi bilan mening lablarimni artib qo‘ydi.

— Endi, — dedi erkalanib, — to‘polon qilmasdan, yaxshi bola bo‘lib, o‘tiring-da gapimga quloq soling! — Negadir ko‘zlariga chuqur jiddiyat cho‘kdi. — Siz uyoqda yurganingizda tush ko‘rdim, — dedi o‘ylanib. — Toqqa borganmishmiz. Sijjakka. Xolamlarnikiga... Qalin qor yoqqanmish. “Yur, Shahnoz, sirpanchiq uchamiz”, debsiz-da, qo‘limdan ushlab tortibsiz. Qarasam, pastda jarlik bormish. “Jinnilik qilmang, Rustam aka”, desam, qo‘limni qo‘yib yubormasmishsiz. Ikkalamiz jarlikka qarab ketayotganmishmiz. Qo‘lingizdan shuncha tortsam kuchim yetmasmish... — Shahnoza tushining ta’birini bilmoqchi bo‘lgandek, ko‘zimga tikilib uzoq jimib qoldi.

— Keyin nima bo‘pti? — dedim xushchaqchaq gapirishga urinib.

— Bir mahal qo‘limdan chiqib ketdingiz... — U o‘sha tush dahshatini qaytadan ko‘z o‘ngida aniq tasavvur qildi, shekilli, qandaydir so‘nik alpozda boshini quyi soldi.

— Keyin-chi? — dedim o‘smoqchilab. Bema’ni savol berayotganimni tushunib turardimu, harqalay Shahnozaning tushi nima bilan tugashini bilgim kelardi.

— Keyinmi? — Shahnoza jilmaydi. — Qarasam, jar yoqasida bir tup archa bormish. Yugurib borsam, archa tagida kuli-i-b yotganmishsiz. “Yiqildingizmi?” desam, “Hazillashdim, jinni” debsiz. Shunaqa deb nuqul kappalab qor yeyotganmishsiz. “Qor yemang, shamollab qolasiz”, desam, “Chanqab ketdim, ichib yonib ketyapti”, dermishsiz...

Iyul oyining o‘rtalari

Nonushta ustida akam aytib qoldi:

— Ro‘zimat otanikiga borib, ko‘ngil so‘rab kel.

Tushunmadim. Qaysi Ro‘zimat ota, nima gap o‘zi?

— To‘rtinchi bo‘limdagi Ro‘zimat ota bor-ku, bir oyog‘i oqsoq suvchi! O‘shanikida ta’ziya bor. Bugun — uchinchi kuni. Sen shaharda o‘z tashvishlaring bilan bo‘lib, xabar ololmading. Ko‘ngil so‘rab qo‘y, ukam.

Esladim! Hovlisida nuqul bedana sayrab turadigan kishi.

— Nima bo‘pti? — dedim xavotirlanib. — Ro‘zimat ota kasal emasdi shekilli...

— O‘zimas, o‘g‘li... Yaxshi bola edi rahmatli... O‘ligini yashikka solib obkelishibdi. Hamma yoq to‘polon bo‘lib ketdi... — Akam o‘rnidan turarkan, qattiq tayinladi. — Albatta borgin, ukam! Ko‘ngil so‘ra, yupat... Tobutkashmiz axir!

Bundan chiqdi, Afg‘onistondan yana bitta “ikki yuzinchi” yuk kepti-da! Ro‘zimat otani uzoqdan tanidim. Shipir tomli, pastak uy salqinida o‘zi tengi ikkita qariya bilan o‘tiribdi. Qo‘lida hassa. Yonboshida “otam zamonidan qolgan” suyanchig‘i yoysimon kursilar qatorlashib turibdi.

Chollardan biri ingichka, yig‘loqi ovozda uzundan-uzoq tilovat qildi. Shahid ketganlarga va xususan ko‘zi ochiq ketgan Azamatjonga jannatdan joy tiladi. Qolganlarga imon, sog‘-salomatlik, yurtimizga tinchlik, davlatimizga omad chorlab, fotiha tortdi.

Azamat dedimi? E, bo‘ldi, esimga tushdi! Ro‘zimat otaning bitta-yu bitta o‘g‘li-ku! Maktabda bizdan bir sinf keyin o‘qigan yuvoshgina bola...

— Xudoga shukr, o‘g‘lim, uyoqdan joning sog‘ qaytibsan, — dedi Ro‘zimat ota sovib qolgan choydan yarim piyola uzatib. Chollarning qulog‘i og‘irroq shekilli, ovozini balandlatib meni tanishtirdi. — Bu yigit — Rustamjon. Shomansurning kenjasi.

Chollar biri olib-biri qo‘yib dadamni alqab ketishdi:

— Dadang yaxshi odam, bolam. Nasib etsa erta-indin chiqib qoladi.

— Xafa bo‘lmang, ota, — dedim yerdan ko‘z uzmay. — Bandalik.

— Ollohning irodasi... — chollardan biri bosh chayqab cho‘qqi soqolini tutamladi. — Birov har kuni yaratgan Egamdan omonatingni olsang-chi, deb iltijo qiladi. Birovni o‘n gulidan bir guli ochilmasidan olib ketadi. Taqdiri azal deb shuni aytadi-da...

Oraga vazmin sukunat cho‘kdi. Likopchadagi qand ustida ari aylanib, uzoq g‘o‘ng‘illadi.

— Ota, — dedim nihoyat yurak yutib. — Azamatjon qachon ketuvdi afg‘onga?

Ro‘zimat ota ko‘zimga diqqat bilan tikildi.

Shunda... ko‘zlariga ko‘zim tushib, yuragim seskanib ketdi. Ro‘zimat otaning ko‘zida na alam, na yosh bor edi. Nigohi muzlab qolganga o‘xshar, ko‘z qorachiqlari torayib ketgan, dunyoning jamiki g‘am-anduhlarini chekaverib olamga ma’nosiz qarashga moslashib qolgan horg‘in qorachiqlarda armon bor edi: tubsiz armon!

— O‘zim aybdorman, bolam, — dedi xuddi og‘ir gunohiga iqror bo‘lgan odamdek ishonch bilan. — Afg‘onistonga yuborsam bo‘larkan. Qirq yil qirg‘in bo‘lsa, ajali yetgan o‘ladi. Mana, sen... — u yuzimga xayolchan qarab qo‘ydi-da, negadir kulimsiradi. — Xudoga ming qatla shukur, to‘rt muchang sog‘ qaytib kelding. Men bo‘lsa... — Ro‘zimat ota lablarini alamli burib, og‘ir-og‘ir bosh chayqadi. Biroq ovozi o‘zgarmadi. Go‘yo birov eshitsa rohatlanadigan hangomani hikoya qilayotgandek, xotirjam davom etdi. — Qarasam, yoshim ellikdan o‘tib, shartim ketib, partim qopti. Xolang bilan maslahat qildik. Shundoq-shundoq dedim. Men-ku, girmon bilan urushib, tamom bo‘lganimni bilmabman, endi sen ham bola ko‘rmay o‘tasanmi, dedim... Er-xotin azza-bazza Toshkanga borib, shu bolani — Azamatjonni xatlab, o‘g‘il qilib oldik.

— Olloning irodasi... — dedi cho‘qqisoqol chol taskin berib. — Iloj qancha, shukr deng, taqsir...

— Ming qatla shukur... — Ro‘zimat ota xo‘rsindi. — O‘g‘lim imonli bola chiqdi. Begonaligi bilinmadi. Ming rahmat, el-yurt ham befarzandsan deb yuzimga solmadi... Tengqurlariyam Azamatjondan begonasiramadi...

Rosti, Azamat Ro'zimat otaning asrandi o'g'li ekanini men ham birinchi marta eshitib turishim edi. Yuragim ezilgancha boshimni quyi solib o'tiraverdim.

— Povuska kelganida, — dedi Ro'zimat ota, — voyenkomatga yugurdim. Peshonamdagi bitta-yu bitta bolam shu, avg'onga yubormanglar, dedim. Stroybatga jo'natinglar, deb yalindim. Shirinkomasiniyam berdim... Mana, oqibati! To'rt oydan keyin Vladivostokdan temir yashikda o'ligi keldi.

Ro'zimat ota negadir kuldi. Lablari titrab ketdi.

— Uch kun oldin komandiridan xat keluvdi. Hurmatli o'rtoq Xolmatip, o'g'lingiz Azamat Vatan oldidagi burchini halol ado etyapti, depti. Shundoq farzand o'stirganingiz uchun sizdek frontovikka ming rahmat depti... Uch kundan keyin eshikdan temir quti ko'tarib kirdi. Voyenkomatdan ikki kishi bilan chastidan bittasi... "Tezroq ko'minglar", — deydi. To'g'ri aytadi: marhumni mahtal qilib qo'yish gunoh! "O'g'lingiz ehtiyotsizlik qildi, tok urib o'ldi, mana do'xtir xulosasi", deydi.

— Ro'zimatjon, uka, qo'ying bu gaplarni, — siyrak soqolli jikkak chol choy quyib tutdi. — Xudo shohid, Azamatjon, shahid ketdi. Hurig'ilmonlar orasida yuribdi hozir.

— Insholloh! — Ro'zimat ota choy ho'plab piyolani joyiga qo'ydi. — Men bir nima deyotganim yo'q. Ammo... onasi chidolmadi... Aqalli bolamning sovuq diydorini ko'rib qolay deb olamni buzib tashladi. Shuncha aytaman: "Hoy onasi, o'likning badaniga gul tushsa, gurzi bilan urgandek bo'ladi, Xudoning qahri keladi", desam qani ko'nsa! Haligi voyenniy oxiri, po'pisa qildi... "Kim tobutga tegsa, harbiy tribunal oldida javob beradi", dedi. Ana o'shandan keyin, ko'nglimga shubha tushdi.

— Qo'ying endi, taqsir! — chollardan biri Ro'zimat otaga yumshoq dashnom berdi. — Kavlamang shu gaplarni! Yaratgan Egamning o'zi biladi yomonlarni qandoq jazolashni...

Ro'zimat ota parvo qilmay, so'zida davom etdi:

— Avval ochmasam ham endi ochaman yashigingni, dedim. Men urushda qon kechib, "Slava" ordeni olgan prontovikman, dedim. Qochib ketdi hammasi! Ochib ko'rsak... temir yashikni ochib ko'rsak... — Ro'zimat otaning ovozi titrab ketdi. Ammo yig'la-

madi. — Tok urgan odam bilan boltada chopilgan odamning farqi bo'ladi-ku, to'g'rimi?

...Oyoqlarim muzlay boshladi. Qo'llarimga titroq kirdi. Ro'zimat ota hamon bir nimalarni gapirar, lablari qimirlayotgani ko'rinib turar, ammo nima deyotganini eshitmasdim. Boshimda chidab bo'lmas og'riq turdi. Xudo! O'zing asra! Hozir... Hozir yiqilib tushaman! O'zing sharmanda qilma, Xudo!

Iyul oyining oxiri

Bu dargohga uncha-muncha odam o'z ixtiyori bilan kelmasa kerak. Birovni povuska bilan chaqirib oladilar. Birovni melisa olib keladi. Albatta, najot izlab, yoki ko'mak istab kelganlar ham uchraydi. Ammo ular ham mana shu marmar zinalardan chiqib borayotganida ko'nglida mavhum xavotir hissini tuysa ajabmas.

Yo'lakdan o'tib borarkanman, Mauzer Soatovichning gapi esimga tushdi. Tabiiyki, bu yerda ham Ikkinchilar, asosiy shaxslar bo'lsa kerak. Yo'q, bu dargohda Moskva vakillari Ikkinchilikka qanoat qilmay, bir yo'la Birinchi bo'lib qo'yaqolgan ekan.

Hayhotdek xona, devori yaltiroq, jigarrang panel bilan qoplangan. Hamma yoq sarishta. Ozoda, salqin.

Kattakon "T" harfiga o'xshagan stolning narigi boshida U o'tiribdi. "T"ning qoq peshonasida. Berigi tomonda "T"ning qoq dumida men o'tiribman. O'zimni bosishga harchand urinmay, ichimni kemirayotgan noaniq xavotir hissi yelkamdan bosib turganga o'xshayveradi. U qog'ozlarni shoshilmay, ayni paytda e'tibor ham bermay varaqlashga tushdi.

Devorda mashhur "Inqilob chavandozi"ning yarim belidan tushgan kattakon surati osig'liq. "Chavandoz" nimasi bilandir Don-Kixotga o'xshab ketadi. Boshi kichkinagina, cho'qqisoqol, bo'yni uzun. Faqat boshiga shapka kiygan: ayvoni qiyshiqroq shapka. "Chavandoz"ning shundoq ostida U o'tiribdi. Xuddi chavandozning beli tagiga osilib turgandek. Yarashiqli kiyingan. Bo'ynida bo'yinbog'. Soqoli qirtishlab olingan. Nihoyatda madaniyatli odam ekani ko'rinib turibdi.

— Siz, grajdanin Shomatov, — dedi qog'ozdan bosh ko'tarib. — Yanglishib bizga murojaat qilibsiz. Otangiz Shomatov ishini sud ko'rib hukm chiqargan. Ajrim xulosasi bilan tanishmisiz?

— Tanishman!

— Hukmdan norozi bo'lsangiz SSSR Oliy Sudiga murojaat qilishingiz mumkin. Bu — sizning grajdanlik huquqingiz, — dedi xayrixoh ohangda.

Qiziq, ayblanuvchilarni so'roq qilayotganda ham shunaqa gaplasharmikin?

— Oliy Sudga murojaat qilmayman, — dedim ishonch bilan (Yaxshi! Hali kirib kelgan paytimdagi hayajon yo'qolib, ko'nglimni allanechuk xotirjamlik, hatto o'zimning haqligimga ishonch hissi egalladi). — Arizabozlik qilib Moskvaga bormayman. Ruxsatingiz bilan sizdan ba'zi narsalarni so'ramoqchi edim.

Uning kulrang ko'zlarida bir lahza istehzoli tabassum paydo bo'lganini ko'rib, qo'shib qo'ydim:

— Bilaman! Bu dargohda savolni siz berasiz. Shunga qaramay...

— Shoshib turibman. — U soatiga qarab qo'ydi.

— O'n yetti kundan beri navbat kutaman, — dedim ovozimni balandlatmaslikka urinib. — Ko'p vaqtingizni olmayman. Narisi bilan o'n minut.

U allaqanday "peshka" bilan pachakilashib o'tirish kerakmi-yo'qmi, deb ikkilandi shekilli, bir zum o'ylanib qoldi.

— Yaxshi! — dedi qat'iy qilib. — Faqat o'n minut!

— Otamning so'rog'ida siz ham qatnashganmisiz?

— Esimda yo'q. Ikki yil ichida minglab "ishlar"ni ko'rdik. Maqsad?

— Otam jinoyatchi ekaniga shaxsan siz ishonasizmi?

Uning ko'zlari qisilib, muloyim tabassum g'oyib bo'ldi.

— Savolingizga javob bermasam maylimi, grajdanin... Shomatov?

— Ayting-chi, o'rtoq prokuror! Respublika Oliy Sovetining kamida ellik ming odam saylagan deputatini, saylovchilar chaqirib olmasdan turib, shunchaki, bir kechada KPZga tiqib qo'yish mumkinmi?

Bu go'dakka qonun-qoidani kim o'rgatdi, degandek ko'zimga diqqat bilan tikilib turdi-da, dona-dona qilib tushuntirdi:

— Mumkin! Deputatidan tortib rahbarlarigacha qo'shib yozishni, poraxo'rlikni kasb qilib olgan respublikada hamma narsa qilish mumkin!

Ajab! Uning qancha jahli chiqsa, kulrang ko'zlari qancha yonsa, men o'zimni shuncha xotirjam his eta boshladim.

— O'zbekiston shunchalik aynab ketgan ekan, — dedim kinoya bilan. — Markazga tola o'rniga vagonda havo, samolyotda diplomat to'la pul borgan ekan, nega uyoqdagilar indamabdi? Nega "bizga pul emas, tola kerak?" demabdi? Nega buyoqdan turib pora uzatganlarni qamoqqa tiqasizlar-u, u yoqdan turib pora olgan kazo-kazolar bilan ishingiz yo'q?

U shoshilmay o'rnidan turdi. Boshi "inqilob chavandozi"ning kindigiga taqalib qolgandek bo'ldi. Ikkalamizning hozirgi holatimiz g'alati edi. Shoshilib ketayotganingizda oyog'ingiz ostida allaqayoqdan sakrab tushgan chigirtka paydo bo'ladi. Bosib ezg'ilab tashlasammi, indamay o'tib ketsammi, deb bir soniya ikkilanib qolasiz, Chigirtka esa o'chakishgandek qilt etmay turaveradi, surbet! Shu topda U ham ikkilanib turardi. Men — chigirtkani bossammi-yo'qmi? O'ladigan ho'kiz boltadan toymaydi, deyishadi. Endi menga hammasi baribir edi. Qo'lidan kelsa otib tashlasin. Gapimni aytib bo'lmaguncha qimir etmayman!

— Agar yigirma ming odamdan boringki mingtasi nohaq qamalgan bo'lsa, — dedim dilimdagini aytib olish uchun shoshilib, — mingta odam bir yildan nohaq "o'tirsa" ming yil bo'ladimi! O'sha ming yilni kim to'laydi? Sizmi? Ambarsumyanmi? Hammangizni yig'ishtirib kelganda ham umringiz yetmaydi-ku!

Uning kulrang ko'zlarida bo'rinikiga o'xshash o't yonib ketdi. Ha, mana, endi qaytding asl qiyofangga! Qurbonining bo'yniga xanjar botirayotgan jallodning ko'zlari shunaqa bo'lsa ajabmas!

Qiziq... U stolni mushtlamadi. Soqchi chaqirmadi. Sichqon bolasiga tikilgan mushukdek sekin labini yalab qo'ydi.

— Soplyak! — dedi istehzoli kulib. — Men seni qabul qilmasligim mumkin edi. Afg'onistonda xizmat qilganing hurmati...

— Afg'onistonni qo'ya turaylik, o'rtoq prokuror! — dedim hirg'in ohangda. — "Ikki yuzinchi" yuk faqat Afg'onistondan emas,

mamlakat ichkarisidan ham yog'ilib kelyapti. Ularning xunini kim to'laydi? O'zbek xalqini butun mamlakatga badnom qilganlar emasmi?

Stul suyanchig'iga tirsagimni tayab, o'rnimdan turdim. Oyoqlarimda mador yo'qligini endi sezdim. U bo'lsa, ko'zlaridan o't sochib qilt etmay turardi.

— Oxirgi gap, — dedim kursi suyanchig'ini changallab. — Oxirgi savol: nega "o'zbek ishi!" Nega "arman ishi" emas, nega "o'ris ishi" emas! O'zbek nima gunoh qildi sizlarga?!

Eshik tomon uch-to'rt qadam yurdim-da, qaytib keldim. Ikkilanib kissamdan gazeta qog'oziga o'ralgan temirtakni olib stol ustiga qo'ydim. Bunga ham qanoat qilmay qog'oz qatini ochdim. Lenin ordenini kaftimning orqasi bilan turtib yuborgan edim, silliq taxta ustida sirg'anib, nari bordi.

— Ambarsumyanga berib qo'ying! — dedim uning ko'ziga chaqchayib. — Onamning bor bisotini shilib olgan ekan. Bobomdan qolgan bilaguzukkacha! Bundayam oltin moddasi bor deyishadi. Harqalay kolleksiyasiga besh-o'n gramm tilla qo'shiladi.

Madorsiz oyoqlarimni arang bosib, eshik tomon yurarkanman, vujudim bo'm-bo'sh bo'lib qolgan edi. Aniq idrok qilib turibman. Boshim g'uvullayotgani yo'q. Gardanim ham qotmayapti. Faqat vujudim bo'm-bo'sh.

— Grajdanin! — Eshik tutqichini ushlagan chog'im uning hokimona buyrug'i yangradi.

To'xtadim. Qamoqqa tiqmoqchimi! Marhamat! Nari borsa, to'yim o'n yil kechikar! Menga baribir.

Osoyishta burilib qaradim. U hamon stol ortida "chavandoz"ning beliga osilgancha turar edi.

— Kim bilan gaplashayotganingni bilasanmi?

— Bilaman! — dedim kiprik qoqmay.

— Psix! — U negadir kulimsiradi. — Kontuziyadan keyin savdoyi bo'lib qolgan ko'rinasan. Sening to'g'ringdagi hamma ma'lumotlar qo'limizda... Agar... — Uning kulrang ko'zlarida yana bo'rinikidek sovuq o't yondi. — Agar tag'in bir marta ro'para kelsang, shu yerdan to'ppa-to'g'ri jinnixonaga jo'naysan!

Avgustning sakkizinchi kuni

Bugun mening eng baxtli kunim! To'yimiz bo'ldi! Shahnozaning ko'zlarida shu qadar cheksiz quvonch porlayaptiki, ko'rgan sayin o'zimning ham yuragim shodlikdan yorilib ketgudek tipirchilaydi. Yonimda, harir parda yopinib o'tirgancha zimdan shu qadar teran mehr bilan boqadiki, bu nigohlar menga, faqat menga nasib etayotganidan olamga sig'mayman. Bilmadim, Shahnoza menga bunchalar mehr ato etgan damlar, o'zimni shu qadar qudratli his etgan onlarim avval ham bo'lganmidi? Necha marta tuygan edim bunday holatni? Balki, to'rt yil avval, qor yog'ib turgan kechada Shahnozani barakdan rayon markazidagi kasalxonaga olib borganimda, isitma aralash "Rahmat, Rustam aka", deb qo'limdan tutganidadir? Balki, arzimagan bitta tarvuz ko'tarib, ko'rgani borganimda, muloyim, jilmayib qo'yganidadir! Ehtimol, Toshkentga qaytgach, kinoga tushgan kunimiz, birinchi marta o'pganimda, Shahnoza "unaqa qilmang", deb yig'lab yuborganidadir?

Bugun men dunyoda eng baxtli odamman! Onam orzu qilganidek qars-badabang to'y qildik. Bazm kechasi oxirlaganda ayniqsa, qiziq bo'ldi. Oyim bilan Shahnozaning ayasi "Munojot"ga o'ynashdi. Oyim donolar-da! Shuncha kundan beri "dadang to'yingni ko'rolmadi", deb ma'yus tortib yurgan odam shunaqayam ochilib ketdilar, shunaqayam o'ynadilar-ki! Balo ekanlar-ku!

HAMKASBLAR SUHBATIDAN

— Keling, o'rtoq Komissar!

— Xo'sh, ishlarning jilishi qalay, kollega? To'laganovani so'roq qildingmi?

— Qildik. Guvohlik berishiga qaraganda, er-xotin Shomatovlar juda inoq yashagan.

— Heh! Sen o'sha fanatichkaning gapiga laqqa tushding? To'g'rimi? G'irt jinni-ku, bu xotin! Enkayib namoz o'qiyotganda dumbasini qovog'ari chaqsa, bu ham Xudoning bir maxluqi-da, deb silaydigan ahmoq! Butun avlod-ajdodi dindor o'tgan!

— Qiziqsiz, o'rtoq Komissar! To'laganovada nima ayb? Men bu xotinga to'la ishonaman!

— Senga qolsa, Vasilyevning alibiysi qo'lida! To'laganova qo'y og'zidan cho'p olmagan farishta. Kelin-chi? Kelin?! Balki u ham sutdek oppoq, musichadek beozordir! Xotin kishi xohlasa, bir emas, o'nta erkakni bemalol o'ldirtirib yuboradi. Tushundingmi, o'ldirib emas, o'ldirtirib yuboradi!

— Eringni qaysi o'ynashing o'ldirdi, deb yoqasidan olaymi endi? Asos qani?

— Nega mendan so'raysan? Surishtir o'zidan! Siquvga ol!

RUSTAMNING UCHINCHI KUNDALIGIDAN

Avgustning to'qqizinchi kuni

Kecha mening eng baxtli kunim edi.

Bugun — eng badbaxt kunim...

Avgustning o'ninchi kuni

Menga nima bo'ldi o'zi?

Yangasi nega ketmaydi? Eshik tagida qorovul bo'lib o'tirishi shartmi?

Avgustning o'n birinchi kuni

Ertalab chiqib ketayotganimda onam qattiq tayinladi. "Chillalisan, jon bolam, kun botmasdan uyga kel..."

...Oyog'im tortmayapti... Nega buncha hayajonlanaman?

Avgustning o'n ikkinchi kuni

Ichib keldim... Shahnoza avval hayron bo'ldi, keyin... yig'ladi. O'zimning ham xo'rligim kelayapti.

Avgustning o'n uchinchi kuni

Nonushta ustida oyim menga yettita, Shahnozaga yettita mayiz yedirdi. Sedana sepilgan bitta shirmoy nonni ikkiga bo'lib, yarmini Shahnozaga, yarmini menga uzatdi. Yalpizmi, isiriqmi hidi anqib turgan choy quydi. "Bismillo deb yenglar, ixlos bilan ichinglar, jon bolalarim", dedi. Shahnoza uyalib yerga qaradi, ammo oyimning aytganini qilib shirmoyni yedi, choyni ixlos bilan ichdi.

Avgustning o'n to'rtinchi kuni

Yotar oldidan Shahnoza shirin jilmaydi.

— Bugun uyimizga mehmon keldi...

Hayron bo'ldim.

— Qanaqa mehmon?

— Toping-chi?

Indamay yelkamni qisdim.

— Topolmaysizam! — Shahnoza mening yostig'imni quchoqlab turib, bolalarcha sodda quvlik bilan kuldi.— Uzoq qarindoshlaringiz orasida xushtoringiz bormidi? — Erkalanib burnimni beozor chimchiladi. — Qani, eslab ko'rsinlar-chi!

— Jinnimisan! — dedim kulib.

— Shunaqasiz-da! — U shodon qah-qah urdi. — Demak bor ekan-da!

Betoqat qarab turganimni ko'rib tushuntirdi.

— Bugun folbin keldi. Xolavachchangizmi-yey, ammavachchangizmi-yey... uzoq qarindoshingizning qizi bor ekan. Sizdan umidvor ekan... Siz bevafolik qilib, tashlab ketibsiz. Shunga... "bog'lab" qo'yganmish.... Yaxshimas-da, bir bechorani kuydirib, boshqasiga uylanish...

Shahnoza yana kuldi. Kulgisi yig'iga o'xshab ketdi.

Avgustning o'n beshinchi kuni

Maykamni almashtirayotgan edim, Shahnozaning hayajonli hitobini eshitdim:

— Voy, nima bu, Rustam aka?

Qarasam, ko‘zlari qo‘rquvdan katta-katta ochilib tikilib turibdi.

Maykamni shosha-pisha kiyayotgandim, Shahnoza yugurib kelib, belimni siladi.

— Og‘riyaptimi? — dedi xuddi o‘zi azob chekayotgandek iztirob bilan.

Kuldim.

— Qiziqmisan! Esimdan ham chiqib ketgan. Shunchaki, daydi o‘q.

Shahnoza gapimga ishonmadi. Chandiqni silab, ko‘zimga shunchalar qo‘rqib termuldiki, jahlim chiqdi.

— Esing joyidami? Hech gap yo‘q dedim-ku... Oyimlarga aytib yurma.

Avgustning o‘n oltinchi kuni

Nonushta ustida Tursunboy aka kelib qoldi. Shahnoza shoshilib uyga kirdi-da, boshiga harir ro‘mol yopib chiqdi. Kuyovjo‘raga uch marta ta’zim bajo aylab, “kelin salom” qildi. Tursunboy aka “baxtli bo‘ling, singlim, qo‘sha qaringlar”, deb kissasidan yigirma besh so‘mlik chiqardi.

— Shahnoza, qizim, — dedi oyim. — Tursunboy begona emas. Rustamjonning kuyovjo‘rasi. O‘zingizning akangizdek gap.

Shahnoza boshidan harir ro‘molini yechdi. Tursunboy akaga barmoqlarining uchiga piyola qo‘ndirib choy uzatdi.

— Xola! — dedi Tursunboy aka dilkash shang‘illab. — Kuyov to‘rani bir o‘ynatib kelsam nima deysiz. Maylimi, kelin? — dedi Shahnozaga yuzlanib. — Bi-ir shamollab kelsin-da, kuyov to‘ra! Qani, otlan, uka!

Ko‘chaga chiqqanimizda dashnom berdi:

— Shunga shuncha motammi? Kim aytadi seni urush ko‘rgan yigit deb!

Yuragim shuvillab ketdi.

— Nima “shunga shuncha”? — dedim xavotirlanib.

Bir kamim endi butun qishloqqa ovoza bo'lishim qoluvdi. Tursunboy aka ko'zimga birpas qarab turdi-da, tovushini pasaytirdi.

— Kuyovjo'ra bo'lganimdan keyin maslahat berishga haqim bormi axir? G'irt jinni ekansan-ku! Ichib kelishga balo bormi, chillasi chiqmagan kelinning yoniga!

Endi og'iz ochmoqchi edim, jerkib berdi.

— Nima qilasan, yo'q joydan gap chiqarib! Mana, o'zim ham... — Bir zum chaynalib turdi-da, ishonch bilan davom etdi. — Men ham bir haftagacha qo'shilolmaganman yangang bilan. Eshikdan kirsam oyoq qistaloq qaltiraydi... Yostiqqa bosh qo'ydim deguncha "uyoqdagi" o'liklar xayolimga kelaveradi. — Tursunboy aka ko'zimga sinchkov qarab qo'ydi. — Eng zo'r do'xtirga olib boraman. Tashvish qilma, begonamas, o'zimning pochcham. Manman degan urolog!

...Yangi ToshMIning past-baland yo'laklaridan o'tib, Tursunboy akaning pochchasini topguncha talay vaqt o'tdi...

Dotsent yorug' chehrali odam ekan. Iymanib turganimni ko'rib, Tursunboy akaga imo qildi:

— Tomosha bormi senga? Chiq-chi, qani!

Dotsent yarador belimni uzoq tekshirdi. Kaftining qirrasi bilan biqinimga urib ko'rdi.

— Peshob paytida achishmaydimi?

Bosh chayqadim.

— Peshob ravon tushadimi?

— Ha, — deb bosh irg'adim.

— Yolg'on "vizov" bo'lmaydimi?

Gapini anglamagan edim, tushuntirdi.

— Ya'ni... Peshobga borgingiz keladi-yu, bir-ikki tomchi tushib...

— Unaqasi yo'q.

— Yaxshi... — Dotsent chaqqon harakat bilan belimdan sonimgacha paypaslab chiqdi.

— Bolaligingizda "svinka" bo'lmaganmisiz?

Asabiylasha boshladim.

— Nima u?

— Bizda "tepki" deydi. Tomog'ingizga bez kelib, moyak shishmaganmi?

— Yo'q!

U o'ylanib qoldi.

— Avval xotin kishi bilan bo'lganmisiz? — dedi to'satdan.

Qarasam, mutlaqo jiddiy gapiryapti.

Nachora, e'tirof etdim. Ha, bo'lgan bunaqangi gunoh ishlar. Sudda ishlab yurganimda...

— O'shanda jarayon normal kechganmidi?

— Ha! — dedim qo'rslik bilan. — Risoladagidek bo'lgan!

Dotsent ranjimadi.

— Gap bunday, uka! — dedi samimiyat bilan. — Jo'n tilda qanday tushuntirsam ekan? Umurtqa pog'onasining dumg'aza qismida pastki organlar faoliyatini boshqaruvchi shoxchalar bo'ladi. Prostata bezlari, siydik qopchasi, moyak singari organlarni o'sha shoxobchalar boshqarib turadi. Sizda shohobchaning asab tolasi shikastlangan. O'q asab tolasiga tekkan.

Miq etmay, ko'ziga tikilib turganimni ko'rib, qayta boshdan tushuntira ketdi:

— Nerv sistemasi shunaqa nozik narsaki... Ayniqsa, aloqa paytida... Arzimagan shovqin, bir og'iz ko'ngilsizroq gap, yomon xotira... shunga o'xshagan narsalar tormozlanish jarayonini kuchaytirib yuboradi.

Kiyinayotganimda ishonch bilan taskin berdi:

— Jiddiy xavf yo'q. Hammasi yaxshi bo'ladi. Bu narsaga, ya'ni er-xotin orasidagi intim munosabatga tabiiy hol deb qarang. Hadeb shuni o'ylayversangiz o'zingizga ishonch yo'qoladi. Zanjirli reaksiya boshlanib ketadi.

Bir dasta dori qog'ozlar yozib, qo'limga tutqazdi.

— Ovqatga alohida e'tibor berasiz. Qazi, yong'oq, qizil sabzi, topilsa, baliq ikrasini ko'proq iste'mol qilasiz. Achchiq, sho'r narsalardan o'zingizni tiying. Ichkilik ichmaysiz.

Eshik g'iyqillab ochilib, Tursunboy akaning do'ppili boshi ko'rindi.

— Yop! — dedi dotsent negadir asabiylashib.

Chiqib ketayotganimda alohida ta'kidladi:

— Rustamjon! Yana bir gap. Iloji bo'lsa muhitni o'zgartirish kerak. Yashash muhitini. Hali aytdim-ku, sizda patologiya yo'q. Ereksiyaning ro'y berishi asab osoyishtaligiga bog'liq.

Tag'in hech baloga tushunmadim.

— Kelin ikkovingiz boshqa muhitda bo'lishingizga to'g'ri keladi. Vaqtincha bo'lsa ham... Yevropaliklar "nikoh sayli" degan gapni bekorga o'ylab topmagan...

Avgustning o'n yettinchi kuni

Ilang-bilang yo'l emish. Bir tomon qumli cho'l. Bir tomon — "zelyonka". "Zelyonka"dan o'q otilayotganmish. Qiziq, avtomat tovushi kelmasmish-da, yonimdan hushtak chalib o'tayotgan o'qlar ovozini aniq eshitarmishman. "Zelyonka"ga otay desam, avtomatim yo'q. Qochay, desam pana joy ko'rinmaydi. Bor bo'yimcha o'zimni yerga otibman... Bir mahal katta yo'ldan BMP yelib keldi. Qarasam, yonimdan shitob bilan o'tib ketayapti. "Olib ketinglar, meni olib ketinglar!" dedim sapchib turib. BMP to'xtamadi. "Obket! — dedim baqirib. — Obket meni!" BMP to'xtadi. Yetib borsam, Xayriddin qo'l cho'zib turibdi. "Chiqing, jo'ra, chiqing tezroq!" dedi. BMPga tortib chiqardi.

Cho'chib uyg'ondim... Uy ichi qorong'u. To'shakda o'tiribman. Yuragim gursillab urayapti.

— Nima bo'ldi? — dedi Shahnoza ovozi qo'rquvdan titrab.

— Hech nima. — O'zimni majbur qilib iljaydim. — Chanqadim. Bir piyola suv ber, Shahnoz...

Avgustning o'n sakkizinchi kuni

Uyg'onsam, derazadan g'ira-shira tong nuri tushayapti. Shahnoza toshoyna oldida o'tiribdi. Ichkiyimda. Qo'lida mittigina kiprik bo'yagich...

Indamay kuzatib yotaverdim. U ham qop-qora ko'zlarini bir nuqtaga tikkancha qilt etmay o'tiraverdi. Go'zal va jonsiz

haykaldek. Qaysi kelin o'ziga oro bermaydi. Qaysi kelin kuyovga yoqqisi, qo'ni-qo'shnilarga chiroyli ko'ringisi kelmaydi? Xayolimdan iztirobli o'y kechdi. Shahnoza pardozga o'tirgan-u, ikkilanib qolgan. Kim uchun pardoz qilsin? Nima uchun?..

Bir mahal tikilib yotganimni ichki sezgi bilan his etdi shekilli, yarq etib qaradi.

— Voy, uyg'ondingizmi? — dedi jilmayib.

Jilmayishi allaqanday ayanchli ko'rindi.

Hovli tomondan paqir bandining daranglagani eshitildi. Oyimmi, kelinoyimmi "signal" beryapti. Shahnoza — yangi kelin. Kelin degan kun yoyilguncha yalpayib yotsa uyat bo'ladi. Qo'ni-qo'shnilar kuyov charchatib qo'yibdi-da, noz uyqudan turmabdi, deb gap qiladi. Kelin hovliga suv sepishi kerak. Ko'cha eshik oldini supirishi kerak. "Nima bo'lganda ham!"

Shahnoza kiprik bo'yagichni toshoyna peshtaxtasiga qo'ydi-da, ildam o'rnidan turdi. Tezgina guldor xalatini kiyib, oyog'iga shippak ildi, hovliga shoshildi.

Avgustning o'n to'qqizinchi kuni

Kun botdi. Qorong'u tushyapti. Uyga borgim kelmayapti. Shahnozaning yuziga qarashdan qo'rqayapman!

Avgustning yigirmanchi kuni

Ko'chada Tursunboy akaga duch keldim. Velosiped minib ketayotgan ekan...

— Yaxshimisan, ukam, xursandchilikmi? — deb so'radi.

Hech kim bizning gap-so'zimizni tinglamayaptimi, degan andishada atrofga alangladim. Nazarimda Tursunboy aka ataylab ovozini baralla qo'yib gapirayotgandek, butun qishloq biri derazadan, biri darvozadan mo'ralab turgandek tuyuldi.

Turmayman bu yerda! Har birining ko'zi lazer nuriga, har birining qulog'i lokatorga aylangan, bekorchilikdan birovning

to‘shagida nima bo‘layotganini surishtiradigan maydakash odamlar orasida turolmayman! Uy talab qilaman! Jillaqursa, kaftdek boshpana bersin menga. Men uchun emas, aqalli oilam uchun, Shahnoza uchun!

O‘sha kuni

Talabalar shaharchasi arining uyasiga o‘xshaydi. Mandat degan serg‘alva tadbir avj pallasiga chiqqani uchunmi, tumonat odam. Hali shahar havosiga ko‘nikib ulgurmagan, ko‘ylak-shimi g‘ijimlangan yigitlar, uzun lozim kiygan, sochini maydalab o‘rgan qizaloqlar... Baqateraklar soyasida O‘zbekistonning ming bir burchagidan kelgan mashinalar... Oynavand eshiklar oldi qiy-chuv. Biri yalinib, biri po‘pisa qilayotgan otalar, atlas ko‘ylagining yoqasiga “Qahramon ona” medalini taqib olgan onalar...

Hay-hay-hay! Qo‘rqadi medalingdan! “Iye, onaxon siz Qahramonmisiz? O‘nta bola tuqqanmisiz, marhamat, kiring! — deydi. — O‘g‘lingiz kim bo‘lmoqchi? Injenermi? Kimyogarmi? Yuristmi? Bosh ustiga, ilmi bormi ishqilib? Bo‘pti-da! Sizning bolangiz o‘qimasa, kim o‘qiydi?”

Ovora bo‘lasan! O‘qishga kiradiganlarning ro‘yxati ikki oy oldin tayyorlab qo‘yilgan. Men ham yurist bo‘lmoqchi edim. Shu niyatda sakkiz oy sudda dastyorlik qilganman. Yaxshisiniyam ko‘rdim, yomoniniyam... Oxir-oqibat hafsalam ham sovidi... Tag‘inam o‘zimizning fakultetda adolat bor ekan. Bo‘lmasa, bungayam kirolmasdim.

Bilagiga qizil latta o‘ragan ikkitasi yo‘limni to‘sdi. Qiyin shulargayam, vositachi bo‘lish osonmi?

— Nari tursang-chi, uka! O‘qishga olib kiradigan odamim yo‘q. Boshqa ish bilan keldim.

Yo‘laklar kimsasiz. Iflos. Qog‘oz parchalari sochilib yotibdi.

Eshigiga “mestkom” degan yozuv ilingan xonada o‘tirgan, sochi kalta qilib qirqilgan qiz achinib bosh chayqadi.

— Sanjar Ollobergenovich hozirgina chiqib ketuvdilar. Nima deb qo‘yay?

— O‘zi bilan gaplashishim kerak, — dedim hafsalam pir bo‘-lib. — Zaril ishim bor edi.

— Endi yanagi jumaga keladilar. — Qiz astoydil yordam bergisi kelayotgani ko‘rinib turardi. — Bilasizmi, — dedi deraza oldiga borib. — Hov anavi qayrag‘och soyasida turgan qora “Volga” Sanjar Olloberganovichniki. Yo‘ldan dekanatga kirmoqchi edilar. Mashina oldida poylab tursangiz, tushib qoladilar.

— Nomeri nechchi?

— Nimaning nomeri? — dedi qiz tushunmay.

— Mashinaning.

— Bilmasam... — Qiz bir zum o‘ylanib turdi-da, qo‘shib qo‘ydi. — Menimcha boshlanishi o‘n bir.

“Boshlanishi o‘n bir” “Volga” oldida uzoq turib qoldim. Shaharcha hamon g‘ujg‘on o‘ynar, oynavand eshik tarafdan shovqin-suron eshitilardi. Nihoyat, yarashiqli kiyingan, qizlarnikiga o‘xshash lo‘ppi, oppoq yuzlarida o‘ziga ishonch, xotirjamlik aks etib turgan xushmo‘ylov yigit vazmin qadamlar bilan yaqin kela boshladi.

Tanidim! Axir bu — o‘zimizning “vojak”-ku! Paxtadagi voqeadan keyin meni o‘qishdan haydashga va’da bergan komsomol sardori Sanjar! O‘zgarmabdi. Faqat sal to‘lishibdi. Yanayam salobatli bo‘pqopti.

Men tomonga shubhali qarab qo‘ydi-da, mashina eshigiga kalit soldi.

— Sizni kutib turuvdim, — dedim yaqin borib.

U menga boshdan-oyoq razm solib chiqdi-da, elas-elas tanidi shekilli, samimiy jilmayib, qo‘l uzatdi.

— Siz bizda o‘qirdingiz-a! — dedi hamon jilmayib.

Qo‘liga tutqazgan arizamni sinchiklab o‘qib chiqdi.

— Problema yo‘q! — dedi ishonch bilan. — Yotoqxonadan alohida xona ajratamiz. O‘qishni bitirguncha kelin bilan turaverasizlar.

Hammasi ayon! Endi Shahnoza yotoq yo‘lagida tursichan yurgan talabalar orasidan o‘tib, burchakdagi oshxonaga borib, choy qaynatishi qoluvdi.

— Tushunmadingiz, — dedim sovuqqonlik bilan. — Bizga yotoqxona emas, uy kerak. Alohida kvartira...

U astoydil ajablandi:

— O‘ylab gapirayapsizmi, Rustambek! Domlalarning o‘zidan yuzga yaqin odam navbatda turibdi. Sizga, kechirasiz-ku, aspirantlar uyidan ham joy berolmaymiz.

— Menga aspirantlar uyi kerakmas, — dedim qaysarlik qilib.

Sanjar Ollobergan ovich tag‘in boshimdan oyog‘imgacha qarab chiqdi.

— To‘g‘ri, — dedi qo‘lidagi arizani silkitib. — Afg‘onistonda bo‘lgan ekansiz. Lekin uyoqqa sizni biz yuborgan emasmiz. Qolaversa, bizda “afg‘on” bolalar ko‘p. Har bittasiga alohida kvartirani qayerdan olamiz?

— Men “bola” emasman! — dedim g‘ashim kelib. — Gap shu, Sanjarbek! Arizamni qabul qildingiz, deb hisoblayman. Kelasi juma kuni nechanchi navbatda turganimni tasdiqlovchi qog‘oz yozib berasiz. Uyog‘i mening ishim!

Chamasi turqi-tarovatim qo‘rquvli edi shekilli, “mestkom” yelka qisgancha mashinaga o‘tirdi-da, osoyishta haydab ketdi. Shunda... qora “Volga”ni avval ham ko‘rganim yodimga tushgandek bo‘ldi. ZAGSga ariza topshiradigan kunimiz “Paxtakor” metrosi oldida Shahnoza shu mashinadan tushgandi... Tag‘in bilmadim...

Avgustning yigirma birinchi kuni

Shahnozaning yuzi allaqanday notekis bo‘lib borayotganini birinchi marta payqadim. Sinchiklab qarasam, husnbuzar toshib ketibdi. Moyupa surib shuncha urinadi, la’nati husnbuzar qasd qilgandek battar ko‘payadi.

Avgustning yigirma uchinchi kuni

Eski shahardan chars sotib oldim. Yaxshi! Faqat... Uyga borgim kelmayapti. Qorong‘i tushishidan qo‘rqayapman.

O‘sha kuni kechasi

Qop-qora soqolli “dux” meni bo‘g‘ayapti. Boshida salla. Qiziq, qo‘lida ham salla. Sallani sirtmoq qilib, bo‘ynimga soldi-da, ko‘zlari olayib, torta boshladi. Uray desam, qo‘lim yetmaydi. Nafasim qaytib, xirillab qoldim. “Dux” esa tishlarini g‘ijirlatib, sirtmoq uchini tortadi.

— Avtomat! Avtomatim qani?

...Sapchib turib ketdim.

— Avtomat! — dedim xirillab.

Ko‘zimni ochsam, karavot yonida, yerda yotibman. Shahnoza piyolada sovuq choy tutyapti.

— Iching, — dedi dag‘-dag‘ titrab. — Sizga nima bo‘ldi, Rustam aka?

Peshonamdan sovuq ter chiqib, Shahnozaning oyog‘idan quchdim.

— Qo‘rqma, Shahnoz, — dedim yupatib. — Hozir... hozir o‘tib ketadi... Shunchaki, tush ko‘rdim...

Avgustning yigirma to‘rtinchi kuni

...Ko‘zlari... hayrat aralash mehr bilan yonib turadigan ko‘zlari qovjirab ketibdi. Ming yil uyqudan qolgan odamdek. Kelin degani to‘ydan keyin yayrab-yashnab, ochilib ketguvchi edi. Shahnoza ko‘z o‘ngimda so‘lib borayapti.

Avgustning yigirma beshinchi kuni

Kechqurun uyga kelsam, Shahnoza hovliga suv sepayotgan ekan. Egnida xalat, jiyakli atlas lozim.

— Ayam keldilar, — dedi qulog‘imga pichirlab. — Kirib, so‘rashing.

Ko‘zida quvonch, ovozi xushchaqchaq edi.

Qaynonam oyimning oldida juda yosh ko‘rinadi. Aylanib- o‘rgilib so‘rashdi. Peshonamdan o‘pib ko‘risharkan, ko‘zimga xavotirlanib qarab qo‘yganini aniq sezdim.

Yotoqqa kirsam, Shahnoza divan oldida turibdi.

— Ko'zingizni yuming! — dedi erkalanib. — Yo'-o'q, unaqasi ketmaydi. Yaxshilab yuming. Ana shunaqa! Mana bu sizga! Adamlardan — kuyovlariga!

Ko'zimni ochgan edim, qo'limga guldor salapan qopchiq tutqazdi.

"Montano" sport kastumchasi ekan.

— Qani, dadasining qizini bitta o'pib qo'ysinlar-chi! — Shahnoza kulimsirab yuzini tutdi... Yuzlari lovullab turibdi.

Avgustning yigirma oltinchi kuni

Dotsent ochiq chehra bilan kutib oldi. Nima o'zgarish bo'layotganini so'radi.

— Eng muhimi — qo'rqmang! — dedi bir boshdan tushuntirib. — O'sha pallada shoshmang. Hayajonlanmang. Kasalman, degan gapni xayolingizdan chiqarib tashlang. — Barmoqlari bilan stolni chertib o'tirdi-o'tirdi-da, o'ziga o'zi gapirayotgandek qo'shib qo'ydi. — Bunaqa paytda ko'p narsa ayolning mahoratiga bog'liq.

"Mahorat?" Qanaqa "mahorat"? Nima, Shahnoza j... midiki, "mahorat"ni namoyish qilsa?

Dotsent vajohatimni ko'rib, ko'zini olib qochdi.

— Meni aytdi dersiz, uka, — dedi yupatib. — Hali qo'sha-qo'sha farzandlar ko'rasiz. O'g'lingizning to'yida o'zim borib oshning eng shirin joyidan yeyman. Kelishdikmi?

Avgustning yigirma to'qqizinchi kuni

Shahar ijrokomining uy taqsimoti bo'yicha komissiyasi tergovga o'xshagan narsa bo'larkan. Uzun stol to'rida kalta yengli ko'ylak kiygan, jingalaksoch kishi o'tiribdi. Stol atrofida yigirma chog'li odam. Erkak-ayol aralash. Negadir hammasining qiyofasi bir xil: tund, loqayd. Faqat bir odam — majlis raisining o'ng tarafida o'tirgan kishi boshqalarga o'xshamaydi. Yuzi shunaqangi

ozg'in, shunaqangi rangsizki, birov eski o'likni go'rdan sug'urib chiqib, kalla chanog'iga teri yopishtirib qo'ygandek. Chakaklari ich-ichiga kirib ketgan, bo'yni ingichka, qiltiriq. Ammo toshbaqaning bo'ynidek sertomir, chayir... Yupqa lablari asabiy titraydi. Shunday issiqda qora kastum kiyib, bo'yinbog' taqib olgan, ko'kragi to'la orden, medallar. "Qizil yulduz", "Jangovar Qizil bayroq", "Vatan urushi"... Gap bunda ham emas. Ko'zlari g'alati, ko'zlari... Chor atrofga, odamlarga, olamga, boringki, o'ziga ham shu qadar cheksiz qahr bilan boqadiki, qarasa etingni seskantirib yuboradi. Baayni Yovuz Ruhning o'zginasi!

— Familiyangiz? — dedi Jingalaksoch men tomonga qaramay. Aytdim.

— Odamlarga nima bo'lgan o'zi, Soat G'aniyevich! — Jingalaksoch qo'lidagi "delo"ni Yovuz Ruh oldiga tashladi. — Shuncha egoizmni kimdan o'rgangan bu yoshlar! — dedi afsus-nadomat bilan.

Yovuz Ruh qog'oz titkilarkan, men tomonga qarab qo'ydi. O'zining haqligi-yu, mening nohaqligimga, o'zining qudrati-yu, mening ojizligimga ishonch bilan to'lib toshgan bu nigohda yana bir narsa — nafrat bor edi! Hatto "inqilob chavandozi"ning beliga "osilib" turgan prokuratura "bossi" ham menga bunchalik jirkanib qaramagandi. Beixtiyor ko'zimni olib qochdim.

— Uy kerakmi senga?

Xudo haqqi! Sharti ketib, parti qolgan keksa odamning ovozi shu qadar gumburlashini birinchi ko'rishim. Xuddi go'rdan chiqqan sadodek!

— Uy kerak bo'lib qoldimi? — dedi Yovuz Ruh tag'in tahdidli gumburlab.

Tamom! Hammasi tushunarli! Bulardan hech qachon, hech qanday najot yo'qligini angladim-u, vujudimda ajib yengillik sezdim. Nima qipti, birinchi marta ko'rayapmanmi bunaqa hangomalarni!

— Ha! — dedim o'zimni bosishga urinib, — Uy kerak!

— Domlalarga yo'q uyni senga qayoqdan topib bersin?

— Unisini bilmadim, — dedim rostini aytib. — Ammo menga uy kerak. Xotinim bilan yotoqxonada turolmayman!

Yovuz Ruh ko'zimga teshib yuborgudek uzoq tikildi.

— Biografiyangda yozibsan! — dedi qog'oz varaqlab. — Shahar sudida ishlagan ekansan. Bir yil ishladingmi?

— Sakkiz oy...

— Nega haydashdi?

— Haydashgani yo'q, — dedim xotirjamlik bilan. — Ishlagim kelmadi.

— Eshitdingizmi, Dmitriy Stepanich! — Yovuz Ruh Jingalaksochga qarab kuldi. Kulgisi g'alati ekan. Xuddi kaltakesakning tomoq qoqishiga o'xshaydi. — Sud organida ishlagilari kelmabdi... Xex!

Jingalaksoch indamadi. Charchoq qiyofada boshini kaftiga qo'ygancha tirsagi bilan stolga tayandi. Bir chekkada yotgan "Malboro" sigaretidan olib, yaltiroq chaqmoqtosh yoqdi.

Uzun stol atrofida o'tirgan bir xil qiyofadagilar bir xilda sukut saqlashar, hayhotdek xona jimjit, Yovuz Ruh varaqlayotgan qog'ozlar g'ayritabiiy baland ovozda shitirlar edi.

— Afg'onda xizmat qilgan ekan, — dedi Yovuz Ruh. — Bosh argumenti shu.

— Nachora? — Jingalaksoch tutun qaytardi. Yuzimga tikilib turib, anchayin osoyishta ohangda tushuntirdi — Sizni Afg'onistonga biz yuborgan emasmiz, yigitcha.

— Uyoqqa borganimga men ham afsuslanaman! — dedim *sovuqqina qilib.*

— Qo'yib bersa dushman tomoniga ham o'tib ketadi bunaqalar. — Yovuz Ruh o'yib yuborgudek chaqchaydi. — Shoshma! — dedi navbatdagi qog'oz varag'ini ajratib olib. — Otang kolxoz raisi ekan-ku! To'g'rimi shu gap?..

— To'g'ri.

— Rais bo'lsa bitta o'g'liga Toshkentdan uchastkami, kooperativ uymi olib berishga kuchi yetmaydimi?

Kuldim.

— Bundan chiqdi... Rais otam menga uchastka yoki kooperativ uy olib bersa, hammasi o'zidan o'zi hal bo'ladi. Shunaqami?

— Pajalsta! — dedi Yovuz Ruh qo'l do'lg'ab.

Jingalaksoch uning xulosasini darhol quvvatladi:

— Shaxsiy mulk sotib olishga har bir grajdanning haqqi bor.

— Shunaqa-ku... — dedim kinoya bilan. — Otam endi rais emas-da! Lagerda yotibdi. Shimoliy Qozog'istonda! "O'zbek ishi" bilan qamalgan.

Yovuz Ruhning ko'zlari yonib ketdi.

— Ax-da! — dedi g'o'ldirab. — Ko'rdingizmi, Dmitriy Stepanich! Bu... — ipdek barmog'ini bigiz qilib, meni ko'rsatdi. — Bu — shubhali shaxs! Biografiyasini yolg'on yozgan. Otasi qamalganini ataylab yashirgan. Jamoatchilikni chalg'itmoqchi bo'lgan.

— Qiziq... — dedim yasama loqaydlik bilan. — Otam raisligidan foydalanib, menga uy olib bersa, qonunga xilof emas. Dadamning qamalganini yozmasam — jinoyat ekan-da!

— Sen... sen... gapni chalg'itma, unsur! — Yovuz Ruh o'rnidan turib ketdi. Toshbaqanikidek ingichka bo'yni battar tirishib, boshi asabiy qaltiradi. Ko'ksidagi ordenlari jiringlab ketdi. — Bo'shatib qo'y kabinetni!

— Hayajonlanmang, Soat G'aniyevich! — Jingalaksoch Yovuz Ruhni yupatdi — O'tiring!.. Yigitcha! — dedi murosaga chorlovchi ohangda. — Sizga kvartira berolmaymiz. Bo'pti, sizga ruxsat.

— Uy kerakmish bunga! — Yovuz Ruh hamon g'azabini bosib ololmasdi. — Ana, xotiningnikiga borib tur!

Chiqib ketardim-u, gapi nash'a qildi.

— Musulmonmisiz? — dedim qonim qaynab. — Musulmonchilik qoidalarini tushunasizmi?

— Men hech qanaqa musulmonchilik-pusulmonchilikni bilmayman! — Yovuz Ruhning boshi soat kapgiridek likilladi.

— Men bilaman! — dedim qaysarlik bilan. — Ichkuyov bo'lishni xohlamayman!

— Bo'lmasa, xotining bilan ko'chada yotib yuraver!

Boyadan beri tilimni tiyib turgan edim. Yovuz Ruhning gapi jonimdan o'tib ketdi. Aytmasligim kerak bo'lgan gapni aytib yubordim:

— Nega shu tuproqda tug'ilib o'sganlar shahar chekkasiga chiqib, loy changallaydi-da, kecha kelganlarga uy tayyor?

— Nima? — Jingalaksochning ko'zlari tahdidli qisildi. — Nima dedingiz?

— Aniqroq qilib aytaymi? — dedim g'azabdan ovozim qaltirab. — Nima uchun o'zbekka uy yo'q-da, kecha vagondan tushganlarga uy tayyor?

— Shunaqa deng? — Jingalaksoch labining bir cheti bilan kinoyali iljaydi. — Demak, siz Toshkent faqat tub aholiniki, g'ayrimillatlar ketsin, demoqchisiz? To'g'ri tushundimmi?

— Yo'q! — dedim bosh chayqab. — Ilgari kelganlar ketsin, demoqchi emasman. Endi kelayotganlar kelmasin, demoqchiman. Aholi o'zimizda ham...

Uyog'ini aytolmadim. Stol atrofida o'tirgan bir xil qiyofalilar to'satdan har xil qiyofaga kirdi. Har xil ovozda hayqira boshladi. Biri ko'zi olayib baqirdi, biri chinqirdi, yana biri hayratdan yoqasini ushladi. Faqat aybnomasi bir xil edi. Millatchi! Xalqlar do'stligining dushmani!

— Jim! — Guvillab turgan yo'g'on-ingichka tovushlarni gumburlagan sado taqqa to'xtatdi. — Jim bo'l! — dedi Yovuz Ruh o'kirib. Qaltiroq qo'lini paxsa qilib qichqirdi. — Unsur! — dedi og'zidan ko'pik sachratib. — Seni o'z qo'lim bilan otib tashlashga tayyorman! — Keyin Jingalaksochga yuzlandi. — Militsiya bormi bu dargohda, Dmitriy Stepanich! Bunaqa banditlarni tiyib qo'yadiganlar bormi-yo'qmi ispolkomda!

Jingalaksoch vazmin odam ekan. Shoshilmay o'rnidan turdi.

— Qo'ying, Soat G'aniyevich! — dedi tasalli berib. — Asabingizni asrang.

Sekin-sekin yurib yonimga keldi.

— O'rtoq Shomatov, — dedi quruq va rasmiy ohangda. — Sovet grajdani sifatida davlatdan kvartira olishga haqlisiz. Navbatingiz kelsa — olasiz. Siz — ozodsiz!

Qarang, qanday yaxshi! Menga ozodlik hadya etyapti!

Mana, maynavozchilik tomoshasi tugayapti. Hammasi joyida. Hammasi risoladagidek.

— Ruxsatingiz bilan bir narsani so'rasam, — dedim iloji boricha muloyim qilib. — Navbatim qachon keladi?

Jingalaksoch mendan ham muloyim jilmaydi:

— Yuz yildan keyin!

O‘sha kuni

Garangsib ko‘chaga chiqdim. Chars chekkim kelardi. Mayli, biz kambag‘allarga “Prima” ham teshib chiqmaydi! Endi sigaret tutatsam, yonbosh tomondan g‘o‘ldiragan ovoz keldi:

— Chekishdan ol, uka!

Ensam qotib burilib qaradim. Kim bo‘ldi bu? Avvaliga eslolmay turdim-u, tamakidan sarg‘ayib ketgan tishlarini ko‘rsatib, iljayganidan tanib qoldim.

— Iye, Mauzer aka!

— Qalaysan? — dedi u qo‘limni qisib. — Shomansur akadan xabar bormi?

— Xat keldi. Yurganmishlar...

— Mayli, uka, sabr qilinglar! — dedi u sigaret tutatib. — Meni aytdi, dersan, bu olatasirlar bosiladi. Narisi bilan uch-to‘rt yil. Jim yuribsanmi ishqilib? Hech qayoqqa bormadingmi?

— Bordim. Respublika prokuraturasiga.

— KPZga tiqmadimi?

— Yana bir marta kelsang, jinnixonaga jo‘nataman, dedi.

— To‘g‘ri aytibdi! — Mauzer Soatovich iljayib qo‘ydi. — Jo‘natadiyam! Ularga cheklanmagan huquq berilgan.

— Dadamning ordenini topshirdim. Ambarsumyanga berib qo‘ysin.

— Bekor qipsan! — U keskin bosh chayqadi. — Dadang ordenni halol mehnat qilib olganlar.

— Bo‘lmasa, halol mehnat qilgan odamni qamoqqa tiqmasin.

Mauzer aka “shu gapni menga aytayapsanmi?” degandek ta’naomuz qarab qo‘ydi. Birpas sukut saqlab turdi-da, so‘radi:

— Bu yerda nima qilib yuribsan?

— Uy masalasida kelgandim.

— Uyni nima qilasan?

— Uylandim, — dedim xushlamay.

— Zarilmidi? Nima qilarding yosh boshingga bo‘yinturuq ilib?

G‘ashim kela boshlaganini sezib, yelkamga qoqdi.

— Men-ku, ovqatlanib oldim, — dedi kulimsirab. — Qorning qalay? Bu yerning oshxonasida lag‘monni boplaydi. Yeysanmi?

Indamay bosh chayqadim.

— Yur, bo'lmasa, salqinroqqa boraylik.

Ro'paradagi boqqa kirdik. Kamalakrang xarrakka borib o'tirdik. Bog' ichi dim, bolalar qiy-chuv solib oto'yin uchar edi.

— Komissiya majlisi bo'ldimi? — dedi, u menga qaramay. — Zampred boshqargandir yig'ilishni? Sochlari jingalak Vasilyev?

Bosh irg'adim.

— Nima dedi?

— Yuz yildan keyin navbatim kelarkan.

— To'g'ri aytibdi! — Mauzer aka xunuk xirillab kuldi. — Bu o'rtoq, — dedi tushuntirib. — O'zbekistonga yordam berish uchun Markazdan kelganlardan.

Menga nima? Markazdan keladimi, Amerikadanmi?

Mauzer aka mung'ayib o'tirganimni ko'rib, yelkamga qo'l tashladi.

— O'zbekning maqolini eshitganmisan? — dedi ko'zimga tikilib, salqigan qovoqlari lipillab ketdi. — Mehmon — otangdan ulug'. Zo'r maqol-a? — Tag'in kulgan edi, yo'tal tutdi. — Shunaqa! — dedi tuflab. — Uyingni to'rini bo'shatib berasan. Oxirgi ko'ylagingni sotib bo'lsa ham, dasturxon yozasan. Noz-ne'matlarni to'ldirib tashlaysan. Mehmon, iya, bular jannatda yasharkan-ku, deb o'ylab qoladi. Ketayotganida yelkasiga to'n yopasan. Xotiniga bir jo'ra atlas berasan. Bolalariga meva-cheva... Mehmon yana o'ylab qoladi. Iye, pora berayapti-ku, bundan chiqdi, bir balosi bor, deydi... Keyin... mazaxo'rak bo'ladi. Ertasiga o'nta mehmon keladi. Senga poygak ham tegmay qoladi. Hovliga chiqasan. Indiniga yuztasi keladi. Hovligayam ega chiqadi. Ko'chaga chiqib ketasan. Ko'chayam torlik qilib qolsa, "fish-sh-sht!" — U hushtak chalgan edi, og'zidan tupuk sachrab ketdi. — Uchasan, kosmosga!

Mauzer Soatovich jimib qoldi. Salqigan qovoqlari orasida miltirab turgan ko'zlarida g'ussa bor edi.

— Xalqlar birodarligi degan narsa — muqaddas tushuncha, — dedi xo'rsinib. — Ammo bir yurt ikkinchi yurtni azbaroyi baxtli qilish uchun bosib olmas ekan. Bundan o'ttiz yil, qirq yil avval yurtimizga kelgan birodarlarimizda insof bor edi... Endi bo'lsa... — U hafsalasizlik bilan qo'l siltadi. — O'zimizda yuz minglab ishsizlar

yuribdi salanglab, ittifoq tasarrufidagi korxonani quradi-da, yigirma ming-o'ttiz ming "mutaxassis" olib keladi. Qurgan zavodi respublikaga shimildiriq ham bermaydi. Havo bilan suvni zaharlagani qoladi. — Birpas jim qoldi-da, o'rnidan turdi. — Bo'pti ketdik, ukam, seniyam yuragingni siqib yubordim...

Katta ko'chani kesib o'tayotganimizda, istehzoli iljaydi.

— Markaz nega shunaqa qilayotganini bilasanmi? Xalqaro qonun bor: qaysi yurtda tub aholi soni ellik foizdan kam bo'lsa, "milliy ozchilikka" aylanib qoladi, ya'ni o'sha yurtga egalik huquqini yo'qotishi mumkin. Mana, maqsad qayerda yotibdi! Bo'pti, xayr! — U asabiy qaltirayotgan qo'lini cho'zdi. — Sening uying masalasi bo'yicha, albatta, maqola yozaman! — dedi ishontirib. — Yana ellik uchta "afg'on"ning xati qo'limda turibdi!

Sentabrning birinchi kuni

O'qishlar boshlandi. Ikkinchi kursga kirib, uyalib ketdim. Ukam tengi oltita bola o'tiribdi. Qolgani qizlar. Hammasi oftobda erkalanib sho'xlik qilayotgan mushuk bolaga o'xshaydi. O'n ikki nafar yigit armiyaga ketibdi...

"Mushukchalar" menga-ku uncha e'tibor berishmadi. Ammo hammasi oxirgi qatorda o'tirgan, bir ko'zi ko'r, og'zi qiyshayib ketgan yigitga xavotirlanib, hatto irganib qarayotganini auditoriyaga kirgan zahoti his qildim.

Bildimki, "afg'onlar"dan. Yoniga borib o'tirdim.

— O-o-otim T-s-solijon... — dedi duduqlanib. ("S"ga "T"ni qo'shib gapirmasa, tili aylanmas ekan).

Solijonning yuzi chindan ham qo'rqquvli edi. Chap ko'zi ko'r, og'zi qiyshiq, chap yuzi olovga tushgan maxsidek g'ijimlanib ketgan. Tutilib-tutilib aytgan hikoyasidan shuni angladimki, Qobul tomonlarda benzovoz haydagan ekan... Uyoqqa ketishdan oldin matematika kulliyotida o'qirkan. U yerdagi fanlar og'ir bo'lgani, miyasi muttasil og'rishini hisobga olib, bizga o'tkazishibdi.

— Uyoqda nima bo'ldi? — desam, duduqlanib tushuntirdi:

— Fu-fu-fugas portladi...
Yelkasidan quchib, yuzidan silagim keldi.

Sentabrning yettinchi kuni

Respublika gazetasida "Afg'oniston jangchilariga munosabat shumi?" degan maqola chiqibdi. O'zim bexabar edim. Tanaffusda Shahnoza qo'limga gazeta tutqazdi. (Xotining to'rtinchi kursda, o'zing ikkinchida o'qisang, qiziq bo'larkan). Maqolada shahar ijrokomi, xususan rais o'rinbosari D. S. Vasilyev Afg'onda jarohatlangan askarlar qismatiga befarq qarayotgani, bu masalada shikoyatlar ko'pligi aytilgan edi.

Biri telefon, biri uy, tag'in bittasi oddiy tabobat yordamiga muhtoj bo'lib yurganlarning uzundan-uzoq ro'yxatida mening ham ismi-sharifim bor edi. Qiziq odam-da, Mauzer aka! "Bular bilan olishishdan naf yo'q", deb menga nasihat qiladi-da, tag'in o'zini o'tga uradi! Nima foydasi bor!

Sentabrning sakkizinchi kuni

Shahnoza "ayamni sog'indim, ko'rib kelamiz", deb turib oldi. Avvaliga tushunmadim. Muncha tiqilinch? Keyin birdan yodimga tushdi. Axir bugun sakkizinchi-ku! To'yimizga rosa bir oy bo'ldi. Voy, Shahnoza-yey! Voy, shum-ey! Yo'ldan gul, tort oldik.

...Bu ko'cha menga yaxshi tanish. Bir vaqtlar mana shu tol tagigacha kuzatib qo'yardim. Uyog'i Shahnozaning ta'biri bilan aytganda, "taqiqlangan zona" edi: qo'ni-qo'shnilar ko'rsa gap-so'z ko'payadi... Bir oy ilgari shu ko'chadan jo'ralarim bilan qiychuv qilib kirib bordik. Hozir ham qulog'im ostida nog'ora sadosi, karnayning tantanavor ovozi yangrab ketgandek bo'ldi. Endi bu ko'cha — mening ham ko'cham. Anavi kungurador darvozali uy — mening ham uyim! Kuyovman... Harqalay!

Darvozani Dilnoza ochdi: Shahnozaning qaqajon singlisi. Opasining bo'yniga osilib, ikki yuzidan cho'lpillatib o'pdi.

— Rustam aka, salom! — dedi katta qizlardek qo'l cho'zib.

— Pochcha degin, jinni! — Shahnoza dashnom berib, ulgurmasidanoq Dilnoza hovliga yugurdi.

— Ayajon! Shahnoza opam bilan Rustam akamlar kelishdi!

Shahnozaning "qiz o'tirishi"da kelganimda odam ko'pligi uchunmi, hovli tordek ko'ringan edi. Endi razm solsam, keng-mo'l ekan. Hovli o'rtasida gulzor yashnab yotibdi. Marmar favvoradan suv zarralari otiladi. Did bilan gir aylantirib solingan uylar yaraqlaydi. Ochiq ayvon nafis pardalar bilan to'silgan.

Qaynonam yugurib ayvondan tushdi. Avval mening peshonamdan o'pdi. Keyin Shahnozani quchog'iga oldi. Aylanib-o'rgilib ko'risharkan, Shahnozaga termulib turgan ko'zlarida "qalay, yangiliklar bormi?" degan unsiz savolni uqqandek bo'ldim. Ko'nglim cho'kib turib qoldim.

— Qani, ichkari kiringlar! — Qaynonam yelkamga qoqib iltifot qildi. — Qudam yaxshimilar? Quda buvamlardan xushxabar bormi? Hammanglar yaxshi o'tiribsizlarmi? — Ayvonga chiqayotganimizda ichkariga qarab, ovoz berdi. — Adajonisi! Qizingiz bilan o'g'lingiz keldi!

Ichkaridan qaynotam chiqdi. "Adidas" kiyib olgan, sochlari qop-qora, harakatlari yoshlardek chaqqon.... Ikkovimiz ko'rishayotganimizda qaynonam beozor koyidi:

— Voy o'lmasam, bu qanaqa yurish kuyovingizni oldida, allakimlarga o'xshab... Boring, kastum kiyib chiqing!

— Nima qipti, Rustam o'zimning o'g'lim! — dedi qaynotam do'stona jilmayib.

Shahnoza qo'ng'iroq qilib qo'ygan shekilli, dasturxon nozne'matlar bilan bezatilgan, o'rtada "Napoleon" konyagi, "Zolotoye kolso" arag'i turardi.Qaynotam dadamdan qanday xabar borligini surishtirdi.

— Xafa bo'lmanglar! — dedi dalda berib. — Buyam yurt boshiga tushgan to'y-da. Ko'rasiz, hammasi izga tushib ketadi.

Shahnoza birpasda yelib-yugurib xizmat qilishga kirishdi. Avval choy, ketidan sho'rva keltirdi. Qaynotam shokoladning zar qog'ozini yirtib, oldimdagi likopchaga qo'ydi. Konyak po'kagini ocha boshladi. Shahnoza menga ta'nomuz qarab turganini sezib, iltimos qildim:

— Qo'ying, ada, men ichmayman.

— To'g'ri qilasizlar! — dedi Shahnoza jilmayib. — Issiq kunda...

— Sen erkaklarning ishiga aralashma, xo'pmi, qizim! — dedi qaynotam erkalovchi ohangda. — Yaxshisi ayangga qarash...

Mittigina billur qadahdagi bir qultum ichkilikdan terlab ketdim.

— Vasilyevning po'stagini qoqishibdi-ku! — dedi qaynotam sho'rva ichaturib.

Tushunmadim.

— Kechagi gazetani aytaman! — Qaynotam kulimsirab bosh chayqadi. — O'zimga aytsangiz ham bo'lardi, Rustamjon. Dmitriy Stepanovich bilan yaxshi tanishmiz.

Bundan chiqdi qaynotam Jingalaksoch bilan... Ha, darvoqe, shahardagi kattakon "torg"ning boshlig'i bo'lganidan keyin taniydi-da.

— Buyog'ini o'ylamagan ekanman, — dedim qimtinib. — Mauzer Soatovich bilan tasodifan...

— Kim u Mauzer Soatovich? — dedi qaynotam gapimni bo'lib.

— Redaksiyada ishlaydi.

— Umuman, to'g'ri yozgan, — dedi qaynotam yana konyak quyib.

— Baribir bizga uy bermaydi, — dedim ishonch bilan.

— Nega bermas ekan? Beradi! Qani, oldik! Salomatlik bo'lsin! — Qaynotam samimiy iltifot qildi. — Olavering, Rustamjon. Nima qipti, jinday-jinday...

Iymanib sho'rva ho'playotganimda o'rnidan turdi.

— Bemalol yozilib o'tiravering, men hozir... — dedi-da ayvonga chiqdi. Zum o'tmay o'sha tomondan telefonni g'irillatib, raqam terayotgani eshitildi.

Xonaga gunafsharang baxmal muqovali albom ko'tarib Dilnoza kirdi. Niholdek nozik. Qosh-ko'zlari Shahnozaga o'xshab ketadi.

— Rustam aka, — dedi sirli qilib. — Bitta narsa ko'rsataymi?

Yonimdagi stulga o'tirdi-da, albomni ochdi.

— Mana! — dedi ko'zlarida bolalarcha tabassum yonib. — Qarang!

Bu o‘zimning Afg‘onistondan yuborgan suratim edi. Egnimda bushlat, boshimda shlemofon, yelkamda avtomat...

— Dilnoz...! — Ostonada paydo bo‘lgan Shahnoza albomga ko‘zi tushdi-yu yugurib keldi. Albomga qo‘l cho‘zgan edi, Dilnoza chaqqonlik qilib, shappa yopdi.

— Yig‘lagansiz! — dedi kattakon sirni ochayotgandek boshini sarak-sarak qilib. — O‘zim ko‘rganman, Rustam akamning suratini tomosha qilib, har kuni yig‘lagansiz!

Shahnoza duv qizarib ketdi.

— Xoin! — dedi mushti bilan yasama dag‘dag‘a qilib.

— Yig‘lagansiz! Yig‘lagansiz! — Dilnoza kula-kula ayvonga qochib chiqdi.

O‘sha tomondan qaynotamning ovozi keldi:

— Barnoshka! Men — Rasulevman. Dmitriy Stepanovichni ulagin... Stepanovich! Salom! Anavi masala bo‘yicha indinga borsa bo‘ladimi? Ha, Shomatov Rustam... Kelishdik, soat uchga!

Birpasdan keyin qaytib kirdi.

— Rustamjon! — dedi tushuntirib. — Indin soat uchga ijrokomga borasiz. Ikkinchi qavat, zampred qabulxonasi...

— Vasilyev degani o‘sha odam bo‘lsa, — deb boshlagan edim, qaynotam kulib, so‘zimni kesdi:

— Bemalol boravering. Yordam berishadi. Gazeta tanqididan xulosa chiqarsin-da, mundoq! Siz o‘zingizning qonuniy haqqingizni talab qilyapsiz!

Sentabrning o‘ninchi kuni

Eshikni ikkilanib ochdim. Mayli, Jingalaksoch qaynotamning so‘zini yerda qoldirmaslik uchun meni qabul qilishga-ku qilar. Ammo o‘sha odam men ekanimni qayoqdan bilsin? Ko‘radi-yu, haydab chiqaradi. Yuz yildan keyin ko‘rishishga va’dalashganmiz, axir!

Qabulxonada oyog‘ini chalishtirib sigaret chekib o‘tirgan sekretar qizdan bo‘lak hech kim yo‘q edi. Qiz ismi-sharifimni so‘radi.

— Bir minutga! — dedi-da, sigaretini kuldonga bosib o'chirdi. Shoshilmay o'rnidan turdi. Jinsi yubkasi shunaqangi kalta ekanki, xayolimga bema'ni o'y keldi: tabiiy zarurat yuzasidan anavinaqa joyga borsa, yubkasini ko'tarib ham o'tirmasa kerak. U charm qoplangan eshik ortida g'oyib bo'ldi-da, darhol qaytib chiqdi. Oppoq, lo'mbillagan sonlarini namoyish qilib, dik-dik yurib kelib, joyiga o'tirarkan, muloyim jilmaydi:

— Marhamat, o'rtoq Shomatov.

Xona unchalik katta emasdi. Ortiqcha hashamlar yo'q. Devorda "Partiya — davrimizning aql-idroki va vijdonidir", degan shior osig'liq turibdi. Kirib borganimda Jingalaksoch xona o'rtasida turgan ekan. Osoyishta yurib kelib, ko'rishish uchun qo'l cho'zdi.

— Dmitriy Stepanovich! — dedi o'zini tanishtirib.

Angrayib qoldim. Nahot tanimagan bo'lsa? Ikki hafta oldingi dahanaki "jang" nahot yodida bo'lmasa!

— Shomatov, — dedim ming'illab.

— O'tiring, o'rtoq Shomatov. — U to'rdagi stoldan g'ijimlanib ketgan tanish papkani olib keldi. Stol qirrasidagi kursiga, yonimga o'tirdi. — Qani, ko'raylik-chi, nima gap o'zi? — dedi vazminlik bilan.

Qog'ozlarni shoshmasdan varaqlashini kuzatib o'tiribmanu, hayolimda nuqul bir gap aylanadi. "Mazax qilyapti! Hozir muloyim jilmayadi-da, uzr, yigitcha, yuz yildan keyin kelasiz", — deydi.

— O'rtoq Shomatov! — dedi u hujjatlarni obdon tekshirib bo'lgach. — Garchand qonunni chetlab o'tishga to'g'ri kelsa-da, sizga yordam beramiz. Internatsionalist-jangchilarga ko'maklashish — bizning burchimiz. Hozircha eski fonddan ajratib turamiz. Keyin o'ylashib ko'ramiz...

— Nima? — dedim o'z qulog'imga ishonmay.

Dmitriy Stepanovichning moviy ko'zlarida tabassum paydo bo'ldi.

— Eski fonddan, — dedi tushuntirib. — Chilonzorda bir xonali kvartira bo'shagan. Anglashimcha, siz juda ham muhtojsiz. Yangi uy qurilib bitishini kutolmaysiz.

Gap ohangida "xafa bo'lmaysiz-da, birodar", degan ma'no bor edi.

— Orderni kelar chorshanba kuni Chilonzor ijrokomidan olasiz! — U xayrlashayotib qo'limni samimiy qisdi. — Uy to'yiga taklif qilsangiz, albatta, boraman!

Garangsib eshik oldiga borganimda qo'shib qo'ydi:

— Redaksiyaga rasmiy javob xati qilamiz. Ungacha o'zingiz ham ishim ijobiy hal bo'ldi, deb aytib qo'ysangiz yomon bo'lmasdi.

Eshik tutqichidan ushlagancha uzoq turib qoldim. Demak, tanib turibdi. Maqolani ham o'qigan. O'sha kungi "bezoriligimni" bir og'iz yuzimga solmadi.

— Rahmat, Dmitriy Stepanovich! — dedim hayajonlanib.

— Arzimaydi. Biron problema tug'ilsa, bemalol kelavering.

Tashqari chiqib, ro'parasidagi qayrag'ochga suyanib qoldim. Uzoq turdim. Kurant soati tantanavor zang urar, yaproqlari erta sarg'aygan qayrag'och kuz shamolida ohista shovullar edi. Yuragim shodon gursillardi. Bor ekan-ku adolat! Bu dunyoda haqiqat degan narsa ham bor ekan-ku!

"Mauzer akaning oldiga boraman. Hozir! Hoziroq! Keyin Shahnozadan suyunchi olaman. Adamga telefon qilamiz! Rahmat deymiz! Rahmat, ada, haqiqatni tiklashga yordam berganingiz uchun ming rahmat!"

O'sha kuni kechqurun

Er-xotin avtomat telefonda qo'ng'iroq qildik. Adam vazminlik bilan qutladi.

— Hali senlar ko'rganingni hech kim ko'rmaydi, bolalarim, inoq bo'linglar, senlarning baxtingni ko'rsam, bas, — dedi. Shahnoza ikkovimiz "Guliston"ga kirdik. Shahnoza jinday shampan ichdi. Yuzlari yonib ketdi. Xursandmiz!

Sentabrning o'n uchinchi kuni

Shahnozaning yuziga yana husnbuzar toshdi. Chinnidek tiniq chehrasi g'adir-budir bo'lib ketyapti.

Sentabrning o'n oltinchi kuni. Kechasi

G'alati tovushdan uyg'onib ketdim. Nima gapligini tushunolmay uzoq garangsib yotdim. Hushim joyiga kelganida anglab yetdim: Shahnoza teskari qarab yig'lab yotibdi. Unini chiqarmaslik uchun yostiqni tishlab olgan. O'kinch bilan, alam bilan yig'layapti. Har hiqillaganida gavdasi silkinib-silkinib ketadi... O'zimni uxlaganga solib yotaverdim.

...Yoningda jondan suygan odaming yig'lab yotsa-yu, sen aqalli bir og'iz shirin so'z bilan yupatolmasang, og'ir bo'larkan. ...O'lgim kelayapti...

Sentabrning o'ttizinchi kuni

Ko'chib o'tdik. To'g'ri, Shahnozaning yarim jihozlari Piskentda qolib ketdi. Ammo endi bizning o'z boshpanamiz bor! Har kuni oltmish chaqirimga qatnab yurmaymiz.

Dmitriy Stepanovich "eski fond" deganda vayronaga aylangan uyni tasavvur qilgan edim. Yo'q, bir xonali bo'lsa ham yaxshi ta'mirlangan, qutidekkina kvartira ekan... Kechqurun uyimiz mehmonga to'ldi. Oyim, akam, kelinoyim, bu yoqdan qaynotam bilan qaynonam, Dilnoza... Shahnoza o'z qo'li bilan osh damladi. Oyim "tup qo'yib, palak yozinglar, o'zlaringdan ko'payinglar", deb oq fotiha berdi. Uch erkak ikkita aroqni bo'shatdik. Xullas, hamma yoq bayram! Eng muhimi, eng... eng muhimi — Dotsent aytganidek, muhit o'zgardi. Shoyad endi...

Oktabrning boshlari

Qarasam, bufet tokchasida qo'g'irchoq turibdi. Qop-qora sochi ikkita qilib o'rilgan. Atlas ko'ylak, atlas lozim kiygizib qo'yilgan... Ko'zlari munchoqdek. "Qayoqdan keldi" desam, Shahnoza qo'g'irchoqni olib, bag'riga bosdi.

— Chiroylimi? — dedi jilmayib.

Qo‘g‘irchoq sochini silarkan, ko‘zining tub-tubida yashirinib yotgan mung yuzaga qalqib chiqqandek bo‘ldi.

Qiz bola nimaga esini tanimasdan turib qo‘g‘irchoq o‘ynaydi? Nima uchun “bolasi”ning sochini taraydi. Yuvintiradi, allalab uxlatadi?

Shahnoza hamon qo‘g‘irchoq sochini silar, mendan ko‘z uzmas edi. Indamay ko‘chaga yo‘l oldim. Chars chekkim kelayapti!

Ertasi kuni

Bu gal Dotsent ancha xomush muomala qildi.

— Bilasizmi, uka, nuqul shuni o‘ylab, yaxshi qilmayapsiz. Aytdim-ku, xayolingizda faqat bir narsa aylanaversa, tormozlanish kuchayib ketadi.

Qonim qaynab ketdi.

— Nima qilay bo‘lmasa! — dedim baqirib. — O‘ylamagin deb kallamni uzib tashlaymi?

Dotsent yelkamga kaftini bosib, ko‘zimga hamdardlik bilan uzoq tikildi.

— Axir xotinim tirik odam-ku, — dedim titrab. — Qo‘g‘irchoq emas-ku, do‘xtir! Ikki oy bo‘ldi!

Dotsent bir lahza o‘ylanib qoldi.

— Tushingiz buzilib eakulyatsiya bo‘lib turadimi?

Daf’atan gapini tushunmadim. Keyin borib yetdi kallamga.

— Nimaydi? — dedim g‘ashim kelib.

— Bir gap aytsam, ko‘nglingizga kelmaydimi? — dedi hardamxayol alpozda.

— Aytavering! Menda ko‘ngil qoptimi?

Dotsent ro‘paramga o‘tirdi.

— Avval ham gapirmoqchi bo‘lgandim-u, tilim bormagandi. — Uzoq jim qoldi-da, ikkilanibroq davom etdi.— O‘zbekka o‘zbek sifatida bu gapni aytishim noqulay. Vrach sifatida gapirishga ham haqqim yo‘q. — Tag‘in, birpas chaynalib turdi-da, qat’iy qarorga keldi shekilli, ishonch bilan dedi. — Agar mayl sezsangiz, boshqa ayol bilan bo‘lib ko‘rasiz! Yo‘q, kelin bilan ajrashing, demay-

man. Shunchaki, ko'nglingiz tusagan biron ayol bilan... Ko'p emas, bir-ikki marta. Hayotda bunday holatlar ko'p bo'ladi, Rustamjon. Bir ayolga munosabatda ro'y bergan tormozlanish boshqasi bilan bo'lganda yo'qolishi, ya'ni uyg'onish jarayoni normal izga tushib ketishi mumkin. Bilasizmi... — Boshini ko'tarib, ko'zimga qaradiyu, dami ichiga tushib ketdi.

— Men farishta emasman, do'xtir, — dedim ezilib. — Lekin Shahnozaning sadoqatiga javobim shu bo'ladimi?

Dotsent yerga qarab, xo'rsindi:

— Uzr, ukajon...

Oktabrning o'rtalari

Domimizda Qurbonoy xola degan xotin bor. Farrosh. Koptokdek dumaloq, qachon qarasa, qo'lidan supurgi tushmaydi. Allaqayerini onamga o'xshataman. Mehribonligimi, har gapda aylanib-o'rgilishimi...

Kechqurun eshik jiringlab qoldi. Chiqsam, Qurbonoy xola turibdi.

— Akang keldi, xolang tasadduq! — dedi yelkamga qoqib. — Peshinda kelgan edi. Biznikiga kirib o'tirib turaqoling, Rustamjon bilan kelin hali-zamon kepqolishadi, desam ko'nmadi. Shoshib turgan ekan, xat tashlab ketdi. — Qurbonoy xola konvertiga Piskent adresi yozilgan xatni uzatdi. Dadamdan.

— Uyga kiring, xola. Keliningizning ovqati tayyor bo'pqoldi, — deb harchand qistamay, rozi bo'lmadi.

— Umidaxon ikkinchi ismenda, xolaginang o'rgilsin. Nevaralarim yolg'iz. Xudo xohlasa, oyinglar kelganlarida, albatta, kiraman! — dedi-yu shosha-pisha tushib ketdi.

...Shahnoza ovqat keltirguncha divanga yonboshlab, xatni ikki marta o'qib chiqdim.

"Rustamjon, — deb yozibdi dadam. — To'ying bo'lganini o'qib, o'zimda yo'q sevindim. Mendan kelinga salom ayt. Nasib etsa, o'z yurtimga omon-eson borsam, Shahnoza qizimning qo'lidan albatta osh yeyman. "Sizning masalangiz bo'yicha oyog'im

yetgan joygacha boraveraman", debsan. Kalta o'ylama, jon bolam! Fe'lingni bilaman-ku, Rustamjon! Arzimagan narsaga lovillab ketasan. Shundoq yuvvosh akangni boshiga qay kunlarni solmadi bular! Dadam tinch bo'lsin, bir azobi ikki bo'lmasin, desang, hech kimning eshigini taqillatma! Hech kimga yalinma! Turgan-bitgani yolg'on-yashiqqa, zo'ravonlikka qurilgan bu yurtda adolat degan narsaning o'zi yo'q! Ammo bu gapni aytolmaysan. G'iring desang, urib belingni sindiradi!

Yoshim oltmishdan o'tib ko'p narsalarga endi-endi tushunyapman, xom sut emgan banda!

O'ylab qarasam, o'tgan umrim — umr emas, tush ekan. Go'yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirganu tush ko'rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko'rib. O'sha "birov" qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman, nima buyursa, quloq qoqmay bajaraverganman... Uyg'onishga esa qo'rqqanman... Mana endi, uyg'onib, yon-verimga qarasam menga o'xshaganlar ko'p ekan...

Ishonasanmi, o'g'lim: ba'zan qarab turib kulgim keladi. Xo'p, men-ku, "gunohkorman", "jinoyatchiman". Bizdaqa "yomonlar"ni "yaxshi" yo'lga soladiganlar-chi? Ular kim? Murodi nima? Razm solib qarasam, ular ham uzzu-kun tush ko'rib yurganga o'xshaydi. Vazifasi bitta: buyruqni bajarish... Ko'zida ma'no yo'q. Men ularni yomon ko'raman. Ammo qarab turib ba'zan shularga ham rahmim keladi. O'lganining kunidan, azbaroyi bola-chaqasini boqish uchun shu yumushni bajarib yurganga o'xshaydi, bechoralar... Xudo haqqi aqlim yetmaydi: bu qanaqa hayot?

Avvallari lagerdagi ba'zi og'ziga kuchi yetmaganlar, meni "bosmachi" desa, xafa bo'lardim. Endi parvo qilmayman. Bosmachi kim? Qaysi bosmachi qaysi yurtga bosib boribdi? O'z yurtini himoya qilgan odam bosmachi bo'ladimi? Yigirma-yigirma besh yil avval tug'ilmaganimga afsuslanaman, o'g'lim! Yigirma besh yil oldin, asr boshida tug'ilganimda edi, "bosmachilar" qatorida turib, haqiqiy bosmachilarning dodini bergan bo'lardim. Tog'-toshlarda o'lib ketsam rozi edim. O'shanda onang bechora meni uchratmasdi. Sen ham tug'ilmasding. Afg'onistonga borib o'zing ham azob chekmasding. O'zgalarga ham o'q otmasding!

Yana bir karra aytaman: Rustamjon, jon bolam! Militsiya, tergov, prokuratura degan idoralarning eshigiga yo'lay ko'rma! G'ing deb ovozing chiqdimi, milyon xil aybni bo'yningga shilq etib iladi-da, KPZga tiqadi. Keyin, dodingni Xudoga aytasan!

Bularning qo'liga tushishni dushmanimga ham ravo ko'rmayman, o'g'lim! Shunaqangi makkorki, qilayotgan hunarlarini ko'rsa Shaytoni la'inning og'zi ochilib qoladi. Shunaqangi beshafqatki, qo'llayotgan usullarini ko'rsa, fashistning labiga uchuq toshadi!

Adolat, haqiqat degan narsalarni izlab ovora bo'lma. Bunaqa gaplar qorga yozib, oftobda quritilgan. Yaxshisi, o'zingni o'yla. Onangni ehtiyot qil. Sen uyoqdasan, men — qamoqdaman... Onang sho'rlik ikkalamizning dardimizda adoyi tamom bo'ldi-ku!

Lager nachalnigi durust odam ko'rinadi. Oktabr oyida posilkaga ruxsat bergan. Iloji bo'lsa, jun paypoq, qo'lqop yuboringlar (Akangga ham yozganman bu gapni). Bu yurtlar sovuq... Nachalnik dekabrda svidaniye beramiz, deb va'da qilgan. Gapida tursa, yana xabar qilaman. Onang kelib, ovora bo'lib yurmasin. Ilhom ikkaloving kelsang, bas.

Mendan Shahnozaxonga salom ayt. Xudo nasibamni qo'shib omon-eson borsam, kelinimni peshonasidan o'pib, yana bir karra oq fotiha beraman. Duoi-salom bilan, dadang. 23-sentabr".

Oktabrning o'rtalari

Bugun Yovuz Ruhni ko'rdim. Gastronomda go'shtga navbat kutib turgandim, qarasam, oldinroqda u ham turibdi. Ko'zlari olovdek yonib, menga uzoq tikildi. Salom berishimni kutdi. Ko'ziga tik qarab turaverdim.

— Yoshlar aynib ketdi, — dedi yonidagi kampirga hasrat qilib. — Kattalarni izzat qilmaydi.

Hasrat qilayapti-yu, ovozi o'ktam, qahrli.

Qariganda ahvoli shu bo'lsa, yoshligida qanaqa bo'lganiykin? Xayolimga kelgan gapdan ichimda kulib qo'ydim: "Qari bo'ri!"

Bundan chiqdi, Yovuz Ruh shu atrofda turadi.

Oktabrning yigirmanchi kuni

"Qo'lga tushishim"ga sal qoldi. Kundaligimni "o'z joyi"ga — balkondagi eski qaqir-qugurlar solingan shkafning eng pastki tortmasiga yashirayotganimda, Shahnoza chiqib qoldi. "Nima qidiryapsiz?" degan edi, sigaret chekishga chiqqanimni aytdim. Ma'niliroq bahona topolmasam nima qilay? Shahnoza ko'zimga uzoq tikilib turdi-da, indamay uyga kirib ketdi. Shunaqangi sinchkovki, xohlasang, nima tush ko'rganinggacha aytib beradi...

Oktabrning yigirma ikkinchi kuni

Ro'paradagi domda turadigan qo'shnimiz o'g'lini uylantirdi. Ular bilan kirish-chiqishimiz yo'q... Umuman, domda turish g'alati... Qishloqda boring-ki, shahardagi mahallalarda ham qo'ni-qo'shni bir-birining issiq-sovug'idan xabar olib turadi. Yon qo'shnilar birov-biroviga bir kosa ovqat uzatadi. Erkaklar kechqurunlari choyxonaga chiqib gurunglashishadi. Birovnikida yaxshi to'y, yomon o'lim bo'lsa, hamma yopirilib keladi... Domdagilar... Nima desam ekan... toshbaqaga o'xshaydi. Ahyon-ahyonda zinadami, eshigingiz ro'parasidami, qo'shningizga duch kelasiz. Boshini kosasi ichidan chiqarib, xo'mrayib qarab qo'yadi. Na salom bor, na alik... Birpas qarab turadi-da, o'rmalab iniga kirib ketadi...

...To'yga chiqmoqchi emasdik-ku, Qurbonoy xola koyib berdi.

— Voy, xudo urdi-ketdi, Rustamjon bolam! Ko'zdek qo'shnining to'yiga chiqmaydimi odam degan? Shahnoz kelinimgayam ayt: xolam tayinladilar, degin, silkinib-silkinib xizmat qilsin! To'y degani ko'pchilik bilan bo'ladi-da, xolang qoqindiq! Xudo xohlasa, ertaga senlar ham beshik to'yi qilasan, o'g'il to'yi ko'rasan...

Xo'p, dedim. Shahnoza ertalabdan chiqib "silkinib-silkinib" xizmat qildi. Men ham nahorgi oshda lagan tashidim. Kechqurun ikki dom o'rtasiga yozilgan nikoh dasturxonini bezatishda ko'maklashdim... Qiziq, to'y degan narsaning Xudo nazar solgan g'alati fayzi bo'ladi, shekilli. O'zimning ruhimda ham ajib yengillik sezdim...

To‘y kechasi ochiq deb e’lon qilinganida ro‘paramizga ingichka mo‘ylovli sumkadek ozg‘in yigit bilan atlas ko‘ylak kiygan, qorni qappayib, yuzini sezilar-sezilmas dog‘ bosgan ayol kelib o‘tirdi.

Kelin-kuyov sha’niga aytilgan birinchi tabrikdan keyin ro‘paramizda o‘tirgan ayol jilmaygan ko‘yi menga gap qotdi:

— Tanimadingiz-a, Rustam aka! — Yonidagi yigitga o‘girilib, tanishtirdi. — Bu kishi — Baxtiyor akam...

Bir zum tikilib turdim-da, esladim.

— Iye, Habiba?

“Siz” deyishni ham, “sen” deyishni ham bilmay, kalovlanib qoldim.

Axir bu — Habiba-ku! O‘ninchi sinfda o‘qiyotganimda sakkizinchida edi. Menga zamondosh shoirlarning she’rlari qo‘shilgan ishqiy maktublar yozaverib, boshimni qotirib yuborgan qizaloq! Boyadan beri tanimay o‘tirganimga o‘zim hayron bo‘ldim. Judayam o‘zgarib ketibdi.

— Yaxshi yuribsizmi, Habibaxon? — dedim boshqa gap topolmay.

— Nishtyakman! — Habiba sho‘x jilmayib “Baxtiyor akasi”-ga yuzlandi. — Rustam aka bilan maktabdoshmiz... Kelinoyimizni tanishtirmaysizmi, mundoq, Rustam aka!

Shahnozani tanishtirarkanman, xayolimga noxush o‘ylar keldi. Nazarimda, Habiba, ko‘rib qo‘y, sen pisand qilmaganding, tengimni topdim, yaqinda farzandli bo‘lamiz, deyotgandek, Shahnozaga istehzo aralash tikilib-tikilib qarayotgandek edi... Xudoga shukr! It egasini tanimaydigan Toshkentdek shahri-azimda ham yana bir hamqishlog‘im topildi... Kim bilsin, qishloqdagi visir-visirlar Habibaning ham qulog‘iga yetgandir.

Hammasi jonga tegdi! Ichgim kelayapti!

...Bazm ayni qiziganda to‘rtinchi qavat derazasi ochilib maykachan bo‘lib olgan barzangi “o‘chir darang-durigingni!” deb hokimona buyruq berganda vujudimga titroq kirdi. Qarasam, to‘yxonadagi uch yuzga yaqin odam dami ichiga tushib, mung‘ayib turibdi. Kuyov bilan kelin sarosimada, mashshoqlar sozini g‘ilofiga soladigan... Bu qandoq gap! To‘y qilish gunohmi? Kimdan qo‘rqasan? Nimaga qo‘rqasan, qo‘yga o‘xshagan ovsarlar!

Umrim bino bo'lib, qo'limni ko'targan bola emasdim. Ataylab "Lazgi"ga o'ynadim.

Devor tagidagi stolda qiy-chuv ko'tarilganini, besh-olti xotin-xalaj orasida Shahnoza ham sapchib o'rnidan turib ketganini, jiqqa ho'l bo'lib, badaniga yopishib qolgan ko'ylagining yoqasini g'ijimlayotganini ko'rib, tepaga qaradim. Barzangi derazani lang ochgancha qo'lida yashil plastmassa paqir ushlab turibdi.

...To'rtinchi qavatga qanday chiqqanim esimda yo'q. Xudo haqqi, men unga qo'l ko'tarmoqchi emasdim. Qo'lidagi vino shishasini boshim ustida ko'targanidan keyin... uyog'i nima bo'lgani yodimda yo'q. Shahnozaning "o'ldirib qo'yasiz!" degan chinqirig'idan o'zimga keldim... Kim nima dedi, nima qildi, bunisiniyam eslolmayman. Faqat go'rdan chiqqandek guldiragan sado qulog'imga aniq-ravshan kirdi:

— G'irt millatchi ekansan, bola! Umring turmada chirib ketadi!

...Bu — Yovuz Ruhning ovozi edi.

Oktabrning yigirma uchinchi kuni

Farhod bozoridan mayda-chuyda xarid qilib kelayotsam, domning pastida, Qurbonoy xola o'ris kampir Klava xola bilan gaplashib turibdi. Salom berdim. Ruschalab.

— San, o'g'lim, xapa bo'ma! — dedi Klava xola sof toshkentcha shevada. — Ichvoganidan keyin ko'ngliga kegan qilg'iliqni qilgan-de, anu cho'chqa! Esi bo'sa, mundoq pastga tushmiydimi, o'tirmiydimi, odamga o'xshab...

Kechagi voqea yodimga tushdi.

— Qo'yavering, xola, — dedim kulib. — Shunchaki gap-da! Esimdan ham chiqib ketdi...

— Kelinni opkir manikigayam, — Klava xola sidqidildan tayinladi. — Mundoq kirish-chiqish qiliylik, bolam, ko'zday qo'shnimiz...

— Rahmat, xola, — dedim mehrim iyib. — O'zingiz chiqing biznikiga!

— Nasib etsa chiqaman, bolam... — Klava xola Qurbonoy xolaga yuzlanib tag'in o'z dardlaridan hasratlasha ketishdi.

O‘sha kuni kechqurun

Uyimizga Yovuz Ruh keldi. Yurakni siqadigan oqshom edi. Peshindan keyin osmonni mag‘zavadek kir bulutlar qopladi. Quyosh botganmi-yo‘qmi, bilib bo‘lmaydi. Diltang qorong‘ilik cho‘kdi. Tashqarida kuz shamoli ingraydi. Deraza ro‘parasidagi baqaterak-lar shoxi ayqash-uyqash bo‘lib, bandidan uzilgan xazonlar ko‘rsha-palakdek jonsarak parvoz qiladi.

Shahnoza tushdan keyin “ayamlardan xabar olib kelay”, deb uyga ketgancha hamon daragi yo‘q, ko‘nglim alag‘da edi. Eshik jiringladi. Yo‘q, bu Shahnoza emas. Shahnozada kalit bor, ochib kiraveradi. Hayron bo‘lib, eshikni ochsam, ostonada Yovuz Ruh tu-ribdi. Boshida qora shlapa. Egnida uzun, qora plash. Ko‘zlari yonib turibdi.

— Ikki og‘iz gap bor! — dedi-da, ruxsat so‘rab o‘tirmay, ich-kari kirdi.

Beixtiyor ortga chekinib, yo‘l bo‘shatdim.

Yovuz Ruh yo‘lakka kirib atrofni sinchkov kuzata boshladi. Xuddi bu xonadonda allaqanday shubhali shaxslar yashirinib yot-gandek... O‘zimga nash’a qildi. “Nega kirgazdim uyimga!”

— Xizmat? — dedim g‘ashim kelganini yashirmay.

— Gap bor! — U shlapasini yechayotgan edi, bilagidan tut-dim.

— Yechinishingiz shartmas.

— Chiroqni yoq! — dedi u g‘uldirab.

Asabiylashdim.

— Qorong‘idan qo‘rqasizmi?

— Men hech nimadan qo‘rqmayman. Yoq chirog‘ingni!

Uning zahil yuzi nimqorong‘ida yana ham oqarib ketgandek bo‘ldi.

Nega buyruq qiladi bu menga? Nega sensiraydi? Men uning o‘g‘li bo‘lmasam, nevarasi bo‘lmasam! Xayolimga g‘alati savol keldi. “Qiziq, shuning ham bolalari bormikin?”

— Menga qarang! — dedim tahdidiga tahdid bilan. — Gapingiz bo‘lsa ayting-da, chiqib keting.

Bu arvohni Shahnoza ko‘rishini xohlamasdim.

— Xex! — Yovuz Ruh kaltakesakdek tomoq qoqdi. — Kechagi qilig'ing bilan bir emas, to'rtta statya sotib olganingni bilasanmi? — U ipdek barmoqlarini bukib, sanay ketdi. — Birovning uyiga bostirib kirding — bir! Urib, mayib qilding — ikki! Millatchilik qilding — uch... Ispolkomdagi majlisda ham millatchilikka oid gaplar aytgan eding...

Bir qo'lim bilan eshikni ochib, ikkinchisi bilan yelkasidan tutdim. — Chiqing!

Yovuz Ruhning boshi soat kapgiridek likillab ketdi.

— Jo'nang! — dedim tahdid bilan. Tag'in bir daqiqa, atigi bir daqiqa o'tsa, o'zimni idrok etolmay qolishimni sezib turardim.

— Ko'ramiz! — U zina maydonchasiga chiqdi-da, qorong'ida ko'zlari yonib, gumburladi. — Otangni yoniga badarg'a qilmasam... Unsur!

Oktabrning yigirma beshinchi kuni

Kunduz kunlari metroda odam siyrak bo'ladi. Darsdan qaytayotgandik. Shahnoza o'rtaroqdagi o'rindiqda o'tirar, men yonida tik turgan edim. Metromi, avtobusmi, bo'sh joy bo'lsa ham o'tirmaslikka odatlanganman.

"Yoshlik" bekatida besh-o'n odam chiqdi. Ichib olgan shekilli, barkashdek basharasi qizarib ketgan yigit iljayib kelib, Shahnozaning yoniga o'tirdi. Surbetlarcha qarab-qarab qo'ydi-da, gapga soldi:

— Soatingiz nechchi bo'ldi, yaxshi qiz?

Shahnoza ensasi qotib yuzini o'girgan edi, yigit shappa bilagidan ushladi.

— Aytaqoling, jonidan!

Yoqasidan olib bir siltagandim, yaponcha kurtkasining zanjiri tirillab uzildi.

— Qo'yvor! — dedi tipirchilab.

Keyin nima bo'lgani esimda yo'q. Shunisi yodimdaki, navbatdagi bekatda poyezd to'xtashi bilan itqitib yubordim. U vagonga yopirilib kirayotgan odamlarga turtingancha gandiraklab borib, marmar skameykaga urildi, o'mbaloq oshib ketdi...

Tashqari chiqsak, yomg'ir shivalayotgan ekan... Sovuq va ze-

riktiruvchi kuz yomg'irining debochasi. O'zimni qo'lga olishga harchand urinmay, hamon titrog'im bosilmas, g'azabdan tishlarim g'ijirlayotganini sezib turardim.

— Yomg'irpo'sh olmagan ekansan-da, — dedim o'zimniyam, Shahnozaniyam yupatish uchun.

Shahnoza yuzini o'girdi. Rangi o'chib ketgan, lablari pirpirab turardi. Uygacha gaplashmay keldik. Eshikdan kirishimiz bilan Shahnoza tuflisini yechib uloqtirdi.

— Qanaqa odamsiz? — dedi to'satdan. — Qanaqa odamsiz o'zi? Bugun bittasini urasiz! Ertaga boshqasini bo'g'asiz! Kuniga bir karra yuragimni yormasangiz, ko'nglingiz joyiga tushmaydi! — U yig'lab yubordi. — Basharangizga qarang! Banditning o'zisiz!

Miyam zirqirab ketdi.

— Ha! — dedim baqirib. — Banditman! Kallakesarman! Chidasang — shu!

Shahnoza yuzimga yarq etib qaradi.

— Mushtlashishdan boshqa narsaniyam bilasizmi! — dedi ko'zlari g'azabdan yonib.

Yuragimda bir nima uzilib ketgandek bo'ldi.

— Balki bilagingdan ushlagani xush yoqqandir? — dedim o'kirib.

— Ha! — Shahnoza alam bilan yer tepindi. — Yoqdi! Bildingizmi, yoqdi! — dedi chinqirib. O'zining gapidan o'zi qo'rqib ketgandek, birdan jimib qoldi. Kafti bilan og'zini to'sib, yuzimga termulib turdi-da, ho'ngrab yubordi.

— Rustam aka! — dedi bo'ynimga osilib. — Kechiring, jon Rustam aka... — So'nggi so'zlarini yig'idan bo'g'ilib, pichirlab aytdi. — Qiynalib ketdim. Qiynalib ketdi-im!

O'SHA KECHA

Toshoyna tokchasida tunchiroq miltirab turibdi. Goh o'chadi, goh yonadi... Shahnoza allaqaysi "Sovg'alar magazini"dan topib kelgan tunchiroq... Jimjiloqning uchidek keladigan, shamga o'xshagan mitti chiroqcha goh yonadi, goh o'chadi. Muttasil qizil nur taratadi... Qizil nur!

Bilaman, Shahnoza uyg'oq... Shunchaki, o'zini uxlaganga solib yotibdi... Hali to'g'ri aytdi: mushtlashishdan boshqa nimayam kelardi qo'limdan! Rost aytdi. Tag'inam insofli ekan. Boshqa qiz bo'lsa...

— Shahnoz, — dedim bosiqlik bilan. — Seniyam qiynab yubordim. Rahmat, shuncha chidading...

U javob bermadi. Ammo bir lahza nafas olishdan to'xtagandek bo'ldi. Qarorimni iloji boricha osoyishta tushuntirishim kerak: sekin, janjal-suronsiz...

— Bunday qilamiz, Shahnoz, — dedim osoyishta va qat'iy ohangda. — Men ketaman. Ertaga...

Shahnoza qaddini rostladi. Yalang'och tizzalarini quchoqlagancha yuzimga ham taajjub, ham xavotir bilan tikildi.

— Qo'limda yaxshimi-yomonmi, hunarim bor. Shopir hamma yerda kerak, — dedim ko'ziga qaramay. — Qo'rqma! Uzoqqa ketaman. Seni bezovta qilmayman...

Shahnoza yuzimga yana birpas termulib turdi-da, to'satdan ustimga o'zini otdi.

— Rustam aka! — dedi ingrab. O'pkasini tutolmay entikib-entikib yig'lab yubordi. — O'lib qolaman, Rustam aka! Sizsiz o'lib qolaman! — Yuz-ko'zimdan o'pa boshladi. Yelkamga, bo'ynimga qaynoq ko'z yoshlari tomar, nuqul bitta gapni takrorlar edi. — O'lib qolaman! O'lib qolaman! — Butun vujudi qaltirab nola qildi. — Kerakmas! Kerakmas menga "o'sha narsa", Rustam aka! Menga... o'zingiz keraksiz! Eshityapsizmi, o'zingiz.

...Shu kecha... shu kecha Shahnoza menga... "yordam berishga" urindi... Sho'rlik Shahnoz!

KERAKLI DALIL — KERAKLI PAYTDA AYTILADI

Komissar karaxt bo'lib uyg'ondi. Uyg'ondi emas, uxladimiyo'qmi, o'zi bilmasdi. Tuni bilan aloq-chaloq tushlar ko'rib chiqdi. Fenobarbital ichganidan keyin qulog'i shang'illab, ko'z o'ngida qumdek mayda, yaltiroq zarrachalar ko'rina boshladi. Boshi g'uvillab, endi ko'zi ilingan edi, qarasa, yonida Nazira yotibdi. Sekin qo'lidan ushladi. "Qo'yvor! — dedi Nazira san-

sirab. — Qo'yvor, benomus!" Iye, Nazira emas, Fotima-ku! "Qo'yvor!" — dedi Fotima g'azabdan afti qiyshayib...

Komissar yuragi gursillab uyg'ondi. Anchagacha qorong'i shiftga qarab yotdi. Bora-bora tag'in boshi g'uvillay boshladi. Shunda... devor orasidan qandaydir sharpa sirg'alib chiqdi. Bir qarasa, Husanxo'jaga o'xshaydi, bir qarasa, To'laganga. Nuqul irshayib, unsiz kuladi...

Bo'lmadi... Komissar o'rnidan turib, validol shimdi. Birpas ikkilanib turdi-da, vannaxonaga kirib, iliq dush oldi. Adyolga o'ranib yotgan joyida "Spidola" qulog'ini buradi. Allanechuk huzurbaxsh kuy vujudini yoqimli siypalab o'tdi. Anchagacha eshitib yotdi. Oxiri kuy tugab, diktor bir nimalarni gapira boshladi. Komissar "Islomobod" degan so'zni tushundi, xolos. Bundan chiqdi, Pokiston ekan... Mels yodiga tushib, darrov radio qulog'ini boshqa to'lqinga oldi. "Amerika ovozi" SSSR da bo'layotgan demokratik jarayonlarni gapirar edi.

Nihoyat, derazada tong bo'zara boshladi. U shoshilmasdan kiyindi. Plashini, shlapasini... Sut bidonini olib, pastga tushdi. Qish hali tugamagan, ammo ko'klam nafasi sezilib turardi. Qorlar erib bitgan, baqateraklar shohida bo'rtishga moyil kurtaklar ko'z ochsammi-yo'qmi, deb ikkilanib turgandek, shabadada ohista silkinardi. Orqa tomondan kimdir hansirab nafas olgani eshitildi. Egniga "olimpiyka", boshiga chang'ichilar telpagini kiygan ikki kishi yugurib o'tib ketdi. Ota-bola Ollobergan ovlar!

"Yugura-yugur! — deb o'yladi Komissar ensasi qotib. — Umringni uzaytirmoqchimisan? Xex! Ko'chani kesib o'tayotganingda paq etib mashina urib ketsa — tamom! Qarabsanki, eshiging oldida qo'shaloq tobut turibdi! Ikki qavatli uchastkang xotiningga qoladi".

Darvoqe, ikki qavatli koshonani qanday qurdiykin, bu? Xo'p, professorsan. Xo'p, ana oyliging sakkiz yuzdir. Sakkiz yuz so'm maosh bilan yuz ellik minglik qasr solib bo'ladimi? Poraxo'r! Hammasi poraxo'r!

Tag'in bular yoshlarga adolatdan va'z o'qiydi. Mauzerni yo'ldan urganlar ham shunaqa domlalar! Yoshsan, professor, yoshsan! Aqalli o'n besh yosh kattaroq bo'lganingdami! Elliginchi yillarda bir marta so'roq bersang, sichqonning inini ming tangaga sotib olgan bo'larding.

O‘n yil oldin ro‘y bergan hangoma Komissarning yodiga tushdi. G‘irt komediya! Yo‘q, o‘n yilmas, avvalroq bo‘lgan ekan. Unda Nazira tirik edi. Markazdagi uyda qo‘shni turadigan Sovmin xodimi iltimos qildi:

— Ertalab osh bor, Soat G‘aniyevich. Dorilfununda ishlaydigan domlam nevara to‘yi qilyapti.

Komissar xushlamayroq turganini ko‘rib tushuntirdi:

— Bilaman, siz oshga borishni yoqtirmaysiz. Shunaqa-ku, odamlarga qo‘shilsangiz yomon bo‘lmaydi.

Taxminan shunday fasl edi. Fevralning oxirlari. Qorlar erib, qish chekina boshlagan, ammo hali ko‘klam kelmagan...

Qo‘shni xizmat mashinasini chaqirib qo‘ygan ekan, tong otmasdan yo‘lga tushdilar.

— Domla Saidiyni olib ketsak, — dedi qo‘shni. — Shundoq, yo‘l ustida.

Qo‘shnining aytishiga qaraganda, domla Saidiy degani — shoir ekan. To‘y qilayotgan olim bilan eski qadrdon emish.

Komissar menga baribir, degandek qo‘l siltadi. Nima farqi bor: shoirmi, yozuvchimi? U shoir-poirlarni tanimas, adabiy kitob o‘qishga toqati yo‘q edi.

Mashina tor ko‘chaga kirdi. Allaqanday darvoza oldida to‘xtadilar. Sovmin xodimi qo‘ng‘iroqni bosdi. Ichkaridan hadeganda ovoz kelavermagach, darvozani taqillata boshladi. Komissar toqati toq bo‘lib, mashinadan tushdi. Uyg‘otishning oddiy usulini ham bilmaydi, bu galvars! Derazani mushtlash kerak! Mana bunday! Ha, barakalla! Darrov chiroq yondi.

Darvoza ortida sho‘ltillagan qadam tovushi eshitildi.

— Kim? — dedi erkak kishi xavotirlanib.

Komissar ko‘nglida g‘urur hissini tuydi. Senga hisob berib o‘tirish qoluvdi endi!

— Oching! — dedi dag‘dag‘a aralash.

Kalit shiqirladi. Darvoza ostonasida yelkasiga to‘n tashlagan, oppoq sochli boshiga yap-yangi do‘ppi kiygan ixcham gavdali odam paydo bo‘ldi. To‘satdan bir qalqidi-yu, chalqanchasiga yerga quladi. Do‘ppisi bir tomonga, kalishi ikkinchi tomonga uchib, oyog‘i tarvaqaylab qoldi.

— Domla! — Sovmin xodimining kapalagi uchib, shoirning boshiga egildi. — Sizga nima bo'ldi, domla? Ko'zingizni oching!

Bunaqa paytda gardanini ishqalash kerak. Shunday qilishdi. Shoir ko'zini ochdi.

— Nima ga-ap? — dedi inqillab. — Tinchlikmi?

— Tinchlik, domlajon, sizni oshga aytib keldik. — Sovmin xodimi mehribonlik bilan shoirni qo'ltig'idan ko'tardi. Shoirning shimi ho'l, tizzalari loy edi.

Hovli bir zumda yugur-yugur bo'lib ketdi. Erkag-u ayol, bola-baqra aralash-quralash yopirilib keldi.

O'g'il-kelinlari, nevara-chevaralari shoirni avaylab uyga yetaklashdi.

— Dadajon, nima bo'ldi?

— Bobojon, nima qildi?

Jo'jaga o'xshamay o'l hammang! Nima bo'lardi? Otang qo'rqqanidan siyib yubordi. Tamom-vassalom!

Sovmin xodimi ham ichkari kirib ketgancha zim-ziyo bo'ldi. Ancha kutishdi. Komissar mashinada o'tiraverib, zerikib ketdi. Nima zaril edi, shu la'nati oshga borib? Nahorlab mechkay qoringa osh yeyishdan boshqasini bilmaydi bular!

Nihoyat, Sovmin xodimi domla Saidiyni suyagudek bo'lib olib chiqdi.

— Oldinga o'tiraqoling, domlajon! — dedi mehribonlik bilan.

Komissar orqa o'rindiqqa o'tayotganda qo'shnisi o'ziga nafrat bilan qarab qo'yganini sezdi... To'yxonaga yetguncha bir og'iz gaplashmadilar. Shoir ortiga burilib qaramas, o'xtin-o'xtin xo'rsinib qo'yar edi.

Osh tugamagan ekan. Dasturxonda turp bo'laklari, guruch qoldiqlari sochilib yotgan issiq uyga olib kirishdi. Buni qarangki, Sovmin xodimi bilan shopirga bir lagan, shoir bilan Komissarga bir lagan osh keldi. Shoir oshga qo'l ham urmadi. Yemasang, zaharingga! Komissar ta'bi tortgancha yedi.

— Oshdan olmadingiz-ku, domla! — dedi choy ho'plab.

Bir nuqtaga tikilib o'tirgan shoir seskanib o'ziga keldi. Ko'zi chaqchaydi. Past ovozda dona-dona qilib ta'kidladi:

— Sen bilan osh yeymanmi? Sen bilan-a?

Xonada o'tirgan o'n chog'li odam yarq etib, shu tomonga qaradi...

Qaytishda mashinaga yana o'sha tartibda joylashdilar: oldinda shoir, orqada Sovmin xodimi bilan Komissar. Hech kimdan sado chiqmadi. Sovmin xodimi shoirni darvozagacha suyab olib bordi. Komissar uning oxirgi gapini eshitdi:

— Meni kechiring, domla... Bilmabman... Bilsam...

Komissarning xayolidan istehzoli o'y kechdi. "Xex! Bilganda nima qilarding?"

Sovmin xodimi qaytib kelib, oldingi o'rindiqqa o'tirdi.

— Ishxonaga! — dedi qat'iy ohangda.

Komissar miyig'ida kulib qo'ydi. "Demak, meni duch kelgan metro bekatiga tashlab ketasan! Gapir, Sovmin! Nega indamaysan? — dedi xayolan xitob qilib. — Xex! Albatta indamaysan-da! Yaxshilab titkilab ko'rilsa, o'zingning biografiyangdan ham xohlagancha illat topiladi!"

...Sut do'konida ochirid ko'p ekan. Uzoq turib qoldi. Qaytayotganida kun yorishib ketgan edi. Egniga paxtalik kiygan Qurbonoy yo'lka supurayapti. Do'konga non tushyapti... Ota-bola Olloberganovlar tag'in yugurgilab yonidan o'tib ketishdi.

Qani chopaver-chi, qayoqqa borarkansan. Erta-indin o'g'lingga peredacha tashiysan. Toshturmaga. O'g'ling anavi Shomatovning o'ligi ustida aytgan gap esingdan chiqdimi? Tergov praktikasining o'z qonunlari bor. Eng zalvarli dalil eng oxirida aytiladi. O'nglanmas zarba berish uchun...

Anavi so'tak tergovchiga aytib qo'yish kerak. Shomatovni mana shuning o'g'li o'ldirgan!

HAMKASBLAR SUHBATIDAN

— Xo'sh, kollega, kelin nima deydi?

— Shomatova kasal edi. Stenokardiya bo'lib, shifoxonada bir yarim oy yotdi. Chiqqaniga uch kun bo'ldi.

— Shuning o'zi eng katta argument! So'roq beruvchi o'zini kasalga soldimi, demak aybi — bo'ynida.

— Sizga qolsa, hamma jinoyatchi!

— Senga qolsa, hamma oppoq! Yaxshisi, bu sohani tashlagin-da, bog‘chaga borib, qo‘g‘irchoq o‘yna!

— Tashlasam — tashlayveraman, o‘rtoq Komissar!

— Qochmoqchiman, degin? Ovora bo‘lasan! Davlat seni shuncha yil bekorga o‘qitdimi?

— O‘rtoq Komissar! Rostini aytsam, jonga tegdingiz...

— Xex! Avval mana bu ishni oxiriga yetkazgin-da, keyin katta ko‘cha! U quloq-bu qulog‘ing bilan eshitib qo‘y! Senga oxirgi faktni aytayapman. O‘lib yotgan Shomatovning boshida to‘planganlar orasida bittasi bor edi. Bilasanmi, nima dedi? “Shunaqa bo‘lishini bilardim”, deb aytdi. O‘z og‘zi bilan!

— Aspirant Olloberganovni aytmoqchimisiz? Ro‘yxatimizda turibdi.

— Operativ ishlashni bilar ekansanlar-ku! Xex! Bu yog‘ini eshit! Bayram kuni, ya’nikim Shomatov o‘ldirilishidan bir kun oldin kechki payt gastronomda konfet sotishdi. Ochiridda turgan edim. Ko‘chada shovqin-suron bo‘lib qoldi. Chiqsam, yo‘l chetida qora “Volga” turibdi. Anavi oyimcha bo‘lsa, ikkitasining it-dek irillashini tomosha qilib turibdi. Shomatov “Volga” shopiri bilan yoqa bo‘g‘ishyapti.

— Kim ekan o‘sha shopir?

— Shopir emas, “Volga”ning egasi! Olloberganov Sanjar! Professor Olloberganovning o‘g‘li! O‘lik tepasiga birinchi bo‘lib yugurgilab kelganlar ham shular edi. Shomatovning qotili o‘sha yigit bo‘ladi!

— Aybi isbotlanmaguncha hech kimni qotil deyolmayman, Komissar!

— Bilganingni qil! Ustingdan generalga raport yozaman! Sendaqa landovurlarni haydash kerak organdan!

— Iltimos, chiqing bu yerdan.

TERGOV HUJJATIDAN

Olloberganov Sanjar. Yigirma olti yoshda. Oliygoh aspiranti. Millati — o‘zbek. Ota-onasi bilan Baxt ko‘chasidagi xususiy uyda

istiqomat qiladi. Uylanmagan. Avval sudlanmagan. Komsomol a'zosi.

— Shomatovni tanirmidingiz?

— Qaysi Shomatov?

— Shomatov Rustam. Siz aspirant bo'lgan oliygohda o'qigan. Birinchi kursni bitirib, harbiy xizmatga ketgan. Afg'onistonda bo'lgan.

— E, bo'ldi, anavi yigitmi?

— Qaysi ma'noda "anavi yigit?"

— Bayramning ertasi kuni halok bo'lgan...

— Xuddi o'sha! Tanirmidingiz?

— Umuman, tanirdim. O'qish boshlanmasidan oldin uy olishim kerak, spravka bering, deb bordi. Yozib berdim.

— Nega spravkani sizdan so'raydi?

— Menga jamoatchilik vazifasi sifatida kulliyot mestkomligini yuklab qo'yishgan.

— Tushunarli. Shomatov bilan oralaringda gap qochmaganmidi?

— Mening Shomatovga nima xusumatim bo'lishi mumkin?

— Shomatova Shahnozani taniysizmi?

— Nima desam ekan...

— Borini aytavering.

— Umuman... taniyman. Qo'shni bo'lgandan keyin...

— O'shanda Shomatovlar oilasi Chilonzorga ko'chib kelganiga ikki oy ham bo'lmagan edi. Birovning xotini bilan tanishib olish uchun anchayin qisqa muddat emasmi bu?

— Nega endi? Shahnoza o'zimizda o'qiydi... Taniyman-da!

— Qancha odam o'qiydi o'sha dargohda?

— Fakultetdami? Aniq bilmayman-ku... besh yuzdan ortiq.

— Besh yuzdan ortiq talaba orasida nega aynan Shahnozani taniysiz?

— ...

— Qulog'im sizda.

— Gap shundaki, Shahnoza — Dilyaning dugonasi. Ikkalasi kursdosh.

— Kim u Dilya?

— Dilfuza... Iltimos qilaman, o'rtoq tergovchi, bu ishga Dilyani aralashtirmang! Yaqinda to'yimiz bo'lishi kerak. Va'da berasizmi?

— O‘ylab ko‘ramiz... Shomatova siz aytayotgan Dilya bilan dugona ekanini kim isbotlaydi?

— Marhamat, Shahnozaning o‘zidan so‘rang! Dilfuza Shahnozaning ZAGSiga borgan, to‘yida qatnashgan. Ikkalasi sirdosh o‘rtoq...

— Yaxshi, grajdanin Olloberganov! Faqat... Ba’zi detallarga aniqlik kiritishga to‘g‘ri keladi. Shomatov halok bo‘lgan kuni, ertalab siz o‘sha atrofda yugurib yurganingizni ko‘rgan odamlar bor.

— To‘g‘ri! Har kuni o‘sha yerda yuguraman!

— O‘sha kuni aynan Shomatovning podyezdi ro‘parasida nima qilayotgan edingiz?

— Menmi?

— Siz!

— Esimda yo‘q.

— Eslab ko‘ring! Baqaterak panasida turgan odam siz edingiz.

— E-ha, bo‘ldi! Noqulay bo‘lsa ham aytaveraymi?

— Bemalol!

— Qistab qoldi. Tuman edi... Daraxt panasiga o‘tib...

— Nima uchun Shomatovning o‘ligi tepasiga kelib, “Shunaqa bo‘lishini bilardim!” dedingiz?

— Kim? Menmi?

— Siz!

— Gapiring!

— O‘rtoq tergovchi! Bordi-yu men Shomatovning joniga qasd qilgan bo‘lsam, shunaqa gapni aytarmidim?

— Aytgansiz-ku!

— Qaysi ahmoq birovni o‘ldiradi-da, tepasiga kelib, hammaga eshittirib, “ajab bo‘pti” deydi? Qani mantiq!

— Qaysi ahmoq xuddi shunaqa, mantiqqa sig‘maydigan mantiqdan foydalanmaydi?

— Siz meni... meni...

— Hayajonlanmang, grajdanin Olloberganov!

— Chaqiring, Shahnozani! Hozir chaqiring! Men nima yomonlik qipman ularga!

— Harqalay “shunaqa bo‘lishini bilardim”, deganda nimani nazarda tutgandingiz?

— Rustamning o'zi janjalni pulga sotib oladigan yigit edi. Yo'q yerdan bahs topardi. Shu fe'li uchun universitetdan haydalishiga oz qolgan. Birinchi kursda... Uy masalasida anavi spravkani olguncha ham jonimdan to'ydirdi. Qo'yib bersam, so'yib tashlaydigan vajohati bor edi...

— Yettinchi noyabr, bayram kuni kechqurun soat oltilar atrofida qayerda edingiz?

— Nima?

— Eslab ko'ring, grajdanin Olloberganov. Shomatov bilan nega yoqalashdingiz?

— Bo'ldi! Esladim! Men u bilan emas, u men bilan yoqalashdi! Shahnozani qo'lida og'ir yuki bor ekan. Uyiga eltib qo'yganim uchun gunohkor bo'ldimmi?..

MUHABBATNING SAROYI KENG...

Sanjar tashqari chiqdi-yu yuziga muzdek havo urilib, nafasi qaytib ketgandek bo'ldi. Ko'klam nafasi sezilib qolgan bo'lsa ham, havoda qish zahri hamon saqlanib turar, oftobro'yada quyosh tafti badanni ilitgandek bo'lar, ammo salqin joyda bir zum tursangiz, etingiz junjikar edi. Sanjar ko'ngli g'ash tortib uyga piyoda ketdi. Atrofdagi odamlarga parvo qilmas, mashinalar shovqini qulog'iga kirmas edi. *Quruq tuhmatga qoladi, shekilli!* Ha, aytdi! O'sha kuni yerto'la zinasida cho'zilib yotgan Rustamni ko'rib "Shunaqa bo'lishini bilardim!" dedi. O'lganini qayoqdan bilibdi? Birov bilan urishgan bo'lsa, ta'zirini berib qo'yishgandir, deb o'ylagandi-da!

Qiziq, Shahnoza nimasini yoqtirgan bu bolaning! O'lgudek qo'rs bo'lsa, tekkanga tegib, tegmaganga kesak otsa... Shundoq chiroyli, shundoq aqlli qiz... Muhabbatning saroyi keng, deb shuni aytsa kerak-da!

O'sha kuni Dilya bilan kontsertga tushmoqchi edilar. Sanjar Farhod bozoridan gul xarid qildi. Mashinasini jildirib, bozor darvozasidan chiqayotsa, Shahnoza turibdi. Qo'lida kattakon xo'jalik sumkasi... Sanjar mashinani to'xtatdi. Shahnoza ikkilanibroq orqa o'rindiqqa o'tirdi. Sumkasi qo'polligidan xijolat chekib, oyoq ostiga qo'yayotgan edi, Sanjar mashinadan tushib,

yukxonani ochdi. Sumka og'ir edi: turp, kartoshka, olma, sabzi, balo-battarlar...

Sanjarning g'ashi keldi. Guldek xotiniga sumka ko'tartirib qo'yganidan ko'ra bozor-o'charni o'zi qilsa o'ladimi, anavi ho'kiz! Xirsdek kuchi bor.

Motorga kalit solayotib ro'paradagi oynachada Shahnozaga razm soldi. Qizning rangi siniqqan, xomush ko'rinardi.

— Bozorni xo'jayin qilmaydimi? — dedi Sanjar yarim hazil ohangida.

— Qiladilar... — Shahnoza siniq jilmaydi. — Qishloqdan oyim kelgandilar, Rustam akam kuzatgani avtostansiyaga ketdilar... Dilya yaxshi yuribdimi?

Sanjar samimiy kuldi.

— O'rtog'ingizni ming yil ko'rmagandek gapirasiz...

— Shunaqa-ku...— Shahnoza tag'in ma'yus kulimsiradi. — Dilyaning kayfiyati ko'p jihatdan sizga ham bog'liq-da...

— Tashvishlanmang, — dedi Sanjar. — O'rtog'ingizning kayfiyati zo'r. Bugun kontsertga tushamiz.

Mashinani simyog'ochlarga bayroqchalar ilingan, uylar peshtoqiga "Yashasin Ulug' Oktabr!" degan qizil alvonlar osib qo'yilgan ko'chadan haydab ketdi.

— Salom ayting, — dedi Shahnoza. — Bayram bilan tabriklab qo'ying...

Sanjar "Volga"ni g'izillatib borarkan, esiga tushgan gapni aytdi.

— Dilya aytdi. Shu tomonlarga ko'chib kelibsizlarmi?

— Shunaqa...— Shahnoza qayoqqa yurish kerakligini tushuntirdi.

Deyarli qo'shni turisharkan. Katta ko'chaning bu beti — mahalla, u beti Shahnozalarning domi...

— Qo'shni ekanmiz-ku! — Sanjar astoydil ajablandi. — Nega hech ko'rmayman sizni?

— Men sizni ko'rib turaman! — dedi Shahnoza mashinadan tushayotib.

— Qayerda?

— Shu yerda! — Shahnozaning ko'zlari boyadan beri ilk bora sho'x porladi. — Har kuni ertalab yugurib yurasiz. Sherigingiz bilan.

— Sherigim emas, dadam, — dedi Sanjar kulib. — Rustamga ayting: xohlasa u ham yugursin. — Yukxonani ochib, sumkani tushirdi. Orqa oyna tagida yotgan guldastadan uchta chinnigul olib Shahnozaga uzatdi.

— Bayramingiz muborak bo'lsin. Baxtli bo'ling...

...Xuddi shuning ustiga anavi ahmoq kelib qolsa bo'ladimi? Poylab turgan ekanmi, nima balo... Mashinaning orqa oynasini chil-chil qildi. Sanjar olishib o'tirish befoydaligini bilib, mashinaga o'tirarkan, Shahnozaning rangi quv o'chib ketganini, ko'zida jiqqa yosh bilan erining bilagiga osilganini ko'rdi.

* * *

Aslida Sanjarning Dilya bilan tanishishiga Rustam sabab bo'lgan. Sabab emas-ku, bahonamikin...

U paytda paxta kampaniyasi siyosiy masala hisoblanar edi. O'shanda Sanjar beshinchi kursda o'qir, ayni paytda kulliyot komsomol tashkilotining kotibi edi. Shtabda har kecha majlis, har kecha hisobot...

Shunday kunlardan birida ChP ro'y berdi. Birinchi kurs talabalaridan bittasi bezorilik qilibdi. Barakka non olib borgan traktorchiga hoziroq sovxoz markaziga borib, do'xtir topib kelasan, deb dag'dag'a qilibdi. Traktorchi ko'nmagan ekan, yoqasidan sudrab yerga tushiribdi-da, traktorni o'zi haydab ketibdi. Kech kirib, poliklinika yopilgan ekan. Yarim kechasi do'xtirning uyiga bostirib boribdi. Xotin kishini traktorga o'tqazib, barakka oboribdi. Bir qiz shamollab qolgan ekan... Eng yomoni ertasiga butun kurs dalaga chiqishdan bosh tortibdi.

Kaltakning yo'g'oni Sanjarning boshida sindi. "Komsomol vojakligini eplolmayapsiz", deyishdi. "Studentlarni erkalatib yuborgansiz", deyishdi.

Kechasi olmadek lampochka xira yoritib turgan, sichqon hidi bilan to'lgan barakda umumiy komsomol yig'ilishi bo'ldi. Birinchi kurslar eng chekkada, qamishzorga tutashib ketgan uchastkada edi (Odat shu: birinchi kurslarni "Kamchatka"ga yuborishadi).

To'polon tashkilotchisi — Rustam degan yigit ekan. Basketbolchilarga o'xshagan baland bo'yli, gavdali...

Sanjar yosh rahbarlarga xos vazminlik bilan paxta xalqimizning boyligi ekanini tushuntirdi. Pavel Korchaginlar bundan ham qiyin sharoitda temiryo'l qurganini eslatdi.

Keksa dekan yarim kechada xotin kishini sovuqda diydiratib traktorda olib kelish yaxshi ish bo'lmaganini, sovxoz rahbariyati rektoratdan o'sha bolani o'qishdan haydashni talab qilayotganini aytdi.

— Vrach bo'lganidan keyin burchini bajarsin! — dedi Rustam pinagini buzmay.

Sanjarning jahli chiqdi.

— O'zing-chi! — dedi baqirib. — O'zing nega burchingni ado etmaysan? Nega paxta termaysan? Bolalarni yo'ldan urib, nega sabotaj qilasan?

Sanjar Rustamning uzr so'rashini kutgan edi. G'alati ish qildi, yaramas! Kat tagiga qo'l suqib, loyga belangan ikkita etak oldi. Bittasini o'zining beliga bog'ladi. Ikkinchisini Sanjarga uzatdi.

— Taqing! — dedi labi istehzoli qiyshayib. — Yuring, dalaga chiqamiz. Ikkalamiz bir bo'lib, ertalabgacha yarim etak podbor tersak, betimga tuf deng! Qani o'sha paxta! Qor bosib yotibdi-ku!

...Hamma yoq qiy-chuv bo'lib ketdi. Qirqtasi baravar gapirsa yomon bo'larkan.

Sochi qirqilgan, sovuqdan lablari yorilib ketgan, ammo nihoyatda ko'hlik ekanligi ko'rinib turgan qiz ayniqsa ko'p gapirdi.

— Domla! — dedi dekanga qarab. — Boyadan beri paxtani gapirasizlar. Nima gap o'zi, deb so'radinglarmi! Kasal bo'lgan kim, dedinglarmi? — U to'satdan yig'lab yubordi. — Kecha Shahnozaning oldiga borib keldik. Isitmasi qirqdan tushmayapti. Sizning ham qizingiz bordir axir!

Yosh to'la ko'zlari bilan Sanjarga chaqchaydi.

— Korchaginingiz yo'q paxtani termagandir! Chaqirib keling, ko'rsin ahvolimizni!

Qiz qorayib ketgan qo'lini silkita-silkita, alam bilan gapirar, Sanjar xafa bo'lmas, aksincha qizaloqning gaplari yoqar edi unga... Bu — Dilya edi...

— Shunday qilib, grajdanka Shomatova, siz yettinchi noyabrdan sakkizinchi noyabrga o'tar kechasi eringiz bilan bir uyda bo'lganingizni tasdiqlaysiz. Shunaqami?

— Ha.

— Demak siz sakkizinchi noyabr kuni ertalab, eringiz Shomatov Rustam uxlab yotganida sutga chiqqansiz?

— Ha.

— Navbat kutgansiz. Sut yetmagan.

— Ha.

— Ayting-chi, ertalab chiqib ketayotganingizda tashqari eshikni qulflaganmidingiz?

— Avval ham aytuvdim-ku, eshik yopilsa o'zi qulflanib qoladi, deb.

— Aytgansiz. Aynan o'sha kuni eshik qulflanib qolganmidi-yo'qmi?

— Bilmayman, esimda yo'q.

— Demak, siz sutga bordingiz. Navbat kutdingiz. Sut yetmadi. Qaytib keldingiz. Soat necha edi?

— Esimda yo'q.

— Eslab ko'ring.

— Bilmayman. Tong yorishgan edi. Kelsam, Rustam akamni olib ketishgan ekan.

— Mushuk-sichqon o'yinini bas qiling, Shomatova! Mana, ekspertiza xulosasi! O'zingiz o'qiysizmi, yo o'qib beraymi? "O'lim hodisasi tungi soat o'n ikki bilan ikki o'rtasida ro'y bergan. Sud meditsina tekshiruvida shu narsa aniqlandiki, yurak faoliyati..." Yig'lashning hojati yo'q! Agar siz o'sha kecha eringizning yonida bo'lganingizda, uyda chinni idishlar, deraza oynasi singanini eshitmasligingiz mumkin emas edi! Stolga yozilgan dasturxonga oqqan qonni ko'rardingiz... Ertalab sutga chiqqaningiz yolg'on! O'sha kuni sut do'koniga bormagansiz! Umuman, do'konga sut olib kelinmagan! Binobarin, o'sha kecha uyda bo'lmagansiz.

— Rustam akam... Rustam akam har kuni tushimga kiradilar, Nima qilay? Nim qil-a-ay? Jonimdan to'yib ketdim!

— Yig'lashdan foyda yo'q. O'sha kecha qayerda tunadingiz?

— Uyimda! Ayamning yonida... Ertalab... ertalab... adam bilan ayam nasihat qilishdi. "Oshsiz uy bor, urishsiz uy yo'q, arzimagan narsani bahona qilib, arazlab kelishga o'rganma", deyishdi. O'zim ham kechasi bilan uxlolmay to'lg'anib chiqdim. Bir mahal...

— Yig'lamang... Marhamat... Suv iching...

— Bir mahal ko'zim ilingan ekan... Bilmayman, tushimmi, o'ngimmi...

— Yig'lamang, Shomatova...

— Daryo emish... Yo'q, daryomas, anhormish. Gagarin bog'idagi anhor. O'zimizning skameykada, o'zimizning na'matak tagida o'tirgan emishman. Qarasam, suvning u betida Rustam akam turibdilar. Kulib turibdilar. Kel, deb imlarmishlar. "Suzishni bilmayman-ku!" desam, kiyimlarini yechmay, anhorga kalla tashlabdilar... Munday qarasam... Qarasam...

— O'zingizni bosing...

— Qarasam, anhorda suv emas, suv emas... qon oqayotganmish... Rustam akam qon ichida oqib ketibdilar... Rustam akam... Qon ichida... Bilasizmi, qip-qizil qon ichida... Ishonsangiz... Uyga qandoq yetib kelganimni bilmayman. Qarasam, uy to'la odam. Militsiyalar... Qora kiyimlilar...

— Sizga ishongim keladi, singlim... Ishongim keladi-yu... Nega bu gaplarni boshida aytmadingiz?

— Qo'rqdim... Nima qilay, qo'rqib ketdim!

— *Balki buyog'iga ochiq gaplasharmiz. Ayting-chi, bir kun oldin*, ya'ni bayram kuni er-xotin janjallashganmidinglar?

— Ha...

— Nima masalada?

— ...

— Rostini ayting! Tushunaman... Eringizning jahli tez bo'lgan. Harqalay kontuziya ta'siri... Lekin to'g'risini ayting! Bunisi juda muhim, bilyapsizmi, judayam muhim... O'rtaga rashk aralashganmidi?

— ...

— Tushunarli... Eringiz, 11–24 raqamli "Volga"ning oynasini nega sindirdi? Takror aytaman, faqat to'g'ri gapirishingizni talab qilaman!

— Bola-chaqangizning rohatini ko'ring! Yolboraman! U odamni tinch qo'ying! Gunoh menda bo'lsa, qamay qoling! Unga teg-

manglar! Yaqinda uylanadi. Sirdosh dugonamga uylanadi! Biryo'la ikki begunohning uvoliga qolmang...

— Ayting-chi, singlim... Eringiz jahli chiqqan paytlarida normadan chekinish hollari ro'y berarmidi? Masalan, o'zini idrok etolmay qolish... Hushdan ketish...

— Rustam akamni tushlarimda ko'raman. Har kuni ko'raman... Nega ketdim? O'sha kuni nega ketdi-i-im? Nega-a-a?

RUSTAMNING OXIRGI KUNDALIGIDAN

Yettinchi noyabrdan sakkizinchi noyabrga o'tar kechasi

Menga nima bo'ldi? Nega hamma yoq qorong'i? Tankda yotibman shekilli... Demak, mina portlagan. Bolalar qani? Xayriddin! Yo'q... Xayriddin o'lgan-ku... E-ha... Bo'ldi! Korizda yotibman. Ana, yonbosh tomondan nur tushayapti. Amallab siljishim kerak. Chiqib olmasam bo'lmaydi... Bilaman, "dux" poylab turibdi. Qimirladim — otadi... Baribir chiqib ketishim kerak, qayerimdan yaralandim ekan? Avtomatim nega yo'q?

...Asta-sekin hushimga keldim. Qarasam, uyimda ekanman. Tashqari eshik ochiq. Ostonada cho'zilib yotibman. Gavdamning yarmisi semon maydonchada, yarmisi sholcha tashlangan kavshandozda... G'ira ochiq qolgan ichkari eshikdan xira nur tushib turibdi. Amallab o'rnimdan turdim. Boshim g'uvillaydi. Badanim o't bo'lib yonib ketyapti. Oyoqlarim tosh bog'langandek og'ir.

Dasturxoni yig'ishtirilmagan stol ustida stakanga solingan sham lipillab turibdi. Yarmi yonib bo'libdi. Erigan sham quyqalari stakan ichiga oqib tushibdi. Devor tagiga chil-chil bo'lib yotgan choynak bo'laklarini, gilamga yopishib qolgan choy shamasini ko'rdim-u bugun ro'y bergan voqea esimga tushdi. Vujudim bo'm-bo'sh bo'lib qoldi... Bo'm-bo'sh...

Ertalab oyim keldi. Qo'lida bir tugun uzum: bayram qilib xabar olgani kepti. O'zimdan xafa bo'lib ketdim. Nega onamni ko'rgani men bormayman-da, u kelishi kerak? Qachon odam bo'laman! Shahnoza osh damladi. Anchagacha chaqchaqlashib

o‘tirdik. Dadam “dekabrda svidaniye beradi. Rustam albatta kelsin”, deb oyimga ham xat yozgan ekan.

Tushdan keyin oyim otlanib qoldi. “Bugun qolaqoling, ertaga qudalaringiz ham kelishmoqchi”, deb er-xotin harchand qistamaylik, ko‘nmadi. Bir xonali katalakda yotib qolishga iymandi, shekilli.

— Jon bolam, — dedi yelkamga qoqib. — Yaxshi o‘tirgan ekansizlar. Xudoga shukur, ko‘nglim joyiga tushdi. Meni Piskentning avtobusiga chiqarib yuborsang — bas. Qorong‘i tushmasidan yetib olaqolay.

Shahnozani qayta-qayta bag‘riga bosib xayrlashdi. Pastga tushayotganimizda Shahnoza ham otlanib qoldi.

— G‘ir etib bozorga tushib kelaman, — dedi tushuntirib. — Uyda ho‘l meva bilan ko‘kat qolmabdi.

“Ertalab o‘zim olib kelarman”, desam, ko‘nmadi. Onamni kuzatib qaytsam, Shahnoza haliyam kelmabdi. Yuragim siqilib, pastga tushdim. Quyosh botgan, siyrak tuman tusha boshlagan, havo sovuq edi. Ko‘nglim battar g‘ash tortdi. Shuncha bozor qiladimi, odam!

Ko‘cha bo‘yidagi baqaterak tagiga kelib to‘xtagan mashinaga avval e’tibor bermadim. Orqa eshikdan tushayotgan Shahnozaning sarg‘ish plashini ko‘rganimdan keyingina razm solib qaradim-u, qora mashinani tanidim: Sanjarning “Volga”si! Yuragim noxush urib ketdi. Sanjar narigi eshikdan tushdi. Bashang kiyingan, bo‘ynida bo‘yinbog‘... Mashina orqasiga o‘tib, yukxonani ochdi. Xo‘jalik sumkasini yerga qo‘yib, ochilib-sochilib, bir nimalar dedi. Shahnoza ham chamasi g‘amza bilan javob qildi. Sanjar Shahnoza tushgan eshikdan mashina ichiga bosh suqdi. Shahnozaga oppoq chinnigullar uzatdi. Nazarimda Shahnoza boyagidan ham ochiqroq g‘amza bilan kulgandek bo‘ldi.

Qanday yetib borganimni bilmayman. Shahnozaning qo‘lidan gullarni yulib oldim-da, mayda-mayda qilib, Sanjarning basharasiga otdim. U rangi gezargancha, bir zum dovdirab turdi-da, “ahmoq”! dedi. O‘zimni idrok etolmay qoldim. Shunisi esimdaki, Sanjar chap berib qoldi. Qo‘lim mashinaning orqa oynasiga qarsillab urildi.

Oyna chil-chil bo‘lib ketdi. Ammo to‘kilib tushmadi. Shahnoza qo‘rquvdan ko‘zlari olayib, bilagimga osildi.

— Keting! — dedi yalinib. — Iltimos, keting, Sanjar aka!

"Sanjar aka"si birpas serrayib turdi-da, rulga o'tirdi. Mashina besh-olti qadam yurib, bir silkingan edi, orqa oynasi duv to'kilib ketdi.

Shahnoza ikkovimiz yo'l chetida ancha turib qoldik. Bayram bo'lgani uchunmi, odam gavjum, ammo hech kim bizga parvo qilmas edi. Nihoyat, Shahnoza kafti bilan yuzini to'sgancha uy tomon yugurdi. Birpas ikkilanib turdim-da, men ham uyga yo'l oldim. Terak tagida turgan sumkaga qo'l tegizishga hazar qildim. Nazarimda jigarrang sumka ham, ichidagi narsalar ham haromga o'xshar edi.

Shahnoza karavotga muk tushib yig'lab yotgan ekan. Rosti, qilgan ishimdan o'zim pushaymon bo'ldim. Yoniga kelib o'tirdim. Boshini silab yupatgim keldi-yu, g'ururim yo'l qo'ymadi. Televizorni yoqsam, "Axborot" ko'rsatayotgan ekan. Moskvadagi Harbiy paradni beryapti. Ana, BTRlar, BMPlar, tanklar, raketalar... Qulog'im ostida portlash sadolari, yarador yigitlarning oh-u fig'oni eshitilgandek bo'ldi. Televizorni o'chirib qo'ydim. Ancha fursat o'tdi. Shahnoza hamon karavotda hiqillab yotar, yoniga borgim, ko'nglini ko'targim kelardi-yu, gapni nimadan boshlashni bilmasdim. Aksiga olib chiroq o'chib qoldi. Deraza pardasini ochib qarasam, hamma yoqqa zulmat cho'kibdi. Faqat katta ko'chadagi simyog'ochlarda chiroqlar yoniq, ular ham tuman qo'ynida yaradek xunuk, yaradek og'riq aralash miltirayotgandek edi.

— Sham bormidi, Shahnoz? — dedim vaziyatni yumshatish ilinjida.

U xohlamay o'rnidan turdi. Hiqillab yig'lagancha, oshxonaga kirib ketdi. Taraq-turuq qilib, sham izladi. Anchadan keyin stakanga solingan, lipillab yonayotgan shamni ko'tarib kirdi. Yig'ishtirib olinmagan dasturxonga qo'ydi. Yig'idan ko'zlari shishib ketgan edi. Achindim. Ichimda o'zimni so'kdim.

— Choy ichaylik, Shahnoz... — dedim sekin.

U keskin burilib, yana oshxonaga kirdi. Choynak ko'tarib chiqdi-da, dasturxon ustiga do'q etib qo'ydi. Choynak qopqog'i sharaqlab silkindi, tumshug'idan choy tomdi.

— Quymaysanmi? — dedim noqulay iljayib.

— Balki ichirib qo'yishim ham kerakdir? — Endi u yig'lamas, sham yog'dusida ko'zlari g'azabli yonib turardi. — E-ha, —

dedi asabiy kulib. — Esimdan chiqibdi: axir siz yosh bolasiz-ku! Notavon go'dak!

Gapidan ko'ra ohangi og'ir botdi. Ichimdan toshib kelayotgan titroqni arang tiyib turardim.

Eshik jur'atsiz taqilladi. Shahnoza shoshilmay borib ochdi. Qorong'i yo'lak tomondan Qurbonoy xolaning ovozi keldi. Shahnoza bilan aylanib-o'rgilib so'rashdi. "Rustamjon o'g'lim yaxshi o'tiribdimi?" dedi. Gap-so'zidan sham so'rab chiqqanini angladim.

...Shahnoza qaytib kelib, yuzini ters o'girgan ko'yi o'tiraverdi. Nimadir deyishim kerak edi.

— Kim kepti? — dedim o'ta bema'ni savol berayotganimni bila turib.

Shahnoza yarq etib o'girildi.

— Voy! Eshitib qoldingizmi? — dedi o'yib oladigan ohangda. — Sanjar aka keldi! Bayram bahona mashinasida sayr qildirmoqchi ekan. Dilyani o'ynatib zerikibdi. Endi mening galim ekan!

G'azabim qo'zidi. Amallab o'zimni bosishga urinardim. Bilib turibman: hozir urishsak, bunisi — oxirgi janjal bo'ladi.

— Gulni-chi? — dedim labim titrab. — Gulni nega Dilyaga bermabdi?

Shahnoza aftimga chaqchayib, istehzoli kuldi.

— Siz bermaganingizdan keyin u beradi-da! Biron marta gul sovg'a qilganmisiz odam bo'lib?

Titrab ketdim.

— Bas! — dedim tahdid bilan.

— Urmoqchimisiz? — Shahnoza o'rnidan sapchib turdi. — Uring! — dedi chinqirib. — Uring! Shundan boshqa nima kelardi qo'lingizdan! Duch kelgan odamga musht ko'tarasiz. Hamma — yomon. Bitta siz — yaxshisiz! O'z ko'nglingizda qahramonsiz! Adolat o'rnatmoqchi bo'lasiz...

Uni bu alpozda birinchi ko'rishim edi. Yuzi g'azabdan xunuklashib ketgan, ko'zlarida alam emas, g'azab ham emas, nafrat yonar, vujudi qaltiragancha avtomatdek to'xtovsiz gapirar edi.

— Nimaga erishdingiz? — dedi hamon chinqirib. — Nimani isbotladingiz? Odamlar sizning adolatingizga tupurgan, eshitdingizmi! Ming marta, million marta! Bundan keyin ham tupuradi, bildingizmi?..

Quloqlarim shang'illab borar, ko'z o'ngim qorong'ulasha boshlaganini sezib turardim.

— Bo'ldi! — dedim nafasim qaytib. — Bo'ldi, Shahnoza... iltimos, Shahnoza... Dunyoda adolat bor-ku! Ozmi-ko'pmi, adolat bor axir...

U dami kesilgandek jimib qoldi. Meni birinchi marta ko'rayotgandek boshimdan oyog'imgacha qarab chiqdi.

— Nima? — dedi ovozini pasaytirib. — Nima dedingiz? Esdan og'gan odamdek qiyqirib-qiyqirib kula boshladi. — Ha-a, endi tushundim, tushundim! — Yana battarroq qiyqirdi. — Manavi koshonani aytyapsiz! Senga uy olib berdim, demoqchisiz. Shunaqami? Ayting, shuni pesh qilmoqchimisiz? Uy olib berganmish. Voy! Uy olib berganmish! — Jazavasi tutib, qo'shqo'llab tizzalariga ura ketdi. — Suyunchi beringlar! Bu kishi izlagan adolatini topibdilar!

Hayratdan og'zim ochilib qolgan, nima deyishni, nima qilishni bilmasdim.

Kulib-kulib, charchadi shekilli, entikkan ko'yi aftimga uzoq tikildi.

— Qah-ra-mon! — dedi nafratli istehzo bilan bosh chayqab. — Adolat kurashchisi!.. U quloq bu qulog'ingiz bilan eshitib oling! Agar adam ispolkomdagi Stepanichmi, go'rmi-yermi, o'shaning jig'ildoniga besh mingni tiqmasa, mana shu tovuq kataginiyam tushingizda ko'rardingiz!

Bu safar muzlash barmoqlarimdan boshlanmadi. Oyoq-qo'lim birvarakayiga muzladi-qoldi. Ichimdan otilgan titroq miyamga urildi-yu, boshim bir kosa olovga aylandi.

Esimda yo'q. Avval qaynoq choynakni otib, keyin baqirdimmi, yo oldin baqirib, keyin choynakni otdimmi?.. U jonholatda chap berganini, choynak gilam osig'liq devorga urilib, chil-chil singanini g'ira-shira ko'rdim.

Bo'g'zimdan otilib chiqqan vahshiyona hayqiriqdan o'zimning quloqlarim yorilib ketgudek bo'ldi.

— Yo'q-o-o-ol!!!

Uning ketidan yo'lakka otilganim ham elas-elas yodimda.

... Sham tugay deb qoldi. Ichim yonib ketayapti. Havo yetishmayapti... Nega ochilmaydi bu padarla'nat deraza! Mixlab qo'yil-

ganmi, nima balo? Oyna sindimi? Ha-a, tirsagimga tegibdi. Battar bo'lmaydimi! Tashqari zim-ziyo. Yilt etgan chiroq yo'q. Qarg'alar xosiyatsiz fig'on chekadi... Tuman quyuqlashib ketibdi. Yaxshi... Hech kim ko'rmaydi... Achchiq xazon hidi. Kuz hidi...

Kuz — o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi... Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi. Erta bahordan bo'tana bo'lib shosha-pisha qirg'og'iga sig'may oqqan ariqlar tiniqlashadi. Shuncha urinishlari zoye ketganini tushunib, olamga ma'yus boqadi... Yer-u ko'kni oppoq kafandek tuman chulg'aydi. Erta-indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi.

Yer ustida uzoq charx uradi-da, achchiq-achchiq ko'z yoshi to'kadi... Sim-sim yomg'ir yog'adi. To'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig'laydi.

...Bilagim achishyaptimi? Hamma yoq qon-ku! Nima qipti: qonni endi ko'rishimmi? Sham tugay deyapti... Tezroq... Daftarni joyiga qo'yishim kerak. Avvalgilarning oldiga...

Men necha yoshga chiqdim o'zi? Yigirma ikkiga? Yo'g'-ye, axir men yetmish ikkidaman-ku! Balki sakson ikkidir! Nima farqi bor?! "Donolar hayotni kuzaturlar jim..."

Tamom! Hammasi tamom bo'ldi... Ajab... Yuragim nega buncha osoyishta? Qilt etsa-chi? E-ha... Axir.. Men endi yo'qman-ku. Bu dunyoda borligingdan kim naf ko'rdi-yu, yo'qligingdan kimga ziyon? Oyimga achinyapman. Dadamga... Shahnozaga... Rozi bo'linglar... Onajon... Meni kechiring, oyi!

OPPOQ-OPPOQ QORLAR YOG'DI

Bir haftadan keyin qor yog'di. Avval yomg'ir ezmalanib turdi-da, tushga borib qorga aylandi. Qabristondagi shamdek qotgan teraklar ustida sovuq uchqunlar g'ujg'on o'ynadi. Qor, barcha marhumlar qatori devor tagidagi hali tuprog'i sovib ulgurmagan qabrni ham muzdek quchog'iga oldi...

Cho'qqisoqol go'rkov peshin namozini o'qib, hujrasidan chiqdi. Qor qabriston uzra cho'kkan o'lik sukunatni yanayam chuqurlashtirishga qasd qilgandek unsiz yog'ar, mozoriston kimsasiz edi...

Go'rkov devor tagidagi qabr boshida o'tirgan odamga ko'zi tushib, yaqin bordi.

Yupun kiyingan yosh juvon qabr ustidagi qorni kafti bilan sidirib tushirar, sovuqdan qo'llari qizarib ketgan, qora ro'moli, yelkalari qorga belangan, plashining etagi loy edi...

— Unaqa qilmang, qizim, — dedi go'rkov vazminlik bilan.

Ayol tizzalab o'tirgancha, behush alpozda bosh ko'tarib qaradi.

— Nega? — dedi hayratlanib.

— O'zingizni oldirib qo'yasiz... — Go'rkov yumshoqlik bilan tushuntirdi. — Marhum ham bezovta bo'ladi.

— Nega? — Ayol qo'llari bilan qor changallagan ko'yi titrab-titrab yig'lab yubordi. — Nega! — dedi ingrab. — Rustam akam nega o'ldi? Yaxshi bo'lgani uchunmi?!

QURBONOY XOLANING HAR KUNGI TASHVISHLARI

Biqini achishib uyg'ondi.

— Xudoyim, o'zingni rahming kelsin... — dedi pichirlab.

Uch kun oldin kasali to'satdan zo'riqqani esiga tushdi. Ko'cha supurib turgan joyida tutib qolsa bo'ladimi? Og'riqning zo'ridan a'zoyi badanidan muzdek ter chiqib, birpasda ikki bukilib qolsa, deng! Xudoyimdan o'rgilay! Bandasiga atagan dardi ham ko'p ekan-da. Bo'lmasa, yoqmas ovqat yegani yo'q, og'ir ish qilgani yo'q...

...Bo'ynidan "achom" qilib yotgan nevarasining do'mboq qo'lchasini avaylab olib, ustiga ko'rpa tortdi. O'rnidan sirg'alib turdi-da, yo'lakka chiqib, chiroq yoqdi. Shoshilmay tahorat qildi. Gazga choy qo'yib, nim qorong'i xonaga qaytib kirdi. Bomdodni o'qib o'tganlarga Ollohning rahmatini tiladi. Jumla-mo'minga imon, salomatlik, yurtga tinchlik so'radi...

Oshxonaga kirib, choy ichdi. Bir qo'liga paqir, bir qo'liga uzun bandli supurgi olib, yana yotoqqa mo'raladi.

— Umida, — dedi past ovozda. — Bolalar bog'chaga kech qolmasin.

Umidaning karavoti g'irchilladi.

— Boravering, — dedi uyqusirab.

Qurbonoy xola paqir bandini daranglatib yubormaslik uchun zinalardan ehtiyotkor qadam bosib, pastga tushdi. Kunlar uzayib qolgan edi. Qish bo'yi qoq suyakdek so'ppayib turgan baqateraklar ko'klam yaqinlashayotganini sezgandek jonlanib qolgan, yalang'och shoxlarini tong shamolida silkitib, o'zini o'zi uyg'otayotganga o'xshar edi. Qirg'og'i betonlangan ariqlar chetida maysalar unib chiqibdi... Munis, ojiz maysalar...

Qurbonoy xola paqirni terak ostiga qo'yib, shig'illatib supurib ketdi. Anchadan keyin non do'koniga mashina keldi. Boshiga eski do'ppi kiygan haydovchi mashina kajavasini ochdi.

— Supurayapsanmi?

Qurbonoy xola Komissarning g'o'ldiragan ovozini eshitib, ishini to'xtatdi.

"Yo'q, o'ynayapman!" deb o'yladi ensasi qotib.

Salom berdi. Komissar changdan qochib, o'n qadamcha narida turardi. Boshida qora shlapa, egnida qora plash. Qo'lida sut bidon...

— Kuyovingni sudga berdingmi? — dedi Komissar.

— Xudoga soldim!

— To'g'ri qilasan! — Komissar istehzoli iljaydi. — Xudoning sendan boshqa dardi-kasali yo'q.

Qurbonoy xola supurgini ko'tarib, ishini davom ettirmoqchi edi, Komissar so'rab qoldi.

— Xabaring bo'lmadimi, anavi bolani o'ldirganlar topildimikan?

— Topilganda nima? — dedi Qurbonoy xola. — O'lganning yosh joni ketdi... Xudo rahmat qilsin...

— Kelin-chi, kelin? Qadami qiyshaymayaptimi?

Qurbonoy xola norozi alpozda qarab qo'ydi.


— O'zingiz tuzukmisiz? — dedi boshqa gap topolmay.

— Menmi? — Komissar kuldi. — Xex-xex-xex! Qachon o'lasiz, demoqchimisan? Ovora bo'lasan! Men o'lmayman! Xex!

1991–1992

TOG‘AY MUROD





TOG'AY MURODNING QO'SHIQLARI

Kechagina yosh yozuvchi, boshlovchi yozuvchi, deb yurgan qalamkashlarimiz endilikda nasrimizning yetakchi ijodkorlari bo'lib qoldilar.

Tog'ay Murod ana shu ijodkor avlodning talantli vakilidir.

Tog'ay Murod adabiyotga tutab emas, yonib kirdi.

Tog'ay Murod qissalari sof milliy o'zbek qissalari. Tog'ay Murod qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydirsangiz ham, o'zbekligi bilinib turadi. Ularning xulq-atvori ham boshqa xalqqa aslo o'xshamaydi.

Shu vaqtgacha qiyofasi noaniq, bir-biridan farq qilmaydigan, shapka kiydirsang, rus, qorako'l papax kiydirsang, ozarboyjon, telpak qozoq, yoqasiga kashta tikilgan ko'ylak kiydirsang, ukrain bo'lib ketaveradigan taxminiy odamlar qissalarimizning asosiy qahramonlari bo'lib keldi. Bu o'z xalqining milliy urf-odatlarini, his-tuyg'ularini bilmaslikdan bo'ldi, so'qirko'ngillik, so'qirko'zlikdan bo'ldi.

Biz Abdulla Qodiriyni salkam yetmish yildirki, boshimizga ko'tarib kelamiz. Bunga sabab, Qodiriy milliy qahramonlar yaratdi. Otabek ham, Yusufbek hoji ham, Oftob oyim ham, Solih maxdum ham aslo takrorlanmas obrazlardir. Bu kishilar to'g'risida Qodiriy ta'kidlamasa ham o'zbekligini bilamiz.

Turgenev, Gogol, Tolstoy rus xalqini butun bor bo'yi bilan tasvirlagan buyuk ijodkorlardir. Nexlyudovga do'ppi kiydirsang, Kareninaga paranji yopintirsang, o'zbek bo'lib qolmaydi. Tolstoy ularni qon-qoni bilan, o'y-xayollari bilan, gap-so'zlari bilan rus qilib yaratdi.

Bunday asarlar yaratish uchun adib rassomdek ranglarni bir-biridan farq qiladigan, bastakordek tovushlarni tiniq eshitadigan bo'lishi kerak.

Tog‘ay Murod ana shunday rassom adibdir, ana shunday bastakor adibdir.

Mana, u “Ot kishnagan oqshom”da otni qanday tasvirlaydi:

“Birodarlar, o‘zi, Bo‘z ot qanday bo‘ladi. Surpday oppoq bo‘ladi. Bordi-yu, ajdodida bo‘lsa, to‘qqizga to‘lganda Tarlon bo‘ladi. To‘qqiz yoshida Bo‘zning badanida xolday-xolday qora donalar paydo bo‘ladi. Shundan boshlab u Bo‘z emas, Tarlon ot bo‘ladi. Tarlon— Xol-xol ot! Tarlon — otlar sarasi.

Birodarlar, To‘riq otning yuzdan biri yaxshi bo‘ladi, Tarlon otning yuzdan biri yomon bo‘ladi!

Birodarlar, ot tanimasang, Tarlon ol!..”

Talantli adib qalamidan to‘kilgan ushbu satrlarni o‘qirkanman, xayolimdan bir gap o‘tdi.

“Dom”da yashab umrini o‘tkazgan shaharliklarni o‘yladim. Inson bolasining uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilgan bu jonivorni faqat sirkda, kinoda ko‘rgan shaharlik ukalarimizga adibning bu so‘zlari qanchalik ta’sir qilishini bilaman. Shahar bolalarining tabiatdan, jonivorlardan qanchalik uzoqlashib qolganliklariga achinib ketaman.

Tog‘ay Murod otni shu qadar mehr bilan ta’riflaydiki, adib qo‘shiq aytayotibdi, deb o‘ylaysiz. Adib ko‘ngli kitobxon ko‘ngliga ko‘chib o‘tadi. Ot minib adirlarda yelday uchgingiz, ot yollarini silagingiz keladi.

“Birodarlar, mashina deganlari temir! Joni yo‘q! Joni yo‘q temir odamga el bo‘lmaydi! Temirning yuragi yo‘q-da! Ot odamga el bo‘ladi! Boisi, otning joni bor, yuragi bor-da!”

Tog‘ay Murod tasvirlagan chavandozlar xiyonat ko‘chasiga kirmagan, odamlarga faqat yaxshilik ravo ko‘radigan asl o‘zbeklardir.

Tog‘ay Murodning Tarloni, Tolstoyning Xolstomeri, Aytmatovning Gulsarisi qatoriga kelib qo‘shildi.

Bu gapimga ba’zi bir tanqidchilar jindek g‘ashlik qilar. Na iloj, oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q, deydilar...

Tog‘ay Murod o‘z ona tilini benihoya yaxshi biladi. Bilgandayam butun ranglari bilan, ohanglari bilan biladi. Shu bois, sof o‘zbekcha bitadi.

Tog‘ay Murod o‘zbek tilini kuylatdi. O‘zbek tilining jami jilvalarini oftobga solib ko‘rsatdi.

“Ayo Tarlon, sen mening akamsan. Uka desa degulik mendayin ukang bor, aka desa degulik sendayin akam bor, nima g‘amim bor...

Ayo Tarlon, sen mening birodarimsan. Mening birodarim sensan.

Ayo Tarlon, sen mening birodarimsan, qiyomatlik birodarim...”.

Ushbu satrlarni o‘qib bo‘lgach, xayolga tolasiz. Hozirgina mungli bir qo‘shiq tinglagandek bo‘lasiz.

Bu qo‘shiq olis yo‘l bosib, O‘zbekistonimizning qaynoq, janub Surxonidan uchib keldi.

Men Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida Bo‘ri polvon, Tilovberdi polvon, Abil polvonlarning kurashlarini zavq-shavq bilan tomosha qildim. Surxon polvonlarining halolliklari, mard, tantiliklarini ko‘rib g‘ururlanib ketdim. Ana, o‘zbek polvonlari, ana, deya g‘ururlandim. Tog‘ay Murod tasvirlagan Surxon polvonlari chinakam o‘zbek polvonlaridir.

Sharqning buyuk dostonlari “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”lar, “Tohir va Zuhro”lar necha yuz yillardan beri yashab keladi. Ularda bir-biriga yetisholmay, muhabbat yo‘lida jon bergan baxtsiz oshiq-ma’shuqlar tasvirlanadi.

Tog‘ay Murod ham doston yozdi. Otini “Oydinda yurgan odamlar” qo‘ydi.

Qissa nomini o‘qishingiz bilanoq sizni allaqanday sirli-sehrli oydin kecha bag‘riga oladi. Ichingizga ajib bir nur o‘rmalab kiradi. Dil-dilingizni yoritib yuboradi.

Qissada Qoplon bilan Oymomo farzand ilinjida tunni tongga, kunni oyga, oyni yilga ulab yashaydi. Qoplon xotinini Momosi, desa, Oymomo erini Bobosi, deb chaqiradi. Ular yo‘q bolaning bobosi, yo‘q bolaning momosi bo‘lib, yillarni yillarga ulaydi. Bir-biriga mo‘ltirab yashaydi. Ular uchramagan doktor, ular ko‘rinmagan tabib qolmaydi. Ammo na doktordan, na tabibdan naf ko‘radi.

Tog‘ay Murod chol-kampir hayotini g‘oyat nozik, g‘oyat-shoirona tasvirlaydi. Chol-kampirning o‘zaro mehr-muhabbatini qo‘shiqdek kuylab beradi.

Tog‘ay Murod bir-birini Bobosi, Momosi, deya atab umr o‘tkazayotgan bir juft pokiza insonni oydindagi oy nuriga o‘rab tasvirlaydi. Oqibat, ushbu juftning o‘zi ham, so‘zi ham, turish-turmushi ham oyning kumush nurlariga yo‘g‘rilib ketadi.

Tog‘ay Murodning kuyib, yonib, o‘rtanib bitgan, ba’zan faryod urib bitgan “Oydinda yurgan odamlar” qissasini “Muhabbat qo‘shig‘i”, deb atagim keldi.

“Momo yer qo‘shig‘i” boshqa qissalardan farq qiladi. Tog‘ay Murod bu qissasida boshqacha yo‘ldan boradi. O‘z yo‘lidan adashib, oyog‘i yerdan uzilib, G‘arb adabiyoti soyasi bo‘lib qolgan ijodkorlarning tipik obrazini yaratadi. Shu ijodkor obrazi tufayli qissaga mayda-chuyda toshlar otildi. Asar yutuqlaridan ko‘z yumib o‘tildi. Axir, qaysi soya ijodkor o‘ziga oyna olib qaraydi deysiz? Masalan, qissada original bir obraz bor, badiiy baquvvat bir obraz bor. Men serjant Orziqulov obrazini nazarda tutayapman. Serjant Orziqulov o‘zbek adabiyotida mutlaqo yangi obraz.

Nazarimda, Tog‘ay Murod qissa bitmaydi, nazarimda, bor ovozi bilan qo‘shiq aytadi. Bu qo‘shiqda avj pardalar bor, nolishlar bor, savt bor.

Said Ahmad,
O‘zbekiston Qahramoni,
Xalq yozuvchisi

OT KISHNAGAN OQSHOM

Qissa

1

Birodarlar, ko'rgilik, ko'rgilik!

Bir erta uyg'onib, kallamga qo'l yugurtirdim. Sochlarim orasida yara-chaqalar uch berdi. Parvoyim falak bo'ldi, yura berdim. Onamga-da aytmadim.

Chaqalar kun sayin bolaladi. Katta-katta bo'ldi. Qo'tir bo'lib qichidi.

Shunda, qishlog'imiz do'xtiriga bordim. Do'xtir fu, deya aftini burishtirdi. Yurchidagi kalxonaga olib jo'nadi.

Yo'lda mashinadan tashlab qochdim. Ushlab kelib, yana mashinaga bosdi.

Kalxonada... Uh, aytgiligi yo'q. Do'xtir degani berahm ekan. Onamni ko'rdim, birodarlar, onamni...

Bari kalga qaytatdan jingala soch bitdi. Mening kallam yaltirab qoldi. Bitta-da soch bitmadi! Do'xtirlar ajablandi, kamdan kam uchraydigan voqea, dedi. Xo'rligimdan yig'lab-yig'lab uyga keldim.

Onamiz tap-taqir kallamni ushlab-ushlab ko'rdi. Ich-ichidan kuydi. Aytib-aytib yig'ladi.

— Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi, degani shu-da,— dedi.

Katta telpak sotib oldim. Qishin-yozin quloqlarimgacha bostirib kiyib yurdim. Maktabda-da telpagimni olmadim.

Matematika muallimimiz oyog'ini tirab talab etdi:

— Bosh kiyimingni olmasang, dars o'tmayman!— dedi.

Old qatorda o'tirgan sinf oqsoqolimiz muallimga bir nimalar dedi. Ammo muallim o'z so'zida turdi:

— O‘quvchi darsda yalangbosh o‘tirishi lozim! Qoida shunday!

Telpagimni kallamga bosib ushladim.

— O‘quvchi Qurbonov, senga aytyapman!

Miq etmadim. Muallimimiz telpagimni boshimdan yulib oldi. Derazadan tashqariga otib yubordi.

Sinfimiz bolalar kulgisidan zirillab ketdi. Bolalar kallamni oftobga mengzab qiyqirdi:

— Ura-a-a, kun chiqdi!

Kallamni qo‘llarim bilan yashirdim, ho‘ngrab yig‘ladim. Siyohdonni olib, muallimning yuziga otdim. Tegmadi. Keyin, tashqari otildim. Maktabdan qochib ketdim.

Yana qaytib maktabga oyog‘imni bosmadim. Direktor bilan sinf rahbarimiz kelib tavallo qildi. Onamiz aldab-avradi, baribir maktabga bormadim.

Beshinchi sinf kallam bilan qoldim.

2

Odamlar meni kal deydigan bo‘ldi! Ziyodulla kal emish! E, tavba-ye, e, tavba-ye!

Avval-avval uyatdan quloqlarimgacha lovullab yondim. Ko‘nglim o‘ksidi. Keyin-keyin botmaydigan bo‘ldi. Kal so‘zi ko‘nglimga singdi. Quloqlarim kalga o‘rganib qoldi.

Endi, Ziyodulla kal, demaydiganlardan o‘pkaladim. Ayniqsa, pochtachidan hafsalam pir bo‘ldi. Qachon ko‘rsa, o‘rtoq Qurbonov, deydi. G‘ashim keladi. Meni mayna qilayotganday tuyuladi.

Bir safar jerkib tashladim:

— Nimaga meni o‘rtoq Qurbonov deysiz? Men bir amaldormidimki, yo, diplomim bormidiki, o‘rtoq Qurbonov, deysiz? Boryo‘g‘i beshinchi sinf kallam bo‘lsa. Ko‘p mayna qilmang, sochim bo‘lmasayam, tarog‘im tillodan!

— Bo‘lmasa, nima deyin?

— El qatori Ziyodulla kal deya bering. O‘z otim o‘zim bilan...

Xudoga shukur-e, endi pochtachi-da kal deydigan bo‘ldi!

Diplom so'ramaydigan turli ishlarda ishladim. Qorovul bo'ldim, go'lax bo'ldim. Oxiri podachi bo'ldim. El qo'yini boqdim.

Adirlarda qo'y boqib, nay chaldim. Nafasim yetmay qoldi. Shunda, eski bir do'mbira topdim. Do'mbiramni sayratdim, bepoyon adirlar, yoyilib o'tlayotgan qo'ylar, cho'qqilar uchida uzmay chug'urlayotgan qushlar, pag'a-pag'a oppoq bulutlarga qarab doston aytdim. Bu dostonlarni to'ylar, olis yaldo kechalari bobolarimiz biri qo'yib, biri aytar edi. Bobolarning ko'plari rahmatlik bo'ldi. Rahmatliklarday doston aytib bo'lmaydi. Bizniki, baholi qudrat...

3

Birodarlar, siz so'ramang, men aytmayin... Oti Momosuluv emish.Yuzlari kulchadaymi, yo, suluvmi? Ko'zlari qorami yo zig'ir gulidaymi? Qoshlari quyuqmi? Quyuq bo'lsa, qayrilmami? *Kechasiligidan ko'rmas emishman, bilmas emishman.*

Ko'roydin emish: Momosuluvlar ko'chasida telba bo'lib yurar emishman. Bir nima yo'qotganday tentirar emishman. Yo'l chetidagi toshga cho'nqayibman, kaftlarimni iyagimga tirabman. Oyga mahliyo bo'lib-mahliyo bo'lib termilibman. Oyning beti kir emish. Oyga sonsiz oshiqlar mahliyo termildi. Oy qaysi oshiqqa bir o'pich berdi? Oy qaysi oshiqqa vafo qildi?

Oyga qo'l siltab, o'rnimdan turibman. Momosuluvlar devoridan oshibman. Iti yo'q emish. Daraxtlar panalab, derazasiga termilibman. Olmalaridan uzib-uzib yebman. Keyin, ayvoniga, undan ichkariga kiribman. Timirskilanib, to'shagini topibman. Momosuluv uyg'onib ketibdi, chirillayman, ket, debdi. Men yolvoribman. Qo'limni uzatibman. U qo'limni qaytarib, o'zimga suribdi. Keyin, Momosuluvning qo'yniga kiribman!

Birodarlar-ey, jamiki olam bir taraf, qo'yin deganlari bir taraf ekan! Ahay-ahay!

Boriga shukur qilsam bo'lmasmidi? Tek yotsam bo'lmasmidi? Qo'yniga qanoat qilsam bo'lmasmidi?

Men tinmas, Momosuluvning ko'ngliga-da kiribman! Oshiqona-oshiqona qadamlar bosib, ko'nglini ovlabman. Zim-ziyo bir

olam emish. Tevarak huvullab yotarmish. Qimirlagan jon yo'q emish. Erkak zotining o'zi tugul, izlari-da yo'q emish. Behishtday bir olam emish.

Tevarakka alanglab, kular emishman: ushbu behishtga mendan o'zgalar kelmabdi!

Ko'nglimni zo'r bir xushvaqtlik qitiqlar emish: ushbu behishtga birinchi bo'lib men qadam qo'yibman! Ahay-ahay!

Ko'zimni ochsam, uy zimiston, bolishni quchoqlab yotibman.

Uyqum qochdi. Uyqumni quvalab, shiftga qarab yotdim. Chin, qishlog'imizda shunday qiz bor. Oti Momosuluv.

4

Ertalab ta'til qildim. Belimga tushlik o'radim. Zarang tayog'imni oldim.

Elburutdan podayotoqqa bordim. Bir toshga yonboshlab oldim.

El qo'y-echkilarini haydab keldi. Shunda... shunda, u-da keldi!

Men o'rnimdan turib qaradim. Xayolimda, yuzlarim lovullab qizidi.

U qo'lidagi xivichni qo'ylari ketidan otib yubordi. Iziga qayrilib ketdi. Menga qayrilib-da qaramadi. Ajabo, u kecha meni ko'rdimikin? Uyalganidan tez qayrilib ketdimikin?

Birodarlar, shu qiz ko'z oldimdan ketmay qoldi! Kechasi-da, kunduzi-da! Shu qizga sovchi qo'ydim!

— Tegmayman, kallasi kal, — debdi.

Yo, pirim-e, yo, pirim-e! Kal bo'lsa, nima bo'pti? Gap jundami? Junda aql bormi, xohlagan yeriga bita beradi-da. Birovga quyuq bitadi, birovga siyrak bitadi. Yana birovga bitta-da bitmaydi. Bu Yaratganning ishi-da!

Jun ekish dehqonchilikmidiki, ayb bo'lsa! Ana, kallasiga jun ekmadi, eksa-da, sug'orib, parvarishlamadi, oqibat, qurib qoldi, desa. Mayli, ana unda meni kamsitsin, Ziyodulla kalda erkaklik uquv yo'q, mushtday kallasiga jun ekib ololmadi, desin. U yaxshi er bo'lmaydi, desin...

Men baribir shashtimdan qaytmadim. Sovchini bosib qo'ya berdim.

— Aytib qo'yinglar, men hali ot olib, ko'pkari chopaman! — dedim.

Momosuluv noz qilib-qilib, oxiri ko'ndi!

To'y-tomosha bo'ldi. U mastona-mastona qadam qo'yib, chimildiqqa kelin bo'lib kirdi. Men mardona-mardona odim qo'yib, kuyov bo'lib kirdim.

Momosuluvga ko'rgan tushimni aytib berdim.

— Sen ham shunday tush ko'rib edingmi? — dedim.

— Ko'rib edim, — dedi.

— Chiningni ayt, — dedim.

— Chinim, — dedi. — Lekin taniy olmay qolib edim, chiroq o'chiq edi, — dedi.

— O'sha men edim! — dedim, ko'kragimga urdim.

— Siz ekanligingizni bilib tegdim-da, — dedi.

— Ahay-ahay! — dedim.

Birodarlar, Momosuluv tushimda Cho'lpon edi, hushimda Oy edi, qo'ynimda Oftob bo'ldi!

5

Bir suruv qo'y sotdim. Pulini belimga o'radim. Namoz chavandozni oldimga solib, Oboqliga jo'nadim.

Birodarlar, bizning Surxonda mana bunday gap bor: ot olsang, Oboqlidan ol, ayol olsang, Irg'alidan ol!

Buning mag'zi shuki, ot deganlari dev! Ot bepoyonlikni deydi. Ot masofa nimaligini bilmaydi, hudud nimaligini bilmaydi. Ot qahraton qishda-da dasht-biyobonlarda chopib o'sadi. Ana shunda dirkillagan ot bo'ladi! Qo'ltiqlari cho'ziladi, ko'kraklari enlik bo'ladi! Uchqur keladi! Bedovot bo'ladi!

Oboqli ana shunday dasht!

Irg'ali deganida qiz bor! Irg'alining qizlari zuvalasi pishiq keladi. Kiymagani yettinchi kalish kiyadi! Barining beli baquvvat, bo'limli bo'ladi. Irg'alining qizlarini quchoqlasa, qo'yin to'ladi! Irg'alining qizlari ko'rgan farzand-da alpomishkelbat bo'ladi. Boisi, Alpomish ayni shu Irg'alida o'tgan-da!

Ana, bildingizmi, elning gapi qayoqqa borayapti?

Men ikki kun ot sayladim. Oboqli dashti gala-gala ot! Dasht changitib chopib yuribdi! Bir yashar qulunlar, uch yashar toylar, to'rt yashar g'o'nonlar, besh yashar do'nonlar! Sag'risiga uy tiksa bo'ladigan baytallar! Haybatli ayg'irlar!..

Birovini ushlab, old tuyoqlarini juftladim.Tuyoqlari orasidan musht urdim. Mushtim o'tmadi. Bordi-yu, o'tsa, yaxshi ot bo'ladi. Qo'yib yubordim. Yana birovini ko'rdim. Durustgina-yu, faqat qorni yo'q. Bor bo'lsa-da, juda tor. Buniyam qo'yib yubordim, bo'lmaydi!

Birodarlar, ot olsang, ho'kiz qorindan ol, ho'kiz olsang, ot qorindan ol!

Orqa kezanagi bolaning bilagiday bo'lib turadigan ot yaxshi keladi. Shundayini izladim. Yo'liqmadim. Qopqog'i enlik ot-da yaxshi bo'ladi. Bundayiga-da ko'zim tushmadi.

Galani aylanib yurdim. Bir bo'zga ko'zim tushdi. Shuni ushladim. Tishlarini ko'rdim. Yoshi yettida bo'lsa-da, hali oziqli tishi chiqmabdi. Aslida, besh yoshida chiqadi. Demak, endi chiqmaydi. Oziq tishsiz ot xosiyatli ot bo'ladi!

Birodarlar, shu bo'zga dil ketdi!

Uch mingni naqd sanab berdim. Bo'zni minib keldim.

Omborxona oldidagi ustaxonaga olib bordim. Bo'zga burov soldim: ipga tayoqcha bog'ladim, tumshug'idan o'rab buradim. Burov tayoq bo'z tumshug'iga botdi. Bo'zni qimirlatmay qo'ydi.

Usta bo'z oyoqlariga nag'al qoqdi.

Birodarlar, asov otni taqa to'xtatadi!

Hovli chetida oxur qildim. Bo'zni shu oxurga bog'ladim.

Onamiz norozi bo'ldi. Beti burishib-burishib og'rindi. Labini burib ming'illadi:

— Otimnimam... otdan mashina yaxshi... — dedi.

— Mashinamnimam? Oti borning — qanoti bor,— dedim.

— Otga yemish qani...

— Yemish? Xudo har jonivorni o'z rizqi ro'zi bilan yaratadi. Ot bitdi — Qanot bitdi. Yemish topiladi.

Birodarlar, mashina deganlari temir! Joni yo'q! Joni yo'q temir odamga el bo'lmaydi! Temirning yuragi yo'q-da! Ot odamga el bo'ladi. Boisi, otning joni bor, yuragi bor-da!

6

El menga-da burnini jiyirib qaradi, otimga-da burnini jiyirib qaradi. El, og'zini ushlab kuldi, piq-piq kuldi, qo'li bilan ko'rsatib kuldi, pana-panalarda kuldi.

Bildim, el, Ziyodulla kal, otangni ko'rdim— ahmadi forig', onangni ko'rdim — tovoni yoriq, ko'rpangga qarab oyoq uzat, dedi. O'zing bir sag'ir bo'lsang, senga kim qo'yibdi otni, dedi. Yana-tag'in kal bo'lsang, kalga otim nimam, dedi. Kalta eshak ham bo'ladi, dedi.

Birodarlar, el shunday! El og'ziga elak tutib bo'lmaydi! Odamzod shunday! Bor bo'lsa, ko'rolmaydi, yo'q bo'lsa, berolmaydi!

Shunday ekan, odam bo'laman desangiz, el og'ziga e'tibor bermang! Odam bo'laman desangiz, el gapiga parvo qilmang! Ammo beparvo-da bo'lmang!

Birodarlar, ot azzancha xosiyatli bo'lsa-da, azzancha fahm-farosatli bo'lsa-da, azzancha xushsuvrat bo'lsa-da, baribir, ot, o'z oti o'zi bilan ot! To'rt oyoqli jonivor! Dumli hayvon!

Dunyoda nima mo'l, to'rt oyoqli jonivor mo'l! Duch kelmish to'rt oyoq jonivorni qanday bo'lsa, shundayligicha el orasiga olib kirib bo'ladimi? Bo'lmaydi! Qanday bo'lsa, shundayligicha el qilib bo'ladimi? Bo'lmaydi! Avvalambor, to'rt oyoqli jonivorni ot qilmoq lozim!

To'rt oyoqli jonivorni ot qilishning o'zi bo'lmaydi. Dumli hayvonni odamga el qilish barchaning-da qo'lidan kelmaydi!

To'rt oyoqli jonivorni ot qilish uchun, avvalambor, ko'ngilda bo'lmog'i lozim! Avvalambor, badanda bo'lmog'i lozim!

Barakalla! Bor-da, badanda bor-da! Ko'ngilda bor-da! Shu boisdan ot oldim-da! Ahay-ahay!

Dostonchi doston aytadi. Xato aytsa, shartta bas qiladi. Boshqatdan, tuzatib aytadi.

Shoir kitob bitadi. Kitobida bir joyi yoqimsiz bo'lsa, shoir qalam bilan shartta-shartta o'chiradi, yoqimli qiladi.

Rasmchi surat chizadi. Suratda odam qoshi qoshday bo'lmaydi. Ot yoli yolday bo'lmaydi. Qiyomiga kelmaydi. Rasmchi darhol odam qoshini qoshday qiladi, ot yolini yolday qiladi.

Chavandoz bo'lsa, otni tuzatolmaydi!

To'rt oyoqli jonivor ot bo'layotib... ha-ha, ot bo'layotib... nima fe'l-atvor topsa, shu fe'l-atvorida qoladi. Nima qiliq topsa, shu qilig'ida qoladi. Nima ko'rsa, nima bilsa, nima o'rgansa, barcha-barchasi tanasida qoladi, miyasida qoladi.

Ana shundan keyin chavandoz otni tuzataman desa, o'ziga jabr qiladi. Otni tuzatib bo'lmaydi!

Birodarlar, sara ot, chavandoz aql-zakovatidan bino bo'ladi! Sara ot, chavandoz qalb qo'ridan bino bo'ladi!

Shu bois, bo'zni tarbiyalay berdim, kecha-yu kunduz tarbiyaladim. Zo'r berib tarbiyaladim. Qanday qilib tarbiyaladim? Aytmayman, birovlar bilib qoladi, aytmayman...

7

Birodarlar, bo'z ot qanday bo'ladi? Surpday oppoq bo'ladi! Bordi-yu, ajdodida bo'lsa, to'qqizga to'lganda tarlon bo'ladi. To'qqiz yoshida bo'zning badanida xolday-xolday qora donalar paydo bo'ladi. Shundan boshlab u bo'z emas, tarlon ot bo'ladi. Tarlon — Xol-xol ot! Tarlon— Otlar sarasi!

Birodarlar, to'riq otning yuzdan biri yaxshi bo'ladi, tarlon otning yuzdan biri yomon bo'ladi!

Birodarlar, ot tanimasang, tarlon ol!

Bizning bo'z to'qqizga to'ldi, to'qqizda bo'ldi. Shunda... shunda, bir orzum, o'n orzu bo'lib bolaladi. Bir quvonchim o'n quvonch bo'ldi!

Birodarlar, bo'z otim— Tarlon bo'ldi! Men tarlon otli bo'ldim!

Otning sarasi menda, quling o'rgilsini menda!

8

Tarlonni qora ishlarga solmadim. Adirlarda o'ynoqlatib mindim. O'ynoqlatib-o'ynoqlatib qo'y boqdim.

Shunday bir kunda kolxoz raisi shofyori ot choptirib keldi. Uni rais yuboribdi. Borib, Ziyodulla kalni olib kel, debdi. Radiodan

odam kelibdi. Eng yaxshi podachini ayting, radioga chiqaraman, debdi. Shunda, rais meni aytibdi.

Avval-avval ishonqiramadim. Shofyorga sinchiklab qaradim. Chin gapga o'xshadi. Shundan keyin qo'ylarni shu yaqindagi Asad cho'ponga tayinlab keldim. O'zimda yo'q xushvaqt bo'ldim. E, yashang-e, rais aka-ye, dedim. Bizga o'xshagan kallarning yaltiroq boshiga-da oftob chiqsin debsiz-da, dedim, e, shop mo'ylovingizdan-e, dedim.

Yo'lda uyimizga tushdim.

Hali tutilmagan beqasam choponimni kiydim. Telpagimni kiydim.

Binoyiday orasta bo'ldim.

9

Tarlonni idora oldiga bog'ladim.

Do'mbira, tushlik solingan xurjunni yelkamga tashladim. Asta-asta ichkariladim.

— Assalomu alaykum! — dedim.

— Aha, keling, uka, keling.

Gilamdan avaylabgina yurdim. To'rdagi nimkatda yalpayib o'tirgan odam bilan qo'shqo'llab ko'rishdim.

Darrov tanidim, bu o'zimizning qishloqlik Rixsiyev bo'ldi.

Men qayerga o'tirishimni bilmay kalovlandim. Rixsiyev barmog'ini nish qilib joy ko'rsatdi.

Xurjunimni derazaga qo'ydim. Omonatgina o'tirdim. So'rashayin degan maqsadda Rixsiyevga qaradim.

— Aha, familiyangiz nima edi, uka? — So'radi Rixsiyev.

— Ziyodulla kal! — dedim.

— Aha, ha-ha-ha! Yo'q, familiyangiz? Qurbonov? Aha, yaxshi, yaxshi! Sog'lik qalay, o'rtoq Qurbonov? Otday bo'lib yuribsizmi?

— Shukur, muxbir aka, shukur. Otday bo'lmasak-da, yuribmiz. Ishqilib, birnavi. O'zingiz qanday, bardamginamisiz? Bolalar chopqillab yuribdimi? Qachon bo'lsa, sizni maqtayman. Mana, bizdan-da yozadiganlar chiqdi deyman.

— Rahmaaat, rahmaaat. Gap bunday, o'rtoq Qurbonov, men, siz haqingizda radioocherk yozaman!

— Eb-e, u nima deganingiz, muxbir aka?

— A? Xa-xa-xa! Ha, o'rtoq Qurbonov, o'rtoq Qurbonov! Shunaqa janr bor! Aha, publitsistik janr! Bunda qahramonlar madh etiladi!

— Ha-a, xayriyat-e. Men yomon gapmikin debman. Endi, men sizga aytsam, biz unga arzimaymiz-da, muxbir aka.

— Aha, yo'lini qilib arzittiramiz-da, o'rtoq Qurbonov. O'zimizning qo'limizda-yu. Mana, qog'oz, yozing. Ruchka yo'q? E, chatoq-ku.

— Bizda tayoqdan boshqa nimayam bor, muxbir aka.

— Xo'p, mana, ruchkayam berdim. Qani, bo'ling. Ungacha reportyorni tayyorlab turaman.

— Shu, muxbir aka, xatimiz bundayroq. Beshinchi sinf kallamizga yarasha. Siz so'rang, men aytayin.

— Yo'q, yozing. Og'zingizga kelganini pala-partish gapirasiz, uni borib, montaj qilishni aytsangiz-chi! Yozing: "Quyosh zarrin kokillarini yoyib, ufqdan bosh ko'tardi..." Yo'q, o'chiring. Badiiy qismini o'zim yozaman, sizga og'irlik qiladi. Aha, boshladik: "Bolaligimdan cho'pon bo'lish orzuyim bor edi. Shu orzu meni cho'ponlikka chorladi. Maktabni bitirib, qalb amri bilan kolxozda qoldim. Mana, hozir javlon urib mehnat qilmoqdaman..." Aha, endi plan, majburiyatlarni yozing. Kim bilan sotsialistik musobaqa o'ynagansiz? Ana shuni yozing. Keyin, har bir sovliqdan qo'shimcha qanchadan qo'zi olmoqchisiz? Ana buni yozing!

— Muxbir aka, men el qo'yini boqaman, chakana cho'ponman.

— Aha, shundaymi? Obbo-o, rais do'ppi olib kel desa, boshni olib keladiganlardan ekan-da. Xo'p, yozavering-chi. Mehnatlaringiz taqdirlanganmi?

— Esa-chi, muxbir aka, esa-chi. Raisimiz har ko'rganda to'xtab, ko'rishib-so'rashadi. Rahmat, uka, rahmat, deydi. Elning xizmatini qilyapsan, deydi. Yelkamga qoqib-qoqib qo'yadi.

— Ha-ha-ha! Bori shumi? Ha, o'rtoq Qurbonov, o'rtoq Qurbonov! Bular abstrakt gaplar! Radioocherkka konkret faktlar kerak!

Ordenlar! Medallar! Yorliqlar!.. Hmm, bo'pti, o'rtoq Qurbonov, sizga ruxsat.

Qalamni Rixsiyevga uzatdim. Qulog'imning ketini qashidim. Magnitofonga qaradim.

— Muxbir aka, xabaringiz bormi-yo'qmi, uncha-muncha doston aytib turaman.

— Aha, shundaymi?

— Ota-bovamizning hunarini yerda qoldirmayin deyman-da. Kalning nimasi bor, temir tarog'i bor. Ana, ana, do'mbiram bor.

— Aha, hunarni asrabon netgumdur oxir, olib tuproqqamu ketgumdur oxir! Alisher Navoiy!

— O'lmang!

Jo'shib ketdim. Do'mbiramni olib dostonimni boshladim. Dostonimda bir hovliga kelin keldi. Hovlida gulxan yoqildi, chanqovuz chalindi. Kelin otda keldi. Ot olovni bir aylandi. Ot doston bo'ldi.

Boli-boli boling bor,
Ming tumorli noring bor,
Jasadingga qarayman
Chopadigan holing bor.

— Malades, o'rtoq Qurbonov, malades. Aha, endi, chanqovuz, gulxan... eski gaplar, o'rtoq Qurbonov. Doston, ha, doston! Zamon, davrnafasi yo'q. Intellektuallik yo'q, intellektuallik! Ko'rib turibsiz, hozir atom asri. Mana, kosmonavtlar yana oyga uchdi... Xo'p bo'lmasa, o'rtoq Qurbonov.

Xayr-ma'zurni eshitib, eshitmaslikka oldim, bilib, bilmaslikka oldim. Do'mbiramni chuldiratib, doston aytib qo'yaverdim.

Otlardi boqsang, qashib boq,
Olisdan suvini tashib boq,
Sira uzmagin yemini,
Yemini yemiga qo'shib boq.
Bir qiyo boq, ey, umidli dunyo!

— Aha, yaxshi, yaxshi! A-a-auf, chyort, uyqu bosayapti. Nima desak ekan... otlar...otlar patriarxal hayvon, o'rtoq Qurbonov. "Otni boqsang, qashib boq, suvini tashib boq!" Xo'sh, nima bo'pti? Ma'lum gap-ku! Albatta, otga suv beradi-da, bo'lmasa, benzin be-

rarmidi? Qup-quruq didaktika! Xalq og'zaki ijodi, ha, xalq og'zaki ijodi! Primitiv, primitiv! Intellektuallik yo'q, intellektuallik! Intellektual problemalar ko'tarilib, ijobiy hal qilinmagan! Ijodingizga muvaffaqiyat, o'rtoq Qurbonov. Izlaning, ko'proq klassiklarni o'qing. Aytaylik, Betxoven, Chaykovskiy, Ashrafiy...

Rixsiyev qo'zg'oldi. Ketar bo'ldi.

Shunda, Rixsiyevlar qo'yi esimga keldi. Balki qo'ylari yuz-xotirini qilar, degan umidda qo'ylaridan gap ochdim.

— Muxbir aka, qo'ylaringiz yaxshi! — dedim. — Dirkillab-dirkillab o'ynab yuribdi!

Rixsiyevning yuzlari yorishdi.

— Aha, aytganday, bizning qo'ylar yaxshi yuribdimi, o'rtoq Qurbonov? — dedi.

Ko'nglimda umid uchqun berdi. Qo'limni ko'ksimga qo'yib, bosh irg'adim.

— Shukur, muxbir aka, shukur. Yaxshi yuribdi!— dedim. — O'zlariyam... qo'ymisan qo'y-da!

— Aha, qo'y!..

— O'lmang!

— Qo'y, qo'-o'-o'y! Qo'y yaxshi!

— O'lmang!

— O-o-o, qo'-o'-o'y! Qo'y yaxshi narsa!

— O'lmang! Ayniqsa, sizning qo'ylaringiz! Ming qilsa-da, hi-hi-hi, ming qilsa-da, muxbirning qo'ylari-da.

— Aha, rahma-a-at, rahma-a-at!

— Anavi to'ng'ich akangizning qo'ylari bo'lmaydi! Bari o'ziday kaltafahm! Sizning qo'ylaringiz shunday dono, shunday o'qimishli... Hay-hay-hay, sadag'asi ketsang, muxbirning qo'ylarining!..

— Aha, rahma-a-at, rahma-a-at!

— Bir kuni deng, hayt-hayt, deya qo'ylarni soyga haydadim. Qo'ylar o'zini qirga urdi. Faqat sizning qo'ylaringiz soyga qarab yurdi. Men, ha, omon bo'lgurlar-e, ming qilsa-da, muxbirning qo'ylarisan-da, dedim.

— Aha, rahma-a-at, rahma-a-at! Qo'ylarni tarbiyalang, o'rtoq Qurbonov, qo'ylarni tarbiyalang!

— Bay-bay-bay, qo'ylaringiz muxbirning qo'ylari ekanligi shundaygina bilinib turadi-ya! Mol egasiga o'xshaydi, deganlari shu-da...

— Aha, rah-ma-a-at, rahma-a-at!

Rixsiyev tashqariladi.

Xurjunimni yelkalab, izidan yurdim. Tarlonni minib, adirga yo'l oldim.

Birodarlar, ko'nglim og'riyapti...

10

Tarlonni boylovga tashladim.

Otxonadagi baland oxurga bog'ladim.

Go'ng chiqariladigan teshikni janda bilan kechalari yopib qo'ydim, kunduzlari ochib qo'ydim.

Tarlonga arpa yem berib boshladim.

Azonda to'rt kilo arpa yem berdim.

Tushda olti kilo arpa yem berdim.

Oqshomda besh kilo arpa yem berdim.

Kaftimda tuz berdim.

Tarlon tuzni kapalab-kapalab yedi.

Kaftimda oq qand tutdim.

Tarlon qandni lablari bilan oldi. Qars-qars yedi.

Endi so'yilgan qo'y quyrug'ini tuzlab-tuzlab berdim...

Birodarlar, ot usti behisht, og'zi do'zax!

11

Rosa qirq kecha-yu qirq kunduz bo'ldi.

Ana shunda Tarlonni otxonadan olib chiqdim. Tarlonni sovuta boshladim.

Hovli etagida arqonini uzun tashlab bog'ladim. Tarlon bo'ynini ko'zoynakli ilon misol gajak-gajak qildi. Qoziqni aylanib chopdi. Old oyoqlarini ko'tarib kishnadi. Arqonini selkillatdi. Dirk-dirk o'ynab kishnadi. Tarlon mast bo'ldi!

Arqon yetadigan yerlarga oz-ozdan xashak yoydim. Tarlon goh u uyumdan, goh buyumdan xashak yedi.

Kuniga bittadan xom tarvuz berdim. Tarlon tarvuzni karsillatib-karsillatib yedi.

Fayzi sahar vaqti Tarlonni jabduqlab mindim.

Katta ko'chada ohista-ohista qadamlatib yurdim.

Tong oqardi.

Xo'rozlar qichqirdi. Itlar hurdi.

Ko'cha yuzidagi radiokarnay nag'ma chaldi.

Ariqlarda jildirab-jildirab suvlar oqdi.

Sahar yellari hur-hur esdi. Bizlarni silab-siypadi...

Tarlon vazmin-vazmin qadam tashladi. Tuyoq tovushlari bir maqomda tikilladi: tik-tik-tik...

Oldimizdan ariq keldi.

Oyoq ildim. Tarlonni ariqdan sapchitmadim. Sapchitsam, ichidagi moyi uzilib tushadi. Keyin, bir yilcha ko'pkarida chopolmaydi.

Shu bois, ariqni aylanib o'tdim.

Tarlonni suvladim. Izimizga qaytdim.

Tarlon tag'in terib-terib qadam tashladi: tik-tik-tik!

Tarlonni qirq kun sovutdim. Tarlon bir yerda turolmay qoldi, tuyoqlari yerga tegar-tegmay yurdi. O'ynoqlab-o'ynoqlab, osmonga sapchidi. Quyundayin uchgisi keldi!

Paxta terimi tamom bo'ldi.

To'ylar boshlandi.

12

Birodarlar, ot bilmaydigan nima yo'q!

Ot qor-yomg'irni, dovulni oldindan biladi.

Ayniqsa, to'y-ma'rakani darrov biladi. Boisi, to'yda ko'pkari bo'ladi-da!

Bizning Tarlon kechasi bilan pishqirdi.

Alag'da bo'ldim, choponimni yelkamga tashladim, tashqariladim.

Oy yorug', osmon ochiq bo'ldi.

Tarlon qoziqni aylanib chopdi.

Tarlonni ushladim. Yollarini siladim.

Bir yerda to‘y bor-ov, dedim.

Aytganim bo‘ldi.

Ertasi kuni shundaygina yonimdagi Obshir qishlog‘idan to‘yxat keldi.

Omborxonada ot abzallarini — terlik, bellik, chirgi, boz, jahannik, jul, pushton, quyushqon, yugan, ko‘pchik, uzangili egarni qo‘ltiqlab keldim.

Tarlonni qashilab-qashilab egarladim. Og‘ziga suvliqli solib, yuganladim. Peshonasiga do‘lana shoxidan bo‘lgan ko‘ztumor ildim.

Egar qoshidan oldim. Uzangiga oyoq soldim.

13

Obshirga yigirma otliq bo‘lib bordik.

Surnay navosi chiqayotgan, osmonga quyuq tutun o‘rlayotgan to‘yxona ostonasida oyoq ildim.

Bizga Turdi podachinikidan joy tegdi.

Telpagi quloqlarini tushirib olgan bir odam bizni tor ko‘chalar bo‘ylab ergashtirdi. Podachinikiga olib bordi.

Podachi darvozasi xiyla past bo‘ldi. Oti mo‘minlar ostonadan egarga enkayib o‘tdi. Oti beqiliqlar yerga tushib, yetaklab o‘tdi.

Birodarlar, otga minsang — boshingni o‘yla, yerga tushsang — otingni o‘yla!

Chavandozlar otlarini yalang‘ochladi. Egar-abzallarni daraxt shoxlari ayrisiga ildi. Supalar, devorlarga qo‘ydi.

Chavandozlar otlarni shamollatdi.

Tarlon yerga ag‘nadi. Goh o‘ng, goh chap yoniga ag‘nadi. Badani qichig‘ini qondirdi. O‘zini o‘zi qashidi! Tag‘in oyog‘ida turdi. Oyoqlarini kerib-kerib silkindi. Badan-yollariga ilashgan xas-changlarni qoqdi.

Tarlon ustiga gilam tashladim. Pushtonini salqi qilib tortdim. Qozig‘ini tepib-tepib qoqdim.

Safar chavandoz qora to‘rig‘i qozig‘ini Tarlon yonidan qoqdi.

G‘ashim keldi. Ensam qotdi.

— Safar aka,— dedim.— To‘rig‘ingizni xolisroqqa oling, baraka toping.

— Hech nima qilmaydi, yer keng.

— Men yerni qizg'anmayapman. To'rig'ingiz tepong'ich, shuni o'ylayapman.

— Ko'ngilni keng qiling, ot tepkisini ot ko'taradi.

To'riq bizning Tarlonga yomon-yomon qaradi.

Men, ana, ko'ryapsizmi, demoqchi bo'ldim. Ammo Safar chavandoz mehmonxonaga jo'nadi. Izidan qo'l siltab qoldim. Keyin, men ham bordim.

To'yxonadan ulushimiz — turli noz-ne'matli dasturxon, ikkita shisha keldi.

Uy bekasi qozon osdi. Palovga urindi.

Chavandozlar davra bo'lib o'tirdi. Sabzi to'g'rab berdi.

Shu vaqt otlar achchiq-achchiq kishnadi. Tarlon ovozini darrov tanidim, chopib chiqdim.

Safar chavandoz to'rig'i old oyoqlarni ko'tarib pishqirdi, Tarlonga yopishdi.

Men olisdan qo'l siltadim. Tarlonga do'q urdim:

— Bo'ldi, bas!— dedim.

Tarlon o'zini keyinga oldi. Old tuyoqlari bilan yer tirnadi. Tishlarini irjaytirib kishnadi. To'riqni ogoh qildi. Yaqinlashma, degan bo'ldi.

Tarlon no'xtasidan ushladim. Tarlonni tinchlantirdim:

— Bo'ldi! Tak-tak-tak! Tak deyman! Safar aka, ana, aytmadimmi, to'rig'ingiz odam emas deb! Mana, Tarlonning ko'nglini og'ritdi!

— Odam so'zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi, Ziyodulla chavandoz! Shunday-shunday topishadi-da!

Safar chavandoz to'rig'ini Tarlondan xolis oldi. Otlar tinchidi.

Palov yedim. Kechasi olishni tomosha qildim.

14

Ertalab ta'tillanib, otlandim. Lalmi dashtga yo'l oldim.

Dasht bir-biriga ulashib ketgan adirlar oralig'ida bo'ldi. Kunbotar qo'ng'ir tusli qirlar bo'ldi. Dasht chetlari yo'g'on-yo'g'on tutlar bo'ldi.

Ko'pkari tomoshaga kelganlar shu tut shoxlarida, devorlarda chumchuqdayin tizilib o'tirdi. Tevarakdagi adirlarda to'da-to'da bo'lib yonboshlab yotdi.

Adir betlarida chavandozlar otlarini yalang'ochladi, otlarini ko'pkariga shayladi.

Men ham adirning bir chetini oldim. Tarlonni yalang'ochladim, yerga yumalatdim. Keyin egar bosdim.

Oyog'imga paytava o'radim. Xurjundan ko'pkari etigimni olib kiydim. Etik baland poshnali etik, takaning terisidan bo'ladi. Teri teskarisi ichiga qaratib tikiladi. Teskarisi yaltiroq, sirpanchiq bo'ladi. Yuzasi terining o'ng tarafidir. Etikni mol charvisi bilan moylab turaman. Shunda suv, qor, sovuq o'tmaydi, yirtilmaydi.

Butlari bir qarichcha yirtiq cholvorimni kiydim. Cholvorimni atayin yirtib qo'yibman. Bo'lmasa, ko'pkarida butimga biron nima ilashadi, cholvorimni og'igacha ayirib yuboradi.

Telpagim qulog'ini tushirdim. Uzangiga oyoq ilib, egar qoshidan oldim. Dashtga qarab endim.

Chavandozlar tevarakni aylanib chopdi. Chavandozlar otlarini pishitdi.

Odamlar qishloq tarafga qaradi.

— Ana, uloq kelayapti! — dedi.

Qishloqdan ikki otliq keldi. Birovi oldida qora uloq. O'ngarib oldi. Otliq uloqni oldimizga olib kelib tashladi.

Chavandozlar uloqni otlariga iskatdi. Uloq yon-verini, tevaragini aylantirib ko'rsatdi.

Otlar to'p bo'ldi.

Yuzlari tandirdan endi uzilgan nonday qizil, mo'ylovli bir odam uloq boshiga keldi.

Ana shu mo'ylov bakovul bo'ldi. Qamchi sopini boshi uzra ko'tardi. Jarangdor ovozda aytdi:

— Chavandozlar-ov! Gapimni o'ng qulog'ing bilan-da, chap qulog'ing bilan-da, eshitib ol! Chilvir solma— bir! Bir-birovingni yomon gap bilan so'kma— ikki! Qamchi solma — uch! Yiqilgan chavandoz ustiga ot solma — to'rt! Ot qochganda ushlashga yordam ber— besh! Ol, ha, ol!

Bakovul shunday dedi-da, o'zi to'dadan chetga chopib chiqdi. To'dani aylanib chopib jar soldi:

— Birinchi zotiga bir ro'mol, o'n so'm puli bor! Eshitmadim demanglar!

Chavandozlar to'daga ot soldi. Otlarini qimtidi, otlarini tizzalari bilan niqtadi, otlarini qamchiladi, otlarini uloqqa haydadi.

Uloq sonsiz ot tuyoqlari orasida qoldi.

Qo'llar uloqqa talpindi, ammo ololmadi.

— Ha-ha-ha!

— Chu-chu-chu!

— Bos-bos-bos!

Talpinishlar samara bermadi. Uloq yerdan qo'zg'olmadi. O'zini uloqqa urayotganlar o'zi-da, otlari-da g'arq terga botdi. Chavandozlar dastlabki shashtidan qaytdi, otlar shashtidan qaytdi. Ayrim chavandozlar to'da chetiga chiqdi, peshonalarini artdi, tomoshago'y bo'ldi.

Endi, to'da tevaragida yurgan chavandozlar o'zini uloqqa urdi.

Men Tarlon boshi uzra qamchi havolatdim. Tarlonni qimtib-qimtib, to'daga haydadim. Tarlon otlar siquvida turtinib-surtinib uloqqa yetib keldi. Uloqni bir aylanib to'xtadi.

Men qamchini sopidan tishlab oldim. O'zim uloqqa uzaldim. Endi ko'tarib edim, bir ot tuyog'i bosib qolib, uloq qo'limdan tushib ketdi.

Tarlonni otlar to'dasi surdi.Tarlon qalqib-qalqib, uloq naryog'iga gandiraklab o'tdi. Chetga chiqib qoldi.

Tarlon shashti qaytmasin, ruhi tushmasin, deya bir chaqirimcha yerga chopib borib, chopib keldim. Go'yo uloqni olib chiqdim!

16

Uloq yerdan qimirlamadi. Shunda bakovul zotni oshirdi:

— Chavandozlar-ov, eshitmadim demanglar, ustiga yana bir go'sam serka qo'yildi!

Chavandozlar chuh-chuh, deya otlarini uloqqa chorladi. Sag'rilariga tars-tars qamchilar urdi.

Otlar pishqirdi, otlar kishnadi.

Nihoyat, uloq yerdan ko'tarildi. To'da asta-asta jonlandi. Otlar qulog'i lik-lik etdi. To'da pastga siljidi.

Bakovul jar soldi:

— Uloq ko'tarildi, uloq ko'tarildi!

To'da birdan jonlandi. Otlar yoppasiga chopdi: dupur-dupur-dupur... Otlar uloq tevaragida chopdi. Bor e'tiborlari uloqda bo'ldi.

— Uloq ketdi! Uloq Burnoch bilan Samanda borayapti!

Nimaga burnoch ot deymiz! Boisi, burnoch ot peshonasida qashqasi, burni uchida olasi bo'ladi. Butlari-da ola bo'ladi. Burnoch otning xili ko'p bo'ladi. Ko'k burnoch, qora burnoch, to'riq burnoch, jiyron burnoch!

Saman ot bo'lsa, sariq, yollari, dumlari qora bo'ladi. Yol-quyrug'i oqlari-da bo'ladi.

Burnoch bilan Saman quloqlarini quyon quloqlari misol chimirib chopdi, zinkiyib chopdi. Uloq oralarida shalvirab bordi. Uloqning bir buti Burnochda, bir buti Samanda bo'ldi.

Chavandozlar o'z taraflariga chalqayib, tortishib bordi. Tevaragida o'nlab qo'llar uloqqa uzaldi, ammo yetolmadi. Yetganlari uloqni yulib ololmadi.

Otlar Burnoch bilan Samanni o'rab chopdi: dupur-dupur-dupur...

— Uloq Burnoch bilan Samanda borayapti! Uloq Samanga o'tdi, uloq Samanda! Bos!

Darhaqiqat, Saman chavandozi epchillik bilan uloqni taqimiga bosdi. O'ng tarafiga qiyshaydi. Jilovni o'ngga burdi. Saman yo'lini o'ngdan soldi.

Chavandozlar talashish foydasizligini bildi. Birin-birin orqada qoldi.

— Haloool! Samanniki halol! Tashla, Saman, tashla! E, barakalla-ye! Saman, kel, haqingni ol!

Saman uloqni yerga tashladi. Bakovulga qarab yurdi.

Chavandozlar yerga tushgan uloqqa qarab yurdi. Yana uloqqa yopirildi. Uloq bu gal maydagina bir to'riqda ketdi.

Birodarlar, to'riq ot malla bo'ladi. Bo'yni xuddi ko'zoynakli ilon misol gajak-gajak bo'ladi!

17

Yanagi uloq menga nasib etdi.

Men uloqdan umid qilmadim, to‘da chetida turdim. Uloqni Yaratganning o‘zi yetkazdi.

Bir qizilko‘k uloqni yerdan sudrab chiqdi. Qizilko‘k shundaygina yonimizga keldi. Shunda chavandozi uloqni ot tizzasi bo‘yi ko‘tardi.

Men enkayib, uloqqa yopishdim. Qaddimni ko‘tardim, Tarlon biqiniga tizzamni nuqib ayqirdim:

— Ha-a!

Tarlon bir yulqinib, to‘dadan uzib chiqdi. Ketimdan chavandozlar ot soldi. Ko‘plari meni yetib keldi, uloqqa uzaldi.

Shunda Tarlonga qamchi bosdim. Ammo Tarlon jadallamadi, aksincha, tobora sekinlab chopdi.

Hayron bo‘lib, olg‘a qaradim. Ana shunda nima gapligini bildim: oldinda bir odam bo‘yi soy bo‘ldi...

Nima qilishimni bilmadim. Jilovni buraman degunimcha soy labiga kelib qoldim. Tarlon soy yoqalab chopdi. Uloq soy tarafda bo‘ldi. Shu sababli-da uloqqa birov kelolmadi.

Shunday bo‘lsa-da, qo‘li uzun chavandozlar Tarlon sag‘risi, Tarlon bo‘yni osha uloqqa uzaldi. Men uloqni bermadim. Ayniqsa, Tarlon uloqni bergisi kelmadi.

Soy yoqalab chopdim. Shunda-da bakovul ovozidan darak bo‘lmadi. Endi jilovni qo‘yib yubordim. Taqimimdagi uloqni qo‘shqo‘llab ushladim. Tarlon endi o‘z bilganicha chopdi. Soyda esa, adog‘ bo‘lmadi...

Chavandozlar ketimdan qolmay ta’qib etdi.

Shunda Tarlon birdan... soyga qarab zinkiydi. Old oyoqlarini ko‘tardi, o‘zini soyga tashladi.

Etlarim jimir-jimir etdi. Ko‘zlarim otilib chiqib ketayotganday bo‘ldi. Oyog‘im yerdan uzilganini tuydim. O‘zimni muallaq sezdim. Ko‘nglimdan, o‘lgan shunday o‘lar ekanda, degan gap o‘tdi. Ko‘zlarimni chirt yumdim, uloqni qo‘yib yubordim...

Zo‘r bir zarbdan qalqib ketdim. Yuragim tovonimga tushib ketganday bo‘ldi. Hushim boshimdan uchdi. Jonholatda Tarlon bo‘yniga yopishdim. Mahkam quchoqlab oldim...

18

Ko‘zlarimni ochdim. Yo, tavba, Tarlon hamon chopib borayapti. Endi soyda chopib borayapti.

Tarlon bir-bir bosib, oyoq ildi. Boshini egdi. Pishillab nafas oldi.

Men qaddimni rostladim. O‘zimga keldim. Men tag‘in ko‘zimni yumdim.

Yuqoridan bakovul ovoz berdi:

— Zot joyida! Zot joyida qoldi!

Yuqoriga o‘girildim. Otliqlar soy labida qator bo‘lib qaradi. Uzalib, jilovni oldim. Yuqoriga chiqadigan yo‘l qidirib, soy yoqaladim.

Yuqorida chavandozlar salmoqlab-salmoqlab gapirishdi:

— Odamning boshi aylanib ketadi-ya!

— Shu Tarlonda ikkita yurak bor!

— Bordi-yu, bitta bo‘lsa, o‘zining kallasiday!

— Tarlon dilovar ot ekan!

Bakovul tayinladi:

— Tarlon-ov, uloqniyam olib chiq! — dedi.

Men o‘zimni eshitmaslikka oldim. Uloqqa qaytib borgim kelmadi. Bir nishabroq yerdan yuqoriladim.

Egar-abzallar oldiga bordim. Tarlonni yalang‘ochladim. Tarlonning bor vujudini qarab ko‘rdim. Oyoqlarini siladim. Xudoga shukur, lat yemadi. Yerga yumalatib-yumalatib sovitdim. Boshadoq qashiladim. Bo‘ldi, endi Tarlonni uloqqa solmayman. Bo‘ldi, Tarlon g‘olib bo‘ldi...

19

Keyin...keyin, o‘zimning-da araz fe’lim tutdi...

Birodarlar, sizga bir nima aytayinmi? Men araz urishni yaxshi ko‘raman! O‘layin agar-a!

Oy tug‘adi, o‘ttizida to‘ladi. Shu oyda biror-bir nimadan, aqalli bir martagina bo‘lsa-da, arazlamasam bo‘lmaydi. Shu oyda kun ko‘rganday bo‘lmayman!

Ko‘nglim g‘ash bo‘lib yuradi. Bir nima yo‘qotganday tevarakka alanglab qolaman. Bahonatalab bo‘laman. Biror-bir bahona izlayman. Qildan qiyiq chiqaraman. Ignaday nimani tog‘day qilib ko‘nglimga olaman. Tumshuq qilib olaman!

O‘zimni o‘zim xo‘rlangan deb bilaman. Ko‘nglim cho‘kib... otam bechorani eslayman! Odamlar meni sag‘irligimni bilib xo‘rlayapti, deyman. Sag‘ir bo‘pmiz, aybdor bo‘pmizmi, deyman.

Undan keyin... kallamdan o‘pkalayman! Xo‘rlanishim boisini kal kallamdan ko‘raman. Kallam kal-da, bo‘lmasa, meni shunchalik xo‘rlarmidilar, deya o‘ksinaman.

Shunda uzangi yo‘ldoshlarim oraga tushadi. Ot jilovini ushlab, tavallo qiladi:

— Bir martagina shaytonga hay bering, Ziyodulla chavandoz!— deydi.

Arazlashimning ana shu yerlari ko‘nglimga yog‘day yoqadi! Qobog‘imni uyub-uyub, olislarga qarayman. Miq etmayman!

Uzangi yo‘ldoshlarim yanada g‘ayrat qiladi.

— Ziyodulla chavandoz, siz ko‘p ulug‘ chavandozsiz, shu safar bizni o‘ylang! — deydi.

Ahay-ahay! Jonning huzuri-ya! Vujudim huzur qiladi, vujudim rohat qiladi!

Ana shunda moyillik beraman! O‘ychan-o‘ychan bosh irg‘ayman.

— Mayli, ko‘p qo‘ymadilaringiz, yuzlaringizdan o‘tolmadim,— deyman.

Ko‘pdan buyon araz urish xumor qilib yurib edi. Mana, qulay vaqt keldi! Yaratganning o‘zi suygan bandasiga yubordi! Bahona-da binoyiday bo‘ldi: ot insonni deb jonini ayamadi, bakovul bo‘lsa, ot fidoyiligini taqdirlamadi! Ana bahona!

20

Men arazlab o'tira berdim.

Bir jiyron ot seldanang otib keldi. Bakovul oldiga bordi.

Birodarlar, jiyron — malla ot bo'ladi. Oyog'i olapaycha. Ayrimlari peshonasida qashqasi-da bo'ladi. Bunisida yo'q bo'ldi.

Jiyron chavandozi soqoldor chavandoz bo'ldi. Chavandoz ovozi nordon-nordon bo'ldi, ammo xushtalqin bo'ldi:

— Ay bakovul, mo'yloving bo'lgan bilan insofing yo'q ekan! — dedi.— Qara, Tarlon o'zini qayerdan tashladi! Ot sendan, mendan qo'rqqanidan tashlamadi, yo'q, odamzodga fidoyiligidan tashladi! Bundayin botir ot boshidan zar sochsang-da, haqing ketmaydi! Ber haqini!

— Uloq qo'lidan tushib ketdi!— dedi bakovul.

— Bersang berding, bermasang, shu Tarlonga uyimdan bir qo'y olib kelib beraman! Ayt, bo'larini ayt!

Bakovul arosatda qoldi. Nima qilishini bilmadi, nima deyishini bilmadi. Haq berayin desa, boyatdan buyon bot-bot bekor, dedi. Endi gapidan qaytish bo'ladi. Haq bermayin desa, tag'in bo'lmadi. Soqoldor chavandozda avzoy yomon, uyidan qo'y olib kelib beradi. Yomon-yomon, ana unda yomon! Bakovul nomiga yomon, to'y nomiga yomon!

Bakovul o'yladi-o'yladi, oxiri gapini qaytib oldi. Soqoldor chavandozga yuzlandi.

— Chavandoz bova! — dedi.— Oshingni yesa-da, mard yesin, boshingni yesa-da, mard yesin! Bunday tantilikdan keyin, haq sizdan aylansin! — dedi.

Bakovul menga bir serka bilan yigirma besh so'm pul berdi.

21

Ko'pkari oxirigacha yonboshlab yotdim.

Uzangi yo'ldoshlarim bir marta-da uloq ololmadi. Ko'pkaridan qo'lini burunlariga tiqib qaytdi. Shunda, uzangi yo'ldoshlarimga yuz soldim.

— Endi qaysi yuz bilan elga ro'baro' bo'lamiz?— dedim.— Yigirmaday chavandoz-a! Olganimiz bor-yo'g'i bitta serka bo'lsa! Shuniyam tilab oldik!

Chavandozlar boshi egik bo'ldi. Bilmadik, deya yelka qisdi.

— Yaxshisi, bunday qilamiz. Yo'lda oyoq ilamiz. Qishloqqa qorong'ilatib-qorong'ilatib kirib boramiz. Binoyimi?

— Binoyi, binoyi, — dedi chavandozlar.

Qishloqqa bir adir qoldi.

Chavandozlar otdan tushdi. Adirda yonboshlab yotib oldi.

Toshday qorong'i tushdi.

Chavandozlar tag'in otlandi.

Birov-yarim duch keldik, degan hadik bilan men oldinda yurdim. Oldimda serka bor-da. El ko'zi...

Aytganim bo'ldi. Toshloqdan o'tib, bir qoraga yo'liqdim. Yo'lni burib soldim.

Qora olisdan ovoz berdi:

— Hay, o'sha yoqda bir ola mol ko'rmadilaringizmi?

— Ko'rmadik.

— Ziyodulla chavandoz? Senmisan? Ko'pkaridan qaytdilaringmi?

— Shunday, shunday!

— Qalay, quruq qaytmadilaringmi, ishqilib?

— Esa-chi!

— Bilinmayapti-ku!

Men oldimdagi serka junini og'ritib-og'ritib tortdim. Serka uzib-uzib ma'radi.

— Eshityapsizmi ovozini?

— Ha, yaxshi-yaxshi! Ishqilib, bo'sh kelmanglar! Sizlar, elning e'tibori-da!

— Ana shunday ovozli jonlilardan barimizda bor! Xurjundagi qat-qat to'nlarni aytmasak-da bo'ladi!

22

Boysunga to'yga jo'nadim. Yer bilch-bilch loyligidan, ot dumini tugib qo'ydim.

Birodarlar, boysunliklar qitmir el, baxil el, ichiqora el! Birovga bir nima qiymaydi! O'zlari bo'lolmaydi, bo'lganni ko'rolmaydi!

Bizning omadimizni kamsitadi! Bizning muvaffaqiyatimizni yerga uradi! Parokandaligimizni ko'rib quvonadi! Yayrab kuladi, miriqib kuladi! Voy bechora-ye, voy bechora-ye, deydi! Nachora, birodarlar, nachora, sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi!.. Bugungi ko'pkarida-da shunday bo'ldi.

Sho'rchidan Fayzulla chavandoz keldi.Vo ukkag'ar, ana chavandoz! Besh ketdim! Ostidagi oti Qizbel! Suvilonday chopdi! Uloqni ketma-ket ikki bor ayirdi!

Uchinchisi menda ketdi.

Uloq goh sho'rchiliklarda, goh bizda, goh vaxshivorliklarda yurdi. Boysunliklarga tegmadi.

Fayzulla chavandoz uloqni uchinchi bor yerdan uzib oldi!

Ana shunda boysunliklar kuyib ketdi! Bir boysunlik Fayzulla otining jilovidan tortib qoldi. Yana bir boysunlik uloqni yulqib-yulqib tortdi, Fayzulla chavandoz qo'lidan tushirib yubordi!

Fayzulla chavandoz yana uloqqa uzaldi. Yana uloqni olib jo'nadi. Qizbeli toziday chopdi!

Boysunliklar keyinda qolib ketdi. Ammo ulkan bir ayg'ir izma-iz yetib bordi. Ayg'ir chavandozi uloqqa uzalmadi. Yo'q, uzalmadi. Ayg'ir, Fayzullaning Qizbelini ko'kragi bilan urib o'tib ketdi! Qasddan qildi, qasddan!

Fayzulla chavandoz qizbeli umbaloq oshib yiqildi. Fayzulla Qizbel oti boshidan yerga aylanib tushdi.

Qizbel sapchib turdi, besh-olti odim qo'ydi. Keyin, chavandoziga qarab yurdi. Chavandozi oldida oyoq ildi.

Fayzulla chavandoz yiqilish zarbidan irg'ib turib ketdi. Ust-boshlarini qoqdi.

E, tavba-ye, e, tavba-ye! Chavandoz devordan ag'nasa, albatta bir yeri lat yeydi. Maydagina eshakdan yiqilsa, xiyol vaqt qimirlamay yotadi. O'qday uchib borayotgan otdan yiqilsa, hech nima ko'rmaganday, sapchib turib ketdi!

Birodarlar, eshak yiqitsa, tuyog'ini to'shaydi, ot yiqitsa, yolini to'shaydi!

Fayzulla chavandoz Qizbel oldiga bordi, Qizbel badaniga yopishgan loylarni artdi. Qorniga sidirilib tushgan egarni oldi.

Qaytatdan egarladi. Tag'in to'daga ot qo'yib keldi. Uloqqa qahr bilan yopishdi.

Bu safar boysunliklar uloqni ot tuyoqlari ostiga bostirib oldi.

Fayzulla chavandoz uloqni tuyoqlar ostidan tortib ololmadi. To'dadan entikib-entikib chiqdi.

— ...sig'sa, ot min-da, bachchag'ar! O'l-e, shu kuningga-ye! T-fu! — dedi.

Fayzulla chavandoz tupugi ulkan ayg'ir sag'risiga sachradi.

Fayzulla chavandoz araz urib ketdi. Izidan uzangi yo'ldoshlari jo'nadi.

23

Boysunlik chavandozlar uloq ololmasligini bildi. Endi qing'irlik yo'liga o'tdi.

Uloqqa chilvir soldi! Chilvir yarim qulochcha keladigan arqon bo'ladi. Yo'g'onligi boshmaldoqday bo'ladi. Uchlari bilak bilan egar qoshi sig'adigan qilib tugiladi. Chavandoz chilvirni uloq kezanagidan o'tkazib olib, bilagiga o'raydi. Ana undan keyin *uloqni tortib olib bo'lmaydi!*

Uloqqa chilvir solishning zo'r bir xili bor.

Boysunliklar ayni shu zo'rini qo'lladi: birovi bir amallab uloqni yerdan uzdi. Chilvirni kezanakdan o'tkazib oldi. Uchlarini egar qoshiga ildi. Keyin, uloqni taqimiga bosib chopdi.

Shu uloqni olib bo'ladimi? Yo, chavandozni egar-abzali bilan ag'darib olib bo'ladi, yo, oti bilan qo'shib yiqitib olib bo'ladi. Bo'lmasa, olib bo'lmaydi!

— Chilvir! Chilvir soldi!

— Ay bakovul, to'riq chilvir soldi!

— Harom, To'riqning ulog'i harom!

Bakovul barini ko'rib turdi, barini eshitib turdi. Ammo yelkasini qisdi, labini burdi, talmovsirab turib oldi.

— Chilvir? Qanaqa chilvir? Okun, mehmoni azizsiz, bo'hton qilmang! To'riq, kel, haqingni ol! — dedi.

Chavandozlar gapi besamar bo'ldi. Ko'plar ko'pkaridan qo'lini yuvib, qo'ltiqqa urib ketdi. Sho'rchilik Hamdam chavandoz ketayotib, mana bunday dedi:

— Ay bakovul, shunday haq olib yegandan ko‘ra, ko‘chadan... terib yesalaring bo‘lmaydimi? Bir mo‘min banda o‘zi yemay, o‘zi ichmay yig‘indi, elga to‘y berdi. O‘yla-da, imonsiz! Shu haromliging o‘zingga, o‘zingga bo‘lmasa, bola-chaqangga uradi, mana ko‘rasan!

Bakovul yerparchin bo‘ldi. Ammo gapidan qaytmadi:

— Okun, chilvir solmagani haqiqat! — deya chikilladi.

— E, tupurdim, shu haqiqatingga!

Hamdam chavandoz etagini qoqib ketdi.

24

Birodarlar, chavandozlar nimaga etagini qoqib ketayapti? Adolatga! Nimaga tupurib ketayapti? Adolatga! Kimdan arazlab ketayapti? Adolatdan! Bir to‘da nomard, imonsizga achchiq qilib, adolatni o‘tga tashlab ketayapti!

Birodarlar, biz hamisha adolat, adolat deymiz. Tildan qo‘ymaymiz. Adolatsizlikni ko‘rib, xunibiyron bo‘lamiz. Hayotdan, taqdirdan noliymiz. Adolat yo‘q, adolat osmonda, deymiz,

Yo‘q, birodarlar, adolat yerda! Oyoqlarimiz ostida! Adolat tuproqqa qorishib yotibdi! Adolatni kim bundayin xor qilayapti? Biz — o‘zimiz! Men, siz Fayzulla chavandoz, Hamdam chavandoz! Ana, ular qochib ketdi! Shu-da, adolat jafo chekayotganda qochamiz! Adolatdan yuz o‘giramiz! Ko‘rib, ko‘rmaslikka olamiz!

Bir imonsiz adolatni bo‘g‘sa, yo‘limizni chap solamiz. Yomondan qoch-da qutul, yo, ton-da qutul, deymiz. Yomon bilan teng bo‘lmayin, deymiz. O‘zimizni bilmaganga olib o‘tiramiz. Tilimizni tishlaymiz. Obro‘yimiz ketib qolishidan, yo, amalimizdan ayrilib qolishdan qo‘rqamiz. O‘zimizga g‘anim orttirishdan qo‘rqamiz. Qo‘y, qo‘ya ber, to‘g‘ri gap tuqqaningga yoqmaydi, deya qo‘l siltaymiz.

Ana, bari qochib ketdi! Qochish, bizning uzangi yo‘ldoshlarga-da yuqdi.

— Yuring, ketdik! — dedi.

Men jerkib berdim:

— Hech qayoqqa ketmayman! Ko‘pkari oxirigacha chopaman! — dedim.

— Nima qilasiz, shular bilan teng bo‘lib! Bularning jazosini Xudo bersin!

— Nimaga endi bari nimani Xudoga solasizlar?! O‘zlaringiz odam bo‘lib nima qilib yuribsizlar?! Xudo bo‘lsa, shunday imonsizlik bo‘larmidi!

Uzangi yo‘ldoshlarim ko‘nglimga qaradi.

Bir boysunlik chavandoz yonidagiga shivirladi:

— Yaxshi bo‘ldi, bari ketayapti. Uloq endi o‘zimizga qoladi.

25

Qahrim qo‘zigandan qo‘zidi. Tarlonni Samad chavandozga berdim. O‘zim Samadning chekkagir ko‘k samanini mindim. To‘da girdini poylab yurdim.

Bir boysunlik uloqqa yana chilvir soldi. Lip etib yonidan bordim, uloq butidan ushladim. Uloqdan qo‘limni olmadim.

Oxiri boysunlikning oti holdan toydi. O‘zining-da hafsalasi pir bo‘ldi. Uloqni qo‘yib yubordi. Uloq yerga tushib ketdi. Men ushlab qololmadim.

Ko‘k samanni olisdan qayirib keldim. Peshonamni yengim bilan artdim. Yoqamni ko‘tarib-ko‘tarib, ko‘kragimni shamollatdim. Shunday rohatlandim, shunday rohatlandim! Tani jonim yayradi! Savob ish qilganday bo‘ldim!

Endigi uloq vaxshivorlik Yo‘ldosh chavandozda bo‘ldi. Yo‘ldosh uloqni chilvirsiz, halol olib ketdi.

Yo‘ldosh chavandozga ziyon bermadim, oshiga sherik bo‘lmadim.

Tag‘in to‘da chetiga borib turdim. Ostimdagi ko‘k saman og‘irligini orqa oyoqlariga soldi. Ketiga xiyol chayqalib turdi.

Endi jiyron otli bir boysunlik uloqni olib jo‘nadi.

Men darrov ko‘k samanni yonidan qo‘shdim. Uloqqa ushlashdim. Basma-bas ushlashdim. Tengma-teng ushlashdim.

Bechora chavandoz chap berib, chap berib, ko‘p chopdi.

— Qo'yib yubor, haqning yarmini beraman, — deya shivirladi.

O'zimni eshitmaslikka oldim, uloqni ushlab chopdim.

Boysunlik alamidan yomon-yomon o'qraydi, yomon-yomon chaqchaydi. Burab-burab so'kdi. Oxiri uloqni tashlab yubordi.

Ishqilib, boysunliklarga uloq bermadim. Boysunlik chavandozlar uloq ololmadi.

Bakovul barini ko'rib turdi, barini bilib turdi. Ana endi... ana endi, qitmirning borib turgan qitmiri qiladigan ishni qildi: uloqni to'dadan chetga olib jo'nadi. So'raganlarga:

— Butlari shalvirab qolibdi, — deya javob berdi.

Chavandozlar bakovul yo'liga qarab turdi. Bakovul to'daga yangi uloq so'yib keladi, deya umid qildi.

Xiyol o'tdi, bakovul qaytib keldi. Uloqni to'daga olib kelib tashladi.

Uloqni ko'rib, yoqalarimni ushladim. Yo, tavba, yo, tavba! O'sha-o'sha uloq. Lekin bo'yni yo'q! Butlari yo'q! Haligina bor edi, bakovul qirqib tashlabdi! Bunday uloqni yerdan ko'tarib bo'lmaydi! Boisi, ushlaydigan yeri yo'q! Junidan ushlab ko'tarayin desa, juni yulinib ketadi!

Shunday bo'lsa-da, chavandozlar noumid shayton deya, uloqqa talpindi. Ammo yerdan uzib ololmadi.

Bakovul ko'nglidagiday bo'ldi! Ana endi bakovul ko'pkarining oxirini aytdi:

— Eshitmadim demanglar, olgan-olgani! Olgan-olganiga shu uloqning o'zi, bir kilo yog', bir kilo guruch, sabzisi bor! Ol!

Bunday uloqni yerdan uzib olishning bir yo'li bor. Lekin juda-juda qiyin...

Baxtash tavakkal! O'zimizning Tarlonni minib oldim. Uzangi yo'ldoshlarimga bot-bot tayinladim. O'zim uloqqa qarab yurdim. Uzaldim, uzaldim... tag'in uzaldim... uloq junini eti bilan qo'shib ushladim, g'ijimlab ushladim. Bor kuchim bilan siltab ko'tardim, egar qoshiga o'ngarib oldim! Ko'kragim ostiga bosdim, bilaklarim bilan bosdim!

Ko'z ilashmay qoldi!

Qolgan ish, Tarlon ishi bo'ldi! Tarlon tulkiday chopdi!

Ko‘pkari oxiri menda ketdi. Men zafar qozondim! Birodarlar, o‘zbek eli o‘r keladi, o‘zi o‘jar, zo‘r keladi!

26

Rixsiyev qishloqqa ko‘chib keldi.

Birov urilib keldi dedi, birov shahardan bezor bo‘lib keldi, dedi. Urilib keldimi, surilib keldimi, ishqilib keldi. Maktabda muallim bo‘ldi.

Bizdan ikki hovli narida otameros ko‘hna hovlisi bor edi. Ana shu hovlida yashadi. Qish bo‘lsa-da, hashar qildi, hovlisini sozladi.

Bir kuni meni-da hasharga aytdi. O‘lmayinning kunidan bordim. Hamsoyachilik, qosh bor, qoboq bor-da.

Rixsiyev supada yonboshlab oldi. Qo‘lini loyga urmadi. Hasharchilarga gap berib turdi.

Birodarlar, Rixsiyev quloq-miyani qoqib qo‘lga berdi! Bidir-bidir... Olamda gap qolmadi! Qayerda urush bo‘layapti, qayerda surgun, qaysi mamlakat podshosi qayerga bordi, nimaga bordi, nima dedi, poyezd-da bordimi, samolyotda bordimi, mezbonlar bilan quchoqlashib ko‘rishdimi, yo, qo‘l uchida ko‘rishdimi, hech nima qolmadi!

Boshim g‘uvullab qoldi. Tishimni tishimga qo‘yib chidadim.

Rixsiyev ertaga-da hasharga aytdi.

— Kelolmayman, ertaga ko‘pkari bor,— dedim.

Shu vaqt uydan odam keldi. Palovga qaramadim, hadahalab uyga bordim. Uyimizda chaqaloq inga-ingaladi.

Birodarlar, men ota bo‘ldim, ota! O‘g‘il! Xumor xolamiz o‘g‘limizga momochi bo‘ldi!

Tongni ko‘z yummay oqladim.

27

Ertalab Tarlonni suvlatmadim. Yemni kamroq berdim. Qishloq mashrig‘idagi chimzorga bordim.

Otlar siyrak bo‘ldi. Borlari-da o‘zimizning otlar bo‘ldi. Mehmon otlar tahchil bo‘ldi.

Tarlonni to‘daga soldim. Tarlon to‘daga kirmadi! Keyiniga tisarildi. Suvlig‘ini chaynadi, boshini sarak-sarak etdi.

Tizzam bilan biqiniga niqtadim, sag‘risiga qamchiladim.

Tarlon seskandi, Tarlon turgan joyida yer depsindi.

Ko‘z qo‘rqitar uchun boshi uzra qamchi havolatdim.

Tarlon ursang ur, mana, degandayin quloqlarini chimirib turdi.

Bildim, Tarlonda kayfiyat yo‘q, bildim!

Birodarlar, har bir otning o‘z fe’li atvori, kayfiyati bo‘ladi. Ot kayfiyati yo‘q kunlari insonga bo‘yin egmaydi. Ana shu kunlari inson ko‘p g‘ashiga tegsa, inson yelkasidan g‘archillatib tishlab olishdan-da, qovug‘iga tarsillatib tepishdan-da qaytmaydi!

Bunday vaqtlarda ayrim chavandozlar qamchi dastasi bilan otning boshiga uradi. Oqibat, ot jon achchig‘ida chavandozini yiqitib qochadi.

Ana shunda ot insondan bezadi. Ot insondan qaytadi! O‘zining devlar ajdodiga tortadi! Ajdodlarini qo‘msaydi, adirlarga qarab qochadi. Galalarga borib qo‘shiladi. Ayg‘irlari bilan ko‘rishadi, biyalari bilan suykashadi. Ajdodlarining havosini oladi! Bir-birlari bilan iskashadi. Inson zotidan nolib-nolib boshlaydi, ko‘nglini yorib-yorib boshlaydi, dardini to‘kib-to‘kib boshlaydi... Dev boshim bilan insonga bosh egdim, deydi, ta’zim qildim, deydi, qul bo‘ldim, deydi, ammo el bo‘lmadim, deydi...

Yo‘q, kayfiyati yo‘q kunlari otga indamaslik lozim bo‘ladi, ko‘ngliga qarash lozim bo‘ladi!

Shu boisdan Tarlonni oshiqcha zarbalamadim. To‘da tevaragini aylanib yurdim. Shunchaiki tomoshago‘y bo‘ldim.

Chimzorda yer yorib chiqqan cho‘qir toshlar ko‘p bo‘ldi. Shu bois, chavandozlar ko‘ziga qarab chopdi. Otlarini qoqilib ketishdan avayladi.

Oqtuyoq otlar bir chetda tomoshago‘y bo‘ldi. Boisi, oqtuyoq otlar toshli yerda chopolmaydi. Toshlar tuyog‘ini urib tashlaydi.

Ko‘pkari oxirida bakovul jar soldi:

— Chavandozlar deyman-ov, bugun ot kam keldi! Uzoq-yaqindagilar to‘yning ikki kunidayam ko‘pkari bo‘lishini bilmagan-da! Shu boisdan Qobil polvon ertaga katta ko‘pkari beradi! Armonda qolma!

Uyda Tarlonni iliq suv bilan yuvdim. Qashilab-qashilab parvarishladim.

Xufton vaqti-xufton vaqti to'yxona tevaragini aylantirdim. Karnay-surnaylar ovozini eshittirdim, to'yxona havosini oldirib-oldirib keldim. Keyin, hovli etagiga solqi qilib boyladim.

Yarim kechada Tarlon kishnadi.

Tashqariladim, Tarlondan xabar oldim.

Tarlon old oyoqlari bilan yer tirnadi. Qoziqni aylanib-aylanib chopdi. Pishqirib-pishqirib chopdi.

To'y havosi Tarlonni qo'zg'adi. To'y havosi Tarlonni ko'pkariga chorladi!

Tarlon tushkun kayfiyatdan forig' bo'ldi!

28

Ertasi kuni otlar serob bo'ldi. Ot ko'pligidan binoyiday otlar-da to'daga tumshug'ini tiqolmadi.

Bir osh pishirim vaqt o'tdi. Uloq yerdan qimirlamadi. Qimirlasa-da, besh-o'n odim sudralib borib, tag'in tushib qoldi.

Oxiri bir cho'bir ot enlik ko'kragi bilan to'dani yorib-yorib, uloqni olib chiqdi. To'da chetida chag'ir otliq bir chekkagir chavandoz uloqni poylab turib edi, shu chekkagir chavandoz chag'ir otini cho'bir yonidan soldi. Jipslashib keldi-da, uloqni yuldi-ketdi. Ellik-oltmish qadamcha chopib bordi.

Katta-katta ko'pkarilarda uloq to'dadan sag'al chiqsa bo'ldi, halol bo'ladi. Shu bois bakovul darrov qamchisini boshi uzra ko'tardi:

— Haloool! Tashla, Chag'ir, tashla! — dedi.

Birodarlar, chekkagir chavandoz o'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir chavandoz bo'ladi!

Chekkagir chavandoz to'da chekkasida gir bo'lib poylab yuradi! Shu sababli-da ularni chekkagir deydilar. O'zlari-da, otlari-da chekkaga o'rgangan bo'ladi. Chekkagirlar to'dadan uloq ololmaydi. Chekkada turib, tayyor oshni poylaydi. Uloq to'dadan chiqdimi, bo'ldi, chekkagir uloqni tulkiday ilib ketadi.

Uloqni to‘dadan olib chiqqan chavandoz esa mehnatiga kuyib qoladi!

Men ming azob bilan uloq olib chiqdim. Mening ulog‘imni-da shu Chag‘ir chekkagir yulib ketdi. Men sonimga urdim, attanglab qola berdim.

Chag‘ir chekkagir boshga bitgan balo bo‘ldi.

Shunda men, bir ustalikni qo‘lladim. Uloqni oldim-da, kun tarafga qarab ot soldim. Kunga yuzma-yuz chopdim.

Yonimda kelayotgan Chag‘ir ot yo‘lda qolib ketdi. Boisi, Chag‘ir otning ko‘zi ko‘k bo‘ladi! Kunga qarab chopolmaydi! Ko‘zlari shafaqlanadi!

— Tarlonniki halol, Tarlonniki halol! Tarlon, ma, haqing! Chavandozlar, endi qoralik qo‘yaman! Mana! — dedi bakovul.

Bakovul shunday deya bir yirtim qizil matoni ko‘z-ko‘z etdi. Matoni yarim qulochcha cho‘p uchiga ildirib, bayroqcha qildi. Bayroqchani chimzor chetidagi kattaroq o‘choqday chuqur labiga qadadi.

— Mana shu chuqur qoralik! Kimki uloqni shu chuqurchaga olib kelib tashlasa, bir qo‘y, ellik so‘m pul, bir to‘n oladi! Qulog‘i og‘irlar bo‘lsa, qaytarib aytaman...

Qoralik — ko‘pkarining eng mushkuli, eng qiyinidir. Shu sababli-da ko‘pkari g‘ururidir, ko‘pkari yuzidir. Qoralikni halollash chavandozga-da, otga-da faxr! Uloqni qoralikka bir marta olib borib tashlash, to‘dadan uch marta uloq ayirishdan ziyod!

29

Ko‘pkari qizigandan qizidi.

Shu vaqt, Jo‘ra bobo ot yo‘rttirib keldi.

— Ziyodulla chavandoz, bizning To‘riqniyam bir ko‘ring, ukam,— dedi.

Jo‘ra bobo shunday deya, otdan tushdi. Jilovni menga uzatdi. Men Tarlon jilovini unga berdim. Boboning qora to‘rig‘ini mindim.

Jo‘ra boboning gapini yerda qoldirib bo‘lmaydi. Jo‘ra bobo oltmishdan oshib qoldi. Ammo farzandi yo‘q...

Ikki marta uylandi. Ikkovida-da farzand bo'lmadi. Uchinchisiga uylandi. Bundan-da bo'lmadi. Qo'yib yuborgan ayollari boshqalarga tegib-tegib ketdi. Bolalik bo'lib-bo'lib ketdi.

Shunda, Jo'ra boboning boshi egilib qoldi. Yuzi ko'ksiga qarab qoldi. Davralarda dasturxondan ko'z olmadi. Ko'chalarda etiklari uchiga qarab yurdi. Ovozini qo'yib gapirolmadi...

Jo'ra bobo bir nimaga e'tibor berdi. Jo'ra bobo, degan ot eldan qoldi. El o'zini, yo, uyini ko'rib, Jo'ra boboni esladi. Ko'rishib, bardammisiz, Jo'ra bobo, dedi. Bu uy Jo'ra boboniki, dedi.

Boshqalarning oti bo'lsa, hamisha el og'zida bo'ldi. Aytaylik, hamsoyasining o'g'li maktabga boradi. Muallim yo'qlama qiladi. Murodov, deydi. Hamsoyasining o'g'li sapchib turadi, men, deydi. Sinfga bir kunda oltita muallim kiradi. Demak, hamsoyasi Murodning oti olti bor jaranglaydi. Hamsoyasining sakkiz bolasi bor. Bari maktabga boradi. Har birovi otasining otini kuniga olti marta jaranglatadi! Demak, hamsoyasi bir kunda qirq sakkiz bor el og'ziga tushadi!

Yana-tag'in, ko'chalarda necha martalab oti aytiladi. Bu kimning o'g'li? Murodning o'g'li? Bu kimning qizi? Murodning qizi!..

Jo'ra bobo joniga to'ydi. Bir tushda qoradori yedi. Ustidan sovuq suv ichdi. Yorilib o'lmoqchi bo'ldi!

Bir chinni kosa suvni og'ziga olib bordi. Lablariga tekkizdi. Shunda, birdan aynidi. Mardona-mardona, achchiqma-achchiq ish qilish fe'li tutdi! Suvni zarda bilan otib yubordi. Kosa chil-chil bo'ldi...

Mol-qo'ylarini sotdi. Puliga qaymoqrang "Jiguli" oldi. Rulni hamsoyasining to'ng'ich o'g'liga berdi.

— Aytgan yerimga mindirib borib kelsang bo'ldi, — dedi.

Asl maqsadi boshqa bo'ldi. Asl maqsadi — mashinasi ko'chani changitib yursin, odamlar bu Jo'ra boboning mashinasi, desin. Jo'ra boboning mashinasi qaymoqrang, desin. Yo'lda GAIlar ushlab hujjat ko'rsin, Jo'ra bobo, degan nomni o'qisin...

Jo'ra boboning bundan-da ko'ngli to'lmadi. Mashinasini pulladi. Puliga ana shu To'riqni oldi. Farzandlar nasibasini-da, farzandlar rizqi ro'zini-da ana shu To'riqqa yedirdi...

Qaridi, o'zi uloq chopmadi. Shunday bo'lsa-da, To'riqni ko'pkarilarga boqdi, ko'pkarilarga shayladi. Chavandozlar bilan olislardagi ko'pkarilarga bordi. Birovning oti tolib qolsa yo yaramay qolsa, ana shu chavandozga To'rig'ini berdi.

Jo'ra boboning dardi yolg'iz bo'ldi, dardi ezgu bo'ldi: To'rig'i uloqni ayirsin. Bakovul uloqni Jo'ra boboning oti ayirdi, deya jar solsin. Jo'ra boboning oti, kel, haqingni ol, desin. Ko'pkari ahli Jo'ra bobo degan nomni eshitsin. Qulog'i og'irlar uloqni kim oldi, deya qayta so'rasin. Shunda bakovul, uloqni Jo'ra boboning oti oldi, deya qayta-qayta jar solsin, Jo'ra bobo degan nomni olam-jahon odam eshitsin...

Bakovullar-u chavandozlar Jo'ra bobo dilidagini darrov ilg'ab oldi.

Ko'pkarilarda Jo'ra bobo To'rig'ini marhamat etsa, chavandozlar yo'q demadi. Ko'ngliga qaradi. Jo'ra bobo To'rig'ini bersa berdi, bermasa, atayin so'rab oldi.

Bakovullar Jo'ra bobo ko'nglidan bordi.

30

Jo'ra boboning To'rig'iga qoralikni ko'rsatib keldim, qoralikni iskatib keldim.

Xiyol o'tdi, to'da guvullab qo'zg'oldi. Uloqni bir Chil ot olib chiqdi.

Birodarlar, Chil otning bir yeri ko'k, bir yeri oq, yana bir yeri qora bo'ladi. Shu boisdan chil-da!

Chil yo'lini chap solib-chap solib chopdi. Chag'ir chekkagir Chilga yaqin-da borolmadi. Chekkagir armonda qoldi.

Bakovul qamchisini boshi uzra silkidi.

— Bekor, Chilniki bekor! Qoralikka tushmadi! — dedi.

Chin, uloq chuqur labida ilashib qoldi. Uloq chuqur ichiga tushsagina, halol bo'ladi.

Bakovul uloqni qoralikdan xolisga olib borib tashladi.

— Chavandozlar, qo'yilgan zotlar joyida qoldi! Ol, ha, ol! — dedi.

Boyanagi chil ot uloqni tag‘in olib chiqaman dedi. Bir havasim keldi, bir hayratim keldi. Nimaga endi faqat shu Chil ot olayapti? Hatto chekkagirlarni-da dog‘da qoldirayapti?

Farosat bilan qaradim. Bir talay uzangi yo‘ldoshlari Chil ot tevaragini o‘radi. Chil chavandozi uloqni xotirjam uzalib oldi. To‘dadan sug‘urila boshladi. Uzangi yo‘ldoshlari o‘zga otlarni Chilga yo‘latmadi, yo‘l bermadi. Go‘yo uloqqa talashayotgan bo‘lib, Chil otni o‘rab-o‘rab chopdi. Chil sag‘risiga qamchilab-qamchilab, madad berib-madad berib chopdi.

— Darband! Hayda, Darband! G‘ayrat qil, Darband! — deyishib chopdi.

— Bos, bo‘sh kelma, Darband! — deyishib chopdi.

Demak, bular darbandlik chavandozlar bo‘ldi. Darbandlik chavandoz uloqni taqimiga bosib oldi. Ayqirib-ayqirib ot qo‘ydi:

— Oho-hay, oho-hay, oho-hay! Hay otam, hay otam-a, hay otaginam-a! Hayda-ya!..

Birodarlar, darbandlik chavandoz otni otam deyapti, otam! Ahay-ahay!

Chil ot bu safar uloqni dangal tashladi.

— Haloool! Chil, Chil deyman-ov!Uloqni olgan yeringga olib borib tashla! Chavandozlar, endigi zotga katta bir ho‘kiz qo‘yildi. So‘ysang, bir to‘yni to‘ydiradi! Ol, armonda qolma!

To‘da yana qoralikka qarab ot qo‘ydi. Uloq bu gal “8-mart” kolxozilik Samanda bo‘ldi. “8-mart”liklar haybarakalla qildi:

— Qo‘yma, “8-mart”, qo‘yma!

— “8-mart”, ehtiyot bo‘l, ketingdan Chag‘ir borayapti!

— Bos, joning boricha bos!

— “8-mart”, otni qamchila! Ho‘kiz “8-mart”liklarda ketdi.

31

Endigi uloqni men olib chiqdim. Otlar oldimni oldi. Yo‘limni yopib chopdi, yonlarimni yopib chopdi. Otlar meni qoralikka yo‘latmadi.

Birodarlar, yolg‘iz otning changi chiqmaydi, changi chiqsa-da, dong‘i chiqmaydi!

Alamimdan xunob bo‘ldim. O‘zimizning chavandozlarga baqirdim:

— Jonlaring bormi?!Kelinglar-da endi!

Shundagina bizning chavandozlar o‘ziga keldi. Gapni bir yerga qo‘ydi.

Men yana uloqqa kirdim. Uzalib, uloqni yerdan uzdim. Jo‘raboboning To‘rig‘i olg‘a yurdi.

Bakovul jar soldi:

— Uloqni Jo‘ra boboning oti ko‘tarayapti, Jo‘ra boboning!

Besh-olti qo‘l uloqqa uzaldi. Ammo men kuch bermadim. Uloqni bor kuchim bilan ushlab oldim. To‘dadan sug‘urilib chiqdim.

— Uloq Jo‘raboboning otida! Eshitmadim demanglar, Jo‘ra boboning otida!

Uzangi yo‘ldoshlarim tevaragimni olib chopdi. O‘zga otlarga yo‘l bermadi. Jo‘ra boboning To‘rig‘ini qamchiladi, haybarakalla qildi.

— Ha, bos, Jo‘ra boboning oti!

— Ha, selkillagan yolingdan aylanayin! Hayda-ya, Jo‘ra boboning oti!

— Iy-iy-iy, iy-iy-iy!.. Dupur-dupur-dupur... Otlar pishqirdi, otlar kishnadi. Yollar selkilladi. Dumlar tovus pati misol yoyildi. Tuyoqlar ostidan chang o‘rladi. Dupur-dupur-dupur...

Jo‘ra boboning oti qoralikka zabt bilan keldi. Chuqurdan sapchib o‘tdi. Shunda uloqni qo‘yib yubordim.

— Hal-o-ol! Jo‘ra boboning To‘rig‘iniki halol! Jo‘ra boboning To‘rig‘i, kel, haqingni ol!

Haqni olib, Jo‘ra boboning oldiga bordim. Jo‘ra bobo jilmayib, bosh irg‘adi. Tevarakka g‘olibona ham xushvaqt qaradi. Ko‘rdilaringmi, uloqni bizning otimiz oldi, degan bo‘ldi.

32

Qish qaridi.

Havoda ko‘klam isi anqidi. Boychechaklar ketidan qoraqoshlar ochildi.

Ko‘klamni bag‘rimga bosdim, to‘yib-to‘yib iskadim.

Bir gap eshitib, ko‘klam kayfiyatim qish bo‘ldi. Ko‘klam rangim sindi.

— Jamiki otlar go‘shtga topshirilar emish.

Kolxoz radiouzeli shunday dedi.

Brigadir uyma-uy yurib aytdi. Vajini so‘radim. Brigadir yelka qisdi. Ko‘rsatkich barmog‘i bilan shipni ko‘rsatdi.

— Bari yuqoridan, bizda gap yo‘q,— dedi.

Brigadir aytgan yuqoridan odam keldi. Idora oldida ko‘rdim. Yonida ikkita militsioneri-da bor. Kattalar uyma-uy yurib, ot oldi.

El ot bermayin desa — kattalar! El yoqalashayin desa — yonida shapkalar!

El ostonagacha otlariga ergashib bordi.

El qonqora qaqshadi.

El dardi ichida bo‘ldi.

33

Ha-ye, dedim, peshonada borini ko‘ramizda-ye, dedim.

Hofiz qassobdan ikki kilo qo‘y go‘sht oldim. Belboqqinamga tugib, uyga keldim. Supada chordana qurib, go‘sht nimtaladim. Lahimni bir yoqli, suyakni bir yoqli qildim. Ukkag‘ar Hofiz qassob sersuyak qilib beribdi. Xiyla ovora bo‘ldim.

Shu vaqt, Tarlon pishqirdi.

Ko‘zimni go‘shtdan olib qaradim.

Tarlon joyida telbalarcha irg‘ishladi. O‘zini u yoqqa urdi, bu yoqqa urdi. Tasir-tusur yer tepdi. Old oyoqlari orasiga tumshuq tiqdi. Qorniga tumshuq cho‘zdi. Sag‘riniga tumshuq cho‘zdi. Tumshug‘i sag‘rinlariga yetib-yetmadi.

Dumlari bilan sag‘rinlarini urdi, qorinlarini urdi.

Orqa oyoqlarini ketiga siltab-siltab pishqirdi. Go‘yo bir nimani tepgan bo‘ldi.

Men avval-avval, Tarlon sho‘xlashib o‘ynayapti, deb o‘yladim,

Yo‘q, Tarlon sho‘xlashib o‘ynamadi.

Tarlon dinggilladi! Ding-ding etdi!

Shu Tarlon yo ya’juj-ma’juj ko‘rdi, yo olabo‘ji ko‘rdi, deya o‘yladim.

Hadahalab bordim. Tevarak-boshni qaradim. Ya'juj-ma'juj-da ko'rmadim, ola-bo'ji-da ko'rmadim.

Hayron bo'ldim. Ot arqonini ushladim.

— Tak-tak, tak deyman! — dedim.

Tarlon shunda-da dingilladi. Dingillab, arqonini yulqidi. Dingillab, arqonini silkidi.

Ketimga chalqayib oyoq tiradim. Arqonni qo'shqo'llab tortdim. Shunda-da bo'lmadi. Dalbanglab-dalbanglab ketdim. Bor-e, deya arqonni qo'yib yubordim.

Bor e'tiborim bilan qaradim. Bor farosatim bilan o'yladim. Qarab-qarab topdim, o'ylab-o'ylab topdim.

Bizning Tarlonga go'balak doridi! Go'balakda bingak nishiday zahar nish bo'ladi. Shu nishini ot badaniga suqib-suqib ola beradi.

Go'balak osmondan tushmaydi, yerdan chiqmaydi. Chetdan-da uchib kelmaydi.

Unda, go'balak qayerdan keladi? Go'balak otning o'zida bo'ladi! Ot deb atalmish har bir jonivorning o'z go'balagi bo'ladi!

Go'balak otning qayerida bino bo'ladi? Go'balak otning dumi ostida bino bo'ladi!

Shu bois, go'balak otpashsha deyiladi!

Bir qo'lim bilan ot arqonidan mahkam ushladim. Bir qo'lim bilan kallamdan telpagimni oldim. Telpagimni shaylab turdim.

Go'balak ot dumi ostidan chiqdi degandan, telpagim bilan tapillatib urib o'ldirdim.

Joyimga qaytib borib o'tirdim.

Tarlon tag'in qozig'ini aylanib-aylanib chopdi. Dirk-dirk o'ynadi. O'ynab-o'ynab pishqirdi.

Tarlon go'balakdan xalos bo'ldi-da! Endi, o'ynaydi-da!

Tarlon dumlari yoyildi, yollari hurpaydi. Yollari bir chap bo'ynida, bir o'ng bo'ynida o'ynadi!

Bir qo'lim go'shtda, bir qo'lim pichoqda qoldi. Ko'zim Tarlonda qoldi! Yo, pirim-e, yo, pirim-e! Go'shtga topshiradi? Shunday zotni-ya? Shunday xushro'y zotni-ya? Go'sht qiladigan boshqa jonivor quridimi? O'zi, qanday qilib go'sht qiladi? Mana bundaymi?

Dasturxondagi go'shtga tikildim. Ana shunday-da? Tarlon hademay shunday bo'ladi-da? Lahimi bir yoqli, suyagi bir yoqli bo'ladi-da? Eb-ey, eb-ey!

Keyin, kallapoychasi alohida bo'ladi. Tuyoqlarini itga otib yuboradilar. Itlar tuyoqlarni g'ajib yeydi. Faqat tuyoqdagi nag'allar qoladi.

Yollari bilan dumlarini ko'mib tashlaydilar. Yollar tuproq ostida chiriydi. Shunday yollar-a? Bu yol emas, ipak, ipak! Bu yol emas, do'mbira tori, do'mbira tori!

Tarlon ot emas, Jumanbulbul kuylagan "Kuntug'mish"! Fozil Yo'ldosh kuylagan "Alpomish"!

Gajak-gajak bo'yinlar bo'yin emas, do'mbira, do'mbira!

"Kuntug'mish"ni go'shtga topshirib bo'ladimi? "Alpomish"ni go'sht qilib bo'ladimi?

Tarlon dirkillab-dirkillab o'ynadi. Birdan oyoq ildi. Orqa oyoqlarini keng yoydi. Boshini sarak-sarak qildi. Old oyoqlarini ko'tardi! Tag'in, tag'in-da ko'tardi. Old tizzalarini xiyol bukdi. Old tuyoqlari yerga egildi. Quloqlari olg'a ding bo'ldi.

Tarlon orqa oyoqlarida tik turdi!

Devor uzra olis-olislarga qaradi. Bobotog' cho'qqilariga qaradi. Qaradi-qaradi... bor ovozi bilan kishnadi!

Qishloq uzra kishnash taraldi. Xayol qildim, adirlardan aks sado keldi. Xayol qildim, kishnash Bobotoqqacha bordi.

Birodarlar, tani jonim rohat qildi! Jonim entikdi, tanim yayradi! Ko'nglim xo'rsindi, ko'nglim jo'shdi.

— Ahay-ahay! Ha, ovozginangdan-a! — dedim. O'zim kulib, o'zim aytdim!

— Ha, jon! — dedim.

Kishnash emas, rubobiy musiqa eshitganday bo'ldim! Do'mbira sozi eshitganday bo'ldim!

Birodarlar, ot — rubobiy musiqa, ot — ko'rkam suvrat!

Bali-ye, Tarlonboy-e, bali-ye!

Ko'zim yana qo'limdagi go'sht bilan suyakka tushdi...

Yo'q-yo'q, o'lsam-da, yo'l qo'ymayman...

34

Yarim kechasi Tarlonni jabduqlab mindim. Obshirga ot qo'ydim.

Obshir qishlog'i kunbotarida oq tuproqli adirlar, tepalar mo'l. Ana shu tepalar nishabida kamarlar mo'l. Tarlonni ana shu zimiston kamarlardan birovga olib kirib bog'ladim.

Kun yoyildi, olam munavvar bo'ldi. Ana shunda uyga qaytib keldim. Ta'tillanib, podayotoqqa bordim.

Oqshom vaqti o'n kilo arpa bilan bir qop somonni aralashtirdim. Qosh qoraytirib, qopni orqalab jo'nadim. Yo'lda terladim. Dam olib-dam olib bordim. Qopni kamarga suyab qo'ydim. Kaftimda gugurt chaqdim. Tarlon ko'rsin, meni tanisin deya, olovni yuzimga olib keldim. Tarlon yemsirab, iltijoli pishqirdi.

Tarlonni yetakladim. Shu yaqindagi ariqdan suvlab keldim. To'rvasida yem berdim. Badanlarini qashiladim. Tarlonga qarab-qarab ketdim.

Uyda tamaddi qildim, yonboshladim. Oyoqlarimni yozdim. "Vaqt" eshittirishlari-da ado bo'ldi. Shunda, to'shakka o'tib yotdim. Ko'zim ilindi, ko'zim ketdi.

Bir mahal, ayolimiz turtdi.

— Tursin, birov chaqirayapti, — dedi.

Uyqusirab, qo'zg'oldim. Choponimni yelkamga tashlab, tashqariladim.

Olapar itimiz darvozaga tarmashib-tarmashib hurdi. Olaparimizga do'qlab-do'qlab bordim. Olapar dumini likillatib-likillatib, o'zini chetga oldi.

Darvozani ochib qaradim. Ostonada raisimiz, undan keyin do'ppili odam bilan ikkita militsioner bo'ldi.

Raisimiz boshi bilan do'ppili odamga ishora qildi.

— Bu kishi rayon vakili, qishloq xo'jaligi boshqarmasidan,— dedi.

— Binoyi, binoyi. Qani, ichkarilangizlar.

Do'ppili odam ichkariladi. Ketidan boshqalari ergashdi.

Kattalarga sinchiklab-sinchiklab qaradim. Do'ppili katta mendayin bir kal bo'ldi. O'zimizdan ekan, dedim.

Kal katta tevarakka alangladi.

— Ot qani?— dedi.

— Qanday ot?— dedim.

— Ot qanday bo'ladi? To'rt oyoqli, ikki quloqli ot-da.

— Menda unday ot yo'q, katta. Kaldan taroq so'rama, deydilar. Siz bo'lsa ot so'rab o'tiribsiz.

— Top, top, kallani garang qilma! Adi-badi aytishib o'tirishga vaqt yo'q. Senga o'xshaganlarning soni mingta!

— Menda ot nima qiladi, katta. Ana, qarangizlar. Bo'lsa, olib keta beringizlar.

Kal katta barmoqlarini o'ynatib, militsionerlarga imo qildi.

— Tintinglar! — dedi.

Militsioner bilakday xitoyi fonarlarini yoqdi. Molxona, otxonalarni qarab keldi.

— O'zi yo'q, tezagi bor ekan,— dedi.

Kal katta menga yuzlandi.

— Ana, tezagi bor deyapti-yu? — dedi.

— Men sizga aytsam, katta, eshikli uy, mehmonlarning oti tezak tashlagandir-da. Tashlama deb bo'lmaydi, mehmon ot.

— Familiyang nima? Xo'-o'sh, Qurbonov, ta-a-ak, Qurbonov Ziyodulla. Mana, ro'yxatda turibsan, oting bor. Gap shu, ertaga yana kelamiz. Otni topsang topding, topmasang, o'z o'pkang o'zing bilan bo'lsin!

Kal katta darvozaga qarab yurdi. Ketidan militsionerlar shaxdam odimlar otib jo'nadi. Raisimiz kattalar ketidan pildirab ergashdi.

Shunda, ichkaridan onamiz chiqib keldi.

— Ayt, ulgu berib ketsin, — dedi.

Kattalarni darvoza ostonasida yetib oldim.

— Katta, uyda chaqalog'imiz bor, otini Ibrohimboy deydilar.

Kal katta yelkasi bilan gapirdi:

— Nima qilay shunga?

— Chaqaloqli uyga bemahalda kelib bo'lmaydi. Mabodo birov bilmasdan kelib qolsa, undan ulgu olib qolish lozim.

— Qayerdan olasan?

— Bizga baribir. O'ngiringizning uchidan maydagina bir ip bo'lsa-da mayli. Ayollar chaqaloqli uyda ipni isiriqqa qo'shib tutatadilar.

— Endi, shungayam etagimni yirtaymi?

— Yo‘q, yirtish darkor emas, katta. Kiyimingizga ilashgan biror-bir qil bo‘lsa-da bo‘ladi.

Kal katta qo‘l siltadi. Yo‘liga burilib ketdi. Men qaytib keldim.

— Ulgu bermadi, — dedim.

Onamiz qarg‘ab-qarg‘ab ichkariladi. Taypoq toboqda isiriq tutatdi. Chaqaloqli uyni uch aylantirdi. Ziyon-zahmatlarni quvdi.

35

Kattalar xo‘jako‘rsinga lalmi do‘q urib ketdi, deb o‘yladim.

Yo‘q, ertasi kuni tag‘in keldi.

Iskalanib-iskalanib otxonani qaradi, chaqaloqli uyni qaradi.

Kattalar qilig‘i hamiyatimga tegdi. Tishimni tishimga zo‘rg‘a bosib turdim.

— Xo‘sh, qani?— dedi kal katta.

— Nima qani?

— Ot!

— Ot? Katta, siz menga qaysi bozordan ot olib berib edingiz? Denovning bozoridanmi, yo, Sho‘rchining bozoridanmi?

— Tishingni ko‘p g‘ijirlatma, biz sendan qo‘rqmaymiz! Yaxshilikcha otni chiqar! Qo‘sha-qo‘sha mol, qo‘y, tovuq, ot... buncha hayvonni nima qilasan? Ana, magazinda hamma narsa muhayyo. Go‘sht deysanmi, sut, kefir deysanmi...

— Katta...

— Nima, yo, kapitalist bo‘lmoqchimisan? Kechirib qo‘yasan! Biz sotsialistik jamiyatda yashayapmiz! Hademay kommunizmda yashaymiz! To‘g‘rimi, o‘rtoq rais?

Raisimiz labbaygo‘y bo‘ldi.

— To‘g‘ri, kommunizm sari bormoqdamiz! — dedi.

— Yo, ot minib bosmachi bo‘lmoqchimisan? Kechirib qo‘yasan! O‘zi, ajdodingda bosmachi o‘tmaganmi? Bir tekshirib ko‘rish kerak...

— Katta, unday demang. Otam bechora Sovet tuzumini deb qurbon bo‘ldi. Otga kelsam, ot — yigitning yo‘ldoshi, katta. Qolabersa, ot bilan ko‘pkari chopamiz.

— Iya-iya, sen o‘zi qaysi jamiyatda yashayapsan, miya? Shu paytgacha eshakning qulog‘iga tanbur chertyapmanmi? Ko‘pkari — eskilik sarqiti! Ko‘pkari — yovvoyilar o‘yini!

— Katta... o'zi, kal kalla — kalla emas ekan-da! Bir mening kallam shundaymikin desam, siznikiyam menikidan qolishmaydi!..

— O'chir-e.

— Katta, enamni so'kmang. U bechora ichkarida nevarasiga qarab o'tiribdi. Sizga bundayin beposhna gaplar ep bo'lmaydi.

— O'chir deyman-e...

— Esa, men ham sizning...

Gapim oxiriga yetmay qoldi. Kal katta qulochkashlab jag'imga urdi. Qo'li ayolning qo'liday ekan, jag'im og'rimadi. Gapimni oxirigacha yetkazib aytdim.

Shunda kal katta ketimga tepmoqchi bo'lib shaylandi. Men o'zimni chetga oldim. Chap berib qoldim.

Kal katta o'z shashti bilan, o'z zabti bilan supadan uchib ketdi. Chuqurga borib tushdi.

Raisimiz dovdirab qoldi.

— Eb-ey, eb-ey!..— dedi.

Chuqurga sakrab tushdi. Kal kattani suyab olib chiqdi.

Kal katta hansirab-hansirab nafas oldi. Qo'li bilan meni ko'rsatdi.

— Ushlanglar, banditni ushlanglar! — dedi.

Ikki militsioner ikki yonimdan keldi. Qo'llarimni ketimga qayirdi. Ketimga bir tepdi. Kolxoz idorasiga olib bordi. Maydagina mashinaga bosib jo'nadi.

Yo'lda qusib-qusib bordim.

Birodarlar, benzin isini yomon ko'raman! Benzin boshimni aylantiradi. Ko'nglimni aynitadi, qustiradi. Osmondan tushganday bo'lib qolaman.

Rayonga keldim. Organ oldida mashinadan tushdim. Kal katta ketidan chap tarafdagi oynavand xonaga kirdim.

Telefon oldida o'tirgan militsionerlar o'rnidan turdi. Kal katta militsionerlarga kiyimlarini ko'rsatdi, dardini aytdi.

— Hamkasblaring bilan davlatga go'sht olish uchun borib edik, — dedi. — Mana bu tipga otni ber, desam bermadi. Meni tutib so'kdi. Onam ham qolmadi, xotinim ham qolmadi. Keyin, bir urib chuqurga ag'anatib yubordi. Mana fakt — ust-boshim loy! Hamkasblaring jonli guvoh! Ana, rais ham bor. To'g'rimi, rais?

— To‘g‘ri! To‘g‘ri! Chuqurga yumalatib yubordi! — ma’qulladi rais.

— Uh, hayvon, uh bandit! Sen hali rahbarlarga qo‘l ko‘taradigan bo‘ldingmi? — dedi.

Militsioner ichimga urdi. Men ichimni ushlab, boshim bilan devorga suyandim. Ko‘nglim ozdi, ko‘z oldim qorong‘i bo‘ldi. Odamlar goh uchta, goh to‘rtta bo‘lib ko‘rindi... Xona bir yumalab, yana joyiga keldi.

Militsioner kal katta oldiga qog‘oz qo‘ydi.

— Mana, raport yozib, boshliqqa olib kiring. Buni bir tiqib qo‘yaylik, ko‘zi ochiladi.

Kal katta qog‘ozni to‘lg‘azib, olib ketdi. Xiyol o‘tib, yana qaytib keldi.

— Tush oldimga! — dedi.

Men oldiga tushdim. Tor yo‘lakdan hovliga chiqdim. Keyin yana bir xonaga kirdim.

Xona to‘rida baqaloqli bir odam o‘tiribdi. O‘tirishidan katta odam ko‘rindi. Yelkasidagi yulduzlari-da katta-katta bo‘ldi.

Kal katta qo‘li bilan meni ko‘rsatdi.

— Mana bandit! — dedi.

To‘rdagi katta vazmin ovozda so‘radi:

— Nega rahbarlarni urasiz, o‘rtoq Qurbonov?

Men bor gapni qo‘shib-chatmay aytib berdim. To‘rdagi katta endi nima deysiz, degan bo‘lib, kal kattaga qaradi. Kal katta o‘rnidan turib ketdi.

— Yolg‘on! U o‘zini oqlayapti! Biz rahbarlarga ishonasizmi, yo, mana shunga o‘xshagan podachiga ishonasizmi?

— Albatta, rahbarlarga ishonaman. Rahbarlar yolg‘on gapirmaydi.

— Bo‘pti-da!

O‘pkam to‘lib-to‘lib keldi. Dimog‘imda ming‘irladim:

— Katta bova, meni melisalaringiz urdi...

— Nima-nima? Urdi?

— Eshik oldida urdi. Hushdan ketib qoldim...

— Unday bo‘lishi mumkin emas, hozir chaqiramiz.

Ostonada ichimga urgan militsioner qora berdi.

Qo'lini chekkasiga tekkizib g'o'ddaydi.

— Buyrug'ingizga binoan keldim, o'rtoq polkovnik! — dedi.

— Leytenant Ismatov, ayting-chi, nega bu kishini urdingiz?

— Kimni? Qo'limniyam tekkizganim yo'q, o'rtoq polkovnik!

— Urdi deyapti-ku.

— Sof leytenantlik so'zim, qo'l ko'targanim yo'q! Ana, serjant Xalilov ham bor, chaqirib so'rashingiz mumkin.

O'ng qo'limni qornimga qo'yib ko'rsatdim.

— Manavi yerimga urdi...— dedim.

Shunda kal katta gapga suqildi.

— Qo'liniyam tekkizgani yo'q, o'zim ustida edim!— dedi.

To'rdagi katta menga yuzlandi.

— Ana, eshitdingizmi, o'rtoq Qurbonov?— dedi.— Biz urmaymiz! Sovet militsiyasi urmaydi!

36

Badbo'y hujrada yotdim.

Hujrada kun-da bir bo'ldi, tun-da bir bo'ldi. Bir mahal temir darvoza sharaqlab ochilib, sharaqlab yopildi.

Birov ichkariladi.

— Kal, qayerdasan?— dedi.

Ichimga urmish militsioner ovozini darrov tanidim.

Joyimdan turdim. Darvoza taraf yurdim.

Militsioner yoqamdan bir qo'llab ushladi. Bir-ikki silkiladi.

— Nimaga meni boshliqqa sotding?— dedi.

— Sotmadim, birodar, bor-yo'g'i urganingizni aytdim, — dedim.

— Urdim? Qachon urdim?

Militsioner chotlari moralatib tepdi.

— Men urdimmi?

Militsioner sozlab tepdi.

— Seni urdimmi?

Militsioner yomon tepdi!

— Men-a? Seni-ya?..

Chotlarim uyushib-uyushib og'ridi. Achishib-achishib og'ridi.

Ketim bilan shilq etib tushdim...

Tong-saharlab badrabxona tozaladim. Hovli supurdim. Ko‘cha supurdim.

Onamiz bilan ayolimiz xo‘rak olib keldi.

Onamiz yig‘lab-yig‘lab hol so‘radi.

Ayolimiz kuyib-kuyib ko‘ngil so‘radi.

Onamiz bilan ayolimiz biri qo‘yib, biri qarg‘adi:

— Senlar mening bolaginamni oyoqosti qilgan bo‘lsang, sen shapkalarni Xudoyim xudovando oyoq osti qilsin!

— Xudoyim xudovando, bolaginangning o‘lganini ko‘r, sendaychikin shapkalar!

— Xudoyo, shu otlar bilan qo‘shilib, o‘zing ham go‘sht bo‘lib ket, sendaychikin shapkalar!

— Xudoyo, qirg‘inning oldida qirilib ket, sendaychikin shapkalar!

— Ilohi omin, Xudo bandam desa, Muhammad payg‘ambar ummatim desa, shu shapkalar elga ermak, xalqqa shaloq bo‘lsin, Ollohu akbar!

Onamiz bilan ayolimizga Tarlonni aytmadim. Ayol zoti og‘zi bo‘sh bo‘ladi. Birov-yarimga aytib qo‘yadi.

Qolabersa, Tarlonni yolg‘iz o‘zimga o‘rgatib edim. Shu bois, Tarlon mendan o‘zgani o‘ziga yo‘latmaydi. O‘zgalar qo‘lidan yem-da yemaydi.

37

Rosa o‘n kunda ozod bo‘ldim.

Yo‘lda ko‘nglimga hadik tushdi. Hadik tanamga-da yoyildi.

Uyim qolib, Obshirga yo‘l oldim.

Adirga o‘rladim. Kamar oldida serrayib qoldim. Ketimga chalqaydim. Ko‘kragim ostida bir nima ko‘pirib keldi. Ko‘zlarim otilib ketadiganday bo‘ldi.

Kamarda... kamarda to‘rt tayoq ustida bir nima turdi. Joni bormi, yo‘qmi, bilib bo‘lmadi. Ikkita nima yiltiradi. Ko‘zlar bo‘ldimikin?

Ichkari kirdim. Tarlon bo‘yniga osilib-osilib yig‘ladim. To‘yib-to‘yib yig‘ladim...

Tarlonni kamardan olib chiqdim. Adirdan pastga yetakladim. Tarlon ohista-ohista pastladi. Pastlayotib, old oyoqlari bukildi. Yiqilib ketayin-yiqilib ketayin dedi.

Ariqdan sag'al suvladim. Ariq yoqalatib yetakladim. Oyoqlarini yozdim. Qashilab yuvdim. Yana suvladim.

Kamarga qaytarib olib keldim. Burchakda turgan qopdan to'rvada yem olib kelib osdim.

Tarlon jonlanganday bo'ldi.

38

Birodarlar, necha-necha qorabayirlar ketiga qarab-qarab ketdi.

Necha-necha jayronlar kishnab-kishnab ketdi.

Necha-necha samanlar go'sht bo'lib ketdi!

Qishloqda otlar kishnamay qoldi.

Saharlari ko'chalarda ot tuyoqlari tikillamay qoldi.

Oqshomlari otlar tarsillatib yer tepinmay qoldi.

Adirlarda otlar dupur-dupur chopmay qoldi...

Chavandozlar emchakdoshi urushdan qaytmagan bo'zbola misol mung'ayib qoldi.

Kelinlar otda emas, mashinada keladigan bo'ldi.

Olamni mashina ovozi buzdi: dut-dut-dut...

Qishloqda ot nomi o'chdi.

39

Ora sovidi. Qishloq tinchidi.

Ana shunda Tarlonni uyga olib keldim.

Chavandozlar beliga pul o'rab, Oboqliga yo'l oldi. Oboqlidan ot olib keldi.

Ot bilan ajab gaplarni-da topib keldi.

Go'shtga ot olish ko'pga kelgan to'y emas emish. Oboqli taraflarda otlar bus-butun emish, tus-tugal emish...

40

Bu gap qishloqdagi besh-olti arizaboz qulog'iga yetdi.

Arizabozlar qulog'i ding bo'ldi. Arizabozlar kechalari uyma-uy yurdi, ariza to'pladi.

Bir kecha biznikiga keldi. Arizabozlar sultoni bo'lmish Botir mirob sirli ovozda tayinladi:

— Darvoza ichkaridan tambalansin. Hovli chirog'i o'chirilsin. Bola-chaqa bu uyga yaqin yo'latilmasin. Ichkari eshik zichlab yopilsin. Deraza pardalari tushirilsin. So'ng qarshimizga kelib o'tirilsin!

Botir mirob aytganlarini bajarib keldim. Davraga qo'shilib o'tirdim.

Arizabozlar boshimdan kechgan savdoni gapirib berishimni so'radi.

Men sir bermadim, talmovsiradim. Boisi, o'shanda o'n kun yotganim elga doston bo'ldi. El orasida yuruvsiz bo'ldim. Mana, dostonim deyarli unut bo'ldi. Ko'ngilsiz dostonimni yana qo'zg'agim kelmadi.

— Botir aka, bo'lgan ish bo'ldi, bo'yog' isindi. Qo'ying, shu arizabozlikni, — dedim.

— Iya-iya! Hey, og'izga qarab gapirilsin! Kim arizaboz? Bizmi? Biz — yozuvchimiz, bilib qo'y, yozuvchi! Xalq yo'lidagi, haqiqat yo'lidagi yozuvchilarmiz! Anavi g'azal, roman... yozuvchilar yana nima yozadi, o'rtoq Hamidov?

Qabatidagi adabiyot muallimi o'z ulushini qo'shdi:

— Poema, ballada...

— Ha-ha! Poema, ballada yozuvchilaring yozuvchi emas, biz yozuvchi! Mana, biz! Yozuvchilaringning asarlarida fakt yo'q, adres yo'q! Masalan, mana o'zimizning Tog'ay! Bo'ri bechoraning o'g'li! Olishni kitob qilib yozdi. Endi ko'pkariniyam kitob qilayotgan emish. Yozishga yozdi, lekin tekshirtirmadi, chora ko'rdirmadi. Xalqqa nafi tegmadi. Xalq yozuvchilarning kitobini pul sarf qilib oladi. Vaqtini isrof qilib, erinmay o'qiydi. Keyin... qayg'uli asarni nima deydi, o'rtoq Hamidov? Ha-ha, tragediya! Tragediya bo'lsa, ta'sirlanib yig'laydi. Agar... o'rtoq Hamidov? Vo-vo-vo, satirik bo'lsa, qah-qah urib kuladi. Bari quruq safsata! Xalqning biror-bir ishini bitkazib bermaydi. Xalqning kam-ko'sti esa achib yotibdi. Xalqqa kim amaliy yordam beradi? Biz! Demak, asl yozuvchi biz! To'g'ri, yozganlarimizni kitob qilib chiqarmaymiz. Asarlarimiz turli idoralarda qolib ketadi. Lekin kitob qilib chiqaramiz desak, chiqaramiz. Ana, sandiqda yuzlab shikoyat

asarlarimiz nusxasi taxlanib yotibdi. Ikkinchi marta og'izdan arizaboz degan gap chiqarilmasin, ha!

— Tavba qildim, aka, tavba qildim.

— Shunday bo'lsin! Endi gapirilsin. Boshidan boshlansin.

— Shu, bir kechasi mendan beshbattar iyig'i chiqqan bir kal keldi. Yonida ikkita shapka-da bor...

— Menga qaralsin, nima, dunyoning ishi ko'pkarimi? Kal deyilmasin! O'rtoq Falonchiyev deb aytilsin! Shapkang kim? Militsioner? Menga qaralsin, shapka inson emas! Shapka — latta! Shapka — karton qog'oz! Shapkani javobgarlikka tortib bo'lmaydi! Leytenant Falonchiyev, serjant Falonchyiev deb aytilsin!

— Xo'p. Oy hamsoyamiz Qulmat polvonning teraklari uchiga osilib qolgan-da...

— Uf-f, mabodo shoir-poir emasmisan? Bo'lmasa, nega oydan, yulduzdan gapirasan? Oydan pastga tushilsin Yerdan gapirilsin! Lirika suvga borib aytilsin! Bizning ishimiz jiddiy, xalq ahamiyatiga molik ish! Sudlarda qatnashilganmi? Yo'q? Unda, kolxoz hisobot majlisida kaminaning nutq so'zlagani ko'rilganmi? Ana, kamina majlisda qanday gapirgan bo'lsa, ana shunday gapirilsin!

Botir mirobning kolxoz umumiy majlisida gapirishini yodladim. Xuddi mirobday qo'llarimni qornimga qovushtirdim. Boshimni tik tutdim. Kiprik qoqmadim. Dona-dona qilib aytib berdim.

Mirob oldimga qog'oz bilan qalam qo'ydi.

— Endi qanday aytilgan bo'lsa, shunday yozilsin. Nimaga? Beshinchi sinf? Ma'lumoting mendan bir sinf yuqori bo'laturib yozolmaysanmi? Ha, mayli. O'rtoq Hamidov, siz yozing, bu kishi qo'l qo'yib beradi.

Birodarlar, arizabozlardan Denov qolmadi, Termiz qolmadi, Toshkent qolmadi. Idorama-idora chopdi.

Arizaboz degani ajabtovur el bo'ldi. Bo'lmasa, arizabozlarning otini olmadi. Arizabozlarga yel-yugur, deb, birov bir chaqa bermadi. Arizabozlar o'zlari yonidan o'zlari chopdi.

41

Bir safargisida meni-da ergashtirib jo'nadi.

— Boshingdan o'tgan savdoni o'z tiling bilan o'zing aytib berasan,— dedi.

— O‘zi, qayerga borayapmiz?— dedim.

Botir mirob shahodat barmog‘ini labiga bosdi.

— Tish-sh-sh! — dedi.

Arizabozlarga ergashdim. Dushanbega yo‘l oldim.Yo‘lda avtobus derazasidan ikki marta qusdim.

Dushanbedan Moskvaga uchdim.

Umrimda birinchi marta samolyotda uchdim. Qani, ko‘rayin, qani, samolyot degan ulov qandaychikin ekan, dedim.

Samolyot bir pasaydi, bir ko‘tarildi. Yuragim tovonimga tushib ketganday bo‘ldi.

Keyin, joyida turib qoldi. Nag‘masi ko‘p bo‘ldi. Odamning yuragini yordi. Ulov bo‘lsang, sidirg‘a yur, ukkag‘arning samolyoti, dedim.

Samolyotdan ko‘nglim qoldi. Ulovligi yo‘q ekan, ha, demadim.

Samolyot derazasidan qarab hayron bo‘ldim. Shundaygina ostimizda paxta uyulib yotibdi! Samolyot tegayin-tegayin deydi.

Qabatimdagi Hamidov muallimga yuzlandim.

— Eh-he, paxtani qarang, paxtani!— dedim.

Hamidov qaradi. Keyin, ketiga chalqayib kuldi.

Telpagimni yulib oldi. Taqir kallamga shapatiladi! Kallamga-shapatilab-shapatilab kuldi.

Kallamni yelkalarim orasiga oldim. Kaftim bilan bekitdim. Telpagimni tortib olib kiydim. Tag‘in derazadan qaradim. Ana endi bildim. Ko‘rinayotgan paxta emas, oppoq bulutlar bo‘ldi.

Moskvada tushdim, arizabozlar ketidan ergashdim.

Moskvada nima ko‘p, mashina ko‘p bo‘ldi. Bitta-da ot bo‘lmadi!

Avtobusda yurdim-yurdim, bir joyga keldim. Yo‘l chetida turdim, o‘tkinchi-ketkinchi mashinalarga qo‘l ko‘tardim. G‘uj-g‘uj mashinalardan birovi-da to‘xtamadi. Ko‘taraberib, qo‘llarim charchadi. Turaberib, oyoqlarim toldi. Qornim qur-qur qildi. Toqatim toq bo‘ldi.

Shunda uzun bir mashina jiring-jiring etib kelaberdi. Tezlab kelayapti-da, deb bo‘lmaydi, ohistalab kelayapti-da deb bo‘lmaydi. Yaqin kelib, yanada ohistaladi. Farosat qildim, qo‘l ko‘tarsam, to‘xtaydigan ko‘ngli bor.

— Ay, Hamidov muallim, bu qanday mashina bo‘ldi?— dedim.

— Tramvay,— dedi muallim.

— Ko'cha yuzida simyog'ochday bo'lib turamizmi? Ana shu tramvayni kira qilamiz! Xarajati mendan!— dedim.

Hamidov muallim kuldi.

— Tramvay qimmat,— dedi.

— Qimmat bo'lsa bo'lar! Ketsa, bir qo'yning puli ketar!— dedim.

— Unda, o'zingiz kira qiling.

Chopqillab bordim. Tramvay oldini oldim. O'ng qo'limni boshim uzra ko'tardim.

— Ay, tramvay, ostanovka!— dedim.

Tramvay jiring-jiring etib oyoq ildi. Tramvaychi derazadan qaradi. Menga iyak qoqdi. Ha, nima deysan, degan bo'ldi.

Men o'ng qo'limni olg'a sermadim.

— To'g'riga! — dedim.— Aytgan pulingni beramiz!— dedim.

Tramvaychi bosh-adog'imga qaradi-qaradi-da, bosh irg'adi. Mayli, degan bo'ldi. Boshmaldog'i bilan tramvay eshigiga ishora berdi.

— Ayda!— dedi.

Shunda eshik taraq etib ochildi. Men lip etib tramvayga minib oldim. Ketimdan arizabozlar mindi. Arizabozlarga havolanib-havolanib qaradim.— Ana, bir og'iz gap!— dedim.

— Ha, kuchingdan, Ziyodull aka!— dedi Botir mirob.

Tramvay bir yurdi, bir to'xtadi. Chayqalib-chayqalib xiyla yurdi.

Bir joyda Hamidov muallim:

— Hozir tushamiz!— dedi

Birinchi bo'lib men tushdim. Tramvay kira qilishga qildim, endi kira haqini to'layin, deya qo'ynimni kovladim.

Shunda Botir mirob:

— Men to'ladim,— dedi.

— Ha-a, binoyi,— dedim.

Shu, Botir mirob ko'pga tushib ketdi-yov. To'rt odamga kira haqi to'lashning o'zi bo'ladimi. Tushsa tushar! Nima, mirobga meni ergashtirib kel, dedimmi! Ergashtirib keldimi, to'lasin-da!

Arizabozlar katta bir idoraga kirib ketdi. Men ostonadagi qorovul oldida qoldim. Arizabozlar o'rgatgan gaplarni ichimda bot-bot qaytarib o'tirdim.

Nihoyat, arizabozlar chiqib keldi. Kattalar meni yo'qlamabdi. Arizabozlar gapiga ishonibdi. Yaxshi bo'libdi. Tag'in kattalar salobati bosib, duduqlanib qolamanmi, deya qo'rqib edim.

42

Ertasi kuni Dushanbega uchdim. O'tirganlar shahodat barmog'ini likillatib, o'rtada laylakqushday lo'killab yurgan qizni imladi. Qiz ularga mayda idishda suv olib keldi.

Mening boshqalardan qayerim kam? Kallam kal bo'lgan bilan telpakning ostida ko'rinmaydi.

Dadil bo'ldim, o'zimni bir sinab ko'rmoqchi bo'ldim. Shahodat barmog'imni likillatib, qizni imladim. Suv, deya og'zimni ko'rsatdim. Qiz bosh irg'adi, suv olib keldi. Suvni bir yutishda yo'qotdim. Boshqalarday bosh irg'adim.

— O'lmang! — dedim. — Katta qiz bo'ling.

Ko'kragimni kerdim, baqalog'imni shishirib o'tirdim.

Oynadan pastga qaradim. Past o'zimizning Vaxshivorsoyga kelbat berib ketdi. Qator-qator uylarni ko'rdim. Mayda-mayda qoralarni ko'rdim. Hamidov muallimga, shu bizning qo'ylarmikin, degim keldi. Tag'in kallamga shapatilashidan qo'rqdim. Gapimni ichimga yutdim.

Samolyot Dushanbeda gurs etib tushdi.

43

Taksida qishloqqa keldim.

Men qayerga borib keldim? Odamlar buni biladimi? Ana shuni odamlarga bildirgim keldi. Qayerga bordim, qayerda bo'ldim, barini aytib, maqtangim keldi. Uyga bormadim. Katta ko'chada ohista-ohista vazmin-vazmin qadamlar bosib yurdim. Odamlarga quyuq-quyuq salomlar berdim. Duch kelgan odam bilan qalin-qalin so'rashdim. Qozon-tobog'igacha qoldirmay so'radim.

El og'ziga mahtal bo'lib qaradim. El, ko'rinmay ketdingiz, Ziyodulla chavandoz, deya so'ramadi!

Ko'chani tag'in bir aylanib keldim. El aqalli, kamnamosiz, Ziyodulla kal, demadi! Uch kun-a, uch kun qishloqda bo'lmadim!

Yaxshimi-yomonmi, shu elning molini boqayapman. Odamning qadriyam shunday bo'ladimi. Qadrimga kuydim. Ay, qadrim-a, bechora qadrim-a!

Eldan xafa bo'lib, uyga keldim. Choy ichib, yonboshladim. O'ngimga ag'darildim — bo'lmadi, chapimga ag'darildim — tag'in bo'lmadi! Tars yorilib ketguday bo'ldim!

Moskvada yo'l-yo'lakay bir kilocha qand-qurs olib edim. Bola-chaqa qo'limga qaraydi, dedim-da.

Ana shundan bir siqimini qo'ynimga soldim. Tarlonni minib, Mamat oshnamiznikiga yo'l oldim. Devordan bo'ylab ovoz berdim.

— Mamat! Mamat uydami, kelin? Uyg'ot, gap bor! — dedim.

Mamat ichkaridan uyquli ko'zlarini uqalab-uqalab keldi.

Men, tevarakdagi hamsoya - qo'llar eshitsin uchun, ovozimni qo'yib gapirdim:

— Yaxshimisan, dimog'ing chog'mi? Ma, manavi qandni nevaralarimga bo'lib ber, yesin! Mozor bosib kelgan-da, tabarruk!

— Qayerlardan so'raymiz?

— Moskva!!!

— "Moskva" kolxozimi?

— Kolxoz? Qanday kolxoz? Sen o'zi, meni kim deb o'ylayapsan? Men uncha-muncha joylarga bormayman! Borsam, faqat Moskva shahri azimlarga boraman, ha! Faqat Moskva!!! Juda past ketsam, Dushanbelarga shunchaki, yo'l-yo'lakay oyoq ilib o'taman! Menga qara, kun qiyom vaqti-qiyom vaqti uyingning ustidan bir samolyot uchib o'tdimi? Qanotlarida parragi-da bor?

Mamat sergak tortdi. Osmonga bir qarab oldi.

— Uchib o'tganday bo'ldi, nima edi?

— O'lma! Men senga bir narsa aytayinmi? Shu samolyotning ichida men bor edim!

— Ha, kuchingdan!

— O'ng yog'ida o'tirib uchdim! Parrakning shunday yonida, ha!

— Vo ukkag'ar, Gagarin bo'l-e!

— Kim? Eb-e, Gagarining kim bo'pti! Osmonga lip etib uchgan-da, qaytib tushgan. Men to'rt osh pishirimdan-da ko'p uchdim!

— Eh-e-e! Yoril-e, bachchag'ar-e, yoril-e!

— Ko'rib turibsan, chakana odam emasman! Endi men bilan o'ylab gapirish!

— Bo'ldi, bo'ldi, taraf yo'q.

— Yana bir gap. Samolyot osmonda varrakka o'xshagan bilan mayda emas ekan, ha! Ichi Obshirning kamariday keladi!

— Kir uyga, choy ichamiz.

— Yo'q, ishim zaril. Shunday o'tayotib, bir hol-ahvol so'rashib ketayin dedim...

Jilovni bo'shatdim. Tarlon yo'l oldi. Birodarlar, parday yengil bo'ldim!

44

Birodarlar, Moskvadan odam kelibdi. Shlapasi bor emish!

Shlapali odam rayon kattalarini yig'ibdi. Kal kattani o'rtaga olibdi. Ana shunda masala oydin bo'libdi.

Oydin bo'lishicha, hukumat, hamma o'z imkoniyatiga yarasha go'sht topshirsin, debdi. Buyruq rayonga kelibdi. Rayon kattalari kal kattani bizga vakil etib yuboribdi.

Kal katta bir zina yuqori o'smoqchi bo'libdi. O'sish uchun go'sht topshirishdan foydalanmoqchi bo'libdi. Qaysi yo'l bilan bo'lsa-da, go'sht topshirishni muddatidan oldin oshirib bajarib, kattalarga yaxshi ko'rinmoqchi bo'libdi, yelkasiga qoqtirmoqchi bo'libdi. Shu yo'l bilan ko'zlagan amaliga minmoqchi bo'libdi.

Birodarlar, bir kalning hiylasi — qirq kishini charchatadi!

Kal katta o'z niyatiga elni talab erishmoqchi bo'libdi, elni xo'rlab erishmoqchi bo'libdi.

Shlapali katta kal kattani urishib-urishib, amalidan olibdi. Partiyadan o'chirmoqchi bo'libdi.

Shunda, kal katta ho'ng-ho'ng yig'lab qo'ya beribdi. Shafqat qilibdi.

— Erkak odamning yig'lagani — o'lgani, — debdi.

Birodarlar, Haq saqlasa, balo yo'q, Haq qarg'asa, davo yo'q!

Ayni kunlarda kal katta choyxonada yonboshlab yotar emish.

— Haqiqat yo'q, bu dunyoda haqiqat yo'q... — der emish.

Birodarlar, o‘zing yaxshi — olam yaxshi, o‘zing yomon — olam yomon!

Choynagidagi choyi oq emish! O‘zi quyib, o‘zi ichar emish.

Elga ermak, xalqqa shaloq emish!

45

Birodarlar, shukur-shukur, arizabozlarning boriga shukur!

Arizabozlar nohaqlikka yo‘l qo‘ymaydi. Haromtomoqlarga kun bermaydi. Elning haqini birovga yedirmaydi.

Arizabozlar bo‘lmasa, kattalar biz avom elni bozorda sotib yeydi! Arizabozlar bo‘lmasa, kattalar biz avom el og‘zidagi oshni yulib oladi!

Arizabozlarga mehrim tushib qoldi!

Bozor oqshomi barcha arizabozlarni uyimga aytib keldim. Boqib yotgan bir qo‘yimni so‘yib berdim.

46

Qishloq tag‘in otlarga to‘ldi.

Chavandozlar otlarini boylovga tashladi.

Tarlonni-da boylab boqdim.

47

Qarluqda to‘y bo‘ldi.

Shu to‘yga yo‘l oldim. Yo‘lda Tarlon tezak tashlab-tashlab bordi. Ajabo, bundaychikin qilig‘i yo‘q edi...

Bir muallimnikiga tushdim. Qoziqni molxona yoniga qoqdim.

Tarlon quloqlari shalpaydi. Boshi egildi. Devor kovagiga munis termilib qoldi. Yem yemadi. Irimiga labini-da tegizmadi.

Ko‘nglim hadiksiradi. Tomog‘imdan tuz o‘tmadi. Tarlondan ko‘z uzmadim.

Uzangi yo‘ldoshlarim-da oromini yo‘qotdi. Qarluqda otni zo‘r biladigan bir sinchi chol bo‘ldi. Ana shu cholni aytib keldi.

Chol Tarlonni aylanib ko‘rdi. Enkayib, ko‘zlariga qarab ko‘rdi. O‘zicha bosh irg‘adi. Keyin, tirsagimdan ushladi. Meni mehmonxonaga ergashtirib bordi. Yelkamga qo‘lini qo‘ydi.

— Menga qara, el chavandozi,— dedi.— Shu otni menga sotmaysanmi? Yigirma qo'y beraman. Gapning erkagini ayt.

Zardam qaynadi. Men nima g'amda-yu, chol nima g'amda!

— Bova, — dedim, — erta birov aytgan ekan, men o'z g'amim bilan, mulla mening... deb! O'zi nima gap, avval ayting-da!

Chol mujmaltob bo'ldi.

— Sen bo'larini ayt, el chavandozi. Keyin men aytaman, — dedi.

— Yo'q! Qiyomatda-da sotmayman! Bo'ldimi?

— Ha, mayli. Unda eshit, el chavandozi. Oting, zo'r ot. Ko'rgandan besh ketdim. Adashmasam, yaqinda og'ir bir dardni boshidan kechirgan deyman-ov?

Tarlon kamarda o'n kun och yotdi, ana shu xayolimdan o'tdi. Ammo cholga sir bermadim.

— Ha, dardga chalinib edi. Keyin, forig' bo'lib edi.

Chol mahobat qildi.

— Bali, el chavandozi,— dedi.— Ot hozir shuni eslayapti, ertaga bo'ladigan ko'pkarini o'ylayapti. Darddan avvalgiday chopolamanmi, yo'qmi, degan g'am otni o'yga solayapti. Men buni ko'zlaridan bildim. Meniyam aytdi dersan, el chavandozi.

Chol ketdi.

Men bemahalgacha gurunglashib o'tirdim. Tarlonning qayg'usi ko'nglimdan ko'tarilmadi. Qayg'u yuzimga-da urdi, shekilli, uy xo'jasi ko'nglimni ko'tardi.

— Ko'p qayg'ura bermang, chol sinchi, bilong'ich, — dedi.

Keyin, chol kimligini aytib berdi.

Emishki, otlar bir yilda bir marta kavsh qaytaradi. Ot kavsh qaytarganda yonadi! Badanlari tovlanadi, ko'zni qamashtiradi! Ayniqsa, ko'zlari porlab yonadi! Ot — dev-da! Ot kavsh qaytarishi horiqulodda yerda, horiqulodda vaqtda kechadi. Ko'z ochib, ko'z yumguncha bo'lib o'tadi! Ot kavsh qaytarishini ko'rgan odam, yo telbanamo bo'ladi, yo sho'rpeshona bo'ladi, yo baxtli, yo dono, yo nuktadon bo'ladi!

Emishki, chol ot kavsh qaytarganini ko'rgan emish...

48

Ko‘pkari ekinsiz qisirpoyada bo‘ldi.

Men Tarlonni qizitdim. Qisirpoyani aylantirib chopdim. Tarlon xiyol o‘zgardi. Boshini tik tutdi, dirk-dirk o‘ynadi. Suvlig‘ini shiqirlatib-shiqirlatib chaynadi. Tarlon to‘daga talpindi, Tarlon meni uloqqa chorladi!

Ayni qishning ilk ko‘pkarisi-da, ot mo‘l yig‘ildi.

Demak, ko‘pkari yaxshi bo‘ladi. Boisi, oz otli ko‘pkarida yerdan uloq olish mushkul bo‘ladi. Sababi, bari ot o‘zini zo‘r deb biladi. Oqibat, yoppasiga uloqqa yopishadi. Talashib-tortishadi. Uloqni na o‘zi oladi, na birovga beradi. Bir-biriga xalaqit beradi, bir-biriga ziyon beradi. Talashib yota beradi.

Ot mo‘l bo‘lsa, aksincha bo‘ladi. Bunda zo‘rlar zo‘ri, otlar oti uloqqa talpinadi. Bundayroq otlar to‘da chetida tomoshago‘y bo‘ladi. Bordi-yu, uloqqa intilsa, to‘dadagi zo‘r otlar yo‘l bermaydi, ketiga surib yuboradi.

Shu boisdan mo‘l otli ko‘pkarida to‘dadan uloq olib chiqish oson bo‘ladi.

49

Uloq keldi.

Tarlonni gijinglatib-gijinglatib bordim. Uloqni iskatib-iskatib oldim. Uloq butidan ko‘tarib-ko‘tarib ko‘rdim. Uloq bir tana bo‘ldi. Ellik-oltmish kilolar keldi. Uloq jiqqa ho‘l bo‘ldi. Boisi, kechasi bilan suvga pishib qo‘yilgan bo‘ldi. Buning nafi — uloq zilday og‘ir bo‘ladi. Ana endi torta-tortda uloq terisi ayrilmaydi, bo‘lak-bo‘lak bo‘lib ketmaydi. Bo‘lmasa, torta-tortda uloq butun qoladimi?

Bakovul zotlarni aytdi:

— Bir juft kalish, o‘n so‘m puli bor! Ol!

To‘da uloqqa talpindi. Uloqni bir jiyron olib chiqib ketdi.

Keyingi zot qo‘yildi:

— Bunisida bir qo‘y, bir to‘n, o‘n so‘m puli bor! Zot kattardi, armonda qolma!

Tarlonni uloqqa soldim. Tarlon pishqirib-pishqirib qimtindi. Uloqqa men o'ylagan, men xohlagandan-da vaqtliroq, osonroq bordi. Odaticha uloqni bir aylandi. Uloq boshida oyoq ildi.

Bir chavandoz Tarlon o'ktamligidan g'ashlandi. Tarlon sag'risiga qamchi urdi.

Tarlon bir seskandi. Lekin joyidan qimirlamadi. Ikki ko'zi uloqda bo'ldi.

Men uloqqa teskari yoqdagi tovonimni uzangidan olmay, egar korsoniga ildirdim. Uloq taraf uzangidagi oyog'imni bukdim. Tizzamni Tarlon biqiniga bosdim.

Tarlon menga kift berdi, kift!

Men enkaydim, uloqni bir qo'llab ushladim. Qomatimni ko'tarayotib, bukilgan oyog'imni uzangiga tik tiradim. Bor qiyinchilik shu oyog'imga tushdi. Busiz uloqni ko'tarib bo'lmaydi.

Shunda, bir mug'ambir ot uloqni tuyoqlari bilan bosib qoldi.

Men tag'in uloq butidan ushladim. Tag'in ot tizzasi baravar ko'tardim.

Tarlon uloqqa qarab-qarab olg'a yurdi.

Uloqni atayin yerda sudrab bordim. Birdan ko'tarsam bo'lmaydi, poylab turganlar yopishadi.

— Uloq ko'tarilayalti, uloq ko'tarilayapti!

Sag'al ochiqqa keldim. Uloqni dast ko'tarishga shaylandim.

— Uloq Tarlonda ketayapti, Tarlonda!

Uloqni zarb bilan ko'tarib oldim. Ko'tarayotganimda Tarlon sozlab bir silkindi. Madad berdi, ko'tarishib yubordi!

Tarlon bilan olg'a chopdim. Otlar keyinda qolib ketdi. Ammo bir to'riq qolmadi. Chavandozi uloq butidan ushlab, biz bilan baravar chopdi.

— Yo'q, uloq Tarlon bilan To'riqda ketayapti! Uloq Tarlon bilan To'riqda!

Uloqni taqimimga bosib oldim. Yonimga chalqaydim. Jilovni qo'yib yubordim. Uloqni qo'shqo'llab ushlab oldim.

Ko'p otlar avval-avval asta-asta chopadi. Keyin-keyin tezlab chopadi.

Bizning Tarlon bo'lsa turgan joyidan zabt oladi. Birinchi qadamidanoq shiddat bilan, birdan otilib chopadi. O'zga otlar bun-

dayin zabtli shiddatga hozirlanmagan bo'ladi. Oqibat, o'zga otlar o'zlarini o'nglab olgunlaricha Tarlon o'zib ketadi. Hozir-da shunday bo'ldi.

Tarlonda yana bir fazilat bor. Bordi-yu, biror-bir ot yetib olsa, Tarlon shu ot bilan baravar chopadi. O'zib-da ketmaydi, keyinda qolib-da ketmaydi. Go'yo, oxirgi holi shunday, bir me'yorda chopadi. Qabatidagi ot shu me'yorga ko'nikadi. Baravar chopib borayotgani bilan qanoatlanadi. Shunda, Tarlon birdan zabt oladi, shiddat oladi! Bunday bo'lishini xayoliga-da keltirmagan qabatidagi ot keyinda qolib ketadi.

Ayni shu vaziyatda chopayapmiz! Mendan Tarlon uchun bir so'z kifoya bo'ldi.

— Ha-a!

Tarlon tarlonligini qildi, horiqulodda yulqindi, zabtini birdan oshirdi.

Qabatida kelayotgan to'riq chavandozning qo'li uloqdan uzildi. To'riq keyinda qolib ketdi.

Men jo'shib ketdim:

— Huuuy, huuuy, huuuy!..

Tarlon yulduz uchganday chopdi!

— Halo-o-ol. Tarlonniki halol! Tashla, Tarlon, tashla!

Ellik-oltmish kilolik uloqni yerdan qanday qilib ko'tarib oldim? Belim barobar devorda o'tirib, ellik kilo yukni yerdan bir qo'llab ko'tarib ololmayman. Ellik kilo yukni qo'shqo'llab ko'tarib, otga kuchana-kuchana ortaman. Ko'pkarida bo'lsa, otda enkayib, ellik kilo uloqni bir qo'llab ko'tarib olaman! Buning siri nimada?

Birodarlar, otning shamoli bor! Uloqni ana shu shamol olib ketadi! E'tibor etgan bo'lsangiz, ot uloqdan ko'z uzmadi! Ot menga kift berdi! Atayin, men uchun qulaylik yaratdi! Uloqni ko'tarayotganimda esa, yelkasiga yuk olayotgan odamdayin bir silkindi! Ana shunda men uloqni yerga tashlab yubormasam bo'ldi, birovga berib yubormasam bo'ldi. Chavandozligimni qilsam bo'ldi. Ot — otligini qiladi!

Bilayapsiz, ko'pkarining sakson-to'qson foizi ot bo'ynida bo'layapti. Shu boisdan-da ko'pkarida chavandoz emas, ot nomi

aytiladi! Ko‘pkari boshidan adog‘igacha ot nomi jaranglaydi! Ot nomi sharaflanadi! Ot nomi ulug‘lanadi!

Tarlon ellik-oltmish kilolik uloq bilan, yana-tag‘in men bilan qanday qilib chopdi? Atayin, otga oltmish kilo bug‘doy ortib oldim, deyin. Yana-tag‘in, o‘zim-da minib oldim, deyin. Ana shundan keyin ot ana shunday shiddat bilan chopoladimi? Chopolmaydi! Uloqqa kelganda esa, quyunday uchadi!

Birodarlar, uloqning havosi bor! Otga ana shu havo quvvat beradi, qanot beradi!

Tarlon g‘ayrat qildi. Yana ikki marta uloq ayirdim.

Shunda, g‘uj odamlar orasidan kimdir birov ovoz berdi.

— Tarlon, bu yoqqa bir qarang! — dedi.

Bordim, ovoz bergan kechagi chol bo‘ldi. Chol kaftini qoshiga qo‘yib qaradi. Boshini irg‘ab-irg‘ab qaradi. Kulimsib-kulimsib qaradi.

— Endi qandaysiz, el chavandozi? — dedi.

— Qulluq, qulluq.

— Endi menga qarang, el chavandozi, otga dam bering, ha. Bo‘lmasa, ko‘ziktirib qo‘yasiz...

Tarlon halollagan to‘nlar bilan pullarni cholga uzatdim.

— Olmayman, yo‘q, olmayman!..— dedi chol.

Qo‘yarda-qo‘ymay berdim. Keyin, jabduqlar tarafga yurdim.

50

Birodarlar, hamsoyamiz Qulmat polvon bozorlab keldi. Mayiz sotib keldi.

Devorimizdan avaylab bo‘yladim. Narx-navoni so‘radim.

— Qani, polvon, — dedim,— mayiz qanchadan bo‘ldi?

Polvon qo‘llarini ko‘ksi barobar qildi. Kaftlarini katta-katta ochdi. O‘nta barmog‘ini yoyib ko‘rsatdi. Og‘zini to‘ldirib:

— O‘n so‘m!— dedi.

— Yo‘g‘-e!

— Chinim, o‘n so‘mdan bo‘ldi. Mayizingiz bo‘lsa, armonda qolmang!

Mayiz bizda bor-da! Olti unxalta! Saratonday sariq mayiz!

Qo'chqorday-qo'chqorday o'g'illarim bor! Katta bo'lsa, otning Tarlonini minaman deyapti! Mayizni shularning to'yiga bosib yotibman! Bu qish kuchim yetmaydi, kelasi qishda katta to'y beraman! Nasib bo'lsa!

Shanba oqshomi ombordan bir xalta mayiz sudrab chiqdim. Supadagi gilamga yoydim. G'alvirda elab-elab, changdan pokiza etdim.

Subhi sodiqda Tarlon bilan bozorladim.

Qizilsuvga doxil bo'ldim. Daryodan kechib o'tib, yuqoriladim.

Mol bozori oldida tevaragi sim bilan o'ralgan yer bo'ladi. Bozorlab keluvchilar ot-ulovlarini ana shu yerga bog'lab qo'yadi. Tarlonni-da shu yerga bog'lab qo'ydim.

Mayizimni orqalab, bozor oraladim.

Dimog'im manti hidini tuydi.

Bukilib-bukilib yurdim.

— Po'sht-po'sht! — deb yurdim.

Bozorchilar qatoridan joy oldim. Mayiz xaltamni ochdim. Mayizimni maqtab-maqtab o'tirdim. O'n so'mdan pastga tushmadim!

Chipor galstukli bir odam mayizimni kaftiga olib ko'rdi. Salmoqlab-salmoqlab ko'rdi.

— Sal tushing, dehqonsiz-ku! — dedi.

— Nima, dehqon mayizni ko'chadan topib oladimi? — dedim.

— Tok tuggan noz-ne'matni o'n so'm deb o'tiribsiz-a!

— Noz-ne'mat degani dehqonning peshona teri degani!

— Ko'p minnat qilmang! Shusiz ham oy bitsayam, kun bitsayam, dehqonga bitib yotibdi!

— Bitadi-da! Ust-boshlaringdan tortib, yegan-ichganlaringgacha dehqonning peshona teridan kelayapti! Idorada o'tirib qog'oz qoralaganlaring bilan osmondan yeydigan, yo, kiyadigan biror nima tushmaydi! Dehqon topganining to'qson foizini sizlarga jo'natib, qolgan o'n foizinigina o'zi yeydi!..

Chipor galstukli odam unday desa, bunday dedim, bunday desa, unday dedim. Ishqilib, galstuklidan qolishmadim!

Birodarlar, sochim bo'lmasa-da, tarog'im tillodan!

Qaradim-qaradim, savdoning ma'quli bo'lmadi.

— Bor-e, yetti so‘mdan bo‘ldi! — deb yubordim.

Shu zahotiyoq bir mayizjallob dikonglab keldi. Ko‘tarasavdo qilib olib ketdi.

Xaltamni tizzamga urib qoqdim. Buklab-buklab qo‘ltig‘imga qisdim.

Bozor oralab bozorlik qildim. Noz-ne’matlar oldim. Jiydaga boshqorong‘i ayolimizga Xorazm jiydasi oldim. O‘g‘illarimizga xo‘rozqand, qog‘ozida kuchugi bor qand, teshikkulcha oldim. Barini xaltamga solib, choyxonaga yo‘l oldim.

51

Ostonadan ichkari mo‘raladam.

Choyxona to‘qa odam bo‘ldi.

Choyxona havosi dim bo‘ldi. Nafasim qaytib ketdi.

Tashqari so‘rilarda-da odam mo‘l bo‘ldi. Birovlab sanasa yuzlar bo‘ldi. Xaltamni so‘ri ustuniga suyab qo‘ydim. Bo‘sh joy izladim. Bir odam turib ketdi, joyi bo‘shab qoldi. Xaltamni oldim. Yaqinimdagi odamga:

— So‘raganlarga bu joy egalik deng, — dedim. Choy bilan kulcha olib keldim. Ko‘chaning narigi yuzida bir sermo‘ylov odam katta qozonda baliq qovurdi. Ana shu mo‘ylovdan ikki kilo baliq olib keldim.

Chordona qurib baliq tushirdim. Baliq serqiltiq bo‘ldi, xo‘p xunob qildi.

Shunda, burchak so‘rida ikkita militsioner paydo bo‘ldi.

Og‘zimdagi og‘zimda, bo‘g‘zimdagi bo‘g‘zimda qoldi.

Ko‘nglim aynidi, ishtaham buzildi.

Ko‘rmayin-da, kuymayin-da, dedim. Chappa burilib o‘tirib oldim. Tag‘in, o‘shalar bo‘lsa-ya, deya hadiksiradim. Ko‘z qirim qilan qarab-qarab oldim. Yo‘q, ular emas, boshqalar bo‘ldi.

52

Shu vaqt bozor darvozasi tarafdan ovozlar keldi.

— Ushla, o‘g‘rini, ushla! — dedi ovozlar.

G‘uj-g‘uj odamlar orasidan bir bola chopib chiqdi. Ketidan bir beqasam choponlik odam quvib keldi.

Bola ko‘chani kesib chopdi. Yuqoridan kelayotgan qizil mashinaga bel bo‘ldi. Mashina “shig‘g‘” etib, toyib kelib to‘xtadi. Bola o‘zini yo‘lning berigi betiga otdi. Qop-qora suvli ariqqa shaloplab tushdi. Loy bo‘lmagan yeri qolmadi.

Quvib kelayotgan odam mashina ketidan o‘tdi. Bolaning loy yoqasidan juftlab ushladi. Bola tipirchiladi, ammo beqasam choponlik changalidan chiqolmadi. Beqasam choponlik, bolaning oyoqlariga qo‘shib, qoqib, yerga yumalatdi.

— Pulni chiqar! Qani pul? — dedi beqasam choponlik.

— Men emas! — dedi bola.

— Sen! Qo‘lingni kissamda ushladim-ku! Yaxshilikcha chiqar, bo‘lmasa, enangni Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsataman!

— Men emas deyapman-ku!

— Unda o‘zim topaman! Tort qo‘lingni! Manavi kissangni ko‘rsat!

Yo‘ldan o‘tkinchi-ketkinchilar oyoq ildi. Choyxonadagilar borib qaradi. Tumonat odam bo‘ldi.

Men so‘rida tik turib qaradim.

Beqasam choponlik bolaning kissasini kovladi. Qo‘yniga qo‘lini tiqdi. Qo‘ynidan bir dasta pul oldi. Bolaning tumshug‘iga olib bordi.

— Bu nima, enangning qalinimi? — dedi.

Bola boshini yelkalari ichiga oldi. Yuzini loy kaftlari bilan pana qildi.

Beqasam choponlik bolaning quloq-chakkasiga qulochkashlab soldi. Bola balchiq suvga shalop etib tushdi.

Beqasam choponlik bolaning yoqasidan juftlab ushladi. Suvning oqishiga qarab sudradi.

— Senga kissavurlik qilishni ko‘rsatib qo‘yaman! Yur melisaga!

Bola oyoqlarini tiradi, gavdasini orqasiga tashladi.

Shu vaqt olomon orasidan ikkita novcha bo‘zbola sug‘urilib keldi. Ikkovining-da sochlari yelkasida bo‘ldi. Ust-boshlari badanlariga chippa yopishib turdi. Botinkalari tovoni ot tuyog‘iday-ot tuyog‘iday qalin-qalin bo‘ldi.

Bo‘z bolalar beqasam choponlik ketidan keldi. Bir bo‘zbola beqasam choponlik tirsagidan ushladi. Beqasam choponlik, bolani qo‘yib yubordi. Ketiga qayrilib qaradi. Shunda, bo‘zbola beqasam choponlik iyagiga qulochkashlab bir urdi.

Beqasam choponlik zuvalasi pishiqlardan bo‘ldi. Ketiga gandiraklab-gandiraklab bordi. Ammo yiqilmadi.

Olomon haybarakallachi bo‘ldi:

— Ur! Sol tumshug‘iga!

— Ur! Musht turganda muomala nima kerak!

Beqasam choponlik bir bo‘z bolani qo‘shqo‘llab bir urdi. Bo‘zbola chalpak bo‘lib tushdi.

Omon turgan bo‘zbola beqasam choponlik ketidan keldi. Biqiniga sozlab bir tepdi.

Beqasam choponlik enkaydi. Biqinini ushlab-ushlab, enkayib qoldi.

Olomon haybarakallachi bo‘ldi:

— Ur! Kalla qil, kalla!

Shunda, maydagina bir qora kuchuk vangillab-vangillab chopib keldi. Keldi-yu, beqasam choponlikni urayotgan bo‘zbola butiga yopishdi. Bo‘zbola kuchukka oyog‘ini sermadi.

Kuchuk ketidan sermo‘ylov baliqpaz chopqillab keldi. Kuchugini urishib-urishib, oldiga solib haydab ketdi.

Chalpak bo‘lib yiqilgan bo‘zbola joyidan sapchib turdi. Beqasam choponlikni tepa ketdi. Loyga belangani-da qo‘shilib tepdi. Bo‘zbolalar ko‘zlariga qaramay tepdi. Beqasam choponlik yuzlari burishdi. Bir ichini, bir biqinini ushladi. Keyin, yerga cho‘k tushdi.

Men olazarak bo‘ldim. Tevarak-atrofimga alangladim. Burchakda o‘tirgan militsionerlarga qaradim.

— Ay, anavilarni oracha qilinglar-ay! — dedim.

Militsionerlar parvoyi falak bo‘ldi. Beg‘am-beg‘am choy ichdi. Boshlarini sarak-sarak etdi.

— Bizga aloqasi yo‘q! — dedi.

— Bu yer boshqa birovning uchastkasi! Bizning uchastkamiz vinzavod tarafda! — dedi.

Olomon yakun yasadi:

— Tamom, nokdaun!

Yo‘q, tamom bo‘lmadi.

Beqasam choponlik cho‘kkalab o‘tirdi-o‘tirdi-da, birdan sapchib turdi. Biqiniga tepgan bo‘zbola yuziga kalla qildi.

Bo‘zbola yuzlarini kaftlari bilan yopdi. Xiyol enkaydi. Barmoqlari orasidan qon sizib chiqdi.

Shunda, birovi, kaftiga bir qora nima qo‘ydi. Shu qora nima bilan beqasam choponlikning peshonasiga qulochkashlab bir urdi.

Beqasam choponlik:

— Voh, o‘ldim-a! — deya baqirdi.

Peshonasini ushladi. Taltangladi, gandirakladi. Ana yiqilaman, mana yiqilaman dedi.

Kalla yegan bo‘zbola turgan joyida sapchib, beqasam choponlikning ko‘kragiga tepdi.

Beqasam choponlik bargday uchib tushdi. Qo‘llarini yonlariga yoyib, qimirlamay qoldi.

Bo‘zbolalar beqasam choponlikni o‘rtaga olib tepdi. Oyoqlari ostiga olib tepdi. Ko‘zlariga qaramay tepdi.

Birodarlar, ezilib ketdim, ich-ichimdan ezilib ketdim! Jonim halqumimga keldi! Alam ham armon bilan burchakka qaradim. Yo‘q, militsioner yo‘q. Tevarak-atrofga alangladim. Militsionerlar oldinma-keyin bo‘lib, choyxona yonalab pisib-pisib ketayapti.

Qahr bilan, nafrat bilan so‘ridan tappa tashladim. Beqasam choponlik bilan bo‘zbolalarni oracha qilayin, dedim. Olomonni qulochlarim bilan yorib, o‘rtaga kirib bordim.

Bir bo‘zbolani bilagidan qo‘shqo‘llab ushladim. Ketiga sermab yubordim. Bir bo‘zbolani sochlaridan g‘ijimlab ushladim. Sochlaridan chetga tortdim.

— Imoning kuygurlar! Bir mo‘min bandani o‘ldirasanmi! — dedim.

Sochlarini g‘ijimlab turganim, yulqindi. Bo‘lmadi. Tag‘in yulqindi. Yana bo‘lmadi. Keyin chotlarim orasiga o‘xshatib bir tepdi.

Birodarlar, orachiga — olti tayoq!

Esankirab qoldim, dovdirab qoldim. Jon shirin-da! Jon achchig‘ida qo‘lim yuzasi bilan bo‘zbola ko‘zlarini oralatib bir soldim.

Bo'zbola chinqirib yubordi.

Shu vaqt mashina ovozi eshitildi. Katta ko'chadan bemorxona mashinasi keldi.

Olomon o'zini chetga oldi. Ko'cha yuzida to'p bo'ldi.

Mashinada o'tirgan oq kiyimlik odam ko'zoynagi ustidan qaradi. Sulayib yotgan beqasam choponlikni ko'rdi.

— Nima bo'ldi bunga?— dedi.

Xo'rligim kelib... yig'lab yubordim...

— Bechorani qarang... Ular uchov bo'lsa, bu bechora birov bo'lsa! — dedim.

— Tushunarli! Dam olish kuni deb, o'zidan ketib qolmay, kamroq ichsin!

— Buni olib keting, birodar, o'lib qoladi...

— Bizning zakazimiz bor! Boshqa "Skoriy pomosh" chaqiringlar! Ketdik, haydang!

Bemorxona mashinasi shunday oldimdan o'tib ketdi. Ketidan qarab qoldim. Keyin, qoniga belanib yotgan beqasam choponlikka qaradim. Qaradim-qaradim...

Birodarlar, o'pkam to'lib keldi. To'lib-to'lib keldi... yenglarimga yig'ladim, choponimning yoqalariga yig'ladim, o'ngirlarimga yig'ladim...

Olomonga alangladim.

— Ay, birodarlar, bir bechora inson shunday o'lib keta bersa yaxshimi? Uyida bola-baqrasi bordir!— dedim.

Birov ovoz berdi:

— Tanishingiz bo'lsa, olib keting! — dedi.

Shunday ko'cha yuzida turgan maydagina mashina xo'jasiga elandim. Bir amallab ko'ndirdim.

Beqasam choponlikni yelkasidan sudrab keldim. Quchoqlab ko'tarilib, mashinaga soldim. Yerda shalvirab qolgan oyoqlarini ichkari oldim. O'zim qabatida o'tirdim. Bir qo'lim bilan bilagidan ushlab oldim.

Birov endi kelib, shu yerdagilardan so'radi:

— Nima bo'ldi-a, nima bo'ldi?— dedi.

— Zo'r tomosha bo'ldi! Uchalasi bittasini shunaqangi soldi! Paq-paq! Nokdaun!

53

Beqasam choponlikni bemorxonaga olib jo'nadim. Bemorxona beqasam choponlikni olmadi. Oppoq kiyimlik bir ayol:

— Bu sudebniy ish! — dedi.

Militsiyaga sim qoqdi.

Bir militsioner kelib, beqasam choponlikni aylantirib ko'rdi. Suratga tushirdi. Daftar to'ldirdi.

Keyin, meni so'roq qildi. Zot-makonimni so'radi. O'zimni aytib berdim. Militsioner yozib oldi. Undan keyin, nima bo'ldi, deb so'radi. Men oqizmay-tomizmay aytib turdim. Militsioner yozib bordi.

— Hozircha bo'shsiz, keyinchalik uchastkavoyingiz orqali chaqiramiz! — dedi.

Mashina xo'jasiga uch so'm uzatdim. U olmadi.

— Qulluq, qulluq! — deb ketdi.

54

Choyxonaga qaytib bordim. Bozorlik xaltamni qaradim. Yo'q. So'ri ostini qaradim. Yo'q, bozorlik xaltam yo'q.

Choyxonachidan so'rab-surishtirdim.

— Mabodo, bizning xaltamizga ko'zingiz tushmadimi? — dedim.

— Yo'g'-a, ko'zim tushmadi-ya! — dedi choyxonachi. — Shunga ko'zim tushmadi-ya! Qanday, beqasam choponlik oshnaginangiz qanday?

— Bir balo qilib joylashtirib keldik...

— Iya-iya...

Choyxonachi angrayib qoldi. Yuzlari bo'zardi. Qo'llarini etagiga artdi. Fotiha o'qimoqchiday, kaftlarini hozirlay boshladi.

— Bandachilik qildimi-a, — dedi. — Voy, bechora-ye, voy, bechora-ye...

— Yo'g'-e, bemorxonaga joylashtirib keldik, deyapman.

— E, ha-a, shunday deng...

Bozor oralab, boshqatdan bozorlik qildim. Barini belbog'imga tugib oldim.

Tarlonimiz oldiga bordim. Tugunimni egar qoshiga ilib oldim. Darvoza oldida o'tirgan cholga bir so'm uzatdim. O'zimga o'zim oq fotiha berdim. Otlanib, bozordan qaytdim.

Birodarlar, osmondan tushganday bo'lib qoldim, dunyoni endi ko'rayotganday bo'lib qoldim...

55

Vo darig'o, shunday kunlar-da bo'ladi!

Bosgan qadamimiz ketimizga ketadi. Jamiki ishlarimiz chappasiga yuradi. Omad deganlari salomini-da bermaydi. Og'zimizdagi oshimizni-da oldirib qo'yamiz.

Birodarlar, nasib etsa, kelar Shom-u Iroqdan, ketar qosh-u qaboqdan!

Xurram soliqchining ko'pkarisida shunday bo'ldi. To'daga kirolmadim, kirsam, uloqni ololmadim. Bordi-yu, olsam, birov yo, qo'limdan yulib ketdi, yo yerga tushib ketdi. Taqimimdagi uloqlarni-da oldirib qo'ydim.

Birodarlar, davlat-da egiz-egiz, mehnatda egiz-egiz!

Tarlon mendan hayron bo'ldi, men Tarlondan hayron bo'ldim.

Unday qildim, bo'lmadi, bunday qildim, bo'lmadi. Puf sassiq deya ketib qolmoqchi-da bo'lmadim. Yana tag'in shaytonga hay berdim. Elanqaran keldim, endi ketmayin, dedim.

Tarlonni qamchilab-qamchilab to'daga soldim.

Otlar g'ij-g'ij bo'ldi. Osmondan telpak tashlasa, yerga tushmadi.

To'dani yorib, uloqqa keldim. Uloqqa har alvonda uzaldim. Qo'lim yetmadi. Yana-da uzalgani, otlar qo'ymadi.

Quyuq changda ko'rib turdim, bir qo'l uloqni ushladi. Shunda, Tarlon uloqni o'ng tuyog'i bilan tappa bosib qoldi. Tarlon buni ilkisdan qilmadi. Yo'q, bilib-ko'rib qildi. Uloqni bergisi kelmadi!

Uloqqa havoyilarcha yopisha berish Tarlonimiz joniga tegdi. Tarlon uloqqa tashna bo'ldi!

Men qamchi sopidan tishladim. Tarlon qopqog'iga shapatiladim. Tarlon boshini sarak-sarak etdi. Tevaragidagi otlar boshini o'zidan xolislatdi. O'ziga kenglik yaratdi, erkinlik yaratdi.

Keyin, Tarlon old tizzalarini bukdi. Uloq oldida cho'k tushdi! Tarlon uloq oldida cho'kkaladi!

Quyuq changda ko'zlarimni arang ochdim. Tarlon ko'kragi oldida yotgan uloqni qo'shqo'llab ushladim. Panjalarimni botirib ushladim.

Tarlon ko'z qiri bilan qarab turdi. Barini ko'rib turdi, bilib turdi. Uloqni mahkamlab ushlaganimga amin bo'ldi.

Shundan keyin, bir silkinib, tizzalaridan turdi. Sonsiz otlar poylab turgan oldiga emas, yo'q, ketiga tisarildi. Ketiga tis bo'lib, to'dadan sug'urildi. Ochiqlikka chiqib olib, birdan oldiga burildi. Joyidan zarb bilan uchdi, yelday uchdi! Ko'rganlar ko'rib qoldi, ko'rmaganlar armonda qoldi!

Tarlon qoralik chuqurchani yonlab keldi. Uloqni taqimimdan tashlab yubordim. Qo'llarimni ko'tarib chopib ketdim.

Ammo bakovul ovozidan darak bo'lmadi. Hayron bo'ldim.

Qoralik joyga qaytib keldim. Chuqurchaga qarab... tars etkazib tizzamga urdim. Uloq chuqur ichiga emas... labiga tushibdi!

Alamimdan, arazlagim keldi!

Barchaga, inchunin, bakovulga eshittirib aytdim:

— Biz ketdik! Bizga qachon haq berilib edi-da, endi beriladi! — dedim o'zimcha, ko'pkariga qo'l siltab jo'nadim. Tarlonni tars-tars qamchiladim.

— Ketdik, Tarlon, ketdik, odamlar biz sag'irlarga qayishmaydi! — dedim.

To'dadan olislab bordim. Tarlonni tag'in tars-tars qamchiladim.

— Ketdik, Tarlon, ketdik, bizning kallamiz kal! Biz kallarga haq yo'q! — dedim.

Ketimga qayrilib qaradim. Uzangi yo'ldoshlarim yo'ldan qayirar, deya umidlandim. Tarlonni imillatdim. Tag'in o'girilib qaradim. Izimdan birov-da kelmadi!

Devorda tizilib o'tirgan tomoshago'ylarni yonlab yurdim. Birovi yo'ldan qayirar, deya o'yladim. Shuncha odam oldidan o'tdim, qani endi birovginasi miq etsa! Aqalli, yo'l bo'lsin, Ziyodullachavandoz demadi! Shular ham odam bo'ldi-yu! Suf-e!..

Endi tomoshago'ylardan arazladim!

— Ko‘r bo‘lib ko‘pkarini tomosha qilib o‘tira beringlar, men uyga borib, maza qilib yotaman, — deya pichirladim.

Qishloqqa olib boradigan yo‘ldan yurdim. Yo‘lni kesib o‘tadigan ariq bo‘yida oyoq ildim.

Tarlon suvga talpindi. Suv ichirmadim. Shokirqulning tomidan chiqib turgan dastak uchiga bog‘ladim.

Ust-boshlarimni qoqdim. Yuzlarimni yuvdim. Qo‘sh hovuchlab-qo‘sh hovuchlab suv ichdim. Entikib-entikib suvga termildim.

Shunda, ariq bo‘yida suvga kulcha botirib yeb o‘tirgan bolaga ko‘zim tushdi. E’tibor berib qaradim. Ishtoni ho‘l.

— Kimning uli bo‘lasan? — dedim.

— Otamning.

— Otang kim?

— Shokirqul.

— Ha-a, oting nima? Karim? Ulma! Bu, ishton ho‘l-ku, Karimboy?

— Enam to‘yda.

— Ha-a, o‘zim kiyolmayman deng. Bizdan so‘rasangiz, Karimboy, biz ko‘pkaridan qaytdik, ha! Qo‘pkarida adolat qolmadi, Karimboy. Bari oshna-og‘aynigarchilik bo‘lib ketdi!

— Ko‘pkari tamom bo‘ldimi?

— Yo‘q, hali bo‘layapti.

— Unda, boring-da.

Men sergak bo‘ldim. Bolaga e’tibor berib qaradim.

— Bir nima deganday bo‘ldingizmi, Karimboy?

— Suv ichib bo‘ldingiz-ku.

— Ha, suv ichib bo‘ldim, Karimboy. Endi nima qil deysiz, Karimboy?

— Ko‘pkariga boring.

— Bormasam degan edim, Karimboy. Bizga haq yo‘q!

— Bormasangiz, ado bo‘ladi.

— Ko‘p qo‘ymadingiz-qo‘ymadingiz-da, Karimboy. Borsam borayin, sadqayi suxaningiz.

Tarlonni yechib, tag‘in otlandim.

— Karimboy, sizning so‘zingizdan o‘tolmay qaytayapman. Bo‘lmasa, qaytmas edim,— dedim.

Qaytishimda tomoshago'ylarni qoralab yurdim. Tomosha-go'ylarga xo'mrayib-xo'mrayib qaradim.

— Senlar ham odam bo'lding-u, ana, haqiqiy odam Karimboy ekan, — deya pichirladim.

To'da chetiga borib turdim. Bakovul menga ajablanib qaradi. Bildim.

Bakovul menga qarab-qarab qo'ydi. Keyin, yonida turgan cha-vandozga bir nima dedi.

— Itga o'xshab, o'zi ketib, o'zi keldi.— Bildim, shunday dedi. Boshqalar-da shunday dedi.

Endi, men nima desam ekan?

Karimboy qaytardi desam, qaysi Karimboy desalar-a? Sho-kirqulning ishtoni ho'l o'g'li deymanmi? Ha, yo'g'-e... surishti-rib borayaptimi. Bordi-yu, surishtirsalar, Karim muallim, dey-man...

Samad chavandoz uzangi yo'ldoshimga aytdim, barcha-bar-chaga eshittirib aytdim:

— Yo'lda Karimboy jilovni ushladi! Qayting-chi qayting, deb qo'ymadi! Odamning yuzi issiq-da, yuzidan o'tolmadim!..

56

Otlar adirda yoyilib o'tladi.

To'dalagunimcha kech bo'ldi. Uyga qosh qorayganda keldim.

Uchastka militsionerimiz bir parcha qog'oz tashlab ketibdi. Ayolimizga qayta-qayta tayinlabdi.

— Ertaga soat o'nda organda bo'lsin, — debdi.

Sherigimiznikiga borib, uzrimni aytdim.

— Ertaga qo'yni sen boq, zaril ishim chiqib qoldi, biror kun qaytararman, — dedim.

Sahar-mardonda Tarlon bilan shahar jo'nadim.

Eshik oldida o'tirgan militsionerga qo'ynimdagi qog'ozni olib ko'rsatdim. Militsioner meni eshigi g'ilofli xonaga kiritib bordi.

To'rda o'tirgan yigit o'rnidan turdi.

— Keling, keling,— dedi.

Men bilan qo'l berib ko'rishdi. O'zini kapitan Ro'ziyev, dedi.

Kapitan katta baxmal pardani tushirib qo'ydi, joy ko'rsatdi. Men kapitan katta ko'rsatgan joyga o'tirdim.

— Xo'sh, familiyangiz Qurbonov-a? Nega kechikib yuribsiz, aka? Soat o'n ikki bo'ldi-yu?— dedi kapitan katta.

— Men sizga aytsam, kapitan katta, Tarlonning oyog'iga qaradim.

— Xo'sh, Tarloningiz kim?

— Bizning otimiz-da, kapitan katta.

— Xo'sh, hali otda keldingizmi? Shuncha texnika turib-a!

— Esa-chi, kapitan katta. Texnika bizga bo'lmaydi, kapitan katta. Benzin isini xush ko'rmayman, kapitan katta.

— Xo'sh, banditlarni izlayapmiz, aka. Shubhali tiplarni jabrlanuvchiga yuzma-yuz qildik. Bular emas, dedi. Siz esa kelmadingiz. Endi boshqa kun chaqiramiz.

Tarlon bilan qishloqqa qaytdim.

57

Kechqurun televizorga qarab o'tirib edim, Rixsiyev keldi. Bolishni buklab yonboshladi, damini uzun oldi.

— Radiouzel orqali o'qigan dokladimni eshitdingizmi, o'rtoq Qurbonov?— dedi.

— Yo'q, qachon o'qidingiz?

— Ana, xolos, hozirgina o'qidim-ku. Yigirma minut, qirq sekund!

— Men televizorga qarab qolibman. Nima deb o'qidingiz?

— Xalqaro ahvol xususida!

— Ha-a, olamda nima gap ekan?

— Aha, xalqaro ahvol chatoq, o'rtoq Qurbonov, juda chatoq. Vaziyat tobora keskinlashib borayapti. NATO mamlakatlari Yevropada qanotli raketa joylashtirayapti. Salvadorda qonli jang bo'layapti, Nikaraguada vaziyat tobora murakkablashayapti, Falastin xalqining ahvoli ayanchli. Aha, hammasiga AQSH imperialistlari aybdor, o'rtoq Qurbonov. Imperializm provokatsiya bilan shug'ullanayapti. Aha, masalan, AQSH imperialistlari Polsha davlatida diversiya-provokatsiya tashkil qildi. Xalqni mafkuraviy za-

harladi, aha. Polshada sotsialistik jamiyatni qo'porib tashlamoqchi bo'ldi. Lekin imperialistlarning yovuz planlari fosh bo'ldi. Polsha Birlashgan Ishchi partiyasi sotsializmni himoya qildi...

Gapining biroviga-da tushunmadim. Televizorga qarab, ha-ha, deb o'tirdim.

58

Ikki kun deganda uchastka militsionerimiz tag'in qog'oz olib keldi.

Tarlon bilan azonda yo'l oldim. Bu safar Tarlonni qichab haydadim. Vaqtida yetib keldim.

Kapitan katta to'rtta bo'zbolani ro'paro' qildi.

— Yo'q, bular emas edi,— dedim.— Ularning sochi uzun-uzun edi,— dedim. Kapitan katta kuldi.

— Xo'sh, eslay olmaysizmi, aka, ularning yuzida biron jarohat izi yo'qmidi?

— Esa-chi, kapitan katta. Iziyam gapmi, yaraning o'zi bor edi, kapitan katta.

— Xo'sh, qanaqa jarohat?

— Ikkovining yuzidan qon oqdi. Beqasam choponlik kalla qilib edi-da.

— Eee, shuni ertaroq aytmaysizmi, aka. Ana bu boshqa gap!

— Keyin, bir maydarog'ining ust-boshi loy bo'ldi, kapitan katta.

Kapitan katta yoza-yoza, bosh chayqab kuldi. Nimaga kuldi — farosatim yetmadi.

— Xo'sh, ayting-chi, aka, shu voqeani ko'rganlardan aqalli birontasini taniysizmi?

— Men sizga aytsam, kapitan katta, lof bo'lsa-da, yuzdan oshiq odam bor edi. Qaysi birini taniyman. Hatto ikkita melisa-da bor edi.

— Kim-kim? Melisa? Xo'sh, formadami?

— Esa-chi, kapitan katta. Melisalar shunday burchakda o'tirib choy ichdi.

— Xo'sh, ular shu voqeani ko'rdimi?

— Esa-chi, kapitan katta. Barini ko'rib turdi, kapitan katta.

— Xo‘sh-xo‘sh!

Kapitan katta temir sandig‘idan bir qalin qog‘oz olib yoydi. Ichi to‘la g‘ij-g‘ij surat bo‘ldi.

— Qarang-chi, aka, shuning ichida siz ko‘rgan melisalar bormi.

Suratlarga barmog‘imni yugurtirib qaradim. Oxiri, ko‘rganlarimdan birovini tanidim. Peshonasiga barmog‘imni nuqib turdim.

— Hayla, anavi! — dedim.

Kapitan katta enkayib qarab, bosh irg‘adi. Suratlarni taxlab, yana sandig‘iga soldi. Tashqarilab qaytdi.

— Xo‘sh, siz, aka, mana bu xonaga kirib turing. O‘zim chaqiraman.

Yon xonaga kirib o‘tirdim. Xona eshiksiz bo‘ldi.

Kapitan katta baxmal pardani tushirib qo‘ydi. O‘zi, o‘z xonasida qoldi.

Xiyoldan keyin kapitan katta oldiga birov kirib keldi. Kapitan katta undan so‘radi.

— Xo‘sh, siz yigirma to‘rtinchi yanvar yakshanba kuni soat o‘n ikkilarda qayerda edingiz? — dedi.

— Qaysi yanvar, bu yilgi yanvarmi? Uchastkada edim,— dedi kelgan odam.

— Xo‘sh, aniqroq ayting!

— Vinzavod atrofini nazorat qilib yurgan edim!

— Xo‘sh, demak, zavodda?

— Ha, zavodda!

— Xo‘sh, shu kuni choyxona oldida bo‘lgan voqeadan xabaringiz bo‘lmadimi?

— Qanaqa voqeadan?

— O‘sha yerda bo‘lgan to‘polondan?

— O‘limdan xabarim bor, bundan xabarim yo‘q!

— Xo‘sh, bu yoqqa bir qarang, Qurbonov aka!

Kapitan katta oldiga qaytib chiqdim. Kelgan odam xuddi o‘sha militsionerlarning birovi bo‘ldi. U meni ko‘rdi-yu, rangi oqarib jo‘nadi. Kapitan katta meni ko‘rsatib so‘radi:

— Shu odamni biron marta ko‘rganmisiz?

Militsioner menga tikilib turdi-turdi-da, yelkasini qisdi.

— Eslayolmayapman,— dedi.

Kulgim keldi. Balki tanir, deya choyxonani eslatdim. Militsioner shipga qarab o'ylab-o'ylab, ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga nuqidi.

— E, ha! Bo'ldi, bo'ldi! Endi esladim. O'sha yerdan uchastkamga o'tib ketayotgan edim. Ko'chada odamlar to'planib turgan ekan. Biron nima sotayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladim.

— Eb-ey, ikkovimiz gapirishdik-ku, inim! Men sizga...

— Men bilan-a? Bekorni aytibsiz! Tuhmat! Soqolingiz bor, og'zingizga qarab gapiring! Siz meni boshqa odamga adashtirayapsiz!

Kapitan katta baxmal pardani tushirib qo'ydi.

— Ana, bo'lmaganman deyapman-ku?— dedi.

Men yoqamni ushladim.

— Yo tavba, yo tavba! — dedim.

— Xo'sh, yana biron kishini eslay olmaysizmi, aka?

— Esa-chi, kapitan katta. Shu gaplarni choyxonachi-da ko'rdi.

— Choyxonachi? Yana?

— Keyin, baliqpaz-da biladi.

— Xo'sh, choyxonachi, baliqpaz... Buguncha bo'ldi, aka, qolganini boshqa kun gaplashamiz.

59

Endigi qog'oz kelishida bormadim.

Boisi, Dono momo bandalik qildi. Janozasiga bordim. Momoni o'rab-chirmab, yig'lab-yig'lab qo'yib keldim.

Uyda azali kayfiyatda yonboshlab yotib edim, Rixsiyev kelib qoldi.

— Ahay, choy qo'yinglar!— dedim ayolimizga.

— Kayfiyatingiz yo'q, o'rtoq Qurbonov?— dedi Rixsiyev.

— Dono momoni qo'yib keldik,— dedim.

— Qayoqqa qo'yib keldingiz?

Shunda, Rixsiyev janozada bo'lmaganini bildim.

— Dono momo olamdan o'tdi. Shuni aytayapman,— dedim.

— Aha, dafn qildik deng. Qo'yib keldik deganingizga biror nimani qo'yib kelibdimi debman.

Yuzimni o‘girib, ko‘zlarimni yumdim. O‘zimni bosolmadim. Tag‘in o‘ng bo‘ldim. Ko‘nglimga qay bir gaplar keldi. Gap kelganda gapirmasa, shu gap o‘ldim, deb ketadi. Shu bois, umrimda birinchi marta Rixsiyevga oqsoqolchilik qilishga jur’at etdim:

— Rixsiyev aka,— dedim,— siz o‘qigan odamsiz, olamdagi bor gapni bilasiz. Sizga o‘rgatib bo‘lmaydi. Hech qachon eldan qolmang, aka. Xususan, ikki vaqt elning yonida bo‘ling. Biri— to‘yida. Elning to‘yini belingizni besh joyidan boylab xizmat qilib, o‘ynab-kulib, xush-xushvaqt o‘tkazib bering. To‘y ko‘pniki, ha. Yana biri — azasida. Yig‘lab-siqtab elning qayg‘usiga hamdard bo‘ling. O‘lim qayg‘usini bir odam ko‘tarolmaydi. Og‘irlik qiladi. Shunda siz yonida bo‘lib, qayg‘usiga sherik bo‘ling. Odam ana shu ikki vaqtda odamligini bildiradi.

— Men unday momoni tanimayman, u kim?

— O‘zimizday odam. Faqirgina bir momo edi. Umri kolxozda ishlab o‘tdi. Qarigan chog‘ida magazinda qorovul bo‘ldi. Na qizi bor, na uli bor edi. Bechorahol momo edi. Yig‘laydiganlari-da bo‘lmadi. O‘zimiz momomlab, xolamlab yig‘lab jo‘natdik. El ko‘mdi...

— Aha, qulog‘imga bir chalinganday bo‘ldi. Maktabga darsga ketayotgan edim, kimdir, birov o‘libdi, dedi. E’tibor bermabman.

— Ana shu-da. Shu sababli-da janozada odam taxchil bo‘ldi. Ko‘nglim yarim bo‘lib qaytdim. Odamzodning qadri endi shu bo‘ldimi, dedim. Rixsiyev aka, bir kun kelib biz ham ketamiz. O‘lim barimizning boshimizda bor savdo. Shunday kunda bir-birovimizning kunimizga yaramasak, odam bo‘lib nima qilib yuribmiz...

Rixsiyev gapimni og‘zi bilan eshitdi.

— Hammaning borishi shartmi, o‘rtoq Qurbonov,— dedi.— Qarindosh-urug‘idan to‘rt kishi borsa bo‘ldi-da. Tobutning to‘rt yog‘ochidan ushlab ko‘tarib boradi. To‘rt kishidan ortig‘i ortiqlik qiladi. Aha, xo‘p, olti kishi ham bo‘lsin. Ikkitasi go‘r qazib turadi.

— Rixsiyev aka, odam it bo‘lsa ekan, oyog‘idan sudrab olib borib, chuqurga tashlab kela bersa. Odam o‘z nomi o‘zi bilan odam. Odamdan ulug‘ jonzot bormi...

Rixsiyev gapimni og‘zi bilan eshitdi.

— Ha, endi, bir kampir ekan-da. Bor-yo‘g‘i qorovul!— dedi. — Xalqaro ahamiyatga, aqalli mahalliy ahamiyatga molik shaxs bo‘lsa ekan, bilagimizga qora lenta taqib faxriy qorovullikda tursak! Motam tutsak, nutq so‘zlasak!

— Rixsiyev aka, odamning katta-kichigi bo‘lmaydi. Bariyam odam. Bir odam yaxshimi-yomonmi bir umr yashadi. Qo‘lidan kelgancha tirikchilik qilib, o‘zini odam sanab yurdi. Biz bilan betma-bet bo‘ldi, yelkama-yelka bo‘ldi, davrma-davr bo‘ldi. Endi qaytmas bo‘lib ketayapti. Odam qaytmas bo‘lib ketayotganda bormagan odam odammi...

Rixsiyev gapimni og‘zi bilan eshitdi.

— Kampirlarning o‘limi mahalliy gap, o‘rtoq Qurbonov, — dedi.— E’tiborga molik emas. Ana, xalqaro arenada qanchadan qancha tragediyalar sodir bo‘lmoqda. Eron shohi Pahlaviy yashirin buyruq berib, bir kinoteatrni yoqib yuboribdi. Ichida besh yuz inson bor ekan. Aha, tragediya deb buni aytadi! Dahshat! Men Eron xalqiga chuqur ta’ziya bildiraman. Men xalqaro ahvoldan tashvishdaman, o‘rtoq Qurbonov, qattiq tashvishdaman! Xalqaro vaziyat kun sayin keskinlashib bormoqda...

60

Ertasi ertalab uchastka militsionerimiz keldi. Salom yo‘q, alik yo‘q, ostonada turib siyosat qildi:

— Sovet organi sizga o‘yinchoqmi?— dedi.

— Eb-e, biz nima qildik?— dedim.

— Nega chaqirgan vaqtda bormaysiz?

Zardam qaynab ketdi:

— Borgim kelmadi! Ayolimiz bilan kinoga bordik! Bo‘ldimi?— dedim.

— Mashinaga chiqing!

Hayron bo‘lib, devordan bo‘yladim. Ebe, eb-e! Darvozamiz oldida militsiya mashinasi turibdi! Sap-sariq! Ko‘nglim, “shig‘g‘” etdi. Etlarim uvishdi. Ichim-da nimadir bir nima o‘pirilib tushdi.

— Uchastkovoy birodar,— dedim,— bu ishing bo‘lmaydi! Mashinangni tez eshikdan ol!

— Nima, mashinami yelkangizda ko‘tarib turibsizmi?

— Birodar, hech bandaning eshigiga do‘xtirning mashinasi bilan melisaning mashinasi kelgulik qilmasin! Tez ket, birov ko‘rmasin!

— Bo‘ling, bo‘ling, falsafa sotmang! Militsioner tumshug‘i ostiga tiqilib bordim.

Yuz-ko‘zlariga o‘qrayib-o‘qrayib qaradim. Militsioner niyati qat’iy bo‘ldi.

O‘qrayib turdim-turdim, keyin, choponim yoqalarini ochdim. Militsionerga ko‘kragimni tutdim.

— Mana, otib tashla! Lekin melisaning mashinasiga chiqmayman! Juda zaril bo‘lsa, avtobusda boraman, — dedim.

— Unda, tez izimizdan yetib boring!

Tag‘in, militsiya mashinasini birov-yarim ko‘rib qolgan bo‘lsaya, degan hadikda devordan ko‘chaga qaradim. Bovujud, ko‘chada odam bo‘lmadi.

61

Avtobusda rayon jo‘nadim. Yo‘lda derazadan qusib-qusib bordim.

O‘sha g‘ilofli eshikni ochdim. Kapitan kattaga Dono momoni aytib berdim. Kapitan katta bosh irg‘ab, hamdardlik bildirdi.

Xonaga bir militsioner kirib keldi. Kapitan katta oldiga bordi.

— Ayrimlar, Furqat ko‘chasida turadigan Mo‘mindan ko‘rayapti, o‘rtoq kapitan, — dedi.

— Xo‘sh, qayerda ekan shu bola?

— Ko‘rinmayapti. Bildirmay, hamsoyalaridan surishtirdim. Uyida yuzlariga dori surtib yotgan emish.

— Unda, hozircha ko‘z-quloq bo‘lib turing, hidlanmasin. Men aytganda olib kelasiz. Hozir borib bozorning og‘zidagi choyxonachi bilan baliqpazni olib keling.

Xiyol o‘tib, militsioner qaytib keldi.

— Olib keldim, o‘rtoq kapitan, kirsinmi? — dedi.

— Olib kiring.

Ostonada choyxonachi bilan baliqpaz ko‘rindi. Choyxonachi egilib salom berdi.

Kapitan katta qalami uchini choyxonachiga nish qildi.

— Avval siz kiring. Siz esa koridorda o'tirib turing, — dedi.

Choyxonachi qo'llari ko'ksida gilamdan yurib keldi. Kapitan katta bilan ko'rishmoqchi bo'ldi.

Ammo kapitan katta qog'ozdan boshini ko'tarmadi. Qalami uchi bilan choyxonachiga joy ko'rsatdi.

Choyxonachi dovdirab, qalamni qo'shqo'llab ushlab olishiga bir baxya qoldi. Qo'llarini tez tortib olib, qalam uchi tarafga o'tirdi. Menga ro'paro' bo'ldi. Men bilan bosh irg'ab so'rashdi.

Kapitan katta bir dasta qog'ozning uyog'iga qaradi, buyog'iga qaradi. Keyin, choyxonachiga yuzlandi. Choyxonachining kimligini yozib oldi.

— Xo'sh, endi bizga choyxonangizda bo'lgan urushni gapirib bering, Sattorov aka,— dedi.

— Urush? Qanaqa urush?

— Yigirma to'rtinchi yanvar, yakshanba kuni bo'lgan urushni.

— Qanaqa urush? Tush mahali? E, ha-a, bo'ldi, bo'ldi! Bu bizning choyxonada emas, ko'chada bo'lgan, kapitan uka.

— Ishqilib, choyxonangiz oldida bo'lgan-da.

— Endi, kapitan uka, bozor kuni odam ko'p bo'ladi. Qo'lim qo'limga tegmaydi. Hatto qulog'im eshitmaydi...

— Xo'sh, oddiy choyxona shovqini bilan ur-to'polon shovqinining farqiga borarsiz?

— Bormayman, kapitan uka, bormayman. Hamma gap shunda! Mana shu quloqlarim osti "g'uvv-g'uvv" etadi. Kim gapirayapti, nimani gapirayapti, farqiga bormayman. Sizga yolg'on, menga chin. Manavi barmoqlarim bilan sanab aytaman: ovozlarning ichida cholnikiyam bor — bir! Yoshnikiyam bor — ikki! Momonikiyam bor — uch! Qiznikiyam bor — to'rt! Chaqaloqnikiyam bor — besh! Xo'-o'sh, beshta bo'ldimi? Endi boshqalariniyam sanaymiz. Bulardan boshqa ko'chadan o'tayotgan "Jiguli"nikiyam bor — bir! Bozordan qaytgan sigirnikiyam bor — ikki...

— Bo'ldi, bo'ldi. Siz menga ko'rgan voqeangizni gapirib bering!

— Iya, eshitmagandan keyin qanday qilib ko'raman, kapitan uka?

— Ko'zingiz bor-ku, ana-ku.

— To‘g‘ri, ko‘zim bor. Yaratganning o‘zi bizgayam ko‘z bergan, ko‘rib turibsiz. Lekin bilasizmi, kapitan uka, choyxonamizning bir piyola choyi nasib etganda ko‘zingiz tushgandir, samovar choyxonaning ichida, ha! Maydagina tuynugi bor. Mana shuncha! Shu tuynukdan choy beraman. Tuynuk ko‘kragim baravar keladi. Mana bundan enkayib qaramasam, tashqarini ko‘rmayman. Egila berib-egila berib, bellarim og‘rib ketdi, kapitan uka.

— Xo‘sh, shu voqeadan sal bo‘lsayam xabaringiz bordir?

— Bor, kapitan uka, bor. Bir egilib qarab, ko‘cha yuzida odamlar to‘dalashib turganini ko‘rdim. Boshqa hech nimani ko‘rmadim.

— Bo‘pti, boring. Zaril bo‘lsa, yana chaqiramiz. Hamrohingizga ayting, kirsin.

Choyxonachi qo‘llari ko‘ksida kapitan kattaga bosh irg‘adi. Go‘yo birov quvib kelayotganday pildirab, eshikka qarab yurdi.

Baliqpaz kirib keldi.

Kapitan katta baliqpazning-da kimligini yozib oldi.

Baliqpaz yoyilib o‘tirishi, eshitamiz, deganday kapitan kattaga qoshlarini chimirib qarashidan dimog‘dor, ko‘pni ko‘rgan odam bo‘ldi.

Birodarlar, men shu odamdan umid qildim!

— Xo‘sh, endi sizdan eshitamiz, Shukurov aka?

Baliqpaz pinagini-da buzmadi. Mijjasini-da qoqmadi.

— Nimani eshitasiz? — dedi.

— Xo‘o‘o‘sh...

— Eshitdim, uchastkavoy aytdi. Men hech nimani ko‘rganim yo‘q. Shu! Yozib berishim ham mumkin. Shu! Ketsam, maylimi? Uyog‘da ish qolib ketayapti. Shu!

— Gap endi boshlandi, shoshilmang. O‘rningizga odam qo‘yib kelgandirsiz.

— O‘g‘lim qoldi. U hali yosh, xo‘randalarni ranjitib qo‘yishi mumkin. Shu!

— Xo‘sh, ko‘p shushulamang! Gapga javob bering! Bir inson taqdiri hal bo‘layapti! Tushundingizmi?

— Siz ham mansab stolingizdan foydalanib, xalqqa baqirmang! Shu!

— Men xalqqa emas, sizga gapirayapman!

— Xalq bir kishidan boshlanadi! Shu! Men xalqning bir bo'g'iniman, shunday ekan, menga ko'p baqirmang! Shu!

— Baqirayotganim yo'q, gapirayapman.

— Baqirayapsiz! Shu!

— Xo'sh, ana, baqirmadik. O'zi bugun chap yog'ingiz bilan turganga o'xshaysiz, Shukurov aka. Boring, sizga ruxsat, yana chaqiramiz.

— Ixtiyoringiz! Baribir, shu gapim gap! Shu! Baliqpaz g'o'dayib chiqib ketdi.

Kapitan katta menga-da javob berdi.

— Yana kelasiz, — dedi.

— Kapitan katta, uyda ishlarim qo'qib yotibdi. Buyog'i ko'p-karilardan qolib ketayapman. Boshimni qashigani fursatim yo'q...

— Xo'sh, men nima qilay, aka? Bu ishga o'zi guvohning keragi yo'q, ana meditsina xulosasi bor. Sizlar faqat jinoyatchilarni aniqlashga yordam bersalaringiz bo'ldi. Haligi baliqpaz bilan choyxonachi jinoyatchilarni taniydi. Ularning gapini esa eshitdingiz...

62

Yo'l chetidan yurdim. Shu gap bo'lgan yerdan o'tdim.

Bir mahal oq xalatli bir odam yo'limni to'sdi. Bu o'sha baliqpaz bo'ldi. Baliqpaz tirsagimdan ushlab, meni baliqxonasiga yetakladi. Qozondan xolisroq bir joy o'tirg'izdi. Tizzamga kaftini qo'yib so'radi:

— Meni siz chaqdingizmi, aka?

— Chaqqanim yo'q.

— Chaqibsiz-da! Shu! Chaqish bundan ziyod bo'ladimi?

— Men ko'rganimni aytdim, birodar.

— Aka, chaqish — ayolning ishi! Shu! Siz binoyiday erkaksiz-ku! Ko'rganimni aytdim, deysiz. Nimani ko'rdingiz? Xo'sh, qani?

— Endi, birodar, men sizga aytsam, o'zingizdan ham o'tdida. Ko'rib turib bormadingiz-a. It boshi bilan kuchugingiz chopib keldi.

— Endi u — it! Shu! O'z oti o'zi bilan — it! Bo'lgan-bo'lmaganga aralashib, hurib yotadi! Bo'lmasa, birov bilan nima ishi bor? O'zini bilib yotmaydimi? It— It-da! Itligiga boradi-da! Axir, siz bilan biz odammiz-ku, odam! Kelib-kelib, itga teng bo'lib o'tiramizmi! Itga teng bo'lmasligimiz kerak! Shu! O'zi, qarindoshingiz ajab odam ekan. Bolalar urib yiqitadi, yana turadi, yana yiqitadi, yana gandiraklab turadi.

— Nima qilsin, bo'lmasa?

— Yota bersin! Shu! Uch yigitga yolg'iz o'zi bas kelarmidi! Men bo'lganimda birinchi musht kelib tushdimi, bo'ldi, o'zimni yerga tappa tashlardim.— Qaytib joyimdan turmasdim! Shu! Tursam, baribir, yana uradi-da! Ular ketguncha o'zimni behushlikka olib yotardim. Qarabsizki, bir musht bilan qutulib qolardim! Biron yerim ham shikast yemasdi! Shu! Ana, oqibat, qarindoshingiz chalajon bo'lib, kasalxonaga ketdi! Shu! Holidan xabar olib turibsizmi? Qalay endi?

— Borganim yo'q!

— Iya, nega?

— Men uni tanimasam, bilmasam...

— Iya, hali tanimaysizmi?

— Esa-da.

Baliqpaz yuzimga enkayib qaradi. Gapim jiddiyligini bilib, tizzasiga urib kuldi.

— E, aka-ye, aka-ye! Afandi ekansiz-ku!

Baliqpaz yog'och panjara oldida yotgan kuchugiga qaradi. O'zicha boshini chayqadi. Tag'in kuldi.

— E, aka-ye, e, aka-ye! Qarindoshingiz bo'lmasa, aqalli tanishingiz bo'lmasa, sizga nima? Qip-qizil Afandi ekansiz! Shu! Yo, undan biron nima undirdingizmi?!

— Nima undirardim, birodar...

Baliqpaz barmoqlarini bir-biriga ishqab ko'rsatdi.

— Pulmi? Unday demang, birodar, unday demang...

— Bo'lmasa, nimaga buncha kuyib-pishasiz? E, aka-ye! Afandi! Shu! Hali yana borasizmi? Unda, bunday, aka, siz meni ko'rganingiz yo'q, men sizni ko'rganim yo'q. Agar yana chaqsangiz, qattiq xafalashamiz! Shu!

Avtobusga o‘tirdim. Ko‘zim ilinib-ilinib ketdi. Birodarlar, boshim og‘riyapti, boshim...

63

Nazir juvozkash ko‘pkariga Olmako‘z baytalini minib keldi.

O‘ziyam, baytali Olmako‘zmisan, Olmako‘z bo‘ldi-da! Ko‘zlari bo‘taloq ko‘zlariday katta-katta, dum-dumaloq, olmaday-olmaday keladi! Yana tag‘in, chuqur. Chuqur, qop-qora! Sag‘rinlari enlik-enlik! Sag‘rinlari lo‘mbillaydi, bilq-bilq etadi!

Tarlonimiz ko‘zi ana shu Olmako‘zga tushdi! Tarlonimiz bir boshqa bo‘lib qoldi! Tarlonni uloqqa soldim — Tarlon Olmako‘z tarafga yurdi. Jilovni tortdim — Tarlon Olmako‘zga qarab talpindi. Tarlonni uloqni ot ketidan qo‘ydim — Tarlon Olmako‘z tarafdan chopdi! Nima qilishimni bilmadim.

Nazir juvozkashga aytgichimni aytdim:

— Ay birodar, shu baytalingizni ko‘zdan pana qiling, baraka toping!

Chavandozlar hingir-hingir kuldi. Sho‘xchan-sho‘xchan gaplar otdi.

Nazir juvozkash ko‘pkaridan ketdi.

Shukur qilib, Tarlonni uloqqa soldim. Tarlon tag‘in taysalladi. Bo‘lmasa, kayfiyati binoyiday bo‘ldi.

Toqatim toq bo‘ldi. Zardam qaynadi. Qamchi dastasi bilan Tarlon boshiga soldim.

— Padaringga la’nat, mana senga, mana! — dedim.

Tarlon old oyoqlarini ko‘tarib-ko‘tarib falakka sapchidi. Bo‘g‘ilib-bo‘g‘ilib pishqirdi. Olislarni aylanib chopdi. G‘arq terga botdi. Peshonasidan terlar oqdi. Baliq og‘ziday kappa-kappa ochilib-yopilayotgan burniga sizib tushdi.

Choti aralash qamchi solib-solib, tag‘in uloqqa qo‘ydim. Tarlon tag‘in o‘zini keyiniga oldi!

Bu safar qamchi dastasi bilan quloqlari orasiga urdim, yuzlariga urdim...

— Hali kammi? Mana bo‘lmasa, mana! Yeganing burningdan chiqqur! — dedim.

Tarlondan egar-abzalini, yuganini shilib oldim. Kallasiga bir urdim.

— Ket, hayvon, ket! Qazisan, qartasan, asli naslingga tortasan! Tortding, aslingga! Ket! — dedim.

Tarlon yollari selkillab-selkillab qochib qo'ya berdi.

Birodarlar, jahl kelganda aql ketadi, deganlari shu-da!

Ko'pkari oxirini qaramadim. Egar-abzallarni qo'ltiqlab, uyimizga jo'nadim.

Ayolimiz alag'da bo'lib, Tarlonni so'radi.

— So'rama, ayol, so'rama,— dedim. — Termizdan artistlar kelib, klubda teatr qo'ygani esingdami? O'sha teatrda Alisher Navoiy nima deb edi? Hayvonni qancha tarbiya qilma, it bo'ladi, eshak bo'ladi, aslo odam bo'lmaydi, deb edi! Navoiy haq ekan, ayol! Bekorga Navoiy, Navoiy, demas ekanlar! Ko'kayim qurib ot boqdim. O'zimni sen dedim, Tarlonni siz dedim. O'zim yemadim, Tarlonga yedirdim, o'zim ichmadim, Tarlonga ichirdim. Bolalar rizqidan-da urib, Tarlonga yedirdim. Tarlon baribir odam bo'lmadi! Urib-urib haydab yubordim! Bahridan o'tdim! Tarlon ko'r bo'ladi, Tarlonni tuzim ko'r qiladi...

— Bekor qilibsiz-da, ko'p pullik mol edi, — dedi ayolimiz.

— E-e, puli boshimdan sadaqa! Ayol zoti boshdan adoq zarga o'ralgan bilan, shoyi-shomilaga belangan bilan, o'zi yomon bo'lsa, unday ayolning kimga keragi bor? Unday ayolni zari bilan qo'shib, shoyi-shomilasi bilan qo'shib, uch taloq qo'ymoq lozim! Ot ham shu-da! Yomon ot — yomon ayolday gap! Erkakni el orasi-da sharmanda qiladi! Mana, Tarlon yuzlab chavandozlar oldida yuzimni yerga qaratdi!

Shunday deyishga dedim. Ana, dedim. Ammo ko'nglim tub-tubida nimadir... nimadir bir nima mayda-mayda ushoq, bo'lib-bo'lib ketdi. Tarlon uchun ich-ichimdan rahmim kelib-kelib ketdi...

64

Kechasi bir mahalda katta darvoza do'q-do'q etdi. Yelkamga choponimni tashlab, tashqariladim.

— Kim u bemahalda kelgan? — dedim.

Tashqaridan ovoz bo'lmadi. Darvoza zanjiri shildir-shildir etdi. Oshiq-moshig'i g'iyq-g'iyq qildi.

— Hozir, mana hozir! — dedim.

Borib, darvoza tambasini oldim. Zanjirini yechdim. Darvozani lang ochdim.

— Eb-e, eb-e!

Ostonada o'zimizning Tarlon turibdi! Bir o'zi!

Kambag'al iltijoli pishqirdi, kambag'al tumshug'ini cho'zdi, kambag'al mo'ltayib qaradi.

Nima deyishimni bilmadim, nima qilishimni bilmadim.

— Kelibsan-da... Kelmasang, oq butum qora kuyarmidi... — deya to'ng'illadim.

Tarlon bilan gap qo'shmadim. Yuziga-da qaramadim. Yuzimni teskari burdim.

— Sen ham odam bo'lding-u... — deya to'ng'illadim.

Birodarlar, eshikdan kelgan odamni ket, deb bo'ladimi? Bo'lmaydi, bo'lmaydi!

Shu bois, miq etmadim. Gapsiz-so'zsiz ichkari yurdim.

Tarlon ketimdan ergashib keldi.

Borib, otxona eshigini ochib turdim.

Tarlon mo'mingina bo'lib kelib, otxonaga kirib oldi. Ichkari kirib olib, pishqirdi. Endigi pishqirishida ko'ngli to'qlik bo'ldi.

Ustidan zanjirlab keldim.

65

Ertasi ertalab Nazir juvozkash keldi. Devordan bo'ylab ovoz berdi.

— Ziyodulla chavandoz, berman bir qarang! — dedi.

Bir-bir bosib bordim. Devordan qo'l uzatdim. Ko'rishib-so'rashdim.

Nazir juvozkash bola-baqrani so'radi, tomi toshni so'radi. Keyin, mol-holga o'tdi.

— Ha-a, — dedi. — Bizning kuyov qanday? Xo'p damliginami?

O‘ylab turdim-turdim. Nazir juvozkash nima dedi, tushunmadim.

— Qanday kuyov?— dedim.

— Qanday kuyov bo‘lardi, Tarlon kuyovimiz-da.

— E, ha, Tarlonmi? Shukur, shukur.

— O‘zi, kuyov keldimi?

— Keldi, ha, keldi. Nima edi?

— Shunday, alag‘da bo‘lib so‘rayapman-da.

Nazir juvozkash bo‘lib o‘tmish gapni bir boshidan aytib berdi.

Emishki, bizning Tarlon o‘sha ketishida to‘g‘ri Nazir juvozkashnikiga boribdi. Darvozadan kishnab-kishnab kiribdi.

Bu vaqtda Nazir juvozkash Olmako‘zini yalang‘ochlayotgan bo‘libdi. Tarlonni ko‘rib, hayrondan hayron qolibdi. Nima qilishini bilmabdi, nima deyishini bilmabdi.

Nazir juvozkash nima-da qiladi, nima-da deydi? Kuyov o‘z oyog‘i bilan o‘zi kirib keldi. Eshikdan egilib kelib turgan kuyovga bir nima deb bo‘ladimi? Bo‘lmaydi, bo‘lmaydi!

Nazir juvozkash o‘ylab qolibdi. Kuyov-ku uyalmadi, kuyov-ku, or qilmadi. Endi men uyalayin debdi, endi men or qilayin, debdi. Choponi yoqasi bilan yuzlarini berkitibdi, yerga qarab-qarab, uyiga kirib ketibdi.

Birodarlar, kuyovni payg‘ambarlar-da siylagan! Ahay-ahay!

Men devorga tirsaklarim bilan suyanib eshitdim. Boshimni sarak-sarak etib eshitdim.

Tarlon Olmako‘zga bo‘y berib-bo‘y berib boribdi.

Olmako‘z hurpayibdi, quloqlarini dikkaytiribdi, yollarini hurpaytiribdi, dumlarini tikraytiribdi. To‘lg‘onib-to‘lg‘onib kishnabdi. Orqa oyoqlarini sermabdi. Tepib yuboraman-tepib yuboraman, debdi.

Tarlon bir sapchib chetlanibdi. Olmako‘zni aylanib chopibdi. Dirk-dirk o‘ynabdi. Olmako‘z tevaragida doira yasabdi.

Tarlon Olmako‘zga kift berib-kift berib boribdi.

Olmako‘z zinkiyib-zinkiyib pishqiribdi. Tishlarini irjaytirib-irjaytirib g‘ijirlatibdi. Tishlab olaman-tishlab olaman, debdi.

Tarlon epchillik bilan chetlanibdi. Olmako‘zni aylanib chopibdi. Dirk-dirk o‘ynabdi. Olmako‘z tevaragida doira yasabdi.

Tarlon Olmako‘z bilan yuzma-yuz boribdi. Yuzlarini yuzlariga tekkizibdi.

Olmako‘z pishqirib-pishqirib, yuzlarini chetga buribdi. Yuzlarini olib qochibdi.

Tarlon Olmako‘zni aylanib chopibdi. Dirk-dirk o‘ynabdi. Olmako‘z tevaragida doira yasabdi.

Tarlon Olmako‘z bilan tumshuqma-tumshuq kelibdi. Olmako‘z bilan tumshuqlarini tekkizib-tekkizib iskashibdi. Pishqirib-pishqirib iskashibdi. Olmako‘zning og‘ziga pishqirib iskashibdi, burniga pishqirib iskashibdi. Olmako‘zga bir nimalar debdi, bir nimalar aytibdi. Nimalar debdi, nimalar aytibdi — unisini yolg‘iz o‘zi bilibdi, yolg‘iz Olmako‘z bilibdi...

Tarlon ko‘ngil beribdi, Olmako‘z ko‘ngil olibdi! Ahay-ahay!

Oxir-oqibat... Olmako‘z dildorlik beribdi!..

— Yo‘g‘-e? — dedim.

— Ha-da! Endi quda bo‘ldik, Ziyodulla chavandoz, quda-qudag‘ay bo‘ldik!

— Hazillashmang-e, juvozkash, hazillashmang-e!

— Behazil, quda, behazil! O‘ziyam qayliq o‘yinimisan, qayliq o‘yini bo‘ldi-da... Ooo!.. Kuyovni nima berib boqqansiz, Ziyodulla chavandoz?

Boshimni chayqab-chayqab kuldim. Qo‘limni siltab-siltab kuldim.

— Gapingiz qursin-e, juvozkash-e, gapingiz qursin-e!

— E-bo-ye, ana qayliq o‘yini, mana qayliq o‘yini... Ooo!..

Yuzlarimni ushlab-ushlab kuldim, yuzlarimni berkitib-berkitib kuldim.

— Bo‘ldi-ye, juvozkash-e, bo‘ldi-ye!

— Ebo-ye... Qarang-a! Ebo-ye... qarang-a!

— Astarog‘-e, ayol eshitadi-ye!

— Ebo-ye... Qarang-a! Biz ham yurgan ekanmiz-da... Ooo, ana mana..!

— Qanday-qanday?.. Bo‘ldi-ye, ayol eshitadi-ye!

— Siz bilan biz ham... yurgan ekanmiz-da, Ziyodulla chavandoz! Ooo, ana... mana..!

— Astaroq deyman-e, ayol eshitadi-ye!

— Ooo, haloling bo‘l-e, kuyov-e, haloling bo‘l-e!..

Xandon-xandon otib kuldim.

— E, tavba-ye, e, tavbangdan-e! Sho'xlashmang-e, juvozkash-e, sho'xlashmang-e!

— Besho'xi, quda, besho'xi! Ana kuyov, mana kuyov! O-o-o, ana... mana..!

Qah-qah urib kuldim.

— Bo'ldi-ye... Bizning Tarlon sho'x ekan-da, a, sho'x ekan-da?

— Ha-da! Egasiga tortganmi, bilmayman! Mol egasiga o'xshaydi, deydi-ku...

Ketimga chalqayib-chalqayib kuldim.

— Nima-nima?— dedim.

— Mol egasiga o'xshamasa, harom o'ladi...

Devordan bug'doyday kesak olib, Nazir juvozkashga otgan bo'ldim. Juvozkash bilagi bilan betini pana qilgan bo'ldi.

— Astarog'-e, ayol eshitadi, astarog'-e!— dedim.

Kaftlarimni kaftlarimga qars-qars urib kuldim.

— Bizning Tarlon sho'x ekanmi-a, shunchalik sho'x ekanmi? Ay, Tarlon-e, ay, Tarloni tushmagur-e! Qo'llarimni bir-biriga ishqab-ishqab kuldim.

— Bizning Tarlon sho'x-da, sho'x! Bir sho'xlashibdi-da! O'tadigan dunyoda bir sho'xlashayin, debdi-da!— Kula berib-kula berib, ichlarim og'rib qoldi. Kula berib-kula berib, ko'zlarim yoshlanib qoldi.

— Mol egasiga o'xshaydi, deysiz-da? Ay, ukkag'arning qudasi-ye!— dedim.— Ayniqsa, ot egasiga o'xshaydi, deysiz-da? Ay, ukkag'arning qudasi-ye!..

Garchi qo'limga bir nima ilashmasa-da, devordan kesak olib otgan bo'ldim. Garchi bir nima otilib bormasa-da, juvozkash pusib qolgan bo'ldi.

— Ay, kuchingdan Tarlon-e, kuchginangdan-ye!— dedim.

Miriqib kuldim, huzurlanib kuldim, maza qilib kuldim!

Bir amallab o'zimni bosib oldim. Yuz-ko'zlarimni artdim.

— Ha-ye, shunday-shunday bo'ladi da-ye! Issiq jonda-ye, issijon!— dedim.— Qani, ichkarilang, quda, choy ichamiz?

— Yo‘g‘-e, quda, yo‘g‘-e. Esimning borida juvozxonamga ketayin. Bo‘lmasa, kuyov bo‘lmish kelinni ko‘rib qoladi-da, tag‘in hiqillab yopishadi!

— Shundaymi, unda, maylingiz. O‘zi, kelin qayerda, quda?

— Ana kelin, ana! Devordan uzalib qaradim.

Nazir juvozkash ostidagi otini ko‘rsatdi.

66

Samad chavandoz ko‘pkarining olgan-olganini — oxirini oldi.

Qaytishimizda barimizni uyiga aytdi. Samad chavandoz uyi oldiga kelganimizda o‘ylanib qoldim. Mendan bo‘lak chavandozlar uyi yaqin bo‘ldi. Chavandozlar otlarini bog‘laydi-yu, keladi.

Bizniki xiyla olisda bo‘ldi. Tarlonni uyimizga bog‘lab kelaman degunimcha, qozon ikki qaynaydi. Chavandozlar mening yo‘limga qarab o‘tirmaydi. Go‘shtni yeydi-qo‘yadi!

Yana tag‘in, erinib, kelolmasligim-da bor.

O‘ylab-o‘ylab, qoladigan bo‘ldim. Nafs qurg‘ur yomon-da!

Tarlonni darvoza ustuniga bog‘ladim. Ko‘pkaridan olgan gilam, to‘nlarni egardan oldim.

Shunda, ko‘chadan kenja qaynimiz Qoraqul o‘tdi.

— Yo‘l bo‘lsin? — dedim.

— Siznikiga, — dedi qaynim.

— Ma, Tarlonni-da ola ket, dedim.

Qaynimni oyog‘idan olib, otga mindirib yubordim.

Samad chavandoznikida yonboshlab olib, tana ilik so‘rdim.

Chavandozlar bo‘lib o‘tmish ko‘pkari gurungini qildi. Otlarga ta’rif berdi. O‘zlaridan o‘tgan xatoliklarni betlariga aytdi. Yaxshiliklarini yodladi. Bir-birlari yelkalariga qoqdi, tizzalariga shapatiladi.

— Ay, yasha-ye, yasha! — dedi.

Chavandozlar hamroz bo‘ldi. Bir-biriga aql bo‘ldi.

Samad chavandoz mixda osig‘liq do‘mbirasini oldi. Tinqillatib-tinqillatib sozladi. Chertib-chertib boshladi.

Xayollarga g‘arqob bo‘lib yonboshlab yotib edim gal menga keldi. Men chordona qurib o‘tirib oldim. Bilaklarimni tur-

dim. Do'mbirani sozimga soldim. Hakkalabosim-hakkalabosim nag'malardan chaldim. Chavandozlar ko'nglini qitiqladim.

Samad chavandoz o'tirgan yerida yelkalarini qoqib-qoqib o'ynab qo'ya berdi!

— Ha, gardkam! — dedi.

So'zni so'zga cho'qishtirdim, gapni gapga urishtirdim, otlarni nag'malarga soldim. Otlar ashula bo'ldi! Ahay-ahay!

Bul sag'ringga qarayman
Kuyovli qiz yotguday,
Burningdan chiqqan damingga
Karrak bossa yonguday,
Quloqlaring orasidan
Qo'shtegirmon suv o'tguday!..

Birodarlar, ashula ichidagi ot bor-ku? O'sha o'zimizning Tarlon, ha!

Ana, Tarlon dirk-dirk o'ynadi. Bepoyon Vaxshivor adirlariga qarab kishnadi. Zalvorli adirlardan aks sado keldi...

Yo, sizning otingiz-da bizning Tarlondaymi? Bizning Tarlonga kelbat beradimi? Unda, sizning otingiz-da ashula bo'libdi-da? Ahay-ahay!

Hadeb otni ashula qila berish bo'lmas! Endi chavandozlarga-da o'tayin! Kimni ashulaga solsam ekan? Shu burchakda o'y surib o'tirgan Odina chavandozni ashulaga solsammikin? O'ttizni urib qo'ydi, hali-da uylanmadi! Bir qitig'iga tegayin! Zora, yigitlik g'ururi varaja qilsa! Ahay-ahay!

Qidirib chopsang biror kun
Keng Qo'ng'irotning to'yini,
Olib yotsang, jo'rajon,
Qora uyning to'rini,
Olib quchsang naylayin,
Burni kulgan bir parini,
Shu chiqarar kuygan yurak cherini!

— Ha, do'o'o'st!

— Qo‘yma, Ziyodulla chavandoz, qo‘yma!

Chavandozlar gap qayoqqa borayotganini bildi. Gap egasi-da o‘zini bildi, o‘zini tanidi. Ko‘zlari pir-pir etdi. Ko‘zlari yerga qadaldi.

Birodarlar, bo‘ydoqning aqli ikki ko‘zida bo‘ladi!

Men endigi gapimni nag‘malarsiz aytdim:

— Odina chavandoz deyman-ov! Yigitning boshi ikkita bo‘lmagunicha, moli ikkita bo‘lmaydi! Uylan-da endi, birodar! Og‘zingga tolqon solganday miq etmay yurasan! Ayt-da, o‘zi nima gap? Biz sening uzangi yo‘ldoshlaringmiz! Yaxshi kuningga-da, yomon kuningda yaraymiz!

Chavandozlar gapimni quvvatlab turdi, ma’qullab turdi.

Oxiri, Odina chavandozdan sado chiqdi! Odinasi qurg‘ur, bizning qaynsinglimizni ko‘z ostiga bosib yuribdi ekan! Ana, gap! Bir safar sovchi-da qo‘yibdi, ammo qaynonamiz yo‘q, debdi! Ana.

— Odina chavandoz-ov, yosh yigit ko‘zi bilan qiz olma, deydilar. Bizning qaynsinglimizdan boshqasi bo‘lmaydimi?— dedim.

— Yo‘q, bo‘lmaydi!— dedi Odina.

Odina chavandoz olamda bizning qaynsinglimizdan o‘zgasini tan olmas emish! Qaynsinglimiz olamda yakka-yu yagona emish!

— Yo‘g‘-e?— dedim.

— Ha! — dedi.

— Chiningni ayt? — dedim.

— Chinim!— dedi.

Birodarlar, dil ketgan emish, dil! Ahay-ahay!

— Ay, Odina chavandoz, unda, qo‘lni ber, o‘zim sovchi bo‘laman!— dedim. — Qaynsinglimni senga olib berib, sen bilan boja bo‘lmasam, Ziyodulla chavandoz otimni boshqa qo‘yaman! Shu kundan e’tiboran, ikkovimiz boja! Ay, Odina chavandoz-ov, nariroq o‘tir, boja bojani ko‘rsa...— dedim.

67

Birodarlar, yosh bolaga ish buyur-u, izidan o‘zing yugur, degani haqqost chin bo‘ldi!

Qaynimiz nima qilibdi deng? Qaynimiz uyimiz oldidan oqadigan ariqqa kelib, Tarlonni suvga qo'yibdi. G'arq terga botib turgan Tarlon to'yib-to'yib suv ichibdi. Keyin, Tarlonni otxonaga olib kirib bog'lab qo'yibdi...

Ertalab Tarlonni otxonadan yetaklab chiqdim. Aylantirib qaradim. Qorin etlari dir-dir uchdi, pir-pir uchdi!

Birodarlar, otga suv tushsa, ana shunday bo'ladi! Tarlonga suv tushibdi!

Ay, qaynim-e, ay, kalla-ye! Endi senga nima deyin? Ot g'arq terga botsa, suv ichirib otxonaga bog'lab bo'lmaydi, deyinmi? Mabodo ichirsa, xiyla yo'l yurish lozim bo'ladi, bo'lmasa, otga suv tushadi, deyinmi? Keyin, ot ko'pkariga yaramay qoladi, deyinmi! Maktabda komsomollar kattasi bo'lasan-da, shuni-da bilmaysanmi, deyinmi? Bitta-da to'rti yo'q a'lochi Qodirov Qoraqul bo'laturib, shunga-da farosating yetmadimi, deyinmi? Omon surnaychining qizi bilan partaning ostidan xat olishib-xat berishib turishga yetgan aqling shunga yetmay qoldimi, deyinmi? Mendayin bir kal bo'lsang ekan, aqli sochi bilan qo'shilib to'kilib ketgan desam, deyinmi? Kallang to'la jun bo'lsa, deyinmi?

Demayin, demayin! Qayniga ilkis gapirib bo'ladimi...

Opasi bizda!

68

Tarlonni mindim, suvini tushirish bilan mashg'ul bo'ldim.

Ko'pkarilarga minib bormadim.

Borsam-da, chopmadim. Birovlar otida chopdim.

69

Vaxshivordagi bir ko'pkarida-da shunday bo'ldi.

Mag'ribdagi oppoq tog' Keragatog' bo'ldi. Keragatog' Hisor tog'lari davomi.

Keragatog'ni yaqin deb bo'lmaydi. Purviqorligidan bir qadam bo'lib ko'rinadi. Keragatog'dagi mayda-mayda alachiporlar archa bo'ldi. Aslida archalar-da mayda emas. Olisdan mayda ko'rinadi.

Archalar ulkan-ulkan, bo‘yi qayrag‘ochday keladi. Beli odam beliday keladi.

Qirlar, adirlar qor bo‘ldi. Adirlar o‘ngiridagi Qorbosdi dashtida qor bo‘ldi. Etik ko‘mar qor bo‘ldi.

Qorda jonivorlar izi bo‘ldi. Izlar tevaragida tovuq patlari sochilib yotdi. Bular tulkilar ishi bo‘ldi. Besh panjali izlar bo‘riniki bo‘ldi.

Osmon yuzi pokiza bo‘ldi.

Boshimizda kun yondi. Kun betiga qarab bo‘lmadi. Baliq tangasiday-baliq tangasiday qor uchqunlari yilt-yilt etdi, ko‘zdan yosh oqizdi.

Tevarak moyakdayin ravon, surpdayin oq bo‘ldi. Qayer chuqur, qayer o‘r, bilib bo‘lmadi.

Ko‘nglimga hadik tushdi. Uloqqa oyog‘im tortmadi. Kelishga-ku keldim, endi chopayin, dedim. Chopadigan bo‘ldim.

Jo‘ra boboning otida chopishni azm etdim.

— Ko‘zingga qarab chop! — dedi Jo‘ra bobo.

Ko‘nglimga yanada hadik tushdi. Telpagimni qoshimgacha bostirib, ko‘zimni kundan pana etdim. Ichimda kalima qaytardim. Surpday oppoq dashtda uymalashayotgan qop-qora to‘daga qarab yurdim.

Chavandozlar bilan otlar nafasi bug‘lanib-bug‘lanib yoyildi. Otlar chopishini ko‘rib, otlarga rahmim-da keldi, kulgim-da keldi. Otlar oyog‘ini qordan zo‘rg‘a oldi. Tor-tor odim otdi. Yo‘rtib yurayotganday bo‘ldi. Zabtli-zabtli chopolmadi. Oyog‘i qorga botib-botib qoldi.

Qor, ot ko‘zini shafaqlatdi, ot ko‘zini oldi.

70

Uloqqa ko‘nglim chopmadi. Chetroqda tomoshago‘y bo‘lib turdim.

Shunda, ajab bir chavandoz ko‘rdim. Qo‘limni qoshim ustiga qo‘yib ko‘rdim.

Chavandoz ostidagi ot maydagina, yermitti ot bo‘ldi. Sariq junlari buzoqnikiday uzun-uzun bo‘ldi.

Uzangisiz shekilli, chavandoz oyog'i qorga shalvirab-shalvirab turdi.

Kulgim keldi. Bu chavandoz kim bo'ldi ekan, deya yaqinroq borib qaradim. Chavandoz betiga qarab, angrayib qoldim. Kulgim qochib ketdi. Bu chavandoz... o'sha qatron kal bo'ldi! Qatron kal bu yoqlarda nima qilib yuribdi?

To'da naryog'ida turgan Jo'ra bobo oldiga bordim. Jo'ra bobodan so'radim!

Jo'ra bobo qo'l siltab javob berdi.

— Bir yaxshiga bir yomon har yerda bor. Darrov tanidingmi?— dedi.

— Kalladosh bo'lgandan keyin taniymiz-da...— dedim.

Qabatimdagi birov gapga aralashdi:

— Shu, boshqarmaning eski boshlig'imi? O'zim ham aytdim-a, bir gap bor deb.

— Nima bo'pti?

— Kal deganimni ko'nglingizga olmang-u, Ziyodulla chavandoz, bu kalning yuzi qursin! Ana, xalqning qarg'ishi urdi!

— Indamagin kalga — o'zi kelar holga, deydilar.

— Otangizga rahmat. Ana, ko'chada itday tentirab qoldi.

— Nima, sizlarga-da kelib edimi?

— Eha, siz so'ramang, men aytmayin! Otlarni qiyratib ketdi! Shu to'y xo'jasi oshnasi bo'ladi, buniyam oti qolmadi! Bechora o'shanda oti ketidan yig'lab qoldi! Kal endi to'yiga kelib o'tiribdi! Bilmayman, qaysi yuz bilan keldi. O'zi, kallasi bilan yuzining farqi yo'q ekan...

— Unga o'zi otni kim berdi?

— O'zi so'radi. O'zi dir-dir qaltiraydi, botinkasini botinkasiga uradi. G'irt mast! Hojiqulboy ham bopladi! Hurmat qilgan bo'lib, bir eshakday otni o'ngladi. Siz kattasiz, yaqinroqdan borib ko'pkarini nazorat qilib turing, dedi. Bechora ishonib, ko'pkariga rahbarlik qilgani keldi.

— Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi...

Chavandozlar otini zo'r berib niqtadi, sag'risiga qamchi bosdi. Hayqiriqlar berib, uloqqa chorladi.

Bakovul to'dani aylanib, haybarakallachi bo'ldi:

— Ot qo'y! Ha, ot qo'y!

Qatron kal, hayqirib chorlayotgan chavandozlarni tartibga chaqirib turdi:

— Shovqin, o'rtoqlar, shovqin! Shovqin kamroq bo'lsin! — dedi.

Bir chavandoz oti uloqqa bora bermadi. Shunda chavandoz otini qamchi ostiga oldi.

— He, padar la'nati! Mana, bo'lmasa, mana! — dedi.

Qatron kal chavandozga ogohlantirish berdi:

— So'kinmang, o'rtoq chavandoz! Bu yer jamoat joyi! — dedi.

Chavandoz eshitmadi.

Ammo bakovul eshitdi. Qatron kalga xo'mrayib-xo'mrayib qaradi.

— Kal o'zini ovutar — qo'ltig'ini sovutar, degani shu-da, deya to'ng'illadi.

71

Birodarlar, ko'nglimda armon bolaladi!

Tarlon yaxshi bo'lsa edi, uloqqa solardim... Qatron kalga bir ko'rsatib qo'yardim...

Jo'ra boboning To'rig'i gijingladi. Jilovni silkib, uloqqa talpindi. To'riq uloq ayirgisi keldi! Bunday vaqtda otni yo'ldan qayirish insofdan bo'lmaydi. Otni suvga olib borib, quruq qaytarib kelish bo'ladi. Oqibat, ot yomon o'rganadi. Uloqdan, chavandozdan ko'ngli qoladi.

Jo'ra boboning To'rig'i jilovni tag'in silkidi. Shunda, to'daga soldim.

Uloqni bir saman Burnoch bilan baravar olib chiqdim! Saman Burnoch abjirroq bo'ldi, yo'lini burib soldi.

Uloqqa ushlashib bora berdim. Bir mahal qo'lim sovuqqa qotib, uloqdan chiqib ketdi.

Shunday bo'lsa-da, Jo'ra boboning oti Burnochdan qolmay chopdi. Uloq bilan oramiz bir qulochcha bo'ldi. Ketimizdan otlar chopib keldi. Bunday vaziyatda uloqqa uzalish qaltis bo'ladi. Boi-

si, ketimizdan kelayotgan otlar abjirrog'i oramizga yorib kiradi, uzalgan qo'lni sindirib yuboradi...

Shu boisdan uloqqa qo'l uzatmadim. Jo'ra boboning otini burib ketdim.

Men endi qizib boshladim. Badanim jimirlab, varaja qildi. G'ayratim keldi.

Uloqni bir Buyra ot ko'tardi.

Junlari qo'zichoq junlariday jingala-jingala, ko'zlari olako'z-olako'z otni ko'rib edingizmi? O'lmang! Buyra ot ana shu! Buyra ot olako'z bo'ladi!

Bu safar Jo'ra boboning oti uloqqa jipsroq chopdi. Uloqdan bir qadamcha keyinda, Chil ot sag'risi baravar chopdim.

Bunday vaziyatda uloqqa uzalish o'ta, o'ta qaltis bo'ladi! Boisi, bordi-yu, uloqni yulib olsam, uloq kelib otimning ko'kragiga, undan keyin tizzalariga zabtli kelib uriladi. Oqibat, ot qoqilib yiqiladi!

Bunday uloqni olishning yaxshi yo'li bor. O'zib o'tayotib, haha, o'zib o'tayotib, uloqni yulib olib ketish lozim bo'ladi.

Shunday qilmoqchi bo'ldim. Uloqni uzalib ushlab, Jo'ra boboning otiga qamchi bosdim. Ammo Jo'ra boboning oti bizning Tarlondayin olg'a emas, yoniga burib soldi.

Uloq mening qo'limga o'tdi. Uloqni dast ko'tarib ololmadim. Uloq Jo'ra boboning oti ko'kraklariga, undan o'tib, old oyoqlariga zabtli kelib urildi. Jo'ra boboning oti bir munkidi. Endigi munkishida oldiga egildi.

Qo'limda uloq bilan ot boshidan oshdim...

72

G'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovoz eshitdim.

Ko'zimni ochib, osmonrang olamni ko'rdim. Yaxshilab qaradim, ko'rayotganim osmonning o'zi bo'ldi.

Hayron bo'lib, tevaragimga alangladim. Tevaragimda Jo'ra bobo bilan besh-olti uzangi yo'ldoshlarim turibdi. Oyog'im tarafda otlar turibdi.

Uzangi yo'ldoshlarim jonlandi.

— Ko'zini ochdi, xayriyat-e,— dedi.

— O'ziga keldi, betiga yana qor surtinglar.

— Ziyodulla chavandoz, qalay, suyaklar yengilmi?

Shundagina nima gapligini bildim. Joyimdan turmoqchi bo'ldim. Uloq ushlagan o'ng qo'lim qimirlamadi. Go'yo joni yo'qday bo'ldi. Bor kuchim bilan intildim. O'ng qo'lim zirillab og'ridi. Ko'z oldim xira bo'ldi. Oppoq qor, qop-qorayib qoldi...

— Turaman deyapti, turg'izinglar.

O'zimga kelib, ko'zimni ochdim. Oyoq tarafimdagi otliqlardan birovi qatron kalligini bildim. Qatron kal betiga sinchiklabroq qaradim. Kal yuzlarida xushvaqtlik bo'ldi, tabassum bo'ldi. Kal — kalga kuldi!

Qatron kal tevarakdagilarga qarab gapirdi:

— Men bundan ko'p yillar muqaddam aytganman, ko'pkari eskilik sarqiti, salomatlik dushmani, hayot uchun xavfli deb! Mana isboti! — dedi.— Mana shu otini go'shtga bermay, men bilan qonunlashgan! Mana oqibati! Go'shtga topshirib yuborganida bunday falokat bo'lmas edi! Ana endi mayib-majruh bo'lib qoladi, tamom!

— Yaxshi otdan yiqilsa, yomon ta'nachi bo'ladi!

Bu gapni Jo'rabobo aytdi. Bobo bir o'q bilan ikki quyonni urdi!

Men og'zimda qo'lansa bir nima tuydim. Jag'larimni qimirlatdim. Bir nima g'ijirladi. Tilim uchi tishlarim orasiga kirdi. Barmog'imni og'zimga solib ko'rdim. Barmog'im qon bo'ldi. Yonimga yashirib, o'ngirimga artdim. Bildim, og'zimdagi qo'lansa is qon bo'ldi. Lunjlarimda g'ijirlab o'ynayotgan tilim bo'ldi. Tilim uchi kirib chiqayotgan kavak tishim joyi bo'ldi.

Ko'nglimda nimadir bir nima qo'zg'oldi. Kuchanib-kuchanib, bor vujudimni tarang etdim. O'ng qo'lim zir-zir og'ridi. Chap tirsagimga suyanib qo'zg'oldim.

Uzangi yo'ldoshlarim qo'ltig'imdan oldi.

Bir amallab joyimdan turdim. Boshim aylanib-aylanib ketdi. Ko'z oldim zim-ziyolandi. Tishimni tishimga qo'yib kuchandim. Tosh bo'ldim! Olam yana asliga keldi.

Og‘zim limmo-lim qon bo‘ldi. Sag‘al xayolladim, og‘zimdan otilib ketaman-otilib ketaman, dedi. Qayerga tupurishimni bilmadim. Tevarak oppoq, tupursam, qor qip-qizil bo‘ladi. Keyin, Qatron kal qonni ko‘radi...

Mening ko‘zim Qatron kalda, Qatron kal ko‘zi menda bo‘ldi!

Bo‘lmadi, bo‘lmadi! Og‘zimdagi qonni tishim bilan qo‘shib, ichimga yutib yubordim! Yana bir yutinib, qolgan qonlarni-da yutdim!

73

Kiprik qoqmay, alp-alp odim otib, Jo‘ra boboning oti oldiga bordim. Chap qo‘lim bilan egar qoshidan olib otlandim. Shunda, o‘ng qo‘lim yomon og‘ridi...

Jilovni chap qo‘llab ushlab, to‘daga yurdim. O‘ng qo‘limni qimirlatmadim.

Ulog‘ini berib qo‘ygan chavandoz ko‘ngil so‘radi.

— Qalay, chavandoz, biron yeringiz lat yemadimi?— dedi.

Kulimsirab, sog‘ qo‘limni siltadim.

— Mijjamga-da kelmadi. Ust-boshimga sag‘al qor ilashdi,— dedim.

Hamon angrayib qarab turgan Qatron kal, gaplarimni-da angrayib eshitdi!

Zirq, zirq! Uh qo‘lim-a, qo‘lginam-a!..

O‘ng qo‘limni avaylab, qo‘ynimga soldim. Biroz orom oldim.

Uloq ko‘tarildi. To‘da ketidan chopdim. Beixtiyor qo‘limni qo‘ynimdan oldim.

Zirq, zirq! Uh!..

Uloq kimda ketdi, bilmadim. Otlar ketidan shunchaki chopib bordim.

Qo‘limni yana qo‘ynimga soldim. Jo‘ra boboning otini uloqqa niqtadim. To‘riq zor bo‘lib turgan ekan, shekilli, to‘dani yorib kirdi-qo‘ydi! Ich-ichimdan zil ketdi! Endi uloqni qanday ko‘taraman?

Nima qilishimni bilmay, gangib qoldim. Bovujud, bir Saman yo‘limizni yopib oldi. Jo‘ra boboning oti uloqqa borolmay qoldi.

Shundagina ko‘nglim tinchidi. Yengil nafas oldim. Samanga qarab, boringga shukur-e, dedim.

Zirq, zirq!..

Boshqa vaqtlari ana shunday qarab tursam, uloq men tarafga kelmaydi. Kelib-kelib, uloq ayni shunday vaqtda menga qarab yursa bo'ladimi! Men uloqqa zormidim, dardim uloqmidi...

Ana, uloq keldi! Barcha qarab turibdi. Ayniqsa, Qatron kal!

Men tishimni tishimga qo'ydim. Og'riq qo'limni uloqqa uzatdim. Bor kuchim bilan butidan changallab ushlagan bo'ldim. Aslida, barmoqlarimni uloq junlariga shunchaki tegizib turdim!

Zirq, zirq!..

Go'yo uloqni olib ketmoqchiday bo'ldim. Jo'ra boboning otiga ayqirib qamchi bosdim.

— Ha, jonivor-a! — dedim.

Jo'ra boboning oti uloqdan keyinda qolib ketdi.

Men xo'jako'rsinga bosh irg'adim! Qamchili qo'limni alamli siltadim. Go'yo, hay, attang-a, omad kulib boqmadi, dedim. Omaddan noligan bo'ldim.

Zirq, zirq!..

Xayriyat, xayriyat-e, ko'pkari sob bo'ldi!

74

O'zimizning Tarlonni minib, uyga keldim.

— Chopib borib, do'xtirni aytib kelinglar! — dedim.

Xudoyqul do'xtir bir quticha ko'tarib keldi. Og'riq qo'lim yengini silkib tortdi.

Men ingrab yubordim!

Zirq, zirq!..

Yengim hadeganda sug'urila bermadi. Shunda, Xudoyqul do'xtirga pichog'imni olib uzatdim.

Do'xtir yengimni pichoq solib ayirdi.

Tirsagim yo'g'onligi sog' tirsagimdan uchov keldi! Tirsagim tirsillagan shish bo'ldi!

Xudoyqul do'xtir bosh chayqab-bosh chayqab, meni mashinasiga soldi "Hazorbog'" sovxozi bemorxonasiga olib bordi.

Do'xtirlar shishgan qo'limni bir apparat ostiga qo'yib ko'rdi.

— Qo'rqmang, tirsakdan chiqibdi, xolos, — dedi.

Qo'rqarmidim-e, qo'rqarmidim! Qo'lim chiqqanini otdan yiqiliboq bilib edim!

Birodarlar, og‘zing qora qon bo‘lsa-da, g‘animing oldida tupurma!

75

Shu yotishimda yigirma kundan ko‘p yotdim.

Nihoyat, do‘xtirlar gipsni oldi, uyga javob berdi.

Ko‘ngil so‘rab keluvchilarga qo‘limni yalang‘ochlab ko‘rsatdim. Hasan bobo qo‘limni aylantirib ko‘rdi.

— Eb-e, qiyshiq-ku! — dedi Hasan bobo.

— E’tibor berib qaradim, qo‘lim chindan-da tirsagimdan qiyshiq bo‘ldi.

— Qurbon tabibga bor, nima gapligini aytadi, — dedi Hasan bobo.

Ertalab Tarlonni mindim. Qoraxonga yo‘l oldim.

76

Bir vaqtlari Qoraxonda Xidir degich bo‘ldi. Odamlar uni Xidir mirob, dedi. O‘zi, miroblik qilardi-da!

Ana shu Xidir mirob chiqqan suyaklarni joyiga soldi, singan suyaklarni davoladi.

Shu odam ketdi! Qayoqqa? Qayoqqa bo‘lardi, qiyomatga-da!

Shunday odam-da ketdi-ya! Hech ishongim kelmaydi! Men, bunday odamlar dunyo turgunicha turadi, deb o‘yladim. Keyin-keyin bilsam, birov-da bu dunyoga ustun bo‘lolmas ekan...

Qurbonnazar degan o‘g‘il qoldi. Qurbonnazar otasining qo‘lini olib qoldi. Otasi og‘ziga tupurgan bo‘lsa, ajab emas!

O‘zi, rais! Lekin men raisman, demaydi! Kattaga-da bir, kichikka-da bir!

Shu odamning darvozasini qamchi dastasi bilan taq-taq urdim. Ichkaridan bir zaifa chiqdi.

— U kishi ishdalar. Kirib o‘tirib turing, hamzamat kelib qoladilar,— dedi zaifa.

Qurbonnazar mehmonxonasiga salom berib kirdim. Zaifa dasturxon yozib ketdi.

Choyni o‘zim quyib, o‘zim ichib o‘tirdim.

Qurbonnazar ukamiz keldi.

Quchoqlashib ko'rishdim. Taomlardan keyin dardimni aytdim.

Qurbonnazar dasturxon chetini qayirib qo'ydi. Oldimga siljib keldi.

— Qani, yeching qani,— dedi.

Qo'limni yalang'ochlab tutdim. Qurbonnazar qo'limni aylantirib ko'rdi, u yoq-bu yog'ini ko'rdi. Yelkamdan barmoqlarim uchigacha siladi. Bo'g'inlarim qo'shilish yerida sabr qildi. Ayniqsa, tirsagimda ko'p sabr qildi. Ko'zlarini yumib turdi.

Xayolimda Qurbonnazar tirsagimdan bir nimalarni eshitdi. O'zicha bosh irg'adi. Yana eshitdi. Ko'zlarini yumib eshitdi.

Hayron bo'lib qoldim. Avvalambor, tirsagim nag'ma chalayotgan radio emas, televizor-da emas! Bor-yo'g'i et bilan suyak! Yana aytsam, eshitgan odam qulog'i bilan eshitadi-da! Nima, qo'li bilan eshitadimi?

Lekin bu gaplarni Qurbonnazarga aytmadim. Ichimda aytdim. Qani, nima deyar ekan, deb sabr qildim.

— Bekor ovora bo'libsiz-da. Sag'al lat yegan ekan, yaxshi bo'p ketibdi. Do'xtirlarning gipsi tuzatibdi,— dedi Qurbonnazar.

— Men sizga aytsam, kelmas edim, Hasan bobo qo'ymadi, borchi bor, deb.

— Ha, mayli. Kelganingiz yaxshi bo'pti. Shu bahona bir mehmon bo'p ketasiz. Qani, yoting, bir muolaja qilib qo'yayin. Yana qaytib lat yemaydigan bo'ladi.

Men ko'rpachaga cho'zildim, yostiqqa bosh qo'ydim. Qurbonnazarga qo'limni berib, shipga qarab yotdim.

Qurbonnazar barmoqlarim uchidan boshlab uqaladi.

— Ko'zingizni yuming, yaxshi bo'ladi,— dedi Qurbonnazar.— Ha, ana shunday! Endi, pinakka keting! Go'yo uxlayotgan bo'ling. Qo'lingiz pishiq suyakli ekan. Ilgarilariyam otdan yiqilib, lat yeganmisiz?

— Yo'q,— dedim.

— Nimaga kelib-kelib, endi shunday bo'ldi?

— Ot o'zimniki emas edi. Jo'ra boboning oti menga tushunmadi, men otga tushunmadim. Oqibati mana shunday bo'ldi.

— Ha-a, o'zingizning otingiz qayerda edi?

— Bizning Tarlonga suv tushib edi.

— Otga suv tushishini-ku, bilaman. Ot oyog'iga yem tushdi, degani nima degani?

— Ot oyog'iga yem tushsa, oyog'i qotib qoladi. Paylari dirillab-dirillab uchadi.

— Ha-a, har ikkovidayam ko'pkariga chopib bo'lmaydi-ya?

— Esa-chi.

— Qora ot yaxshi bo'ladimi, yomon bo'ladimi?

— Yomon bo'ladi. Qora ot o'jar, serjahl bo'ladi.

— Ha-a. Seton-Tompson ham shunday yozgan. Demak, chin ekan-da.

— U chavandoz qayerdan?

— U chavandoz emas, kanadalik yozuvchi. O'zining "Yovvoyi yo'rg'a" degan kitobida shunday yozgan.

— Kim bo'lsa-da, otni bilar ekan.

— Ot xomlab qoldi, deydi, u nima degani?

— Unda, ot moy tashlaydi. Keyin, ko'pkariga yaramay qoladi. Boqilgan otni bilib-bilmay chopib qo'ysangiz, ot ichida moy to'lib qoladi. Bunday otni-da bir yilgacha ko'pkarida chopib bo'lmaydi.

— Ha-a. Ot odamni bosmaydi, nimaga shunday?

— Boisi, ot odamzodni ulug'laydi. Odamzodga vafo qiladi. Hayvonlar ichida ot bilan it shunday. Pishakni-da shunday deyishadi. Men bu gapga qo'shilmayman. Pishak suyuqoyoq ayolday gap. Kim qornini to'yg'azsa bo'ldi, pish-pish, deya boshini silasa bo'ldi, ketidan ergashib keta beradi. Eshak egasini tanimaydi, pishak bekasini tanimaydi. Keyin, ot joyida taqqa to'xtay oladi. Eng yaxshi mashina qaysi mashina? O'lmang! Ot tormozi, ana shu "Chayka" tormozidan-da yaxshi ishlaydi. Oldida odam borligini ko'rdimi, bo'ldi, taqqa to'xtaydi. Bordi-yu, dovdirab qolsa, odam ustidan oshib o'tadi.

— Ha-a. Aytishlaricha, ayol boqqan ot yaxshi bo'lar emish. Shu chinmi?

— Esa-chi. Boisi, ot sarali kam odamday bo'ladi. Qonida pichagina devning qoni bor, xolos. Otga yem bergani borsak, u hamisha bizga suykanadi, erkalik qilgisi keladi. Bizni iskaydi, dumi bilan yelkamizga uradi. Shunda biz uni tek o'tir-e, sabil

qolgur, deb qamchilaymiz. Bu qilig'imiz otga malol keladi. Ayol bizga nozlanib suykalsa, shunda uni jerkib tashlasak, ayolga qanday malol keladi? Ot ham shunday-da! Ot ko'ngli ayol ko'ngliday nozik bo'ladi. Ayollar bo'lsa, otni urmaydi, otning erkasini ko'taradi. Ayolning muloyim tabiati otga xush kelib qoladi. Ayol boqqan otning yaxshi bo'lishiga yana bir sabab, ayol hamisha uyda bo'ladi. Ayol ichkari kiradi, tashqari chiqadi. Otning ko'zi ertadan kechgacha ayolga tushib turadi. Ayol ot kishnaganda darrov yemini beradi, suvini beradi. Biz erkaklarning bo'lsa, uyda borligimizdan, uyda yo'qligimiz ko'p bo'ladi. Aaay, o'ldim-e!..

Tirsagimda bir nima qirs etdi. Vujudim qizidi, peshonamdan ter chiqdi. Qurbonnazarga qaradim. Qurbonnazar kulimsib turibdi.

— Ana endi qo'lingiz yaxshi bo'ldi,— dedi Qurbonnazar.

Ana shundagina Qurbonnazar meni jo'rttaga gapga solib, meni gap bilan alahsitganini bildim.

Meni aldab-avraganini bildim...

Xiyla yotdim. Og'riq tindi. Shundan keyin joyimdan turdim.

Qurbonnazar qo'limni ipga solib, bo'ynimga osib qo'ydi. Dorida ichirmadi, igna-da suqmadi, rasmga-da tushirmadi.

— Vrachlar qo'lingiz chiqqanini ko'rib-bilib gipsga solgan, — dedi. — Vrachlar hamisha shunday qiladi. Kitoblarda shunday yozilgan-da. Agar kelmaganingizda qo'lingiz hadeb qo'zg'ala berib-qo'zg'ala berib, o'ynama bo'lib qolardi. Endi butunlay bitib, asliday bo'ladi. Oz-ozdan mo'miyo tanovul qilib turing, suyakka madad bo'ladi...

Oqshom qo'nguncha gurunglashib o'tirdim. Keyin, otlanib qaytdim. Qaytayotganimda Qurbonnazar bot-bot tayinladi:

— Tag'in, qo'lingizni solganimni birovga aytib yurmang. Yaxshi bor, yomon bor...— dedi.

Uyga borgunimcha o'ylab bordim. Ay, do'xtirlar-e, nimaga qo'lim chiqqanini ko'ra-bila turib gipsga solding? Ko'ra-bila turib qotirib tashlading? Bilasan, chiqqan suyak joyiga tushmasa, hadeb qo'zg'ala beradi! Odamni yarimjon qilib qo'yadi! Umr bo'yi qiynaydi! Bilmasang, Qurbonnazardan so'rab bil! Yo Qurbonnazar tabibga bor, de! Chopib kela beraman!

Bovujud, Qurbonnazarlar bor... Hali-hali Qurbonnazarlar bor, keyin-keyin nima qilamiz?..

77

Birodarlar, uchastka militsionerimiz odam bo'lib qoldi!

Ha, odam bo'lib muomala qildi, odam bo'lib gapirdi.

— Qanday, jiyanlar katta bo'layaptimi, suyaklar yengilmi, aka?.. — dedi.— Shukur, shukur,— dedim.

— Ikki marta kelib-ketdim...

— Ayolimiz aytdi, yo'qladi, dedi.

— Chavandozchilikda shunday-shunday bo'ladi-da, aka. Odamlar samolyotdan tushib ketayapti. Siz yiqilsangiz, otdan yiqilibsiz-da.

— Shunday, shunday.

— Qalay, endi tuzuk bo'p ketdingizmi, aka?

— Shukur, shukur.

— Unda, rayondan bir xabar oling, aka. Kapitan ko'p so'radi, aka.

— Maylingiz, inim, maylingiz.

Endi, bir dushman ko'zi qilayin, dedim. Qo'limdan ipni olib tashladim. Qo'limni qo'ynimga solib oldim.

Otlanib, rayon bordim.

Kapitan katta eshigidan ichkariladim. Ichkarida o'sha beqasam choponlik odamni ko'rdim. Bechora, yuzlari yarasi hali-da bitmabdi, bechora...

Beqasam choponlik meni tanimadi. Kapitan katta tanittirdi.

Shunda, beqasam choponlik meni bot-bot bag'riga bosdi. Kipriklari nam bo'ldi...

Biqinma-biqin o'tirib dardlashdim. Zot-boborakotini, mazgilini so'radim. Beqasam choponlik "Navoiy" kolxozidan bo'ldi, oti Rahmon bo'ldi.

Rahmonboyning ko'ngli buzildi. Ovozi qaltirab chiqdi:

— O'la-o'lgunimcha sizga qulluq qilib o'taman, mana ko'rasiz,— dedi.

— Unday demang-e, nima karomat ko'rsatdimki, menga qulluq qilasiz,— dedim.

Kapitan katta ishlarini aytib bordi. Ishlar deyarli hal bo'libdi. Bezorilarni ushlab, Rahmonboyga yuzma-yuz qilibdi. Rahmonboy shular edi, debdi. Lekin bezorilar tonibdi, aybini bo'yniga olmabdi.

Gap menda qolibdi.

— Hozir olib keladi, — dedi kapitan katta.

Aytganiday bir militsioner bo'zbolalarni haydab keldi. Birovi o'tirmoqchi bo'ldi.

Kapitan katta:

— Tur, tur deyman! — deya baqirib berdi.

Bo'zbola qo'llarini qovushtirib qotib qoldi.

— Manavi odamni taniysanmi?! — dedi kapitan katta.

Bo'zbolalar men tarafga sigir qarash qildi.

— Tanimaymiz, — dedi.

Kapitan katta menga yuzlandi.

— Shularmi? — dedi.

— Shular, ha shular,— dedim.

— Olib keting bularni! — dedi kapitan katta.

Militsioner bo'zbolalarni haydab ketdi.

Kapitan katta menga javob berib yubordi.

— Xo'sh, sizga katta rahmat, aka. Tergov tugagach, deloni sudga oshiramiz. Sud kuni bordi-yu chaqirsalar, bir kelib keting.

— Men sizga aytsam, kapitan kata, shuncha kun mazam bo'lmadi. Sherigim mening navbatimda-da qo'y boqdi. Odamning yuzi chidamayapti...

— Xo'sh, tushunaman, aka, tushunaman. Siz sudda bo'lmasangiz ham bo'ladi. Lekin anavi tirriqlar ko'p ishlarni bo'yniga olmasligi mumkin. Ish yana lanj bo'ladi. Siz sudda savol tug'ilganda ha yo yo'q deb tursangiz bo'ldi. Sizdan boshqa jonli guvoh yo'q. Mana shu birodaringiz uchun yana bir kelasiz, endi.

Birodarlar, kapitan katta jon joyimdan ushladi! Bilibmi, bilmaymi, ishqilib, birodaringiz uchun, dedi! Shu gap ko'nglimni oldi! Rahmonboy birodarimizni deb, yo'q demadim.

Rahmonboy birodarimiz meni uyiga yetakladi.

— Mazam yo'qroq, boshqa vaqt borarman, birodar, — dedim.

— Unda biror kun o'zim uyingizga boraman, to'n yopishib, og'a-ini bo'lamiz, — dedi.

— Shunday-da og'a-ini, birodarmiz, — dedim.

Militsiya mashinasi eshigimizga kelganini el bildi.

Birodarlar, elining qulog'i ellikta!

El ajablandi, el hadiksiradi...

Duv-duv gap bo'ldi...

Birodarlar, yomon gap, raketadan oldin yuradi, yaxshi gap, toshbaqadan keyin yuradi!

Xufton vaqti-xufton vaqti uzangi yo'ldoshlarim bilan hamsoyamiz Rixsiyev ko'ngil so'rab keldi.

Ayolimiz dasturxon yozdi.

Bo'lg'usi bojamiz Odina chavandoz ayolimizdan nam tortib, yerga qarab o'tirdi.

Uzangi yo'ldoshlarim gapni nimadan boshlashini bilmadi. Istihola qildi.

Shunda, Rixsiyev gapni indallosidan boshladi:

— Sizni militsiya mashinasi uyingizdan olib ketibdimi, o'rtoq Qurbonov?— dedi.

— Bekor gap-e!— dedim.

— Ana, hamma shunday deyapti-yu?

— Olib ketgani yo'q, aytib ketdi. Men avtobusda bordim,— dedim.

Farosat etsam, el og'zida ko'p gap bo'libman. Elga bir gap tegmasin. Chibinday gapni tuyaday qilib gapiradi. El og'ziga elak tutib bo'lmaydi. Endi bor gapni aytayin...

Aytib-aytib berdim. Bir gapni-da qoldirmadim!

Uzangi yo'ldoshlarim dildo'z so'zlar aytdi, dildo'z gaplar aytdi.

— Xo'p juvonmardlik bo'pti-da!— dedi.

Rixsiyev bolishdan tirsagini oldi. Chavandozlarga sigirqarash qildi.

— Katalizatorlar!— dedi.— Bu sargardonlik-ku, sargardonlik!

— Sargardonligi bo'ptimi, shu bahona Tarlon ikkovimiz shaharni sayil qilib kelayapmiz,— dedim.

— Aha, u falsafangizni boshqalarga o'qing, o'rtoq Qurbonov. Sayil emish! Bunday ishlar turgan-bitgani g'alva, sargardonlik!

— Sayil-da — sayil, sargardonlik-da — sayil.

— Siz endi ko'rayotgandirsiz-da? Aha, men shaharda yashayotganimda bunday ishlarning bir nechtasiga duch kelganman. Sizdan yaxshi bilaman, oqibati nima bo'lishini! Bir dam olishda bizni paxtaga olib bordi. O'zingiz bilasiz, bir kunlikka borgan hasharchilar paxta termaydi. Ichib, kayf-safo qilib qaytib keladi. Men ham tagimga qo'yish uchun ikki kilocha paxta terib, etagimdagi paxtaga yonboshladim, mudrab yotdim. Shunday pastimdan bir daryo loyqa suv oqayapti. Shunda, daryo bo'yida ikki-uchta qora ko'rindi. Ko'zimni kattaroq ochib qaradim. Bizning hasharchilar emas, shu yerning yigitlariga o'xshadi. O'zlaricha bir-birlarini turtkiladi. Hazillashayapti, deb o'yladim. Aslida urishayapti ekan. Ikkitasi bittasini o'rtaga olib urdi. Tayoq yeyayotgani yoqalab qochdi. Daryo ustidan bir ingichkagina truba o'tar edi, shu trubadan qochdi. Truba o'rtalarida muvozanatini yo'qotdi. Goh o'ng, goh chap qo'lini ko'tarib-ko'tarib, suvga tushib ketdi. Boshqalari qochdi. Bola suv yuzida goh ko'rinib, goh yo'qolib oqdi. Boshi ko'ringanda dodlab baqirdi.

— Siz ko'rib turdingizmi?— dedim.

— Bo'lmasam-chi! Shunday oyog'im ostidan oqib o'tdi! Suzishni bilmas ekan-da, bo'lmasa, suv sekin edi, bemalol suzib chiqsa bo'lardi. A? Yo'q, pastroqda bir operator yigitimiz ovozini eshitib qolib, o'zini suvga tashladi. Sudrab olib chiqib, oyog'ini osmonga ko'tardi. Baribir kech bo'ldi, bola o'lib qoldi... Ishonasizmi, shu operator yigitimiz bir oydan ortiq organga qatnab, so'roq berdi! Ona suti og'ziga keldi! Ko'r bo'l, dedim, o'zini-bilmaganning kuni — shunday bo'ladi, dedim. Dunyo shunday, o'rtoq Qurbonov, o'zingizni biling, o'zgalarni qo'ying!

— Ha-e, taqdir peshona ekan-da. Olamda nima gap?

— Olamda gap ko'p, o'rtoq Qurbonov. Xalqaro vaziyat tobora keskinlashib borayapti. Tinchlik xavf ostida...

— Kim xavf solayapti?

— AQSH imperialistlari! Buni xalqaro panoramada o'rtoq Zorin ham aytib o'tdi. Aha, "Za rubejom"da ham yozibdi. Mana, faktlarga murojaat qilamiz. AQSH ma'muriyati 1983-yilda 810 million dollar miqdorida ximiya-bakteriologiya quroli ishlab chiqarishni planlashtiribdi.

— U qanday miltiq?

— Aha, miltiq emas, zaharli ingrediyent.

— O'zimizning dehqonchasiga gapiring. Biz bir iyig'i chiqqan kal bo'lsak, unday gaplarni qayerdan bilamiz.

— Aha, ingrediyent bu, ikki xil suyuq moddadan tashkil topgan zaharli dori. Miyani shol qilibn tashlaydi. Aha, o'n-o'n besh daqiqa ichida vafot etasiz!

— Shuni inson o'ylab topdimi? Odamzodni qirish uchunmi? Yo, tavba! Biznikilar nima deyapti?

— Aha, bizning hukumatimiz tinchlik posboni bo'lib keldi, bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi!

79

Uzangi yo'ldoshlarim uy-uyiga ketdi.

Ayolimiz dasturxon yig'ishtirdi.

Kenjamizni qo'limga berdi.

— Manavini picha ushlab tursin, qozon-tobog'imni yuvib olayin, — dedi. Kenjamizni tizzamga oldim.

Kenjamiz dasturxon olib ketayotgan onasiga jimit qo'llarini cho'zib ingilladi.

— Ing-ing-ing!... — dedi.

— Bo'ldi, ena hozir keladi! — dedim. — Hay, anavi suratdagi kim? Aka-ya? Aka de, aka!

Kenjamiz ovunmadi. Ingillay berdi.

Shunda kenjamizni tizzamda tebratib suydim:

Kelgin, bolam, tizzamga,
Yol bo'larsan o'zimga.
Quloq solgin so'zimga,
Huyyo, bolam, huyyo!..

Birodarlar, kuygan — o'lanchi bo'ladi, suygan — laparchi bo'ladi?

O'z-o'zimdan kuyib-kuyib, ich-ichimdan kuyib-kuyib, kenjamizni suyib-suyib, o'lanimni aytib qo'ya berdim:

Jonim bolam ot chopsin,
Otiga baxmal yopsin.

Huyya solsin otasi,
Orqasidan yol topsin,
Huyyo, bolam, huyyo!..

— Ay, enasi-ya, kel, ulimga mamma ber! Ulim mammasirab qopdi.

Ana, aytdim, ena hozir keladi, mamma beradi!

Bolam, sen ham botirim,
Chopib kelayotirim.
Cho'pon bo'lsang qo'ylarga,
Boqarsan o'tloq, soylarga,
Huyyo, bolam, huyyo!..

— Bo'ldi-ye, enag'ar! Og'zim bor deb ingillay berasanmi! Og'iz bir senda bormi? Mana, bizda-da bor! Nimaga biz ingillamaymiz? Izzatingni bil-da! Yo, o'zingdan ketayapsanmi? Qani o'sha otlaring, qo'ylaring? Hovlidagilarni aytyapsanmi? Eb-ey, eb-ey, ular sening bovangdan qoldimi? Ular mening otamdan qoldi! Ular meniki, bildingmi?

Huyyo-huyyo, huyyong qani?
Bovang bergan tuyang qani?
Bovang bergan tuyang bo'lsa,
Boqib yurganlaring qani?
Boqib yurgan tuyang bo'lsa,
Adir ham cho'llaring qani?

— Ana, bo'lmasa, ukkag'arning kenjasi! Mard bo'lsang, javob ber, ukkag'arning kenjasi! Ana sasing chiqmay qoldi-ku! Ingillaysan-a, ingillaysan! Ha? Ha-ha-ha! Sho'xlashdim, ukkag'arning kenjasi, sho'xlashdim! Sho'xlashishni-da bilmaysanmi. Ulim manavi uylar-da, qo'tondagi qo'ylar-da, osmondagi oylar-da, ko'pchib yotgan yerlar-da, bari-bari seniki! Bor-ye, Tarlonni-da berdim, bor-e! Ol-e, ukkag'arning kenjasi-ye, ol-e!..

Huyyo qilay, huydada,
Oting solgin to'daga.

Huyyo qilsam, uxlagin,
Otang sendan sadag'a
Huyyo, bolam, huyyo-iii!..

— Ulim, bir nima esingda bo'lsin. Gagarinday boshing osmonga yetsa-da, olim bo'lib yetti iqlimni so'rasang-da, sen avvalombor Ziyodulla chavandozning uli bo'l! Mening ulim bo'l! Menday bo'l, menday! Menday bo'lasan-a, ayt, menday bo'lasan-a?

80

Suddan qog'oz keldi.

Oyog'im tag'in uzangida bo'ldi, organ yo'lida bo'ldi.

Bora-borgunimcha Yaratganning o'ziga sig'inib bordim. Shu yurishimni bo'ldi qil endi, meni bunchalar jonhalak qilma endi, deb bordim.

Sudda odam serob bo'ldi.

Bir tarafda urgan bo'zbolalar, bir tarafda Rahmon birodarimiz o'tirdi.

Kattalar yuqorida bo'ldi.

Bo'ldi so'roq, bo'ldi javob!

Urgan bo'zbolalar aybini bo'yniga olmadi. Bir-birlariga to'nkab turib oldi.

Shunda, yuqorida o'tirgan kattalar mendan so'radi. Da'volarini mendan ma'qullatib oldi. Men asqotib turdim.

Bir katta Rahmon birodarimizni so'roqqa tutdi:

— Ayting-chi, nega voyaga yetmagan bolani urdingiz?— dedi.

— Urganim yo'q, kalla qildim,— dedi Rahmon birodarimiz.

— Baribir, urgan hisoblanadi. Yuzida jarohat bor. Pulingizni o'g'irlagan ekan, yana tag'in ushlab olibsiz ekan, militsiyaga topshirish kerak edi!

— Kuchim yetmadi.

— Urishga yetgan kuchingiz, militsiyaga yetaklab borishga yetmadimi?

— Uch birday yigitga qanday qilib kuchim yetadi?

— Unda militsiyaga telefon qiling edi. Yoki, odamlarni yordamga chaqiring edi. Ana, ko'cha to'la odam!

— Odam? Qanday odam? Qani odam...

Rahmon birodarimiz gapirolmadi. Dimog'i to'lib keldi. Ovozi ichiga tushib ketdi. Yengi bilan ko'zlarini artib-artib oldi.

— Bir soat tanaffus! — dedi kattalar.

O'tirib-o'tirib, qornim ochqadi. Choyxonaga qarab yurdim.

Men choy ichib qayta berdim, odamlar suddan chiqib kela berdi.

Demak, sud sob bo'pti, endi sud oqibatini so'rayin, dedim. Rahmon birodarimizni qidirdim.

Shunda, bir to'da momolar bilan ayollarga ro'paro' keldim. Momolar sel-sebor yig'ladi. Peshonalariga urib-urib yig'ladi. Tizzalarig'a mushtlab-mushtlab yig'ladi...

Bildim, bular ana shu bo'zbolalar momosi bo'ldi, ana shu bo'zbolalar onasi bo'ldi.

Men ana shu ko'zyoshlar oqishi uchun o'zimni aybdor deb bildim. Yoshlar to'la ko'zlarga, yoshlarga belangan yuzlarga qarab turolmadim...

Birodarlar, barmog'imning qaysi birini tishlasam-da, og'riydi!

Ohista-ohista ketimga qayrildim.

Tarlonimiz oldiga bordim. Otlanib, qishloqqa qaytdim. "8-mart" kolxozidan o'tib, Hayrondaraga doxil bo'ldim.

Tevarak mayda-mayda adirlar bo'ldi. Arg'amchiday yo'l bir yuqoriladi, bir adoqladi.

81

Oqshom vaqti bo'ldi.

Olamga-da oqshom qo'ndi, ko'nglimga-da oqshom qo'ndi. Ko'nglim oqshomday mahzun bo'ldi.

Beixtiyor ketimga qayrilib qaradim. Bir qizil mashinani ko'rdim. E'tibor bermadim.

Adirga o'rladim. Adir qoq ustida tag'in ketimga qayrilib qaradim. Mashina qorama-qora keldi.

Adirdan enib boshladim. Adir tikkaligidan Tarlon o'zini ketiga tashlab-tashlab yurdi. Old oyoqlarini og'ir-og'ir bosdi.

Adir adog'iga tushdim. Mashina adir ustida imillab qoldi. Hayron bo'ldim. Mashina degani tez yurar bo'lardi, bu mashina xiyladan buyon bir otdan o'tolmaydi. Yo, biron yeri nosozmikin?

Yo‘lni kesib o‘tadigan ariqqa keldim. Ariqdan loyqa suv oqibdi. Ichi qip-qizil loy bo‘libdi. Loy ot tizzasiga keladi.

Shu bois, Tarlonni ariqqa solmadim. Ariqdan hatlattirmoqchi bo‘ldim. Ammo bu niyatimdan-da qaytdim. Vaji, ariq yoqalari-da loy. Tarlon toyib ketadi.

Ariq yoqalab, yuqoriladim. Sayozroq yer qidirdim.

Mashina-da quyiga endi. Ariq bo‘yida oyoq ildi. O‘tolmasligini bildi, shekilli, bizning izimizdan yurdi.

Bizning Tarlon torroq bir yerdan cho‘chib o‘tdi.

Mashina Tarlon hatlagan yerda oyoq ildi.

Mashinadagilarga qamchi sopi bilan yuqorini ko‘rsatdim.

— Yana sag‘al yursalaring, yuqorida yoyilma bor! O‘shandan mashina o‘tadi!

Shunday deya yo‘limga burildim.

Shunda, ketimdan ovoz keldi:

— U, shef! Tormoz!

Ovozni tanimadim. Nima deyapti, tushunmadim. Kim bo‘lsada, bir inson ovoz berayapti, borayin, dedim. Ariq yoqalab bordim.

Mashinadan to‘rt odam tushdi. Ikkovi olisroqdan chopib kelib, ariqdan hatlab o‘tdi.

Tarlon hurkib, keyiniga tisarildi.

Keyin, qolgan ikkovi-da keldi. Barining ko‘zida qora ko‘zoynagi bo‘ldi. Ko‘zlari ko‘rinmadi. Sochlari yelkasiga tushdi, quloqlari sochi ostida bo‘ldi. Kiyimlari ajabtovur bo‘ldi. Birovining soqoli-da bo‘ldi. O‘zimizday o‘rta yoshli odammikin, deya sinchiklab qaradim. Yo‘q, u o‘ttizlarda bo‘ldi.

— Chaqirganday bo‘ldilaringizmi, birodarlar?— dedim.

Ular miq etmadi. Soqoldori oldin yurdi.

— Otdan tushing-chi, shef! — dedi.

— Ayta beringlar, qulog‘im kar emas,— dedim.

— Tush degandan keyin, tush!

Ularning sensirashi ko‘nglimga tegdi. Tusha-tusha, ko‘nglimni aytdim.

— Sensiramang, birodar, salkam otangiz qatoriman-a, — dedim.

— He, senday otam qatorining...

Qo'limda jilov, serrayib qoldim. Qahrim keldi. Qamchi sopini mahkam ushladim.

— Otingni bog'lab, bu yoqqa yur!

— Nima gapingiz bor, birodar, shu yerda ayta bering.

— Yur, degandan keyin, yur! Ular ariq yoqalab yuqoriladi. Birovi-da ko'zoynagini olmadi.

82

Jilovni egar qoshiga qistirdim.

Tarlonni bo'sh qoldirdim.

Keyin, ular oldiga bordim.

— O'zi kimsizlar? Kimning bolasi bo'lasizlar? O'zlaringni tanitinglar-da, axir, birodarlar, — dedim.

Ular meni o'rab oldi. Go'yo yovvoyi odamni tomosha qilayotganday bo'ldi. Birovi o'z-o'zidan to'ng'illadi.

— Hali tanishib qo'yamiz! — dedi.

Tavba, bularning menda nima ishi bor ekan? Ertaroq aytmaydimi, kech bo'layapti...

— Ay, birodarlar, zaril gaplaring bo'lsa, aytinglar. Bo'lmasa, ketayin, bola-baqra alag'da bo'ladi, — dedim.

— Ketasan, ketasan, shoshilma. Qaytmaydigan bo'lib ketasan...

Zardam qaynadi, ketimga burildim.

Shunda, ulardan birovi yo'limga g'ov bo'ldi. Birovi chapimga o'tdi. Ikkovi oralig'idan o'tib ketmoqchi bo'ldim.

Shunda, o'ngimdagisi yelkamdan g'ijimlab ushlab oldi.

Men qo'lini shartillatib urib tashladim.

— Qo'lingizni oling, birodar, — dedim.

Shunda, u iyagim ostiga o'xshatib-da bir urdi!

Ketimga gandiraklab-gandiraklab borib, o'tirib qoldim. Nogiron qo'lim zirqirab og'ridi.

Qamchi o'rimini qo'limga o'rab-o'rab joyimdan qo'zg'oldim. Shu urganning bo'yin tomirini mo'ljallab qulochkashladim.

Ketimdagisi qamchini ushlab qoldi.

Yana o'tirib qoldim. Endi qamchini ushlab qolganiga qarab, qo'zg'oldim.

Shunda birovi ketimdan keldi, belimga tepdi.

Men yuztuban yiqildim. Nogiron qo'lim zirqirab-zirqirab og'ridi. Turib o'tirdim. Tevarakka alangladim. Rayon o'ng yog'imdagi adir ortida bo'ldi. Ko'rinmadi. Qishloq chap yog'imdagi adir ortida bo'ldi. Qishloq-da ko'rinmadi. Osmon boshimda bo'ldi. Bari-bari olisda bo'ldi.

Xo'rligim keldi: ay, yolg'izligi qursin-a!

Ko'nglim buzildi: ay, nogironligi qursin-a!

O'pkam to'lib keldi. Qo'ynimdagi nogiron qo'limni tashqari chiqardim.

— Birodarlar, Jo'ra boboning otidan yiqilib, qo'lim chiqib edi, mana... mana...— dedim.

Ular xoxolab-xoxolab kuldi. O'zaro gapirishdi:

— Bu o'zi unga kim bo'ladi?

— Hech kim!

— Hech kim? Yo'g'-e?

— Demak, bu o'zicha ritsarlik qilmoqchi bo'libdi-da?

— O, ritsar! XX asr ritsari!

— Don Kixot!

— Don Kixot! XX asr Don Kixoti!

Men shundagina ular kimligini bildim. Qo'lim nogironligini aytib, yig'lamsiraganlarimga ming-ming pushaymon bo'ldim...

Yerga qaradim. Qo'limni qo'ynimga solmadim. Sog'lom qo'limdayin yerga tiradim.

Nogiron qo'lim zirqillab og'ridi. Tishimni tishimga bosdim. Yuzlarim lovullab yondi...

Bir balo qilib, joyimdan turdim. Oyoqlarimda tik turdim.

Shunda birovi jag'imga urdi.

Men ketimga tisarilib-tisarilib, bunisiga borib urildim.

Bunisi yelkamdan suyab qolib, harommag'izimga urdi.

Gandiraklab-gandiraklab, unisiga bordim.

Unisidan iyagimga yedim.

Bir aylanib tushdim. Osmon gir-gir aylandi. Osmon qop-qora bo'ldi.

Tag'in turdim. Dalbanglab-dalbanglab bordim. Birovining bo'yniga osildim.

— Birodarlar, men sizlarga nima qildim... — dedim.

Uni jonimning boricha quchoqlab turdim.

U ichimga ko'r musht urdi.

Nafasim hiqillab bo'lindi. Ichimda bir nima ezildi. Qo'llarim bo'shashib, yelkasidan sidirilib tushdi.

Oyog'imda majolim qolmadi. O'zimni yerga chalqancha tashladim...

— Birodarlar, aybimni ayting, aybimni... — deya ingrandim.

Belimga uchli bir nima zarb bilan tegdi. Keyin biqinimga tegdi. Zarb har tekkanda jonim halqumimga kelib ketdi.

— Birodarlar, men ham odam-ku... — deya ingrandim.

83

Shunda... shunda, ot kishnadi.

Umrim ot bilan o'tdi. Hay bir otlarni ko'rdim, hay bir kishnashlarni eshitdim.

Ot suvsab kishnadi, ot ochqab kishnadi. Shunda ot ko'nglini suv berib oldim, ot ko'nglini yem berib oldim.

Ot avlod-ajdodlarini qo'msab kishnadi, ot ulpi-tomirlarini yo'qlab kishnadi. Otlar ovozini eshitib kishnadi, baytallar havosini olib kishnadi.

Shunda, otni egarladim, dasht-u dalalarni aylantirdim, ot oyog'ini yozdim. Otni sovitdim, otni yupatdim.

Ot ilon sharpasini olib kishnadi. Uydan otilib keldim. Ot yonini oldim, bo'yinlarini uqaladim. Otga yo'ldosh bo'ldim.

Ot bo'ri hidini olib kishnadi. Ha, jonivor, ha, deya ovoz berib chopdim. Ot bo'yniga qo'limni qo'ydim, ot yollarini siladim. Ot oldida bo'ldim. Otga gapirib-gapirib turdim, birodar bo'lib-bo'lib turdim.

Kishnash ko'rdim, kishnashlar ko'rdim, ammo ushbu oqshomdagidayini ko'rmadim.

Vo darig'o, bu qandaychikin kishnash bo'ldi? Kishnash ko'ngil-ko'nglimni o'yib yubordi, vujud-vujudimni qaqshatib yubordi. Tanamdagi og'riqlar-da bilinmay qoldi.

Bizning Tarlonga nima bo‘ldi, birodarlar? Nima bo‘lsa-da, yomon bo‘ldi! Bizning Tarlon nima ko‘rdi, birodarlar? Nima ko‘rsa-da, yomon ko‘rdi!

Bizning Tarlon ilon ko‘rdimikin? Yo‘q, bizning Tarlon ilon ko‘rsa, bundayin kishnamaydi. Bizning Tarlon bo‘ri ko‘rdimikin? Yo‘q, bizning Tarlon bo‘ri ko‘rsa-da, bundayin kishnamaydi.

Bizning Tarlon ilondan-da yomonini ko‘rdi, bizning Tarlon bo‘ridan-da yomonini ko‘rdi!

Tarlonni yo‘qlab qarayin dedim. Boshimni ko‘tarayin dedim. Bo‘lmadi, bo‘lmadi!

Ko‘zim osmondaligicha qoldi. Osmon olis, yer qattiq bo‘ldi...

Ot uzib-uzib kishnadi.

Ko‘zlarim tindi. Bepoyon osmon, beg‘ubor osmon qop-qora qozon bo‘ldi!

Yuzimni chapimga burdim. Avval-avval bir nima-da ko‘rmadim. Keyin-keyin oq bilan qorani fahmladim. Ana shunda Tarlonni ko‘rdim.

Tarlon bo‘ynini gajak-gajak qildi.

Tog‘larga qaradi, zorlanib-zorlanib kishnadi.

Tarlon dumlari yoyilib-yoyilib kishnadi, yollari hurpayib-hurpayib kishnadi.

Adirlarga qaradi, chorlab-chorlab kishnadi.

Tarlon quloqlari chimirilib-chimirilib kishnadi, pishqirib-pishqirib kishnadi.

Qishloqqa qaradi, yolvorib-yolvorib kishnadi, zor-zor kishnadi.

Tarlon jilovini silkib-silkib kishnadi, yulqib-yulqib kishnadi.

Keyin, men sari yuzlandi. Oyoqlarini katta-katta yoydi. Bo‘ynini cho‘zdi, tumshug‘ini cho‘zdi. Quloqlarini chimirdi.

Tarlon zinkiydi!

Old tuyoqlari bilan tarsillatib-tarsillatib yer tirnadi. Kesaklab-kesaklab yer otdi. Tuyoqlari osti changidi.

Tarlon qahr ham iztirob bilan kishnadi. Oqshom, kishnashdan zir titradi.

Oqshom, Tarlon kishnashidan, Tarlon kishnashi, oqshomdan-da mungli bo‘ldi, oqshomdan-da ayanchi bo‘ldi.

Uchli zarb, chap tizzam ko‘ziga kelib tegdi.

Chinqirib yubordim. Ko‘z oldim qop-qora bo‘ldi...

— Tepib o‘tirasanmi, biqiniga tiqib ol!..

— Eee, ot!

— Qoch, ot kelayapti!

Shunda, tag‘in hushimga keldim. Ohista ko‘zimni ochdim.

Tarlon tumshug‘ini cho‘zib zinkiyib, ularni quvdi. Birini qo‘yib, birini quvdi.

Ular ariqdan hatlab qochdi. Birin-ketin mashinasiga kirdi.

Ammo birovi Tarlondan qochib qutulolmadi. U yoqqa burib soldi, bo‘lmadi, bu yoqqa burib, soldi, bo‘lmadi. Nima qilishini bilmadi. Oxiri yerdan nimadir bir nima olib, Tarlonni boshiga bir urdi.

Tarlon boshini silkib-silkib ohistaladi.

Unisi-da ariqdan hatlab o‘tdi.

Tarlon-da ariqdan o‘tdi. Mashina oldiga keldi. Old tuyoqlari bilan yer tirnab-yer tirnab kishnadi.

Mashina g‘izillab jo‘nadi.

Tarlon mashina ketidan xiyla yo‘lgacha chopib bordi. Keyin, iziga qaytib keldi.

Ariqdan o‘tib, boshimga keldi. Yuzlarimga tumshug‘ini tekkizib-tekkizib ko‘rdi. Yuzlarimni iskab-iskab ko‘rdi.

Men Tarlon nafasini tuydim. Tumshug‘ini qo‘shqo‘llab quchoqladim. Jag‘lari, peshonasini siladim.

Shunda, kaftim ho‘l bo‘ldi. Ter, ot teri deb o‘yladim. Kaftimni ko‘zlarimga olib kelib qaradim. Keyin, Tarlonga tikilibroq qaradim.

Tarlon peshonasidan qon sizdi...

Ho‘ngrab yig‘lab yubordim. O‘pkamni bosayin dedim, bosolmadim...

84

Qosh qoraydi.

Odam odamni tanimaydigan bo‘ldi.

Bir amallab chap yonbosh bo‘ldim. Tarlon oyog‘ini quchoqladim. Tizzasiga peshonamni qo‘ydim. Uzalib, old qopqog‘iga shapatiladim.

Tarlon yelkalarimni iskadi. Keyin, old oyoqlarini asta-asta bukdi. Tarlon tizzaladi!

Men chap qo'lim bilan egar qoshidan oldim. Egarga ko'kragimni berdim. Timtalanib-timtalanib egarga bel bo'lib yotdim. Nafasimni rostlab oldim. Tag'in qimtinib, oyog'imni egardan oshirdim. Tarlonni quchoqlab oldim. Tarlon qaddini rostladi.

Shamol boshimni yalab o'tdi. Shunda, boshyalangligimni bildim. Telpagim yerda qolibdi.

Tushayin dedim, tag'in, minishimni o'yladim. Telpagimga qo'l siltadim. Belbog'imni yechib, boshimni tang'ib bog'lab oldim.

Katta yo'l chetidan yurdim.

Bor bo'yicha qorong'i tushdi. Adirlar qop-qora soyaday bo'ldi.

Egarda chayqalib-chayqalib, ko'nglim shu kechaday zim-ziyo bo'lib-bo'lib, o'ksib-o'ksib bordim...

85

Tarlon-ay, nima kunlarga qoldig-a?..

Tushda bo'layaptimi yo o'ngda bo'layaptimi?

Sen farqlamasang, men farqlay olmay qoldim, Tarlon...

Haligilar qanday jonzot edi, Tarlon! Sin-simbati odamga kelbat beradi. Ust-boshlari-da bor. Odamga mayzab gapiradi, odamga mayzab kuladi...

Bilmadim, Tarlon, bilmadim. Sen bilmasang, men bilmadim. Men seni bilaman, Tarlon. Ular men uchun begona, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening ukamsan, ukam.

Bo'ldi, men endi ularni ukam demayman. Mening ukam sensan. Sen mening ukamsan, Tarlon. O'zi menga o'xshaysan, Tarlon, menga. Ukasi akasiga o'xshaydi-da, Tarlon...

Tarlon ukam-ov, endi nima qilamiz? Endi, bola-chaqaga borib nima deymiz? El so'rasa, nima deymiz?..

Ayo Tarlon, sen mening jiyanimsan, jiyanim.

Bo'ldi, men endi ularni jiyanim demayman. Mening jiyanim sensan, Tarlon. Sen menga tortding, Tarlon. Jiyan tog'asiga tortmasa, kimga tortadi, Tarlon...

Tarlon jiyanim-ov, yo yo‘lda yiqildik, deymizmi? Ko‘zlaring bor edi-ku, desalar-chi? Ariq loy ekan, toyib ketdik, deymiz. Binoyimi, Tarlon jiyanim? Bo‘lmasa, elga ermak, xalqqa shaloq bo‘lamiz...

Ayo Tarlon, sen mening akamsan, akam. Bo‘ldi, men endi ularni akam demayman. Mening akam sensan, Tarlon. Uka desa degulik, mendayin ukang bor, aka desa degulik, sendayin akam bor, nima g‘amim bor, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening birodarimsan, birodarim.

Bo‘ldi, men endi ularni birodarim demayman. Mening birodarim sensan, Tarlon...

Ayo Tarlon, sen mening qiyomatlik birodarimsan, qiyomatlik birodarim...

1979

OYDINDA YURGAN ODAMLAR

Qissa

I

— Quloq sol, momosi, quloq sol. Qayerdandir odam ovozi kelyapti...

Sayrak adirda yonboshlab yotmish bobomiz, momomizga shunday dedilar.

Bobomiz og'izlarini angraygannamo ochdilar. O'ng quloqlarini yellar yelmish tarafga tutdilar.

Yellar ovozlarni yorqin olib kelmadilar.

Bobomiz o'ng kaftlarini quloqlari sirtiga tutdilar. Yelpana qildilar. Nafas olmadilar. Bor vujudlarini berib quloq soldilar.

Bobomiz shunda-da bir nimani eshitmadilar. Chuqur tin oldilar.

Bobomiz oydinga tikildilar.

— Manovi yoqdan, shekilli... — dedilar. — O'zi, vaqting xushmi, momosi? Eson-omon yuribsanmi? To'rt muchaling butmi?..

1

Sovchilar qadami qizlik eshikka sharaf!

Sovchilar oqshom vaqti keldi.

Uy bekasi dasturxon yoydi. Xo'jasi mezbonlik qildi.

— Xush ko'rdik, xush ko'rdik, — dedi.

— Xushvaqt bo'l, qassob, xushvaqt bo'l, — dedi sovchilar. — Qani, ilohi omin, shu uyda katta-katta to'ylar bo'lsin, Ollohu akbar!

— Ollohu akbar! Aytganingiz kelsin!

Palovdan keyin tarvuz so'yildi.

Sovchilar odatlari bo'yicha u yoq-bu yoqdan gapirishib o'tirdi.

Eson qassobni haminqadar eladi. Keyin, maqsadga o'tdi.

— Singlingning boshiga baxt qushi qo'nib turibdi, qassob, uchirib yubormasang bo'ldi, — dedi.

— Aslini bilmay, so'z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar, — dedi qassob. — Kim ekan u?

2

Qishloqda bir bo'zbola bo'ladi.

Bo'zbola yelkador, pishiq qomatlik bo'ladi. Kulcha yuzlarida chuqur-chuqur kuldirgichlari bo'ladi. Qo'y ko'zlik, siyrak qoshlik bo'ladi.

Bo'zbola qomatini g'oz tutadi. Joyida tik turadi. Qo'llarini ko'kragiga qovushtiradi, yo, beliga tiraydi. Bir nuqtaga tikiladi. Qayerga tikiladi, nimaga tikiladi?

Bilmaymiz, biz bilmaymiz.

Inchunin, o'zi-da bilmaydi.

Bo'zbolani ilk bor ko'ramiz.

Shunda, bu bola yo qattiq qayg'uda, yo bir nimani o'ylab o'yiga yetolmayapti, deymiz.

Yurish-turishidan... kekkayadi, o'zidan o'zgani oyog'i bilan ko'rsatadi, deymiz. Shox-u butog'ing bormi, muncha kerilasan, deymiz.

U mijozi xush ko'rmish odamlar bilan salom-alik qiladi. Bordi-keldi qiladi. Chin dildan gapirishadi. Ochilib gurunglashadi.

Ko'ngliga o'tirmaydiganlar bilan salomlashgisi-da kelmaydi!

Oqibat, bo'zbola bizni nazarga ilmaydi, deymiz.

Oqibat, bo'zbolani birovimiz xush ko'ramiz, birovimiz noxush ko'ramiz.

U o'zini biz uchun dil-dildan oshno biladi.

Bizga sodiq mehr qo'yadi. Biz bilan hamisha xayrixoh, hamdard bo'ladi. Bir qorindan talashib chiqqanlardayin bo'lsam, deydi.

Aqalli, bir, bir yomonligimizni ko'rsa bo'ldi!

Bizdan qo'lini yuvib qo'ltiqqa uradi. Biz bilan salom-alik qilmaslik payida bo'ladi.

Bizdan qaytganini bizga-da, birovga-da aytmaydi.

Qoboq-tumshuq qiladi. Ichimdan top deb yuradi.

U odamovi!

U olislardan ko‘z uzmaydi, kipriklar-da pirpiratmaydi.

Biz u tikilmish tarafga qaraymiz. Zangori ufq. Shu! Aqalli bulutlar-da yo‘q.

U bizni hayron qoldirib-qoldirib yashaydi!

Bir nimani so‘rasak, ha, yo, yo‘q deb qo‘ya qoladi.

Qo‘liga suv beramiz. Suvni go‘yo birinchi ko‘rayotganday tikiladi. O‘zicha bosh irg‘ab qo‘ya qoladi.

Biz og‘rinamiz. Minnatdorchilikni tilab olamiz.

“Sen ham odamga o‘xshab biror nima de”.

“Nima deyin?”

“Hech bo‘lmasa, baraka toping, de”.

Shunda u tizzalarini quchoqlaydi. Olis-olislarga — Bobotog‘ cho‘qqilariga o‘ychan-o‘ychan termiladi. Bobotoqqa termulib-termilib aytadi:

“Chin gaplar ko‘ngilda bo‘ladi. Tilga chiqsa, yolg‘on bo‘ladi-qoladi”.

U yolg‘iz bir ashulachini ashulachi deb biladi. Bu ashulachini Yunus Rajabiy, deydi.

U Yunus Rajabiy ashula aytganda so‘zlashuvchi yo yo‘taluvchi odamni ko‘rishga ko‘zi bo‘lmaydi.

U Yunus Rajabiy ashula aytganda iljayuvchi odamni otishga o‘qi bo‘lmaydi.

U Yunus Rajabiy ashulalarini bosh egib eshitadi, muztar bo‘lib eshitadi.

U... qo‘shiq aytadi!

Adirga o‘tga boradi. O‘t o‘rib-o‘rib, tevarakka alanglaydi. Yolg‘iz o‘zi bo‘ladi.

Keyin, o‘tni bolish qiladi. Qo‘llarini boshi ostiga chalishtiradi. Olis-olislarga — paxta xirmoni misol oppoq bulutlar, havolanmish chumchuqlar galasiga termilib-termilib... dimog‘ida qo‘shiq aytadi. Bora-bora lablari-da qimirlaydi...

Sovchi ana shu bo‘zboladan bo‘ladi!

3

Eson qassob gapni cho‘rt kesdi:

— Qoplonmi? Bo‘lmaydi!

— Qassob, og‘ir bo‘l, somonday og‘ir bo‘l.

— Og‘ir bo‘lsam-bo‘lmasam! Uningiz na salomni biladi, na alikni biladi!

— Qassob, ko‘ngling bilan eshit — quloq aldaydi, aqling bilan ko‘r — ko‘z aldaydi.

— Uningiz odamga o‘xshamaydi!

Shunda sovchilar o‘z san’atlarini qo‘lladi. Biri qo‘yib biri, qassob otasi borasida hamd-u sanolar aytdi:

— Rahmatlik otasi ko‘p yaxshi odam edi-da...

— Ko‘p mard edi...

— Ko‘p tanti edi...

— Esonboy otasiga tortmabdi...

— Noshukur bo‘lmang, Esonboy otasiga quyib qo‘yganday tortadi...

— Qani, qanikayin?..

— Ana, anakayin. Musulmonchilik asta-asta-da...

Sovchilar gap oxirini ana shunday otadan qolmish ana shunday o‘g‘ilga olib kelib uladi. Eson qassob oxir-oqibat yon berdi.

— Men bir nima deyolmayman, — dedi. — Og‘ayni-jamoa bor, qiz boqqan yangasi bor. Yana bir kelinglar, maslahatlashib olaylik.

4

Kenja zurriyot bo‘lmish qiz besh yasharligida ota-onadan sag‘ir qoldi.

Akasi qo‘lida qoldi.

Yanga bo‘lmish qoboq-tumshug‘iga qarab kun ko‘rdi.

Yanga bo‘lmish qoboq uydi...

Shunda... shunda, sag‘ir nafas olmadi! Sag‘ir ko‘zlari pir-pir etdi. Sag‘ir ko‘zlari olma terdi.

Sag‘ir hadahalab bordi. Jiyani beshigini qo‘shqo‘llab ushladi. Sag‘ir jon-jahdi bilan beshik tebratdi.

“Beshik tebratsam, yangam qobog‘i ochiladi, keyin, meni urishmaydi...”.

Sag‘ir ana shunday umidga bordi!

Sag‘ir qorni ochdi. Sag‘ir barmog‘ini so‘rdi. Ammo miq etmadi.

Yanga dasturxon yoydi. Sag'irni dasturxonga imladi.

Sag'ir dasturxon oldiga siljib keldi. Sag'ir barmog'ini so'rib, yangaga mo'ltiradi. Sag'ir barmog'ini so'rib, dasturxonga mo'ltiradi.

Keyin, og'zidagi barmog'ini dasturxonga uzatdi. Barmog'ini avval dasturxon burchiga tegizdi. Undan dasturxon o'rtasi sari ohista-ohista o'rmalatib bordi. Keyin, non chetiga tegizib turdi.

Sag'ir bir tishlamgina non sindirib oldi.

Sag'ir, yangaga qarab-qarab non tishladi, mo'ltirab-mo'ltirab non chaynadi.

Sag'ir, yangamga yaxshi ko'rinayin deya, o'ziday-o'ziday satillarda suv tashidi.

Chin, akasi-da, yangasi-da sag'irni o'z bolasidan kam ko'rmadi. *Shunday bo'lsa-da, sag'ir ushbu xonadonda jiyanlari bilan o'zi* orasida katta tafovut borligini ich-ichidan his etib-etib kun ko'rdi.

Sag'ir munis-da bo'ldi, g'amgin-da bo'ldi.

Sag'ir sertamiz bo'ldi.

Hayotda bo'lmish ilkis qiliqlar, iring gaplarni darhol ilg'ab oldi. Eng yomoni, ko'ngliga oldi!

Sag'ir ziyrak bo'ldi.

Zarra boshidan hayotga kattalar ko'zi bilan qaradi.

Sag'ir ta'sirchan qiz bo'ldi.

Bari sag'irlik ishi bo'ldi!

Sag'ir bir qiz bo'ldi, bir qiz bo'ldi-ye!

Sarv qad bo'ldi!

Suluv yuzlarini oppoq desak, bizning haqimiz ketadi. Qorachadan kelgan desak, qizning haqi ketadi.

Bug'doyrang bo'ldi!

Barchin yuzli bo'ldi, saraton yulduzli bo'ldi, parishon zulfli bo'ldi.

O'rim-o'rim sochlari birovga, kimgadir birovga talpindi.

Bo'lmasa, shunchalar taqim urib-taqim urib to'lg'onarmidi?

Qop-qora xoli ingichka lablari burchida bo'lsa bo'lmasmidi? Iyagidagi chuqurchasi ichida bo'lsa bo'lmasmidi?

Kelib-kelib, o'ng yonog'i qoq uchida-da bo'ladimi!

5

Akasi xo‘p binoyi gap aytdi.

Bunday qiz taqdirini og‘ayni-jamoa jamligida hal etmoq ma’qul bo‘ladi.

6

Sovchilar tag‘in keldi.

Oradan ikki kun o‘tdi.

Og‘ayni-jamoalar birovi u dedi, birovi bu dedi.

Birovi arazlab ketdi.

Bari o‘z gapini ma’qullatish payida bo‘ldi.

Aka bo‘lmish bariga birday bo‘lib o‘tiraberdi.

Bo‘lar gap qizda qoldi.

Yanga bo‘lmish oshxonaga yo‘l oldi.

7

Kenja jiyaniga qatiq yalatib o‘tirmish Oymomo yangasidan orlandi. O‘ziga qaragan bo‘ldi: yelkasiga sirg‘anib tushmish iroqi ro‘molini yopindi. Yuqoriga yig‘ilib qolmish ko‘ylagi barini tortdi, tizzalarini yopdi.

Jiyani qulochini ochdi, onasiga talpindi.

Onasi kenjasini bag‘riga oldi.

Qaynsinglisiga tikildi-tikildi, miyig‘ida kuldi-kuldi.

Keyin qaynsinglisi ko‘ngliga qo‘l soldi:

— Sen nima deysan?

— Nimani nima deyman?

— Talmovsirama, biror nima de. Sovchi kepti.

— Kimga?

— Menga bo‘larmidi, senga-da.

— Eb-e, men sizga nima qildim? Boring-e!

Oymomo ters bo‘ldi. Bilq-bilq qaynamish qozonga yuz burdi.

Kosov bilan o‘choq kovladi.

Olov hur-hur yondi.

Kenja, onasi yoqasini tataladi.

— Ena, mamma! Mamma ber! — dedi. Onasi o‘g‘liga emchak berdi.

— Uyalsang-uyalmasang, bu barimizning boshimizda bor savdo, — dedi yanga bo‘lmish. — Biz ham sendayin uyalib edik. Mana oqibati, jiyaning sho‘rpillatib-sho‘rpillatib emib o‘tiribdi...

— Erga tegaman deb, o‘lib o‘tirganim yo‘q...

Yanga bo‘lmish ketiga chalqayib-chalqayib kuldi.

Ko‘kragi kenjasi og‘zidan chiqib ketdi.

— Men seni o‘lib o‘tiribdi, deb o‘ylabman, — dedi. — Menga qara, bugun, bugun bo‘lmasa ertaga baribir kelin bo‘lasan...

Kenja, mimit qo‘llarini cho‘za berdi-cho‘za berdi.

Onasi ko‘kragini tag‘in og‘ziga soldi.

— Joyi chiqib turibdi, xo‘p deya ber. Qoplon ikki yelkasiga uy tiksa bo‘ladigan yigit.

— Men undaychikin odamni bilmayman...

— Endi bilasan-da. Aytganimdan qolma. Chiroying borida chinoringni top!

Oymomo cho‘qqa tikilmish ko‘yi o‘tira berdi. Cho‘g‘ Oymomo yuzlaridan, Oymomo yuzlari cho‘g‘dan qolishmadi.

Yanga bo‘lmish kenjasini Oymomoga berdi.

— Bo‘ldi, sukut alomati rizo, — dedi.

8

Yanga bo‘lmish og‘ayni-jamoa qoshiga bordi. Oymomo sukutini aytdi.

Sovchilar dasturxonga o‘ralmish nonni o‘rtaga qo‘ydi.

Qalin aytish boshlandi.

— Xo‘-o‘sh...

— Elga qarab ayting-da.

— Xo‘-o‘p...

— Bo‘ldi-ye, hech kim qiz uzatib boyigan emas.

— O‘nta qo‘y... shularga rozimisizlar?

— Qani, ilohi omin, ikki yosh qo‘sha qarisin, Olloh akbar!

Yangasi qiz onasi o‘rnida fotiha o‘qidi.
Non sindirildi.
Sovchilar ohorli belqars o‘rab ketdi.

9

Kuyov tarafdan fotiha to‘y keldi.
Fotiha to‘yida qo‘y, zig‘ir moy, guruch, mayiz... bo‘ldi.
Kelin-kuyovlik davri boshlandi.
Kuyov, kelin qarindosh-urug‘lari oldidan yerga qarab o‘tdi. Ko‘zlariga tik qaramadi. Davralarda yuzma-yuz o‘tirmadi.

10

Oy o‘tdi.
Kelinnikiga ko‘rpa-to‘shak matolari bilan paxta keldi...
Bu, to‘qqiz deb ataldi.

11

Bir oqshom kuyov to‘ra kelinakasi biryoqqa safarlab ketdi, deya eshitdi.
Oshnalari bilan qayliqlab bordi.
Oshnalar ohista-ohista deraza chertdi.
Derazadan yanga bo‘lmish qaradi.
— Kuyov qaylig‘i bilan ko‘rishsam deydi... — dedi oshnalari.
Yanga bo‘lmish yo‘l bermadi.
— Ko‘rishgisi kelsa, to‘y qilsin, — dedi.

12

To‘y bozor oqshomi bo‘ldi.
To‘yga ayta-ayt bo‘ldi.
Qizlar kelin tarafga aytdi, bo‘zbolalar kuyov tarafga aytdi.
Qizlar kelinnikiga bordi, bo‘zbolalar kuyovnikiga bordi.
Kuyovnikida necha-necha qo‘ylar boshi ketdi.
Necha-necha ko‘zalar bo‘shab qoldi.
Sozlar, xonishlar havoda havolanib-havolanib turdi.

To‘yxona to‘la to‘ylovchi bo‘ldi.

Ko‘chada bolalar shovqin soldi:

— Toboq keldi, kelinnikidan toboq keldi!

Darvozada yelkalari, boshlarida dasturxon ko‘tarmish ayollar paydo bo‘ldi. Ayollar kelinnikidan o‘nta toboq olib keldi.

Toboqlar birida palov, birida qovurma go‘sht, birida qaynatilgan tuxum, yana birida shirguruch... bo‘ldi.

Toboqlar davralarga qo‘yildi.

To‘ylovchilar ko‘ngillari tortmish taomdan edi.

Bo‘sh toboqlar yig‘ib olindi.

Jo‘raboshi davraga katta ro‘mol yoyib aytdi:

— Kuyovto‘ra kelib qarab tursin, kim qanday sovg‘a tashlaydi!

To‘ylov chilaratagan sovg‘a-salomlarini ro‘molga tashladi. Birov bir kiyimlik atlas tashladi, bnrov shoyi tashladi.

Ro‘mol deyarli to‘ldi.

Duo ezgu bo‘ldi:

— To‘yniki to‘yda qaytsin, Ollohu akbar!

13

Kuyov jo‘ralar kelinnikiga yo‘l oldi.

O‘zlariga ajratilmish uyga qo‘ndi.

14

Kelin hovli o‘ng yuzidagi uyda bo‘ldi.

Qizaloqlar derazama-deraza mo‘raladi, kelinni tomosha qildi.

Ichkarida qizlar g‘uj bo‘ldi. Biri havas bilan, biri achinish bilan kelinga boqdi.

Kelin ixtiyori qizlarda bo‘ldi. Bir qiz barmoqlarini tupuklab-tupuklab ho‘lladi. Qiz kelin zulflarini bot-bot buradi. Zulflar gajakdan gajak bo‘ldi.

Bir qiz to‘ntariqlik piyola ketiga o‘sma ezdi. Qiz kelin qoshlariga o‘sma qo‘ydi.

Kelin nigohlari kigiz gulida bo‘ldi.

15

Shu vaqt besh-olti odam kelinli uy dahliziga keldi.

Ichki eshik qiya ochib qo'yildi.

Xayrulla domla kelindan vakil so'radi:

— Sizkim Oymomo Abdiboy qizi, o'zingizni Qoplonboy Qurbonboy o'g'liga bag'ishlamoq vakolatini akangiz Esonqul qo'liga topshirdingizmi?

Sukunat.

Kelin miq etmadi.

— Aytma, aytma, — shivirladi qizlar.

Eshik ketida turmish kuyov jo'ralar qizlarga pul uzatdi.

Qizlar pulni bo'lib-bo'lib oldi.

Kelin hamon jim bo'ldi.

Kuyov jo'ralar tag'in pul uzatdi.

— Bo'ldimi? Endi aytsin! — dedilar.

— Ay, Xolbuvi, sen hadeb shivirlay berma!

— Shivirlayman! Nima, darrov ha, deya beradimi?

— Ha, deyish osonmi?

— Yegani non emas!

Xayrulla domla qayta vakil so'radi.

Tag'in javob bo'lmadi.

Kuyov jo'ralar biri qo'yib-biri aytdi.

— Oymomo, tong otguncha o'tira beramizmi?

— Oymomo, dugonalaringning gapiga kirma, ular senga g'ayirlik qilayapti.

— Ay, Norgul, shu buzmakorliging bo'lsa, senga birov ham qaramaydi!

— U yoqda kuyovto'ra intiq bo'lib qoldi!

Qizlar-da bo'sh kelmadi:

— Intiq bo'lsa bo'lar!

— Qirqiga chidagan kuyov, qirq biriga-da chidar!

— Bir tong otsa otibdi-da, hali yanagi tonglar bor!

Xayrulla domla oxirgi bor — uchinchi bor vakil so'radi.

Shunda-da javob bo'lmadi. Uchdan keyin puch bo'ldi. Domla tashqari ravona bo'ldi.

— Kelin xohlamayapti, nikohni qoldiramiz, — dedi.

Shunda, oq parda ichidan:

— Ha... — demish zaif ovoz keldi.

Ovozni barcha eshitdi.

Kuyov jo'ralar keta-keta:

— Tag'in xiyol hayallaganingda kuyovsiz qolib eding! — dedi.

Kulgi bo'ldi.

16

Bo'lak uyda o'tirmish bo'lak domla oldiga keldilar.

Birov kelindan so'rab keldi.

Kelin vakilini akasiga berdi.

Kelin akasi domla qoshiga cho'k tushdi.

Kuyov keldi. Qaynog'asi hurmati uchun yuziga belbog' tutdi. Yerga qarab o'tirdi.

Dasturxonda bir chinni kosa suv bilan ikkita tandir non bo'ldi.

Domla bolish uzra kitob ochdi. Qiroatli-qiroatli xutba o'qidi. Xushtalqin-xushtalqin xutba o'qidi!

— Alhamdu lillahil-lazi ja'alan. Nikoha fasilam baynal halali valharom kamaqolallohu: fankixu ma taba lakum minan-nisan. Va qola Rasulullohi, an-nikahu sunnatiav faman rog'iba an sunnati falaysa minni. An-nokihu rog'ibun val mankuhatu marg'ubatun val mahru a'lo ma tarozayo. Aqulu qovli haza va astag'firullohal g'offaro li va lakum. (Halol bilan harom o'rtasida nikohni bino etgan Allohi taologa hamd-u sanolar bo'lsin. Qur'onda Alloh deydi: o'zingizga yoqqan ayollardan nikohlab olinglar. Payg'ambarimiz hadislarida demishlar: oila qurish mening sunnatim. Kim undan yuz o'girsa, u mendan emas. Kuyov yaxshi ko'ruvchi, kelin yaxshik o'rilgan, o'rtalaridagi mahroziliklariga binoandir. Shu so'zimni aytib, o'zim va sizlar uchun Allohdan kechirim so'rayman.)

Domla kelin akasidan vakil so'radi:

— Sizkim, Esonboy Abdiboy o'g'li, singlingiz Oymomo Abdiboy qizini Qoplonboy Qurbonboy o'g'liga shar'iy ayollikka berdingizmi?

— Ha, berdim, — dedi aka. Domla endi kuyovdan so‘radi:

— Sizkim, Qoplonboy Qurbonboy o‘g‘li, Oymomo Abdiboy qizini o‘zingizga shar’iy ayollikka qabul qildingizmi?

— Qabul qildim.

Domla suvdan bir ho‘pladi.

Kuyov-da bir ho‘pladi.

Nikoh suvidan kuyov jo‘ralar-da ho‘pladi.

Domla kuyovlik burchlarini aytdi:

— Olti oy tashlab ketmaslik, achchiq shapaloq urmaslik, yalangoyoq qo‘ymaslik, halol yurish-turish... Shu shartlarni qabul qildingizmi?

— Ha, — deya bosh irg‘adi kuyov.

— Ha, kifoya emas. Qabul qildim, deb ayting.

— Qabul qildim.

— Barakallo.

17

Nikoh o‘qilish mobaynida onasi kuyov yelkasiga beqasam chopon yopdi. Beqasam yelkasidan igna bilan ip o‘tkazib-ip o‘tkazib oldi.

Bu, kuyov-qayliq hamisha birikib yursin, ajralib ketmasin, degani bo‘ldi.

Ip uchlarini tugmadi.

Kelin-kuyov taqdir-peshonasi tugilmasin, deya shunday qildi.

Hamisha bug‘doyday serob bo‘lsin, bola-chaqali bo‘lsin deya, kuyov boshi uzra bir hovuch burdoy sepdi.

18

Kuyov oshnalari bilan chimildiqqa yo‘l oldi.

Oyog‘ida baland poshnali g‘archillama etik bo‘ldi. Yelkasida beqasam, belida shoyi belbog‘ bo‘ldi. Boshida qo‘qoncha do‘ppi bo‘ldi.

Chimildiqli uy to‘la ayol bo‘ldi.

Kuyov ayollar orasidan yurdi. Chimildiqda tik turdi.

Kuyov yolg‘iz turmasin deya, oshnalaridan birovi yonida yo‘ldosh bo‘ldi.

19

Kelin poyandozni bir-bir bosib keldi.

Yuzlarida oppoq harir bo‘ldi. Boshida ipak ro‘mol bo‘ldi.

Egnida beqasam kamzul, atlas ko‘ylak bo‘ldi. Oyoqlarida kavush bo‘ldi.

Kelin peshonasida tillaqosh bo‘ldi.

Tillaqosh jimjimador ko‘zlari yorug‘da yalt-yalt etdi.

Quloqlarida zirak bo‘ldi. Ko‘kraklarida sakkiz kumush nishonli zebigardon bo‘ldi.

Zebigardon feruzalari tovlandi, bodomlari tovlandi.

To‘yxonani kiyiko‘t bilan olqor isi oldi.

Olqor bilan kiyiko‘t qizlar qulog‘ida bo‘ldi, ko‘kraklarida bo‘ldi.

Qizlar kelinga bo‘lishdi, bo‘zbolalar kuyovga bo‘lishdi:

— Ko‘zingga qara, ko‘zingga qara! — deyishdi.

Emishki, yo kuyov, yo kelin birinchi bo‘lib birovi oyog‘ini bossa, ana shu ro‘zg‘orda umr bo‘yi o‘ktam bo‘ladi!

Kelin, kuyov oyog‘idan ko‘z uzmadi. Chapiga qarab yurdi. Chap oyog‘i bilan kuyov oyog‘ini bosmoqchi bo‘ldi.

Kuyov epchillik bilan o‘ng oyog‘ini tortib oldi.

Kelin oyog‘i ko‘rpachani bosib oldi.

Kuyov chaqqonlik qilib, kelin oyog‘ini bosdi.

Bo‘zbolalar g‘olibona qah-qah urdi:

— Kuyov bosdi, kuyov o‘ktam! — dedi.

20

Kelin-kuyov yonma-yon turdi.

Bo‘zbolalar kelin-kuyov poyida davra qurdi. Qizlarga hazil-mutoyiba gaplar otdi.

Ko‘ngillar ko‘ngillarni izladi, ko‘zlar ko‘zlarni izladi.

Ko‘zlar xushtor-xushtor boqdi, g‘amzali-g‘amzali boqdi.

Ko‘zlar o‘ynadi, ko‘zlar chorladi.

Ko‘ngillar entikdi, ko‘ngillar orziqdi.

Qaysidir ko‘ngil oshiq bo‘ldi, qaysidir ko‘ngil ma’shuq bo‘ldi.

Qaysidir ko‘ngilda ko‘hna dard qaytalandi.
Qaysidir ko‘ngilda dard shu lahzadan boshlandi!

21

Peshonalarda manglaydo‘zilar yal-yal bo‘ldi.

Solinchaklarda bodomnusxa kumush gajaklar, oynador baldoqlar halqa-halqa bo‘ldi.

Ko‘kraklarda tumorlar, nozigardonlar, uch qatorli shokilalar, to‘rt qator-u besh nishonli marjonlar shoda-shoda bo‘ldi.

Boshlarda ottuyoq ro‘mol, sholro‘mol, balxiro‘mol, qulmiro‘mol, shotutro‘mol, simro‘mol, harir ro‘mollar havolandi.

Bodomcha, iroqi do‘ppilar, chorgul, baxmaltepa do‘ppilar g‘ujg‘uj bo‘ldi.

Elimiz kamalakni matoga ko‘chirdi. Oti atlas bo‘ldi.

Ana, atlas onalarimnz, opa-singillarimiz, qizlarimiz egnida tovlandi.

Atlasda o‘ziga loyiq rangi bo‘ldi, rangiga loyiq nomi bo‘ldi: Sakkiztepkilik, Marg‘ilon xonatlasi, Samarqand oqshomi, Marg‘ilon mash’ali, Farg‘ona yo‘llari, Layli, Guli, Shirin, Mahliqo, Shotikapak, Shodiqara, Qo‘chqorshoxi, Tiri kamon, Oltin kalit...

Bir yil to‘rt fasl bo‘ldi. Fasllar ranglarga mo‘l bo‘ldi: bahor — gulzor, yoz — oftob, kuz — munis, qish — marmar...

Elimiz fasllarni matoga ko‘chirdi: Hamisha bahor, Bog‘-u bo‘ston, Rayhon, Gul va Navro‘z, Gulnamozshom, Bargikaram...

Atlas — elimiz tarixi. Atlasda elimiz kechirmish hayitlari bor, fojialari bor.

Atlas — qo‘shiq, elimizning azaliy ham so‘ngsiz qo‘shig‘i!

22

It g‘irillatar.
Kampir o‘ldi.
Soch siypatar.
Qo‘l ushlatar bo‘ldi.

23

Oyna ko‘rsatar baridan-da zavqli bo‘ldi, baridan-da gashtli bo‘ldi!

Kayvoni ayol kelin-kuyovga oyna tutdi.

Kelin-kuyov yuzlarini oynadan olib qochdi. Kelin qarasa, kuyov qaramadi, kuyov qarasa, kelin qaramadi!

Kayvoni ayol kelin-kuyov boshini yonma-yon ushladi. Yuzlarini oynaga qaratib turdi.

Bir-birlari bilan aytishmaganlariga-da qo‘ymadi!

Kuyov kelin aksi bilan, kelin kuyov aksi bilan pichirlashib aytishdi.

— Bizni voyaga yetkazmish ota-onamizga ming bor qulluqlar bo‘lsin.

— Akamiz bilan yangamizga undan-da ko‘p.

— Bir-birimizga o‘la-o‘lgunimizcha sodiq bo‘laylik.

— Undan keyin-da shunday bo‘laylik.

— O‘g‘il-qizlarimiz...

— Bir etak bo‘lsin!

24

Chimildiq tushdi.

Kuyov-qayliq chimildiq ichida qoldi.

Ikkita momo chimildiq sirtida qoldi.

Momolar urchuq yigira-yigira, o‘z kechmishlaridan gapirdi, qayliq bo‘lmish davrlaridan gapirdi.

Momolar mijja qoqmadi. Kuyov-qayliqni qo‘riqlab o‘tirdi.

Chimildiqda o‘tirmish kuyov, qaylig‘i qoshiga bordi.

Qayliq bir chimildiqqa qaradi, bir kuyovga qaradi. Bu qarash mana bunday dedi:

“Xolisroq o‘tirsin, momolardan uyatdir”.

Kuyov qaylig‘iga o‘pka-gina bilan tikildi. Bu tikilish mana bunday dedi:

“Ha, deyish shunchalar mushkulmi? Oshnolarim sarg‘ayib somon bo‘ldi”.

Qayliq miyig'ida tabassum balqidi.

"Darrov ha, desak, kelin o'lib turgan ekan, deydilar".

"Chin, men darrov ha, debman. Miq etmay o'tira bersam bo'lardi".

"Indamay tura berish kuyovlar emas, kelinlar rasmi. Aslida, birinchi so'rovda-da ha, degimiz bor..."

Momolar chimildiqda kechmish jimjitlikdan alag'da bo'ldi. Birovi ohista chimildiq burchini turdi. Birovi tirsaklab yotdi. Chimildiq ostidan bir ko'zlab mo'raladi.

— Eb-e, oralaring muncha olis? — dedi. — Yo, bizdan nam tortayapsizlarmi? Nam tortmanglar, biz-da qayliq bo'lib edik...

Momolar chimildiqni yopdi.

Ana shunda, chimildiqdan qiqir-qiqir kulgi keldi...

Momolar og'izlarini ushlab kuldi, bir-birlarini turtib kuldi, bir-birlarini o'ymichlab kuldi...

— Xayriyat-a... — dedi.

Tong tagi oqardi.

Kuyov chimildiqni tark etdi.

25

Qorong'i tushdi.

Odam odamni tanimay qoldi.

Kuyov oshnalari bilan qayliqlab keldi.

Chimildiqli uyda davra qurdi.

Oshnalar zig'ir moyli palov yeb ketdi.

Kuyov yolg'iz qoldi.

Shunda, qayliq kirib keldi.

Qayliq deraza pardalarini tekisladi. Tokchadagi shamni yoqdi. Chiroqni o'chirdi. Sham bilan chimildiqqa kirdi.

Kuyov-da sham izidan kirdi. Lo'la bolishga yonboshladi. Shamga tikildi.

Qayliq ro'moli ko'ksiga tusha berdi-tusha berdi. Shunda qayliq ro'molini yelkasiga qayirib tashladi.

Qayliq-da to'lg'ona-to'lg'ona yonmish shamga termildi...

26

"...Tog'lar kulrang, qirlar kulrang bo'ldi. Archalar ko'm-ko'k bo'ldi. Adirlar o'rkach-o'rkach bo'ldi. Tovatoshlar ulkan-ulkan bo'ldi. Yong'oqlar azim-azim bo'ldi.

Bir qiz yelkasida ko'za bilan buloqqa keldi. Ko'zasini yerga qo'ydi. Buloq suvlarida yuzini yuvdi.

Shunda, suv ostida turmish bir otliqqa ko'zi tushdi.

Qiz ro'moli bilan yuzini yashirdi, qiz hayolandi.

— Ko'zlaringni yashirma, Oymomo, — dedi otliq.

— Keting, odamlar ko'radi, keting, — dedi qiz.

— Buloq suvlaridan ichayin deb keldim.

Bo'zbola otdan tushdi. Bir qo'lida jilov bo'ldi.

Hovuchlab-hovuchlab buloq suvi ichdi. Bir hovuchini qizga sepdi.

Ot hurkdi, ketiga tis bo'ldi.

Qiz betlarini artdi.

— Ichgan bo'lsangiz, endi keting.

— Ko'zlaringni bir ko'rayin deb keldim.

— Ko'rishga mening ko'zlarimdan o'zga-da ko'zlar ko'pdir.

— Yo'q, har bandaning o'zi ko'radigan ko'zlari bo'ladi. Sening ko'zlaring — meniki. Kelma, desang, mayli kelmayman.

— Ko'zlarni deb kelmasangiz-da, buloq suvi ichgani keling..."

27

Kuyov-qayliq o'z xayollarini bir-birlaridan yashirdi. Ayni paytda bir-birlari nimalarni xayol surayapti, shuni bilmoqchi bo'ldi.

— Gapir, — dedi kuyov.

— O'zi gapirsin.

— Sen gapir.

— O'zi gapirsin-da.

— Nimani gapirayin?

— O'zimizning oqshomlardan gapirsin, qirdagi bug'doy o'rimidan gapirsin...

— Sen gapir, qirdan qaytib, zardolilar ostida oyoq ilganimizni, men senga zardoli terib berganimni.

— O‘zi gapirsin, qo‘llari zardoli shoxlarida bo‘lsa-da, ko‘zlari menda ekanini.

— Sen gapir, shamolda ro‘moling uchib ketgani, men ushlab kelganimni.

— O‘zi gapirsin, ro‘molga uzatgan bilagimdan mahkam ushlaganini, yig‘layman desam-da, qo‘yib yubormaganini.

Sukunat, toshday sukunat.

Kuyov-qayliq xayolan ko‘rdi: zardolilar ostiga tap-tap tushdi. Ko‘rshapalaklar pir-pir uchdi.

Kuyov-qayliq xayolan eshitdi: yoz chigirtkalari chir-chir etdi. Boyo‘g‘li uzib-uzib ovoz berdi.

— Yo‘q, sen gapir, qo‘llaringni ushlaganimni uyalmay-netmay yangangga aytganingni.

— O‘zi gapirsin, aytdim, deya aldasam-da, yangamdan qochib yurganini.

— Aytmaganing chinmi?

— Chin.

— Men yangangga ro‘paru bo‘lolmabman, yuzlariga qanday qarayman, deb.

— Bilsa, haliyam aytganim yo‘q.

Kuyov zavqlandi. Shiftga tikilib, sukutga ketdi. Jimjitlik qayliq ko‘ngliga tahlika soldi. Qayliq xayoli bir yoqlarga ketdi.

— Nimalarni o‘ylayapti? — dedi.

— O‘zimizning oqshomlarni.

— Zubaydani-chi?

Qayliq kuyovi jon joyidan ushladi. Kuyov xayoli uchdi-ketdi.

— Sen unday o‘ylarga borma, — dedi kuyov. — Chin, qaraganim chin. Men senga aytsam, qaraydigan vaqtlar edi-da. Kimga qaragan bo‘lsam, seni deb qarab edim. Chin, Zubaydaga qaradim. Yo‘q, u sen emas bo‘ldi. Bolxinga qaradim. U-da sen emas bo‘ldi. Tag‘in birovga qaradim. U, sen o‘zing bo‘lding...

— Shu chinimi?

— Chinim.

Qayliq iyib ketdi. Qayliq dildorlik berdi, qayliq dilbarlik berdi...

— Unda... men sizga... tan berdim!

28

Kuyov-qayliqlar tongi tez otadi!

Qayliq kuyov quchog'idan qo'zg'oldi. Kuyov uzatmish bebosh qo'llarni rad etib tashladi.

— Bo'ldi! — dedi. — Beboshlik qila berdi-qila berdi, tonglar boshiga-da yetdi...

Kuyov-qayliq dahlizda bir-birlari boshidan suv quydi. Gunohlardan forig' bo'ldi.

Kuyov belqars o'ray-o'ray eshik sari yurdi. Eshik baldog'ini ushladi. Serrayib qoldi. Yelkasi osha chimildiqqa qaradi.

Qayliq ro'moli uchini g'ijimlab o'ynadi. Barmoqlariga tikildi.

— Endi kelmasin, yomon ekan, — dedi qayliq.

Kuyov ko'ngli tongday yorishdi. Bordi-yu, qayliq bo'lmish qachon kelasiz, deganida kuyov og'rinar edi.

Kuyov katta ko'cha bo'ylab yurdi.

Kuyov ko'zlariga jamiki olam oppoq bo'lib ko'rindi.

Poyidagi yo'l oppoq, choyshabday oppoq. Uylar, devorlar, daraxtlar-da oppoq. Qushlar-da oppoq, choyshabdayin oppoq. Ko'cha yoqalab oqmish suv-da oppoq. Suv jildirashi-da oppoq, choyshabdayin oppoq.

Tong yetildi.

Yulduzlar so'ndi-so'ndi, Zuhro yolg'iz qoldi.

Kuyov quchoq ochdi — tongni bag'riga bosdi.

Tong bepoyon osmoni, qorga belanmish tog'lari bilan parishon adirlari, sarvqomat teraklari bilan kuyov qo'yniga kirdi.

Kuyov kaft ochdi. Havoda to'zg'imish tong sochlarini — tong yellarini siladi.

Kuyov tongni o'pib-o'pib oldi!

Ariq yoqalab chopdi.

Balx tut tanasini quchoqladi. Balx tut shoxchalarini — sochlarini siladi, sochlarini taradi.

Tag'in chopib ketdi.

Ro'parasidan odam keldi.

Kuyov odamzodni ilk bor ko'rmish misol tikildi.

Bu odam itidan-da yomon ko'rmish Ismat ovchi bo'ldi.

Ushbu damda Ismat ovchi-da binoyiday odam bo'ldi.

Olamda yomon yo'q, barcha-barcha yaxshi bo'ldi.

Kuyov umrida birinchi bor Ismat ovchiga salom berdi.

Hamishagiday salom umidlanmay o'tmish Ismat ovchi xiyol o'tib oyoq ildi. Hayron bo'lib alik oldi. Ketiga qaradi-qaradi.

— Tarvuzing yorilibdi-da... — deya manqalandi.

Bir ayol kela berdi.

Kuyov joyida qoldi. Qadam bosarini-da bilmadi, bosmasini-da bilmadi. Yuzlari lov-lov yondi.

Ayol kelayapti...

Endi ayol zoti ko'ziga qaysi yuz bilan ko'rinadi? Ko'rinsa, ayol zoti ko'ziga qaysi yuz bilan qaraydi?

Kuyov yo'lini ayoldan chap soldi.

29

Qurbon hayit bo'ldi.

Ahli mo'minlar qurbonlik qildi. Jonliq so'yib qon chiqardi.

Qo'li kalta mo'minlar qassobdan go'sht oldi.

Ahli mo'minlar hayitlik kiydi. Bisotida borlar ohorli kiyim kiydi. Bisotida yo'qlar ko'hna bo'lsa-da, ozoda kiyim kiydi.

Ahli mo'minlar orolandi. Yuzlariga xushbo'y-xushbo'y moylar surtdi. Qoshlariga o'sma tortdi. Ko'zlariga surma surdi. Qo'llariga xino qo'ydi. Ko'kraklariga olqor taqdi.

Mo'minlar bir-birlari uyiga hayitlab bordi.

— Hayitingiz qulluq bo'lsin! — deya muborakbod etdi.

Kuyov qaylig'iga hayitlik yubordi, qayliq kuyoviga hayitlik yubordi.

Qoplon kuyov tarafdan bir farangi ro'mol, bir juft kavush, uzuk hamda turli-tuman qand-qurs keldi.

Oymomo qayliq tarafdan ko'ylak, jelak, belqars hamda qo'lro'mol hayitlik keldi.

Bari qayliq qo‘lidan bo‘ldi.

Buni ro‘molcha qoq belida qip-qizil cho‘g‘dayin tovlanmish atirguldan bildik.

Atirgul qayliq kuyovga ro‘molcha emas, ko‘ngil yubormish ramzi bo‘ldi.

Kuyov ro‘molchani yuzlariga bosib-bosib hidladi.

Ro‘molchadan... ro‘molchadan qaylig‘i havosini oldi.

Ro‘molchani ko‘zlariga surtib o‘pdi, peshonasiga surtib o‘pdi, lablariga surtib o‘pdi.

O‘pdi-o‘pdi, to‘rt buklab qo‘yniga tiqdi.

30

Hayitda ulkan hovuz bo‘yida jiynoq bo‘ldi.

Jiynoqda nisholda, no‘xat sotdi, holva, pista sotdi.

Bolalar loyshuvillak chaldi, sibziq chaldi.

Qizlar katta tut ostida g‘uj bo‘ldi.

Sardor qiz jikkak bolaga bir o‘ram arqon berdi.

Bola yalang oyoq bo‘ldi. Beliga arqon o‘radi. Yo‘g‘on tutga tirmashib chiqdi.

— Qaysi shoxga tashlayin? — so‘radi bola.

— Huv anavi bukri shoxga! — dedi sardor qiz.

Bola ana shu shoxga chiqib bordi. Belidagi arqonni shoxga tashladi. Arqon uchlari yerga borib tegdi.

Shox bilan yer oralig‘i yigirma qulochcha bo‘ldi.

Bola shu arqondan yerga osilib tushdi.

Yerda kaftini qoshiga qo‘yib qaramish qizlar ichini tortdi.

Sardor qiz bolani bir mushtladi.

— O‘l-a, yuragimni yording-ku! — dedi.

Bola yer sapchidi, xiringlab kuldi.

— Urmang, bo‘lmasa, Nurali akamga aytaman! — dedi.

— Nuraling kim?

— Sizni achchiq zardoli ostida quchoqlab o‘padigan Nurali!

— O‘chir-e, ko‘rgiliging ko‘p bo‘lgur!

Qizlar gurr kuldi!

Sardor qiz arqon uchlarini tugdi.

Halinchakka bir qiz o'tirdi.

Sardor qizni u yoqdan-b uyoqqa olib borib-olib keldi. Keyin zarb bilan qo'yib yubordi.

Qiz halinchak uchishiga qarab goh o'tirdi, goh turdi.

Qiz yellandi, qiz sollandi! Qiz sur'atini oshirgan sayin oshirdi.

Tevarak tomlarda holva yeb o'tirmish hayitlovchilar halinchak tomosha etdi.

Shunda, Oymomo halinchakladi.

O'ziga qaradi. Ottuyoq ro'molini bo'yniga o'radi.

Sollanib-sollanib bir uchdi-bir uchdi-ye! Gir aylanib ketayin dedi!

Halinchak quyidan yuqoriladi.

Oymomo o'tirib oldi.

Halinchak o'ng tarafga ko'tarilib bordi. Joyida muallaq qoldi. Keyin birdan quyiladi.

Oymomo oyog'ida tik turdi.

Halinchak Oymomo vazni zarbida shiddat bilan quyiladi. Quyidan chap tarafga yuqoriladi.

Halinchak bir chap sayin-bir o'ng sayin yuqorilab-yuqorilab turdi.

Hayitlovchilar bosh kiyimlarini ushlab halinchak qaradi.

Shunday bo'lsa-da, do'ppisi tushib ketuvchilar-da bo'ldi, ro'moli uchib ketuvchilar-da bo'ldi.

Qoplon yuragini hovuchladi.

— Yo, pirim-e, yo, pirim-e, — deya pichirladi.

Og'zidagi holva og'zida qoldi, bo'g'zidagi holva bo'g'zida qoldi.

Halinchak ohistaladi.

Oymomo o'zini yerga tashladi. Zarb bilan chopqillab bordi. Bir qizni quchoqlab oldi.

Ana shunda Qoplon yelkasidan nafas oldi. Bo'g'zidagi holvani yutdi, og'zidagi holvani chaynadi.

31

Kechasi qayliq o‘yinida bo‘ldi.

Qayliqdan qoyilligini yashirmadi.

— Yuragingga balli-ye! — dedi. — Aeroplandayin uchding-a! Senga qarab, mening boshim aylanib ketdi!

— Uchib qolayin, bir-ikki oydan keyin uchish qayoqda...

— Nimaga unday deysan?

Qayliq javob o‘rniga kuyov qo‘lini ushladi, barmoqlarini tortqiladi.

Kuyov darhol anglab oldi.

— Haaa... — deya kulimsidi.

Qaylig‘i yuzini bag‘riga bosdi. Sochlarni siladi. Dilnavozlik qildi...

— Otini nima qo‘yamiz? — dedi.

— Barchinoy.

— Sen hali...

— Qiz yaxshi-da. Menga yordamchi bo‘ladi.

— Yo‘q, o‘g‘il bo‘lsin. Otini-da o‘ylab qo‘yibman: Xushvaqt!

— Keyin?

— Keyin, Xushvaqtni katta qilamiz. Uylantiramiz-joylantiramiz, nevara-chevara ko‘ramiz. Men bova bo‘laman, sen momo bo‘lasan.

Qayliq zavqlanib-zavqlanib kuldi.

— Men bu kishini bovasi deb chaqiraman.

— Men seni momosi deb chaqiraman.

— Bovasi!

— Momosi!

Kuyov-qayliq Xushvaqt yo‘lida entika-entika tongni oqladi.

32

Tandir to‘la nonlar yopildi.

Kelin bisotlari, yuk-yoplari otlarga ortildi.

Oy to‘yxona uzra havolandi.

Supa oldida saman ot bel bo'ldi.

O'ng yoq hamsoya saman jilovini ushlab turdi.

Yanga bo'lmish kelin oyog'idan olib yubordi.

Kelin otlandi.

Kelin bilan bir begunoh bola mingashib boradi.

Bu sharaf xiyla talash bo'ldi.

Og'ayni-jamoadan besh-olti bola:

— Xolam bilan men mingashaman, opam bilan men mingashaman! — deya turib oldi.

Kelin to'ng'ich jiyani mingashdi. O'zga bolalar yig'lab qoldi.

Og'ayni-jamoa hovli yuziga chiqdi. Yoppasiga oq fotiha berdi.

Kelin o'ng taraf hamsoyasi ot yetakladi.

Yon qo'shnim — jon qo'shnim bo'ldi.

Ot ostonadan hatladi.

Kelin uzatildi.

Kelin yig'i boshladi:

— Uvvv-uvvv-uvvv...

Yig'ini o'z uyi — o'lan to'shagini tark etajagidan, xesh-aqrabolaridan olislab ketajagidan desak-da bo'ladi.

Mo'lt-mo'lt qarab turmish, sel-sebora yig'lab turmish jiyanlari ko'ngli uchun desak-da bo'ladi.

Yo, akasi bilan yangasi bizdan qutulish uchun zormanda ekan, demasin degan andishada yig'laydimi?

Shunday desak-da bo'ladi.

Yo, kuyovi uyiga borajagi quvonchidan, xushvaqtligidan yig'laydimi?

Ayniqsa, shunday desak bo'ladi!

Jiyani belidan qo'shqo'llab quchoqlab olmish kelin eshitilar-eshitilmas yig'lab bordi:

— Uvvv-uvvv-uvvv...

Saman terib-terib qadamladi: tik-tik tik...

Hovlilarda itlar hurdi.

Chap taraf chorbog'dan loviya qovunisi keldi.

To'ylovchilar chorbog'tarafga qaradi. To'yib-to'yib iskadi.

33

Ko‘prikda soyalar qora berdi. Ikkita bo‘zbola ko‘prikda tayoq tutib turdi.

Tayoqni olmasdan ko‘prikdan o‘tib bo‘lmadi.

Bo‘zbolalar kelin tarafdan talab qildi:

— Kuyov... beringlar!

Kelin taraf sukut saqladi. Bo‘zbolalar o‘z so‘zida turdi:

— Unda, yo‘l yo‘q.

Ot yetaklovchi qo‘ynidan kelin tikmish ro‘mollardan oldi. Bo‘zbolalarga birovdan berdi. Tayoq olindi, kelin yo‘li ochildi.

34

Kuyov uyiga yetib keldilar.

Bolalar kelinga peshvoz chopdi.

— Yashasin, kelin keldi! — deya qiyqirdi.

Darvoza oldida gulxan yoqildi.

Kelin gulxandan uch marta aylandi.

Oqlik uchun, hamisha oqko‘ngil bo‘lib yurishlari uchun kelin-qudalar yuziga un sepildi.

Yuzlarini ro‘moli bilan yashirgan yashirib qoldi, yashirolmagan oppoq un bo‘ldi.

Saman qora o‘tov oldida oyoq ildi.

Kuyov qayliqni otdan tushiraman dedi. Quchog‘ini lang ochdi.

Qayliq kuyov qo‘llarini surib tashladi. O‘zicha rad etgan bo‘ldi.

Qayliq baribir shu quchoqdan tushdi!

Qarindoshlari bilan dugonalari kelin girdini olib turdi.

Kayvoni momo kelinni ro‘moli burchidan ichkari yetakladi. Kelin boshini ostonaga egdi.

— Mana shu ostonaga bi-i-ir ta’zim! — dedi momo.

Kelin ostonaga o‘xshatib bir ta’zim qildi.

Tag‘in bir ta’zimlab, ostonani tavof qildi.

Kayvoni momo kelinni ta’zimlatib-ta’zimlatib ichkarilay berdi.

— Bizni yaratmish Odam Otamizga bir ta'zim!

— Bizni bino etmish Momo Havomizga bir ta'zim!

— Pastroq egil, u kishi ko'p ulug' edi!

— Ha, bo'yginangdan momoginang aylansin-da! Qani, yura ber!

Kelin chimildiqda tik turdi.

Chimildiq bog'ichida o'n sakkiz xil kelinlik kiyimi terildi. Devorlarda oynaxaltalar, choyxaltalar bo'ldi, zardevorlar, so'zanalar bo'ldi.

So'zanalarda "Xush kelibsiz" demish kashtali so'zlar bo'ldi.

Bir so'zanada atirgul ramzi bo'ldi, bir so'zanada qizil olma ramzi bo'ldi.

Tag'in bir so'zanada og'zida qizil gul tishlab parvozlanmish kaptar bo'ldi.

Kaptar ostida "O" harfi kashtalandi. Kaptar intilmish manzil tarafda "Q" harfi kashtalandi. "O" — Oymomo bo'ldi, "Q" — Qoplon bo'ldi.

Bari kelin ishi bo'ldi!

35

Kayvoni momo kelinni to'ylovchilarga salom berdira berdi:

Soydan ho'kiz suvlatgan,
Do'mbirasini kuylatgan,
O'g'illarini uylatgan —
Qaynotamga salom!

Osmondagi yulduzday,
Qoshi qora qunduzday,
Dili oydin kunduzday —
Qaynonamga salom!

Baytlar kayvonidan bo'laberdi, ta'zimlar kelindan bo'la berdi:

Qozonlarning qopqog'i,
Ayollarning oppog'i,

Misli olma yonog'i —
Gulsun opamga salom!

G'ijim ro'mol o'ragan,
Burilib oyga qaragan,
Sochin silliq taragan —
Sanam xolamga salom!

Bog'da uzum g'o'rasi,
Kuyovbekning jo'rasi,
Norguloyning to'rasi —
Bahrom akamga salom!

— Kayvoni momo, hamsoyasi Suvon daroz, men qolib ketdim, deb o'pkalayapti.

— Unda, eshitsin:

Tegirmonning noviday,
Adras to'nning bog'iday —
Daroz akamga salom!

Norboy cho'pon o'rnidan turib ketdi.

— Ay, momo, kelin nimaga menga salom bermaydi? — dedi.

— Salom berganim bo'lsin. Eshiting:

Qopga tiqqan poxolday,
Indan chiqqan shoqolday —
Norboy akamga salom!

Bo'ldi kulgi!

— Hay ukkag'arning momosi-ye, bekor o'pkalabman-a! Kelin keldisi yaxshi, to'y bo'ldisi yaxshi!

36

Kelinlar tong saharlab turadi!

Kelin ayollar hamrohligida eshikni ochdi, tuynukni ochdi.

Shu xonadonga sodiq bo'lish ramzida it yalog'iga ovqat qo'ydi.

Idish-toboqlarga bir-bir ko'z soldi.

Porillab yonmish olovga moy tomizdi.

Bu, baxtli bo'lish ramzi bo'ldi.

Nevara-chevarali bo'lib yurayin deya, qo'liga go'dak oldi.

Barcha palov yedi.

Kelin bo'lsa, qo'lini-da uzatmadi.

Shunda, kelin osh yemadi, bo'ldi.

Kuyov tog'asi kelin osh yeyishi uchun bir jo'ra sakkiztepkilik atlas aytdi. Ammasi qo'qoncha shoyi aytdi.

— Aytadiganlar og'ziga qarab aytsin! — dedi bir momo.

Chin, aytuvchilar aytmishini kelin chaqiriqda kiygizadi.

Oxirgi kelin osh yemadini qaynonasi aytdi:

— Mana shu uy-joy turish-turmishi bilan seniki!

— Ana bo'lmasa! — dedi barcha.

Ana shundagina kelin palovga qo'l uzatdi.

Yuz ochar bo'ldi.

Kelinlar yuzini ochish begunoh norasidalar ishidir.

Shu bois, momolar to'rt-besh yashar kuyov-ukani gij-gijladi.

Kuyov uka chopqillab bordi. Yangasi yuzidagi ro'molni tortib yubordi.

Kelin yuz ochdi.

37

To'ylovchi ketdi, to'yxona qoldi.

Kuyov bilan qayliq qoldi.

Ota-ona kuyov-qayliq uchun bo'lak hovli solib berdi.

II

Momomiz shundaygina bobomiz qabatlarida o'tiribdilar.

Doka ro'mollari uchlari yellarda hilpiradi-hilpiradi, bobomiz yuzlarini siladi.

Bobomiz huzurlandilar, bobomiz g'ashlandilar. Kipriklarini pirpiratdilar, yonoqlari, lablarini uchirdilar.

Doka ro'mol momomiz sochlariday oppoq bo'ldi, mayin bo'ldi.

Ohista-ohista esmish yoz yellari tanga huzur berdi.

Yellar salqin bo'ldi, yellar sokin bo'ldi.

Yoz yellaridan yer isi keldi.

— Bu yil pishiqchilik yaxshi keldi, momosi. Mevalar mo'l...

1

Qoplon oyog'ida og'riq turdi.

Iliklarida bir nimalar g'imirlab yurdi. Iliklari qizidi, iliklari zirqiradi.

Qoplon chalqanchadan yonbosh bo'ldi. Ayoli tarafga o'girildi.

— Havo sevalab o'tadi, momosi, — dedi.

— Bu kishi qayerdan biladi? — dedi ayoli.

Qoplon oyog'ini aytmadi.

— Bilaman-da, — dedi. — Ko'rshapalaklar inlaridan uchib chiqmasa, havo ayniydi. Bugun oqshom ko'rshapalaklar uchmab edi.

Og'riq zo'raydi. To'piqlari, bebilchaklari ichi zirqiradi.

Qoplon tashqarilab keldi.

— Aytdim-ku, momosi, — dedi. — Oy o'z girdida o'rov tortibdi. Yog'adi, bosib yog'adi.

Chin, yarim tunda yomg'ir ovoz berdi. Yomg'ir to'ntariqli tog'oralarni chaldi, derazalarni chertdi.

Qoplon yotib yotolmadi. Ayvonlab, hovli chirog'ini yoqdi.

Tarnovdan tushmish yomg'ir ko'lmaklandi. Ko'lmakka tomchilamish yomg'ir chuldiradi.

Hovli burchida mushuk ko'zlari yiltiradi. O'tlar orasidan qurbaqa sapchib keldi.

Qoplon dimog'i yomg'ir isini tuydi.

Havo ertasi tushda tindi.

Kun yaraqlab ketdi.

Oymomo ko‘rpa-to‘shaklarni, shamollatish uchun hovlidagi simga osdi. Derazalarni lang ochdi. Oftobro‘yaga to‘shak tashladi. Dasturxon yoydi.

Qoplon ta’tillandi. Keyin, yonboshladi. Telpagini qoshiga surdi. Ko‘zlarini yumdi. O‘zini oftobga toblab yotdi.

Oymomo oftobiyorda tikish tikdi.

Hovli yuzida makiyon tovuq donladi. Makiyon viqor bilan qadamladi, vazmin-vazmin qadamladi.

— Qurq-qurq-qurq! — deya, ovoziga hamohang qadamladi...

Makiyon ketida olam-jahon jo‘ja odimladi. Jo‘jalar yum-yumaloq bo‘ldi. Limonday-limonday bo‘ldi. Sariq-sariq bo‘ldi.

— Chiyov-chiyov-chiyov! — deya pildiradi.

Chin, jo‘jalar pildir-pildir etdi. Misoli dumaladi!

— Chiyov-chiyov-chiyov! — deya dumaladi. Shu vaqt hovli uzra bir soya aylandi. Qoplon ko‘zi yumuqligidan ko‘rmadi.

Oymomo ko‘zlarini qisib qaradi. Nimaligini bilmadi.

G‘ojir hovli uzra davra oldi. Favqulodda yerga yulduzday uchdi. Qanotlarini yoyib keldi. Bir jo‘jani panjalari orasiga oldi. Tag‘in o‘qday yuqoriladi.

Oymomo ana shunda nima gapligini tushundi. Joyidan sapchib turdi. Qo‘l siltab zug‘um qildi:

— Kish deyman-a, kish, qiyomat qotgur! — dedi.

G‘ojir terak bo‘yi ko‘tarildi.

Panjalarida bormish jo‘ja chiyillab-chiyillab qo‘ya berdi.

Makiyon falakka sapchib qoqoqladi, jo‘jasiga talpinib qoqoqladi.

Qoqoqladi-qoqoqladi, shaxt bilan tomlab uchdi. Chiy-chiy-chiy etmish jo‘jasiga talpindi.

Tomdan g‘o‘zapoya g‘aramiga uchdi. Chiy-chiy-chiy, deya olislamish jo‘jasiga talpindi.

G‘aramdan simyog‘ochga uchdi. Ammo simyog‘och uchiga yetolmadi. Pirr etib yerga uchib tushdi.

Bo‘ynini cho‘zib-cho‘zib, falakka qaradi. Jo‘jasi chiy-chiy-chiy deya, tobora olislab bordi.

Ana shunda makiyon jo‘jasidan umrbod judo bo‘lajagini bildi.

Jonholatda Oymomo bekasini aylanib qoqoqladi. Bolamni olib ketdi, dedi. Oh urib qoqoqladi.

Oymomo bekasidan madad so'radi. Bolaginamni olib ketdi, dedi. Faryod urib qoqoqladi.

Bolasi olisladi. Ovozi elas-elas eshitildi.

Makiyon qoqoqladi-qoqoqladi, taqdirga tan berdi.

Omon qolmish bolalarini ergashtirdi. Katagiga yo'l oldi. Bo'ynini ichiga tortdi. Ko'zlarini yumdi.

Makiyon, nopayid bo'lmish bolasi azasini tutdi.

Oymomo makiyon izidan bordi. Katakka qarab-qarab keldi.

— Bola bola-da, — dedi. — Bo'lmasa, qolgan o'n beshta bolasi kamlik qiladimi...

Qoplon ma'yus bosh irg'adi.

— Xudo shuni-da ko'p ko'rdi, — dedi.

G'ojir olislamish yoqqa qaradi. O'zicha fotiha o'qidi. Dasturxon uchun o'qidimi, yo, nopayid bo'lmish jo'ja uchun o'qidimi, bilib bo'lmadi.

— Xudo shuni-da qiymadi, — dedi.

Ma'yusdan — ma'yuslandi. Ma'yus bosh egdi, ma'yus xayollandi...

— Nima, biron joyi og'riyaptimi? — dedi Oymomo.

Qoplon ayoliga termildi. Termildi-termildi, siniq ovozda dedi:

— Bilmayman, momosi, bilmayman. Ko'nglimda bir nima yuribdi. Panjalarini botirib-botirib yuradi. Avvallari ahyon-ahyonda yurar edi. Endi bo'lsa na kechani kanda qiladi, na kunduzni kanda qiladi. Ko'nglimni tirnab-tirnab yuradi. Qo'limni suqib, olib tashlayin deyman, bo'lmaydi, bo'lmaydi...

Oymomo so'raganlariga pushaymon bo'ldi. Nafasi ichiga tushib ketdi. Qilt etib yutindi.

Qoplon tag'in ayoliga termildi. Endigi termilish mana bunday dedi:

"Xo'sh, endi nima qilamiz, momosi?"

Oymomo dasturxondan ko'z olmadi. Xiyol titramish barmoqlari dasturxon gullarini siladi. Toshdan-da og'ir sukunat bo'ldi, azadan-da qayg'uli sukunat bo'ldi!

Bolali uy xandon bo‘ldi, bolasiz uy zindon bo‘ldi!

Oymomo ko‘z qirida Qoplonga qaradi. Kipriklari pirpiradi. Ko‘z qirini olib qochdi. Ko‘z qiri mana bunday dedi:

“Bilmasam, bovasi, men bilmasam...”

Qoplon etigini kiydi. Qoziqdan qamchini oldi.

Shunda, yelkalari bir ko‘tarilib tushdi.

— U-u-uh! — dedi.

Qamchi o‘rimi bilan etigi qo‘njini qamchiladi. Og‘ir-og‘ir odimladi. Zinadan pastladi.

Shunda, ichkaridan:

— U-u-uf! — demish oh keldi.

Ayoli!

3

Qoplon ishiga otlandi.

Uyiga oqshomda qaytib keldi.

— Otasi aytib ketdi, — dedi ayoli.

Otdan tushmasdan otasinikiga yo‘l oldi.

Borsa, ota-onasi bilan o‘zlarining sovchisi bo‘lmish o‘tiribdi.

Qoplon ota-onasidan eshitmaganlarini eshitdi.

— Tokaygacha shunday yura berasan? Javobini ber-da, qo‘y! — deya qo‘l silkidi otasi.

Onasi ro‘moli burchi bilan og‘zini ushladi. Yig‘lamsiragan bo‘ldi.

— Uf-f, kunma-kun oyoqdan qolayapman. Nevara ko‘rolmay o‘tib ketamanmi endi... — dedi.

— Nevarangiz ko‘p-ku, ena... — deya ming‘illadi Qoplon.

— Har bir gulning o‘z hidi bo‘ladi. Boshqa nevaralarimning yo‘rig‘i boshqa, sendan ko‘radigan nevaralarimning yo‘rig‘i boshqa.

— Sen qatorilar bolali bo‘ldi, — dedi otasi.

— O‘g‘li borning o‘zi bor, qizi borning izi bor.

— Umr o‘tayapti. Bo‘laringda bo‘lib o‘t, bo‘z yo‘rg‘aday yelib o‘t.

Qoplon najot istadi, sovchiga qaradi. Sovchi bu qarashni uqdi.

— Xohlasang, ajral, — dedi sovchi. — O‘zim qo‘shib edim, o‘zim ajrataman. Keyin, ukkag‘arning sovchisi umrimga zavol bo‘ldi, deya o‘pkalanib yurma.

— Mayli, bir o‘ylab ko‘rayin, — deya qo‘zg‘aldi Qoplon.

4

Tokaygacha odamlar qoboq-tumshug‘iga qarab kun ko‘radi?

Yo shunday o‘tib keta beradimi? Umri oxirigacha-ya?

Og‘ziga yetgan bor, yetmagan bor. Bir kun emas — bir kun, birov bilan gapi chap tushadi. Yuziga aytadi.

Shunda nima degan odam bo‘ladi?

Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi!

Mana, necha yilkim, mung‘ayib kun ko‘radi.

El-yurt bilan muloqot qilsa, gap ketishiga qarab turadi. Birov bir bema’ni gap gapirsa:

— Sizniki ma’qul, — deya bosh irg‘aydi.

Bordi-yu, shu gapni boshqa birov inkor etsa:

— Sizniki-da ma’qul, — deydi.

Inkor etmaydi, e’tiroz-da bildirmaydi.

Hayot ketishi, kun o‘tishini poylaydi.

Tokaygacha?

Tog‘ yo‘lida yurmish otliq ko‘nglidan ana shular o‘tdi.

Yo‘l yoqalarida adirlar bo‘ldi. Adirlar ot tuyoq tovushlari aks sadosini berdi.

Soyda tog‘ suvi toshdan toshga urila-urila oqdi, ko‘piklana-ko‘piklana oqdi.

Osmono‘par tog‘ bag‘oyat ko‘rkam bo‘ldi, tarovatli bo‘ldi.

Otliq shu toqqa tikilib bordi, xayollanib bordi.

Sho‘ro kotibi qorovullikka olaman, dedi. Albatta, gap-so‘zsiz olmaydi. O‘zi, qolabersa, boshqalari so‘rab-surishtiradi. Nimaga qo‘ltig‘ingiz ostidagi ishni tashladingiz, ko‘p yillar yonma-yon ishlagan odamlarga qo‘l siltadingiz, demaydimi? Yo‘l olis bo‘lsa,

yana tag'in to'qson so'mlik qorovullik bo'lsa, nimasiga orzumand bo'lasiz, demaydimi? Olisdagi palovdan yaqindagi sho'rva yaxshi demaydimi?

Shunda, nima deydi? Befarzand bo'ldim, eldan tilim qisiq bo'ldi, shu bois, eldan xolisroqda yurayin, deydimi? Minba'd! Indamay tura beradi. Baribir ishga oladi. O'zi aytdi, sadqayi suxaningiz, dedi...

5

Otliq otini darvoza ustuniga qantardi.

Hovliga kirdi, zinadan ko'tarildi, tor yo'lakdan ichkariladi.

Shunda, nordon-nordon gapirmish kotib ovozini eshitdi. Eshik ketida oyoq ildi. Devorga yag'rin berdi.

Kotib kuyundi:

— Qachon jilovlab qo'yiladi bu ig'vogar, g'alamislar-a?! Qachon bartaraf bo'ladi, bu anonimchilar-a?! Avval soliq masalasi edi, endi bu! Rahmat, muxbir aka, haqiqatni tiklagani kelibsiz. Umid qilamanki, hujjatlarimizni ko'rib chiqib, o'sha fisq-u fasodchilarning yozganiga yana qaytib ishonmaysiz!

Begona ovoz so'radi:

— Xolliyev Jo'ra!

Kotib javob berdi:

— Bor, Vaxshivorda yashaydi!

— Saidov Olim!

— Bor, Zardaqulda istiqomat qiladi!

— Karimov Xolbek!

— Hayot! Lo'kkada qarilik gashtini surib yuribdi!

— Iltimos, shu odamni bir chaqiring. Bir gurunglashaylik.

— Endi, muxbir aka, Lo'kka olis, ha, olis! Bu yog'i, Lo'kka-soydan sel chiqqan! Ot o'tolmaydi!

— Xo'p, To'rayeva Mengsulton!

— Bor!

— Qayerda?

— Xo'jasoatda! Qarilik nafaqasini o'z vaqtida olib turadi!

— Xo'-o'p. Islomov Bo'riboy!

— H-e, bu anavi chinorlik dala qorovuli! Kuni dalada o'tadi! Bo'ri akani ertalab bekatda ko'rib edim! Yo'l bo'lsin, desam, Denov borayapman, nos tamom bo'ldi, deb edi!

Qoplon ko'zlarini bir yumib ochdi. Oyoq uchida tashqariladi, tag'in otlandi. Jilovni qo'yib yubordi. Ot o'z ixtiyorida qadamladi.

Qoplon egar qoshiga tikilib bordi-bordi-da, birdan boshini ko'tardi. Shunda, qo'lida jilov yo'qligini bildi. Uzalib, ot boshigacha surilib bormish jilovni tortib oldi.

Ot seskandi, old oyoqlarini xiyol ko'tardi, yo'lga bel bo'ldi.

Qoplon otni chapdagi echki so'qmoqdan soldi.

Soyda satil ko'tarib yurmish ayollar oldidan o'tdi. Adirlab, otiga qamchi bosdi. Ot g'arq terga botdi, og'ir-og'ir nafas oldi.

Qoplon adir narigi betida otdan tushdi. Ot arqonini toshga o'radi.

Maydaroq bir toshga cho'nqayib o'tirdi. Tizzalarini quchoqladi. Peshonasini bilaklariga qo'ydi-da... ho'ngrab yig'lab yubordi!

U yig'ladi... inson, o'g'ri bo'l, g'ar bo'l, evi bilan bo'l-da. Shundan ko'ra o'lganing yaxshi emasmi. Imon qani, odam degan noming qani, inson... deya yig'ladi.

U yig'ladi... inson, senga pul kerak, inson. Pul deganlari bir qog'oz-ku, inson. Qog'ozni deb shunchalikka bordingmi, inson... deya yig'ladi.

Ot quloqlarini dikkaytirib-dikkaytirib xo'jasiga qaradi.

Qoplon yig'lay berdi-yig'lay berdi. Qizimish badani sovidi, to'lmish o'pkasi bo'shadi.

Otni xiyol yo'lgacha yetaklab bordi. Ko'zlarini jelagi o'ngiri bilan artdi. Xo'rsina-xo'rsina, otlandi. Chayqala-chayqala yoqasiga tufladi.

Muxbir so'ramish, kotib aytmish o'sha bandayi mo'minlar ko'z o'ngidan bir-bir o'tdi: Xolliyev, Saidov, To'rayeva...

Bu bandayi mo'minlar... bu bandayi mo'minlar bundan besh-olti yil muqaddam... rahmatlik bo'lib edi...

6

Shu-shu, Qoplon kotib yuzini ko'rmadi. Ko'rishni-da xohlamadi.

Kotibni esladi — seskandi, eti jimirladi. Kotibni esladi — bosh chayqadi, yoqasiga tufladi.

Ko'rmish-kechirmishlarini elga joriy etmoqchi-da bo'ldi. Yana tag'in shashtidan qaytdi.

"Ismat mirob Mamat bilan tegirmonda navbat talashib qolib, bechorani qandayin xo'rladi? — dedi. — Yigirma yildan beri ayolingni tug'dirolmaysan-da, yana tag'in o'zingni erkak sanaysan, dedi. Bundayin gapni eshitgandan ko'ra... o'lgan yaxshi! Mabodo ko'rgan-bilganlarimni aytib qo'ysam, kotib eshitib qoladi. Keyin, el oldida haligidayin gaplarni yuzimga soladi. Undaylardan keladi, ha. Yaxshisi, hali-hozir tilimni tiyganim ma'qul bo'ladi. Xushvaqt o'g'limiz dunyoga kelsin, undaychikinlar bilan qanday gaplashishni o'zim bilaman!.."

7

Ota-onasi tag'in chaqirtirdi.

— Uyimizdan ilon chiqqanmi? — piching qildi otasi.

— Yo'q, nima edi? — talmovsiradi bolasi.

— Bo'lmasa nimaga qorangni ko'rsatmaysan?

— Bizning gapimiz nima bo'ldi?

— Yelib-yuguryapmiz, berib qolar... — deya ming'irladi Qoplon.

— Bersa, shu vaqtgacha berardi-da.

— Ayolingning gapiga kirma! Ayoling aldab yura beradi.

— Ayoling bugun u deydi, ertaga bu deydi...

— O'zi-ku, pushti kuyib ketibdi ekan...

— Endi, seni-da so'qqabosh o'tkazadimi?..

— Nafaslaringizni issiq qilingizlar...

— Nafasimizni issiq qilmay, nima qilyapmiz?

— Qozon to'la osh bo'lsin, yostiq to'la bosh bo'lsin, deyapmiz!

Qoplon miq etmay qo‘zg‘oldi. Ota-onasi ketidan qarab-qarab qoldi.

8

Qish qaridi.

Yerdan ko‘klam hidi keldi.

Brigadir Qoplonni tok kesish uchun aytdi.

Qoplon ro‘molga non bilan mayiz tugdi. Tugunni xurjun o‘ng ko‘ziga soldi. Chap ko‘ziga tokqaychilarni soldi.

Dalaga yo‘l oldi.

Otini ariq bo‘yiga arqonladi.

Xurjunni yelkasiga tashladi. Yoyilib tok kesmish odamlarga qarab yurdi.

Hormang, bor bo‘ling, qildi.

Tushlik tugunini olma shoxiga ildi.

O‘ngirlarini chappa qayirib, belbog‘iga qistirdi.

Jo‘yak boshida tok kesib boshladi. Novda to‘rtinchi bo‘g‘indan qaychi soldi. Omon qolmish novda uchini yerga qadab qo‘ydi.

Galdagi tok qo‘shtana bo‘ldi. Har tanada to‘rt-beshtadan novda bo‘ldi. Bu novdalarni uchini kesib, shunday qoldirib bo‘lmaydi. Boisi, shu bir tokka ko‘plik qiladi. Oqibat uzumi mayda-mayda bo‘ladi.

Shu bois, Qoplon tok birovini ayrisidan cho‘rt kesib tashladi.

Tanada bitta tok qoldi.

Endi, cho‘rt kesib tashlanmish tok kuch-quvvati-da ana shu omon qolmish tokka o‘tadi. Bir tokda ikkita tok quvvati bo‘ladi.

Ana endi novdalarni uzun-uzun qoldirsa-da bo‘ladi. Shig‘il-shig‘il uzum tugadi.

Shu bois, Qoplon, omon qolmish tok novdalarini to‘rtinchi bo‘g‘indan emas, oltinchi bo‘g‘indan kesib tashladi.

Qoplon oqshomgacha to‘rt jo‘yak tok kesdi.

Bo‘zbolalar kesilmish novdalarni yig‘ishtirib oldi. Kuzda mayiz qilinajak o‘choq oldiga olib borib bosdi.

Oqshom Qoplon beli qadala-qadala, otiga arang mindi.

Uyida yonboshlab ta'tillandi-da, o'zini to'shakka tappa tashladi.

9

Oymomo dasturxon yopa-yopa:

— Sinoda bir tabib bor emish, ostonasidan odam uzilmas emish, — dedi.

— Nima qil deysan? — dedi Qoplon.

— Brigadirdan so'rasin, borib kelamiz.

Qoplon ayoliga og'rinib qaradi.

— Qaysi yuz bilan?

Oymomo chappa burilib oldi.

— Bu kishiga ish kerak, mol-dunyo kerak. Qayg'usi bolami... — *dedi.*

Qoplon yonib ketdi. Tashqariladi. Hovlini aylanib keldi. Choponi o'ngirini tutamlab aytdi, o'z ovoziga yot ovozda aytdi:

— Menga manavi choponim qolsa bo'ldi, momosi!

10

Qoplon diltang bo'lib o'tirib edi, otasi kirib keldi. U, otasi maqsadini bildi.

— Bor, mol-hollarga qara, — dedi ayoliga.

Otasi joylashib o'tirdi. Fotiha qildi. Yerga qarab gapochdi:

— Enang aytgan gapni nima qilding? — dedi.

— Qanday gap? — talmovsiradi Qoplon.

— Nevara-chevara orzusi.

Qoplon haminqadar kuyib-yondi.

— E-e-e, ota! — dedi. — Ayol meniki! Buyog'ini o'zimga qo'ying-da, endi!

— Aytmasang-da, ayol seniki, bari gap senda.

— Bo'pti-da!

— Bir og'iz gapni aytib, javobini berib yuborish shuncha qiyinmi?

— Tinch qo'ying, ota, tinch qo'ying!

Qoplon o‘rnidan turib ketdi.

— Boring, ota, boring, baraka toping!

Otasi angrayib qoldi.

— Nima-nima?! — dedi.

— Tinch qo‘yasizmi-yo‘qmi, deyapman!

— Qo‘ymayman! Nima deysan, qo‘ymayman!

— Qo‘ymasangiz, ana, katta ko‘cha!

Otasi og‘zidagi og‘zida, bo‘g‘zidagi bo‘g‘zida qoldi.

— Ha-a-a! Sen hali meni uyingdan haydayapsanmi?! Meni-ya?!

— Haydayotganim yo‘q, tinch qo‘ying, deyapman!

— Ha-a-a!!! Meni-ya?! O‘z otangni-ya?! He, onangni...

Otasi sapchib turdi. Qoplonning quloq-chakkasiga tortib yubordi. Hovliga otilib chiqdi. Kaftlarini katta-katta ochdi. Salmoqlab-salmoqlab duo qildi:

— Omin, o‘z otangni uyingdan haydagan bo‘lsang, iloyim, kosangning tagi oqarmasin! O‘lsang, otamlab yig‘lovching bo‘lmasin, ollohu akbar!

Otasi etak qoqib ketdi. Yana qaytib kelmadi.

Bir qish uzun-da keldi, ayoz-da keldi.

Chol ana shu qishdan chiqolmadi.

11

Bir armon folchiga borish bo‘ldi. Fol ochirish bo‘ldi.

Qoplon bilan Oymomo otlandi. Dahana Obshir qishlog‘iga bordi. Hojar ko‘r folchi uyini topdi.

Darvozada bir ayol:

— Kechqurun folim kelmaydi, erta saharlab kelsin, deyaptilar, — dedi.

Qoplon bilan Oymomo otdan tushmayin iziga ravona bo‘ldi. Xiyla yurdi. Boya o‘tmish toshloq oralab yurdi.

Ot ohistaladi. Qalqib-qalqib oldi. Oyoq ilib-ilib oldi.

Qoplon bildi, ot tuyoqlariga tosh botdi. Otiga rahmi keldi. Enkayib, ot tuyoqlariga qaradi.

— Shu, Hojar ko‘rga nimaga-da keldik, o‘zi, — deya xunob bo‘ldi.

— Unday demasin, — dedi Oymomo. — Hojar ko‘rni folchimisan-folchi, deydilar. Baloni biladi, deydilar.

— Go‘rni biladi, ochiq lahadni biladi! O‘zi oti o‘z bilan Hojar ko‘r bo‘lsa!..

12

Qoplon bilan Oymomo tong saharlab keldi.

Oymomo yolg‘iz o‘zi ichkariladi. Tevarakka alangladi. Hayron bo‘lib qoldi. Hovli to‘la oq tovuq bo‘ldi! Tovuqlar biri qo‘yib biri qoqoqladi. Oymomo ketidan ergashdi.

Oymomo tovuqlarni kishkishlab haydadi. Ko‘nglidan: “O‘zi, bu yer uymi, yo, bir tovuq fermami?” degan gap o‘tdi.

Nimqorong‘i uyga kirib bordi.

Uy to‘rida oppoq bir momo o‘tirdi. Momo oppoq kiyimda bo‘ldi. Yelkalariga tashlab olmish ro‘moli-da oppoq bo‘ldi. Ro‘moli chetlaridan ko‘rinmish sochlari-da oppoq-oppoq bo‘ldi. Oppoqlikda yuzlari-da sochlaridan qolishmadi.

Hojar ko‘r yuzlarini yuksak tutdi. Yuzlarini mag‘rur tutdi, ulug‘ tutdi. Go‘yo, shipga yuzlanar bo‘ldi. Go‘yo, bir nuqtaga tikilar bo‘ldi. Uy nimqorong‘iligida ajab bir sehr bo‘ldi. Hojar ko‘r o‘tirishida ajab bir salobat bo‘ldi.

Oymomoni nimqorong‘i sehri bosdi. Hojar ko‘r salobati bosdi. O‘tirishini-da, turishini-da bilmadi. Bo‘sag‘ada serrayib qoldi!

— Kel, aynam, kel, manavi yerga o‘tir! — dedi Hojar ko‘r.

Oymomo Hojar ko‘r aytmish joyga cho‘k tushdi. Hojar ko‘rga bel bo‘ldi. Yerga qarab o‘tirdi.

Hojar ko‘r yuzlarini shipdan olmadi, ko‘zlarini shipdan uzmadi.

— Emin-erkin o‘tira ber, aynam, bu yer tovuq ferma emas, Hojar ko‘rning uyi! — dedi.

Oymomo bir qo‘zg‘olib oldi. Dovdirab qoldi.

— A? — dedi.

— Bu yer Hojar ko‘rning uyi, tovuq ferma emas.

Oymomo hang-mang bo'ldi.

— Tovuq qoqoqlashini yaxshi ko'raman, — dedi Hojar ko'r. — Xo'roz qichqirishini undan ham yaxshi ko'raman. Xo'rozlar meni azonda uyqudan uyg'otadi. Shu bois, ko'p-ko'p tovuq boqaman. Soatga ishonmayman. Soatda jon yo'q-da. Joni yo'q nimaga ishonib bo'ladimi!..

Hojar ko'r ko'ylak yoqalarini ko'tarib-ko'tarib, ichini shamollatdi.

— Ha-a, otda keldilaringmi, aynam?

— Ha.

— Ot tuyog'ini tosh ursa, Hojar ko'r aybdor emas, aynam!..

Oymomo yuzlarini yerdan oldi.

— Birov sizni aybdor dedimi? — dedi.

— Dedi-da, aynam, xo'jang dedi-da! Hojar ko'r go'rni biladimi, dedi-da! Hojar ko'r biladi, aynam, ha, biladi! Hojar ko'r go'rniyam biladi, yerniyam biladi!..

Oymomo lol bo'lib qoldi. Nima deyishini bilmadi.

— Nimaga tumoring yo'q, aynam? — favqulodda so'radi Hojar ko'r.

— Bor, — dedi Oymomo.

— Qani, qani?

— Mana.

Oymomo chap qo'ltig'iga qo'lini olib bordi. Birdan, ko'ngli shuvv etdi. Tumori joyida bo'lmadi.

Ko'ylagi yoqasidan qaradi. Chin, tumori joyida bo'lmadi.

Kechasi yuvinib-taranib edi. Ana shunda tumorini joyiga taqish xayolidan faromush bo'libdi...

Oymomo yomon vaziyatda qoldi. Qo'lini qo'ltig'iga qo'yib o'tira berdi.

— Ana, ko'rdingmi, aynam? — dedi Hojar ko'r. — Hojar ko'r biladi, ha, ko'zi ko'r bo'lsayam, Hojar ko'r biladi! Hojar ko'r odamzod ichidaginiyam ko'radi, Hojar ko'r odamzod ichidaginiyam biladi!

Oymomo haminqadar lol bo'ldi. Yerga qarab o'tira berdi.

— Hay, anavi mixdagi doirani olib berib yubor, aynam!

Oymomo devorda osig'liq doirani olib kelib berdi.

Shunda, Hojar ko'r doirani emas. Oymomo bilagini oldi. Ko'ktomirini ushlab ko'rdi. Uch-to'rt nafas ushlab turdi.

Shundan keyin, doirani oldi. Joylashibroq o'tirdi. Doira ipidan boshmaldog'ini o'tkazdi. Barmoqlarini tuflab ho'lladi. Doirani silkib-silkib chala ketdi, aytib-aytib chala ketdi:

— Hay, azizlar, avliyolar, anbiyolar!.. Qo'lingdan bermasang, yo'lingdan ber, yo'lingdan bermasang, so'zingdan ber!.. Mag'ribdan desammikin?.. Mashriqdan desammikin?.. Foling kelmayapti, aynam, nima balo, qarib qoldimmi deyman!..

Hojar ko'r doira halqachalarini shildiratib-shildiratib chala ketdi, aytib-aytib chala ketdi:

— A-u-uf!.. Foling ana endi kelayapti, aynam! Astag'furillo, o'zingga shukur-e! Aynam-ov, mendan o'pkalab yurmagin tag'in, bari ayb o'zingda, ha o'z ichingda!.. Taqdir-peshona ekan-da, aynam!..

Oymomo bosh irg'adi. Folchiga atalmish pulini berdi.

Miq etmayin tashqariladi. Miq etmayin eriga mingashdi.

Yo'lda eri belidan quchib yig'ladi. Eri yelkasiga yuzlarini bosib yig'ladi. Piq-piq yig'ladi!

Qoplon nima gapligini fahmladi. Otini ohistalatdi.

— E-e-e, momosi, — dedi. — Shunga-da piq-piqmi? Nima, Hojar ko'ring ichingga kirib chiqib edimi? Hojar ko'ring nimani biladi? O'z oti o'zi bilan ko'r-da! Folchiga ishonma, suvga suyanma!..

13

Olamda Oymomo uchun bor-yo'g'i bitta savol bo'ldi... Savol berguvchi odam-da birov bo'ldi.

Savol til bilan emas, boqish bilan aytildi:

"Endi nima qilamiz, momosi?"

Savolga javob berguvchi-da birov — o'zi bo'ldi.

— So'fi Olloyor bovani ziyorat qilib kelaylik. Kim biladi, o'sha kishi og'rindilarmi... — dedi.

Qoplon otlandi. Ketiga ayolini mindirdi. Oldiga chori qo'y o'ngardi. Vaxshimor yo'l oldi.

So‘fi Olloyor ziyoratgohi bodomzor bog‘ot qo‘ynida bo‘ldi. Qoplon Olloyor mozori poyida qo‘y so‘yib qon chiqardi.

14

Mozordagi Olloyor otli bu zot kim bo‘ldi?

Olloyor asli Samarqanddan bo‘ldi. Kattaqo‘rg‘onning Minglar qishlog‘idan bo‘ldi.

XVII—XVIII asrlarda yashab o‘tdi. Shayxlar maktabida hamda Buxorodagi Jo‘ybor shayxlari dargohida ta’lim oldi. G‘azallar bitdi. “Murod ul-orifin”, “Tuhfat ul-tolibin”, “Maslak ul-muttaqin”, “Sabot ul-ojizin”, “Musannib alayhi rahmonni vasiyatlari” deya atalmish nazmiy devonlar tuzdi.

Oltmish yoshida uch nafar sodiq xalfalari bilan Samarqandni tark etdi. Borajak manzilini aytmadi. Kechasi bilan zim-ziyo yo‘q bo‘ldi.

Olloyor nima uchun kindik qoni tommish yurti, bola-baqrasini tashlab ketdi? Nima uchun borajak manzilini aytmadi?

15

So‘fi Olloyor “Sabot ul-ojizin” nazmiy devonida shunday bitdi:

Ey birodar, meni yaxshi demanglar zinhor,
Zohirim so‘finamodir, botinim kin-u niqor.

Shumlig‘im, rasvolig‘im, tegdi viloyat xalqiga,
Aning uchun tog‘-u tosh-u, cho‘lni qildim ixtiyor.

Shu sababdin muhtamid bo‘ldim g‘ariblar bo‘mig‘a,
Qaysi holda o‘lganimni bilmasun xesh-u tabor...

O‘zi, Olloyor kim edi? Avliyo edimi? Tabib edimi? Eshon edimi?

Olloyor bek edi!

Olloyor qirqta xotin oldi!

Olloyor boj yig'uvchilar mahkamasida xizmat qildi. Fuqaroga zulm qildi.

Olloyor qamchisidan qon tomdi!

16

Emishki, Olloyor otda shahar aylandi. Yurdi-yurdi, bir ko'prikdan o'tdi.

Bunday qarasa, ko'prik osti suv qip-qizil qon bo'ldi.

Olloyor hayrondan hayron bo'ldi. Xalfalaridan qon boisini so'radi. Bilinglar, o'zi nima gap, dedi.

Xalfalari ko'prik ostiga tushib qaradi.

Ayon bo'ldi: ko'prik ostida bir ayol o'tirdi... Ayol Olloyorni olisdan ko'rdi. Qo'rqdi! Ko'prik ostiga qarab qochdi. Ko'prik ostida yashirinib o'tirdi.

Ayol bo'yida bo'ldi! Boshi uzra o'tmish Olloyor oti dupur-dupuridan... dupur-dupuridan qalt-qalt qaltiradi... bola tashlab qo'ydi!

Suv ana shundan qip-qizil qon bo'ldi!

Xalfalari bor voqeani Olloyorga aytib berdi.

Olloyorda picha shoirlik bor-da, bu voqeadan haminqadar ta'sirlandi, haminqadar azoblandi.

Vo darig'o, men shunday odammi-a, deya ezildi.

Olloyor... tarki dunyo qildi!

Yurdi-yurdi, Qoratikon qishlog'iga keldi. Undan Qubodiyon qishlog'iga o'tdi.

Tag'in yurdi-yurdi, Vaxshimor deya atalmish makon sari doxil bo'ldi.

Gunohlaridan forig' bo'lish uchun toat-ibodatga berildi.

El-yurt xizmatini qildi.

17

Emishki, Olloyor bunday qaradi, Vaxshimorda suv bo'lmadi.

Shunda Olloyor soy yoqalab bordi. Soy ostiga tushdi.

Bir yer namlanib turdi, suv yiltirab turdi.

Olloyor shu namni tayog'i bilan turtdi.

Yerdan suv sizib-sizib chiqdi.

Olloyor xalifasiga:

— Shu tayoq bilan yer chizib, Vaxshimorga iz qilib bora ber, — dedi.

Shunda xalfasi:

— Suv pastda bo'lsa, Vaxshimor yuqorida bo'lsa, suv qanday qilib chiqadi? — dedi.

— Sen ilon izi qilib yuqorilab bora ber, suv chiqmasdan qolmaydi, — dedi Olloyor.

Chindan-da, suv tayoq izidan yuqorilab bordi, Vaxshimorlab bordi.

Suv quyidan yuqorilab oqdi! Olloyor suvni elga ko'z-ko'z qildi.

— Qara — buloq! — dedi.

Shu-shu, buloq Qorabuloq, deya ataldi.

Qorabuloq yillar mobaynida o'zanini katta oldi.

Mana, ikki asrdirkim, Qorabuloq quyidan yuqorilab oqdi. Qishin-yozin qurimadi. Qishda iliq bo'ldi, yozda sovuq bo'ldi.

18

Vaxshimor — ilonlar makoni demakdir. Chindan-da, o'tmishda Vaxshimor ilonlar makoni bo'ldi.

Ilonlar Vaxshimor oralab yurdi.

El jonini hovuchlab-hovuchlab kun ko'rdi.

Ana shunda, Olloyor el joniga ora kirdi.

19

Emishki, Olloyor ilonlar podshosi Oq ilon nomiga noma bitdi.

Nomani yurakliroq bir xalfasiga berdi.

— Bor, Oq ilon saltanatiga borib kel, — dedi.

— Qo'rqaman, taqsir, — dedi xalfa.

— Unda, saltanat qaribiga tashlab qayt, uyog'iga navkarlari yetkazadi.

Xalfa nomani qo'yniga soldi. Oq ilon qarorgohiga ravona bo'ldi.

Qarorgoh Vaxshimor qiblasidagi Ilonqara degich sayhonlikda bo'ldi.

Xalfa manzilga yetib keldi. Xalfa seskanib ketdi.

Ilonqara g'ij-g'ij ilon bo'ldi! Barmoqday ilonlar, bilakday ilonlar, yo'g'on odam soniday ilonlar!

Sariq ilon, kulrang ilon, qora ilon, ayniqsa, toshrangli chiporlari ko'p bo'ldi!

Xalfa arosatda qoldi. Borishini-da bilmadi, qaytishini-da bilmadi.

Hushi boshidan uchdi, badani jimirladi, peshonasidan terlar oqdi.

Xalfa eson-omon qaytishiga ko'zi yetmadi!

Iziga-da qaytmadi!

Qanday-da qaytadi? Pirning gapini ikkita qilib bo'ladimi?!

Yo o'lim, yo pirim!

Xalfa ana shunday qat'iyat bilan oq ilon qarorgohiga yo'l oldi.

Ilonlar to'lg'ondi, ilonlar chiyilladi, ilonlar vishilladi!

Yerdan go'dak bo'yi ko'tarildi, buqog'ini shishirdi, qop-qora boshlarini cho'zdi!

Inson peshonasidan terlar quyilib bora berdi.

Rangida rang qolmadi. Oyoqlari o'zinikimi, yo birovnikimi, bilmadi.

Jiqqa ter jelagi yelkalariga yopishdi.

Inson qomatini tik tutib bora berdi!

Ilonlar inson ko'rib, bundayini ko'rmadi!

Oq ilonday qudratli podshohi azim ustiga bostirib kelyapti-ya! Azaliy saltanatni oyoq osti qilyapti-ya! Do'q-po'pisalarga pinagini-da buzmaydi-ya!

O'zi, bor-yo'g'i birov bo'lsa!

Ilonlar chekindi! Ilonlar qarorgohlariga qarab qochdi!

Inson bostirib bora berdi!

Shunda, katta tosh oldida yotmish bir nimaga ko'zi tushdi. Qolmish hushi-da boshidan uchdi!

Yotmish nima bor-yo‘g‘i qamchi o‘rimiday keldi! Oppoq, jundor bo‘ldi!

Bu, podshohi azimning o‘zlari bo‘ldi!

Inson to‘xtadi. Podshohdan ko‘z uzmadi. Qo‘yniga qo‘l soldi. Nomani o‘zidan bir qadam oldin tashlamoqchi bo‘ldi. Ammo qo‘lini cho‘zishdan qo‘rqdi. Panjalarini ochdi.

Shunda, noma yerga tushdi.

Inson iziga qayrildi. Yelkalarini qisdi. Ohista-ohista odimladi. Nazarida, podsho izidan kelayotganday bo‘ldi. Og‘iz-ko‘zlarini katta-katta ochdi. Ketiga qaradi. Yo‘q, podsho qimirlamay yotdi.

Shunda, inson ketiga qaramadi, o‘qday chopib qo‘ya berdi!

Oq ilon hukmona chiyilladi! O‘z saltanatidagilarni qarorgohiga yig‘di!

Inson bir kelib o‘rgandi bo‘ldi, endi kela beradi, tinchlik bermaydi, dedi. Ketamiz, inson qadam bosmaydigan yerlarga ketamiz, dedi.

Jamiki qavmlarini ergashtirdi, o‘zini Xo‘jaipok daryo suviga tashladi.

Undan Surxondaryo suviga o‘tdi. Surxondaryodan suzib chiqib, Zahartepaga o‘rladi.

Zahartepa Oq ilon ko‘ngliga o‘tirmadi!

Oq ilonlar tag‘in yurish qildi. Bobotoqqa yo‘l oldi.

Bobotog‘ning Govurgon degan yerini makon etdi...

Mana, ikki asrkim, Bobotog‘ ilonlar makoni bo‘ldi!

Ana shunday, emish-emishlar, Olloyor otini ilohiylashtirdi. Olloyor otini avliyolashtirdi.

El, Olloyor mozorini tevaragini devorlab oldi.

El, mozorni ziyoratgoh etdi.

El, yaxshi-yomon kunlarda ana shu mozorga sig‘inajak bo‘ldi.

20

Olloyor o‘layotib, nima deb vasiyat qilib edi? Ey, farzandsizlar, mozorimga sig‘ininglar, men sizlarga farzand beraman, deb edimi?

Olloyor o'limi oldidan qavmlariga mana bunday vasiyat qildi:

Man o'lsam, ey jam'e mahrami roz,
Mani o'zga o'likdek qilmang e'zoz.

Xas-u xor ustig'a tashlab, tutung xor,
Qilib mandek bahodin jismidin or.

Bo'sag'a ustig'a tashlang tanimni,
Kafan aylang churuk shirohanimni.

Manga hayf etmangizlar tutmog'on bo'z,
Agar chandiki mardum qilsalar so'z.
Yuboring tez boraturg'on yo'limg'a,
Mabodo qolmagaysiz shumlig'img'a.

Ko'zingizdan chiqormang qatrayi yosh,
Janozam orqasidan otingiz tosh.

Oyog'imdin tutib, sudrang lahadga...

21

Oymomo mozor sig'indi. To'lib-toshib sig'indi. Jon-tani bilan sig'indi. Yod bo'lib qolmish nolasini naqorat qildi:

— Aylanayin So'fi Olloyor hazratim, sadag'angiz ketayin hazratim, bir umr qulingiz bo'layin, hazratim, menga shafqat qiling... Ko'pga bergan tirnoqni mendan-da ayamang. Men sizga nima gunoh qilib edimki, meni munchalik xor-u zor qilasiz? Bilib-bilmay ayb qilgan bo'lsam, aybimdan o'ting, hazratim. Men bechoraga rahmingiz kelsin, So'fi Olloyor hazratim...

Ziyoratdan murod hosil bo'lmadi!

22

Tabiatni to‘lg‘oq tutdi. To‘lg‘oqdan farzand tug‘ildi. Farzand oti Navro‘z bo‘ldi.

Yurtimizga Navro‘z keldi!

Subhi sodiq mahaldan sarrin-sarrin sabolar esdi. Mayin-mayin sabolar kezdi.

Sabolar tanlarni silab-siypadi, sabolar vujudlarni erkalab-o‘ynadi.

Navro‘z olamga maysalardan gilamlar to‘shadi, boychechakdan sirg‘alar taqdi.

23

Navro‘z bundan yetti ming yil muqaddam joriy etilmish Quyosh yil-oy kuni bilan barobar bino bo‘ldi.

Emishki, Quyosh olamni bir yilda bir bor aylanadi. Shu aylanmish yo‘lida o‘n ikkita burjga ro‘paro‘ keladi. Quyosh har burjni bir oy mobaynida aylanib o‘tadi. Zulmat bilan ziyo teng bo‘lmish kunda Hamal deya atalmish burjga yetib keladi.

Quyosh ana shu Hamal burji boshidan chiqmish kunda olam o‘zgacha rang oladi. Olam bir boshqa bo‘ladi.

Taxmuraslar sulolasidan bo‘lmish Jamshid podsho ana shu kunni Navro‘z deya atadi.

Keyin, Kayumars podsho bo‘ldi.

Kayumars Navro‘zni sharafladi, Navro‘zni ulug‘ladi.

Navro‘zni hayit qildi!

Shu-shu, Navro‘z o‘lik-tirik ozod kun bo‘ldi.

Navro‘z asir-tutqun ozod kun bo‘ldi.

Navro‘z qirg‘inbarot to‘xtar kun bo‘ldi.

Navro‘z kina-kudurat tarqar kun bo‘ldi.

Kayumars yil kunlari bilan oylariga nom berish uchun azm etdi. Yil joriy etish uchun jazm etdi.

Kayumars tong sahar-tong saharda Quyosh hamal burjining oldingi daqiqasiga kirmish kunni aniqladi.

Olim-ulamolarni yig‘di, yil hisob-kitobini ana shu kundan boshlashni aytdi, olim-ulamolar rozi bo‘ldi. Yil hisob-kitobini aynan shu kundan boshlab joriy etdi.

Emishki, olamda Izid xudo ilk xudo bo‘ldi. Ana shu ilk xudo nurdan Quyosh yaratdi. Quyosh bilan yer-u zaminni parvarish etdi.

Izid xudo olamda o‘n ikkita xaloskor farishta yaratdi. To‘rtta farishtani osmon-u falakni baloyi qazolardan asrash uchun yubordi. Baloyi qazolarni tog‘lardan beri keltirmaslik uchun to‘rtta xaloskor farishta jo‘natdi. Qolmish to‘rtta farishtani esa yer-u zaminni baloyi qazolardan asrash uchun yubordi.

Ana shu Izid xudo Quyosh nurlari barcha-barchaga barobar bo‘lsin, dedi. Shu bois, Quyosh o‘z joyidan qo‘zg‘olsin, dedi.

Shunda, Quyosh hamal burji boshidan chiqib keldi.

Zulmat bir bo‘lak bo‘ldi, ziyo bir bo‘lak bo‘ldi.

Kecha bilan kunduz ana shunday bino bo‘ldi.

Kayumars podsho uch yuz oltmish besh kun bo‘lmish bir yilni o‘ttiz kun-o‘ttiz kundan o‘n ikkita oyga bo‘ldi. Keyin, ana shu o‘n ikkita oyni Izid podsho yubormish o‘n ikkita xaloskor farishta oti bilan atadi.

24

El-xalq balandparvoz chaqiriqlar deb o‘tirmadi, qarorlar deb o‘tirmadi, shior-da’vatlar deb o‘tirmadi, e’lon-afishalar deb o‘tirmadi.

El-xalq o‘z xohish-irodasi bilan adir-qirlarga sayillab chiqdi.

Maysazor adirlarda doshqozonlar osildi.

Ayollar ariq bo‘ylaridan yalpiz o‘t terdi, kiyiko‘t terdi. Bilq-bilq qaynab turmish qozonlarga soldi.

Qizlar qoraqoshlar terdi. Dimog‘lariga bosib-bosib iskadi. Quloqlariga taqdi.

Qariyalar ko‘zlariga boychechaklar to‘tiyo etdi.

— Omonlik, omonlik... — deya, shukrona aytdi. Qariyalar dilida Navro‘z bo‘ldi, qariyalar tilida Navro‘z bo‘ldi.

— Inshoollo, Navro‘z bu yil seshanba kuni kelar bo‘libdi-da, aqllar? — dedi Umarxon eshon.

— Shunday, shunday, — ma’qulladi mulla Namoz.

— Navro‘z seshanbada kelar yil ochlik bo‘lmaydi, oshlik bo‘ladi. Ertachi ekinlar yaxshi bo‘ladi, noz-ne’matlar-da yaxshi bo‘ladi. Aybi, taxchilroq bo‘ladi.

— Yomoni, qon ko‘p to‘kiladi. El-yurt orasidan rahm-shafqat ko‘tariladi.

— O‘g‘il otadan qaytadi, qiz onadan qaytadi, ayol eridan qaytadi.

— Podsholar taxtdan qula-qula bo‘ladi.

— Yomonlik ko‘payadi.

— Yog‘in-chochindan ayting.

— Yog‘in-chochin... qor kam yog‘adi, aqllar. Yil oxirida sel ko‘p keladi.

— O‘zi, Navro‘z qaysi kuni kelsa, yil yaxshi bo‘ladi, azizlar?

— Yakshanba kuni kelsa, ko‘p binoyi bo‘ladi. O‘lim-yetimlar oz bo‘ladi. Fisq-fasod, yomonlik kam bo‘ladi. Navro‘z dushanba kuni kelsa-da, yaxshi bo‘ladi. Aybi, bug‘doy tanqis bo‘ladi.

— Navro‘z chorshanbada kelsa, yil qimmatchilik bo‘ladi. Qorin-tomoq uchun qon to‘kiladi.

— Fisq-fasod, g‘alamislik ko‘p bo‘ladi.

— Payshanbada kelsa, dardmandlik ko‘p bo‘ladi.

— Shu yili oy bilan kun-da tutiladi, deng.

— Shunday, aqllar, shunday.

— Jumada kelsa, yomg‘ir mo‘l-ko‘l bo‘ladi. Aybi, qahraton sovuq bo‘ladi.

— Navro‘z shanba kuni kelsa... o‘g‘ri-muttahamlar yili bo‘ladi, mushtumzo‘rlar yili bo‘ladi.

— Inshoollo, peshonada borini ko‘ramiz.

— Inshoollo, azizlar, inshoollo, aqllar...

Dasturxonlarda sumalak, halim, ko‘k patir, ko‘k somsa, ko‘k oshi, deya atalmish dori-darmon taomlar bo‘ldi.

El chehrasi chechak bo‘ldi. El ko‘ngli ko‘klam bo‘ldi. El dili ohorli-ohorli tuyg‘ular bilan to‘ldi.

Navro‘zchilar to‘p-to‘p bo‘ldi. O‘zi xush ko‘rmish o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Do‘mbira chalib, doston aytmish nechov bo‘ldi.

Davra qurib, doston eshitmish nechov bo‘ldi.

Oyoqlarini osmon qilib, dorboz bo‘lmish nechov bo‘ldi.

Oymomo qizaloqlar o‘yinini tomosha qildi. O‘z qizaloqlik davrini yodladi. Ma’yus bo‘ldi...

Shunda, Qimmat momo keldi. Oymomoni qoralab o‘tirdi.

— Hay-hay-hay, bolaning sadag‘asi ketsang-a! — dedi.

Oymomo Qimmat momoni ko‘rib-ko‘rmaslikka oldi.

Qimmat momo qizaloqlarga qarab o‘tira berdi.

Qimmat momolar har yurtda bo‘ladi, har elda bo‘ladi.

Qayerda to‘y-ma’raka bo‘ladi, o‘sha yerda Qimmat momolar bo‘ladi. Qayerdan quyuq tutun chiqadi, o‘sha yerda Qimmatmomolar bo‘ladi.

El Qimmat momolarni to‘y-ma’rakaga aytmaydi. Aytmasa-aytmasin, Qimmat momolar o‘zlari kirib kela beradi! Indamaygina kirib kelib, ma’rakalarga qo‘shiladi. Ma’raka ishlariga bosh suqadi, ma’raka yumushlariga qo‘l suqadi.

Qimmat momolar el ichiga ana shundayin kirib oladilar-da, asl maqsadlariga o‘tadilar...

25

Qizaloqlar qo‘g‘irchoq-qo‘g‘irchoq o‘ynadi.

Mohichehra bolasini maysalar uzra yotqizdi: bolasini beshikka beladi. Bolasi uzra enkaydi, bolasini emizdi. Bolasini allaladi:

— Alla, bubagim, alla-yo, totli bubagim, alla-yo...

Qimmat momo yer ostidan Oymomoga nazar soldi.

— Yurak-bag‘ring kuyib ketayotgandir, Oymomo? — dedi.

Oymomo miq etmadi.

Qimmat momolar birovlar muvaffaqiyatini ko‘rsa... ichini it tirnaydi. O‘z yog‘iga o‘zi qovuriladi. Jizg‘anak bo‘ladi. Kuyib kul bo‘ladi.

Oqibat, qildan qiyiq qidiradi. Qandayin yo‘l bilan bo‘lsa-da, o‘zgalar muvaffaqiyatini kamsitadi. O‘zgalar muvaffaqiyatini yerga uradi.

Mohichehra allalasa-da, bolasi uxlay bermadi.

— Yum ko'zingni, yum, — dedi Mohichehra. — Uxlamaysanmi-uxlamaysanmi? Uxlamasang, sadqayi sarim-a. Hamsoya, huv hamsoya!

Chaqalog'ini yo'rgaklamish Muqaddas javob berdi:

— Huvv! Kim u, bemahalda qichqirgan? Hay, sizmisiz, Mohichehra hamsoya? Men kim emish debman, — dedi.

— Anavi injiqni uxlatolmay sarsonman-da, hamsoya, — dedi Mohichehra. — Puchug'ingizni yuboring, picha beshik tebratib tursin. Men suvga borib kelayin, hamsoya.

— Puchug'im maktabga ketib edi, hamsoya. Bo'lmasa, jonim bilan yuborar edim.

Qimmat momo tizzasiga shapatilab vovaylo qildi.

— Uf-f-f! — dedi. — Farzandsizligi qursin-a, befarzandligi quribgina ketsin-a!

Oymomo rangi bo'zardi, Oymomo yuzini yerga egdi.

Qimmat momolar yomonlardan xolis-xolis yuradi, yomonlardan olis-olis yuradi. Yomonlarni ko'rsa... qochadi! Yomonlar bilan horiqulodda yo'liqib qolsa... Girdikapalak bo'ladi, shirinsuxan bo'ladi, shirinzabon bo'ladi!

Qimmat momolar yomonlardan xolis-xolis yuradi, yaxshilarga osiladi, yaxshilarga sim taqadi. Yaxshilarni sassiq-sassiq gaplar bilan chimchilab-chimchilab oladi. Yaxshilarni zahar-zahar gaplar bilan o'yib-o'yib oladi. Yaxshilarda yaxshidan yaxshi fazilat nima? Xudo bermish yuksaklik nima? Xudo bermish ulug'lik nima?

Qimmat momolar aynan ana shularni yo'qqa chiqarish payida bo'ladi!

Masalan, pokdomon odam borasida nopok gap tarqatadi. "Iflos odam!" deydi. Donolar donosi borasida nodon gap tarqatadi. "Picha kamroq", deydi. Haloldan halol odam borasida harom gap tarqatadi. "Buzuq odam!" deydi.

Gapirganda-da, g'oyat ustomonlik bilan gapiradi. Soddadil qiyofada gapiradi, beg'ubordil qiyofada gapiradi. Yuzlari jonkuyarday bo'ladi, ko'zlari mehribonday bo'ladi.

Qimmatmomolar topib-topib gapiradi!

Muqaddas chaqalog'i iyagiga barmog'ini nuqib-nuqib erkalatdi. Nuqib-nuqib suydi:

— Chu-chu-chu, shakar bubagim, novvot bubagim, chu-chu-chu. Iyagida chuqurchasi-da bor, asal bubagimning, chu-chu-chu. Xolangga qarab bir kul. Kul, kul! Xola, meni kelin qilmaysizmi, de.

Mohichehra o'pkagina qildi:

— Seni kelin qilmayman, — dedi. — Kelganimda biror marta-da kulmaysan. Qobog'ingdan qor yog'ilib turadi.

— Kelin qilmaganingizni-da ko'rayin, xola. Hali o'g'lingizni boshini shunday aylantirayin-shunday aylantirayin.

Qimmat momo tag'in tizzasiga shapatilab-shapatilab kuyinchaklik qildi.

— Uf-f-f, shunchalar ena bo'lgisi kelmasa-ya, Oymomo, shuginalar-a! — dedi.

Oymomo Qimmat momo gapini eshitib-eshitmaslikka oldi. Miq etmay joyidan turdi. Ayollar tarafga yurdi.

Qimmat momo Oymomo ketidan qarab-qarab qoldi.

Qimmat momo murod-maqsadiga yetolmadi. Gapi nishonga tegmadi. Tegsa-da, chala tegdi.

Qimmat momo endi indamay keta beradimi? Yo'q, indamay keta bermaydi. Bordi-yu, indamay ketsa... tobi qochib qoladi! Yegani-da tatimaydi, ichgani-da tatimaydi. Aza tutadi!

Oymomo, yomondan qoch-da qutul, yo, ton-da qutul, deya ketdimi?

Ketadi-ya, ketadi! Ketganini-da ko'radi!

Qimmat momo hali murodiga yetadi, hali huzur qiladi...

26

— El-xalq adir-qirlarga oqib-oqib kela berdi.

Nima uchun el-xalq aynan adir-qirlarga kela berdi?

27

Emishki, bir Buqa bo'lar emish. Buqa podada yurajak buqalardan emas emish.

Buqa... Muqaddas Buqa emish!

Muqaddas Buqa samo nur-ziyolaridan yaratilgan emish.

Muqaddas Buqa shoxlari-da shunchaki suyak emas emish. Muqaddas Buqa shoxlari... oltindan emish! Muqaddas Buqa tuyoqlari-da shunchaki tuyoqlar emas emish. Muqaddas Buqa tuyoqlari... kumushdan emish!

Muqaddas Buqa bir o'zi yurmas emish. Muqaddas Buqa bir aravani tortib yurar emish. Muqaddas Buqa aravasida... oy ortib yurar emish!

Muqaddas Buqa odamzotga ko'rinmas emish. Hamisha ko'zdan pana bo'lib yurar emish. Shu boisdan Muqaddas Buqani ko'rish g'oyatda mushkul emish.

Muqaddas Buqa bir lahza, bir lahzagina ko'rinish berar emish-da, tag'in ko'zdan g'oyib bo'lar emish.

Muqaddas Buqa qayerlarda ko'rinish berar emish? Falakda ko'rinish berar emish. Ufqda ko'rinish berar emish.

Muqaddas Buqa nima karomat ko'rsatar emish?

Qaysi inson Muqaddas Buqani bir ko'rsa bo'ldi, o'sha inson xohish-irodalari ijobat bo'lar emish! Bor orzu-umidlari bajo bo'lar emish!

Muqaddas Buqa shunchaki bir ko'rinib keta bermas emish-da. Bordi-yu, inson nazariga tushib qolsa... Muqaddas Buqa... bo'kirar emish!

Muqaddas Buqa bir bor bo'kirsa... yil behosil kelar emish. Ekin-tikindan qut-baraka ketar emish. Oqibat, tanqischilik bo'lar emish...

Xudo yorlaqab, Muqaddas Buqa ikki bor bo'kirsa... yil serhosil kelar emish, yil sermahsul kelar emish. To'kin-chochinlik bo'lar emish...

28

El-xalq ana shu Muqaddas Buqani bir ko'rish orzusida adir-qirlarga sayillab kelar emish!

Boisi, adir-qirlar yuksak-da! Osmon-u falakka yaqin-da!

Osmon bilan ufq adir-qirlardan kaftday ko'rinib turadi-da!

29

Ayollar o‘ynay berdi-o‘ynay berdi. Oxir-oqibat, holdan toydi.

Ilik uzildi vaqti-da!

Shunda, Xursandoy otli polvonqomat bir ayol davra kirdi. Ayollarni bitta-bittadan o‘yinga tortdi. O‘zini ketiga tashlovchi ayollarni qo‘ltig‘idan dast ko‘tarib davra olib keldi.

Xursandoy qaysiki ayolni davra olib kelsa, o‘sha ayol bilan qo‘shilib-qo‘shilib o‘ynadi. Horish-charchash nimaligini bilmadi.

Xursandoy davra obodi bo‘ldi!

Xursandoy uch yasharligida otadan sag‘ir qoldi. Onasi boshqa er qildi. Xursandoy o‘gay ota qo‘lida katta bo‘ldi. Shu bois, suyagi mehnatda qotdi. Oqibat, polvonsuyak bo‘ldi!

Qimmat momo o‘yladi-o‘yladi, ana shu gapni topdi!

— Bo‘y-bastini qarang... Ming qilsayam... ikki erkakning zurriyoti-da... — deya sasidi.

Buni eshitmish Xursandoy fe’li aynidi. Ko‘nglidagi sayil xushvaqtligi, sayil xurramligi xufton bo‘ldi.

Qimmat momoga olayib-olayib qaradi. Ammo yomon gapirmadi.

O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir!

Navro‘zda yomon gapirib bo‘lmaydi!

Navro‘z haminqadar shod-xurramlikda o‘tsa, haminqadar xush-xushvaqtlikda kechsa...

Yer-u falak-da haminqadar saxiy bo‘ladi!

Osmon-u falak-da mo‘l-ko‘l yomg‘ir yog‘adi!

Yer-u zamin-da bo‘liq-bo‘liq hosil beradi!

El-yurt kelajak Navro‘zgacha xush-xushvaqtlikda kun ko‘radi, rohat-farog‘atda kun ko‘radi!

Xursandoy davraga ko‘z soldi-ko‘z soldi, ayollar orasida mung‘ayib o‘tirmish Oymomoni ko‘rib qoldi. Oymomoni davra yetaklab keldi.

Oymomo o‘zini keyiniga tashladi.

— Men o‘yinni bilmayman! — deya zorlandi.

— Nima, biz o‘yinni bilamizmi? — dedi Xursandoy. — “Bahor” ansamblida o‘yna kelib edikmi?

Oymomo ro‘moli uchlarini yelvagay qildi. Barmoqlarini lablari bilan namladi.

Oymomo nozlanib-nozlanib o‘ynadi. Barmoqlarini qirsillatib-qirsillatib o‘ynadi. Shunday xushro‘y o‘ynadi-shunday xushro‘y o‘ynadi!

Davra jo‘shdi, davra:

— Kishtala-kish, kishtala-kish, kishtala-kish! — deya chapak chaldi.

Qimmat momo Oymomo o‘yiniga qaradi-qaradi-da, o‘zicha bosh irg‘adi.

— Shunday xushro‘y ayol tirnoqqa zor-a, tirnoqqa-ya! — dedi.

— Unday demang-e, — dedi bir momo.

— Kuyganimdan gapiraman-da, Sora momo, kuyganimdan! — dedi Qimmat momo. — Bo‘lam-da, ming qilsayam, bo‘laginam-da!

— Bo‘langiz bo‘lsa-da, demang!

Qimmat momo darrov gapni burdi. Birdan... hiring-hiring kuldi.

— Hazil-da, Soramomo, hazil-da. Hazil gapniyam bilmaysizmi! — dedi.

Qimmat momo o‘xshatib-o‘xshatib vovaylo qildi:

— Uf-f-f! — dedi. — Xudo itga bergan tirnoqni, bitga bergan tirnoqni, nima qilardi deng, shu bo‘laginamgayam bersa!

Yer yorilmadi, Oymomo yerga kirib ketmadi!

Boshi uzra o‘ynatmish qo‘llarini ohista-ohista tushirdi. Kaftlari bilan yuzlarini bekita-bekita, davradan chiqib jo‘nadi.

Navro‘zlari zahar-zaqqum bo‘ldi! Navro‘zlari burnidan buloq bo‘ldi!

Ufq qorayib-qorayib keldi. Qop-qora bulutlar ko‘pirib-ko‘pirib toshdi. Bulutlar toshib-toshib keldi, bulutlar yoyilib-yoyilib keldi.

— Ana, kelayapti, ana! — dedi el.

Kelajak Muqaddas Buqa bo‘ldimikin? Ko‘pirib toshmish qop-qora bulutlar Muqaddas Buqa aravasi g‘ildiraklari ostidan o‘rlayaptimikin?

Qop-qora ufq guldur-guldur etdi, qop-qora ufq gumbur-gumbur etdi.

— Keldi, ketdik, keldi! — dedi el. Guldur-guldur etmish Muqaddas Buqa aravasimikin? Muqaddas Buqa aravasini taraqlatib-taraqlatib haydab kelayaptimikin?

Qop-qora ufq yarq-yurq etdi, qop-qora ufq yalt-yult etdi.

Muqaddas Buqa aravasi g'ildiraklari tog'-toshlarga urilib-urilib, chaqin chaqyaptimikin? Yo Muqaddas Buqa kumush tuyoqlari chaqir toshlarga tegib-tegib, o't chaqnayaptimikin?

— Hozir yomg'ir yog'adi! — dedi el.

Qop-qora bulutlar ichra oppoq bir nima bir yo'qoldi-bir ko'rindi. Muqaddas Buqa aravasida ortib yurmish oy qalqib-qalqib kelayaptimikin?

El-xalq uy-uyiga tarqaldi.

Navro'zchilar ko'ngli ko'klam bo'ldi.

Oymomo ko'ngli... hamon qish bo'ldi!

III

Oy to'lishib qoldi.

Yoz oydini oppoq bo'ldi.

Falak kavkabiston bo'ldi.

Kavkabistonda bir yulduz yulduzzor oralab sayr etdi. Bu, yer yo'ldoshi bo'ldi.

Olis-olislardagi chiroqlar yulduzlarday miltilladi.

Adir biqinidagi bahaybat yong'oq barglari mungli shitirladi. Chigirtkalar chirilladi...

Bir qush zardoli shoxlarini shitirlatib-shitirlatib uchdi.

Yo'ng'ichqapoyada otlar kirt-kirt o'tlaydi.

Otlar pishqirdi, otlar kishnadi.

Otlar tarsillatib-tarsillatib yer tepindi.

Tun jarchisi boyo'g'li uzib-uzib ovoz berdi.

— Momosi, shu tevarakda odam bor, shekilli... Momosi, hovlimizdagi zardolilar suvga cho'lp-cho'lp tushadi. Zardolilarni ko'chada bolalar ushlab yeydi...

1

Oqshom vaqti Oymomo onamiz tosh bilan katak og'zini yopdi. Katakka cho'nqayib o'tirdi.

Shunda, endi toy-toy bo'lmish uloq bir yiqilib, bir turib kela berdi. Quloqlarini qoqaman deya, tag'in bir yiqilib turdi.

Oymomo onamiz zavqlanib kuldi. O'ng qo'lini uloqqa cho'zdi. Barmoqlarini o'ynatdi. Uloqni o'ziga chorladi:

— Kel, chigi-chigi-chigi. Kel, toy-toy-toy... — dedi.

Uloq Oymomo onamiz barmoqlarini yaladi. Murg'ak-murg'ak boqdi.

Uloqqa termilib o'tirmish onamiz xayoliga endi tetapoya bo'lmish go'dak keldi...

Shu vaqt daricha g'iyqillab ochildi. Bola ko'tarib olmish Robiya hamsoyasi keldi.

— Ay, hamsoya, elagingizni berib turing. Bizniki teshilib qolibdi, — dedi.

Oymomo onamiz oshxonadan elak olib kelib berdi.

Robiya hamsoyasi supaga cho'k tushdi.

— Yo, pirim, picha damimni olayin, — dedi.

Keyin, eshitmish-bilmish ig'volardan gapirdi. Ta'bi xushlamovchi ayollar g'iybatini qildi.

Elakka bormish ayolning ellik og'iz gapi bor, bo'ldi!

Ichini bo'shatib ketdi. Xiyoldan keyin tag'in keldi.

— Ay, hamsoya, esim qursin, xiyol bo'lmasa, esimdan chiqayin, debdi, — dedi. — Xoldon momonikiga sumalakka boring. Ayollar sizni kayvoni bo'lsin deyapti, vaqtliroq boring.

Oymomo onamiz ich-ichidan suyundi. Boisi, sumalak qo'yuvchi-da, sumalakka kayvonilik qiluvchi-da, g'oyat pokiza ayol bo'lmog'i lozim bo'ladi.

"Meni lozim ko'ribdilarmi... menginani lozim ko'ribdilarmi, demak, el nazarida farishtali ayol bo'libman-da? — deya xayollandi onamiz. — Shukur, Yaratganning o'ziga shukur, ishqilib, el savobini olar bo'libman..."

Oymomo onamiz sumalak kayfiyatida eshik-orani supurdi. Sumalak zavqida tirikchiligini qildi.

Qoplon otamiz daladan kelib, sumalak daragini eshitdi.

— Ha-a, binoyi, — dedi, — menga-da sumalak olib kelasanmi?

— Bu kishiga olib kelmay, kimga olib kelaman, — dedi onamiz.

Oymomo onamiz ro'molga bir misqol bug'doy tugdi.

Sumalakka yo'l oldi.

2

Sumalak qayerda qo'yildi?

Sumalak odam nazari tushmovchi joyda qo'yildi.

Zaxdan zax joyda qo'yildi.

Nur-ziyosiz, shamol-havosiz joyda qo'yildi.

Qurt-qumursqasiz, kalamush-sichqonsiz joyda qo'yildi.

Yerto'la ana shunday joy bo'ldi!

To'rt-besh misqol bug'doy namlab-namlab yoyildi.

Bir haftalarda bug'doy ko'm-ko'k maysa bo'lib undi. Ko'm-ko'k maysa bo'lib o'sdi.

Maysalar bir-biri bilan ayqashib-ayqashib qoldi. Bir-biri bilan zichlashib-zichlashib qoldi.

Maysalar betiga doka yopib-yopib qo'yildi.

Vaqti-vaqti bilan doka olib-olib turildi.

Maysalarga suv sepib-sepib turildi.

Maysalarga oftob nuri tushirib-tushirib turildi...

Sumalak maysa Navro'z ramzi bo'ldi!

3

Xoldon momo ana shu maysalarni keliga soldi.

Oymomo onamiz maysalarni kelida tuydi. Ko'p-ko'p tuydi, xo'p-xo'p tuydi.

Maysalar shira bo'ldi. Maysalar shira berdi.

Oymomo onamiz maysalar bermish shiralarni suvli toboqlarga soldi. Shira suvda asta-asta eridi. Suv bilan aralashdi.

Oymomo onamiz shirali suvni sumalak qozonga soldi.

Ayollar sumalaklab kela berdi.

Yettita ayol bo'ldi, toqlik bo'ldi.

Juftlik bo'lsa ma'qul bo'ladi.

Ayollar tag'in kimni taklif etishni maslahatlashdi. Gap aylandi-aylandi, oxiri, Munavvar otli ayolga borib taqaldi.

— Beti qursin, betidan buzilsin!

Bu gapni Xoldon momo aytdi.

Ayollar birdan sergak bo'ldi. Bir-biriga qaradi. O'zgacha qaradi, ilmoqli qaradi. Birin-ketin bosh irg'adi.

— Aytganingiz kelsin! — dedi.

Boisi, elda Munavvar suyuqoyoq ayol, demish gap oralab yurdi...

Sumalak ana shunday ulug' ham e'tiqodga molik taom bo'ldi!

Ayollar olib kelmish unlarini sumalak qozonga soldi.

Keyin, sumalak qozon girdida davra qurdi. Gurung berib-gurung olib o'tirdi.

Onasiga ergashib kelmish bolalar uy tevaragida chopishib o'ynadi. Bir-biri bilan aytishib o'ynadi, janjallashib o'ynadi.

Janjalga onalari aralashdi. O'zaro sen-menga bordi.

"Men bo'lsam, aralashmasdim, — xayollandi onamiz. — Bola degani bir begunoh banda-da. Bugun urishadi, ertaga yarashadi".

Oymomo onamiz do'lanaday-do'lanaday kelmish yettita toshni yuvib-chaydi. Qozonda qaynamish sumalakka soldi.

4

Emishki, foniy olamda bir onaizor bo'libdi. Onaizor o'zi oti o'zi bilan zor ona bo'libdi. Bechoradan bechora bo'libdi. G'aribdan g'arib bo'libdi.

Xudoyim xudovando onaizor rizq-ro'zini bermabdi-da, nasibasini bermabdi-da!

Ammo xudoyim xudovando onaizor pushtini beribdi! Onaizor qo'sha-qo'sha farzandli bo'libdi! Farzandlari bir etak bo'libdi!

Bir oqshom bolalari qo'llarini cho'zib:

— Xo'rak, ena, xo'rak! — deya zorlanibdi.

Onaizor yenglarini turibdi.

— Bolalarimga mazali taom qilib berayin, — debdi.

O'choqqa o't yoqibdi. Qozon osibdi.

O‘t yona beribdi, qozon qiziy beribdi.

Shunda, onaizor qozonga nima solishni bilmabdi. Uy-ichini qarabdi. Tevarak-boshni qarabdi. Qozon qaynatish uchun biron-bir nima topolmabdi.

Norasidalari bo‘lsa, xo‘rak, deya zorlanishini qo‘ymabdi. Xo‘rak deya yig‘lay berib-yig‘lay berib uxlab qolibdi.

Onaizor och-nahor uxlab yotmish go‘daklariga termilib o‘tiribdi. O‘tirib-o‘tirib, ko‘ngli buzilibdi. O‘z taqdiridan kuyibdi.

— Yo‘qchiligi qursin-a, yo‘qchiligi-ya! — deya qon-qon yig‘labdi.

Go‘daklar azonda uyqudan turadi. Ochdan och bo‘ladi. Tag‘in taom, deydi. Xo‘rak, deya yig‘laydi...

Onaizor ana shu qayg‘uda timirskilanib yuribdi-yuribdi. Qozon qaynatish uchun tag‘in biron nima topolmabdi.

Shunda, mayda-mayda toshlarga ko‘zi tushibdi. Shu toshlardan yettitasini sanab olibdi. Toboqda yuvib-yuvib tozalabdi. Toboqdan qozonga solibdi.

Onaizor nahorda qozon qopqog‘ini olib qarasa, qozon to‘la taom bo‘libdi!

Taom oti — sumalak bo‘libdi!

Shu-shu, sumalak Navro‘z taomi bo‘lib qolibdi!

5

Shunday qilib, toshlar sumalak bo‘lib qaynay berdi.

Tun og‘di.

Gurunglar-da ado bo‘ldi.

Bir ayol urchuq yigirdi, bir ayol paxta chigitladi.

Shunda-da, sumalak tonglari otmadi!

Shunda, Xoldon momo aytdi:

— Kelinglar, topishmoq aytamiz, — dedi.

— Xo‘p binoyi gap, — ma’qulladi ayollar.

— O‘zimizning gurungma-gurung yuradigan topishmoqlardan aytamiz.

El og‘zida yurmish topishmoqlardan aytish boshlandi.

Aytishuvni Xoldon momo boshlab berdi.

— Men aytsam, uzun-uzun iz ketdi, uzun bo‘ylik qiz ketdi — qasavasi qarsillab, manglayi yerga tarsillab. Bu nima?

— O‘rmak.

— Kichkina qozonning oshi shirin.

— Yong‘oq.

— Bukri momom buk etdi, yugurib uyiga kirib ketdi.

— Sichqon.

— Anavi tog‘dan qaragan, manavi tog‘dan qaragan, o‘zimga yarashar deb, balxi ro‘mol o‘ragan.

— Buzoqboshi.

— Aka-uka bir yashaydi, bir-birini ko‘rmaydi.

— Ko‘z.

Ayollar tinimsiz o‘t yoqib turdi, tinimsiz o‘t kovlab turdi.

Boisi, o‘t hovuri xiyol pasaysa... sumalak ayniydi.

Sumalak ana shunday nozikta’b taom bo‘ldi!

— Chin qushim, chinni qushim, chin tepaga chiqdi qushim, og‘zidan bol uzatib, xalqqa salom berdi qushim.

— Samovar.

— Tog‘ni talaydi.

— Bolta.

— It emas, irillamas, odam emas, uyga qo‘ymas.

— Qulf.

— Yilting-yilting chirog‘im, yiltillaydi chirog‘im, gavhardan ko‘p qadri, qadrdonim chirog‘im.

— Ko‘z.

— Uydamisan, marjon, eshikdamisan, marjon, oyoq-qo‘ling ko‘rinmas, qulfdamisan, marjon.

— O‘tov uyi bog‘ichi.

— Tuzi yo‘q oshni ko‘rdim.

Bari ayol o‘yda qoldi! Birov, u dedi, birov, bu dedi. Birov-da topolmadi!

Shunda, ushbu topishmoqni aytmish Oymomo onamiz huzurlanib-huzurlanib kuldi. Tizzasiga urib-urib kuldi. Ketiga chalqayib-chalqayib kuldi. Kula-kula, qo‘li bilan sumalakni ko‘rsatdi.

Tuzi yo‘q osh — sumalak bo‘ldi!

6

Sumalak tonglari olis-olis bo'ldi.

Ayollarni uyqu elitdi.

Uyqu Oymomo onamizni-da olib-olib ketdi. Ammo onamiz mijja qoqmadi. Kayvoni ayol bo'lib, sumalak boqib o'tirdi.

Oymomo onamiz sumalak boqib-boqib, sumalak tonglarini oqladi!

Oymomo onamiz cho'mich bilan yog'och toboqlarga sumalak suzdi.

Ayollar uyma-uy yurib, sumalak tarqatdi.

Katta-yu kichik — barcha-barcha sumalak yaladi!

Emishki, insonda ming bir ikki dard bo'ladi. Sumalakdan bir yalamish inson tanasi qirq xil darddan forig' bo'ladi!

7

Oymomo onamiz bir cho'mich sumalak oldi. Uyiga ravona bo'ldi.

Shahodat barmog'i bilan Qoplon otamizga sumalak yalatdi.

Oymomo onamiz jisman-da dadil bo'ldi, ruhan-da dadil bo'ldi.

Umidlari uchqunlandi!

"Sumalak tonglarida mijjamni-da qoqmadim! — o'zidan minnatdor bo'ldi onamiz. — Gunohlarim bor bo'lsa, ana shu gunohlarimdan forig' bo'ldim. Gunohlarim yo'q bo'lsa, unda, tag'in-da pokiza bo'ldim. Bir dunyo savobga qoldim. Ana endi umidlarim ushaladigan bo'ldi..."

8

Oymomo onamiz odaticha tong saharlab turdi.

Tirikchiligini qildi.

Uy derazalarini ochdi. Eshik-orani supurdi.

Darvoza zanjirini tushirdi. Ityaloqqa ovqat quydi. Katak og'zidagi toshni oldi. Mollarga qaradi. Sigir sog'di.

Sutni dokadan suzib oldi. Keyin, toboqqa quydi. Chumolidan hadiksirab, simhalinchakka osdi.

Brigadir ko'chadan ovoz berib-ovoz berib o'tdi.

Onamiz choy damladi. Dasturxon burchiga bostirdi.

Qoplon otamiz-da uyg'ondi.

— Brigadir bozor kuniga boqqa aytib ketdi, — dedi onamiz.

— Ha-a. Qayerga borish kerak ekan?

— Achchiq zardolizorga.

— Xo'p xushxabar aytding. Suyunchi bersammikin...

— Xushxabar quridi, shu qoldimi. Qo'lning sho'ri.

— Xina qo'y.

Onamiz yuzlari yorishdi.

— Yaxshi aytdi, chin aytdi, — dedi.

Choy-ta'tildan keyin onamiz omborxonadan bir siqim quruq xina olib keldi. Suvga botirib ivitdi. Keyin, yog'och keliga soldi. Qayroqtosh bilan maydalab tuydi.

Oymomo onamiz kechasi yotish oldidan otamiz kaftlariga xina qo'ydi. Kaftlarni yumdi. Girdini tugilmish tok barglari bilan yopdi. Barg ustidan gardi ro'mol bilan o'rab bog'ladi.

Qoplon otamiz ertalab qo'llarini ochib ko'rdi. Kaftlari qip-qizil xina bo'ldi!

Xinalik kaftni ketmondasta urmaydi!

Onamiz galdagi kecha-da otamiz qo'llariga xina qo'yajak bo'ldi.

Otamiz qo'l siltadi.

— Hali, qoshimga-da o'sma qo'yarsan? Bor-e! — dedi.

Onamiz hiring-hiring kuldi.

— O'z tani sog'ligini o'ylasin, xo'p desin.

Onamiz, otamizni bemahalgachayin avradi. Oxiri ko'ndirdi.

9

Otamiz bilan onamiz ertalab bog'ot otlandi.

Onamiz yo'lda aytdi:

— O'sh degich yerda bir tabib bor emish... — dedi.

— Vaqt qani, momosi. Ish bo'lsa qo'qiyapti.

— Brigadirdan so'rasin-da.

— Odamda bet bo‘lishi kerak-da, momosi. Shuncha yuramiz, brigadir bir og‘iz og‘ir gapirmaydi.

— Yana tag‘in, mehnat kuni yozadi.

— Ha-a, otangga rahmat.

— Bormasak bo‘lmas, ko‘p zo‘r tabib deyishyapti.

— Unda, keyinroq boramiz. Bo‘lmasa, eldan uyat, momosi. El, ishga bir kelib, bir kelmay yurishimizni ko‘rsa, ishdan beli soviydi. Yana-tag‘in, elning o‘g‘il-qizlari-da maktabdan keyin ishga keladi, momosi... Nasib bo‘lsa, Xushvaqt kelsin, o‘zimiz bilamiz, momosi...

— Nasib bo‘lsa, bovasi...

10

Brigadir aytmish achchiq zardolizor ostida otdan tushdilar.

Otamiz xurjunni zardoli shoxiga ildi. Belni yelkasiga qo‘ydi. Tokzor oralab yurdi. Dehqonlar qoralab yurdi.

— Hormanglar-ov! — dedi.

— Bor bo‘ling-ov! — dedi dehqonlar.

Otamiz bildi, xiyol hayalladi. Shu bois, hadahalab yurdi. Chetdan bir jo‘ya oldi. Apil-tapil ish boshladi

Onamiz otamiz qabatida ishladi.

Dehqonlar oralab yurmish hisobchi ovozini qo‘yib aytdi:

— Kelardingiz-da, Qoplon aka! Tushdami, yo, ish oxiridami!

Oymomo onamiz uyaldi. Yuzlarini yashirdi.

— Yuzingizni yashirmang, Oymomo opa, men sizga aytayapman!

— Endi bo‘lmaydi-ye... — ko‘r ovozda dedi otamiz.

Hisobchi otamiz bilan onamiz boshiga keldi. Qo‘llarini orqasiga qilib turdi.

— Va’dalaringizni qopga solib ortsa, ot ko‘tarolmaydi! Bo‘ldida, endi!

— Ayb bizda, hisobchi, ayb bizda!

— Nima, uyingizda yig‘lab qoladigan bolangiz bormidi?!

Qoplon otamiz tok tomiriga egilmish ko‘yi qoldi. Qaddini rostlashini-da bilmadi, rostlamasini-da bilmadi. Tok tomirlarida g‘imirlamish sariq chumolilarga tikilib qoldi.

— Qaytanga bolalilar o‘z vaqtida kelayapti! Ana, Xumor, Sanamlar! Bari qo‘sha-qo‘sha bolalik ayollar!

Oymomo onamiz belni yerga qadadi. O‘ng bilagini beldasta uchiga qo‘ydi. Peshonasini bilagiga qo‘ydi. Yuzlarini bekitdi...

Qoplon otamiz onamiz holidan tag‘in-da ezildi, tag‘in-da kuydi. Qaddini rostlamay, yer ostidan hisobchiga qaradi. Bu qarash mana bunday dedi:

“Ay, musulmon, peshonangda ayolimiz turibdiki. Mayli, meni o‘ylama, shu poshikastani o‘ylab gapir...”

— Ko‘p o‘qraymang, Qoplon aka! Men sizga yomon gapirayotganim yo‘q! Men qonun bo‘yicha gapiryapman!

Qoplon otamiz ko‘zlari pir-pir etdi.

“Qonuning kallangni yesin, hisobchi, kallaginangni yesin...”

Qoplon otamiz hisobchidan ko‘zlarini oldi. Tok tomirlariga yuz burdi.

Shu vaqt, besh-olti jo‘ya narida ishlamish Hasan bobo ovoz berdi:

— Ay, hisobchi! — dedi. — Og‘zim bor deb, karillay berasanmi, bo‘ldi-da!

— O‘zingiz o‘ylang-da, Hasan bova! — dedi hisobchi. — Anavi Sanam bilan Xumorning egiz bolasi bor, egiz! Shunday bo‘lsayam, o‘z vaqtida ishga keladi! Oymomo opaning anavi beldastadan boshqa nimasi bor?!

— Bolasi bormi-yo‘qmi, u, sen bilan bizning ishimiz emas, u, Yaratganning ishi, hisobchi!..

— Er-xotinning qornidan boshqa qayg‘usi yo‘q! Yana-tag‘in, ishga kechikkani kechikkan!

— Bo‘ldi-ye, ko‘p karillama-ye!

— Bolalik bo‘lsayam mayli edi! Bolasini emizadi deymiz, bolasini allalaydi deymiz! Bular kimni emizadi, bular kimni allalaydi! Er-xotin bir-birovini allalaydimi?! Er-xotin bir-birovini emizadimi?!

Qoplon otamiz qalqib ketdi! Yuztuban yiqilayin-yiqilayin, dedi!

Bovujud, beldastaga suyanib qoldi. Beldasta ushlamish barmoqlari qalt-qalt etdi.

Shaxt bilan qaddini rostladi. Olislab ketmish hisobchi ketidan qaradi. Tish g'ijirlatib-tish g'ijirlatib qaradi.

Qoplon otamiz tok jo'yani ishladi. Tok ostini aylana qilib kovladi. Tok belida unib chiqmish patak tomirlarni yulib tashladi. Qari toklarni kundakov qildi.

Oymomo onamiz tok pushtani ishladi. Novdalar uchini sug'urdi. Novdalarni iloji boricha yuqori ko'tardi.

Boisi, novdalar yerda tursa, oyoq tega beradi, kiyim o'ngirlari ilasha beradi. Oqibat, novda pindiqlari uchib ketadi.

Hosil esa, ana shu pindiqlarda bo'ladi!

Otamiz bilan onamiz g'arq terga botdi.

Otamiz ko'ylagi yelkalariga jiqqa yopishdi.

Onamiz entikib-entikib nafas oldi.

Kun qiyolab-qiyolab botdi.

Ishdan qaytar vaqt bo'ldi.

Hisobchi dehqonlarga aytdi:

— Ertaga vaqtliroq kelinglar! Salqinda ish unadi! — dedi.

Jo'na-jo'na bo'ldi.

Nurmat ko'sa tevaragiga alang-jalang bo'ldi.

— Ay, xaloyiq, mening belimni ko'rmadilaringizmi? — dedi.

Dehqonlar ko'saga qaradi. Gurullab kuldi.

— Nimaga tirjayasizlar, — dedi ko'sa, — ko'rgan bo'lsalaringiz aytingizlar-da!

— Belingiz bozor ketdi! — deya xaxolab kuldi dehqonlar.

Bir dehqon qo'li bilan ko'saning yelkasini ko'rsatdi.

Nurmat ko'sa yelkasiga qarab, o'zi-da xaxolab kulib yubordi. Boisi, ko'sa belini yelkasiga qo'yib, dastasidan ushlab turdi!

Dehqonlar shu qadar charchadi!

11

Kolxoz otamiz bilan onamizga pilla berdi.

Pillachi agronom bir kaft urug' olib keldi.

Urug'lar yo'ng'ichqa guliday-guliday bo'ldi. Joni yo'q bo'ldi.

Onamiz urug'larni hovlidagi so'riga yoydi.

Bir quti pilla ikki odamga og'irlik qiladi.

Shu bois, otamiz brigadirdan tag'in bir odam so'radi.

Brigadir Qimmat momoni berdi.

12

Qimmat momo darvozadan qora berdi. O'zi gapirib-o'zi qo'yib kela berdi:

— Brigadir aytgandan kela berdim. O'zimizning ulpi-tomirlarim bilan ishlaydigan bo'pman-da, dedim. Aylanayin bo'laginamdan, o'rgilayin bo'laginamdan. Qani, bo'laginam, xo'p omonmisiz, xo'p damlimisiz...

Qimmat momo onamiz bilan qo'ltiq ostidai qo'l uzatib ko'rishdi.

— Bo'lam-da, ming qilsayam bo'lam-da, — dedi. — Yaxshi ko'raman. O'zimcha eslab yuraman. Xudo tirnoqdan qisgan bo'lsayam, o'zlarining tani-joni sog' bo'lsin deyman. Inim qayoqda? Ha-a-a! Uyam ko'zimga yaxshi ko'rinadi. O'zimniki-da, o'zimniki.

Qimmat momo asta tizzasiga urdi. O'zicha kuygan bo'ldi:

— Uf-f-f, birkam dunyo ekan-da, — dedi. — Mana shu hovlida ikkovgina qorako'z burni oqib yursa, kattalar pilla berarmidi! Kattalar bunday qarasa, keng bir hovlida ikkovgina er-xotin bor. Tirnoq zoti yo'q... Shularga pilla beraylik, degan-da.

Oymomo onamiz yomon vaziyatda qoldi. Nima deyishini bilmadi. Yerga qaradi. Nima qilishini bilmadi. Cho'p bilan yer chizdi.

Qimmat momo bir darvoza tarafga, bir uy tarafga alang-jalang bo'ldi. Keyin, ohista gap ochdi:

— Uyginangda hech kim yo'qmi, bo'lam?

— Yo'q, nima edi?

— Bo'lalarning gapini birov eshitmasin deyman-da, bo'lam. Hozirgi zamonning odamlari yomon bo'p ketgan, bo'lam.

— Ayta bering, uy ovloq, ayta bering.

— So'ramoqdan ayb yo'q, deydilar... Birov-yarim bilan... bordi-keldi qilib ko'rmadingizmi, bo'lam?

Oymomo onamiz yer chizishni bo'ldi qildi. Chizilmish yerga tikilib qoldi. Qimmat momo nima dedi, mag'zini chaqa olmadi.

— U nima deganingiz? — dedi.

— Sodda bo'lamdan-da, soddagina bo'lamdan-da. Sodda ko'p yaxshi-da. Soddalik — ko'ngli tozalik bo'ladi. Sodda bo'lamdan aylanayin, soddagina bo'laginamdan o'rgilayin. Shu...birov-yarim bilan deyman... yotib deyman.

— Nima-nima?

— Birov-yarim bilan yotib... o'zingni bir sinab ko'rmadingmi, deyman...

Oymomo onamiz yalt etib Qimmat momoga qaradi. Onamiz yuzlari lov-lov yondi. Ko'zlari pir-pir etdi.

— Og'zingizga qarab gapiring, momo, og'zingizga qarab gapiring!

— Og'zimga qarab gapirsam-gapirmasam-da, bo'lam. Gulday umringni zoye ketkazib nima qilasan, bo'lam...

— Qanday birov-yarim bilan, qanday birov-yarim bilan?! — birdan olov oldi onamiz. — Boshimda haq nikohlik egam turibdi-ku!

— Haq nikohlik egangdan yorug'lik chiqmasa, nima qilasan, bo'lam...

— Nima demoqchisiz?! — haminqadar olovlandi onamiz. — A, nima demoqchisiz?!

Qimmat momo ra'ykorchi bo'ldi.

— Ana, ferma mudirimiz bor, uyurdagi ayg'irday bo'p yuribdi... — dedi. — U bo'lmasa, ana, brigadirimiz bor, kelbati egiz tug'diraman, deb turibdi...

Oymomo onamiz shaxd bilan joyidan turdi. Shasht bilan so'ridan tushdi. Kalishini-da kiymadi. Yalang oyoq darvoza tarafga yurdi. Darvoza tavaqalarini lang ochdi. Qo'li bilan ko'chani ko'rsatdi.

— Keting! — dedi. — Hozir keting!

Qimmat momo joyidan turishini-da bilmadi, turmasini-da bilmadi. Bezrayib o'tira berdi.

— Eb-ey, yaxshilikka yomonlik! — dedi. — Men seni bo'lam deb aytib edim, bo'laginam deb aytib edim, eb-e!

— Men sizga keting, deyapman!

— Eb-ey, men pillaga kelib edim, eb-ey!

— Ketmaysizmi, ketmaysizmi?!

Oymomo onamiz shunday deya, itini chaqirdi:

— Bah-bah-bah, Olapar, bah-bah-bah!

Katak oldida yotmish Olapar chopqillab keldi. Dumini likillatib-likillatib, onamiz o'ngirini iskadi.

— Keting deyapman! — dedi onamiz. — Bo'lmasa, Olaparni olqishlayman!

Qimmat momo lik etib joyidan turdi. Kalishini yo'l-yo'lakay kiydi.

— Ketayapman, bo'lam, mana, ketayapman! — dedi.

Qimmat momo Olapardan hadiksirab odimladi. Olapardan ko'z uzmay odimladi. Olaparni yonlab-yonlab odimladi. Ketiga qarab-qarab odimladi.

— It yomon, bo'lam, it bilan o'ynashmang, bo'lam! — deya-deya odimladi.

Darvozadan tashqariladi. Qaddini rostladi. O'zini erkin oldi. Ko'ylak yoqalarini ko'tarib, ichiga tuf-tufladi.

— Ay, bo'lam, pillaga qachon kelayin? — dedi.

— Qorangiz o'chsin-e, sizdaychikin pillachining-e!.. Oymomo onamiz darvoza tavaqalarini qars-qars yopdi. Zanjirini sharaq-sharaq zanjirladi. Keyin, darvoza tirqishidan mo'raladi.

Qimmat momo hamon ostonada turibdi! Avzoyi, tag'in ichkari kiraman, deyapti!

Oymomo onamiz tevaragiga alangladi. Burchakda yotmish narvonni sudrab keldi. Darvozaga tirab qo'ydi. Qimirlatib-qimirlatib ko'rdi. Xotiri jam bo'ldi.

Uyga kirib, o'zini to'shakka tashladi.

Ho'ng-ho'ng yig'ladi. Yig'lab-yig'lab uxlab qoldi.

13

Oqshom vaqti:

— Qimmat momo kelmasin, — dedi onamiz.

— Nima uchun? — dedi otamiz.

— Beti qursin!

— Boshqa odam yo‘q, momosi. Brigadir shu momoni-da arang berdi.

— Boshqa odam bo‘lmasa-da mayli, o‘zimiz eplaymiz.

14

Qoplon otamiz dahlizda so‘ri qurdi.

Oymomo onamiz yo‘ng‘ichqa gullarni so‘riga yoydi.

Kun taftli bo‘lsa-da, pechka yoqdi. Havoni pillabop etdi.

15

Bir haftada yo‘ng‘ichqa gullar jon oldi.

Jonivor bo‘lib g‘imirladi.

Pilla bo‘lib bargga kirdi.

16

Qoplon otamiz adirdan barg olib keldi.

Oymomo onamiz shoxcha bargini chilpib-chilpib oldi. Pilla urug‘lar uzra yoydi.

Pilla barg yegan sayin bolaladi.

17

Dahlizdagi uch qavat so‘ri-da pillaga to‘ldi.

Otamiz bilan onamiz o‘zlari yotib-turuvchi uy ashqol-dashqolini tashqari olib chiqdi. Temir so‘riga uydi.

Uyda uch qavatli, uch qator so‘ri qurdi.

Bu uy-da pilla bilan to‘ldi.

Pilla urug‘lay berdi.

Otamiz bilan onamiz endi mehmonxona jihozlarini tashqari chiqardi. Temir so‘riga qo‘ydi.

Mehmonxonada uch qator, uch qavatli so‘ri qurdi.

Shunday katta mehmonxona-da pilla bilan to‘lib-toshdi.

Boshqa bo‘sh uy qolmadi. Yolg‘iz oshxona qoldi.

Otamiz bilan onamiz oshxonadagi qozon-toboqlarni tashqari chiqardi. Temir so'riga qaladi.

Oshxonada uch qavat so'ri qildi.

Hovlidagi temir so'ri ichkaridan olib chiqilmish ashqol-dash-qollar bilan to'ldi.

Tok vayishi osti bargxona bo'ldi.

Otamiz bilan onamiz uchun tirikchilik qiladigan joy qolmadi.

Tovuq katagi yonida bir gilamlik bo'sh joy bo'ldi. Bu, qishda yoqilib ado bo'lmish g'o'zapoya uyumi joyi bo'ldi.

Otamiz bilan onamiz o'tirib-turajak gilamlarini ana shu joyga olib kelib to'shadi.

— Katak oldi yaxshi-da, — dedi onamiz. — Tovuqlar qoqoq-lab uyg'otadi.

Shunday qilib, otamiz bilan onamiz uylari to'rini pilla uchun berdi. O'zlari tovuqlar bilan yonma-yon yotdi.

Pilla birinchi uyquga ketdi.

Ikki kecha-yu ikki kunduzda uyqudan turdi.

Ishtaha bilan barg yeb boshladi.

Pillachi agronom kelib ko'rdi.

— Yaxshi, ko'z tegmasin, yaxshi, — dedi.

Pilla ikkinchi uyquni oldi.

Bunda-da ikki kecha-yu ikki kunduz uxladi.

Bu safargi ishtahalari-da yomon bo'lmadi.

Bergan bargni berganday, ilma-teshik qilib yuta berdi.

Pilla uchinchi uyquga ketdi.

Bu safar ikki yarim kecha-yu ikki yarim kunda uyg'ondi.

Tag'in-da barg, barg dedi.

Qoplon otamiz pilla barg yeyishini ko'rib:

— Yo, tavba-ye! — dedi. — O'zlari mayda-mayda, chinchiloq-day-chinchiloqday bo'lsa, qorinlari qayerda bo'ldi ekan...

So'rilar osti tariqday-tariqday qora qumaloqlarga to'ldi.

Onamiz qumaloqlarni peshma-pesh tashlab turdi.

Pilla to'rtinchi uyquga ketdi.

To'rtinchi uyquda bir yarim kun-u tun uxladi.

18

Otamiz tag‘in bargga otlandi.

Adirda tut ayrisiga minib shox kesdi. Shox kesa berib qo‘llari toldi.

Tut tanasiga yag‘rin berdi. Vazmin tin oldi. Olislarga qarab o‘tirdi. Ko‘zi ketib-ketib o‘tirdi...

Shunda, oq eshakli, oq sallali bir chol ariq yoqalab kela berdi.

Otamiz cholni tanimadi.

Chol tut ostidan o‘tdi.

Otamiz cholni Namoz boboga o‘xshatdi.

Bosh irg‘ab, salom berdi.

Ammo chol alik olmadi.

Otamiz sergaklandi. Tanadan mahkam ushladi. Yerga qaradi.

Chol yo‘q...

Yerga sapchib tushdi. Tevarakka alangladi.

Chol yo‘q...

Ko‘ngliga tahlika tushdi. Yoqasini ko‘tardi. Ichiga tuf-tufladi.

Barg ozroq bo‘lsa-da, jamlab boyladi. Otiga ortib jo‘nadi, ketiga qarab-qarab yurdi.

Xayolida, chol ketidan kelayotganday bo‘ldi.

Otini lo‘killatib-lo‘killatib haydadi.

19

Uyga kelib, bir boshqa bo‘lib qoldi. Parishon bo‘lib qoldi. G‘amgin bo‘lib qoldi.

Onamiz molxona tarafdan qo‘zi quvib keldi.

— Manavini ushlab bersa bo‘lmaydimi? — dedi. — Bir menga kerakmi, shu ro‘zg‘or!

Otamiz qo‘zi quvib ketdi.

Qo‘zi hovlini aylanib chopdi. Xiyol xolisda pusib turdi.

Otamiz panalab-panalab bordi. Birdan qo‘zi oyog‘iga qo‘l tashladi.

Qo‘zi ushlatmay qochdi. Devor qoralab hurkib turdi.

"O'zi, bu ish yosh bolaning ishi. Xushvaqtniig ishi..." — deya xayollandi otamiz.

Otamiz enkayib-enkayib bordi. Qo'llarini yoyib, qo'ziga qo'shqo'llab yopishdi.

Qo'zi tag'in ushlatmadi. Dirk etib qochib ketdi.

Otamiz yerga kaftlari bilan borib tushdi. Kaftlari shilindi. Ust-boshlari chang bo'ldi.

"Xushvaqt bo'lsa edi, bundaychikin qo'zini hash-pash deguncha ushlab olar edi..." — tag'in xayollandi otamiz.

Otamiz qo'zini burchakka qamab bordi. Quchog'ini katta ochib bordi. Ko'ksi bilan qo'ziga tashlandi. Bu safar ushladi.

Qo'zini ko'tarib borib, qo'y qoshida quchoqlab o'tirdi. Boisi, qo'zichoq ko'zdan pana bo'lsa, sovliq iymaydi.

Onamiz sovliq sog'ib boshladi:

Qo'y sog'aman qo'shoqda, turey-turey,
Qo'y ishqi menga yoqqan, turey-turey.
Qo'y sutini ichganlar, turey-turey,
Kundan kun shifo topgan, turey-turey...

Sovliq iydi, sovliq qo'zisiga tumshuq cho'zdi...

Otamiz ketiga tis bo'ldi. Qo'zini sovliqdan xolislatdi.

Otamiz ko'ngli biryon bo'ldi...

Shu o'tirish, azza-mazza erkak uchun epmi? Qo'zi ushlab turish, kap-katta odam ishimi?

Tokaygacha Xushvaqt ishiga-da o'zi yuradi?..

Sovdi bo'lib sovdirgin, turey-turey,
Sovsa kadi to'ldirgin, turey-turey.
Buncha kuyma, jonivor, turey-turey.
Taqdiringni ko'ndirgin, turey-turey.

Sovliq ko'zi devorda yurmish mushukka tushdi. Tag'in-da berilib iydi. Boisi, sovliq mushukdan qo'rqadi!

Tog'larga bor, quv olma, turey-turey,
Sovdi bo'lgin, suv olma, turey-turey.

Bolangning yo'qligini, turey-turey,
Ko'nglingga og'ir olma, turey-turey.

Mushuk devordan sapchib tushdi.

Sovliq bir seskandi.

Bolaginang baxtingdir, turey-turey,
Uni olib uxlagin, turey-turey,
Bolalilar ma'rashar-a, turey-turey,
Bolasizlar qarashar-a, turey-turey...

Onamiz joyidan turdi.

— Qo'zini qo'ybersa-da bo'ladi, — dedi.

Otamiz qo'zini qo'yib yubordi.

Katak oldida to'shalmish gilamga keldi. Bolishga yuztuban tashladi.

Bolish ho'l bo'ldi...

20

Pilla urug'i ochofat bo'ldi!

Onamiz urug'lar uzra barg yoyib, o'ng-chapiga qaragunicha novdalar ship-shiydam bo'lib qola berdi.

Otamiz kecha-yu kunduz barg tashiy berib, tinka-madori quridi. Ko'zi ilinib edi, onamiz tag'in turtdi.

— Tursin, barg olib kelsin, — dedi.

— Boyagina olib keldim-ku? Bularing to'yadimi o'zi, yo'qmi?

— To'rtinchi uyqudan keyin shunday bo'ladi, tursin...

— Ko'zim ilingandan turtasan-turtasan! Anavilaring bo'lsa, ketmon chopib horiganday uxlagani uxlagan! Ikki kunlab uxlaydi, ularingga indamaysan! Uyg'ot barini! Bo'ldi, izzati!

— Aytmasa-da, endi uxlamaydi.

— Shu oxirimi? Xayriyat-e!..

Otamiz uyquli ko'zlarini uqalab-uqalab turdi. Egar qoshiga arqon o'rab, bargga otlandi.

— Aytib qo'yayin, agar yana pilla olaman desang, mendan o'pkalama! — dedi.

Otamiz boyagi choldan qo‘rqdi. Boshqa bir adirdan barg olib keldi.

Uzun shoxlardan novdalar siyirib-siyirib oldi. Onamizga qo‘l-tiqlab-qo‘ltiqlab tashib berdi. O‘zi-da ichkariladi.

Derazalar gilam bilan yopilishidan ichkari qorong‘i bo‘ldi.

Otamiz deraza tokchasiga o‘tirdi. Yelkasi bilan devorga suyandi.

Shunda bir nima eshitdi. Sergak bo‘lib quloq soldi.

Tashqarida shovullab havo yog‘di. Shovullashidan, maydalab yog‘di. “Ana endi barg olib kelish qiyin bo‘ladi. Olib kelsa-da, quritish lozim bo‘ladi”, deya xayollandi otamiz.

Otamiz so‘rilar aro mo‘raladi, onamizni izladi.

— Ay, havo yog‘yapti, eshityapsanmi? — dedi.

— Bekorlarni aytibdi.

— Ana, quloq sol, ishonmasang, ana.

Otamiz dahlizladi. Yorug‘da xiyol ko‘z ocholmay turdi. Keyin, tashqari qarab, hayron bo‘ldi. Kun charaqlab turdi, yerda bir tomchi-da yomg‘ir yo‘q bo‘ldi.

Angrayib, tag‘in ichkariladi.

Ichkarida hamon shovullab yomg‘ir yog‘di...

Onamiz qorong‘idan kinoyali ovoz berdi:

— Ha, yog‘ayaptimikin? — dedi.

— Tashqarida kun chiqib turibdi, momosi. Nimaga unday?

Onamiz piq-piq kuldi.

Otamiz tag‘in o‘tirdi. E’tibor bilan quloq soldi.

Pilla urug‘lar bir vaqtda barg yedi, bir me’yorda barg yedi, yana tag‘in, yoppasiga barg yedi...

Ana shu vaziyatda eshitilmish sirli ovoz, yomg‘ir yog‘ishiga o‘xshadi...

Sokin, qorong‘i olam bo‘ldi. Misoli tun bo‘ldi, yomg‘ir maydalab-maydalab yog‘di: shuvvv...

So‘rilarda omonat turmish novdalar yerga tap-tap tushdi. Misol, yomg‘irdan namiqmish bo‘g‘ot shox-shabbasi qirs-qirs sinib tushdi...

Yomg‘ir ezib-ezib yog‘di: shuvvv...

21

Barg tashvishi oxirladi.

Endi, chitir o‘t topib kelish lozim bo‘ldi.

Otamiz adir otlandi. Toshloqdan o‘tdi.

Adir poyida oyoq ildi. Jilovga erk berdi. Telpagini keyiniga surdi. Olis-olislarga qaradi.

Vaxshivor adirlari turnaqator bo‘ldi. Qirlari o‘rkach-o‘rkach bo‘ldi. Oxiri ko‘rinmadi.

Adir-qirlar o‘ti bo‘lganicha bo‘ldi. Belga urdi. To‘lqin bo‘lib chayqaldi.

Qizg‘aldoq adirlar, qizg‘aldoq qirlar alvon-alvon tovlandi.

Otamiz adirladi, otamiz bahor oraladi.

Dimog‘i turfa islarni tuydi. Bir is shuvoq o‘t isidan bo‘ldi.

Otamiz bahor oralab bora berdi. Ana shu isni taratmish o‘tni topdi.

Tizza bo‘yli, gullari ochsariq o‘t. Tanasi ko‘kimtirroq, barglari mayda-mayda o‘t. Sershox, sertuk o‘t.

Chitir o‘t ana shu bo‘ldi!

Otamiz chitir o‘t terdi. Tomiri bilan sug‘urib-sug‘urib ola berdi.

Chitir o‘t qo‘l tegishi bilan tag‘in-da o‘tkir is taratdi. Isi dimoqni qitiqladi.

Otamiz otida ikki boylam chitir o‘t ortib keldi. Tom ustida yoyib-yoyib quritdi.

Pilla urug‘lar to‘lishdi. O‘zini ko‘tara olmay qoldi. O‘zini eplay olmay qoldi.

Oqibat, bargdan qaytdi, bargdan qoldi... Bargdan ters burilib-ters burilib keta berdi.

Pilla urug‘lar karaxt bo‘lib-karaxt bo‘lib qoldi. Mudrab-mudrab qoldi.

Bu, pilla urug‘ining beshinchi uyqusi bo‘ldi, so‘nggi uyqusi bo‘ldi.

So‘nggi uyqu to‘rt-besh soatcha davom etdi. Otamiz bilan onamiz chitir o‘tlarni dastalab-dastalab pilla urug‘lar uzra yoydi.

Pilla urug‘lar chitir o‘tlarga talpindi. Pilla urug‘yigiraman desa, joy tanlab o‘tirmaydi. Uchramish joyida yigira beradi.

Unda, ne boisdan pillachilar chitir o‘t terib keladi?

Boisi, chitir o‘t isi pilla urug‘iga xush yoqadi. Pilla urug‘ ana shu isga talpinadi. Ana shu is og‘ushida mo‘l-mo‘l yigiradi.

Boisi, chitir o‘t quyuq-quyuq tukli bo‘ladi. Pilla urug‘ ana shu tuklarga mo‘l-mo‘l yigiradi.

Ana-ana, bir urug‘ talpina-talpina, arang chitirga chiqdi, chitir tanasi bo‘ylabyurdi. Shoxlar ayrisiga keldi. O‘ziga ma’quliga qarab yurdi.

Novdalar ayrisida joylashib oldi, joyida aylana berdi. Ya’ni, yigira berdi. Har yigirishida o‘zidan ipak chiqardi.

Ipak, chitir o‘t quyuq tuklariga ilashib-ilashib, to‘r bo‘ldi. To‘r quyuqlashib-quyuqlashib, boshmaldoqday-boshmaldoqday g‘anak hosil bo‘ldi.

Oppoq-oppoq pilla ana shunday bino bo‘ldi!

22

Pilla qo‘yilmish uylardan qo‘lansa hid arimadi.

Hidlar dastidan uylarda o‘tirib-da bo‘lmadi, yotib-da bo‘lmadi.

Otamiz bilan onamiz bot-bot uy supurdi, bot-bot uy yuvdi. Eshiklar bilan derazalarni lang ochib qo‘ydi.

Shunda-da bo‘lmadi. Pilla qo‘yilmish uylardan oy-oylab badbo‘y hid arimadi.

IV

Bobomiz sergaklandilar. Qaddini ko‘tardilar. Chordona qurdilar. Tizzalarini quchoqladilar. Sallasini ketiga surib qo‘ydilar.

Yellar zabti bobomiz peshonasiga xush yoqdi.

Otlar kishnagan tarafdan yangi o‘rilmish yo‘ng‘ichqa isi keldi.

Bobomiz tun jarchisi ovoz bermish tarafga qaradilar.

Odam ovozlaridan darak bo‘la bermadi.

Bobomiz oydin olislarga termildilar. Xayoliy ovozda aytdilar:

— Mabodo suvda zardoli oqmay qolsa, bolalar devordan bo‘ylaydi. Zardoli bering, deyolmaydi. Suv oqib chiqadigan teshik-

ni poylaydi. Shamoli qurg'ur hadeganda bo'la bermaydi. Shunda, bildirmayman-da, o'zim shamol bo'laman. Zardolini ohista-ohista silkiyman. Zardolilar duvv-duvv to'kiladi... Shunda, ko'chadan, ushla, oqib kelayapti, ushla, degan ovozlar keladi...

1

"Toltush emish...

Olapar tut soyasida old oyoqlariga tumshuq qo'yib suvga termilar emish.

Devor yoqalab oqmish ariqda bir qizil olma bir ko'rinib, bir ko'rinmay oqib kelarmish.

Olapar quloqlarini dikkaytirib, olmaga ajablanib qararmish.

Yeb bo'lmasligini bilarmish-da, tag'in oyoqlariga tumshuq qo'yarmish.

Olapar qabatida qizaloqlar davra bo'lib o'tirib bosmalim o'ynar emish.

Bir qizaloq gilosday-gilosday beshta tosh, ikkitasini o'ng, ikkitasini chap tarafiga qo'yarmish. Qo'lida qolmish bir toshni osmonga otarmish. Kafti bilan yerga bir shapatilarmish-da, osmondan kelmish toshni qo'li yuzasi bilan ilib olarmish. Qo'li yuzasidan g'oyat nafis, g'oyat epchillik bilan qo'li kaftiga olarmish...

Qizaloq... onamiz qizi emish!

Onamiz... qizi otini bilmasmish!

Qizi bosmalim o'ynay berarmish-o'ynay berarmish! Bosmalimning yovg'on turini o'ynab bo'lib, dahmana, ulug', eshala, eshonqo'zim, shovdir, kichikkon, kattakon, kultepa, yer shapillatar, qayiruv, kelin turlarini-da o'ynarmish.

O'yin yakunlovchi kelin turiga yaqinlashgan sayin murakkablashib borarmish.

Qizi toshni turli-tuman o'ynatib-o'ynatib ilib olarmish. Shu tur nomini o'yin nag'masiga monand bot-bot aytar emish:

— Kelinim bir, kelinim ikki, kelinim uch...

Qizi ko'p turlarni uch marotaba ijro etibdi.

Ulug', kattakon degan turlarni olti marotaba, eshonqo'zim turini to'qqiz marotaba takrorlabdi. Toshni tur oxirigacha yerga

tushirmay o‘ynabdi. Xatolikka yo‘l qo‘ymay o‘ynabdi. Bordi-yu, biror toshni noma’qul ilib olsa, yo, adashib ilib olsa, bosmalim o‘ynash gali yonidagi qizaloqqa...”

Temir so‘rida yotmish Oymomo onamiz seskanib uyg‘ondi. Qorayalangbosh turib o‘tirdi. Bolishda yoyilib yotmish ro‘molini yopindi. Tizzalarini ko‘rpa sirtidan quchoqladi. Uyquli ko‘zlarini uqaladi. Tevarakka alangladi.

Oy qorong‘i bo‘ldi. Yulduzlar siyrak bo‘ldi.

Robiya hamsoyasi go‘dagi big‘-big‘ yig‘ladi.

“Kelib-kelib shu mahalda-da yig‘laydimi... — deya o‘kindi onamiz. — O‘zi, hali nima ko‘rdi? O‘g‘il ko‘rdimi, yo, qiz ko‘rdimi? Qiz ko‘rdi, qiz! Bosmalim o‘ynadi-ku...”

Onamiz esnab-esnab ming‘illadi:

— Qiz bo‘lsa-da mayli... — dedi.

Qabatida yotmish otamiz-da uyg‘ondi.

— Nima balo, elovrayapsanmi? — dedi.

— Yo‘q, Robiyaning chaqalog‘i uyg‘otib yubordi.

— Shuning chaqalog‘i yomon yig‘loqi bo‘ldi-da.

— Aytgili yo‘q.

— Yot endi, yot.

Onamiz yotib, ko‘zlarini yumdi.

“Hali tong olis, — umidlandi onamiz. — Tushimning oxirini ko‘raman. Shunda, qizimning otini bilib olaman...”

2

Kuzda mayiz qilish boshlandi.

Otamiz avval o‘z tomorqasi mayizini qildi.

Hosil yaxshi bo‘ldi. Besh yuz kilocha mayiz oldi.

O‘zi to‘qimish ikkita qo‘lsavatchani egar qoshiga qistirdi. Kolxoz mayiziga yo‘l oldi.

Ot qozig‘ini tarvuzpoyaga tepib-tepib qoqdi.

Xurjun yelkalab, tokzor oraladi.

Paykallarda chollar tizilib uzum uzdi.

— Xirmon to‘lsin-u! — dedi otamiz.

— Yo‘lingiz unsin-u! — dedi chollar.

Otamiz chaqqon bo'ldi. Paykalga tushdi.

Uzum boshlarini chirsillatib-chirsillatib uzib, qo'lsavatga soldi.

Bir bo'zbola zambil savatni paykal boshiga qo'ydi.

Otamiz savatchasidagi uzumni peshma-pesh zambil savatga solib turdi.

Zambil uzumga to'ldi.

Bo'zbola choponi orqasini yag'riniga qayirdi. Bir qo'lini beliga tirab, engashdi.

Otamiz ellik kilocha kelmish savatni bo'zbola yag'riniga qo'ydi.

Bo'zboda ilon iz so'qmoqdan tepa o'rladi.

3

Tepada ayol-qizlar davra qurib uzum tozaladi.

Oymomo onamiz-da chap tizzasiga tirsaklab uzum tozaladi.

Onamiz yuzlari so'lg'in bo'ldi. Onamiz kechagi tushlari o'yida bo'ldi.

Onamiz peshonasida o'tirmish Barchin xola:

— Qani, Oymomo do'stim, bundaygina... mashqingiz past? — deya ko'ngil so'radi.

— Shunday, o'zim... — deya ma'yuslandi onamiz.

— Ay, do'stim, so'raganning aybi yo'q... u yoq-bu yoqqa yuguryapsizlarmi?

— Ha, vaqti-vaqti bilan.

— Vaqti deb o'tirasizlarmi? Ish ado bo'larmidi! U yoq-bu yoqqa chopingizlar, ko'rsatingizlar-da!

— Borib turibmiz.

— Qayerlarga bordilaringiz?

Shunda, davra yoppasiga sergak bo'ldi.

Onamizdan bir ayol narida o'tirmish Qimmat momo-da quloq berdi.

— So'fi Olloyor hazratimga bordik, — dedi onamiz.

Qimmat momo boshini sarak-sarak etdi.

— Voy bechora-ye, voy bechoragina-a! — dedi.

— Hazratimni ziyorat qildik. U kishi ohlarimni eshitdilar, shekilli, ko'nglimga umid soldilar...

— Voy sho'rpeshona-ye, voy sho'rpeshonagina-a! — dedi Qimmat momo.

— Innaykeyin, Hojar ko'rga fol ochirdim...

— Voy sho'ring qurgur-ey, voy sho'rginang qurgur-e! Shuncha sarson-sargardon bo'pti-ya!.. — dedi Qimmat momo.

Onamiz ko'kragiga tushmish ro'moli uchini yelkasiga tirsaklab tashladi. Bir bosh uzum olib, Qimmat momoga qaratib otdi.

Uzum Qimmat momoning betiga borib tegdi. Beti shilt-shilt uzum shirasi bo'ldi.

Qimmat momo betini changallab qoldi.

Onamiz zabt bilan joyidan turdi. Qimmat momoni yulmoqchi bo'ldi, yumma-yumma yulmoqchi bo'ldi.

Afsuslar bo'lsinkim, Barchin xola onamizni ushlab qoldi. Tirsagidan yetaklab, xolisroqqa olib borib o'tirg'izdi.

— Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi! Qo'ying, do'stim, shunga teng bo'lmang! — dedi.

Onamiz rangida qon qolmadi. Olisdan chopib kelmishday hansiradi. Qo'llari sovqotmishday qaltiradi. Tizzalariga peshonasini qo'yib, ho'ngrab yig'lab yubordi...

— Buniki bir bo'lmasa, ikki bo'lmasa, Barchinoy do'stim! — deya yig'ladi. — Yana tag'in xesh emish! Ha, oshingni yeyin, senday xeshimning!..

Qimmat momo onamizni mazammat qildi.

— Men senga biron yomon gap gapirdimmi, it! — deya shang'illadi. — Ichim kuyganidan, ichim achiganidan gapiraman-da, it! Peshonang nimaga bundayin sho'r desam, gap bu yoqda ekanda, it!

— Bedana tezotar bo'lsa, o'z boshini o'zi yoradi! — dedi bir ayol.

Qimmat momo onamizni mazammat qildi-qildi, kaftlarini katta ochdi.

— Omin! — dedi, — mendayin bir begunoh momoni sochimni oqiga qaramayin urgan bo'lsang, iloyo, olamdan bepusht o'tgin! Meni yoshimga yetolmayin juvonmarg o'lgin, ollohu akbar!.. — dedi.

Ayollar ichini tortdi, ayollar bosh chayqadi.

— Iloyo, og'zingdan chiqib, yoqangga yopishsin! — dedi Barchin xola.

Onamiz panoh izladi, onamiz najot izladi.

Yosh to'la ko'zlari olazarak-olazarak boqdi.

Pastda hayrondan hayron qarab turmish otamizni topdi.

Bir ko'ngli, otamiz oldiga borayin, dedi, aytib-aytib yig'layin, dedi.

Ammo tevarak-boshdan or qildi.

Halqa-halqa ko'zyoshlar ichidan otamizga termildi. Mo'ltirab-mo'ltirab termildi...

Onamiz tag'in yig'ladi. Bilaklariga yig'lab-bilaklariga yig'lab qo'ya berdi.

— Dunyoda bir menmi, befarzand! — deya aytib-aytib yig'ladi. — Tirnoqqa zor bo'lib o'tganlar nechov! Men hali ko'rarman, umidim ko'p... Farzandning erta-kechi bo'ladimi... Birovga erta-roq beradi, birovga kechroq beradi...

— Bir qishning bir yozi bo'ladi, qarg'aning qag'illagani qoladi, Oymomo do'stim!

— Men uni ko'rdim, Barchinoy do'stim, ko'rdim! Yaratganning o'zi uni tushlarimga soldi, ko'ngillarimga soldi! Nima qilayin, vaqti-soati yetmagan ekanmi, qo'ynimga solmadi... Tushlarim to'ldi, ko'ngillarim to'ldi. Nima qilayin, qo'ynim to'lmay turibdi, quchog'im to'lmay turibdi... Barchinoy do'stim, men uni toltushda ko'rdim, toltushda! Dugonalari bilan tutimiz ostida bosmalim o'ynadi. Ishonmasangiz, Olapar itimdan so'rang. Bosmalimda unga teng keladigani bo'lmadi. O'n ikki xilida-da adashmadi. Ayniqsa, kelin xilini bir o'ynadi-bir o'ynadi! Dugonalari og'zini ochib o'tira berdi! Men uning otini bilolmay qoldim, Barchinoy do'stim... Robiyaning chaqalog'i big'illab uyg'otib yubordi. Tag'in ko'zlarimni yumib, uning yo'liga qaradim, u boshqa kelmadi... Baribir keladi, Barchinoy do'stim, keladi, mana ko'rasiz... Ana shunda uni shu yerlarga yetaklab kelaman! Mana shu momolaringga bir bosmalim o'ynab ber deyman, Barchinoy do'stim!..

— Aytganingizga farishtalar omin o'qisin, Oymomo do'stim!

4

Otamiz tepada bo'lmish gaplarni eshitdi. Ammo eshitmaslikka oldi.

Uzum uzib-uzib, ari uyasiga duch keldi.

Ari uyasi kungaboqarday-kungaboqarday bo'ldi.

Arilar g'uj-g'uj teshiklarda tumshuqlarini bir-biriga tegizib yashadi. Bordi-yu, chetdan tahdid bo'lsa, arilar yoppasiga hamla qildi. Shiddat bilan uchib kelib, tahdid qiluvchi ko'ziga yo qulog'iga yopishdi.

Otamiz choponi o'ngirini boshiga yopdi. Yenglarini tirsaklarigachayin qayirdi. Bilaklarini yalang'och qildi.

Ohista enkayib, ari uyasi osilib turmish tok novdani silkidi.

Arilar g'imirladi, yoppasiga qo'zg'aldi. Ikkita-uchtasi otamiz ko'zini *mo'ljallab uchdi*, qulog'ini *mo'ljallab uchdi*. Ammo chopon o'ngiriga duch keldi.

Tag'in uchib, yalang'och bilaklarga borib yopishdi. Bilaklarga chim-chim nish urdi. Chimchim-chim!..

Chim-chim chaqmish ari bo'ldimi yo chibin bo'ldimi?

Bilolmadi, otamiz bilolmadi!

Otamiz kayfiyati shu qadar tarang bo'ldi!

Erkaklar peshin chog'i uzum uzishni bo'ldi qildi. Paykallardan chiqib keldi.

Ayollar erkaklarni ko'rib, u yoq-bu yog'ini tuzatgan bo'ldi, o'ziga qaragan bo'ldi.

Ayrim uzum donalari kesak orasida qolib yo suv tegib, chirigan bo'ldi.

Ayollar ana shu chirikni mayizjoy bir chetiga olib borib yoydi.

Oftobda ochiq qolib, po'la bo'lib qolmish uzumlar-da bo'ldi. Bu uzum oftobi mayiz bo'ldi. Oftobi mayiz butun yozi bilan saraton oftobini olib pishdi. Shu bois, ko'p shifoli bo'ldi.

Ayollar ana shu oftobi mayizni alohida yoydi.

Mayizjoy chetida ulkan dasht o'choq bo'ldi. Ana shu o'choqqa o't yoqildi.

Otamiz choponi o'ngirini qayirib, belbog'iga qistirdi. Zinadan o'choqqa ko'tarildi.

Qozondagi suvga ishqor bilan ohak soldi.

Dasht-biyobonlarda bir o't o'sadi. Mayizchilar shu o'tni terib, to'da qilib kuydiradi. O'tda kuyayotib, undan chakillab-chakillab suvi tomadi. Suv kul bilan qo'shilib, cho'qir tosh misol qotadi. O'zi kulrang, o'tkir hidli bo'ladi.

Ishqor ana shu bo'ladi!

Mayiz qozon qaynadi.

Otamiz cho'mich bilan qaynagan suv tinig'ini oldi-oldi, bir toza idishga soldi. Qozonni tozalab yuvib oldi.

Keyin ishqor bilan ohak suvini tag'in qaytarib qozonga soldi.

O'tyoqar tinmay o't yoqib turdi.

Ayollar qo'lsavatlarga uzum solib berdi.

Bo'zbolalar qo'lsavat bog'ichidan ko'tarib, otamizga olib kelib berdi.

Otamiz oyog'ini o'choq labiga tiradi. Savat bog'ichidan avaylab ushladi. Bilqillab qaynab turmish qozonga pishib-pishib oldi.

Uzumlar sap-sariq bo'ldi.

Otamiz savatni tag'in bo'zbolaga uzatdi.

Bo'zbola ostidan ishqor ham ohak suvi sho'r-sho'r oqib turmish qo'lsavatni mayizjoyga tashidi.

Ayollar uzumlarni yoyib-yoyib turdi. Jovuzni alohida, husaynini alohida, kishmishini alohida yoydi.

Boisi, har mayizning o'z ta'mi bo'ladi, o'z mazasi bo'ladi.

Ana endi uzumlar oftobda hafta deganda quriydi, sap-sariq mayiz bo'ladi!

5

Ishdan qaytar chog'larida brigadir keldi. Otamiz brigadirni xolisroqqa yetaklab bordi. Niyatini aytdi.

Brigadir ajablandi. Boisini so'radi.

Otamiz javob bermadi. Ko'zlarini olib qochdi. O'zicha bosh irg'adi. Ko'nglida: "El-yurtga aralashmayin deyman, uka, tilim qisiq... Vaqtliroq kelganingda, tepadagi gaplarni eshitgan bo'larding..." dedi.

Otamiz o'z ko'nglida aytmish gapini brigadirga aytdim, deya o'yladi.

— Shunday, brigadir uka, shunday... — deya tag'in bosh irg'adi.

— Mayli, qorovullik bo'lsa qorovullik-da. Ombor bo'ladimi? — dedi brigadir.

— Yo'q, dala ber, uka, dala ber.

— Maylingiz, unda, Kamarga borasizmi?

— Yo'q, bizga Sayrak adirni ber, uka. Ayolimiz bilan ikkovimizga-da. Ayolimiz o'rniga-da o'zim tura beraman. Ayolimiz ovqat pishirib berib turadi.

— Maylingiz.

— Shu, Sayrak adirga bir dil ketdi-da, uka...

— Bo'ldi-bo'ldi, gap yo'q! Lekin aytib qo'yay, Yo'ldosh qorovul ko'nmas-ov. Shunday bo'lsa-da, bir aytib ko'raman.

— Shunday qil, uka, shunday qil...

— Hali-hozircha qimirlab turing, mayizlar tugasin.

6

"Endi nima qilamiz, momosi?"

Otamiz shunday savol nazari bilan onamizga termildi.

Onamiz g'ariblandi, onamiz azoblandi.

— Denovda zo'r tabib bor, deyishayapti, — deya pichirladi onamiz. — Borganlar dardiga davo topib qaytar emish...

Otamiz bilan onamiz ana shu tabibga bordi. Tabib gap indallosini aytdi:

— Bizni e'tiborga olib kelibsizlar, qulluq, — dedi. — Endi, do'xtirga boringlar. Eshon, tabibni qo'ya beringlar. Oldinlari do'xtir yo'q edi, bo'lsa-da, taxchil edi. El bechora eshon, tabib deb kelar edi. Qo'limizdan kelganicha yo'l-yo'riq berib jo'natar edik. Endi, do'xtir ko'p, do'xtirdan qolmanglar. Lekin Denov do'xtirlariga bormanglar, qo'lga qaraydi... Termizda zo'r bir do'xtir bor. Ana shu do'xtirga boringlar. Mana, manzili...

Otamiz bilan onamiz mol-hollarni Robiya hamsoyasiga tayinladi.

Termiz yo'l oldi.

Qidirdi-qidirdi, tabib aytmish do'xtirni topdi.

Do‘xtir yo‘llanma so‘radi.

Otamiz bilan onamizda yo‘llanma bo‘lmadi.

— Unda, qabul qilmaymiz, — dedi do‘xtir.

Otamiz sarg‘aydi.

— Uyimiz ovloq, mol-holga qaraydiganimiz yo‘q... — dedi.

Do‘xtir kuldi-kuldi... oxiri qabul qildi.

Erkaklar alohida do‘xtirga navbatda turdi, ayollar alohida do‘xtirga navbatda turdi.

Gal keldi, otamiz ichkari kirdi.

Do‘xtir so‘rab-surishtirdi. Qog‘oz qoraladi. Keyin, otamizni qaradi... Analiz topshirish uchun yubordi...

— Uch kundan keyin keling, — dedi.

Gal keldi, onamiz-da o‘z do‘xtiriga kirdi...

Otamiz bilan onamiz Termizda uch kun qoldi. Bozor mehmonxonasida yotdi.

Uchinchi kun do‘xtir huzuriga bordi.

Avval otamiz ichkarilab keldi.

— Nima dedi? — so‘radi onamiz.

— Sizdan farzand bo‘lmasa, boshqa bir erkakdan-da farzand bo‘lmaydi, dedi.

Keyin, onamiz ichkarilab keldi. Ma’yus-ma’yus bo‘lib keldi, g‘amgin-g‘amgin bo‘lib keldi.

— Nima, dedi-a, nima dedi? — so‘radi otamiz.

Onamiz boshini chapiga xiyol egdi. Yerga ko‘z tikdi.

— Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘, dedi... — deya pichirladi.

Otamiz ma’qullab-ma’qullab bosh irg‘adi.

— Ana, aytdim-ku, bo‘ladi deb, ana... — dedi.

Otamiz bilan onamiz qaytib keldi.

7

Otamiz onasi oyoqdan qoldi.

Yotdi-yotdi, ovqatdan qoldi.

Yotdi-yotdi, tildan qoldi.

Yotdi-yotdi... choli oldiga ketdi.

8

Otamiz brigadir oldidan o'tdi.

Brigadir o'z so'zida turdi. Yo'ldosh qorovul oldiga yo'l oldi.

— Endi, siz Kamarga borasiz, — dedi.

Yo'ldosh qorovul hang-mang bo'ldi. Birdan tutab yondi...

Boisi, Kamar olis bo'ldi. Yana-tag'in, Kamarda makkajo'xoridan boshqa nima bo'lmadi. Sayrak adir esa bog'ot bo'ldi, gardi gurd og'iz tegib turdi.

Yo'ldosh qorovul olov oldi.

— Nima uchun endi? — dedi. — Bu yer-chi, misol uchun?

— Bu yerga boshqa odam keladi.

Yo'ldosh qorovul tag'in olov oldi.

— Birdan u yoqdan-bu yoqqa quv-quv ekan-da! — dedi. — Nima, biz kolxozning o'gay a'zosimi, misol uchun?

— Borasiz, borasiz.

— Raisga borsam boraman, Kamarga bormayman!

— Obbo, siz gapni oling!

Qorovul haminqadar olov oldi.

— Olsam olmasam! Haydasangiz, mana, haydang! — dedi. — Bola-chaqam ochidan o'lsayam, ishga chiqmayman! Gapim shu, misol uchun!

— Obbo, xo'p-e, xo'p!

— O'zi, kim ekan u, boshida oyi bor arzanda, misol uchun?

— Qoplon akaga deb edim! Mayli, bormasangiz bormang...

Brigadir og'rinib-og'rinib jo'nadi.

Yo'ldosh qorovul qo'llarini orqasiga qildi. Brigadir ketidan qarab turdi. Turdi-turdi-da, brigadir ketidan chopqillab bordi.

— Qoplon akaga bo'lsa mayli, misol uchun, — dedi. — Ko'ngli yarim... Boshqaga bo'lsa, o'lib ham bermasdim, misol uchun.

9

Ertasi otamiz keldi.

Yo'ldosh qorovul bilan tevarak aylanib ko'rdi.

— Sizga brigadir hech nima demadimi, misol uchun? — so'radi qorovul.

— Yo‘q. Nima edi? — dedi otamiz.

Qorovul xotirjam bo‘lib gapirdi:

— Brigadirga aytdim, bu yerning qorovulligidan ko‘p zerikdim, meni Kamarga yuboring, dedim. Brigadir mayli, dedi, misol uchun.

— Ha-a.

— Keyin, o‘rtoq Odilov, siz o‘z kasbingizning ustasisiz, o‘rningizga o‘rinbosar tayinlang, dedi. Men aytdim, men bir boryo‘g‘i qorovul bo‘lsam, qanday qilib qorovul tayinlayman, o‘zingiz tayinlang, dedim. Unda, o‘rningizga munosib o‘rinbosar ayting, dedi. Aytgan odamingizii qo‘yamiz, gapingiz gap, so‘zingiz so‘z, dedi. Obro‘y bor-da, misol uchun, obro‘y bor, ha!

— Shunday, ha, shunday.

— Men xo‘p, dedim, misol uchun. Men bir o‘ylab ko‘rayin qani, dedim. Ertaga bir xabarlashing, dedim. Bizning joyimiz hazilakam joylardan emas, dedim. Chin-da, shuncha bog‘-roqqa qarab o‘tirishning o‘zi bo‘ladimi, misol uchun! Joyimga kimni qo‘ysam ekan deb, kechasi bilan o‘yladim-o‘yladim! Qishloqda oti odam borki, barini bittalab g‘alvirdan o‘tkazdim, barini chertib-chertib ko‘rdim, misol uchun. Ertasi brigadirga, men Qoplon akani o‘rnimga loyiq topaman, dedim!

— Ha-a.

— Bilamiz-da, kim qandayligini, misol uchun!

— Qulluq, qulluq.

— Ana bog‘, buyursin, misol uchun. Qani, Allohu akbar, misol uchun!..

Yo‘ldosh qorovul ko‘ch-ko‘ronini yig‘ishtirib ketdi.

10

Otamiz qorovuldan qolmish chaylada cho‘nqaydi. Tizzalarini quchoqladi. Tevarakka nazar soldi.

Sarg‘aydi-sarg‘aydi, yolvordi-yolvordi, boshi yetmish joy shu chayla bo‘ldi.

Nima uchun shu chayla deya sarg‘aydi-so‘ldi? Yolg‘iz o‘zi bildi, yolg‘iz Xudo bildi.

O‘tirdi-o‘tirdi... Xudodan-da ko‘ngli qoldi!

— E-e-e, bor-ye!.. — deya qo‘l siltadi.

Otamiz... Xudoga qo‘l siltadi!

“Ey, Xudo, sen o‘zi qayerdasan, qaylardasan? — deya xayollandi. — Sen o‘zi, bormisan? Bor bo‘lsang, javob ber, yuzaga chiq! Mendayin bir sho‘rpeshona bandang bilan yuzma-yuz bo‘l! Mendayin bir xokisor bandang holini ko‘r!

Ayt, o‘zi, men bandangni nima uchun yaratding? Shu bechora-da dunyoda yursin, shu g‘arib-da o‘z kunini o‘zi ko‘rib yursin, deb yaratdingmi?

Unda, men bandangni-da xor qilma-da, ey Xudo, men bandangni-da yolg‘iz qilma-da, ey Xudo!

Bandangni yarat-yarat, pushti kamari bilan yarat-da, ey Xudo!

Ey Xudo, esimni taniganimdan buyon Xudoga sig‘inib keldim, Xudoga topinib keldim, Xudoga ishonib keldim.

Shunday ekan, har ne qilsang qil, pushti kamarli qil-da, ey Xudo!

Dunyodan necha-necha podsholar o‘tdi, necha-necha hokimlar o‘tdi, necha-necha kattalar o‘tdi...

Pushtsiz umrim mobaynida ko‘p-ko‘p podsholardan qaytdim, ko‘p-ko‘p kattalardan qaytdim...

Ammo... ammo yolg‘iz sendan qaytmadim, ey Xudo!

Dilimda-da Xudo bo‘ldi, tilimda-da Xudo bo‘ldi!

Shunday ekan, har ne qilsang qil, pushti kamarli qil-da, ey Xudo!

Bandalaring qay bir podsholarga sig‘inmadi, bandalaring qay bir kattalarga sig‘inmadi. Bandalaring nimalarga sig‘inmadi, bandalaring nimalarga topinmadi...

Bandalaring dinidan qaytdi, bandalaring Xudosidan qaytdi, bandalaring imonidan qaytdi!

Sen aynan ana shu bandalaringni zurriyotli qilib yaratding, ey Xudo!

Ojiz qolmishlarimda, chor-nochor qolmishlarimda, xokisor qolmishlarimda:

— Ey Xudo, o‘zing saqla! Ey Xudo, o‘zing madad ber! — dedim.

Aslo, aslo:

— Ey partiya, o'zing saqla! Ey komsomol, o'zing madad ber! — demadim.

Ammo shunday deguvchilar bo'ldi! Bandalaring shu darajaga-da bordi!

Sen kelib-kelib, aynan ana shu bandalaringni zurriyotli qilib yaratding, ey Xudo!

Men bandangni shayton yo'ldan ozdirgan vaqtlar bo'ldi, shayton yomon yo'lga boshlagan vaqtlar bo'ldi.

Shunda, o'zimga o'zim:

— Ey banda, Xudodan qo'rq! — dedim-da, yo'ldan qaytdim.

Aslo, aslo:

— Ey banda, partiyadan qo'rq! Ey banda, komsomoldan qo'rq! — demadim.

Ammo shunday deydiganlar bo'ldi!

Dinidan qaytmishlar nechov bo'ldi, Xudodan qaytmishlar nechov bo'ldi!

Sen aynan ana shularga zurriyot berding, ey Xudo, qator-qator zurriyot berding!

Meni bo'lsa... men bandangni bo'lsa, zurriyotsiz qilding, ey Xudo!

Chin, bilib-bilmayin gunoh qilib qo'ydim. Dardimni birovga aytolmadim. Dard bo'lsa, imonni kuydira berdi...

Shunda men gunohlarimdan forig' bo'lish uchun tavba-tazarru qildim:

— Ey Xudo, o'zing kechir! — dedim.

Aslo, aslo:

— Ey partiya, o'zing kechir! Ey komsomol, o'zing kechir! — demadim.

Ammo shunday deydiganlar bo'ldi! Ko'p-ko'p bo'ldi, mo'l-mo'l bo'ldi!

Men bo'lsam, dilimda-da Xudoni qo'ymadim, tilimda-da Xudoni qo'ymadim!

Men yolg'iz Xudoni dedim!

Shunday ekan, bir sodiq bandangni bunchalar xo'rlama-da, ey Xudo! Bir sodiq bandangni bunchalar oyoq osti qilma-da, ey Xudo!

Har ne qilsang qil, pushti kamarli qil-da, ey Xudo!.."

11

"Men erkakman. Unga qiyin..."

Otamiz ana shunday o'yga bordi.

Onamiz bo'lsa, tushlik olib kela bermadi.

Otamiz oyog'i uyga tortdi. Uyiga otlandi.

Kelsa, hovli bosh-adoq qulf bo'ldi.

Otamiz ajablandi, otamiz hayronlandi.

Otini darvoza ustuniga boyladi. O'zi devordan oshib o'tdi.

Yashirincha joylari bo'lmish nosoz radio ichidan kalitni oldi.

Oshxonaga kirdi. Idish-toboqlarni bir-bir ochib ko'rdi. To'ntariqlik toboq ostidan bir la'li toboq palov topdi.

Tok vayishi ostiga gilam yoydi. Dasturxon yoydi.

Chinni kosada shakarob qildi. Choy damladi.

Chordana qurib o'tirdi. Piyoladay-piyoladay yumaloqlab palov yedi.

12

Shu vaqt, ko'chada ot dupurladi. Devor uzra sho'ro kotibi yuz berdi.

— Assalomu alaykum, Qoplon aka! — dedi kotib.

— Vaalaykum-vaalaykum! — dedi otamiz.

— Yaxshimisiz, dimog'lar chog'mi?

— Shukur-shukur, binoyiday. O'zingizdan so'rasak?

— Rahmat-rahmat...

Kotib shunday deya, ko'z qiri bilan toboqdagi palovga qaradi. Og'zi palov ta'mini tuydi...

Devordan oshib o'tmoqchi bo'ldi. Yana tag'in, niyatidan qaytdi.

Kimsan, qishloq sho'rosi kotibi! Kimsan, sho'ro vakili! Uy xo'jasi taklif qilar?

Kotib ana shunday o'yga bordi.

Otamiz xotirjam-xotirjam palov yedi. Kotibga qayrilib-da qaramadi!

— Bizga qorovullikka o'taman deb, bormadingiz? — dedi kotib.

Otamiz osham yumaloqlab-osham yumaloqlab, javob berdi:

— Endi, uka, so'ng-so'ng o'ylab qarasam, olisning palovidan, yaqinning sho'rvasi yaxshi ekan!

Kotib palovga tamshanib-tamshanib qaradi.

— Ha-a-a! — dedi kotib. — Oldiginangizdagi palovginadan deysiz-da?

— Shunday-shunday.

— O'zginangiz yeyayotgan zig'ir moylikkina palovginadan deysiz-da?

— O'zimiz yeyayotgan zig'ir moylik emas, paxta moylik palov.

— Ha-a-a!..Paxta moylikkina palovginayam yaxshi...

— Shunday-shunday. Bay-bay-bay! O'ziyam, palovimisan-palov bo'libdi-da.

Kotib bir teskari qarab oldi.

— *Ha-a-a, mayli...* — *dedi kotib.* — *Ikki yillik tomorqa* solig'ini to'lamabsiz. Soliqchi bo'lsa kasal. Bu yog'i, rayondan bo'l-bo'l qilyapti. Shunga o'zim kelib edim.

— Binoyi-da, binoyi, — dedi otamiz. — Endi, uka, gapning o'naqayini aytsam, menda pul yo'q! Menga pul nima kerak? Adirda magazin bo'lmasa, bozor bo'lmasa...

— Unda qaytamiz?

— Pulning bari ayolimizda! Ayolimiz bir yoqqa ovul qidirib ketdi. Ovullab kelsin, og'zingizdan chiqqanini beradi!

Otamiz oshamni katta-katta oldi.

Otamiz hadiksiradi: katta xalqi yuzsiz bo'ladi, surbet bo'ladi! Mabodo, kotib otdan tushib, indamay kelib o'tirsa nima bo'ladi? Unda otamiz toboqdan qo'lini tortadi! Dasturxondan xolisroqqa borib o'tiradi!

Kotib toifasidagilar bilan bir dasturxondan tuz yemaydi, bir toboqdan palov yemaydi!

Marhumlar haqini yeydigan odam bilan bir toboqdan palov yeb bo'ladimi? Bo'lmaydi, bo'lmaydi! Makruh, makruh!

Kotib, amalni pesh qilish foydasizligini bildi. Endi o'zga yo'lga o'tdi.

— Bilasizmi-yo'qmi, sag'al urug'chiligimiz bor... — dedi kotib.

— Bilaman, o'ngirning uchi...

— Iya, o'ngirning uchiyam urug'-da!

Otamiz kosadagi shakarob suvdan ho'pladi. Palovga yanada ishtaha bilan qo'l uzatdi. O'ziga o'zi marhamat etdi:

— Katta-katta oling-e, Qoplonboy-e!

Palov borgan sayin kamayib bordi.

Kotib yelkasidan nafas oldi, kotib qiltillab yutindi.

— Ming qilsayam, urug' urug'-da, Qoplon aka, — dedi. — Et bilan tirnoqni ayirib bo'lmaydi...

Palov bir cheti jar bo'lib, shu tarafga ag'nab tushdi.

Otamiz bilagidan moy oqdi. Bilagini yalab-yalab, lablarini chapillatdi.

Kotib-da tishini so'rib, lablarini chapillatdi.

— Tomir tortadi... — dedi. Palov o'rtasi issiq bo'ldi.

Otamiz palovni barmoqlari uchi bilan titib-titib tashladi. Toboqdan palov isi anqidi.

Ay, palov isi, palov islari-ay!..

Kotib chuqur-chuqur nafas oldi. Dimog'i rohatlandi!

Peshonasini qashigan bo'ldi-da, barmoqlari orasidan palovga qaradi.

Palov borgan sayin ozayib bordi...

— Bo'lmasa, qorovul bo'laman deganlar ko'p edi, — dedi kotib. — Barini qaytardim. Sizga xo'p dedim...

Otamiz piyolaga chuldiratib-chuldiratib choy qo'ydi. Issiq-issiq choy ichdi. Xo'r-xo'r choy ichdi.

— Ey Xudo, o'zingga shukur-e! — dedi.

Kotib toboqqa qaradi. Taboqdagi palovdan asar-da qolmadi!

Otamiz palov tagida qolmish moyni ichdi. Toboqni yalab-yalab qo'ydi.

O'ziga-o'zi fotiha o'qidi.

Tag'in choydan bosib-bosib ichdi.

Qadlarini rostladi. Tishlarini kovladi. Kekirib-kekirib, o'tirdi.

— Xudoga shukur-e!.. — dedi.

Kotib devordan qo'lini oldi. Otiga achchiq-achchiq qamchi bosdi.

— Odam ko'rganim yolg'on ekan-a!.. — deya kuyuna-kuyuna ketdi.

13

Otamiz endi ishiga otlanayotib edi, onamiz kirib keldi.

Otamiz, onamiz yuziga qayrilib-da qaramadi...

— Qayoqlarda yuribsan? — deya to‘ng‘illadi.

Onamiz kalishi uchi bilan yer chizdi.

— Denov borib edim... — dedi.

— Denovda pishirib qo‘yibdimikin?

— Ayollar, baliq yeb kelamiz deya, yur-yur qildi...

— Ayolimiz baliq yeb yursin, biz bu yoqda och o‘tiraylik!

— Tushgacha kelaman deb edim, avtobus hayallab qoldi.

— Endi, Moskvaga bor! Keyin, Leningradga!..

Otamiz zarda bilan otlandi.

14

Shoymardon ferma mudir o‘g‘li qo‘lini halolladi.

To‘shakda yotmish o‘g‘il ko‘nmadi. Yuzini goh o‘ng tarafga, goh chap tarafga burib yig‘ladi.

O‘g‘il qabatida tizzalab o‘tirmish usta Majid asbob-anjomini hozirladi. O‘tkir pakkisini kaftida qayradi.

— Qo‘rqma-ye! Chibin chaqqandayin ham bo‘lmaydi! — deya dalda berdi usta Majid.

— Chibindi qo‘ying, shamol esib o‘tganday bo‘ladi! — dedi usta shogirdi.

Qoplon otamiz o‘g‘ilchaga pul uzatdi.

— Ma, Tarlon ot ol! — dedi.

— Ana, boyib ketding!

— Menga berganlarida jon-jon deb ko‘nardim!

— Shuncha pulgayam yo‘q deysanmi? Unda, tur, o‘zim yotaman!

Nurali bobo shunday deya, to‘shakka talpindi.

— Usta bova, men yotayin!

— Qo‘ying-e, o‘zi yotadi!

O‘g‘il tevarakka alangladi. Odamlar yuzi jiddiy bo‘ldi. Biri qo‘yib biri, uning o‘rniga yotayin, deya intildi.

Shunda, o‘g‘il tinchidi.

O‘g‘il og‘ziga tandir non tutdilar.

— Tishla, tishla! — dedilar.

O‘g‘il non tishladi.

Usta ruhiy san’atini qo‘lladi. O‘g‘ilni gap bilan chalg‘itdi. O‘g‘ilni xotirjamlatdi. Payt poyladi...

— Ay, yasha! — dedi. — Necha puling bor? Ot olsang, meniyam mindirasanmi-yo‘qmi? Bali! Qoplon bovang chin aytadi, ot olsang, Tarlonidan ol!.. Huydar-huyda-a-ar!..

— Huydar-huyda-a-ar!.. — jo‘r bo‘ldi odamlar.

O‘g‘il nonni jon-jahdi bilan tishlab... uzib oldi! Unsiz-unsiz yig‘lab qo‘ya berdi. Usta kesik joyga kuydirilgan paxta kulini bosdi. Ustidan bukilmaydigan do‘ppi qoplab qo‘ydi.

15

Qoplon otamiz yon uyga kirib o‘tirdi.

Shoymardon ferma mudirning to‘xtamishlik mol do‘xtir oshnasi keldi.

Ichkariladi. Qo‘li halollanmish o‘g‘lon bilan so‘rashib keldi.

Barcha bilan ko‘rishdi. To‘rlab o‘tirdi. O‘ng tarafdan bitta-bittalab so‘rashdi. Gal uchinchi odamga keldi.

Qoplon otamiz sergaklandi. Eshikka qarab-qarab qo‘ydi. Boshini quyi egdi. Dasturxon chetini qayirib o‘ynadi. Choynak qopqog‘ini shiqillatib-shiqillatib ochib-yopdi.

Gal Qoplon otamizga keldi.

Mehmon, qo‘li ko‘ksida so‘rab boshladi:

— Yaxshimisiz, aka...

Otamiz qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

— Shukur-shukur, — dedi.

— Bola-chaqalar o‘sayaptimi?

— Shukur...

— Nevara-chevaralar katta bo‘layaptimi?

— Shukur...

— Chopqillab-chopqillab yurishibdimi?..

Otamiz qo'li ko'ksida bo'ldi. Egik boshini irg'ab o'tira berdi.

Otamiz to'y-to'ylaganlari, yegan-ichganlari burnidan chiqdi!

16

Otamiz uyiga yonib-yonib keldi!

Nimaga endi, faqat bola-chaqani so'raydi?

Nimaga manavi dang'illama uyini so'ramaydi? Muhtasham hovlisini so'ramaydi? Ko'krakdor otini so'ramaydi?

To'da-to'da qo'ylari bor. Qo'sha-qo'sha mollari bor. Qo'ylari yilma-yil qo'zilaydi. Mollari yilma-yil buzoqlaydi. Nimaga mol-holini so'ramaydi?

Bog'lari har yili besh yuz kilolab mayiz beradi. Nimaga mayizlarini so'ramaydi?

O'zi hamisha otday bo'lib yuradi. Tani joni sog' bo'lib yuradi. Ishlasa, ikkita-uchta erkakning ishini qiladi. Mo'l-mo'l mehnat haqi oladi. Nimaga bularni so'ramaydi?

17

Otamiz ichkariladi.

Uzala tushib uxlamish onamizga qaradi. Jag' suyaklari bo'rtib-bo'rtib qaradi...

Birdan... onamiz bilagidan olib, otib yubordi!

Onamiz misoli to'rva xaltaday uchib, yuzlari bilan yuk-yopga borib urildi. Shunday zarb bilan urildi... Zarbidan ketiga chalpak bo'lib yiqildi...

Onamiz dovdirab qoldi, onamiz esankirab qoldi.

— A-a-a... — deya, zaif ham qaltiroq ovoz berdi.

Sapchib turib o'tirdi. Kaftlari bilan yalang boshini yopdi. Entikib-entikib nafas oldi. Qo'rqqanidan chirillamoqchi-da bo'ldi.

Ojizona ovoz bilan, yolvoruvchi ovoz bilan:

— Men bu kishiga nima qildim... — deya shivirladi.

— Nimaga uxlaysan?

— Hamma uxlaydi-ku...

— Senga uxlashni kim qo'yibdi deyapman? Ayt! Aytmaysanmi, aytmaysanmi!..

Otamiz, onamiz yalang boshidagi qo'llarini siltab tashladi. Sochlarini bilagiga o'rab oldi.

Otamiz chap qo'li onamiz bo'g'ziga bordi...

Onamiz:

— Xrr-xrr-xrr... — etdi.

Otamiz panjalari tag'in-da botdi-botdi...

— Xrr-xrr-xrr...

— Senga kim qo'yibdi uxlashni!

Onamiz iyagi yuqoriladi. Tag'in yuqoriladi... Ko'zlari jon berajak buzoq ko'zlariday olayib-olayib bordi.

Onamiz ko'z qorachig'lari yo'qolib qoldi! Oqlari ko'payib qoldi!

18

Otamiz seskandi... Qo'llari bo'shashdi...

Ketiga qaray-qaray, tashqariladi. Zinapoyada haykalday turdi. Entika-entika, olamga qaradi...

Olam bir hovuch! Qishloq choldevor! Keng yuzli hovli tovuq katagi!..

Obtovada qo'liga suv quydi.

Qo'liga suv yuqmadi. Suv barmoqlari orasidan qumday to'kilib ketdi.

Suvi yo'qdir, degan o'yda obtova qa'riga qaradi. Eti sovuqda junjikmish odamday seskanib bosh ko'tardi.

Obtova baldog'ini mahkam ushlab qotib qoldi. Obtovani otib yuborishini-da, ushlab turishini-da bilmadi.

Obtova qa'ri poyonsiz suv bo'ldi. Suv qa'ridan bir odam otamizga baqrayib qarab turdi. Baqraymish yuz vajohatli bo'ldi.

Otamiz mixdan qamchini oldi. Otiga qarab yurdi.

Ot arqonini egar qoshiga o'radi. Sapchib otlandi.

Darvozadan enkayib o'tdi. Qorovulligiga yo'l oldi.

19

Qorovulligida otini yo‘ng‘ichqapoyaga qantardi. Chaylasiga qarab yurdi.

Ariq bo‘yida yovvoyi bog‘ gullariga duch keldi. Enkaydi, gullarga dimog‘ini qo‘ydi. Dimog‘i bo‘y payqamadi!

Gullar gul emas, tikon. Tikon uchiga qistirib qo‘yilmish qizil qog‘oz!

Otamiz aftlari burishdi. Yo‘lida davom etdi. Adirladi.

Chaylada gilamga to‘kilmish chayla xas-cho‘plarini qoqdi. Ko‘rpacha yoydi.

Taxlog‘liq ko‘rpachalarga orqa berib o‘tirdi. Oyoqlarini uzatdi.

Lippasidan nosqovoq oldi. Nosqovoq ostiga chertib-chertib, kaftiga nos to‘kdi. Og‘zini osmon qilib, tanglayiga nos otdi.

Lablarini cho‘chchaytirdi. Nos yuqi kaftini soniga artib-artib oldi.

Ketiga chalqaydi. Harommag‘izi bilan ko‘rpachaga suyandi. Telpagini peshonasiga qo‘ndirdi...

Shu o‘tirishda o‘tirdi-o‘tirdi... nos elitdi... ko‘zi ilindi...

20

Tog‘ni qora bulut bosdi. Bulutlar bag‘rida sonsiz tasmalar tortildi: toqqa yomg‘ir yog‘di.

Qop-qora bulutlar tobora pastladi. Qirlar bulut ichida qoldi.

Otamiz adiri qirlar qoq oralig‘ida bo‘ldi. Otamiz misoli jar oralig‘ida, ulkan tosh ustida o‘tirdi.

Jar tubsiz bo‘ldi...

Otamiz hademay ana shu jarga tushib ketadi. Tushib ketishini birov-da bilmaydi. Birov-da so‘rab-surishtirmaydi. Nom-nishonsiz yo‘qoladi...

Kimi-da so‘raydi? Kimi-da surishtiradi? Kimi-da eslaydi?..

Otamiz ovozi boricha baqiradi. Qo‘llarini uzatib baqiradi.

Kimi-da ovoz beradi? Qirlarmi? Qirlar aks sado beradi. Mayna qilmishday, otamiz ovozini qaytaradi.

Otamiz qo‘llari shalvirab qoladi. Endi, yolg‘iz tayanchi bo‘lmish, yolg‘iz ilinji bo‘lmish ayolini chaqiradi.

Ayol qo‘lidan nima keladi? Yig‘i keladi!

21

Qop-qora bulutlar Archako'tal cho'qqilarini chalib ketdi. Televizor stansiyasi, To'xtamish tova qirlari-da ko'rinmay qoldi. Bulut Katta lalmi cho'qqilarini-da bosdi.

Shunda... shunda, bulutlar orasida bir chol paydo bo'ldi. Chol ust-boshlari oppoq bo'ldi. Soqollari-da oppoq bo'ldi.

Ostidagi eshagi-da oppoq bo'ldi. Taqimida uzun hassa bo'ldi.

Otamiz cholni qayerdadir ko'rganday bo'ldi. O'ylab-o'ylab, esladi: bargga borganda ko'rib edi.

Otamiz ko'ngliga tahlika tushdi: "Kim bo'ldi, bu mo'ysafid?" deya o'yladi.

Bulutlar aro momaqaldiroq qarsilladi. Ayqash-uyqash tasmalar yonib-o'chdi: yashin chaqnadi.

Otamiz seskanib tushdi.

Chol parvoyiga-da kelmadi. Chol yaqin keldi. Yuzlari yaqqol bo'ldi.

Otamiz choldan ko'z uzmadi. Ko'nglidagi tahlikalar tarqala bordi.

"Kim bo'ldi ekan bu mo'ysafid? Samad bobomikin? Uning eshagi qora edi-ku? Qarshi maxsummikin? Yo'q, maxsum eshakni befarosat hayvon deb minmaydi".

Otamiz o'ylab o'yiga yetdi... Seskandi... Yoqa ushladi...

"Yo, qudratingdan! Chiningmi shu?"

Ichida kalima qaytardi. Cholga yanada sinchiklab tikildi.

"Ko'rinishi aytib turibdi. Shunday bo'lsa-da, shoshmagan ma'qul. Kim biladi, ko'zimga shunday ko'rinyaptimi. U kishida barchaga ayon belgi bo'ladi. Shundan bilsa bo'ladi".

Otamiz sapchib turdi. Cholga peshvoz yurdi. Qo'li ko'ksida bo'ldi.

— Assalomu alaykum! — dedi.

— Va-alaykum, bolam, va-alaykum! — alik oldi chol. — O'tir, turish darkor emas, o'tir. Men bir yo'lovchi odamman. Xo'sh, bolam, adirlardan ketmay qolding, nima, biror sehri bormi?

Otamiz cholga sinchiklab-sinchiklab tikildi. Aniq bir fikrga kelolmadi.

— Siz Samad bova emasmisiz? — dedi.

Chol rad ma'nosida bosh chayqadi.

— Ha-a, bildim, bildim! — dedi otamiz. — Siz Hasan mirobsiz. Tog'dan suv yoqalab kelayapsiz. Toshloqda sel kelishidan qo'rqib, qir oshib kelayapsiz.

Chol qah-qah urdi.

Bulutlar, adirlar kulgidan zirillab ketdi.

Yomg'ir qiyolab-qiyolab yog'di.

Yashin to'lqinlanib-to'lqinlanib chaqnadi.

— Bo'lmasa, kimsiz? Ayting-da, odamni qo'rqitmay!

Otamiz chol qoshiga keldi.

Chol olis bog'lar, paxtazorlarga o'ychan boqib turdi.

— Qani, omonmisiz, esonmisiz...

Otamiz shunday deya, chol qo'lini kaftlariga oldi.

Chol seskanib qo'l tortdi.

Otamiz cholni tanidi: hazrati Xizr bobo! Boisi, boshmaldog'ida suyagi yo'q! U kishining boshmaldog'i suyaksiz bo'ladi!

Hazrati Xizr bobo odamzod mushkulini oson qilajak, hojatini chiqarajak ezgulik piri!

Otamiz o'zida yo'q quvondi! Dardiga davo topganday bo'ldi! Entikdi! Yayradi!

Ana o'sha zot, ana! Shu zotning bir og'iz so'zi!

Nima uchun shu zotni vaqtliroq yo'qlamadi?

Ana, oxiri o'zlari yo'qlab keldi! O'zlariga o'zlari aytgan-da, borayin, shunday bir kuygan banda bor, dardiga quloq solayin, degan-da!

Hazrati Xizr aytsalar, yo'qdan bor bo'ladi!

Hazrati Xizr bobo og'rindilar.

— Men yo'liqqan odamlar ichida eng noma'quli sen bo'lding, — dedilar.

— Men nima qildim, hazrati Xizr bovajon? — dedi otamiz.

— Qo'l uzatib, odobsizlik qilding.

— Aybimdan o'ting, hazrati Xizrbovajonim, aybimdan o'ting!

Otamiz tevarakka alangladi. Tevarak ovloq bo'ldi.

Umrida birinchi marta... birinchi marta... inson oldida tiz cho'kdi!

Kaftlarini insonga cho‘zdi. Yonoqlaridan marjon-marjon yoshlar sizdi...

Dardini yorib-dardini yorib qo‘ya berdi:

— Hazrati Xizr bovajonim! Sadag‘angiz ketayin, hazrati Xizr bovajonim, meni afv eting! Men tabib deb chopdim, folchi deb chopdim, nodonlik qildim, ko‘rlik qildim! Afv eting, hazrati Xizr bovajonim! Aslida sizni yo‘qlashim darkor edi! Men qayoqqa borishimni bilmadim-da, qayerda ekaningizni bilmadim-da, hazrati Xizr bovajonim! Qola bersa, huzuringizga borishga haddim sig‘madi! Men bir faqir odam bo‘lsam, qanday-da boraman! Endi, ovora bo‘lib o‘zingiz kelibsiz, bovajonim! Qulluq, bovajonim, qulluq! Hazrati Xizr bovajonim, men bir sho‘rpeshona bandaman! Tirnoqqa zorman! Eshityapsizmi, tirnoqqa zorman! Nima tilasangiz tilang, manavi choponimgacha sotaman, aytganingizni aytgandayin bajo keltiraman! Menga bir farzand bersangiz bo‘ldi, hazrati Xizr bovajonim!..

— Menga mol-dunyo darkor emas...

— Unda, menga bir farzand bering, hazrati Xizr bovajonim! Dunyodan qo‘li ochiq ketmayin, hazrati Xizr bovajonim! Mayli, bizga bittagina Xushvaqt bo‘lsa-da bo‘ladi! Faqirga palov! Bilasizmi-yo‘qmi, Xushvaqt yo‘lida ko‘zimiz to‘rt, hazrati Xizr bovajonim!

— Dunyodan ko‘p noliy berma...

— Bizni bu dunyoga bog‘lab qo‘ygan emas, hazrati Xizr bovajonim! Bir kunmas-bir kun tanamiz soviydi. Shunda, kim bizning isi chirog‘imizni qiladi? Kim otamlabyig‘laydi? Kim enamlab yig‘laydi? Birov, hech bo‘lmasa birovgina otamlab yig‘lasa ekan, birovgina enamlab yig‘lasa ekan, hazrati Xizr bovajonim!

— Boriga shukur qil.

— Izidan o‘g‘il qoldirib, otasi uchun motam tuttirmagan erkak, erkak bo‘ptimi! Orqasidan qiz qoldirib, enasi uchun qora kiydirib, aza ochdirmagan ayol, ayol bo‘ptimi! Dunyoga keldim deb yurmasinlar. Hazrati Xizr bovajonim! Ko‘pga bergan tirnoqni bizdanda darig‘ tutmang! Menga rahmingiz kelmasa-da, enasiga rahmingiz kelsin, Hazrati Xizr bovajonim! Poshikasta kuyib-kuyib, adoyi

tamom bo'ldi, o'lik bo'lib go'rda yo'q, tirik bo'lib to'rda yo'q, hazrati Xizr bovajonim!..

— Men senga farzand berganman...

— Berganingiz yo'q, hazrati Xizr bovajonim, berganingiz yo'q! Siz meni birov bilan adashtiryapsiz, hazrati Xizr bovajonim! Usta Qulmatga kelbat beraman, o'sha deyayotgandirsiz-da? Chin, usta Qulmatda farzand bor, oltita! Menda bo'lsa, birov-da yo'q, hazrati Xizr bovajonim!..

— Qanday otasanki, o'z farzandingni bilmaysan? Hali ko'p-ko'p farzand beraman.

— A? Ko'p-ko'p farzand beraman dedingizmi? Qachon-qachon? Qulluq, hazrati Xizr bovajonim, qulluq! Qani edi, ko'p-ko'p bo'lsa! O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qilig'i, hazrati Xizr bovajonim...

Hazrati Xizr bobo ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

22

Qosh qoraydi.

Bog'otda odam oyog'i tindi.

Otamiz qorovulligidan qaytib keldi.

Onamiz chappa burilib yig'ladi.

— Ko'rgan kunim qursin... — dedi.

Otamiz betini olib qochdi.

— Yig'lama-ye... Men senga nima qildim... — dedi.

Onamiz aytib-aytib yig'ladi:

— Shu bo'qqanida o'lib keta bersam bo'lmasmidi...

Otamiz talmovsirab turib oldi.

— Men bo'g'dimmi? Men-a? — dedi. — Odamga tuhmat qilma-ye, men adirda edim.

— Bo'lmasa kim? Robiya hamsoyaning erkagimi?

— Seni bo'g'dimmi? Seni-ya? Qachon-qachon?

— Dardi chipqon, qachon-qachon!..

— Shu gapingga noma'qulning nonini yebsan. Men hozirgina bog'otdan keldim.

— Shu kishining esi joyidami o'zi?

— Esim joyida, ha, esim joyida...

— Esi joyida bo'lsa, shuytadimi?

— Bo'ldi-bo'ldi. Undan ko'ra, suyunchini cho'z...

Otamiz bo'lib o'tmish gapni aytib berdi. Ayta-ayta, shiplarga qarab jilmaydi, derazalarga qarab jilmaydi!

Sho'rvani-da jilmaya-jilmaya ichdi!

— Ha-a-a, beshik-meshiging bormi o'zi, momosi? — dedi.

— Beshik nima qiladi...

— E, hali beshiging yo'qmi? Unda, shu bozor Denov borib kelganim bo'lsin!

— Hali vaqtli.

— Vaqtlisi bo'ptimi, ehtiyot-da.

— Men o'zim aytaman...

— Ha-a-a, sening gaping juft, momosi...

23

Onamiz yuragi o'ynadi, onamiz ko'ngli aynidi. Qo'llari yuzini og'ziga tutdi. Osmonga qarab-qarab esnadi:

— A-a-auf, a-a-auf!..

Otamiz esnashdi o'zicha tushundi. O'zida yo'q suyundi.

"Ana, hazrati Xizr bovamizning marhamati, ana!" deya xayollandi otamiz.

Otamiz onamizga siporish qildi.

— Endi, o'zingni og'ir ishlardan tiy, — dedi. — Xafagarchiliklardan saqlan. To'yib-to'yib uxla. Ko'nglimda sen uchun atab yurganlarim bor. Kuni kelsin, aytaman.

— Nima ekan, u?

— Hali-hozir aytmayman. Kuni kelsa, aytaman.

— Aytsin, hozir aytsin.

— Yo'q, bo'lmaydi. Aytsam, sen birovga aytib qo'yasan.

— Aytmayman, aytsin, aytmayman. Otamiz derazaga qarab-qarab:

— Qo'shiq aytib beraman, — dedi sokin.

Onamiz hayrondan hayron bo'ldi.

— Nima-nima? — dedi.

— Qo‘shiq aytib beraman, deyman... — dedi, tag‘in-da sokin-sokin.

Onamiz og‘zini ushlab kuldi.

— Shu kishi qo‘shiq aytadimi? — dedi.

— Esa-chi...

Onamiz piq-piq kuldi.

— Shu kishi-ya?

— E, bizga nima qipti?..

Onamiz bolishga yumalab kuldi.

24

Otamiz adirlarga sig‘may qoldi!

Yo‘lda horib qoladi deya, onamizga tushlik tashittirmadi.

O‘zi kelib ketar bo‘ldi.

Bo‘lar-bo‘lmas gaplar aytib, onamizni kuldirib-kuldirib turdi.

Kunlar ketidan kunlar o‘tdi, tunlar ketidan tunlar o‘tdi.

25

Otamiz tun chirog‘ini yoqib yotdi.

Uy nimqorong‘i bo‘ldi.

Otamiz chalqanchadan yonbosh bo‘ldi. Onamizga o‘girildi. Bilagini onamiz bo‘yni ostidan o‘tkazdi. Onamiz yuzlarini qu-chog‘iga oldi.

Otamiz chap qo‘li Xushvaqtning ilk... ilk beshigiga ketdi. Qo‘li beshik bo‘ylab yurdi, beshik uzra yurdi. Bir yuqoriladi, bir pastladi.

Kafti muloyim-muloyim olamni qayta-qayta siladi. Siladi-sila-di, bir manzilda oyoq ildi...

Yo‘q, yo‘q...

Kafti tag‘in quyiladi-yuqoriladi. O‘ng-u chapga borib keldi. Kafti yugurdi, kafti yeldi, kafti izladi...

Yo‘q, yo‘q...

Otamiz ilk beshikka qo‘lini yuzini tutdi. Bor e’tiborini, bor diqqatini qo‘li ixtiyoriga berdi. Yuragini qo‘li yuziga jo qildi...

Yo‘q, yo‘q...

O‘ng qulog‘ini onamiz ko‘kraklari ostiga qo‘ydi. Nafasini yutdi. Bir lahza qotib qoldi.

Qulog‘i ostida onamiz yuragi duk-duk urdi...

Ilk beshik bor! To‘qqiz oy-u to‘qqiz kunlik muloyim olam bor!

Xushvaqt yo‘q! Xushvaqt!

Otamiz hafsalasi pir bo‘ldi...

Onamiz yuziga yuzini qo‘ydi...

Onamiz piq-piq yig‘lab qo‘ya berdi.

— Yig‘lama, bo‘ladi. Hazrati Xizr bovamiz aytdilar-ku...

Otamiz shunday deya, o‘zini-da, onamizni-da ovutdi.

Onamiz otamiz bilan tag‘in-da jipsroq yotdi. Soqollariga yuzlarini siladi.

Olis ayriliqdan keyin ko‘rishmishdayin, bag‘ridan qo‘yib yubormadi.

Olis sog‘inishdan keyin ko‘rishmishdayin, bot-bot o‘pdi.

Erkalatishlardan armoni qolmadi...

— Ertaga bozorlab kelmaydimi?

— Bozorlaganim bo‘lsin!

26

Onamiz sahar mahali otamizni uyg‘otdi.

Otamiz bozor otlandi.

Onamiz zim-ziyo olamga boqdi...

Oy hali tug‘madi. Shu bois, olam zimiston bo‘ldi. Onamiz oy turajak tarafga qarab turdi-turdi-da... o‘zini oyga mengzadi, taqdirini olamga mengzadi!

“Oy-da mendayin tug‘madi. Olam-da taqdirimdayin zim-ziyo bo‘ldi...” deya o‘ksidi.

Onamiz otamiz bilan xo‘shlashdi.

— Mayli, xush borsin-xush kelsin, — dedi.

Otamiz zim-ziyoga singib ketdi.

Onamiz darvoza qirrasiga peshonasini qo‘ydi. O‘ksib-o‘ksib yig‘ladi...

Ko‘chada echki ma’radi.

Onamiz qayrilib qaradi.

Echkilari ko'chaga tizilib chiqdi.

Onamiz echkilarni ichkari qaytardi. Darvozani ichkaridan zanjirladi. Zanjirdan cho'p o'tkazdi.

Supaga kelib o'tirdi. Peshonasini tizzalariga qo'ydi.

Tag'in yig'ladi...

27

Bari gap Termizda hal bo'ldi.

O'shanda do'xtir onamizga bor gapni aytdi. Otamizga aytmish gap... teskarisini aytdi!..

Onamiz do'xtir gapiga ishonmadi. Otamizdan pinhona Denov do'xtirlariga bordi. O'zini sinchiklab-sinchiklab qaratdi.

Denov do'xtirlari-da Termiz do'xtirlari aytmish gapni aytdi.

Onamiz otamizga bildirmadi. Ayollar bilan Denovdan baliq yeb keldim, dedi.

28

Onamiz ichiga yutib yurmish dardlari o'sha kundan e'tiboran ko'zlarida balqib qoldi.

Yurakni yashirsa bo'ladi. Boisi, yurak ko'rinmaydi. Yurak jamiki dardlarni pinhon tutadi. Ammo ko'zlarni yashirib bo'lmaydi. Ko'zlar o'zini o'zi fosh etadi.

Shunday bo'lsa-da, otamiz payqamadi!

Otamizga ochiq-oydin aytsinmi? Qanday aytadi?

Aytish, o'zini o'zi inkor qilish bo'ladi! Ayollik sha'nini yo'qqa chiqarish bo'ladi!

Keyin ayolman deb yurmasa-da bo'ladi!

Mabodo aytsa, gap chiqadi, elga yoyiladi...

Yo'q, ikki dunyoda-da aytmaydi!

U bir erkak, zo'r bir erkak baxtini bog'lab yuribdi!

Erkak hademay ellikka kiradi. Erkak orzularga to'la, erkak umidlarga to'la!

Erkak tinimsiz yelib-yuguradi, erkak intiq bo'lib qaraydi, erkak izlaydi! Ko'ngil mevasini izlaydi! Shu mevani topajagiga

ishonadi, qo'liga olib o'ynatajagiga ishonadi! Yuzlariga, bag'irlariga bosajagiga ishonadi!

Ana, erkak beshikka ketdi! Hademay, beshik ko'tarib keladi!

"Momosi, ana, Xushvaqtning beshigi..." deydi.

Aniq shunday deydi!

Onamiz bo'lsa... aldaydi! Ko'ra-bila turib aldaydi, yonma-yon yotib aldaydi, ko'zlariga tik qarab aldaydi!

Kimni aldaydi? Umrida ko'z ochib ko'rmish suyuklidan suyukli odamini aldaydi!

29

Tong tagi oqarib-oqarib kela berdi.

Onamiz molxona tarafga yurdi.

Mol-hollarga qaradi. Sigir sog'di. Buzoq emizdi.

Mol-holni podaga haydadi.

Qo'shiq aytib-aytib sog'mish mollari, xo'sh endi!

Onamiz katak og'zida turmish toshni oldi.

— Katakda yotmish tovuqlar hadeganda chiqa bermadi. Ichkarida qurq-qurqlab tura berdi.

Onamiz enkaydi. Katak ichiga qaradi.

Moyak tug'ib bermish tovuqlari, xo'sh endi!

Onamiz oshxonada xiyol turdi. Tevarakni qaradi. Sirg'alib tushmish dokani tag'in toboqlarga yopdi. Tag'in tushib ketmasin deya, doka burchlarini toboq ostiga bostirdi. Taom yuqi idish-toboqlarni qatron qilib yuvdi.

Kelin bo'lib, o't yoqmish o'choqlari, xo'sh endi!

Kelin bo'lib, moy tomizmish qozonlari, xo'sh endi!

Onamiz tandir boshiga keldi, ro'moli uchlarini yelkalariga tashlab enkaydi. Tandirga qaradi. Tandirga suyog'lik otashkurakni oldi. Otashkurak bilan uyum-uyum tandir kulini oldi. Tandir og'zini yopib qo'ydi.

Kelin bo'lib, non yopmish tandirlari, xo'sh endi!

Onamiz eshik-orani supurdi. Uy shiplarida osilib turmish qora qurumlarni olib tashladi. Derazalarni yaraqlatib artdi. Uy-

larni supurib-sidirdi. Yuk-yoplarni kelishtirib-kelishtirib taxladi.

Kelin bo'lib kelmish uylari, xo'sh endi!

Onamiz zinada cho'nqayib o'tirdi.

Tag'in yig'ladi. O'pkasini bosolmay yig'ladi. Hiq-hiq yig'ladi.

30

Oftob olmalar uchini chalib yubordi.

Onamiz ro'moli uchlari bilan bet-boshini o'radi.

Darvoza taraf yurdi. Darvozadan tashqariladi. Devordan bo'yladi. Qadrdon hovlisiga qaradi.

So'nggi... so'nggi bor qaradi...

Ohista-ohista yurdi-yurdi, tag'in oyoq ildi. Ketiga qayrilib qaradi.

Shunda, izidan iyarib kelmish Olapar itini ko'rdi.

— Qol, qol! — dedi.

Olapar besh-olti qadam qoldi. Ammo tag'in iyarib keldi.

Onamiz oyoq ilsa, Olapar-da oyoq ildi. Onamizga qarab-qarab tura berdi.

Onamiz hafsalasi pir bo'ldi. Yo'lida davom etdi.

Onamiz to'lib-toshib odimladi, bosar-tusarini bilmay odimladi!

Poyidagi mana bular qator-qator uylarmi?

Yo'q, bular mayda-mayda oq toshlar! Rangli-rangli kesaklar!

Onamiz toshlar bilan kesaklarni yanchib-yanchib odimladi!

Mana bular nima? Teraklarmi? Tutlarmi? Yo'q, bular nogiron-nogiron giyohlar! Onamiz giyohlarni ezib-ezib odimladi!

Hay, bo'y bermish tog'larmi?

Yo'q, tog'lar emas, yo'q! Bular bolalar o'ynayajak hammompish uylar!

Onamiz hammompish uylarni bosib-bosib odimladi!

Tog'lardagi qorlar... Qop-qora bo'ldi!

31

Bu vaqt otamiz Qizilsuv bo'yiga kelib qoldi. Loyqa daryo yoqaladi, sayozroq kechuv izladi. Tavakkal qildi, bir yoymadan ot soldi.

Daryo ot qornini yuvib-yuvib oqdi.

Otamiz kechuvdan chiqdi. Daryo bo'yida joylashmish loyqo'rg'on sari ko'tarildi.

Otini qo'rg'on oldi otxonaga boyladi. Taroqi xurjunni buklab-buklab qo'ltiqladi.

— Bismillohi rahmoni rahim! — deya bozor oraladi.

Bozor tumonat odam bo'ldi. Qadam bosadigan yer taxchil bo'ldi.

Havoda kabob, somsa, manti hidi anqidi.

Sonsiz ovozlar quloqni garang qildi. Kim gapiryapti, kimga gapiryapti, nimani gapiryapti, bilib bo'lmadi.

Bozor sonsiz chumchuqlar g'imirsib chirqillayotgan uyaday bo'ldi!

Otamiz bozorchilar bilan to'qnashib-to'qnashib yurdi, turtinib-turtinib yurdi.

Favqulodda pillachi agronomga duch keldi.

Agronom otamizni ko'rib-ko'rmaslikka oldi.

Otamiz agronom bilagidan qo'shqo'llab ushladi.

Agronom yalt etib o'girildi.

— E-e, Qoplon aka! Bozorlabsiz-da? — dedi.

Otamiz qo'ltig'idagi xurjunga ishora qildi.

— Tirikchilik, ha, tirikchilik! — dedi.

— Ha-a, ma'qul-ma'qul!

Agronom yo'lida davom etdi.

Otamiz agronom ketidan qarab-qarab qoldi.

"Befahm! Diplom bo'lgan bilan, farosat bo'lmagandan keyin, qiyin ekan-da..." deya o'yladi.

Yo'lida davom etdi. Mayiz bozorini yonlab yurdi. Mayizchilar tizilib o'tirib ovoz berdi:

— Kepqoling. Xo'jasoatning mayiziga!

— Arzon qildim, kilosi o‘n so‘m!

— Sinoning mayizi sho‘r bo‘ladi. Xo‘jasoatnikidan qolmanglar, misol uchun!

Otamiz oxirgi gapni aytmish Yo‘ldosh qorovulni tanib qoldi. Atayin qorovul oldidan soldi. Qorovul oldida atayin ohista-ohista odimladi. Atayin qirinib-qirinib yo‘taldi.

— Yo‘lingiz unsin, Qoplon aka! — dedi Yo‘ldosh qorovul.

Otamiz go‘yo, favqulodda ko‘rishib qolmishday, yuzlari yorishdi.

— E, ha, inim, bozoringiz unsin! — dedi.

— Aytganingiz kelsin! Qani, bundaygina yuribsiz, misol uchun?

Otamiz qo‘li bilan xurjunni ko‘rsatdi.

— Tirikchilik, mana, tirikchilik! — dedi.

— Hozir yo‘l bo‘lsin, misol uchun?

Otamiz... otamiz niyatiga yetdi!

— Shu, beshik bozoriga borayapman, Yo‘ldosh inim! — dedi.

— Ana-ana! Buyursin, buyursin, misol uchun!

Otamiz tag‘in-da ochildi.

— Qulluq-qulluq! — deya bosh irg‘adi.

— Aytganday, to‘ng‘ich nevaramizni ko‘rayapsiz-da, misol uchun?

— Shunday, shunday!

Yo‘ldosh qorovul o‘ylanib qoldi. Bir nima demoqchi bo‘ldi. Og‘iz juftladi-da, yana tag‘in indamadi.

— Bir nima demoqchi bo‘ldingiz shekilli, inim? — so‘radi otamiz.

— Endi, Qoplon aka, yoshingiz ulug‘, sizga oqsoqolchilik qilib bo‘ladimi, misol uchun!

— E, oqsoqolchiligi bo‘ptimi, ayta bering-da?

— Misol uchun aytsam, eski beshik yaxshi, aka! Ayniqsa, serfarzandlarning beshigini olsangiz, nur ustiga nur bo‘ladi, misol uchun!

— Unda, beshik olmaganingiz ma’qul, deysiz-da?

— Ha-da! Mana, biznikini olib turing, misol uchun!

— Unda, sizning aytganingizga yurdim, inim!

Otamiz iziga burildi.

32

Do‘konlarni aylandi. Olmasa-da, ayrim narsalar narxini so‘rab-surishtirdi.

Do‘konlarni aylandi-aylandi, kitob do‘koniga kelib qoldi.

“Eh-e-e-e! — dedi ichida. — Bunchako‘p qog‘oz!”

Endi ketmoqchi bo‘lib edi, ichkaridan bir qiz chiqib keldi.

— Ha, bova, qanday kitob berayin? — dedi.

Otamiz, yo‘q degan bo‘lib bosh chayqadi.

— O‘g‘ilmi, qizmi? Necha yoshda?

Otamiz ketishini-da bilmadi, ketmasini-da bilmadi. Nima deyishini-da bilmadi!

— O‘g‘il! — deb yubordi.

Qiz tokchadan katta kitob olib uzatdi.

— Mana shuni oling, — dedi.

Otamiz kitob yuzini tomosha qildi.

Kitob yuzida ulkan mushuk cho‘nqayib o‘tirdi.

“Kitob ana shu mushuk haqidadir-ov...” deya o‘yladi.

Kitobni qaytib berdi.

Turdi-turdi, o‘ylab qoldi. Chindan-da kitob olib borsa bo‘lmaydimi? Xushvaqt katta bo‘lsa o‘qiydi-da!..

Otamiz eshitgan-bilgan kitoblarini bir-bir yodga oldi.

— Shu, Kumushbibidan bormi? — dedi.

— Qanaqa Kumush?

— Haligi, marg‘ilonlikKumushbibi.

— Yozuvchimi?

— E, yo‘g‘-e, haligi... Otabekning qaylig‘i-chi?

— Ha-a, “O‘tkan kunlar” deng. Bor, bor.

— Shundan ber, Kumush bibidan ber.

Qiz kitobni topib keldi.

— Otabek kerak emasmi? — deya jilmaydi.

— Kumushbibi qayerda bo‘lsa, Otabek-da shu yerda bo‘ladi-da.

Otamiz do‘kondan choyxonaga yo‘l oldi.

Ikki kilo qovurilgan baliq oldi. Yarmini o‘zi tushlik qildi. Yarmini qog‘ozga o‘rab, xurjunga soldi.

— Ayolimizga, — dedi o‘zicha.

33

Otamiz hamsoya qo‘llarnikiga ovoz berdi.

— Ay, hamsoya, o‘sha yoqda bizniki yo‘qmi? — dedi.

— Bugun ko‘rmadik, — javob berdi hamsoyalar.

Birov-yarim bilan gap sotib o‘tiribdi-yov, deya hovuzdan xabar oldi.

Hovuzda-da bo‘lmadi.

Supaga cho‘nqaydi. Ayoli yo‘liga qaradi. Darvoza tiq etsa qaradi.

Qosh qoraydi. Mollar podadan qaytdi.

34

Otamiz toqati toq bo‘ldi.

Qahr bilan otlandi. Qaynog‘asinikiga yo‘l oldi.

Ostonada otdan tushmay ovoz berdi.

— Ay, buyoqqa bir qaranglar! — dedi.

Ichkaridan ayol ovoz berdi.

Derazadan to‘kilmish nurni bir soya kesib o‘tdi. Ostonada qaynegachisi qora berdi.

— Shu yoqqa bizniki keldimi? — so‘radi otamiz.

— Keldi, qani, ichkarilang, — dedi qaynegachisi.

— Yomon...

Otamiz: “Yomon xotinning uyi ko‘p, poraxo‘rning to‘yi ko‘p”, deya uzib-uzib olmoqchi bo‘ldi.

Ammo ayoli og‘iroyoq arafasida ekanini o‘yladi. Shashtidan qaytdi.

— Mehmon degan qosh qorayguncha o‘tira berar ekan-da. Ro‘zg‘or deganni-da o‘ylaydi-da... — dedi.

Qaynegachisi ichkarilab qaytdi.

— Bormayman, deyapti, — dedi.

— Nima-nima deydi?

— Bormayman, ketabersin, deyapti.

Otamiz otdan tushdi. Otni darvoza ustuniga boyladi. Ichkariladi.

Shu vaqt derazadan to'kilmish nurni tag'in bir soya kesib o'tdi.

Galdagi uy derazasi yorishdi.

— Qani? — dedi otamiz.

— Ana, narigi uyga o'tib ketdi, — dedi qaynegachisi.

Otamiz qaynegachisi ko'rsatmish uyga kirib ketdi.

Xiyoldan keyin qaytib chiqdi.

Qaynegachisi qoshiga keldi.

Boshi bilan onamiz o'tirmish uyga imo qildi.

— Anaviga nima bo'ldi? — dedi.

— Bilmasam.

— Gapirsam, miq etmaydi?

— Kim biladi. Ertalab o'zi kirib keldi. Endi uyimga bormayman, dedi. So'rab edim, indamadi.

— Yo, biron nima deb aynitdingizmi?

Qaynegachisi bir parda ko'tarildi.

— Ha, qaynsinglim kun sayin yasharib kelayapti! — dedi. — Sizdan aynitib, o'n sakkiz yashar bo'zbolaga beraman!

— Bo'lmasa, nimaga bunday qiladi?

— Men ne bilaman? Ana ayolingiz, ana siz! Gaplasha beringda!

Otamiz tag'in onamiz oldiga kirib ketdi.

Bu safar ko'p qolib ketdi.

Bir mahal, eshik qarsillab-qarsillab yopildi.

Qaynegachi derazadan tashqari qaradi.

Hovlida otlanayotgan kuyovini ko'rdi.

V

Kavkabistonda oy balqidi.

Oydin sutga chayganday oppoq bo'ldi.

— Ko'zlaringga boqishlarim... boqishlarimizning o'zi bir doston, momosi. Bovujud, shoirlar bilmadi, bilsa, elga yoyardi... Men senga aytsam, momosi, boqishlar-da hali o'zimizniki...

Olis-olis oydinlar.

Olis-olis oqshomlar.

Endi qaytib bo'lmas olis bir olam...

— Gohida atayin uyda o'tiraman, momosi, bolalar meni yo'q deb o'ylaydi, devordan oshib kiradi. Zardolilarga chiqadi, to'ygunicha yeydi. Qo'yinlarini to'ldirab ketadi. Men, yayrab-yayrab qarayman... Eshityapsanmi, momosi, bizning zardolilarni bolalar yeyapti, bolalar! Shu, ko'cha yuzlariga-da mevali daraxtlar eksammi deyapman, momosi. O'tgan-ketganning og'zi tegadi-da, bolalar yeydi-da...

1

Otamiz yolg'iz yashadi.

Achchig'i tarqalguncha ayoli yo'qligi bilinmadi.

Keyin-keyin bilindi.

Ayolini qo'msab-qo'msab entikdi. Bolishni bag'riga bosib-bosib entikdi. Hovlini aylanib-aylanib entikdi...

Ayoli xumor qildi!..

Otamiz otlandi. Yo'lga tushdi. Zim-ziyo ko'chalardan yurdi.

Qaynog'asi devori oldida oyoq ildi. Devordan bo'yladi.

Zim-ziyo hovliga bot-bot qaradi. Entikib-entikib qaradi...

Ayoli havosini olib-olib qaytdi...

2

O'yladi-o'yladi, tog'asini qaynog'asinikiga yubordi.

Tog'asi kuyinib-kuyinib qaytib keldi.

— Ko'r bo'l, ha, ko'r bo'l! — deya yer mushtladi. — Ko'rgina bo'l!..

— Og'zingga tosh-e! — dedi xolasi.

Tog'asi tag'in yer mushtlab-yer mushtlab kuyindi:

— Otang rahmatlik aytdi, enang rahmatlik aytdi, ajrash, turmushing turmush bo'lmaydi, dedi! Aytganlari keldimi? Mana, keldi! O'zingning umringni o'zing ko'kka sovurding! Uyam o'ylagan-da...

— Nimani o'ylagan-da? — dedi otamiz.

— O'ylagan-da, erkak odamning qayg'usi bolami, o'zim ketib, peshonamni bir sinab ko'rayin degan-da!

— Ketsa, keta bersin! — dedi xolasi. — Ayol topiladi! Po'lat pichoq qinsiz qolmaydi!..

"Yo, chini bilan u shunday o'yga bordimikin-a?"

Otamiz xayolidan shu gap o'tdi.

O'tirdi-o'tirdi, dadil ham kesib gapirdi:

— Bo'pti, endi yangi ro'zg'or qilganim bo'lsin.

3

Tog'asi xesh-tabor bilan kengashdi, maslahatlashdi.

Otamizga ayol qidirdilar.

Ikkita ayol topdilar. Ikkovini-da eri mashina falokatida ketibdi.

Biri o'ttiz beshlarda, farzandsiz bo'ldi. Biri qirqlarda, qo'sh farzandli bo'ldi.

Xolasi ra'ykorchilik qildi.

— Eshik ko'rganni olma, beshik ko'rganni ol! — dedi. — Oygul binoyi, farzandi bor...

Tog'asi sovchilikka yo'l oldi.

Ayol bo'lmish ota-onasini ko'ndirdi. Ayol bo'lmish bolalarini ko'rdi.

Bolalar bir-biridan suyumli bo'ldi!

— Yaxshi bo'ldi, jiyanimizga farzand bo'ladi, — dedi tog'asi.

4

Onamiz, otamiz yangi ro'zg'or qilayapti, deya eshitdi.

Onamiz kuyib-kuyib ketdi! Deraza tokchasiga tirsakladi.

— Go'rga bo'lsa, menga nima... — deya pichirladi.

Kaftini iyagiga qo'ydi. Boshini chapga xiyol qiyshaytirdi, tashqariga tikildi.

Yuzlari lov-lov etdi. Yonoqlari bulk-bulk uchdi. Ko'kraklari osti o'pirilib tushayotganday bo'ldi. O'pirilish ko'ksini borgan sayin quyiga bosdi.

Buni og'riq-da deb bo'lmadi, g'ashlik-da deb bo'lmadi.

Go'yo, ko'kraklari ostida zilday bir nima ipda osilib qoldi. Bordi-yu, iplar uzilsa, qomatini ko'tarib turmish zilday nima yerga tushadi, chil-chil bo'ladi...

5

Ko'kragi ostidagi zilday nima birdan toshday qotib qoldi.

Onamiz kerishdi. Shunda-da bo'lmadi.

Qotib qolmish nima yumshab-da ketmadi, tushib-da ketmadi.

Onamiz uqalamoqchi bo'ldi. Barmoqlari borishi bilan ko'krak etlari pir-pir uchdi. Etlari o'zini olib qochdi. Onamiz endi barmoqlarini olisroqdan olib bordi, avaylab olib bordi. Kafti bilan ohista-ohista uqaladi. Ko'zlarini yumib uqaladi.

Ko'kraklari ostida barmoqlari soyasini his etdi.

Nihoyat, ko'ksini g'ijimlamish zilday nima qo'yib yubordi.

Peshonasidan sovuq-sovuq terlar oqdi.

O'tirdi-o'tirdi, miyig'ida kuldi. Bir gapni ma'qullamishday, bilinar-bilinmas bosh irg'adi.

Ich-ichidan kuya-kuya:

— Uylansa, oq butum qora quyarmidi... — deya pichirladi.

6

Ayol zoti azzancha o'ziga to'q bo'lsin, yegan-ichgani oldida bo'lsin, azzancha serurug' bo'lsin, seravlod bo'lsin, baribir... baribir, o'z oti o'zi bilan... zaifa bo'ladi!

Shu bois, ayol zoti hamisha boshida panohi bo'lishini xohlaydi.

Ayol zoti azzancha o'ziga mustaqil bo'lsin, mag'rur bo'lsin, baribir, ana shu panohiga bosh egib yashaydi.

Bosh panohi amaldormi? Bosh panohi kambag'almi? Ko'rmi yo kalmi? Bosh panohi mayibmi?

Baribir, ayol zoti uchun baribir!

Ko'mirchi bo'lsin, temirchi bo'lsin, to'rt devor ichida suyukli bo'lsin!

Ayol zoti ana shu bosh panohiga suyanib yashaydi!

Boshi ochiq...

Ayol zoti azzancha xo'rlikni ko'taradi, azzancha tahqirlashni ko'taradi. Ammo "boshi ochiq" degan gapni ko'tarolmaydi!

"O'nta o'g'lim bo'lmasin... cholim o'lmasin", demish gap, ayollar yuragidan otilib chiqqan bo'ladi!

Bu dunyoga kimni boylab qo'yib edi-da, ayol zotini boylab qo'yadi?

Dard bor, bosh yostiqqa tegish bor.

Ana shunda, suyab turg'izajak tanmahram kunga yaraydi. Ana shunda, og'izga suv tomizajak tanmahram kunga yaraydi.

O'z oti o'zi bilan tanmahram!

Elchilik, onamizga og'iz solajaklar bo'ladi, elchilik! Elchilik, og'iz solajaklar orasida ayolidan kuyib-kuyinib ayrilmishlar bo'ladi, falokat tufayli bola-baqrasi bilan yayrab qolmishlar bo'ladi, elchilik!

Mayli, qandayi bo'lsa-da, mayli!

Faqat... farzand dog'ida kuymishlarga ko'nmaydi! Nimagaligini og'zidan-da chiqarmaydi!

Mayli, ayoli tashlab ketmish yomonlar bo'lsin!

Erkak zoti yomon bo'lib tug'ilmaydi! Qarsak ikki qo'ldan chiqadi!

O'zi yaxshilab oladi! Nima desa, xo'p deydi! Qo'lini kosov qiladi, sochini supurgi qiladi!

Mayli, bolalari onamizni o'z onasi o'rnida ko'rmasa-da, mayli! Ammo onamiz ularni o'z bolasi o'rnida ko'radi! Bir onachalik qaraydi!

U kishi ana shunday bir erkakdan umidvor bo'ldi!

7

Otamiz qaynog'asi darvozasida oyoq ildi. Uzangidan oyoq oldi. Otini yetaklab ichkariladi.

Ichkarida jamoa jam bo'ldi.

Otamiz jamoa bilan yuzma-yuz bo'ldi. Yugan tutamlab, dol turdi.

Salmoqlab-salmoqlab, ayoli javobini berdi:

— Ikki taloq! Bo'ldimi? — dedi.

Deraza oldida o'tirmish Oymomo onamiz o'z javobini eshitdi.

Onamiz akasi muztar bo'lib qotib qoldi.

Hamsoya-qo'llar achinish ham qayg'urish bilan bosh chayqadi.

— Qaynsingilginam umri xazon bo'ldi! Boshqa erkakka tushganida haligacha nevarali bo'lardi.

Bu gapni onamiz yangasi aytdi. Hamsoya-qo'llar dalda berdi:

— Taqdir-peshona ekan da, kim o'ylaydi deysiz...

— Hali joyi chiqadi!

— Joyi chiqsa, beramiz!

— Hali, o'n gulidan bir guli ochilmagan!

— Hali qo'chqordayin-qo'chqordayin o'g'illar ko'radi!

— Hali popukdayin-popukdayin qizlar ko'radi!

— Teshik munchoq yerda qolmaydi!..

8

Otamiz jamoadan ko'zini olib qochdi.

Yerga qaradi.

Mung'ayib qoldi.

Yer ostidan tog'asiga qarab-qarab oldi.

O'zini juda-juda yomon sezdi. Oyog'i ostida yer bormi-yo'qmi, bilolmadi. O'zini omonat sezdi.

Mung'aymish ko'yi ketiga qayrildi. Yerdan ko'z olmay ot yetakladi. Ohista-ohista odimladi. Yer singalab-yer singalab odimladi. Mung'ayib-mung'ayib odimladi.

Bosh ko'tarish uchun majoli-da qolmadi, haddi-da qolmadi! Bosh ko'tarish uchun botinolmadi!

Ichkaridan tog'asi ovozini eshitdi.

— Endi, bari Xudo tarafdan, quda, — dedi tog'asi. — Siz ham, biz ham aybdor emasmiz. Endi, kelin bo'lmish yuk-yoplarini olib

kelish uchun borasizlar-da. O‘zim boshida turib, ipidan-ignasigacha bo‘lib beraman...

Otamiz yer ostidan ketiga qaradi. Yurak-bag‘ri haminqadar ezilib-ezilib ketdi!

Hamisha qayqayib-qayqayib yurmish oti, hamisha ko‘krak kerib-ko‘krak kerib yurmish oti... boshi xam bo‘lib-xam bo‘lib qadamladi! Yerga tumshuq berib-tumshuq berib qadamladi! Yerga ko‘z tikib-ko‘z tikib qadamladi!

“Yomon bo‘ldi, ko‘p yomon bo‘ldi, — xayollandi otamiz. — Endi shuni, shu jonivor bilmasa nima qipti?”

Otamiz hadahaladi.

Darvozadan tashqariladi.

Uzangiga oyoq ildi. Otiga qamchi urdi.

9

Otamiz chayladan adoqladi.

Adir adog‘ida qantarilmish otini mindi. Uyiga yo‘l oldi.

Darvozani ochdi. Ko‘chada sochilib yurmish mol-hollarni ichkari kiritdi. Mol-holga qaradi. Otini oxuriga boyladi.

Hovli o‘rtasida serrayib qoldi.

Hovli zim-ziyo bo‘ldi. Milt etmish shu’la bo‘lmadi.

Ichkarilab, uy chirog‘ini yoqdi. Ko‘rpachaga cho‘zildi.

Etigi qo‘njidan qamchini oldi-da, ohista-ohista etik qo‘njiga urdi, ko‘rpachaga urdi, devorga urdi.

Yotib yotolmadi, uxlab uxlolmadi.

Tag‘in tashqariladi.

Bir qurbaqa sapchib-sapchib keldi. Derazadan to‘kilmish nurda to‘xtadi.

Nur, otamiz g‘ashini keltirdi. Ichkarilab, chiroqni o‘chirib keldi.

Tok vayishi ostida cho‘k tushdi. Oyoqlarini chalishtirdi. Joylashib o‘tirdi. Vayish ustuniga yag‘rin berdi. Boshini-da ustunga qo‘ydi.

Boshi uzra nazar soldi. Qop-qoraymish vayishga tikildi. Tikildi-tikildi, ko‘zlari ilindi...

Xo‘rozlar qichqirig‘idan, buzoqlar ma’rashidan uyg‘ondi.

Tobora yorishib kelmish osmonga qaradi. Mung‘ayib-mung‘ayib qaradi. G‘aribona-g‘aribona qaradi...

Otasi bor edi, otasiga suyanar edi. Otasi qazo qildi.

Ayoliga suyanib qoldi.

Onasi bor edi, onasiga suyanar edi. Onasi-da ketdi.

Tag‘in ayoliga suyanib qoldi.

Endi, yolg‘iz suyanchig‘idan-da ajraldi. Yolg‘iz yupanchidan-da ajraldi. Yolg‘iz panohidan-da ajraldi.

To‘rt tarafi qibla bo‘lib qoldi!

Endi... manavi ustunga suyanib qoldi!

10

Otamiz otiga qarab yurdi.

Qo‘ylar yemish dardida otamizga suykaldi.

Otamiz qo‘ylarni turtib-turtib tashladi, jerkib-jerkib tashladi.

Otini egarladi, tashqari yetakladi.

Darvozani tashqaridan qulfladi. Egar qoshidan oldi, uzangiga oyoq ildi.

Ot shaxdam-shaxdam qadamladi.

Tong yellari hur-hur esdi.

Otamiz tegirmon oldidan yo‘l oldi.

Tegirmon ostidan shovullab otilmish suv yo‘lni ko‘ndalang kesib oqdi.

Otamiz kechuvda jilovni bo‘sh qo‘ydi. Ot bosh ko‘tarmay-bosh ko‘tarmay suv ichdi. Shunda:

— Assalomu alaykum, Qoplon aka! — demish ovoz keldi.

Ovoz qayoqdan keldi, suv shovullashida bilib bo‘lmadi.

— Men buyoqdaman, misol uchun! — dedi ovoz.

Otamiz tegirmon supasida turmish Yo‘ldosh qorovulni ko‘rdi.

Qorovul belbog‘idan qo‘shqo‘llab ushladi. Kulib-kulib qarab turdi.

— Tegirmonga keldingizmi, misol uchun? — dedi.

Otamiz nima deyishini bilmadi.

— Shunday, shunday... — deya bosh irg‘adi.

Yo‘ldosh qorovul tap etib supadan tushdi. Otamiz bilan ko‘rishib-so‘rashdi.

— Bug‘doyingizni qaysi burchakka qo‘yib edingiz, misol uchun? — dedi.

— Nima edi?

— Bug‘doyingizni ichkaridan topib olaman-da, tegirmonga solaman, misol uchun. Tushgacha tegirmondan chiqadi. Tushda kelib, otga ortib keta berasiz, misol uchun.

— Yo‘q...

— Yo‘g‘i bo‘ptimi, misol uchun. Bog‘ qorovul bo‘laturib, tushgachayin o‘tira berasizmi? Uzumlaringizni chumchuq yeb ketadi, misol uchun! Mana biz o‘tirsak, bo‘la beradi. Biz makkajo‘xori qorovuli. Makkajo‘xorini it yeydimi, misol uchun...

Otamiz xo‘rsindi. Tevarakka alangladi. Yo‘l bo‘yi simyog‘och simlarida tizilib turmish qaldirg‘ochlarga tikildi.

Yo‘ldosh qorovul, otamiz istihola qilayapti, deya o‘yladi. Tag‘in gapga tushdi.

— Navbatda turganlar janjal qiladi, deb o‘ylayapsizmi, misol uchun? Chin, tegirmon navbati bilan, deydilar, misol uchun. Lekin men tegirmonchi bilan gapirishaman-da. Shunday-shunday, deyman-da, misol uchun...

Otamiz qamchi sopi bilan qaldirg‘ochli simlarga ishora qildi.

— Shu simlarda tok bor-a? — dedi.

— Ha, tok bor, misol uchun.

— Unda, nimaga qaldirg‘ochlarni tok urmaydi?

— Shuni bilmadim-a, misol uchun. Chopib borib, Nikolay montyordan bilib kelayinmi, misol uchun?

Ot suvdan bosh ko‘tardi.

Otamiz otni tizzalari bilan niqtab haydadi.

Ot suv sachratib-suv sachratib kechuvdan o‘tdi.

Otamiz yo‘lida davom etdi.

Yo‘ldosh qorovul otamiz ketidan qarab qoldi.

11

Otamiz tegirmondan olisladi.

Tonggi havodan badanlari junjikdi. Choponi o'ngirlari yonlariga yoyildi.

Bor vujudi bilan, bor tani bilan... qo'msash qo'shig'ini aytdi...

Ulkan tol tevaragini bir aylanib oyoq ildi. Yerga tushdi. Otini tol tanasiga boyladi.

Yelkasidan nafas oldi.

Badanlari qizidi. Yoqalarini ochdi.

Tosh devordan oshdi. Azim yong'oq ostiga bordi. Yong'oq tanasiga suyanib o'tirdi...

12

Poyida buloq suvlari tiniq oqdi, sokin oqdi.

Po'st tashlamish yong'oqlar buloqqa cho'lp-cho'lp tushdi. Buloqda qalqib-qalqib oqdi...

Otamiz buloqdan hovuchlab-hovuchlab oldi. Og'zini chaydi. Yuziga sepdi. O'zini sovitdi.

Buloq bo'yidagi kiyiko'tlarga termilib o'tirdi-o'tirdi... Eslash qo'shig'ini aytdi...

13

"...Zardoli bargi misol qayrilma oy, bulutsiz oqshom osmonida havolandi.

Oqshom tag'in-da oppoq, tag'in-da nafis bo'ldi.

Qovjirab yotmish qiyoq o'tlar shamolda chayqaldi. Shamolda ayqashdi, ajib tovush berdi.

Barglar shitir-shitir etdi.

Pishib me'yoridan o'tib ketmish zardolilar yerga tap-tap tushdi.

Oqshomdan zardoli hidi anqidi.

U, Oymomo sochini ushladi...

Oymomo ro'moli chetidan o'pkalanib-o'pkalanib qaradi...".

14

Eslash qo‘shig‘i avj oldi:

— Ha-a-ay...

Otamiz otlandi. Adirga yo‘l oldi.

Adir g‘uj-g‘uj daraxt bo‘ldi. Zardoli, olma, jiyda, yong‘oq, do‘lana... bo‘ldi. Ularni tabiat ekdi, tabiat ko‘kartirdi. Shu bois, oti yovvoyi olma bo‘ldi, yovvoyi yong‘oq bo‘ldi.

Bu yil daraxt barglari uchi sariq-sariq bo‘ldi. Demak, qish kech keladi. Bordi-yu, barglar ostidan sarg‘ayib boshlasa, qish erta keladi.

Otamiz ot jilovini o‘z holiga qo‘ydi.

Yer sinchiklab-yer sinchiklab qaradi...

Shu yerlarda... Xuddi shu yerlarda bir so‘qmoq bo‘lar edi. So‘qmoq bog‘ tarafidan... Oymomo ishdan qaytar edi. Otamiz xuddi shu yerda Oymomo yo‘lini poylar edi...

Bu, ko‘rishuv qo‘shig‘i bo‘ldi!

Endi u so‘qmoqlar yo‘q...

So‘qmoqlar ko‘milib ketdi. Izsiz, nom-nishonsiz ko‘milib ketdi...

15

Bir kaltakesak xazonlarni shitirlatib-shitirlatib chopdi.

Ot seskanib oyoq ildi. Qulog‘ini ding qildi.

Otamiz jilovni orqaga burdi.

Ot o‘zi yurmish egri so‘qmoqdan yuraman, dedi.

Ammo otamiz otni tikkasiga soldi.

Yo‘lda yo‘ng‘ichqa poya keldi, ariq keldi, o‘r-chuqur keldi. Ot baridan sapchib o‘tdi, baridan irg‘ib o‘tdi.

Ko‘rishuv qo‘shig‘i poyonladi.

Qo‘shiq yovvoyi daraxtlar ostida qoldi. Nom-nishonsiz so‘qmoqlarda qoldi...

16

Otamiz Sayrak adirda jilov tortdi. Egar qoshiga jilov ildi.

Ot bo'yni ko'zoynak ilon misol gajak-gajak bo'ldi.

Ot pishqirdi. Old tuyoqlari bilan tars-tars yer tepdi.

Otamiz, qamchi sopi bilan telpagini ketiga surdi. Qamchili qo'lini soniga tiradi.

Yelkadan nafas oldi. Qirinib yo'taldi. Qo'shiq ayta berib qaqrab qolmish tomog'ini namladi.

Nazarini bog'larga berdi...

17

Shu ko'yi o'tirdi-o'tirdi... o'zining so'nggi... eng so'nggi qo'shig'ini boshladi...

Bu, xayrlashuv qo'shig'i bo'ldi, alvido qo'shig'i bo'ldi!

Tonglar bepoyondir, bepoyon! Olis-olis ufqlarda tong. Bobotog' cho'qqilarida tong. Degrez suv ombori uzra tong. Qishloq uzra tong. Bog'larda tong. Terak uchlarida, barglarida tong. Gala-gala chumchuqlar parvozida tong. Ot yollarini o'ynamish sokin yellarda tong. Kuylovchi soqolini silamish salqin sabolarda tong.

Qo'shiqda-da tong!

18

Sokin bog' uzra bir gala chumchuq o'ynadi.

Chumchuqlar turnaqator bo'lib tizildi. G'uj bo'ldi. Yoppasiga terak shoxlariga yopirildi. Tag'in parvozlandi.

Jimjit terak qo'ynida parr etmish ko'r ovoz keldi.

Bir to'rg'ay havolanib-havolanib o'ynadi. O'z o'yinidan, tog' havosidan mast bo'lib sayradi. Bir joyda muallaq turdi. Chalqancha yotdi. Quyiga sho'ng'idi. Tag'in yuqoriladi. Ko'kka to'sh berdi. Joyida qotib qoldi. Tag'in to'lqindayin-to'lqindayin parvozlandi...

Alvido qo'shig'i avjida bo'ldi!

19

Kun, tongni yoqib yubordi.

Olamdan oppoq parda ko‘tarildi.

Bobotog‘ cho‘qqisida turmish dum-dumaloq kun, teraklar uchini chalib ketdi.

Bir terak shoxida chumchuqlar zorlanib-zorlanib chirqilladi.

Chumchuqlar ilon ko‘rsa, ana shunday zorlanib chirqilladi...

Alvido qo‘shig‘i qiyomda bo‘ldi:

— Lalaylam, la-a-am!..

Bebosh sabolar terak barglarini chappa-chappa qayirdi.

Fotmachumchuqlar shoxma-shox likilladi.

20

Qishloq tarafdan kelmish so‘qmoqda otliqlar, eshaklilar ko‘rindi, piyodalar ko‘rindi.

Birov uloviga savat osib oldi, birov qo‘ltig‘iga savat qisib oldi.

Dehqonlar uzum uzishga kela berdi.

21

Brigadir otini yo‘ng‘ichqapoya girdiga boyladi.

Terakzor yonlab yurdi. Chumchuqlar zorlanmish terak oldiga bordi.

Enkayib-enkayib qaradi. Birdan... iziga qarab-qarab qochdi.

Brigadir qo‘lini qoshi ustiga qo‘yib qaradi.

— Hoy, Qoplon aka! — dedi. — Belni olib choping! Anavi terakda bir darranda o‘ralib yotibdi!

22

Otamiz alvido qo‘shig‘ini bekam-u ko‘st aytdi. Umrida ilk bor... ilk bor, qo‘shig‘ida so‘z ishlatdi.

Qo‘shiq qiyomida ko‘nglidan bir so‘z otilib chiqdi:

— ...Ku-u-uyga-a-ay!..

Otamiz alvido qo‘shig‘ini bog‘lar oralab bo‘linmish mehnatkashlarga qarab aytdi.

Mehnatkashlarni qo‘shiq bilan kuzatdi.

Mehnatkashlar ishlariga qo‘shiqli bo‘lib ketdi.

23

So‘qmoqda bir qizil kiyim ko‘rindi.

Boshida doka ro‘moli bo‘ldi.

Qo‘lida savatcha bo‘ldi.

Odimlari vazmin-vazmin bo‘ldi.

Bu, asl qo‘shiqning o‘zi bo‘ldi!

Asl qo‘shiq turganda muxammas qo‘shiqqa yo‘l bo‘lsin! Asl qo‘shiqqa taraf yo‘q!

Qo‘shiq beixtiyor adirdan enib boshladi.

24

Brigadir, qo‘li qoshi ustidaligicha qoldi.

25

Ot, asl qo‘shiq oldini oldi.

Asl qo‘shiq chapdan yo‘l oldi.

Ot, asl qo‘shiq oldini oldi.

Asl qo‘shiq o‘ngdan yo‘l oldi.

Ot, tag‘in oldini oldi.

Asl qo‘shiq nima qilishini bilmadi. Yerga qarab qoldi.

Shunda, qo‘shiq otdan tushdi. Ot bo‘yniga qo‘lini qo‘ydi. Olis turdi.

Asl qo‘shiq ro‘moli yellarda hilpirab-hilpirab turdi.

Qo‘shiq, asl qo‘shiq qo‘lidan savatchani oldi. Egar qoshiga ildi. Bir qo‘li bilan ot jilovidan ushladi. Bir qo‘li bilan asl qo‘shiq ro‘molidan ushladi.

Ohista-ohista qishloqqa yo‘l oldilar.

Qo‘shiqlar yuzma-yuz bo‘lib, nimalarni gapirishdilar.

Qo‘shiqlar yig‘lab-yig‘lab, mana bunday gapirishdilar:

— Umringizni olmayin dedim, bovasi, yolg‘iz o‘g‘ilsiz...

— Shu gapingga noma’qulning nonini yebsan, momosi. Senga kelgan dardga o‘zim ko‘ndalang, momosi...

26

Brigadir olislik qildi.

Shu boisdan eshitmadi.

Ammo barini ko‘rib-bilib turdi,

— Ha, kuchingdan, bizning qorovul! — deya jilmaydi.

VI

Oy suzilib-suzilib boqdi.

Bobomiz ozg‘in panjalarini havoda ochib yumdilar.

— Esingdami, momosi, — dedilar. — O‘shanda-da oy yorug‘ edi, yop-yorug‘ edi...

Bobomiz kaftlari bilan qovjirab-qovjirab yotmish xaslarni pay-pasladilar.

— Men otni jildirib kelayin, momosi, — dedilar.

— Sen o‘tirib tur. Qo‘rqmaysanmi, o‘zi?

Bobomiz adirdan endilar. Ariqdan hatladilar. Yo‘ng‘ichqapoya oralab yurdilar.

Ot quloqlarini dikkaytirdi. Ketiga tis bo‘ldi.

Xo‘jasini tanidi, bo‘y berdi.

Bobomiz ot yollarini siladilar. Silab-silab erkalatdilar.

Ot qozig‘ini sug‘urdilar. Hali ot og‘zi tegmagan yerga tepib-tepib qoqdilar. Jabdug‘ini-da ot oldiga olib kelib qo‘ydilar.

Bobomiz ana shu jabduqqa picha cho‘nqaydilar. Oyoqlarini uzatib-uzatib o‘tirdilar.

Kaftlari bilan yo'ng'ichqalarni siladilar. Kaftlarini yuzlariga surtdilar, burunlariga bosdilar.

Kaftlarini to'yib-to'yib iskadilar.

Shunda... shunda, ariq yoqalab kelmish qoralarga ko'zlari tushdilar.

Yo'ng'ichqa isli kaftlari bilan soqollarini tutamlab-tutamlab qaradilar...

1

Necha-necha qizg'aldoqlar ochildi. Barglari sochilib-sochilib ketdi.

— Do'xtir bizning ichimizga kirib chiqibdimi, momosi. Do'xtir ayta beradi-da! Ana, Jo'raqulni do'xtirlar odam bo'lmaydi, dedi. Bemorxonadan olib ketinglar, dedi. Ana, yuribdi, otdaygina bo'lib!..

— Chin, bovasi, chin.

— Bilasan, Hazrati Xizr suygan bandalariga yo'liqadilar. Menga yo'liqdilar, farzand beraman, dedilar. U kishi yuzimdan o'tolmaydi, momosi. Odamning yuzi issiq-da, momosi.

— Aytganlari kelsin, bovasi.

— Bo'g'irsoq, yog'li patir qil. Ertaga ishga olib boramiz. Arpaga o'roq tushar emish. Mehnat hayiti-da.

— Uff, ishning oxiriyam bormikin-a.

— Tirikchilik, momosi, tirikchilik. Odamning yuzi chidamaydi. Yana tag'in Xushvaqt hayallayapti. Xushvaqt o'rniga-da mehnat qilmasak bo'lmaydi. Odamlardan uyat. Xushvaqt kelsin, o'zimiz bilamiz...

— Kattalar qo'yar.

— E, qo'ymay nima? Xushvaqtday ulimiz bo'ladi-da, kattalardan qo'rqamizmi? Birovi g'ing deb ko'rsin! Hay, ko'p javrama, ana ulimiz ishlayapti, deymiz. Bor, yo'lingdan qolma, deymiz. Bari uyalib qoladi! Qolabersa, Xushvaqt ulimizni o'ylaydi. Chol-kampirga indamaylik, uli xafa bo'ladi, deydi. Ulimizning yuz-xotirini qiladi. Hali-hozir kimimizning yuz-xotirini qiladilar, momosi...

2

Necha-necha qovunlar pishdi. Tarvuzlar tars yorildi. Uzumlar mayiz bo'ldi.

— Eshitdingmi, momosi, Vaxshivorda birov yetmishida farzand ko'ribdi. Yana tag'in, o'g'il emish! Ana ko'rdingmi, erta-kechi bo'lmaydi. Sabr qilsang, g'o'radan holva bitadi. Sabrning tagi oltin, momosi.

— Aytganlari kelsin, bovasi.

— Aytganday, yana paxtani deyapti, momosi. "Hazorbog'" sovxoziga yordamga boramiz ekan, o'n besh kunga.

— Ikkovimiz-da boramizmi?

— Yo'q, bir o'zim boraman, momosi. Brigadir o'zingiz borasiz, dedi. Biladi-da, bir o'zim ikki-uch kishining ishini qilishimni biladi-da, momosi.

— Biladi, brigadir biladi, bovasi.

— Brigadir, siz choyxonachi bo'lasiz, dedi. Men aytdim, choyxonachilik yarimjonlarning ishi, men paxta teraman, dedim.

— Unda, men nima qilayin, bovasi?

— Sen mol-hollarga qarab, uyda o'tir, momosi. Sening ulushingni-da, Xushvaqtning ulushini-da o'zim bajaraman. Xushvaqt kelsin, oyoqni uzatib yotganimiz bo'lsin, momosi.

— Aytganlari kelsin, bovasi.

3

Necha-necha barglar sarg'aynb xazon bo'ldi.

Qizlar kelin bo'ldi.

Bolalar kuyov bo'ldi.

Toylar ot bo'ldi.

— Hazrati Xizr lafzlaridan qaytmaydilar, momosi. Bordi-yu, qaytsalar, yodlaridan ko'tarilgan bo'ladi. Unda, tag'in eslariga solaman, momosi. Hazratim, bizning ulimiz nima bo'ldi, biz ulimiz yo'liga qarab o'tiribmiz, deyman. Qanday qilib aytasiz, deysanmi? Bilasanmi-yo'qmi, Hazrati Xizr odamga uch marta yo'li-

qadilar. Men, endi ikki bor yo'liqdim. Hali yana bir yo'liqishim bor. O'shanda aytaman-da, momosi. Ishonchim komilki, u kishi uzrlarini aytadilar-da, lafziga amal qiladilar...

— Aytganlari kelsin, bovasi...

4

Necha-necha qorlar yog'di.

Suv bo'lib-suv bo'lib oqdi.

— Men senga aytsam, momosi. Yaratganning o'zi beraman desa, qo'shqo'llab beradi. Sendan-mendan so'rab o'tirmaydi. Ma, ol, qulim, deydi. Mana ko'rasan, momosi...

— Aytganlari kelsin, bovasi...

5

Avji saraton bo'ldi.

Oftob lov-lov yondi.

Oftob olamni jingirtob-jingirtob qildi.

Oftobda suv qaynayin-suv qaynayin, dedi.

Shunday kunda ramazon keldi.

El ro'za tutishini-da bilmadi, ro'za tutmasini-da bilmadi. Ro'za tutayin dedi, kun ko'z ochirmadi, kun nafas oldirmadi. Ro'za tutmayin dedi, mo'min musulmon uchun ro'za qarz-da bo'ldi, farz-da bo'ldi.

Otamiz bilan onamiz o'ylab-da o'tirmadi. Kun oftob tugul, olov purkasa-da, ro'za tutarman bo'ldi.

Boisi, el-yurt oldida o'zlarini qarzdor bildi, el-yurt oldida o'zlarini aybdor bildi...

Qolabersa, otamiz bir umidi Laylatulqadr bo'ldi...

6

Emishki, yil, milodiy olti yuz o'ninchi yil bo'ldi. Oy, ramazon oy bo'ldi.

Ollohi taoloning Jabroil otli bir farishtasi bo'ldilar. Ollohi taolo ana shu farishtasini huzurlariga chaqirdilar. Jabroil farishtasidan Muhammad alayhissalomimizga vahiy yubordilar.

Bu amal Qur'oni karim oyatlari yoddan aytila boshlamish ilk kechada sodir bo'ldi.

Ollohi taolo ana shu tariqa-ana shu tariqa, Muhammad payg'ambarimizga vahiy yo'llay-vahiy yo'llay berdilar.

Milodiy olti yuz o'ttiz ikkinchi yilgachayin ana shundayin vahiy yo'llab turdilar.

Emishki, Qur'oni karim ana shunday bino bo'ldi!

Shu boisdan ramazon muqaddas oy bo'ldi.

Qur'oni karimday mo'tabar ham tabarruk kitob bino bo'ldi, muqaddas bo'ladi-da!

Shu boisdan ramazonda mo'min musulmonlar ro'za tutdi.

Oydin bo'ldikim, Laylatulqadr Ollohi taolo Muhammad rasullohimiz uchun yaratmish kecha bo'ldi.

Arabcha "layl" so'zi o'zbekcha "kecha" demakdir. Arabcha "qadr" o'zbekcha "taqdir" demakdir.

Oydin bo'ldikim, Laylatulqadr "taqdir hal bo'lajak kecha" demakdir.

Jumlayi mo'minlarga ayonkim, yillar hisob-kitobi Quyosh yer girdida aylanmish davriga qarab sanaladi. Shunga binoan har kelajak yangi yil eski yilga nisbatan o'n kun-o'n kun oldin keladi.

Ramazon hijriy-qamariy yillar to'qqizinchi oyi bo'ladi.

Demak, Laylatulqadr har yili bir vaqtda kelmaydi. Turli kechalarda keladi. Ramazon oyi oxirgi toq kechalarida keladi. Xususan, o'n yettinchi, o'n to'qqizinchi, yigirma birinchi, yigirma uchinchi kechalarda keladi. Ko'pincha, ramazonning yigirma yettinchisida keladi.

Laylatulqadr kelajak kecha mo'min musulmonlar nimaniki tilasalar, tilaklari bajo bo'ladi. Orzu-umidlari ushaladi.

7

Otamiz-da, onamiz-da, Laylatulqadrni... ulug‘ bir zot, deb o‘yladi!

— Laylatulqadr har bandasinikiga-da kela bermaydi, momosi, — dedi otamiz. — U kishi O‘zi suygan bandalarnikiga keladi. Kimda-kim bus-butun ro‘za tutsa, ana shu bandanikiga qadam ranjida qiladi.

Otamiz ramazon kechalarini sanab ro‘za tutdi.

Necha-necha kechalar bedor o‘tdi.

Otamiz ko‘z ilmayajak kechalar bo‘ldi.

Onamiz kiprik qoqmayajak kechalar bo‘ldi.

O‘zlari to‘shakda bo‘ldi, bor vujudlari tashqarida bo‘ldi. Quloqlari ding bo‘ldi.

Laylatulqadrni cho‘chitib yubormasinlar uchun yo‘talmay yotdi. Ohista-ohista gapirishdi. Tiq etmish tovush chiqarishmadi.

Eshiklar bilan derazalarni lang-lang ochib qo‘ydilar...

Ramazon-da oxirladi.

Mo‘min musulmonlar ro‘zalarini ochdi.

Ramazon hayiti bo‘ldi.

Onamiz chayindi-tarandi, o‘ziga oro berdi. Hayitlik liboslarini kiydi.

Qabriston yo‘l oldi. Ota-onasi boshiga bordi. Ota-onasi qabriga chiroq yoqdi: paxta tolasini eshib-eshib, pilik qildi. Zig‘ir moyga belab oldi. Cho‘p uchiga o‘radi. Cho‘pni qabr bag‘riga qadadi. Gugurt bilan pilik uchini yoqdi.

Pilik uchi lip-lip yondi.

Onamiz lip-lip yonmish pilikka termuldi...

Onamiz onasi rahmatlikni yodladi, onamiz otasi rahmatlikni yodladi.

Yodlab-yodlab yig‘ladi...

Onamiz ota-onasi boshidan qaytarda duch kelmish yetim-yesirni qutladi.

— Hayitingiz qulluq bo‘lsin! — dedi.

Yetim-yesirlarga bir so‘m-bir so‘mdan hayitlik berdi.

Otamiz-da ozoda kiyimlarini kiydi. Jiynoq bo'lajak hovuz bo'yiga yo'l oldi.

Yo'lida uchramish mo'min-musulmonlarni qutladi, beva-bechoralarni qutladi.

— Hayitingiz qulluq bo'lsin! — dedi.

Beva-bechoralar qo'liga uch so'm-uch so'mdan hayitlik berdi.

Otamiz beva-bechoralar duosini oldi.

Bekatlarda o'tirmish xokisor bandalarni qutladi, uch so'm-uch so'mdan hayitlik berdi.

Otamiz xokisorlar duosini oldi.

Hovuz bo'yida g'uj bo'lib turmish bolalarni ko'rdi. Bolalar nisholda tevaragida uymalandi. Bildi, bolalarning tangasi yo'q, bo'lsa, nisholda olib yeyar edi.

Otamiz bolalarga bitta-bittadan nisholda olib berdi.

Bolalar nisholda yalay-yalay tarqaldi, otamizga qaray-qaray tarqaldi.

Otamiz bolalar duosni oldi.

Yo'l-yo'lakay hamsoya-qo'llarni hayit bilan muborakbod etib keldi.

— Laylatulqadr kelaman desa, ramazon deb o'tirmay, kela beradi, momosi... — dedi otamiz.

— Aytganlari kelsin, bovasi... — dedi onamiz.

8

Onamiz to'lishib-to'lishib qoldi. Yonoqlarida sepkil toshib-sepkil toshib qoldi.

— Oymomoning bo'yida bo'pti, ko'z tegmasin.

— Yaratganning o'zi nolasini eshitibdi, kech bo'lsayam beribdi.

— Farzandning erta-kechi bo'ladimi.

— Ishqilib, eson-omon qutulib olsin.

Onamizni ko'rmishlar ana shunday dedilar!

Aslida... unday emas!

Ayol zoti chinakam farzand dog'ida kuysa... farzandni qalban orzu qilsa... xuddi bo'yida bo'lmishday to'lishadi! Ayol ruhiyati shunday, ayol tani shunday, ayol qalbi shunday!

Tabiat ayolni farzand uchun yaratadi.

Farzand— ayol baxti bo'ladi, shon-sharafi bo'ladi, yuz-xotiri bo'ladi!

Ona— ayol zoti uchun oliydan oliy martaba bo'ladi!

9

Onamiz dardi ichida bo'ldi. Birovga sir bermadi.

O'tirdi-o'tirdi. Robiya hamsoyasinikiga o'tdi.

Hamsoyasi ayvonda o'g'lini osmonga otib o'ynadi. Har otishida go'dak qiyqirib-qiyqirib kuldi.

Onamiz ko'zi tandirga qiy tashib yurmish qizda bo'ldi. Ana, o'sha yig'loqi chaqaloq, ana! Do'pposday qiz bo'ldi!

Onamiz qizga tikildi-tikildi, ich-ichida shunday dedi:

"Big'-big' qilmaganingda... qizimning otini bilib olar edim..."

Hamsoyasi go'dagini beshikka beladi. O'g'li tilidan aytdi:

— Ay momo, meni tebratib turing, enam non yopib kelsin.

— Katta bo'lsam, men ham qizingizning beshigini tebrataman.

— Aytganing kelsin... — dedi onamiz.

Hamsoyasi tandirga qarab ketdi.

Onamiz beshik tebratdi.

Chaqaloq onamizga qarab-qarab kuldi.

Onamiz-da kuldi.

— Ha, kulishni-da bilasanmi? Kulishni-ya? — iyak silkidi. — Kul, kula ber!..

Chaqaloq mimit qo'llarini shunday peshonasida osilmish tumorga uzatib-uzatib kuldi. Og'zida bitta-da tishi bo'lmadi!

Onamiz beshikka engashdi. Shunda... shunda, dimog'i go'dak isini tuydi...

Onamiz umrida gullar, barglar isidan bahra oldi. Turfa ko'katlar, taomlar isidan bahra oldi. To'yib-to'yib iskadi.

Ammo... go'dak isidan tarovatlisini ko'rmadi, go'dak isidan hayotbaxshini ko'rmadi!

Ay, go'dak islari, go'dak islari-ay!..

Go'dak ko'zlari ilinib-ilinib ketdi. Momomiz ko'zlarini yumib, beixtiyor dimog'ida alla aytdi:

Alla-alla, ahdi bor-a, alla-yo, alla-yo,
Uyquning ham vaqti bor-a, alla-yo, alla-yo,
Alla aytgan enangni, alla-yo, alla-yo,
Qop-qoraygan baxti bor-a, alla-yo, alla-yo.

Allada Sherobod dashtlariday inqillab yotmish ko'ngil nolasi bo'ldi.

Ko'ngil dardi bo'ldi, armoni bo'ldi. Ko'ngil fojiasi bo'ldi!..

Dasht-u dalada uzum, alla-yo, alla-yo,
Uzganimni kim bilar-a, alla-yo, alla-yo,
Hasrat-u armon bilan, alla-yo, alla-yo,
Jon berganimni kim bilar-a, alla-yo, alla-yo...

Onamiz ko'kraklari uchida igna sanchilmishday-igna sanchilmishday bo'ldi.

Onamiz kafti bilan ko'kraklarini siladi. Siladi-siladi, birdan... chap ko'kragini changalladi. Changalladi-changalladi... Chayqaldi-chayqaldi... Ketiga shilq etib tushdi...

Onamiz ko'kragiga... sut keldi.

10

— Hamsoya, so'rab edingiz, keldilar, ko'zingizni oching.

Onamiz ko'zlarini ochdilar...

Otamizga termildilar. Za'faron yuzlari yorishdilar. So'niq ko'zlari xiyol oydinlashdilar. Ma'yus tabassum berdilar.

Barmoqlarini qimirlatib-qimirlatib, otamiz qo'lini izladilar.

Otamiz titramish qo'lini kaftlari orasiga oldilar.

Onamiz yuzlari tag'in-da yorishdi. Otamiz kaftlarini his etdilar-da!

Onamiz ko'zlarini yumib-ochdilar, yumib-ochdilar...

Otamiz sokin o'tira berdilar.

Shunda, ayollardan birovi otamizni turtdi.

Otamiz turtmish ayolga qaradilar. Ana shundagina nima gapligini tushundilar...

Ko‘ngillari orziqib-orziqib ketdilar...

Otamiz, onamiz yuzlariga egildilar.

— Momosi, mendan rozi bo‘l, momosi... — dedilar. — Ko‘zingni och, momosi, mendan rozi bo‘l...

Onamiz tag‘in ko‘zlarini yumib-ochdilar, yumib-ochdilar...

Bilinar-bilinmas bosh qimirlatdilar...

Otamiz o‘kirib yubordilar...

11

Ayollar ovoz berdilar:

— Voy, hamsoyam-e, hamsoyam-e!..

Onamiz bir kecha mehmon bo‘ldilar. Bir uy ayollar qurshovida yotdilar.

Ichkarida ayollar onamiz tevaragida halqa bo‘lib, sadr tushdi.

Tashqarida erkaklar uy tevaragini aylanib-aylanib yig‘ladi.

Aytib-aytib yig‘ladi:

— Xolamov-v, xolamov-v!..

— Opamov-v, opamov-v!..

— Ammamov-v, ammamov-v!..

Chor tarafga chopar ketdi. Chopar qishloq ko‘chalari bo‘ylab jar soldi:

— Xaloyiq, barchangiz Qoplon qorovulnikiga janozaga! Bu hammaning boshida bor savdo, xaloyiq!..

12

Odamlar oqib-oqib kela berdi. Uy odamlar qurshovida qoldi. Odamlar onamizni yodladilar.

— Bechorani ellikni qariblagan ayol deb bo‘lmas edi.

— Ikki yuzi qip-qizil anorday edi.

— So‘ramoqdan ayb yo‘q, bechora nechada ketibdi?

— Qirq sakkizda, deyishayapti.

— Shunday, ellikni qariblab boribdi.

— Endi, ellikda deb duo oladi-da?

— Shunday-shunday, ellikda deb duo beriladi.
— O‘zi, bemorxonada deyishib edi-ku?
— Do‘xtir, olib ketinglar, odam bo‘lmaydi, debdi...

13

Yosh-yalanglar momomlab-momomlab yig‘ladi:

Osmondagi qirq yulduz
Qiyalab ketadi botgani.
Voy momom-ovv, momom-ovv!
Men momomni bir o‘payin,
Qiyomat ketadi yotgani.
Voy momom-ovv, momom-ovv!..

Yoshi qaytmishlar onamlab-onamlab yig‘ladi:

Hovlimiznnng tolini
Tobut bo‘lsin, debmidik?
Voy enam-ovv, enam-ovv!..

14

Uvol-savobchi ayollar uylarni bir-bir qaradi. Uylarda to‘shalmish gilamlarni ko‘tarib-ko‘tarib ko‘rdi.

Bir uy osti taxtasiz yer bo‘ldi.

Ayollar ana shu taxtasiz uy gilamini yig‘ib oldi. Uy o‘rtasiga bo‘yra to‘shadi. Ikki obtova suv olib keldi.

Ayollar onamizni kaftlarida olib keldi. Ana shu bo‘yra uzra yotqizdi.

Uvolchi ayol obtovada suv quydi, savobchi ayol... onamizni yuvdi! Boshdan adoq yuvdi. Silab-siypab yuvdi...

Ayollar onamizni oppoq surpga o‘rab-o‘rab oldi. Kaftlarida tobutga yotqizdi.

Onamiz so‘nggi manzillariga... so‘nggi manzillariga pok-pokizagina bo‘lib jo‘nadilar.

15

Tobutga-da oppoq surp yopildi.

Bu, yoshini yashab o'tdi, alomati bo'ldi.

El tobut poyida... onamiz poyida tizilib-tizilib janoza o'qidi.

Tobut... onamiz el kaftida qalqib-qalqib jo'nadi.

El tobutga... onamizga talpindi. Tobutni... onamizni kaftida ko'tarib borish niyatida bo'ldi. Aqalli qo'lini tekkizib borish payida bo'ldi.

El tobut ketidan... onamiz ketidan qabriston bordi.

16

Onamiz lahadga qo'yildi.

Mozorga tuproq tortildi. Tuproqqa chim bosildi.

Odam boshi bir so'mdan isqot berildi.

Bir dastro'moldan oq yirtish berildi.

Domla qabr boshida qiroat bilan-qiroat bilan Qur'on o'qidi:

— Auzu billahi minash shaytonir-rojim. Bismillahir-rohmanir-rohim! Tabarokal-lazi biyadihil mulku va huva ala kulli shayin qodir. Allazi xolaqol mavta val hayata liyabluva kum ayyukum ahsanu amala. Va huval azizul-g'ofur allazi xolaqo sab'a samavatin tibaqo. Ma taro fi xolqirrohmani min tafavut. Farji'il basaro hal taro min futur. Summar jiil basar. Karrotayni yaqolib ilaykal basaru xo siav va huva xasir (Toshbo'ron qilingan shaytondan Ollohning panohiga sig'inaman. Behad rahmli, nihoyatda mehribon Olloh nomi bilan! Egalik qo'lida bo'lmish zot ulug' bo'ldi. Va u har narsaga qodir. Ul zotiki yaratdi hayotni va mamotni. Imtihon qilish uchun qaysinisi amal jihatdan yaxshiroq. Va u g'olib mag'firotlik, qaysiki yaratdi yetti osmon tabaqasini. Ko'rmaysan Olloh yaratishida biror kamchilik. Tikkin ko'zingni. Ko'rasanmi biror yoriq. So'ngra tikkan ko'zingni qayta-qayta. Qaytadi ko'zing senga noumid bo'lib va tolib).

Yuzlarga fotiha surtildi.

Tuproqdan yaralmish onamiz, tag'in tuproq bo'lib ketdilar!

VII

Qoralar ariq yoqalab-ariq yoqalab kela berdi.

— Ketganga o'xshaydilar, ko'rinmayaptilar.

— Yo'q, hali ketmaganlar. Yonboshlab yotgan bo'lsalar kerak.

Ma'shuq ovoz bobomizga tanish tuyuldi. E'tibor bilan eshitdilar.

— Manavi yerga o'tiraylik.

— Sabr qil, qo'lro'mol bilan o'tlarni artib tashlayin, ana, endi o'tir.

— Uh, pidananing isini. Yulmang, bizdan keyin ham keladiganlar bor. Isini kaftimda olib beraman. Mana, iskang.

— Yo'q, qonmadim. Uchlarini silkib yubor.

Bobomiz hayrat bilan yoqa ushladilar...

"O', tavba, ma'shuq ovoz hamsoyasi Mengto'raning qizi bo'ldi. U buyoqda nima qilib yuribdi? Yo... Yo'g'-e! U hali go'dak-ku. Darrov-a? Aytib bo'lmaydi, qiz bola shayton bo'ladi. U yoqdan bu yoqqa qaraguncha bo'y beradi..."

Oshiq ovoz bobomizni haminqadar hayron qoldirdi.

Oshiq ovoz momomiz akasining o'g'li bo'ldi...

Jimjitlik bo'ldi. Ma'yus kulgi bo'ldi.

— She'r o'qib berayinmi? Yaqinda yodlab oldim. Qara, eshit:

Yorishmoqda olis chek ham,
Tong fusunkor, suluv biram,
G'azal yanglig' jarangdor dam,
Yangroq havo esingdami?

Sukunat bo'ldi. Qo'lingiz muncha qattiq, demish ovoz bo'ldi. Ovoz erkali bo'ldi. Ginadan ko'ra, minnatdorlikka moyil bo'ldi.

Boshlanar to'rg'aylar kuyi,
Tabiatning tonggi to'yi,
Yorug' ro'yo esingdami?

Bobomiz beixtiyor bosh irg'adilar. Oydin rangi, ko'k yo'ng'ichqa bo'yi, baytdan kayflari chog' bo'ldi.

— Qara, tag'in bir she'r o'qib berayin.

Baytlar g'amza bilan o'qildi.

Xayollari, o'ylari qo'ynidagi bobomiz, xushvaqtliklari, ruhiy hayitlari qo'ynidagi bobomiz baytlarni eshitmadilar. Adir betidagi qop-qora yong'oqqa termildilar. Yuksaklanib ketmish Vaxshivor qirlariga, Keragatog' cho'qqilari bag'rida elas-elas oqarib ko'rinmish oppoq qorga tikildilar.

Baytlarning so'nggi misrasini eshitdilar.

Bobolarim birin-ketin suyak surib o'tgan yer,
Momolarim sochlarini qirqta o'rib o'tgan yer.

Yuzlarida, ko'ngillarida yorug' tabassum o'ynadilar.

— Hay-hay-hay... — deya pichirladilar.

— Bunday bemahalda qolib ketmasdilar-ku? — dedi oshiq.

— Ketgilari kelmayapti, shekilli, — dedi ma'shuq.

— Ko'ngillari buzilib o'tirgandir.

— Kechroq enam, bobongning mol-hollariga qarayin deb, darichadan qaytib keldi. O'zlari qarayotgan ekanlar, vayron ko'ngillarini battar vayron qilmayin deb bormadim, dedi.

— Otam, har oqshom momongnikiga borib mol-holga qara, dedi.

— Oqshomlari borsak, bir-birimizga gap qo'shmaymiz, maylimi? Bo'lmasa bilib qoladilar.

— Mayli.

— Qorong'ilatib adir aylanamiz...

— Momomiz qazo qilganidan buyon televizor, radio qo'ymaymiz.

— Biz ham qo'ymaymiz.

— Enam qora kiyib yuribdi.

— Mening otam bir quti yangiroq kiyimini kiyib shaharga bormoqchi bo'lib edi, enam urishdi, odammisiz o'zi, dedi. Otam farosatsizligidan o'zini koyib, yana qora kiydi.

— Biz ham qora kiyimlarimizni kiyib yuribmiz.

— Enam taqinchoqlariniyam sandiqqa solib qo'ydi.

— Ukalarim oqshomlari ashula aytib o'ynardi, enam urishdi. Azalimiz, bovang eshitib qolsa, kim degan odam bo'lamiz, dedi.

— Endi momomizning qirqi o'tguncha shunday bo'ladi.

— Bovamiz bu yoqlarga kelib yurishimizniyam bilarmikinlar? — dedi ma'shuq.

— Bilmasalar kerak, — dedi oshiq.

— Momomizning vafoti kuni sen ham yig'ladingmi?

— Bo'lmasam-chi, uyni aylanib, momomlab yig'ladim.

— Men enamlab yig'ladim.

— Qara, ketibdilar.

— Yuring, Sayrak adirga endi biz chiqamiz...

Oshiq-ma'shuq qo'zg'oldi. Ariq yoqalab yurdi.

Bobomiz ko'ngillari yorishdi. To'lqinlandilar. O'tirishlarini-da, turishlarini-da bilmadilar. Ketlariga xiyol chayqalib, ko'zlarini yumdilar. Entikib-entikib nafas oldilar. Kiyimlari o'zlariga torlik qilayotganday bo'ldilar. Yoqalarini ko'tarib-ko'tarib, ko'kraklarini shamollatdilar.

Joylaridan avaylab turdilar. Etaklarini qoqdilar. O'tira berib qotib qolmish qaddilarini rostlash uchun bellariga qo'llarini tiradilar.

Adirlamish oshiq-ma'shuqlardan ko'z uzmadilar. Suqlanib-suqlanib qaradilar...

Beixtiyor... beixtiyor qishloqqa borajak so'qmoqdan yo'l soldilar...

— Momosi, men ularni ko'rdim... — dedilar. — Men senga aytib edim-u, Hazrati Xizr yuzimizdan o'tolmaydi deb!..

Bobomiz oyoq ildilar.

Sayrak adirga qayrilib qaradilar.

Bobolarim birin-ketin suyak surib o'tgan yer,
Momolarim sochlarini qirqta o'rib o'tgan yer...

Bobomiz boshlarini egganlaricha turib qoldilar!

— Momosi, yur, ketamiz... — dedilar.

Bobomiz yo'llarida imillab, bir-bir bosib davom etdilar.

Shunda, Sayrak adirda... hassasi... qarilik hassasi qolib ketganini esladilar.

— Mayli, ularga qolsin... — deya qo'l siltadilar.

Boshlari g'uvullab, o'zlarini majolsiz his qildilar. Ko'z o'nglari g'imirladi.

Oydinlar to'lqinday chayqaldi. Oydinlar to'lqinday mavjlandi.

Bobomiz xasta qalblari o'rtandi, g'arib qalblari o'rtandi. Ko'zlari yoshga to'ldi. Ko'z yoshlari oyday oppoq soqollariga sizib tushdi.

— Momosi, men ularni ko'rdim. Ular bayt aytdi, eshitayapsanmi, bayt!.. — dedilar.

Bobomiz ko'z oldilari oydinlandi. Tag'in Sayrak adirga qayrilib qaradilar.

Sayrak adirda ikkita qora qoldi.

Biri oshiq, biri ma'shuq bo'ldi.

Oshiq bilan ma'shuq bir ikkita bo'lib qoldi, bir bitta bo'lib qoldi...

Bobomiz jilmaydilar.

— Ana, bizning bolalarimiz, — dedilar. — Hazrati Xizr bovajonim, umringizdan baraka toping!..

Bobomizning jilmaymish yonoqlaridan betinim yoshlar sizdi.

Momomiz vafotidan keyin ko'z yoshlari qurib qolganday bo'lib edi. Qaylarda yotib edi, shashqator yoshlar?

Shashqator yoshlar bobomiz lablariga sizdi, iyaklariga sizdi.

Bobomiz ko'z yoshlarini yenglari bilan artib oldilar. Adirdan ko'z uzmadilar.

— Ana, bizning nevaralarimiz! — dedilar. — Qulluq, Hazrati Xizr bovajonim, qulluq!

Bobomiz ko'ngillaridan nimalardir toshib kela berdi.

Bu toshqinni qayg'u desak-da bo'ladi, xushvaqtlik desak-da bo'ladi.

Bobomiz ko'ngillaridan qayg'uli xushvaqtlik o'ksib-o'ksib kela berdi.

— Yur, ketdik, momosi, endi biz kelmaymiz... — dedilar.

Ko'zlari kulmish bobomiz, yuzlari kulmish bobomiz, yonoqlari kulmish bobomiz, lablari kulmish bobomiz tantana qildilar.

— Bu adirlar bizniki! — dedilar.

O'ksiklar zarbidan yelkalari silkina berdi.

— Bu oydinlar bizniki! — dedilar.

Ko'ngillari tinmayin o'ksimish bobomiz, yelkalari tinmayin silkinmish bobomiz so'nggi bor, so'nggi bor oyoq ildilar. Qomatlarini adl tutdilar.

Sayrak adir, adirda o'tirmish o'g'il-qizlariga tantana bilan qaradilar.

Bobolarim birin-ketin suyak surib o'tgan yer,
Momolarim sochlarini qirqta o'rib o'tgan yer...

Bobomiz so'qmoqdagi so'nggi qadamlarini bosa-bosa, oydindagi so'nggi so'zlarini ayta-ayta, yo'llarida davom etdilar:

— Endi ketsak mayli!..

1980

MUNDARIJA

O‘tkir Hoshimov

O‘tkir Hoshimovning tafakkur dunyosi *(Umida Rasulova)* 4
Tushda kechgan umrlar *(Roman)*..... 10

Tog‘ay Murod

Tog‘ay Murodning qo‘shiqlari *(Said Ahmad)* 266
Ot kishnagan oqshom *(Qissa)*..... 270
Oydinda yurgan odamlar *(Qissa)* 391

O‘ 90 O‘tkir Hoshimov, Tog‘ay Murod [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar Luqmon Bo‘rixon, Ma’suma Ahmedova, Farrux Jabborov. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 536 b.
ISBN 978-9943-8569-4-3

UO‘K 821.512.133-31
KBK 84(5O‘)-44

...AT UNIVERSITETI
...URG‘ANCH
...AXBOROT-RESURS MARKAZI
KV. № 198785,44
2023 y.

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

O‘TKIR HOSHIMOV

TOG‘AY MUROD

27-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *To‘xtamurod Hasanboyev*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Gulchehra Gulyamova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^1/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 33,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 31,60.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 95-1/22 Buyurtma raqami № 22-310

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

O'TKIR HOSHIMOV

TOG'AY MUROD